


349.6
E-34

EKOLOGIYA HUQUQI

DARSLIK



O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
2017-yil 24-avgustdag'i 603-sonli buyrug'iiga asosan darslik sifatida nashr
etish uchun tavsiya etilgan

UDK:67.407

E 40

KBK:67.407

Ekologiya huquqi Darslik // Mas'ul muharrir: yuridik fanlar
doktori, professor J.T.Xolmo'minov.
– Toshkent: TDYU, 2018. -366 b.

Taqribchilar:

1. Djakbarov S.A. – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga
Qonunchilik palatasi deputati, Ekoharakat deputatlar guruhi a'zosi
2. Xabibullayev D.Y. – Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi kafedrasi mudiri,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Mazkur darslik ekologiya qonunchiligiga oid so'nggi o'zgartish va
qo'shimchalarni inobatga olgan holda tayyorlangan. Unda ekologiya
huquqi asoslari tizimli ravishda bayon etilgan, har bir tabiiy resursni
muhofaza qilish va undan foydalanishning huquqiy holatiga alohida e'tibor
qaratilgan, bu esa ekologiya huquqining o'ziga xos xususiyatlarini ochib
bergan. Darslikda ushbu sohada ro'y bergan nazariy va amaliy yangiliklar
atroflicha qamrab olingan, unda bir qator yangi va dolzarb mavzular ham
yoritilgan.

Darslik ushbu mutaxassislik bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar,
magistrantlar, o'qituvchilar, shuningdek tabiiy resurslardan maxsus
foydalanuvchilar hamda tabiatni muhofaza qilish organlari xodimlari
uchun mo'ljallangan.

ISBN:978-9943-380-74-5

© Mualliflar jamoasi, 2018.
© Toshkent davlat yuridik universiteti, 2018.

349.6
E-37

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

EKOLOGIYA HUQUQI

(DARSLIK)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan
“Yurisprudensiya” yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim oladigan talabalarga darslik
sifatida tavsiya etilgan.

УИБ: 014804 (30)
АКТ

TOSHKENT – 2018

MUALLIFLAR JAMOASI:

Bozorov U.B. y.f.n., dots. – 3-bob (Nurmatov M.M. y.f.n., dots. bilan hammualliflikda);
Xolmo'minov J.T. y.f.d., prof. – kirish, glossariy, 9-, 11-, 19-boblar,
(13-bob Mallayev N.R. y.f.n., dots. bilan hanimmualliflikda), (18-bob Aripov D.O'.
y.f.n. va Babanazarov K.R. y.f.n. bilan hammualliflikda);
Jurayev Y.O. y.f.d., prof. – 1, 2- boblar, (4-bob Mamadaliyev B.X. bilan
hammualliflikda);
Usmonov M.B. y.f.d., prof. – 10-bob (Uzakova G.Sh. y.f.n. va Musayev B.T. bilan
hammualliflikda);
Fayziyev Sh.X. y.f.d., prof. – 7-bob;
Skrinikov N.K. y.f.n., dots. – 5-bob (Mirzaabdullayeva M.R. y.f.n., dots. bilan
hammualliflikda);
Mirzaabdullayeva M.R. y.f.n., dots. – 5-bob (Skrinikov N.K. y.f.n., dots. bilan
hammualliflikda), 12-boblar;
Narzullayev O.X. y.f.n., dots. – 15-, 20-boblar;
Umarov D.M. y.f.n. – 16-bob;
Uzakova G.Sh. y.f.n., – 10-bob (Usmonov M.B. y.f.d., prof. va Musayev B.T. bilan
hammualliflikda), 17-bob (Safarov J.I. y.f.n. bilan hammualliflikda);
Rajabov N.Sh. y.f.n., dots. - 6-bob;
Nurmatov M.M. y.f.n., dots. – 3-bob (Bozorov U.B. y.f.n., dots. bilan
hammualliflikda), 8-boblar;
Maxkamov D.N. y.f.n. – 14-bob (Kurbanov E.R. bilan hammualliflikda);
Safarov J.I. y.f.n. – 17-bob (Uzakova G.Sh. y.f.n. bilan hammualliflikda), 21-bob;
Musayev B.T. – 10-bob (Usmonov M.B. y.f.d., prof. va Uzakova G.Sh. y.f.n. bilan
hammualliflikda);
Mamadaliyev B.X. – 4-bob (Jurayev Y.O. y.f.d., prof. bilan hammualliflikda);
Kurbanov E.R. – 14-bob (Maxkamov D.N. y.f.n. bilan hammualliflikda);
Mallayev N.R. y.f.n., dots. – 13-bob (Xolmo'minov J.T. y.f.d., prof. bilan
hammualliflikda);
Aripov D.O'. y.f.n. – 18-bob (Xolmo'minov J.T. y.f.d., prof. va Babanazarov K.R.
y.f.n. bilan hammualliflikda);
Babanazarov K.R. – 18-bob (Xolmo'minov J.T. y.f.d., prof. va Aripov D.O'. y.f.n.
bilan hammualliflikda).

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
GLOSSARY.....	9
Umumiy qism	
1-bob. Ekoliya huquqi tushunchasi, predmeti va metodlari.....	14
2-bob. Ekoliya huquqi manbalari, tamoyillari va tizimi	32
3-bob. Tabiiy resurslarga nisbatan inulk huquqi	43
4-bob. Insomning ekologik huquq va majburiyatlari	58
5-bob. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasida boshqaruvning huquqiy tartibi.....	71
6-bob. Ekologik me'yorlash, standartlashtirish va sertifikatlashtirishning huquqiy asoslari.....	88
7-bob. Ekologik ekspertiza va nazoratning huquqiy holati.....	104
8-bob. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy mexanizmini huquqiy ta'minlash	120
9-bob. Ekologik qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik	137
Maxsus qism	
10-bob. Yerlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishning huquqiy tartibi	154
11-bob. Suvlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishning huquqiy tartibi	171
12-bob. Yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qiliishning huquqiy tartibi ..	190
13-bob. Atmosfera havosini huquqiy muhofaza qilish	204
14-bob. O'rmon va o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishning huquqiy tartibi	222
15-bob. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishning huquqiy tartibi	241
16-bob. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy maqomi	258
17-bob. Aholi punktlari va xo'jalik faoliyatida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish	285
18-bob. Chiqindilar va xavfli ashyojar bilan muomala qilishni huquqiy tartibga solish.....	301
19-bob. Favqulodda ekologik vaziyatlar va hududlarning huquqiy rejimi	314
20-bob. O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro hamkorligi	334
21-bob. Xorijiy mamlakatlarda atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish	350
TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR	364

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi mutanosiblikning buzilishi, demografik vaziyatning o'zgarishi, ayniqsa iqlim o'zgarishida yuz berayotgan jarayonlar atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa dunyoning ko'pgina mintaqalarida tabiiy muvozanatning buzilishiga, ya'ni ona sayyoramizdagi harorat darajasi ko'tarilishiga, doimiy muzliklar egallagan maydonlar qisqarishiga, umumiy suv sathi ko'tarilishiga, yer, suv resurslari va atmosfera havosi ifloslanishiga, yerlar degradatsiyasi jarayoni kuchayishiga, nabotot va hayvorot olamining noyob namunalari hamda o'rmonlar kamayib ketishiga olib kelib, hozirgi kundagi global ekoologik muammolarni keltirib chiqarmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov bu masalaga alohida e'tibor qaratib: "Ekolgiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir"¹, – degan edi.

Alchida ta'kidlash joizki ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammolarini ham hal qilishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlар strategiyasi² ham mazkur sohada alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida "Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar to'g'risida so'z yuritar ekannuz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o'tolmaymiz. BMT Bosh kotibining "suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o'zaro chambarchas bog'liq", degan

¹Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida T.6. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – B.110.

²O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017–2021-yillarda "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlар strategiyasi" <http://strategy regulation.gov.uz/uz/document/2>

pozitsiyasini to'la qo'llab-quvvatlaymiz. Ishonchim komil, suv muammosini hal qilishning mintaqasi mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo'li yo'q. O'zbekiston BMTning preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi tomonidan ishiab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzaları suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi konvensiyalar Ieyihalarini qo'llab-quvvatiaydi. Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor e'tiboringizni qaratmoqchiman.. Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko'rghan aholiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to'liq amaiga oshirilishi tarafdomiz³ deb ko'rsatilishi bugungi kundagi ekologik muammolarni hal qilishning zamonaviy yondashuvini ham ko'rsatib berdi.

Hozirda barqaror rivojlanib borayotgan O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ekologik siyosat natijasida ekologik inqirozning zararini kamaytirish, yangi inqiroziy jarayonlarning oldini olish yuzasidan qattiq va keskin chora-tadbirlar qo'llash imkoniyatiga ega bo'lган, zamon talabi darajasidagi atrof-muhitni muhofaza qilish tizimi yaratilgan. Ushbu tizim jamiyat va tabiat o'rtaqidagi muvozanatni saqlab qolish, fuqarolarning qulay atrof-muhitda yashashini va ekologik xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiat boyliklarining butligi va muhofazaga olinganligini kafolatlaydigan tashkiliy-huquqiy mexanizm hisoblanadi. Mazkur mexanizmining amalga oshirilish jarayoni ko'p jihatdan ekologik qonunchilik tizimi va holatidan kelib chiqadi.

Ana shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev tashabbusi va bevosita rahbarligida qabul qilingan 2017-yil 21-apreldagi "Ekalogiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5024-sonli, 2017-yil 11-maydag'i "O'zbekiston Respublikasi o'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi, 2017-yil 31-may "Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodizya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni ta'tibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 16-noyabrdagi "Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmati ko'rsatish sohasida to'lov intizomini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari va 2017-yil 18-yanvardagi "2017–2021-yillarda Orolbo'yini mintaqasini rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida"gi, 2017-yil

³Xalq so'zi. –2017. –20-sentabr.

21-apreldagi “Ekalogiya va atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2915-sonli, 2017-yil 21-apreldagi “2017–2021-yillarda maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2916-sonli, 2017-yil 4-maydagi “2017–2021-yillarda yer osti suvlar zaxiralaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2954-sonli, 2017-yil 5-sentabrdagi “Suv obyektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 8-noyabrdagi “Energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3379-sonli qarorlari ekologik muammolarning zamonaviy yechimini ko‘rsatib beradigan huquqiy asosdir.

Shundan kelib chiqqan holda ekologiya sohasidagi miiliy qonunchilik tizimini takomillashtirish yo‘nalishida pirovard natijalarga erishish uchun hozirgi zamon talablariga javob beradigan malakali yuridik kadrlarni tayyorlash talab etiladi. Aynan shu kabi maqsadlar ko‘zlangan **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining** 2013-yil 28-iyundagi PQ-1990-sonli “Yuridik kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2017-yil 28-apreldagi PQ-2932-sonli “Toshkent davlat yuridik universitetida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlariga muvofiq zamonaviy yuridik fanning yutuqlarini, davlat-huquqiy, sud, huquqni muhofaza qilish huquqni qo‘llash sohalaridagi demokratik o‘zgarishlar tajribasini inobatga olgan holda huquqiy fanlar va predmetlar bo‘yicha yangi avlod darsliklari tayyorlanishi ko‘zda tutilib, yuridik ta‘lim tizimining fundamental negizini tubdan isloh qilish va yaxshilash poydevori yaratildi. Shu ma’noda mazkur “Ekologiya huquqi” darsligi ham yuqorida maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasiда “Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma’muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yesh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin”⁴ deb to‘g‘ri ta‘kidlagan edi.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi. –2017. –13-iyul.

Shundan kelib chiqqan holda ushbu o'quv darsligining asosiy vazifasi bo'lajak yuridik kadrlarda tahliliy fikrlash, yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallash va ulardan foydalanish, ekologiya huquqini, ekologik huquqiy tartibga solish amaliyoti nazariy asoslarini, ularni ishlab chiqarish amaliyotida qo'llash ko'nikmasini shakllantirishdan iboratdir. Bu esa qonunlarni takomillashtirish, ularni amaliyotda qo'llash mexanizmini mukammallashtirish, pirovard natijada qonun ustuvorligining jamiyat hayotidagi o'rnnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Darslik umumiy va maxsus qismlardan tashkil topgan.

Darslik ekologiya qonunchiligiga kiritilgan so'nggi o'zgartish va qo'shimchalar, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlari, tegishli Davlat dasturlari talablari inobatga olingan holda tayyorlangan. O'ylaymizki, ushbu darslik hurmatli kitobxon va aziz o'quvchi/arga ekologiya sohasidagi bilimlarni kengroq egallahsga yordam beradi.

GLOSSARIY

Atrof tabiiy muhitning sifati – tabiatda, tabiat va inson orasida meddaiar va energiyaning almashuv jarayonini doimo ta'minlab turuvchi va hayotni qayta tiklashni kafolatlovchi ekologik tizimlarning holati.

Atrof-muhitni ifoslantirish manbai – ishlab chiqarish jarayonida atrof-muhitga tushadigan moddalar yoki moddalar yig'indisi tufayli paydo bo'ladigan ifoslantiruvchi antropogen obyekt.

Atrof-muhitni taxminiy xavfsiz ifoslantirish darajasi (TXTD) – sanoat obyektlarini loyihalash uchun hisoblash metodi bilan belgilangan atmosferani ifoslantiruvchi moddaning vaqtinchalik normativi.

Baliq ovlash – baliq va umurtqasiz suv hayvonlarini tutish baliq ovlash hisoblanadi.

Davlat qo'riqxonasi – alohida ilmiy yoki madaniy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan noyob va qimmatbaho hayvonlar hamda o'simliklarning yashash joyi hisoblangan oddiy yoki noyob tabiiy majmualar.

Davlat tabiat yodgorliklari – noyob, o'mini to'ldirib bo'lmaydigan, ekologik, ilmiy, madaniy va estetik jihatdan qimmatli tabiiy obyektlari muhofaza etiladigan hududlar.

Davlat biosfera rezervatlari – hududlarni barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish maqsadida davlat biosfera rezervatlari – biologik rang-baranglikni saqlash, tabiiy obyektiar va majmualardan oqilonan foydalanish uchun mo'ljallangan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.

Yer uchastkasi – yer fondining qayd etilgan chegaraga, maydonga, joylashish manziliga, huquqiy holatiga hamda yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning davlat yer kadastrida va davlat ro'yxatiga olish hujjalarda aks ettiriladigan boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan qismidir.

Yerlarning ifoslanishi – yerlarga salbiy ta'sir qiluvchi va ularga yot bo'lgan fizik, kimnyoviy va biologik moddalarning qo'shilishi natijasida yer (tuproq)da kechayotgan tabiiy modda va energiya almashinuvining buzilishi oqibatida ekotizimlarda salbiy o'zgarishlar yuz berishidir. Yerlarning ifoslanishi tabiiy – vulqonlarning otilishi, yer qimirlashi, sel kelishi, sunamilar kabi tabiiy jarayon va hodisalar orqali hamda antropogen – insonlarning xo'jalik faoliyati natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Ifoslanish – atrof tabiiy muhit sifatining keskin o'zgarishiga, o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlarining nobud bo'lishiga va inson salomatligiga putur yetkazuvchi zararli moddalar, biologik organizmlar chiqarish va unga fizik ta'sir ko'rsatish.

Konsentratsiyaning cheklangan miqdori (KCHM) – odam organizmida reflektor reaksiyalarni paydo qilmasligi uchun kerak bo’lgan havo, suv va tuproqning konsentratsiyasi

Qizil kitob – bu yo’qolgan yoki yo’qolish aralasida turgan, yo’qolib borayotgan, kamyob va kamayib borayotgan o’simlik va hayvonot dunyosining genofondini saqlab qolish maqsadida tashkil etilgan ma’lumotlar ro’yxati (reyestri).

Qonunchilikni ekologizatsiyalash – xo’jalik, rekreatsiyaviy va atrof tabiiy muhitga ta’sir ko’rsatuvchi boshqa faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy normalar, normativ-huquqiy hujatlarda ekologik ahamiyatdagi qoida va talablarni joriy etish, aniqlashtirish va rivojlantirish.

Qo’riqlanma zonalar – Davlat qo’riqxonalari, majmua (landshaft) buyurtma qo’riqxonalari, buyurtma qo’riqxonalar, davlat tabiat yodgorliklari va milliy bog’lar bilan chegaradosh hududlar.

Majmua (landshaft) buyurtma qo’riqxonalari (zakazniklar) – alohida ekologik qimmatga ega bo’lgan tabiiy obyektlar va majmualarni asl holatida saqlash uchun mo’ljallangan, davlat qo’riqxonalariga nisbatan huquqiy rejimi birmuncha yumshoqroq bo’lgan muhofaza etiladigan tabiiy hudud.

Milliy bog’lar – alohida ekologik, ilmiy, madaniy va estetik ahamiyatga ega bo’lgan, o’simliklarning noyob va qimmatli, shu jumladan manzarali turlarini saqlab qolish, takror ko’paytirish va tabiatni muhofaza qilish, rekreatsiya, ilmiy va madaniy maqsadlarda oqilona foydalanishga mo’ljallangan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.

Muhofaza etiladigan hududlar – yerning va (yoki) suv kengliklarining, (akovatoriyalarning) ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog’lomlashtirish ahamiyatiga molik bo’lgan, xo’jalik maqsadidagi doimiy yoki vaqtincha foydalanishdan to’liq yoki qisman chiqarilgan uchastkalari.

Ov qilish – tabiiy erkinlik holatida yashaydigan yovvoyi hayvonlarni tutish maqsadida izlash, iziga tushish va quvlab borish, tutishga intilish yoki tutish (otish, tutib olish).

Oqovaning yo’l qo’yiladigan cheklangan miqdori (OCHM) – nazorat punktida suv sifati normalarini ta’minlash maqsadida vaqt birligi hisobiga ushbu punktda belgilangan rejimda ajralishiga maksimal yo’l qo’yiladigan oqova suvlardagi moddalar miqdori.

Sanitariya himoya zonası – aholi yashaydigan va tashkilot orasidagi maxsus ajratilgan o’simlik va yalanglik zonası, ifloslantiruvchi moddalar konsentratsiyasining zararsiz norma (kvota)gacha tarqalib ketishini ta’minlaydigan hudud.

Tabiiy resurslardan foydalanish limitlari – tabiiy resurlardan foydalanishning yoki iste'mol qilishning yo'l qo'yiladigan me'yirlari.

Tarixiy va madaniy yodgorliklar – jamiyat va davlatning taraqqiyoti, xalq hayotidagi tarixiy voqeliklar bilan bog'liq bo'lgan inshootlar, yodgorlik joylar va predmetlar, tarixiy, ilmiy, badiiy yoki boshqa madaniy qimmatga ega bo'lgan moddiy va ma'naviy ijod mahsuli.

Tashlamalarning cheklangan miqdori (TCHM) – atmosfera havosi uchun belgilangan, yo'l qo'yiladigan cheklangan kvotadan oshmaydigan yer ustidagi konsentratsiyalarini shakllantiruvchi, vaqt birligi hisobiga to'g'ri keladigan tashlamalardagi ifloslantiruvchi moddalar miqdori.

Ta'sir ko'rsatish – insoularning iqtisodiy, rekreatsion, ijtimoiy-madaniy manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan va tabiiy muhitni fizikaviy, kimyoviy va biologik o'zgarishlariga olib keluvchi antropogen faoliyati.

Texnik jihatdan erishiladigan ko'rsatkichlar – oqova suvlarni ifloslantiruvchi moddalardan tozalash qurilmalarining texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda oqova suvlarning ko'rsatkichlari.

O'rmon – o'rmon fondiga ajratilgan, davlat ro'yxatiga olingan, xalq xo'jaligi, tabiatni saqlash (ekologik) va boshqa maqsadlarda foydalilanadigan daraxtlar, butalar kabi turli o'simliklardan tarkib topgan tabiat obyekti majmui.

O'simlik dunyosi – O'zbekiston Respublikasi hududida tabiiy muhitda o'sadigan yoki sun'iy yaratilgan sharoitlarda yetishtiriladigan barcha turdag'i yovvoyi o'simliklar majmui.

O'simlik dunyosini muhofaza qilish – o'simlik dunyosining yashash faoliyati uchun qulay sharoitlarni ta'minlashga, uning yo'q qilib yuborilishi yoki unga boshqacha zararli ta'sir ko'rsatilishining oldini olishga qaratilgan faoliyat.

Botanika kolleksiyasi – ilmiy, madaniy-ma'rifiy, o'quv-tarbiyaviy va estetik ahamiyatga ega bo'lgan, yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar yashash faoliyati mahsulotlarining tizimlashtirilgan to'plami (gerbariyalar, urug'lar) hamda sun'iy yaratilgan sharoitlarda (botanika bog'larida, dendrologiya bog'larida, pitomniklarda, plantatsiyalarda va boshqalarda) yetishtiriladigan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar.

Yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning yashash faoliyati mahsulotlari – yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning yashash faoliyati natijasida hosil bo'lgan ildizlar, piyozboshlar, tanalar, poyalar, novdalar, po'stloq, barglar, g'unchalar, gullar, urug'lar, mevalar, sharbat (yelim) va boshqa mahsulotlar.

Hayvonot dunyosi – O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtincha yashayotgan barcha turdag'i yovvoyi hayvonlar majmui.

Chiqindilarni joylashtirish limiti – muayyan muddatda joylashtirish uchun ruxsat etilgan chiqindilarning cheklangan miqdori.

Chiqindilarni utilashtirish – chiqindilardan qimmatbaho komponentlarni ajratib olish yoki ikkilamchi xomashyo, yoqilg‘i, o‘g‘itlar va boshqa maqsadlat uchun foydalanish.

Ekologik standartlashtirish – vakolatlari davlat organlarining ekologik standartlarini belgilash. ularga rioya etish ustidan nazoratni olib borish bo‘yicha faoliyati.

Ekologik inqiroz – bu ekologik tizimda modda va energiya almashinuvining tabiiy holatda kechishining buzilishi yoki modda va energiyaning kichik va katta aylanish jarayonlarining ma‘lum bir bosqichdagi uzilishi.

Ekologik madaniyat – hozirgi va kelajak avlodlar uchun ekologik muammolarning yechimini topish va ekologik xavfsizlikka erishish har bir inson hayotida ulkan mas’uliyat ekanligini anglash va shu asosda faoliyat yuritish.

Ekologik me’yor – bu tabiiy resurslardan foydalanish, atrof tabiiy muhitga zararli ta’sir ko‘rsatishni tartibga soluvchi huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan texnik ko‘rsatkich (hujjat).

Ekologik me’yorlash – davlat organlarining atrof tabiiy muhit sifatini, tabiiy resurslardan foydalanish hajmini va boshqa ko‘rsatkichlarini belgilash bo‘yicha faoliyati.

Ekologik munosabat – tabiatni muhofaza qilish, uni sog‘lomlashtirish, yaxshilash va tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanishda kelib chiqadigan, kishilarning harakat yoki harakatsizliklarini belgilovchi ijtimoiy munosabat turi.

Ekologik omillar – tirik organizmlarning yashash muhitini belgilovchi va unga ta’sir etuvchi komponentlar.

Ekologik ong – bu har bir insonning hayoti va faoliyatida atrof tabiiy muhit uning yashash makoni ekanligini anglash darajasi.

Ekologik sertifikatlashtirish – mahsulot, ishlarni atrof tabiiy muhit holatiga zararli ta’sir ko‘tsatmaslik darajasini aniqlaydigan uslub. ishlab chiqarilgan mahsulot yoki bajarilayotgan ishlarni belgilangan standartlar va boshqa me’ylarga mos kelishini aniqlaydigan jarayon.

Ekologik tanglik – xalqaro hamjamiyat, davlat va jamiyat tomonidan global, mahalliy va regional miqyosdagi ekologik muammolar yechimini topishning qiyinlashuvi.

Ekologik tizim – tabiat qonuniyatlariga monand ravishda o‘zaro uzviy funksional bog‘langan tirik organizmlar va ularning yashash muhit elementlari yig‘indisi.

Ekologik xavfsizlik – organizmlar va ularning yashash muhitini tabiiy va antropogen omillar ta’siri tufayli turli miqyosda va tezlikda yuzaga keluvchi salbiy holatlardan saqlanganlik darajasi.

Ekologiya – tirik organizmlarning yashash muhitini bilan bo‘ladigan munosabati haqidagi fan.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi – vakolatli davlat organlarining tabiiy resurslardan foydalanish va atrof tabiiy muhitni muhofaza etish bo‘yicha ijro etish va farmoyish berish faoliyati.

Ekologiya huquqi – tabiat bilan jamiyat o‘rtasida paydo bo‘ladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tomondan tartibga solishni o‘rganuvchi fan.

Suv iste’molchilari uyushmasi – yuridik shaxs bo‘lgan suv iste’molchilari tomonidan suvga doir munosabatlar sohasidagi o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek umumiyl manfaatlarini ifodalash va himoya qilish uchun ixtiyoriy asosda tashkil etiladigan nodavlat notijorat tashkiloti.

Suv iste’molchisi – o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun suv obyektidan suv resurslarini belgilangan tartibda oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Suv obyekti – suvlar doimiy ravishda yoki vaqtincha to‘planadigan va suv rejiminining o‘ziga xos shakllari va belgilari bo‘lgan tabiiy (jilg‘alar, soylar, daryolar va boshqalar) hamda sun’iy (ochiq va yopiq kanallar, shuningdek kollektor-drenaj tarmoqlari) suv oqimlari, tabiiy (ko‘llar, dengizlar, yer ostining suvli qatlamlari) va sun’iy (suv omborlari, sel suvlari to‘planadigan joylar, hovuzlar va boshqalar) suv havzalari, shuningdek buloqlar va boshqa obyektlar.

Suvdan foydalanuvchi – suv resurslarini suv obyektidan olmagan holda ulardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Transchegaraviy suvlar – ikki va undan ortiq davlatlar chegaralarini kesib o‘tadigan yoki shunday chegaralarda joylashgan har qanday yer usti yoki yer osti suvlari.

1-BOB. EKOLOGIYA HUQUQI TUSHUNCHASI, PREDMETI VA METODLARI

Atrof tabiiy muhitni huquqiy muhofaza qilish zaruriyatini belgilovchi global faktorlar. Ekologiya huquqi: shakllanishi va tushunchaviy asoslari. Ekologiya huquqi predmeti va metodlari. O'zbekiston Respublikasida yangi ekologik siyosat huquqiy asoslarining yaratilishi va rivojlantirilishi

Atrof tabiiy muhitni huquqiy muhofaza qilish zaruriyatini belgilovchi global faktorlar.

Hozirgi davrda **global ekologik muammolar** insoniyatga katta tashvish tug'dirmoqda. Go'yoki yadro urushi xavfi ekologik muammolar "soyasi"da qolib ketgandek. Ularga qarshi kurashish har bir davlat va, albatta, bashariyat jamoatchiligining dolzarb vazifasi deb qaraladi. Xo'sh, gap qanday global ekologik muammolar to'g'risida bormoqda?

1. Iqlim (klimat) o'zgarishi. Iqlim o'zgarishining salbiy oqibati sifatida yer shari haroratining ko'tarilishi, ya'ni isib ketishiga olib kelishi bashorat qilinmoqda. Iqlimning isib ketishiga atmosferaga begona gazlarning, ayniqsa, SO (is gazi)ning chiqarilishi sabab bo'lmoqda.

Ilmiy taxminlar va xulosalarga e'tibor bering!

Olimlarning aytishicha, is gazining molekulalari yer shari yuzasiga Quyoshdan kelayotgan issiqlikning yuqoriga ko'tarilishini to'sadi, havoni dimiqtiradi va isitib yuboradi. Bu hodisani fanda "parnik (issiqlik) effekti", deb atashadi. Parnik ichkarisidagi issiqlik sun'iy ravishda ushlanib qoladi. Unda odam uzoq tursa, havo yetishmaydi, terlab ketadi. Atmosferadagi "parnik" esa uning isishiga olib keladi. Natijada qutb muzliklari erishi boshlanib, okeanlar suvi ko'tariladi, Orol va qirg'oqqa yaqin davlatlarni (masalan, Angliya, Kuba, Singapur, Indoneziya va h.k.) suv bosishi mumkin. Olimlar hozirda dunyo tabiatida shunday o'zgarishlar yuz berayotganligini isbotlamoqda.

Iqlimi o'zgarishi hozirda dunyo davlatlari zimmasiga tegishli tashkiliy, huquqiy va boshqa vazifalarni bajarishni vazifa qilib qo'yimoqda. Shundan kelib chiqib davlatlar o'z ekologik siyosatini va qonunchiligini rivojlantirishga harakat qilmoqda. O'zbekiston davlati ham iqlim o'zgarishiga qarshi ichki choralarini ko'rish bilan birga ushbu masalada

xalqaro hamkorlikka ham faol qo'shilgan va bir nechta xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan. Masalan, "Iqlim to'g'risida"gi Rio-de-Janeyro (1992) konvensiyasiga qo'shilgan.

Ma'lumot uchun!

Hozirda 70% dan ortiq "parnik" gazlarini 15 ta davlat chiqaradi. Ular orasida AQSH (17%), Xitoy (15%), MDH (13%) va boshqa davlatlar bor.

2. Ozon qatlamining yemirilishi. Ozon qatlami atmosferaning yuqori qatlamida joylashgan bo'lib, Quyosh nurlari bilan birga yerga keladigan, tirik majudotlar uchun xavfli bo'lgan ultrabinafsha nurlarini qaytarib turadi. Ozon qatlami yerda hayot mavjudligining garovidir. Biroq bu qatiam keyingi yillarda katta xavf ostida qolgan. Butun dunyo metrologiya tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda Ozonning Antarktida tepe sidagi qismida o'lchami Yevropa qit'asiga teng keladigan "tuynuk" hosil bo'lgan.

Ozon qatlamining yemirilishiga sanoatda qo'llaniladigan xlorfitoruglerod (freon) sabab bo'lmoqda. Umuzxonalarining sovutgichlari, aerozolli purkagichlarda, havo konditsionerlari va boshqa shunga o'xshagan narsalarda ishlataladi. Freon uchuvchan bo'lgani uchun ham havo qatlamidan yuqori ko'tarilib, Ozon zarrachalarini "o'ldiradi".

Ma'lumot uchun!

Ozon qatlamini muhofaza qilish masalasi bo'yicha Vena xalqaro konvensiyasi (1985) va uning Montreal (1987) va boshqa protokollari qabul qilingan bo'lib, ularga O'zbekiston ham qo'shilgan va tegishli hukumat qarorlari qabul qilingan. Mazkur hujjatlarga binoan ozon yemiradigan moddalarni ishlata digan davlatlar ularni ishlatishni kamaytirishlari va to'xtatishlari kerak.

3. Kisletali yomg'irlar. Dunyo tabiatni kislotali yomg'irlar ham "yemirimoqda". Bunday yomg'irlarning asosiy manbalari qazib olinayotgan yoqilg'ilarning issiqlik va energiya olish maqsadida yoqishdan hosil bo'lgan chiqindi gazlar hisoblanadi. Oqibatda dunyoning ko'p joylarida o'rmonlar qurib qolmoqda, suvlarning ifloslanishi natijasida baliq zaxiralari yo'qolib ketmoqda. Vujudga kelgan ekologik va iqtisodiy zarar juda katta bo'lmoqda.

4. Cho'l bosishi. Iqlimning isib ketayotganligi yog'ingarchilikning kamayishi, suv manbalarining qurib qolishiga olib keladi.

Ilimiy taxmin va xulosalarga e'tibor bering!

Cho'l bosishi natijasida cho'l zonalarining ko'lami kengayib, insoniyat suvli joylarga to'planadi. Bu katta ijtimoiy va resurs tangliklariga olib keladi. Cho'l bosishiga misol qilib Orol dengizining qurib boryotganligini aytish mumkin

5. Biologik xilma-xillikning kamayib ketishi. Biologik xilma-xillik tabiatning o'zida yuz berayotgan jarayonlar va inson faoliyatining salbiy oqibatlari natijasida ro'y bermoqda. O'sindik va hayvonot dunyosining kamayib ketishi atrof-muhitda ko'p salbiy oqibatiarni keltirib chiqaradi Biologik xilma-xilliksiz tabiat "hayoti"ni tasavvur qilib bo'lmaydi.

6. Aholi o'sishi (demografik faktor). Keyingi o'n yilliklarda dunyo aholisi o'sish sur'atlarini Xitoy va Hindiston davlatlaridagi ahvol bilan tushuntirish ma'qulroq.

Aholining ko'payib ketishi, qolaversa, inson iste'mol miqdorining ko'payishi va ratsionining kengayishi tabiatning imkoniyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi, tabiiy resurslar kamayishiga olib keladi.

Ilimiy taxmin va xulosalarga e'tibor bering!

Aholining ko'payishi, o'z navbatida, shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko'payishiga, ekin yerlari va chuchuk suvlarning kamayishiga, ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilarining ko'payishiga olib keladi.

G'oyaviy-rahbariy asos va manbalarni o'rGANING!

O'zbekistonda xo'jalik faoliyati tufayli tabiatga yetkazilgan salbiy ta'sir va uning oqibatlarini bartaraf qilish masalalari

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimov asarlarida katta e'tibor bilan yoritilgan. Uning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va rivojlanish kafolatlari" nomli asarida sobiq tuzum tomonidan tabiatga nisbatan ko'r-ko'rona va ochko'zlarcha olib borilgan iste'molchilik siyosati oqibatida vujudga kelgan noxush oqibatlar aniq va to'liq ta'riflab berilgan⁵.

⁵ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.
–T., O'zbekiston, 1997. – B. 119.

Ekoliya huquqi shakllanishi va tushunchaviy asoslari

O'zbekiston huquq tizimida Ekoliya huquqi jadal shakllanayotgan va rivojlanayetgan huquq tarmog'i idir. Uning jozibadorligi va dolzarbligi O'zbekistonda tabiat boyliklari va ekologik muaminolarga alohida e'tibor berilayotganligi bilan hamnafas bog'liqidir.

Ekoliya huquqi shakllanishining o'ziga xos tarixi mavjud. O'tgan asrning 50-yillari oxirida tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishga taalluqli ijtimoiy munosabatlarni maxsus tartibga soluvchi qonun hujjatlarini qabul qilish boshlangandi. Shunga ko'ra 60–70-yillarda olimlar huquq tizimida tabiatni huquqiy muhofaza qilish sohasini tartibga soladigan huquq tarmog'i kelgusida shakllanishi to'g'risida ilmiy g'oyalarni olg'a surdi.

Esda tuting!

Ekoliya huquqi dastlab "Tabiatni huquqiy muhofaza qilish", deb nomlangan. Keyinchalik u "Atrof muhitni huquqiy muhofaza qilish" deb ham atalgan. 80-yillardan boshlab uning shakllanishi "Atrof tabiiy muhit huquqi" yoki "Ekoliya huquqi" degan ikki xil nom bilan davom etgan. O'zbekistonda tabiatga taalluqli fundamental Qonun "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", deb atalsa ham, ya'ni Qonunning nomida "ekoliya" atamasi bo'lmasa-da, ushbu sohadagi huquq tarmog'i va fanining Ekoliya huquqi deyish odatga aylangan.

Ekoliya huquqi shakllanib kelayotgan huquq taromog'i idir. Bunday huquq mavjud bo'lmasidan avval "Yer huquqi" rivojlangan. Biroq hozirda Ekoliya huquqining shakllanishi Yer huquqini inkor etmaydi. Aksincha, Ekoliya huquqi bilan birga, Suv huquqi, O'rmon huquqi, Yer qa'ri-kon huquqi, Hayvonot (fauna) muhofazasi huquqi, Atmosfera muhofazasi huquqi kabi mustaqil huquq tarmoqlari ham mavjud va ular rivojlanmoqda. Agar kelajakda yer, yer osti boyliklari, suv va h.k. qonunchilik birlashtirilib, yagona Ekologik kodeks qabul qilinsa, tom ma'noda Ekoliya huquqi to'liq shakllandidi deb hisoblash mumkin.

№18/014804 (30)

AZU

Esda tuting!

Ekologiya huquqi tarkibi

1. Umumiy institutlar:

- mult huquqi
- foydalanish huquqi
- davlat boshqaruvi va nazorati
- iqtisodiy-huquqiy mexanizmlar
- yuridik javobgarlik

2. Tabiiy resurslar huquqi:

- yer huquqi
- suv huquqi
- yer qa'ri-kon huquqi
- o'rmon huquqi
- hayvonot muhofazasi huquqi
- atmosfera muhofazasi huquqi

“Ekologiya” grek tilidagi “oikos” va “logos” atamalarining birgalikdagi ifodasidan olingan bo'lib, “oikos” – “uy”, “yashash joyi”, “yashash muhiti”, “logos” – “ta'lilot” degan ma'noni anglatadi.

Esda tuting!

“Ekologiya” atamasini birinchi bo'lib nemis zoologi E.Gekkel 1866-yilda “Organizmlarning umumiy morfologiyasi” degan kitobida qo'llagan. “Ekologiya” atamasi dastlab tirik organizmlarning o'zaro va o'zining yashash muhiti bilan aloqadorligini ifodalash uchun ishlatilgan. Keyinchalik u kishilik jamiyatining atrof-muhit bilan aloqadorligini ifodalaydi bo'ldi. Taraqqiyot va ilm-fan rivojlanishi bilan “ekologiya” atamasining go'llanishi ham o'zgarib, ma'nosi kengaydi.

Ko'pinchalik qonunchilikda, ilmiy adabiyotlarda va amaliyotda “tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish” ifodasi qisqariltirilgan holda “atrof muhit muhofazasi” yoki “ekologiya” deb, ataladi. Kundalik hayotda “ekologiya” atamasini ishlatish “moda”ga aylangan. Biroq “ekologiya” atamasini ko'chma ma'noda qo'llash ham tez-tez uchrab turadi. Masalan, “uy ekologiyasi”, “ekologik madaniyat”, “yurist-ekolog”, “ekologiya burchagi”, “ekologiya bog'i” va h.k.

Hozirgi paytda “**ekologik xavfsizlik**” degan tushunchani qo’llash “moda”ga aylanmoqda. Qizig’i shundaki, “ekologik xavfsizlik” tushunchasi tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish ifodalarini bilan birgalikda yoki “ekologiya”, “tabiatni muhofaza qilish” tushunchalarining sinonimi sifatida ham ishlatalmoqda. “Ekologik xavfsizlik” bilan “ekologiya (atrof-muhitni muhofaza qilish)”ni bir-biridan farqlash lozim.

Esdə tuting!

Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan ekologik xavfsizlikning obyektlari bir-biridan farq qiladi. Atrof-muhitni muhofaza qilishda faoliyat obyekti bo’lib, atrof-muhit (tabiat) tan olinadi, ekologik xavfsizlikning obyekti esa inson va jamiyatdir.

Ilmiy-huquqiy tushuncha. **Ekologik xavfsizlik**, deb tabiiy (stixiyali) ofatlar (yer qimirlashi, toshqin, sel kelishi, ko’chki) yoki texnogen favqulodda hodisalar (avariya, portlash, yong’in va h.k.)dan himoyalanish va uning oqibatlarini bartaraf etishga aytildi.

Ekologik xavfsizlikni tavsiflovchi yuridik belgilar quyidagilardan iborat:

- ekologik xavf hodisasi (ofat, falokat) to’satdan ro’y berishi va u favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqarishi;
- bunday hodisada atrof tabiiy muhitga katta yoki halokatli zarar yetkazilishi;
- atrof tabiiy muhitning halokatli holati, sifatining buzilishi, zaharlanishi, nobud bo’lishi nafaqat atrof-muhitga, balki insonlar sog’lig’i va hayotiga katta zarar yetkazadi;
- favqulodda ekologik vaziyat yuz berganda tegishli hududda maxsus tabiiy ofat yoki ekologik vaziyat zona (tegra)si, deb e’lon qilinishi;
- tabiiy resurslardan foydalanish va insonning boshqa huquqlari cheklanishi (to’xtatilishi) mumkin;
- ekologik xavf hodisasi (favqulodda vaziyat) ni boshqarish va xavfni bartaraf etish Favqulodda vaziyatlar vazirligining ustuvor vakolatiga kiradi.

Atrof-muhitda to’satdan vujudga kelishi mumkin bo’lgan yoki vujudga kelgan xavf ekologik xavf deb, undan himoyalanish esa ekologik xavfsizlik deb ataladi. Ekologik xavfsizlikda inson va jamiyatning atrof-muhitdagi xavfdan halokatli jabr ko’rishining oldini olish va yuz bergen ofatini bartaraf etish amalga oshiriladi.

Fundamental tushuncha

Shunday qilib, ekologiya tushunchasini “ekologik xavfsizlik” tushunchasi bilan bir xil deb tushunmaslik kerak. Agar ta’bir joiz bo’lsa, ekologik xavfsizlikni Ekoliya huquqining tarkibidagi mustaqil institut, deb tushunish mumkin.

Huquqiy tushuncha. Qonunchilikdagi tushunchalarga ko’ra butun tabiat (atrof-muhit) uchga bo’linadi:

- tabiat obyektlari;
- tabiiy resurslar;
- tabiiy majmualar.

Esda tuting!

Yagona tabiat bir nechta obyektlarga bo’linadi va yaxlitlanadi. Ular olti xil: **yer, yer osti boyliklari, suv, o’simlik dunyosi, hayvonot dunyosi va atmosfera havosi.** Har birining alohida huquqiy maqomi mavjud.

Tabiat obyektlarining alohida huquqiy maqomga ega bo’lishiga O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 55-moddasida belgilangan qoida “sababchi”dir. Unga ko’ra yer, yer osti, suv, o’simiik va hayvonot dunyosi alohida sanab o’tilgan. “Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida”gi Qonunga (1992) binoan atmosfera havosi ham tabiat obyekti, deb alohida ko’rsatilgan. Tabiat obyektlari turlarga bo’linganligi uchun ham ular atrofida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlар yaxlitlanadi va alohida tarzda tartibga solinadi. Shu bois yerning huquqiy munosabatlari, suvning huquqiy munosabatlari va boshqa tabiat obyektlariga taalluqli huquqiy munosabatlар bir-biridan farqlanib, alohida mavjud bo’lgan huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Bunda yer qonunchiligi, suv qonunchiligi, o’rmon qonunchiligi, hayvonot muhofazasi qonunchiligi, havo muhofazasi qonunchiligi farqlanadi.

Esda tuting!

Har bir tabiat obyektiga taalluqli mustaqil qonunchilik bazasi: yer huquqi, kon huquqi, suv huquqi, o’rmon huquqi, hayvonot (fauna) muhofazasi huquqi, atmosfera muhofazasi huquqi kabi alohida huquq tarmoqlari mavjud. Differensiyalashgan bu huquq tarmoqlari ham Ekoliya huquqi bilan birga rivojlanmoqda.

Har bir tabiat obyektiga taalluqli mazkur huquq tarmoqlari o'zlar mustaqil bo'lishlari bilan birga. **Tabiaty resurslar huquqini** tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda, ular Ekologiya huquqining tarkibiga kiradi.

Fundamental tushuncha	Ekologiya huquqi integratsiyalashgan majmuaviy (kompleks) huquq hisoblanadi. U yagona Ekologiya kodeksi sifatida qabul qilinganda Mehnat huquqi, Jinoyat huquqi, Fuqarolik huquqi va shunga o'xshash huqnqlardek tom ma'noda mustaqil huquq tarmog'iga aylanadi.
------------------------------	--

Demak, Ekologiya huquqining tarkibida alohida tabiat obyektlariga taalluqli mustaqil qonunchilik va huquq tarmoqlari mavjud ekan.

Tabiat obyektlari muhofaza qilinish rejimiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

- umurniy tarzda, ya'ni xo'jaik foydalanishidan chiqarilmasdan muhofaza qilinadigan;
- alohida (konservatsiya) tarzda, ya'ni xo'jalik foydalanishidan chiqarilib (qisman yoki to'liq), muhofaza qilinadigan (qo'riqxonalar, tabiat buyurtmalari, milliy tabiat bog'lari).

Tabiat (atrof-muhit) ning jamiyat tomonidan foydalanilayotgan yoki foydalanishga jalb etilishi mumkin bo'lgan boyliklari tabiiy resurs (zaxira) lar deb ataladi. Resursdan inson hozirda yoki kelajakda o'z ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanadi.

Esda tuting!	Resurslar tugaydigan va tugamaydigan turga bo'linadi Shuningdek, qayta tiklash mumkin bo'lgan va tiklab bo'lmaydigan resurslarga ajratiladi. Masalan, yer osti boyliklari tugaydigan va qayta tiklab bo'lmaydigan resurslar hisoblanadi. O'rmonlar tugaydigan resurslar bo'lsa ham, uni qayta tiklash mumkin. Keyingi 150 yil ichida hayvonot dunyosining 200 dan ortiq turi tiklab bo'lmaydigan darajada qirilib ketgan.
---------------------	---

O'simlik dunyosining foydalanishga yaroqli qismini resurs, deb hisoblash mumkin. Yer osti boyliklarining aniqlangan va istiqbolda foydalanish ko'zda tutilgan zaxiralarini resurs deyish mumkin.

Bundan tashqari, tabiatdagi ayrim uchastkalar noyob, ilmiy-ekologik qimmatliklarga ega bo'lganligi sabab alohida muhofaza qilish uchun xo'jalik muomalasidan chiqariladi. Masalan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar shular jumlasidandir. Ularni resurs deb bo'lmaydi. Ular tabiiy majmualar deb ataladi.

Ekologiya huquqi predmeti va metodlari

Ekologiya huquqini tushunish uchun uning predmetini bilish zarur. Ekologiya huquqining predmeti tabiat (atrof-muhit)ga taalluqli ijtimoiy munosabatlardir. Ekologiya huquqi tabiat bo'yicha kishilar orasida vujudga kelgan munosabatlarni tarti'oga soladi. Huquq bilan tartibga solinganligi uchun bu munosabatlar **ekologik huquqiy munosabatlar** deb ataladi. Mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy asoslar **ekologik qonunchilik** deb nomlanadi.

Ekologik huquqiy munosabatlar tabiatga taalluqli qaysi jahhalardagi munosabatlarni qamrab oladi?

Fundamental tushuncha. Ekologiya huquqi predmetini ikki xil tarzda ta'riflasa bo'ladi: keng ma'noda – **inson va jamiyatning atrof-mubit bilan aloqalarida** vujudga keladigan munosabatlari. Tor ma'noda – **tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish** borasidagi munosabatlardir.

Ekologiya huquqi predmetining asosiy masalasi tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilishni huquqiy tartibga solishdir.

Ekologiya huquqi predmetiga kiradigan huquqiy munosabatlar turlari

Faoliyat yo'nalishlari bo'yicha	Tabiat obyektlari bo'yicha
<ul style="list-style-type: none">• atrof-muhitga xo'jalik faoliyati salbiy ta'sirining oldini olish, kamaytirish va uning oqibatlarini bartaraf etish• tabiat obyektlaridan tejamkorlik bilan foydalanib, ularning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolish va yaxshilash• kamyob va yo'qolib ketayotgan tabiat resurslarini ko'paytirish va qayta tiklash	<ul style="list-style-type: none">• yer huquqiy munosabatlari• suv huquqiy munosabatlari• yer qa'ri-kon huquqiy munosabatlari• o'rmon huquqiy munosabatlari• hayvonot muhofazasi huquqiy munosabatlari• atmosfera muhofazasi huquqiy munosabatlari

Ekologiya huquqini tushunishda u tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlarning obyekularini nazardan o'tkazish ham katta ahamiyat kasb etadi. Ekologik ijtimoiy munosabatlarning obyekti deb shunday munosabatlar vujudga kelishiga sababchi bo'lgan asosga aytildi. Qonunchilikka ko'ra obyekt "tabiat", "atrof-muhit" yoki "atrof tabiiy muhit", "ekologik muhit", deb ataladi. Ilmiy adabiyotlarda "tabiat" bilan "atrof-muhit" atamalarining o'rtaida farq borligi ko'rsatilgan.

Esda tuting!

Qonunchilikka binoan "tabiat" va "atrof-muhit" atamalari orasida unchalik farq bo'lmasa-da, ularning tabiiy-ilmiy va yuridik tushunchalari bir-biridan farq qiladi.

Ma'lumki, ilmiy-hayotiy (yuridik bo'Imagan) ma'noda tabiat, deb insonni o'rabi turgan tabiiy holdagi moddiy dunyo obyektlari va tizimlari tushuniladi. Tabiat – bu Yer shari, Quyosh, Fazo va boshqalarni o'z ichiga olgan butun Borliqdir.

Yuridik tushuncha. Tabiat yoki tabiat obyektlari tushunchalari yuridik ma'noda farqlanadi. Ularning yuridik tushunchasi ilmiy-hayotiy tushunchaga qaraganda tor. Bunda tabiat tushunchasi insonning amaliy foydalana olishga yoki ta'sir ko'rsatishiga qurbi (imkoniyati) yetganligi bilan cheklanadi. Boshqacha qilib aytganda, inson va jamiyatning atrof-muhit bilan o'zaro aloqaga kirishish holatining mavjudligi yuridik ma'noda tabiat (atrof-muhit)ni anglatadi. Masalan, quyosh yoki dovul insonga ta'sir o'tkazadi, lekin inson ularga ta'sir o'tkaza olmaydi. Biror bir hujjat qabul qilib, ulardagi jarayonlarni tartibga sola olmaydi. Shu bois ularni yuridik ma'noda tabiat, deb bo'lmaydi.

Yuridik ma'noda tabiat deb qaralishi uchun obyekt inson mehnatining mahsuli bo'lishi yoki inson mehnati (sarmoyasi)ga bog'lanib qolgan bo'lishi kerak emas. Demak, yuridik ma'noda tabiat deb tan olinishi uchun obyekt, eng avvalo, tabiiy vujudga kelgan va tabiiy mavjud bo'lishi lozim.

Esda tuting!

Ayrim hollarda inson tomonidan yaratilgan, lekin keyinchalik tabiatga "qo'shilib ketgan" obyektlar ham tabiat deb tushunilishi mumkin. Masalan, sun'iy yaratilgan o'rmon, "qo'lda" boqilib (ko'paytirilib) so'ngra tabiiy suv havzasiga chiqarib yuborilgan baliqlar, sun'iy yaratilib, tabiiy kuchlar ta'siriga bog'liq bo'lib qolgan suv manbai (ko'l, suv ombori va h.k.)

Shunday qilib, yuridik ma'noda tabiat (atrof-muhit) deb qaralishi uchun obyektlar quyidagi belgilarga ega bo'lishi kerak:

- tabiiy vujudga kelishi yoki sun'iylikdan tabiiylikka o'tishi;
- tabiiy stixiyali kuchlar ta'siridan chiqib qolmaganligi;
- ekologik (tabiiy) uzviy bog'liqlikda bo'lishi.

Tabiat (atrof-muhit) obyekti	
yuridik belgi	ilmiy-tabiiy tushuncha
Tabiiy vujudga kelishi yoki sun'iylikdan tabiiylikka o'tishi	Tabiat – bu inson atrofini o'rabi turgan moddiy dunyo, ya'ni yer, suv, daraxtlar, quyosh, fazo, shamol v.b.
<p>Misol: Fermer xo'jaligining boshlig'i o'z dalasiga ekilgan olma daraxtlarini kesgan shaxsni javobgar qilish va zararni undirib olish uchun Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi inspektorini taklif qildi. Inspektor olma daraxtlari tabiiy vujudga kelgan obyektlarga kirmasligini aytib, aybdorni ekologik huquqbuzarlik sodir qilganlikda ayblab bo'lmasligini aytadi.</p> <p>Misol: Zarafshon davlat qo'riqxonasida ko'paytirilib, so'ngra to'qayzorga chiqarib yuborilgan Buxora bug'ularidan birini Fuqaro M. tutib olib, nobud qildi. Fuqaro davlat mulkini o'g'irlashda emas, balki tabiiy jonivorni noqonuniy ov qilganlikda ayblandi.</p>	<p>Istisno. Fentezi davlati o'z suvereniteti to'g'risidagi Konstitutsiyada yozilgan qoidalarni o'zgartirib, uning hududiga Oyning Katta ayiq krateri ham kirishini belgilab qo'ydi. U "Oydagi hududdan foydalanish va uni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun qabul qilib, Oydagiga hududga taalluqli munosabatlarni tartibga solishni belgilab qo'ydi.</p> <p>Istisno. Yaponiya davlati Kamchatkadagi "Ключая сопка" vulqonining otilishini tartibga soladigan dasturni taklif etishdi. Dasturga ko'ra vulqonning otilishini ma'lum bir vaqlarda amalga oshirish mumkin bo'lar ekan.</p>

Yuridik ma'noda tabiat yoki tabiat emas, deb hisoblashning ahamiyati katta. Masalan, tabiat yoki tabiat bo'lmagan obyektlarga qarshi sodir etilgan huquqbazarliklar ikki xil ma'noda baholanadi: sun'iy qo'lda boqilayotgan baliqlarni tutish o'zganing mulkini noqonuniy o'zlashtirish deb baholansa, tabiiy ko'lda yashayotgan baliqlarni noqonuniy tutish esa noqonuniy baliq ovlash bo'lib, bu **ekologik huquqbazarlik** hisoblanadi.

Esda tuting!

Ekologik huquqiy munosabatlar to'g'risida gapirganda "tabiatdan foydalanish" va uni "muhofaza qilish" ni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Ularni bir tanganing ikki tomonidek tasavvur etish lozim. Masalan, yerlardan foydalanish deganda, ularni muhofaza qilishni ajratib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ekologiya huquqini atrof-nuhitni muhofaza qilish deb tor tushunish mumkin emas.

Ilmiy-yuridik tushunchani yodda saqlang!

Huquqning metodlari deganda, ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir qilish vositalari tushuniladi. Boshqacha aytganda, huquq normalari orqali davlat ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilari xulq-atvoriga ta'sir qilish vositalari huquq metodlari deyiladi.

Ekologik huquqiy tartibga solishda asosan **ma'muriy-huquqiy** va **fuqarolik-huquqiy** metodlardan foydalaniladi

Ma'muriy-huquqiy metod davlat majburlovini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning qo'llanilishida namoyon bo'ladi. Huquqiy munosabatlar ishtirokchilari xulq-atvori ma'qul darajada bo'lishini ta'minlash uchun davlat o'zining ko'rsatma berish, ruxsat etish, taqiqlash kabi choralarini qo'llaydi. Huquqda atrof-muhit obyektlaridan foydalanish tartiblari, unga ta'sir qilish chegaralari va taqiqlari, ta'sirning oldini olish choralar (masalan, nazorat yuritish, ekologik ekspertiza, litsenziya berish), javobgarlikka tortish va boshqa shunga o'xshash vositalarning belgilanishi huquqiy tartibga solishda ma'muriy-huquqiy usulni amalga oshirishni bildiradi.

Fuqarolik-huquqiy metod – ekologik huquqiy munosabatlarni tartibga solishda keyingi davrlarda qo'llanilayotgan usuldir. Tabiat boyliklariga nisbatan fuqarolik-huquqiy munosabatlarining qo'llanilishi bozor iqtisodiyoti mohiyatiga mos bo'lganligi uchun dolzarb hisoblanadi.

Bu usulning maʼnosi shundaki, ekologik huquqiy munosabatlarni tartibga solish davlat (maʼmuriy) majburloving vositalari asosida emas, balki huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining oʼzaro huquq va majburiyatlar fuqarolik huquqiy vositalari, yaʼni shartnomalar, iqtisodiy mexanizm, mulkiy majburiyatlarni bajarish asosida amalga oshiriladi. Demak, ekologiya huquqining fuqarolik-huquqiy usuli shartnomalar (ijara, muddatli egalik qilish va h.k.), iqtisodiy mexanizm (haq toʼlash, soliqqa tortish, ragʼbatlantirish va h.k.)larning tabiat obyektlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish borasidagi huquq va majburiyatlar qoʼllanilishidir.

Ekologiya huquqining yuqorida koʼrsatilgan usullari ilmiy adabiyotlarda umum tan olingan usullar hisoblanadi. Biroq Oʼzbekistonda fuqarolik jamiyati jadal surʼatlarda shakllanayotganligi va fuqaro va jamoat tashkilotlari ham ekologik huquqiy munosabatlarni tartibga solishda maʼlum rol oʼynayotganligini hisobga olib, ekoiogiya huquqining uchinchi usuli – jamoatchilik ishtirokida tartibga solish usulini ham eʼtiborga olish jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichiai tavsiflovchi omildir.

Illiylar xulosasi maʼqulaysizmi?

Umuman olganda, huquq subyektlari xulq-atvoriga nodavlat institutlarining hujjatlari orqali taʼsir etish “huquq metodlari konsepsiyasiga”ga zid hisoblanadi. Biroq fuqarolik jamiyati rivojlanishi davrida nodavlat taʼsir etishni ham toʼliq inkor etib boʼlmaydi. (“Ekologik nazorat toʼgʼrisida”gi Qonunga qarang) Nodavlat tuzilmalari qabul qilgan hujjatlar asosan tavsiyaviy xarakterga ega boʼlib, majburlash rolini bajarmaydi. Shunga qaramasdan, Oʼzbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishi qonuniyatlariga asoslanib huquqni nodavlat tashkilotlari taʼminlashini ham shartli ravishda metod deb hisoblash mumkin.

Oʼzbekiston Respublikasida yangi ekologik siyosatning huquqiy asoslari yaratilishi va rivojlantirilishi

Maʼlumki, Oʼzbekistonda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar jamiyat ekologik manfaatlari bilan uygʼunlashtirilgan holda olib borilmoqda. Kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ustuvor vazifa qilib belgilangan

**Fundamental
tushuncha!**

Hozirda mazkur ijtimoiy siyosatning markaziy masalalaridan biri ekologik muammolarni hal etishdir. U davlatning ijtimoiylik va ekologik mohiyatini belgilaydi.

O'zbekiston hududida ekologik muammolarni bartaraf qilish yo'lida bir qancha islohotiar amalga oshirildi. Jumladan, ayrim hududlarda atmosfera havosi va suv resurslarining ifloslanishi, ichimlik suvi yetishmasligi, tuproq sho'rланishi, qattiq va zaharli sanoat chiqindilarining to'planishi, biologik xilma-xillikning kamayishi va boshqa mahalliy (lokal) tusga ega bo'lgan ekologik muammolarning oldini olish O'zbekiston ekologik siyosatining asosiy maqsadlaridan hisoblanadi. Shuningdek, aholi sonining o'sishi, shaharlarning kengayishi, qishloq xo'jalik yerlarining muomaladan chiqib qolishi, chorva mollarining ko'payishi va boshqa shunga o'xhash holatlarning mavjudligi ham kelgusida ushbu ekologik muammolarning oldini olishni taqozo etadi.

**Esda tuting va
fikr yuriting!**

Mavjud ekologik muammolarni hal etish borasida tegishli qonunchilik ham jadal rivojlanib bormoqda. Qonunlar asosida muammolarni hal etish barpo etilayotgan huquqiy davlat mohiyatiga mos bo'lib, bu tamoyil ekologik siyosatda izchil amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy ekologik siyosat tufayli amalga oshirilgan diqqatga sazovor ishlardan biri -- ekologik munosabatlarni tartibga solishda iqtisodiy-huquqiy usullardan foydalanishga o'tilganligidir. Avvalo, ekologik qonunchilikda tabiatdan foydalanish va unga ta'sir qilish uchun haq to'lash qoidalari aks ettirildi. "Ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyilining xalqaro andozalarga mos huquqiy asoslari mustahkamlandi. Iqtisodiy usullarning ichida tabiatdan foydalanuvchi va unga ta'sir qiluvchi (ifloslantiruvchi, bulg'ovchi, istof qiluvchi va h.k.)larni ekologik faoliyatini kuchaytirishga imkon beradigan iqtisodiy-huquqiy mexanizmiarning joriy qilinganligi katta yutuq bo'ldi. Foydalanuvchilar va tabiatga ta'sir qiluvchilar o'z faoliyatlarida ekologik tadbirlarni faol bajarganliklari uchun haq to'lash, soliq to'lash, kredit olish, narx belgilash va shunga o'xhash masalalarda imtiyozlarga ega bo'ldi.

Xulosa qiling!

Ekologik tejamkorlik va uddaburonlik davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va rag'batlantiriladi. Xo'jalik yurituvchilar qanchalik ko'p ekologiyani

o'ylab faoliyat yuritsalar, shunchalik moddiy manfaatdorligi ortadi. Natijada "ekologiya" ham, xo'jalik yurituvchi ham yutadi. Shu yo'sinda ekologik tejamkorlik va uddaburonlik "ekologik kam chiqimli" faoliyat yuritishga va mahsulot yetishtirishga qiziqishni rag'batlantiradi.

Sobiq Ittifoq davrida tabiat obyektlari markaziy davlatning tanho mulki bo'lib, ular to'liq fuqarolik muomalasidan chiqarilgan edi. Hattoki ularni ijaraga berish ham muimkin emas edi. Yangi iqtisodiy va ekologik siyosat tufayli ular mulk sifatida iqtisodiy munosabatlarning o'zagini tashkil etmoqda. Bunga tabiat obyektlariiga nisbatan fuqarolik-huquqiy muomalalarni joriy qilish orqali erishilmoqda.

Qonuniy asoslarini keltiring!

Tabiat obyektlarining mulk sifatidagi maqomi o'zgarib bormoqda. Ularning aksariyatiga nisbatan ijara, konsessiya, meros qilib qoldirish kabi fuqarolik shartnomalari qo'llanilmoqda. Yer uchastkalari esa xususiy lashtirish, realizatsiya qilish, garovga qo'yish, meros qilib qoldirish huquqi asosida umrbod egalik qilish kabi fuqarolik-huquqiy muomalalarda ishtirok etmoqda. Jismoniy va yuridik shaxslarning yet uchastkasiga nisbatan mulkdor bo'lish Yer kodeksida kafolatlanib go'yilgan.

O'tgan vaqt mobaynida ekologik muammolami amaliy hal etishning eng haqqoniy mexanizmlardan biri – ekologik ekspertiza instituti joriy qilinganligidir. Ekologik ekspertiza dastlab "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi (1992) Qonunda ko'rsatilgan bo'lsa, keyinchalik "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi (2000) Qonunda unga taalluqli asosiy qoidalar aks ettirildi. Ekologik ekspertizaning majburiyligi belgilandi. Unga ko'ra mo'ljallanayotgan va loyihalashtirilayotgan xo'jalik ishlari (masalan, qurilish, yer ajratish, kanal o'tkazish va h.k.) bajarilmasidan oldin ekologiya talablariga mos yoki mos emasligi tekshiriladi. Shuningdek, tabiatdan foydalanayotgan va unga ta'sir qilayotgan (ishlab turgan) xo'jalik faoliyati ham ekologik ekspertizadan o'tkazilishi belgilangan. Ekologik ekspertizaning nodavlat tashkilotlar va fuqarolar guruhlari tomonidan ham o'tkazilishi ekologik muammolarni hal etishda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirishga xizmat qiladi.

Fundamental xulosa!

Yangi ekologik siyosatning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri – birinchi marta inson ekologik huquqlari qonunlarda aks ettirilib,

ularning tashkiliy-huquqiy kafolatlari yaratilganligidir. Insonning ekologik huquqlari deganda, uning yashash uchun qulay va yaroqli atrof-muhit ne'matlari bilan ta'minlanishiga bog'liq huquqlari tushunilishi lozim.

Endilikda ekologik axborot olish, yetkazilgan ekologik zararni undirib olish, jamoat birlashmalariga birlashish, ekologik ahamiyatga ega bo'lgan qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, jamoat nazoratini amalga oshirish va boshqa ekologik huquqlarning kafolatlari hamda ta'minlanish mexanizmlari yaratilgan. Ta'kidlash lozimki, dunyoning ayrim davlatlarida inson ekologik huquqlari konstitutsiyalarda aks ettirilgan.

**Jahon
tajribasiga
qiyoslang!**

Insonning ekologik huquqlari ichida "ekologik da'vo qilish" huquqining belgilanganligi katta huquqiy qadriyat hisoblanadi. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 52-moddasiga binoan "Yuridik va jismoniy shaxslar ekologiya jihatidan zararli faoliyatni to'xtatish to'g'risida sudga da'vo bilan murojaat qilishga haqlidir.

Sudga "ekologik da'vo" bilan murojaat qilish huquqining o'ziga xos xususiyati shundaki, uni amalga oshirish uchun fuqaro o'zining buzilgan huquq yoki manfaatlarini himoya qilmaydi Balki u jamiyatning ekologiya manfaatlari idan kelib chiqadi. Bunda u "ekologiya nuqtayi nazaridan zararli faoliyat" faktini aniqlab, uning "atrof tabiiy muhitga, inson salomatligi va odaralarning mol-mulkiga, xalq xo'jaligiga ziyon" yetkazishini bartaraf etish uchun xususiy tartibda sudga da'vo arizasi kiritish huquqiga ega bo'ladi. Aytish joizki, bunday ekologik da'vo huquqi rivojlangan davlatlarda dolzarb huquqlardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda ham bunday huquqni qo'llash amaliyetini rivojlantirish ekologik siyosatni yangi marralarga ko'tarar edi

O'zbekistonda ekologik siyosatni amalga oshirishda davlat va uning organlari yetakchidir. Shu bilan birga, ekologik muammolarni hal etishda nodavlat tashkilotlarining ishtiroki ham ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

Muhim xulosa!

Jamoat birlashmalar, omraviy harakatlар, siyosiy partiylar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa jamoat tuzulmalari qonunga ko'ra o'z vakolatlari doirasida ekologik faoliyatda ishtirok etadilar.

Jamoat tuzulmalarining ichida O'zbekiston ekologik harakati alohida ahamiyat kasb etmoqda. 2008-yilda jamoatchilik tashabbusiga ko'ra tashkil etilgan Ekoharakat atrof tabiiy muhit muhofazasiga aloqados bo'lgan barcha jamoatchilik sa'y-harakatlarini birlashtirish, muvofiqlashtirib turish hamda safarbar etish vazifasini bajarmoqda. Ayniqsa, Ekoharakat vakillaridan 15 kishining Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputat bo'lib saylanishi "ekologik jamoatchilik"ning qonuni chiqarish jarayonlarida rasman ishtiroy etishini ta'minladi. Endilikda O'zbekistonda ekologik mmarumolarni hal etish nafaqat davlat organlarining, balki fuqarolik jamiyatni institutlarining ham muhim vazifalaridan biri ekanligi o'zining amaliy ifodasini topdi. Bu yangilik O'zbekistonni dunyoning ekologik siyosati rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shdi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni tuzulmaiting ekologiya masalalari bilan shug'ullanishining amaliy va haqqoniy ifodasini ular tomonidan jamoat nazoratini amalga oshirishlarida ham ko'rish mumkin.

Hozirda jamoat ekologik nazoratining bir necha usullari qo'llaniladi:

- ularga jamoat ekologik ekspeitzasi o'tkazish;
- jamoat eshituvi;
- davlat organlari tomonidan qarorlar qabul qilish jarayonlarida jamoatchilikning ishtiroy etishi;
- murojaatlar yo'llash;
- hisobot talab qilish hamda eshitish va boshqalar kiraди.

Fikr yuriting!

Jamaot nazoratining bunday usullari amalda qo'llanilishini yanada takomillashtirish lozim.

Muhim xulosa!

O'zbekiston yangi ekologik siyosatining yana bir o'ziga xos xususiyati – uning xalqaro ekologik hamkorlik jarayonlariga faol qo'shilganligidir. O'zbekiston xalqaro ekologik hamkorligini uchta doirada ko'rish mumkin:

- 1) ikki tomonlama; 2) mintaqaviy; 3) butunjahon nuqyosida.

O'zbekistonda xalqaro ekologik hamkorlik quyidagi xalqaro tashkilotlarga a'zo sifatida ham amalga oshiriladi:

- mintaqaviy ekologik hamkorlik Orolni qutqatish xalqaro jamg'armasi;
- Mustaqil Davlatlar Haindo'stligi (MDH);
- Shaxay Hamkorlik Tashkiloti.

Insoniyat uchun muammo bo'layotgan va xalqaro jamoatchilik diqqat markazida turgan masalalar bilan shug'ullanish va hal etish O'zbekiston ichki va xalqaro siyosatining asosini tashki! etadi. Bunday masalalarga atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish, iqlim o'zgarisbiga qarshi kurashish, Ozon qatlamiga ta'sir qiladigan faoliyatlarni cheklash, chiqindilarsiz yoki kam chiqindili texnologiyalarni joriy etish, alternativ energetikani rivojlantirish, tabiat majmualarini konservatsiya qilib muhofaza qilish va boshqalar kiradi. Bu holat O'zbekistonning xalqaro miqyosda ekologik obro'yini oshirmoqda.

Nazorat uchun savollar

1. Ekologiya huquqi kompleks fan sifatida o'rganilishi ma'lum. *Ekologiya huquqining o'ziga xos xususiyatlarini fanning keng ko'lamligi va boshqa huquq sohalari bilan aloqadorligini inobatga olgan holda izohlang.*

2. Fanning rivojlanishida ijtimoiy munosabatlarning o'mi katta. *Ekologiya huquqi rivojlanishini mamlikatimizda olib borilayotgan islohotlar misolida yoriting.*

3. Toshkent shahrida joylashgan farmatsevtika zavodida faoliyat yurituvchi bosh injener A.ning harakatlari yuzasidan qo'zg'atilgan jinoyat ishini ko'rib chiqish jarayonida Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha sudida uning zavod binosida inson salomatligiga uchun zararli bo'lgan havoni ifloslantirishga oid qilmishini atref tabiiy muhitni muhofaza qilish qoidasini buzish yoki mehnatni muhofaza qilish qoidasini buzish sifatida baholash yuzasidan savol tug'ilди.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

4. Fuqarolar M. va J. Jizzax viloyati Zomin tumaniда joylashgan davlat qo'riqxonasiga tegishli ruxsatnoma asosida kirib, ushbu qo'riqxonadan yovvoyi kaklikni tutib olishadi va belgilangan tartibda haq to'lab, qo'riqxona hududidan olib chiqib ketishadi. Keyinchalik tutqunlikda saqlanayotgan qushni tuqaro M. o'z qo'shnisi S.ga sotadi hamda S. qushni olib ketayotgan vaqtida tabiatni muhofaza qilish xodimlari tomonidan qo'lga olinadi va S ga nisbatan huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishini ma'lum qiladilar.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

2- BOB. EKOLOGIYA HUQUQI MANBALARI, TAMOYILLARI VA TIZIMI

Ekologiya huquqi manbalari uning huquqiy bazasi sifatida. Xalqaro konvensiya va shartnomalar ekologiya huquqining manbai sifatida. Ekologiya huquqi tamoyillari. Ekologiya huquqining tizimi

Ekologiya huquqi manbalari uning huquqiy bazasi sifatida

Yodda saqlang! Huquq manbai deganda, uni obyektiv ifodalash usullari tishumiladi. Huquqning obyektiv ifodalanishi normativ huquqiy hujjatlardan vositasida amalga oshiriladi.

Ekologiya huquqi ham barcha huquq tartaoqlari qatori normativ huquqiy hujjatlarda ifodalanadi. Bu hujjatlardan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Ekologiya huquqi manbalarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular nafaqat ekologik qonun hujjatlarida, baiki jinoyat, fuqarolik, konstitutsiyaviy, ma'muriy va boshqa qonunchilik hujjatlarida ham aks etgan.

Ekologiya huquqi manbalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- **Yuridik kuchiga ko'ra** manbalar qonunlar va qonunosti hujjatlariga bo'linadi.
- **Tartibga solish predmeti bo'yicha** umumiy, maxsus va ekologiyalashgan manbalarga ajratiladi
- **Tartibga solish xususiyatiga qarab** moddiy va protsessual manbalarga bo'linadi.

Ekologiya huquqining umuroiy, maxsus va ekologiyalashgan manbalariga alohida to'xtalib o'tish lozim.

Umumiy manba sifatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992) alohida ahzmiyatga ega. Uning 50-, 54-, 55- va 100-moddalarida tabiat boyliklari va ekologik masalalarga doir qoidalar berilgan. Bundan tashqari, ekologiyaning umumiy masalalari aks ettirilgan Konstitutsiyaviy qonunlar, Prezident hujjatlari, Hukumat qarorlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari ham uning umumiy manbalari bo'ladi.

Maxsus manbalar deb tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga to‘liq taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy aktlarga aytildi. Hozirda maxsus manba bo‘lishi mumkin bo‘lgan qonunlarning soni 30 dan ortiqdir. Undan tashqari Prezident va Hukumatning ekologiya masalalariga maxsus bag‘ishlangan bir necha o‘nlab hujjatiari mavjud.

Yodda saqlang!

Maxsus manbalar o‘z navbatida, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishning umumiy masalalarini tartibga soladigan **maxsus, umumiy** va alohida tabiat obyektlariga (yer, suv, o‘rmon va h. k.) taalluqli bo‘lgan **alohida maxsus** manbalarga bo‘linadi.

Ekologiya huquqining umumiy masalalari deb barcha tabiat obyektlari (yer, yer osti boyliklari, suv, o‘rmon, hayvonot dunyosi va atmosfera havosi)ga taalluqli bo‘lgan munosabatlarning maxsus qonun yoki qonunosti hujjatida aks ettirilishi tushuniladi. “Tabaitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun ekologiya sohasidagi fundamental yoki bazis qonun deb ataladi.

Maxsus umumiy manbara O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-maydag‘i 142-senli “2013–2017-yillarda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari Dasturi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining Biologik rang-baranglikni saqlash bo‘yicha milliy strategiyasi va hatakatlar rejasি to‘g‘risida”gi qarorlar (1998-yil 1-aprel, 139-sonli) misol bo‘la oladi.

Ekologiya huquqining maxsus manbalari

Umumiy maxsus	Alohida maxsus
<ul style="list-style-type: none"> • “Ekologiya ekspertizasi to‘g‘risida”gi (2000), • “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi (2004), • “Chiqindilar to‘g‘risida”gi (2002), “Radiatsiya xavfsizligi to‘g‘risida”gi (2000), 	<ul style="list-style-type: none"> • Yer kodeksi (1998), • “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi (1993), • “O‘rmon to‘g‘risida”gi (1999), • “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi (2002), • “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi (2016),

- “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi (2013) va boshqa qonunlar
- “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (1996),
 - “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi (2016) qonunlar kiradi.

Qonunosti hujjatlarining alohida maxsus manbasiga O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning “Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Farmonini misol keltirishimiz mumkin.

Ekologiya sohasida maxsus vakolatli davlat **ekologiya boshqaruvi va nazorati organlari** hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasining Sog‘liqni saqlash vazirligi va boshqa vazirlik, davlat qo‘mitalari va idoralari o‘z vakolatlari doirasida **me’yoriy huquqiy hujjatlarni qabul qilib, ekologik huquqiy munosabatlarni tartibga soladi**

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi yer, yer osti beyliklari, o‘simgilik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish tartibini belgilaydigan ekologik normativlar, standartlarni tasdiqlaydi, nizonlar va yo‘riqnomalarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi shart bo‘lgan qarorlar qabul qiladi va hakozo.

Ekologiya huquqi manbalari ichida **mahalliy davlat hokimiyyati** organlari qabul qiladigan me’yoriy huquqiy hujjatlar alohida ahariyatga ega.

Yuqoridagilardan tashqari ekologiya huquqining u yoki bu masalalarini ayrim noekologik normativ-huquqiy hujjatlar ham tartibga soladi. Ular **ekologiyalashgan** manbalar deb ataladi.

Huquqiy tartibga solish xususiyatiga ko‘ra ekologiya huquqining manbalari **moddiy va protsessual** bo‘ladi. Moddiy-huquqiy manbalar, ya’ni normativ huquqiy hujjatlar tartib-qoidalar, talablar-tamoyillar, huquq va majburiyatlar hamda yuridik javobgarlik shartlarini belgilaydi. Masalan, “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi (2000), “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi (2004) va boshqa shunga o‘xshash qonunlarni keltiush mumkin. Protsessual manbalarga moddiy normalarni

amalga oshirishga qaratilgan ijro etish harakatlarini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar kiradi. Masalan, yer uchastkasi ajratib berish bilan bog'liq barcha harakat (jarayon, protsess)larni aks ettiruvchi normalar protsessual normalarga kiradi. Yoki davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish tartibini belgilagan hujjat protsessual manbaga misol bo'la oladi. Ko'pincha moddiy-huquqiy hujjatlarning o'zida protsessual normalar berilgan bo'ladi. Masalan, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunda ekspertiza o'tkazish tartibi, Yer kodeksida yer uchastkalari ajratib berish tartibi, yer tuzish ishlarini bajarish tartibi kabi protsessual normalar belgilangani.

Manbalar	
Moddiy	Protsessual
<p>Chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari O'zbekiston Respublikasi Ekoliya va atrof-inuhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston "O'zkommunxizmat" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiysi (bundan buyon matnda "Sanoatkontexnazorat" davlat inspeksiysi deb yuritiladi).</p> <p>("Chiqindilar to'g'risida"gi Qonuning 6-moddasi.)</p>	<p>Chiqindilarning davlat hisobini yuritish Olib kiriladigan, olib chiqiladigan, amalda mavjud bo'lgan va O'zbekiston Respublikasi hududida hosil bo'ladigan, shuningdek tranzit tarzida olib o'tiladigan chiqindilarning davlat hisobi yuritilishi kerak. Chiqindilar to'g'risidagi davlat statistika hisobotining shakli, uni taqdum etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.</p> <p>("Chiqindilar to'g'risida"gi Qonun, 26-modda)</p>

Shunday qilib, Ekologiya huquqining manbalariga: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oliy Majlis qonun va qarorlari, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlari kiradi.

Hozirgi vaqtida ekologik qonunchilikni kodifikatsiya qilish to'g'risida fikrlar aytilmoqda. Bunday kodifikatsiya natijasida **Ekologik kodeks qabul qilinishi** kerak. Ekologik kodeks Fransiya, Shvetsiya va Qozog'istonda qabul qilingan. Ekokodeks qabul qilinishi natijasida yer, yer qa'ri-kon, suv, o'rmon va boshqa qonunchiligi birlashtirilib, yagona ekologiya qonunchiligi vujudga keladi. "Yer huquqi", "Suv huquqi", "Yer qa'ri-kon huquqi", "O'rmon huquqi", "Havo muhofazasi huquqi", "Hayvonot muhofazasi (fauna) huquqi" mustaqil huquq tarmog'i sifatida barham topib, umumlashgan Ekologiya huquqi vujudga keladi. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Ekologik kodeksida protsessual holatlarga bag'ishlangan alohida qismlar ko'zda tutilishi lozim.

Xalqaro konvensiya va shartnomalar ekologiya huquqining manbai sifatida

Yodda saqlang! O'zbekiston BMT, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OBSE) xalqaro institutlariga hamda atrof-muhit muhofazasi borasidagi 13 ta konvensiya va uni rivojlantirish bo'yicha tegishli protokollarga qo'shildi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro ekologik konvensiyalarda ishtirok etishi, bir tomonidan, mainlakatni umumjahon ekologik jarayoniga qo'shilishiga, ikkinchi tomonidan, O'zbekiston jahon hamjamiyatining teng huquqlik a'zosiga aylanib, rivojlangan mamlakatlarning texnik va moliyaviy yordamini olish huquqiga, ishlab chiqarishga, yangi zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish, energiyaning noan'anaviy turlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekistonda ekologik muammolarning ko'p qismi, transchegaraviy xarakterga ega. Bu masalada Yevropa Iqtisodiy komissiyasining (BMT EIK) transchegaraviy konvensiyalari, shu jumladan "Uzoq masofalarda havoning transchegaraviy ifloslanishi", "Sanoat avariyalarining

transchegaraviy ta'siri to'g'risida"gi, "Transchegaraviy kontekstda atrof-muhitga ta'sirni baholash to'g'risida"gi, "Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xaiqaro ko'llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo'yicha" hamda "Xalqaro ochiq sav oqimlaridan kemalar qatnamaydigan turda foydalanish to'g'risida"gi konvensiyalar katta rol o'ynaydi. Yuqorida aytib o'tilgan transchegaraviy konvensiyalarga qo'shilish masalalarini ishlab chiqishda, O'zbekiston BMTning EIK bilan faol hamkorlik qilmoqda.

Xususan, hudedlar darajasida ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida:

- yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini muhofaza qilish bo'yicha konvensiya (1972) ga 1998-yil qo'shilgan;
- Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik havfsizlik tizimini shakllantirish;
- mintaqadagi davlatlar hudedlarini atrof-muhitni transchegaraviy ifloslanishdan muhofaza qilish tizimini yaratish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarishning yagona mintaqaviy monitoring tizimini ishlab chiqish;
- ekologik toza va tabiiy tesurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish;
- chegaraga tutash hududlarda sanoat chiqindilari saqlash omborlarini tiklashni amalga oshirish;
- chegaraga tutash mintaqalarda, favquoddha vaziyatlarni oldindan ogoohlantiruvchi va uni ta'minlovchi axborot tizimini yaratish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston butun dunyo miqyosida katta ahamiyatli va dolzarb bo'lgan xalqaro konvensiya, shartnomalar va boshqa hujjalarga qo'shilgan. Ularga quyidagilar kiradi:

- Kioto protokoli (1998) ga 1999-yil qo'shilgan.
- Ozon qatlarnini muhofaza qilish bo'yicha Vena konvensiyasi (1985) ga 1993-yil qo'shilgan Shu qatorda, Ozon qatlarnini buzuvchi moddalar bo'yicha Montreal protokoli (1993), Montreal protokoliga London va Kopengagen tuzatishlari (1993), Montreal protokoliga Monteal va Pekin tuzatishlari (2006).
- Cho'llanish va qurg'oqchilik bilan kurashish bo'yicha konvensiya (1994) ga 1995-yil qo'shilgan.

- Bioxilma-xillikni saqlab qolish bo'yicha konvensiyasi (1995) ga 1998-yil qo'shilgan.
- Xavfli chiqindilarni transchegaraviy olib chiqish va ulani yo'qotishni nazorat qilish bo'yicha Bazel konvensiyasi (1995) 1999-yilda qo'shilgan.
- Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish to'g'risidagi konvensiya (1997) ga 1998-yilda qo'shilgan.
- Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini muhofaza qilish bo'yicha konvensiya (1972) ga 1998-yilda qo'shilgan.
- Asosan suvda suzuvchi qushlar yashash joylari sifatida xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suv-botqoq joylari to'g'risidagi konvensiya (2001) ga 2001-yilda qo'shilgan.
- Butunjahon va madaniy merostarni muhofaza qilish to'g'risida konvensiya (1973) ga 1995-yilda qo'shilgan.
- Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilishi va ularidan foydalanish bo'yicha konvensiya (Xelsinki, 1992) ga 2007-yilda qo'shilgan.
- Kemasiz turlarning xalqaro suv oqimiidan foydalanish imtuqi haqida konvensiya (1997) ga 2007-yilda qo'shilgan.
- "Tabiiy muhitga harbiy yoki boshqa har qanday zo'ravonlik bilan ta'sir qilishni taqiqlash bo'yicha" konvensiya (1972) ga 1993-yilda qo'shilgan.

Ekologiya huquqi tamoyillari

Ekologiya huquqi ham ma'lum tamoyillar asosida shakllanadi va amalda bo'ladi. Tamoyillar uning xususiyati va xossalari aks ettiruvchi mazmun va ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi.

**Ilmiy-huquqiy
tushunchani yodda
saqlang!**

Ekologiya huquqi tamoyillarining asosiy vazifasi – tabiat qonunlarning ustuvorligini tan olgan holda jamiyat a'zolarining tabiatga taalluqli bo'lgan xatti-harakaflarini ilmiy asoslangan holda yo'naltirishdan iboratdir.

Ekologiya huquqi davlat va huquqning umumiy tamoyillariga va o'zining maxsus tamoyillariga asoslanadi.

Davlat va huquqning umumiy tamoyillari:

- qonuniylik;
- insonparvarlilik;
- ijtimoiy adolatlilik;
- fuqaralik jamiyatini bilan davlat o'ttasida muvozanatlilik;
- davlat mas'uliyatining belgilanganligi;
- teng huquqlilik;
- huquq va majburiyatlarning birligi;
- ayb uchun javobgarlik va boshqalar kiradi.

Aynan shu tamoyillar Ekoliya huquqining umumiy tamoyillari hisoblanadi.

Maxsus tamoyillarga quyidagilar kiradi:

- hozirgi va kelgusi avlodning genetik fondini saqlash;
- fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va himoya qilish;
- atrof-muhitni ifoslantirganlik uchun haq to'lash ("ifoslantiruvchi to'laydi");
- inson, jamiyat va tabiat ekologik va iqtisodiy manfaatlari ilmiy asoslangan muvozonatini ta'minlash;
- tabiatni muhofaza qilish faoliyatini rag'batlantirish;
- tabiiy resurslar miqdorini kamaytirmaslik va ular holatini (sifatini) tiklash majburiyligi;
- ekologik ekspertiza o'tkazishning majburiyligi va boshqalar.

Maxsus tamoyillarning qonunchilikda ifodalaniishi

Tamoyil

Qonunda ifodalaniishi

- | | |
|--|--|
| • hozirgi va kelgusi avlodning genetik fondini saqlash; | inson va uning kelgusi avlodlari genetik fondi haqida g'amxo'rlik qilish; |
| • fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va himoya qilish, | ("Tabiatni muhofaza qilish tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash; |
| • atrof-muhitni ifoslantirganlik uchun haq to'lash (ifoslantiruvchi to'laydi); | ("Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasi) |


- inson, jamiyat va tabiat tabiatdan maxsus foydalanganlik ekologik va iqtisodiy manfaatlari uchun haq to'lash; ilmiy asoslangan muvozonatini ta'minlash;
 - tabiatni muhoza qilish faoliyatini rag'batlantirish;
 - tabiiy resurslar miqdorni kaniyatirmaslik va ular holatini (sifatini) tiklash majburiyligi;
 - ekologik ekspertiza o'tkazishning majburiyligi;
- tabiatdan maxsus foydalanganlik uchun haq to'lash;**
 ("Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasi)
- Oonuning maqsadi inson va tabiat o'rtaсидаги муносабатлар уйғуна; muvozonatda rivojlanishini kafolatlashdan iboratdir.**
 ("Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning preambulasi)
- tabiatdan oqilona foydalanishni va tabiatni muhofaza qilishni rag'batlantirish;**
 ("Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasi)
- tabiiy resurslarni tildash zarurligi, atrof tabiy mahit va inson sihat-salomatligi uchun zararli, tiklab bo'lmas oqibatlarga yo'l qo'ymaslik;**
 ("Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasi)
- ekologiya ekspertizasi o'tkazishning majburiyligi;**
 ("Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasi)
- tabiiy resurslarni tildash zarurligi, atrof tabiy mahit va inson sihat-salomatligi uchun zararli, tiklab bo'lmas oqibatlarga yo'l qo'ymaslik;**
 ("Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasi)

Jamiyat va tabiat rivojlanishining tamoyillari o'zgarishi bilan ekologiya huquqining tamoyillari ham o'zgarib boraveradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimovning "Mamlakatimizda demokratik istohatlarni yaoda chiqurleshtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish" Konsepsiyasida (2010-yil 12-noyabr) taklif etgan ekologik jamoat nazoratini kuchaytirishga qaratilgan tadbirlarning aks ettirilgauligini Ekologiya huquqida tegishlicha yangi tameyl vujudga kelishiga asos bo'ldi.

Ekologiya huquqining tizimi

Ekologiya huquqi predmetiga kiradigan munosabatlarni tartibga solish qolay va mantiqiy bo'lishi uchun bir-biriga yaqin me'yorlar yaxlitlanib, mustaqil institutlarga javlanadi. Demak, Ekologiya huquqining tarkibi huquq institutlaridan iboratdir. Quyidagi institutlar ekologiya huquqining umumiy qismiga kiradi: 1) tabiat obyektlariga nisbatan mulk huquqi; 2) inson ekologik huquqlari; 3) tabiiy resurslardan foydalanish huquqi; 4) tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishning huquqiy-iqtisodiy mexanizmlari; 5) davlat boshqaruvi va nazorati; 6) yuridik javobgarlik asoslari.

Har bir tabiat obyektiga (yer, suv va h.k.) taalluqli normalar alohida institutlar bo'lib, uning maxsus qismida joylashgan.



Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, huquq tarmog'i sifatida Ekologiya huquqi bilan o'quv kursi sifatidagi Ekologiya huquqining orasida katta farq bo'ladi.

Nazorat uchun savollar

1. Ekologiya huquqi manbalari turlicha tasniflanadi. *Mazkur tasniflarga ko'ra ekologiya sohasidagi qonurlarni aytib bering.*

2. Ekologiya huquqi manbalari keag ko'lamligi bilan ajralib turadi. *Bu borada boshqa huquq sohalarining manbalari bilan farqini izohlang*

3. Toshkent shahar hokimi Toshkent shahriga tegishli atrof tabiiy muhitga oqilona munosabatda bo'tishni ta'minlovchi soliq stavkalarini belgiladi. Ammo uning qarori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga zid, ya'ni ular o'rtaida tafovut paydo bo'ldi. Toshkent shahar hokimi bu holatni quyidagicha izoliladi, ya'ni Prezident butun respublika hududiga nisbatan qaror chiqqagan bo'lsa, u Toshkent shahri poytaxtligini inobatga olib, faqat Toshkent shahriga tegishli qator qabul qilgan.

Toshkent shahar hokimining ushbu qarori Prezident qarori bilan farqlanishi mumkinmi, agar mumkin bo'lsa, qaysi qonun hujjatiga asosan?

Agar Toshkent shahar hokimi qonunga zid ravishda qaror qabul qilgan bo'lsa, bu holda unga nisbatan qaysi qonun hujjatiga asosan ko'rildi?

4. Surxondaryo viloyati "Boysun" fermer xo'jaligi rahbari Po'latov N. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga quyidagi ariza bilan murojaat etgan. Uning fikricha, O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 16-moddasi (O'zbekiston Respublikasida yerga bo'lgan imulkchilik) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga zid ravishda qabul qilingan. Yer kodeksining 16-moddasida yer **davlat mulki** -- umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur, u davlat tornonidan muhofaza etiladi hamda oldi-sotdi qilinmaydi, ayirboshlanmaydi, hadya etilmaydi, garovga qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan hollar bundan mustasno deb ko'rsatilgan.

Konstitutsiyaning 55-moddasida yer, yer osti boyliklari, suv, e'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralalar **umummilliy boylikdir**, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir, deb ko'rsatilgan.

Uning fikricha, davlat mulki va umummilliy boylik iboralari o'rtaida tenglik qo'yib bo'lmaydi, shuning uchun Yer kodeksi Konstitutsiyaga zid kelmoqda va shu bilan fermerlarni qonuniy huquq va manfaatlari zid bo'lmoqda, shuning uchun ushbu Yer kodeksidagi mazkur jumlani bekor qilish kerak, degan fikr ga kelgan.

Aytingchi, Surxondaryo viloyati "Boysun" fermer xo'jaligi rahbari Po'latov N. ushbu fikrga kelganda qaysi qonun hujjatiga tuyangan?

3- BOB. TABIIY RESURSLARGA NISBATAN MULK HUQUQI

Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi tushunchasi. Tabiiy resurslarga nisbatan muik huquqi xususiyatlari. Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi obyektlari va subyektlari. Tabiatdan foydalanish huquqi. Tabiatdan foydalanish huquqining vujudga kelish, cheklash, to'xtatish va bekor bo'lish asosiari

Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi tushunchasi

Konstitutsiyamizga muvofiq bozor munosabatlari rivojlantirishiغا qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyeti negizni xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi.

Jamiyatning iqtisodiy negizi mavjud mulkchilik munosabatlariaga asoslanadi. Shu sababli mulk nafaqat yuridik mazmunga, balki iqtisodiy ma'noga ham ega. Iqtisodiy ma'noda mulk insonlarning erki, irodasidan tashqari vujudga keladi. Yuridik munosabatlarda mulk qabul qilingan normalar orqali tartibga solinadi va ular mulk huquqi sifatida namoyon bo'ladi. Kishilar mehnati bilan yaratilgan yoki tabiat tomonidan insonlarga o'ziga xos tarzda "taqdim etilgan" boyliklar har doim mulk bo'lib kelgan⁶.

Yuridik ma'noda "mulk" tushunchasi shaxslar tomonidan tabiat boyliklarini, ashyolarini o'zlashtirishda bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan va mustahkamlaydigan huquqiy normalar tizimini anglatadi. Bu ma'noda mulk mulk huquqi (subyektga tegishli sof ma'nodagi subyektiv huquq sifatida emas, balki muayyan huquq sohasi) sifatida ko'rildi⁷.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, deb qayd etilgan. Asosiy Qonunimiz tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi masalasini umummilliy boylik deb tan olish yo'li bilan hal etgan.

Mulk huquqi o'z navbatida ikki ma'nodagi: obyektiv va subyektiv ma'nodagi mulk huquqiga bo'linadi.

Obyektiv ma'nodagi mulk huquqi deganda, tabiat ashyolarini ijtimoiy o'zlashtirishning mavjud zaxiralarini, usullarini belgilash, tartibga

⁶ Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. // Darslik. 1 qism. - Toshkent: IDDI Nashriyoti, 2009. - B. 357.

⁷ O'sha manba. - P. 370.

solist va mustahkamlash uchun xalq manfaatlarini ko'ziab belgilangan tadbirlarni ifodalovchi huquq normalari yig'indisi nazarda tutiladi. Chunonchi, mulk to'g'risidagi umumiy qoidalar obyektiv huquq normalari hisoblanadi. Obyektiv ma'nodagi mulk huquqi mutlaq huquqiy normalar asosida tartibga solinadi. Bunga misol sifatida mulk huquqini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini keltirish mumkin.

Subyektiv ma'nodagi mulk huquqi deb ayrim shaxslar, ya'ni huquq subyektlarining (davlat, yuridik shaxslar va fuqarolarning) obyektiv huquq normalari asosida kelib chiqadigan mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqlariga aytildi. Subyektiv ma'nodagi mulk huquqi nisbiy-huquqiy normalar asosida tartibga solinadi. Subyektiv ma'nodagi mulk huquqi mulk sohibining o'ziga mulk yoki ashyoviy huquq asosida tegishli bo'lgan mol-mulklarni qonunda taqiqlanmagan asoslarda, vakolat doirasida, o'zga shaxslarning manfaatlariga putur yetkazmagan holda egallash, undan foydalanish va uni tasarruf qilish maqsadida turli bitimlar tuzishida namoyon bo'ladi. Masalan, turli shartnomalar tuzish, o'z mulkini meros qilib qoldirish va boshqa bitimlar orqali malkka bo'lgan huquqni vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish subyektiv ma'nodagi mulk huquqining mazmunini bildiradi⁸.

Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida, Yer kodeksida, "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi va ha: bir tabiiy resurslar to'g'risidagi qonunlarida belgilangan.

Mulk huquqi tabiiy resurslar kimga tegishliligin va mulkdorlarning ularga nisbatan vakolatlarini anglatadi. Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi unga egalik qilish, foydalanish hamda tasarruf etish jarayonlarida namoyon bo'ladi⁹.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 164-moddasida mulk huquqi tushunchasi belgilangan, unga ko'ra mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni taiab qilish huquqidan iboratdir.

Huqueqiy munosabat ishtirokchilarining yuridik jihatdan tengligiga asoslangan mulkiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda fuqarolik

⁸ Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. // Darslik. 1 qism. – Toshkent TDYI nashriyoti, 2009 – B. 371–372.

⁹ Ekologiya huquqi: Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik muijaxussisligi bo'yicha ta'lim olayotgan ijarabalar uchun darslik. Mualliflar tarkibi: Usmonov M.B., Rustamboev M.X., Xolmo'minov J.T. va boshq. Mas'uri muhabbir: M.F. Usmonov. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyusishmasi "Adabiyot jang armasi" nashri. – 2001. – B. 55.

huquqi muhim o'rinni tutadi. Zero, fuqarolik huquqi – yuridik jihatdan teng bo'lgan subyektilar o'rtasidagi mulkiy va shaxsiy-nomulkiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda mustahkamlaydigan huquqiy normalar yig'indisidir.

Fuqarolik huquqi tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar doirasasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 2-moddasida belgilab qo'yilgan. Shu o'rinda fuqarolik qonun hujjatlari tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlardan biri sifatida mulk huquqi va mulkiy munosabatlar alohida ahamiyatga ega. Zero, fuqarolik-huquqiy munosabatlar doirasida mulkiy munosabatlar yetakchi o'rinni egallaydi.

Mazkur munosabatlarda ishtirok etuvchi taraflar yuridik jihatdan teng huquqli bo'lib, FKning 2-moddasida nazarda tutilgan munosabatlarga kirishsagina, ular fuqarolik-huquqiy munosabatga kirishgan hisoblanadi. Zero, tabiiy resurslarga nisbatan mulkchilik munosabatlarida fuqarolik qonun hujjatlari tatbiq qilinishi mumkin, agar ular maxsus qonun hujjatlari bilan tartibga solinmaydigan bo'lsa (FKning 2-moddasi 5-qismi).

Mulkiy munosabatlarning barchasi ham faqatgina fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinmaydi. Ba'zi mulkiy munosabatlar huquqning boshqa sohalari bilan ham tartibga solinadi. Jumladan, tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqiga oid munosabatlar – ekologiya huquqi normalari bilan ham tartibga solinadi. Zero, mulk va mulk huquqi haqidagi umumiy qoidalar fuqarolik huquqi normalari bilan belgilangan. Bundan tashqari, yerga va boshqa tabiiy resurslarga bo'lgan mulk huquqi va o'zga ashyoviy huquqlar Fuqarolik kodeksi hamda boshqa qonunlar bilan tartibga solinishi belgilangan.

Demak, tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi – tabiat obyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o'zlashtirilishini belgilashni, tabiiy resurslar kimga tegishlilagini, mulkdorlarning ularga nisbatan bo'lgan vakolatlarini hamda huquq va majburiyatlarini belgilovchi huquq normalari yig'indisini ifodalaydi.

Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi xususiyatlari

Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqiga oid munosabatlarning ekologik normalar orqali tartibga solinishi ekoliya huquqining kompleks huquq sohasi sifatida o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shuningdek, aynan mulkning kelib chiqishi ham inson faoliyati natijasida emas, balki tabiiy mavjudligi, tabiat tomonidan in'om etilganligi, tabiiy holatda inson mehnatisiz mavjud bo'lishi ham tabiiy rusurslarga nisbatan mulk huquqining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlaridan biridir.

Tabiiy resurslarni umummilliy boylik sifatida e'tirof etuvchi Konstitutsiyamizning 55-moddasi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida, Yer kodeksida, "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi va har bir tabiiy resurslar to'g'risidagi qonunlarida yanada rivojlantirilgan va kengroq tartibga solingan. Xususan, Fuqarolik kodeksida **tabiiy resurslar respublika mulki**, Yer kodeksi, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi (yangi tahriri), "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi (yangi tahriri) qonunlarda – **davlat mulki hamda yuridik va jismoniy shaxslar mulki**, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunda **umummilliy boylik**, "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi Qonunda (yangi tahriri) **O'zbekiston Respublikasining mulki** sifatida talqin etiladi.

Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi xususiyatlarining tabiat obyektlariga xos bo'lgan jihatlaridan kelib chiqib, quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

- tabiiy resurslarning tabiiy holatda inson mehnatisiz mavjud bo'lishi;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining moddiy asosini tashkil qilishi, ya'ni Respublika hududidagi yer, yer osti boyliklari, suv va o'rmonlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar, respublikaning ma'naviy boyliklari O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi, mulki hisoblanadi;
- tabiiy resurslarga nisbatan davlat mulf huquqi ustuvorligi;
- tabiiy resurslarga nisbatan mulf huquqi ma'lum chegara doirasida belgilanishi, ya'ni bunda davlat hududiy birligi doirasida hamda yer uchastkalariga nisbatan yuridik va jismoniy shaxslarning mulf huquqi ham yer fondining qayd etilgan chegarasi doirasida belgilanadi;

**Ma'lumot
uchun!**

Yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan yer uchastkalarining miqdori tumandagi, shahardagi yer resurslarining holatidan kelib chiqib belgilanadi. Cheksiz emas, albatta. Bu ham yer resurslarining cheklanganligidan dalolatdir.

- yuridik va jismoniy shaxslarning tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi (yerlarni istisno qilgan holda Yer kodeksining 18-moddasiga asosan) ekologik qonunchilikda belgilangan tartibda qo'liga kiritilgandan so'ngina vujudga keladi.

**Ma'lumot
uchun!**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-oktabrdagi "Biologik resurslardan foydalanishni tartibga solish va tabiatdan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risida"gi №-290-sodn qaroriga asosan o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlariga nisbatan mulk huquqi ushbu qaror bilan tasdiqlangan nizomlarda belgilangan tartiblarga noya qilingan holda qo'liga kiritilgandan so'ngina vujudga keladi. Ammo undan keyingi munosabatlardan ekologiya huquqi predmeti doirasidan chiqib, fuqarolik-huquqiy qonunchilik normalari bilan tartibga solinadi.

- tabiiy resurslarga nisbatan kompleks yondashish lozimligi, ya'ni ular murakkab tabiiy hosilalar (ekotizimlar) hisoblanishi;
- tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi amaldagi qonunchilikda turlicha, jumladan umummilliyl boylik, respublika mulki, davlat mulki, O'zbekiston Respublikasining mulki sifatida talqin qilinsada, yagona bir mazmun, ya'ni umummilliyl boylik sifatida belgilangan.
- tabiiy resurslarga nisbatan mulkchilikning alohida rejimi belgilanganligi;
- ayrim tabiiy resurslar dastlabki holatda ko'chmas mulk bo'lishligi, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o'zlashtirilgandan so'ng, ya'ni foydalanylinda huquqiy rejimi o'zgarishi;
- tabiiy resurslarning son jihatidan cheklanishi;
- tabiiy resurslardan faqatgina maqsadli foydalanish lozimligi;
- tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqini tasarruf etish faqatgina davlatning vakolatli organlari tomonidan amalga oshirilishi;
- tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini ta'minlagan holda amalga oshirilishi.

Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi obyektlari va subyektlari

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning samarali amal qilishiga va xalq farovonligining o'sishiga imkoniyat yaratuvchi har qanday shakldagi mulkchilikka ruxsat beriladi.

Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining obyektlari – tabiat obyektlari (yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi va boshqa zaxiralar), **tabiiy resurslar** (ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o'zlashtirilgan tabiat obyektlari), **tabiiy komplekslar** (davlat qo'riqxonalari, tabiat bog'lari, davlat tabiat yodgorliklari va boshqalar) yoki ularning qismlari hisoblanadi.

"O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi hududidagi yer, yer osti boyliklari, ichki suvlar, havo, o'simlik va hayvonot dunyosi – mulkiy huquq obyektlari, ya'ni mulk obyektlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 169-moddasiga asosan mulk huquqining obyektlari sifatida yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo'shilig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 167-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida mulk xususiy mulk va ommaviy mulk shakllarida bo'ladi. Tabiiy resurslar esa ommaviy mulk shaklida bo'ladi.

Bu o'rinda Respublika mulki va ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan (munitsipal mulk) iborat bo'lgan davlat mulki ommaviy mulkdir. Demak, Fuqarolik kodeksining 214-moddasiga asosan tabiiy resurslar Respublika mulki hisoblanadi.

"Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuning 5-moddasida "**Tabiiy resurslarga nisbatan mulkchilik**" masalasi, ya'ni "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir" deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 16-moddasigaa ko'ra **O'zbekiston Respublikasida yerga bo'lgan mulkchilik** qonuniy ravishda mustahkamlangan, ya'ni **Yer davlat mulki umummilliy boylikdir**, undan oqilona foydalanish zarur, u davlat tomonidan muhofaza etiladi hamda oldi-sotdi qilinmaydi, ayirboshlanmaydi, hadya etilmaydi, garovga qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan hollar mustasno sifatida o'rnatilgan.

Yedda tuting! Yerga nisbatan mulk huquqining o'ziga xos xususiyati shundaki, u Yer kodeksining 18-moddasiga muvofiq ayrim hollarda yer yuqidik va jismoniy shaxslar mulk huquqining obyekti bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuning 3-moddasida "**Suvga davlat egaligi**", ya'ni Suv O'zbekiston Respublikasining davlat mulki - umummilliy boyligi hisoblanadi. Suvdan oqilona foydalanish lozim, u davlat tomonidan qo'riqlanadi deb belgilab qo'yilgan.

E'tibor bering! Bu yerda suv deganida, yagona davlat suv fondi tushuniladi. Unga jiig'alar, soylar, daryolar, suv omborlari, ko'llar, dengizlar, kanallar, kollektor-drenaj tarmoqlari, buloqlar, hovuzlarning suvlari va boshqa yer osti suvlari, yer osti suvlari, qor zaxiralari va nuzliklarni tashkil etuvchi suvlari kiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi Qonuning 4-moddasida "**Yer osti boyliklariga egalik qilish**", ya'ni yer osti boyliklari O'zbekiston Respublikasining mulki bo'lib, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir, deb belgilangan.

O'zbekiston Respblikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuning 1-moddasiga ko'ra Atmosfera havosi tabiiy resurslarning tarkibiy qismi bo'lib, u **umummilliy boylik hisoblanadi** va davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonuning 4-moddasiga muvofiq "**O'simlik dunyosiga nisbatan mulkchilik**", ya'ni O'simlik dunyosi umummilliy boylik bo'lib, undan oqilona foydalanish lozim va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

E'tibor bering! Tabiiy muhitda yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar davlat muikidir.

Sun'iy yaratilgan sharoitlarda yetishtiriladigan yovvoyi holda o'sevchi o'simliklar yuridik va jismoniy shaxsning mulki bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "O'meon to'g'risida"gi Qonuning 4-moddasida "**O'rmonlarga be'lgan mulkchilik**", ya'ni O'rmonlar davlat mulki umummilliy boylik bo'lib, ulardan oqilona foydalanish lozim hamda niaz davlat tomonidan qo'riqlanadi, deb belgilab qo'yilgan.

O'rmonlar asosan ekologik (suvi muhofaza qilish, qo'riqlash, sanitariya-gigiyena, sog'lomlashtirish, rekreatsion), estetik va boshqa vazifalarni bajaradi, cheklangan darajadagi foydalanish ahamiyatiga ega

O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonunining 4-moddasida "**Hayvonot dunyosiga nisbatan mulkchilik**", ya'ni Hayvonot dunyosi umumimilliy boylik bo'lib, undan oqilena foydalanilishi lozim va u davlat tomonidan muhofaza qilinishi alohida ta'kidlanadi.

E'tibor bering!

Tabiiy erkinlik holatida yashayotgan, shuningdek tabiiy yashash muhitiga chiqarib yuborilgan yovvoyi hayvonlar davlat malkidir.

Yani erkin sharoitda, sun'iy yaratilgan yashash muhitida yoki tutqunlikda saqlanayotgan va (yoki) yetishirilgan yovvoyi hayvonlar yuridik va jismoniy shaxsning mulki bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonunining 6-inoddasida "**Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga bo'lgan mulk huquqi**", ya'ni muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat malkidir va uning muhofazasida ekanligi belgilangan.

Yer uchastkalari va boshqa tabiiy obyektlar xususiy buyurtma qo'riqxonalar hamda tabiiy pitomniklar tashkil etish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanishga berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 182-moddasida "**Mulk huquqining vujudga kelish asoslari**" belgilangan, unga ko'ra tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi mehnat faoliyati; mol-mulkdan foydalanish sohasidagi tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati, shu jumladan mol-mulkai yaratish, ko'paytirish, bitimlar asosida qo'lga kiritish; davlat mol-mulkini xususiylashtirish; meros qilib olish; egalik qilish haquqini vujudga keltiruvchi muddat; qonun hujjalariiga zid bo'lmagan boshqa asoslarda vujudga keladi.

Jumladan, hayvonot dunyosi obyektlaridan belgilangan tattibda ruxsatnomalar olib, foydalanish turlaridan qat'i nazar, tabiiy muhitdan ajratib olingandan so'ng foydalanuvchi ushbu obyektga nisbatan mulk huquqiga ega bo'ladi. Shundan so'ng mulk huquqiga ega bo'lgan obyektga nisbatan ekologik-huquqiy normalar emas, balki fuqarolik-huquqiy normalar qo'llaniladi. Aynan tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi har bir tabiiy obyektning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, havo bo'shilig'iga nisbatan mulk huquqi har doim davlatga tegishli.

Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi unga egalik qilish, foydalanish hamda tasarruf etish jarayonlarida namoyon bo'ldi.

Tabiatdan foydalanish huquqi

Tabiatdan foydalanish jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiy etishining muhim shartidir, ta'bit joiz bo'lsa, davlatning iqtisodiy qudratini va salohiyatining moddiy asosidir. Kishilik jamiyati tabiiy resurslardan foydalanmagan holda mayjud bo'la olmaydi va bunday sharoitda barqaror rivojlanish to'g'risida so'z ham bo'lishi mumkin emas. Shunday ekan, tabiatdan foydalanish bu muqarrar voqeiyidir. O'z navbatida, inson va tabiat o'rasisidagi munosabatlarni uyg'un muvozanatda rivojlanishi lozim.

Tabiatdan foydalanish – insonning turli ehtiyojlarini qondirish, respublikani samarali va barqaror rivojlantirish yo'lida hozirgi va kelajak zvodiqlarning manfaatlarini ko'zlab, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni uyg'unlashtirgan holda amalga oshiriladigan faoliyatdir.

Tabiatdan foydalanish huquqi esa yuridik va jismoniy shaxslarning tabiat obyektlari, tabiiy resurslar va tabiiy komplekslardan foydalanish bilan bog'liq faoliyatini tartibga soluvchi qonan hujjatlari majmuyi sifatida ifodalanadi.

Tabiatdan foydalanish ma'lum me'yordarda bo'lishi, tabiatning o'zini o'zi qayta tiklash qobiliyatini ta'minlashi kerak. Barqaror rivojlanish ham aynan tabiiy resarslardan hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini hisobga olgan holda foydalanishni ta'minlashni ko'zda tutadi.

Tabiatdan foydalanish bilan bog'liq ijtimoiy-ekologik munosabatlarga kirishish, ushu munosabatlarda ma'lum huquq va majburiyatlarga ega bo'lish hamda ularni amalga oshirish uning subyektlariga taalluqli bo'lib, ular esa, o'z navbatida, tabiatdan foydalanish huquqining subyektini tashkil etadi.

Tabiatdan foydalanish huquqining subyektlari yuridik va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin.

Tabiatdan foydaluvchi hat qanday yuridik va jismoniy shaxs, chunki har qanday korxona yoki inson hayot shart-sharoitlari va tabiat resurslaridan foydalanadi, chuaki ular tabiatsiz mavjud bo'la olmaydi.

Tabiatga ta'sir etilishiga, undan foydalanish shakl va usullariga qarab, tabiatdan foydalanish asosan ikki yirik turda ya'ni umumiyl va maxsus tarzda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish te'g'risida"gi Qonunining 6-moddasida "Tabiatdan umumiyl tarzda va maxsus yo'sinda foydalanish" tushunchalari berilgan bo'lib, unga ko'ra:

Tabiatdan umumiy tarzda foydalanish fuqarolar tomonidan hayotiy zarur ehtiyojlarni qondirish uchun tekinga tabiiy resurslarni ayrim foydalanuvchilarga biriktirmay va hech qanday ruxsatnomalar bermay turib amalga oshiriladi. Umumiy foydalanish jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilib, fuqarolarning shaxsiy, kundalik va o'zga ehtiyojlarini qondirishni hamda maxsus ruxsat va haq to'lashni talab qilmaydigan tarzda foydalanishni nazarda tutadi.

Masalan, umumiy foydalanishdagi yerlardan (maydonlar, ko'chalat, tor ko'chalar, yo'llar, sug'orish ta'mog'i, sohil bo'yи yerlari, aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dami olishi uchun foydalaniladigan, yerlar, ya'ni daraxtzorlar, bog'lari, sayilgohlar, xiyobonlar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yertar) foydalanish, yovvoyi o'simliklarni oziq-evqat maqsadlari uchun g'amlash, yig'ish, jismoniy shaxslar tomonidan suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etuvchi maxsus inshootlar va qurilmalarai qo'llamagan holda o'z ehtiyojlarini hamda boshqa ehtiyojlarini qondirish maqsadida suvdan foydalanishlarini (jumladan, cho'milish) ko'rishimiz mumkin.

Tabiatdan umumiy foydalanish ma'lum bir chegara, me'yor va miqdorlarda bo'ladi. Bunday qoida va talablar esa o'z navbatida qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Bu esa tabiatdan chegarasiz, beayov foydalaniishi uning ayrim obyektlari ishdan chiqishi, kamayib ketishining oldini oladi. Shuningdek, tabiatdan umumiy foydalanishni amalga oshiruvchi subyektlarning teng huquqligini ta'minlaydi. Masalan, hayvonot dunyosidan umumiy foydalanish jismoniy shaxslar tomonidan hayvonlarni yashash muhitidan ajratib olmasdan va hayvonlarga zarar yetkazmasdan amalga oshirilib, barcha tabiiy sav havzalarida 5 kilogrammgacha miqdorda baliqlarni sport va havaskorlik tarzida ovlash mumkin.

Tabiatdan maxsus yo'sinda foydalanish tariqasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarga ishlab chiqarish va o'zga xil faoliyatni aralga oshirish uchun tabiiy resurslar haq olib maxsus ruxsatnomalar asosida egalik qilishga, foydalanish yoki ijaraga beriladi.

Masalan, yer osti boyliklari asosan maxsus foydalanish uchun beriladi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi Qonunining 19-moddasiga asosan, yer qa'ri geologik jihatdan o'rganish, foydali qazilmalarni kovlab olish, texnogen mineral hosilaiardan foydalanish, foydali qazilmalarni kovlab olish bilan bog'liq bo'limgan yer osti inshootlарini, shu jumladan neft, gaz, gaz kondensati (uglevodorodlarni), boshqa moddalar va materiallarni yer

ostida saqlash inshootlarini qurish hamda ulardan foydalanish, chiqindilarni saqlash va ko'mib tashlash, alohida muhofaza etiladigan geologik obyektlarni barpo qilish, nodir tosh xomashyosi namunalarini, paleontologik qoldiqlarni va boshqa geologik kolleksiyabop materiallarni toplash maqsadlari uchun pullik tarzda foydalanishga beriladi.

Tabiatdan umumiy va maxsus foydalanish turlaridan kelib chiqib, tabiatdan foydalanishning obyekti, subyekti, usuli, shakli, ularga bo'lgan huquqlar kabi turli mezonlarini quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

Tabiat obyektlariga ko'ra yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot duryosi hamda boshqa tabiiy obyektlardan foydalanish.

Tabiat obyektlarining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra foydalanish. Masalan, o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut), ya'ni qo'shni bo'lgan bir yoki bir nechta yer uchastkalaridan cheklangan tarzda foydalanish.

Tabiatdan foydalanish subyektlariga ko'ra, faqat jismoniy shaxslar yoki faqat yuridik shaxslar foydalanshiga beriladigan obyektlar yoki foydalanish huquqi. Masalan, yer uchatkalaridan doimiy egalik qilish huquqi asosida foydalanish, yer qa'ri geologik jihatdan o'r ganish faqat yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Tabiatdan fodalanuvchilar soniga ko'ra, tanho va birgalikda foydalanish. Masalan, suv obyektlari tanho yoki birgalikda foydalanishda bo'lishi mumkin. Yuridik yoki jismoniy shaxslarga butunlay yoki qisman foydalanishga berilgan suv obyekti tanho foydalaniладigan suv obyekti bo'lsa, tanho foydalanishga berilmagan suv obyekti birgalikda foydalaniладigan suv obyekti hisoblanadi.

Tabiatdan foydalanish muddatiga ko'ra muddatli va muddatsiz. Masalan, yer uchastkalaridan muddatli foydalanish qisqa muddatli – uch yilgacha va uzoq muddatli – uch yildan o'n yilgacha bo'lishi mumkin yoki suvdan vaqtincha foydalanish muddati qisqa muddatli – uch yilgacha va uzoq – yigirma yilgacha bo'lishi mumkin. Agar tabiat obyektidan foydalanish muddati ko'rsatilmagan va avvaldan belgilanmagan holda foydalanish berilsa, muddatsiz yoki doimiy foydalanish deb e'tirof etiladi.

Tabiatdan foydalanish huquqlariga ko'ra ashyoviy yoki mulk huquqi asoslarida tabiat obyektlaridan foydalanish.

Tabiatdan foydalanganlik uchun haq to'lash shakliga ko'ra ma'lum miqdor va chegarada tekimga hamda pullik tarzda amalgalashadi.

Tabiatdan foydalanish maqsadiga ko'ra masalan, suv iste'moli ichimlik, kommunal-maishiy, davolash, kurort, rekreatsiya, baliqchilik xo'jaligi, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi suv iste'moliga va boshqa turlarga bo'linadi.

Tabiat obyektnini tabiiy muhitdan ajratib olinishi yoki olinmasligiga ko'ra foydalanish mumkin Masalan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'z ehtiyojlarini qondirish uchun suv resurslaridan ularni suv obyektdan belgilangan tartibda olgan holda foydalanishlari, shuningdek o'simlik yoki hayvonot dunyosi obyektlarini tabiiy muhitdan ajratib olgan holda foydalanishni ko'rishimiz mumkin.

Tabiatga ta'sir etish holatiga ko'ra tabiatga zarar yetkazgan yoki zarar yetkazmagan holda foydalanish.

Tabiat obyektlarining turli ko'rsatkichlariga ta'sir etib foydalanimishiga ko'ra, tabiatdan foydalanish oqilona va nooqilona bo'lishi mumkin. Tabiatdan oqilona foydalanish deganda, tabiiy resurslardan ilmiy asoslangan, har bir tabiat obyektning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan, ekologik va iqtisodiy manfaatlar uyg'unlashgan holda, tejamli, ularni qayta tiklash, holatini yaxshilash va keskin o'zgartirmaslikni ko'zda tutadigan foydalanish tushuniladi. Tabiatdan oqilona foydalanmaslik esa tabiiy-resurs imkoniyatlarning saqlanishini ta'minlamaydi.

Tabiatdan foydalanish huquqining vujudga kelish, cheklash, to'xtatish va bekor bo'lish asoslari

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda tabiiy resurslarining ahamiyati va roli ushbu munosabatlar sohasiga doimiy va maqsadli ravishda davlat ta'siri zarurligini taqozo etadi. Shu bois ham tabiatdan oqilona va samarali foydalanish hamda uni muhofaza etishni ta'minlash maqsadida tabiatdan foydalanish huquqining vujudga kelish, to'xtatish va bekor bo'lish asoslari ekologik qonunchilikda bevosita tartibga solib qo'yilgan bo'lib, bu ekologik munosabatlarini lozim darajada tartibga solishga erishish, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida tabiiy resurslardan maqsadli va zarar yetkazmasdan foydalanishga qaratilgan bo'ladi.

Tabiatdan foydalanish huquqining vujudga kelish asoslari quyidagilar hisoblanadi:

- qonun hujjalarda nazarda tutilgan asoslardan;
- vakolatli davlat organlarining hujjalardan;
- shartnoma va bitimlardan;
- sudning qaroridan;
- tabiatdan foydalanish huquqini beradigan litsenziya asosida;

- davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart bo'lgan tabiatdan foydalanish huquqi, tegishlicha ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

Agar qonun hujjatlarida tabiatdan foydalanish huquqining vujudga kelish asoslari bevosita ko'rsatilgan bo'lsa, masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-oktabrdagi №290-son "Biologik resurslardan foydalanishni tartibga solish va tabiatdan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risida"gi qaroriga muvofiq o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanish huquqining vujudga kelish asoslari belgilandi.

Tabiatdan foydalanish huquqining vakolatlari davlat organlarining hujjatlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (mazkur qo'mita O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apreldagi PF-5024-soni Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi etib qavta tashkil etildi) raisining 2006-yil 22-martdagি 27-soni "O'zbekiston Respublikasi hududida ov va baliq ovlash qoidalarini tasdiqlash haqida"gi buyrug'i asosida vujudga keladi.

Tabiatdan foydalanish huquqining shartnomasi va bitimlar asosida vujudga kelishi tabiat obyektlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Jumladan, yerlardan foydalanishda asosan yer ijarasi shartnomasi keng qo'llaniladi.

Tabiatdan foydalanish huquqining sudning qarori asosida vujudga kelishi asosan vakolatlari davlat organlarining tabiatdan foydalanish huquqini berish, to'xtatish, cheklab qo'yish yoki bekor qilish haqidagi qarorlari yuzasidan kelib chiqqan nizolar bo'yicha amalga oshiriladi.

Tabiatdan foydalanish huquqining vujudga kelish asoslaridan biri litsenziyaviy faoliyat hisoblanadi. Tabiatdan foydalanish huquqini beruvchi litsenziya asosan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini berish bilan bog'liq.

Davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart bo'lgan tabiatdan foydalanish huquqi, tegishli ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan, xususan, O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 31-moddasiga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkasiga bo'lgan huquqi joyning o'zida chegaralar belgilanganidan, yer uchastkalarining planlari (chizmalari) va tavsiflari tuzilib, yer uchastkalariga bo'lgan huquq davlat ro'yxatiga olinganidan keyin vujudga keladi.

Ekologik qonunchilikda tabiatdan foydalanish huquqini cheklash, to'xtatish va bekor qilish asoslari umumiylar tarzda hamda alohida qilib

belgilangan. O'zbekiston Respublikasining "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonunining 34-moddasiga ko'ra yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini cheklash, to'xtatish turish va tugatish asoslari" umumiy asoslar qilib olingan.

Har bir tabiat obyekting xususiyatlaridan kelib chiqib, tabiatdan foydalanish huquqini cheklash va to'xtatishni umumiy asoslarda quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

- tabiatdan foydalanish inson hayoti, sog'lig'i va salomatligiga yoki yashash sharoitiga zararli ta'sir etganda yoki ta'sir etish xavfi tug'ilgan taqdirda yoxud boshqacha tarzda tahdid yuzaga kelganda;
- atrof tabiiy muhitga qonunchilikda belgilanganidan ortiqcha zararli ta'sir etilganda yoki ta'sir etish xavfi tug'ilgan taqdirda yoxud boshqacha tarzda tahdid yuzaga kelganda;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning belgilangan talablari bajarilmaganda;
- tabiat obyektlarini muhofaza qilishning belgilangan talablari bajarilmaganda;
- belgilangan muddat davomida tabiiy resurslardan foydalanishga kirishilmaganda;
- tabiatdan foydalanishning litsenziyaviy tartibida uning asosiy shartlarini buzgan taqdirda;
- tabiatdan foydalanishning shartnomaviy tartibida uning asosiy shartlarini buzgan taqdirda;
- sudning qarori asosida;
- vakolatli davlat organlari tomonidan tabiatdan foydalanish huquqini cheklash va to'xtatishning boshqa tartibi belgilanganida

Tabiatdan umumiy foydalanishda qonun hujjalari belgilanadigan tartibda ruxsatsiz va cheklashlarsiz amalga oshirilishi belgilanishi mumkin. Tabiatdan foydalanish huquqi quyidagi asoslarda bekor qilinadi:

- tabiatdan foydalanish huquqidan ixtiyoriy voz kechilganda;
- foydalanishning belgilangan muddati tugaganda;
- yuridik shaxs yoki yakka tadbirkorning faoliyati tugatilgan taqdirda;
- tabiiy resurslardan belgilanganidan boshqa maqsadlarda foydalanilganda;
- belgilangan muddatlarda tabiatdan foydalanganlik uchun haq (to'lovlari) muntazam to'lanmaganda (ushbu holat obyektning o'ziga xos xususiyatiga qarab foydalanish huquqini cheklash va to'xtatish asosi ham bo'lishi mumkin);

- tabiat obyektidan oqilona foydalanilmaganda (ushbu holat obyektning o'ziga xos xususiyatiga qarab foydalanish huquqini cheklash va to'xtatish asosi ham bo'lishi mumkin);
- belgilangan muddat davomida tabiiy resurslidan foydalanishga kirishilmaganda (ushbu holat obyektning o'ziga xos xususiyatiga qarab foydalanish huquqini cheklash va to'xtatish asosi ham bo'lishi mumkin);
- tabiat obyekti davlat va jamiyat ehtiyojlar uchun olib qo'yilganda;
- sud qarori asosida;
- vakolatli davlat organlari tomonidan tabiatdan foydalanish huquqini bekor qilishning boshqa tartibi belgilanganida.

Tabiatdan foydalanish huquqini cheklash, to'xtatish va bekor qilish asoslarining ekologik qonunchilikda belgilanishi tabiatdan foydalananuvchilarga real ta'sir ko'rsatib, mavjud ekologik talablarni bajarishga undaydi hamda tabiatdan foydalanish huquqini ta'minlashning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

1. Fuqaro D. va N. lar Buxoro viloyatida joylashgan "Akva" baliq xo'jaligi hududi chegaralariда noqonuniy ravishda yovvoyi o'idaklarni ovlash vaqtida ushbu xo'jalikning qo'riqlash xizmati xodimlari tomonidan qo'iga olindi.

Ushbu holatda fuqarolar – D. va N. harakatlari natijasida davlat mulki yoki yuriqlik shaxs mulkiga zarar yetkazilganligi to'g'risida o'z fikringizni bildiring.

2. Fuqaro G. Navoiy viloyati hujudidagi Aydar-Arnasoy ko'llar tizimiga taalluqli suv havzalaridan bir qismini xususiy mulk qilib berilishini so'rab viloyat hokimligiga ariza bilan murojaat qildi.

Fuqaro G. ning arizasi qanoatlantirilishi mumkinmi?

Qanday tabiat obyektlari xususiy mulk sifatida berilishi mumkin?

3. Tabiiy resurslar, odatda, tabiiy muhitdan ajratib olingan holda foydalanishi nazarda turilgan.

Sun'iy muhidagi tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqini tushuntirib bering

4. Ekologiya huquqi va fuqarolik huquqi o'rtaida mulk masalalari o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadi. Tabiiy resurslarga nisbatan ashyoviy huquqlar deganda nimani tushunasiz?

4- ROB. INSONNING EKOLOGIK HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Insonning ekologik huquq va majburiyatlar tushunchasi va mohiyati. Insonning ekologik huquqlari subyektlari va tizimi. Insonning ekologik huquq va majburiyatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari

Insonning ekologik huquq va majburiyatlar tushunchasi va mohiyati

O'zbekistonda mustaqillik yillarining dastlabki paytalaridayoq inson ekologik huquqlarini qonuniarda mustahkamlashga katta e'tibor berilgan. Bunday huquqlarning davlat tomonidan tan olinganligi barcha inson huquqlariga to'liq e'tibor berilganligini, siyosiy hokimiyat yanada insonparvar mohiyat kasb etayetganligini, atrof-muhitni mchofaza qilish ishlariga inson huquqlari nuqtayi nazaridan yondashilayotganligini bildiradi.

**Huquqiy
tushunchasi**

Insonning ekologik huquqlari deb har bir individning tabiat ne'matlari va obyektlardan bahramand bo'lishi, ulami musaffo, qulay, yaroqli va yetarli bo'lishidan manfaatdorligini ta'minlashga bo'lgan huquqlariga aytildi.

Ekologik huquqlarning subyektlari bo'lib, aksariyat hollarda individ(barcha inson)lar tushuniladi. Ayrim tabiat obyektlari borki (havo, suv, yer (makon), ulardan foydalanish huquqi tug'ilgandan hamnaga, hattoki muomala layoqati cheklangan, ya'ni ruhiy kasal deb topilgan yoki ozodlikdan mahrum etilganlarga ham taalluqli bo'ladi. O'zbekiston hududida vaqtinchalik safarda bo'lib turgan chet ellik ham bunday huquqlarning subyektiari bo'ladi. Ayrim hollarda bunday huquqlarga faqat fuqarolar ega bo'lishi mumkin. Masalan, ekologik jamoat birlashimlari tuzish huquqi fuqarolarga tegishlidir.

Insonning ekologik huquqlari, ayniqsa, qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqi bir qator davlatlar konstitutsiyasida aks etgan. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 42-moddasida har kimning qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risida ishonchli axborotga va ekologik huquqbuzariiklar natijasida uniag sog'lig'iga va malkiga yetkazilgan zararni ondirib olish huquqi aks etgan.

o'zining ekologik axborot olish huquqidan foydalanish maqsadida mazkur qurilish to'g'risida ma'lumot so'rab tuman hokimiyatiga murojaat qildi. Tuman hokimi R. Qiziqovga axborot berishni tashkil etish bilan birga qurilish va loyihalashtirish tashkilotiga telefon qilib, obyekt qurilishiga doir ekologik talablarga rioya qilingarligini asoslovchi bujjatlarni tekshirish to'g'risida fatmoyish berdi va tegishli mas'uliyatli mansabdorlarni beigiladi.

rejasini ishlab chiqdi. Reja oldindan kerxona rahbarlariga targatib chiqildi. Kerxona rahbarlari jamoat nazorati tekshiruviga tayyorgerlik ko'rish uchun atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatayotgan sexlar faoliyatini normativlar talabiarga moslashtirishning qo'shimcha imkoniyattarini izlab topish ishlarni bajardi.

Fikri xorij davlatlari tajribasi asosida rivojlantiring!

obro'sini oshiradi va "tenglar ichida tenglik" salchiyatini kuchaytiradi.

Inson ekologik huquqlarining e'tirof etiganligi davlatni zamonaviy davlatlar darajasiga ko'taradi, uni xalqaro

Ekologik huquqlar ko'proq ijtimoiy ahamiyat kasb etib, inson huquqlari fanida e'tirof etilgan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bilan o'zaro bog'liq bo'lsa-da, mazmun-mohiyati jihatidan alohida kategoriyalagi huquqlar hisoblanadi. Shu bois ular rasmiy belgilanishi, subyektlarining doirasasi, ijtimoiy ahamiyati, ro'yobga chiqarilish darajasi va bir qancha jihatlari bilan **boshqa huquqlardan farq qiladi**. Bu huquqlarning kafolatlanishida birinchi o'rinda tabiiy holat, ya'ni atrof-muhitning sifati va miqdori ahamiyatga ega bo'iadi.

G'oyaviy asoslarni yodda tuting va boyiting!

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimovning asarlarida ham ta'kidlab o'tilgan: "Xalqaro hamjamiyat insonning nafaqat yashash huquqini, balki to'laqonli va sog'lon fursush kechirishi uchun zarur mo'tadil atrof-muhit sharoitlariga ham bo'lgan huquqlarining muçaddasligi va daxilsizligini allaqachon e'tirof etgan."¹⁰

O'zbekistonda insonning ekologik huquqlarining roli va ahamiyatiga alohida e'tibor berilayotganligi

Shuni aytib o'tish joizki, O'zbekiston qonularida aynan "inson ekologik huquqlari" degan ifoda uchramaydi. Inson ekologik huquqlari boshqa huquqlarga o'xshab siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy kabi

¹⁰ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaor tarajziyot yo'tida. T. 6. -T.: O'zbekiston, 1998. -B. 106.

tizimlashtirilmagan. Shu boisdan ham inson ekologik huquqlarini aniqlash va mazmunini tushunish uchun bir nechta qonunlarga murojaat qilish zarur.

Xususan, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun (1992) insonning ekologik huquqlari aks ettirilgan **eng asosiy** Qonun hisoblanadi. Unda "**fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqi**" va boshqa huquqlar to'g'risidagi qoidalar umumiy (boshlovchi) tarzda berilgan. Konstitutsiya bilan bir vaqtda qabul qilingan ushbu Qonunda inson ekologik huquqlari dastlab e'tirof etilgan. Shundan so'ng boshqa qonunlarda inson ekologik huquqlari yanada rivoj topgan.

Albatta, inson huquqqa ega bo'lish bilan birga majburiyatlarga ham egadir. Majburiyatlar insonni atrof-muhitga ehtiyojkorona munosabatda bo'lish, tabiiy resurslardan oqilona va to'g'ri foydalanish, boshqalarning huquqlarini buzmasligini ta'minlaydi.

Insonning ekologik majburiyatları, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi harakat va harakatsizliklaridir.

Insonlarning ekologik majburiyatları deganda, atrof tabiiy muhit muhofazasi bilan bog'liq tegishli talablarni bajarish yoki muayyan harakatlardan tiyilish tushunilib, ular ekologik qatorlar ijtosи yuzasidan amalga oshiriladi.

Insonlarning ekologik majburiyatları atrof-muhitga oid qabul qilingan qonunlarda ham o'z aksini topgan. Xususan, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunda insonning tabiatdan foydalanish bilan bog'liq bir qator majburiyatlari belgilab o'tilgan. Ular quyidagicha:

- O'zbekiston Respublikasi abolisining tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi;
- tabiat boyliklatiga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lishi;
- ekologiya talablariга rioya etishi;
- Atrof tabiiy muhitga zarar yetkazgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va ayrim shaxslar yetkazgan zararini, shu jumladan boy berilgan toyda o'rmini qonunlarga muvofiq qeplashlari shart.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida insonning majburiyatları aniq belgilab qo'yilmoqda, ya'ni:

- yerdan belgilangan maqsadga muvofiq oqilona foydalanish, tuproq unuindorligini oshirish, ishlab chiqarishning tabiatni muhofaza qiluvchi texnologiyalarini qo'llash, o'z xo'jalik faoliyati natijasida hududda ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik;
- ishlab turgan irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari, muhandislik kommunikatsiyalarini soz holatda saqlab turish;
- yerlarni muhofaza qilishga oid, ushbu Kodeksning 79-moddasida nazarda tutilgan turkum tadbiari amalga oshirish;
- yer solig'ini yoki yer uchun ijara haqini o'z vaqtida to'lash;
- boshqa yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilarini va mulkdorlarining huquqlarini buzmashlik;
- foydali qazilma konlarini ishlatish, qurilish va boshqa ishlarni amalga oshirish uchun berilgan qishloq xo'jalik yerlari va o'rmenzorlarni ularga ehtiyoj qolmaganidan keyin o'z hisobidan qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi yoki baliq xo'jaligida foydalanish uchun yaroqli holatga, mazkur ishlar boshqa yerlarda amalga oshirilgan hollarda esa beigelangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish;
- foydali qazilma konlarini ishlatish va boshqa ishlarni amalga oshirish paytida o'zlati egalik qilish va foydalanish, shuningdek mulk qilib berilgan (realizatsiya qilingan) yer uchastkalari hududidan tashqaridagi qishloq xo'jalik ekinzorlari, o'rmenzorlar va boshqa yerlarga salbiy ta'sir ko'rsatishning oldini olish yoki uni mumkin qadar cheklash chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- mahalliy davlat hokimiyyati organlariga yerdan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish,
- boshqa yer egalariga, yerdan foydalanuvchilarga, yer uchastkalarining ijarachilariga va mulkdorlariga yetkazilgan zarorni belgilangan tartibda qoplash.

Shu bilan birga, suvdan foydalanish sohasida insonlarning majburiyatları “Suv va suvdan foydalanish to'g'risida”gi Qomunda norma sifatida belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra quyidagi majburiyatlarini bajarishi shart:

- suv obyektlaridan oqilona foydalanish, suvni tejab sarlash, suvlarning sifatini tiklash va yaxshilash to'g'risida g'amxo'rlik qilishi;
- belgilangan suv olish limitlariga va suvdan foydalanish qoidalariga rioya etish;

- suvdan maxsus foydalanishda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ruxsatnomani rasmiylashtirish;
- ifloslaniruvchi moddalar mavjud bo'lgan oqindi suvlarni suv obyektlariga oqizishni tamomila tugatish chora-tadbirlarini ko'rish;
- boshqa suvdan foydalanuvchilar va suv iste'molchilarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlari buzilishiga, shuningdek, suv obyektlariga, xo'jalik obyektlari va tabiiy resurstarga (yerlar, o'rmonlar, hayvonot duniyosi, foydali qazilmalar va boshqalarga) zarar yetkazilishiga yo'l qo'ymaslik;
- suv obyektlarini, suvni muhofaza qilish inshootlarini texnik qurilmalarni texnik jihatdan soz hokimda saqlash, ularning ishlash sifatini yaxshilashi hamda ulardan foydalanishning belgilangan qoidalariga rioya etish;
- suvni olish va berishda suv miqdori hisobini yuritish, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobotni taqdim etishi;
- suv resurslaridan foydalanish, shuningdek suvni yetkazib berish bo'yicha xizmatlar va ko'rsatilgan boshiqa suv xo'jaligi xizmatlari uchun to'lovlarni o'z vaqtida shartnomaviy asosda to'lash;
- suvni tejash chora-tadbirlarini ko'rish;
- suv resurslaridan oqilona foydalanishda suv iste'molchilariga ko'maklashish;
- suvlarning bulg'anishi, ifloslanishi va kamayib ketishining oldini olish hamda ularni bartaraf etish, suv obyektlariga suvlarning zaraili ta'sirini bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish, shuningdek yer usti va yer osti suvlari to'planadigan maydonlarning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik;
- suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonalari, sohilbo'yini mintaqalari va sanitariya muhofazasi zonalarini saqlashning belgilangan rejimiga rioya qilish;
- suvlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshinuvchi organlar vakillarini o'z suv xo'jaligi obyektlariga belgilangan taribda kiritish hamda ularga zarur axborotni taqdim etish;
- suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'shi etadigan avariyalar va boshqa tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganligi to'g'risida mahalliy davlat hokimiyati organlarini o'z vaqtida xabardor qilish va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha ishlarni amalga oshirishda, shuningdek suv obyektlarida

- ta'mirlash-tiklash ishlarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etish;
- baliqlarni, boshqa suv florasi va faunasini muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish.

Yuqorida aytib o'tilgan normativ hujjatlardan tashqari, O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida"gi Qonunida insonning o'rmonidan foydalanishda qanday majburiyatlarga ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan, chunonchi:

- o'rmonlarni muhofaza qilish, qo'riqlash, ulardan oqilona foydalanish va ularni takroriy ko'paytirishni ta'minlash;
- o'rmonlarning davlat hisobini olib borish;
- o'rmonlarning holatiga va ularni takroriy ko'paytirishga, tuproq va hayvonot dunyosiga, shuningdek suv obyektlarining va boshqa tabiiy obyektlarning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'yaydigan usullar bilan ish olib borish;
- o'rmondan foydalanganlik uchun o'z vaqtida va belgilangan tartibda haq to'lash;
- alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar rejimini ta'minlash;
- o'rmondan foydalanuvchi boshqa shaxslarning huquqlarini buzmaslik;
- o'zlariga berib qo'yilgan yaylovlar, pichanzorlar va boshqa o'rmonzorlardan oqilona foydalanish;
- o'rmonlar holatiga va ularni takroriy ko'paytirishga, tuproq va hayvonot dunyosiga, shuningdek suv obyektlarining va boshqa tabiiy obyektlar holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'yaydigan usullar bilan ish olib borish;
- o'rmondan foydalanganlik uchun o'z vaqtida belgilangan tartibda haq to'lash;
- o'rmondan foydalanuvchi boshqa shaxslarning huquqlarini buzmaslik.

Insonning ekologik huquq va majburiyatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida insonning ekologik huquqlari aynan aks ettirilgan bo'lnasa ham, bevosita shunday huquqlarga asos bo'ladigan qoidalar mavjud.

Konstitutsiyaviy asoslarni yodda tuting!

Konstitutsiyaning 55-moddasida Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy

zaxiralar **umummilliy boylikdir**, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir” degan qoida belgilangan.

Yuridik tushuncha. “**Umummilliy boylik**” deganda yerda yashayotgan barcha, ya’ni har bir insonning bu boyliklarga nisbatan tegishli huquqqa ega ekanligi tushuniladi.

Bu boyliklar O’zbekistondagi barcha millat va elat vakillarining “foydalanish” huquqi obyektiidir. Undan foydalanganda oqilona yo’l tutish lozim.

Fundamental tushuncha va insonning ekologik huquqlari asosida asosni yodda tuting! “umummilliy boylik” prinsipi yotadi

“Umummilliy boylik”ka ega bo’lish va ulardan foydalanish huquqining mavjudligi insonning ekologik huquqlarini ro’yobga chiqarish kafolatidir.

Insonning ekologik huquqlari ichidagi eng markaziy huquq **qulay atrof tabiiy muhitga ega bo’lish huquqidir**. Uni xorij davlatlarida asosiy yoki fundamental huquq deb ataladi. Bu huquq bilan Konstitutsianing 24-moddasida ko’rsatilgan **yashash huquqi** bir-biri bilan chambarchas bog’liq huquqlar hisoblanadi.

Aksiomaga e’tibor bering! Insonning yashashini atrof tabiiy muhit ne’mat (suv, havo, yer)laridan foydalanish, deb hisoblash kerak. Aks holda u yashay olmaydi.

Qolaversa, insonning yashashi va hayoti atrof-muhit sifati noqulayligi va miqdori yetishmaslidan tashvishli yoki zahmatli bo’lishi kerak emas. Konstitutsiya insonga yashash huquqini kafolatlagan ekan, u tabiiy ravishda in’om etilgan barcha huquqlardan, birinchi navbatda qulay atrof-muhitdan foydalanish huquqini to’liq ro’yobga chiqarishga qaratilgandir.

Qulay atrof tabiiy muhitga ega bo’lish huquqining qonuniy asoslari

Qonunning nomi	Ifodalanganlik shakli
“Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida”gi Qonun	“fuqarolarning hayot uchun qulay tabiiy muhitga ega bo’lish huquqi” (4-moddasi)

<p>“Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun</p>	<p>“insonning yashash uchun qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqi” (12-moddası)</p> <p>“fuqarolarning hayot uchun qulay atmosfera havosiga ega bo‘lish huquqi” (4-moddası)</p>
--	---

Inson ekologik huquqlari sifatida **ekologik axborot olish** huquqi asosiy va muhim ekanligini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29- va 30-moddalarida aks ettirilgan qoidalardan ham bilish mumkin. Uning 29-moddasida “Har kim o‘zi istagan **axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega...**”, deb ko‘rsatilgan bo‘lsa, 30-moddasida “O‘zbekiston Republikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim”, deyilgan. Konstitutsiyadagi bu qoidalar ekologik axborot olish huquqining “fundamenti” hisoblanadi.

“Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 12-moddasida O‘zbekiston Respublikasi aholisi o‘z salomatligi va kelajak avlodning salomatligi uchun qulay tabiiy muhitda yashash, o‘z salomatligini atrof-muhitning zararli ta’siridan muhofaza qilish maqsadida tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha jamoat tashkilotlariga birlashish, atrof tabiiy muhitning ahvoli hamda uni muhofaza qilish yuzasidan ko‘rilayotgan choratadbirlarga doir axborotlarni talab qilish va olish huquqiga ega, deb belgilangan.

Qaysi qonunda insонning ekologik huquqlari eng ko‘p aks ettirilgan?

“Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning 30-moddasida “Fuqarolarning hayvonot dunyosini hamda uning yashash muhitini muhofaza qilish sohasidagi huquq va majburiyatları”iga tegishli **6 ta ekologik huquq aks ettirilgan.**

Jumladan:

- hayvonot dunyosi obyektlaridan hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq foydalanish huquqi;

- tutib olingan yovvoyi hayvonlarga va ularning yashash faoliyati mahsulotlariga nisbatan mulk huquqi;

– o‘zlariga biriktirilgan hududlarda hayvonot dunyosi obyektlaridan tabiatni muhofaza qilish organlari tomonidan beriladigan ruxsatnomalar doirasida foydalanish uchun jismoniy shaxslarga ruxsatnomalar (yo‘llanmalar, hayvonlarni tutish varaqalari) berish;

– yuridik va jismoniy shaxslar hayvonot dunyosi obyektlaridan sanoat maqsadida belgilangan kvotalar doirasida foydalanishi uchun ular bilan shartnomalar tuzish;

– ovchilik va baliq ovi mahsulotini qayta ishlash hamda ulardan buyumlar ishlab chiqarishga, ovchilik va baliq ovi mahsulotdan, ishlab chiqarilgan buyumlardan foydalanish hamda ularni realizatsiya qilish;

– sun‘iy ravishda yetishtirilib, tabiiy yashash muhitiga chiqarib yuborilgan hayvonlar turlaridan foydalanish kabilar.

“Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunda 4 ta asosiy huquq va 2 ta huquq-kafolat ko‘rsatilgan:

Asosiy huquqlar:

- qulay atrof-tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi;
- o‘z salomatligini atrof-muhitning zararli ta’siridan muhofaza qilish huquqi;
- ekologik zararli faoliyatni to‘xtatish bo‘yicha da’vo qilish;
- tabiatdan umumiy asoslarda foydalanish huquqi

Huquq-kafolotlar:

- axborot olish huquqi;
- jamoat birlashmalariga birlashish huquqi.

Inson ekologik majburiyatlarining konstitutsiyaviy asosi haqida gapirganda, insonga atrof-muhitni asrab avaylash, tabiatdan oqilona foydalanish va boshqalarning qonuniy manfaatlariga putur yetkazmaslik bilan bog‘liq majburiyatlarni yuklovchi normalar tushuniladi.

Inson ekologik majburiyatlarining konstitutsiyaviy asosi **50-moddasida fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar**, deb belgilangan. Mazkur norma insonga tabiat obyektlarini asrab avaylash, tabiat obyektlaridan kelajak avlodni o‘ylagan holda foydalanish, ularni saqlab qolish kabi majburiyatlarni belgilab bermoqda.

51-moddada fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar, deb belgilangan. Demak, har bir inson tabiat obyektlaridan maxsus tartibda foydalanganlik uchun normativ hujjatlarda belgilangan to‘lovlarni to‘lashga majburdir.

54-modda mulkdor mulkiga o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik

muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shartligi qayd etilgan. Inson hatto o'zining mulkidan foydalanayotganda atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, tabiat obyektlarini nobud bo'lishiga, ularning shikastlanishiga va boshqa insonlarning ekologik huquqlariga zarar yetkazmasligi mazkur normada ta'kidlanmoqda.

55-moddada yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummiliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir, deb belgilangan.

Ushbu norma insonga yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralardan foydalanish paytida ularni istof qilmaslik, mazkur tabiat obyektlaridan kelajak avlodning rizqini o'yagan holda foydalanish kabi majburiyatlarni belgilab bermoqda.

Insonning ekologik huquqi subyektlari va tizimi

Insonning ekologik huquqi subyektlarini aniqlashtirish juda muhim. Bu masalada qonunlarda bir xillik yo'q. Shu boisdan ham qonunchilikka ko'ra "inson" deganda, kim tushunilishini aniq bilish lozim. Ma'lumki, fuqaro deganda insonning davlatga rasmiy jihatdan tobeligi yoki unga bog'langanligi tushuniladi. Huquqiy munosabatlarda insonning davlatga rasman bog'liqligiga ko'ra "fuqarolar", "fuqaroligi bo'lmaganlar" va "chet el fuqarolari"ning huquqiy maqomi farqlanadi. "Insonning ekologik huquqi" degan ifoda umumiyligi ma'nodagi tushunchadir. Bunda "inson" deganda "fuqaro", "aholi", "har bir odam", "jismoniy shaxslar" tushunilishi qonunlarda ko'rsatilgan.

Muammoga e'tibor bering!

Qonunlarda ekologik huquqlarni belgilashda

har xil yozishsga (разночтение) yo'l qo'ilgan.

Ular fuqarolarga, har bir odamga va aholiga tegishli qilib belgilangan.

Qonunlarda aks etishi bo'yicha O'zbekiston **fuqarolariga** quyidagi huquqlar tegishli:

- qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqi;
- sog'liqqa va mulkka ziyon yetkazilganda zararni undirib olish huquqi;
- axborot olish huquqi;

- tabiatdan umumiy foydalanish huquqi;
- tegishli masalalarни muhokoma qilishda ishtirok etish huquqi;
- da'vo bilan sudga murojaat qilish huquqi.

O'zbekiston fuqaroligidan qat'i nazar, **har bir odam**:

- quiay yashash muhitiga ega bo'lish huquqi;
- sog'liqqa va mulkka yetkazilgan zararni undirib olish huquqi;

Aholi:

- axborot olish huquqi;
- qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqi;
- o'z salomatligini atrof-muhitning zararli ta'siridan muhofaza qilish huquqi;
- jamoat birlashmalariga birlashish huquqiga ega.

Muammeqa bering!	e'tibor	Shaxsning fuqarolik maqomi bo'lmasa, u "Radiatsiya xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunda belgilengan "tegishli masalalarini muhokoma qilishda ishtirok etish huquqi"ga ega deb aytib bo'lmaydi
---------------------	---------	---

Xuddi shunday fikri axborot olish va umurniy asoslarda tabiatdan foydalanish huquqiga nisbatan ham aytish kerak. Shuningdek, da'vo bilan sudga murojaat qilish huquqi Qonunda "jismoniy shaxslar"ga berilgan bo'lsa ham, uni amalga oshirish har qanday jismoniy shaxsga emas, balki faqat O'zbekiston fuqarolariga tegishli bo'lishi lozim. Ikkinci tomondan, O'zbekiston fuqarosi bo'Imagan, ya'ni chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslarning tegishli shart-sharoitlar va tartiblatga ko'ra O'zbekiston fuqarolari foydalanadigan huquqlarning ko'pchiligidan foydalanishlari mumkinligini inkor etib bo'lmaydi.

Insонning ekologik huquqi har xil turda bo'lib, ular alohida qonunlarda ko'rsatilgan. Ularga quyidagilar kiradi:

qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqi ("Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun);

o'z salomatligini atrof-muhitning zararli ta'siridan muhofaza qilish huquqi ("Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun);

sog'liqqa va mulkka yetkazilgan zararni undirib olish huquqi ("Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi, "Radiatsiya xavfsizligi to'g'risida"gi qonunlar);

tabiatdan umumiy asoslarda foydalish huquqi ("Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Sev va suvdan foydalish to'g'risida"gi (16-modda), "O'mon to'g'risida"gi qonunlar),

axborot olish huquqi ("Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Radiatsiya xavfsizligi to'g'risida"gi qonunlar);

jamoat birkasbmalariiga birlashish huquqi ("Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun);

radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari muhokamasida ishtirok efish huquqi ("Radiatsiya xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun).

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalarida inson ekologik huquqlariga taalluqli qoidalarni ko'tish mumkin?

2. Inson ekologik majburiyatlar qaysi qonunlarda aks ettirilganini aytib sanab bering.

3. Fuqaro B. Aliev piastinassa trubalar ishlab chiqarishga asoslangan "Shoh" nomli korxona olib faoliyat yurita boshladi. Oradan ikki yil o'tgandan so'ng prokuratura organi xodimi kelib tekshiruv o'tkazdi. Tekshiruv natijalariga ko'ra "Shoa" korxonasidan chiqayotgan chiqindilarni joylashtirish bilan bog'liq qoidalar buzilganligini aniqlashdi. "Shoh" korxonasi rabbasi B. Aliev chiqindilarni joylashtirish bilan bog'liq qoidalar buzilmaganligini, chiqindilarni joylashtirish bilan bog'liq limitlar tegishlicha Sog'liqi saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanganligini va bu limitlarga qat'iy amal qilinganligini aytib o'tdi.

Holatga huquqiy baho bering.

4. Fuqaro Sobirov R. Olmaliq tumonida "Taraqqiyot" nomli firma ochdi. Ushbu firma kamiyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonlarni maxsus yaratilgan shareitda urchitish va keyinchalik tarqatish faoliyati bilan shug'ullanishga asoslangan edi. "Taraqqiyot" firmasida ma'lum bir vaqt o'tgandan so'ng soliq organlari tomonida tekshiruv o'tkazildi. Tekshiruvchilar "Taraqqiyot" firmasining faoliyati noqozimiy ekanligini korxona rahbariga aytishganda, korxona rahbari Sobirov R. barcha hujjatlari borligi va korxona faoliyatini amalga osdirishi uchun Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan tegishli ruxsatnoma olganligini aytib o'tdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

S-BOB. ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA TABIATDAN FOYDALANISH SOHASIDA BOSHQARUVNING HUQUQIY TARTIBI

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishni boshqarish tushunchasi va turlari. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishni davlat boshqaruvi organlari turlari. Umumiy vakolatli organlar. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasida maxsus vakolatli davlat organlari.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishni boshqarish tushunchasi va turlari.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishni boshqarish tabiiy resurslarni tasarruf qilish, ulardan ogilona foydalanishni tashkil qilishda, atrof-muhitni zararli ta'sirlardan himoya qilishda, inson va faqarolarning ekologik huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash. Tabiiy sharoitlarni saqlash va tiklashni tashkil qilishda namoyon bo'ladi va jamiyatda ijtimoiy boshqaruvning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ekologik qonunlar oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish va ularning samaradorligini oshirish ko'p jihatdan boshqaruvga bog'liq.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishni boshqarish vakolatli subyektlar tomenidan amalga oshiriladigan ekologik qonunchilik talablarini bajarishga yo'naltirilgan faoliyat yig'indisini tashkil qiladi.

Bu sohadagi davlat boshqaruvi ekologik qonunchilikni amalda qo'llashni ta'minlashga qaratiladi. O'z navbatida, bunday boshqaruv aniq ijtimoiy ekologik-huquqiy munosabatlarni shakllanish vositasi sifatida ko'rindi.

Ekologiya huquqi mexanizmida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishning boshqaruv o'mini aniqlashda shunga e'tibor qaratish kerakki, u nafaqat davlat ijro hokimiyati doirasida amalga oshiriladi, balki boshqaruvda fuqarolar, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolar jamoat birlashmalari va yuridik shaxslar ham ishtirok etadi. Bu esa atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishning boshqaruv turlari mavjud degan xulosaga olib keladi. Unga quyidagilar kiradi:

- jamoat boshqaruvi;
- ishlab chiqarish boshqaruvi;
- idoraviy boshqaruvi;
- davlat boshqaruvi.

Ekologik qonunchilikka muvofiq atrof-muhitai muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishni boshqarish turli subyektlar tomonidan amalga oshiriladi, o‘z navbatida, amalga oshirilayotgan u yoki bu doiradagi boshqaruvga ko‘ra boshqaruv mazmani ham turlicha bo‘ladi. Bu esa boshqaruv fuksiyasining xilma-xilligini bildiradi **Boshqaruv funksiyasi** – bu tabiatdan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta’minlashga yo‘naltirilgan doimiy faoliyatdir. **Boshqaruv funksiyasiga quyidagi taalluqli hisoblanadi:**

- qonunosti norma ijodkorligi;
- ekologiya sohasida boshqaruv organlari tizimini shakllantirish;
- tabiatdan oqilona foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtirish;
- ekologik rejalashtirish;
- ekologik me’yorlash;
- kutilayotgan faoliyatni atrof-muhitga ta’sirini baholash;
- ekologik ekspertiza;
- ekologik litsenziyalash;
- ekologik sertifikatsiyalash;
- ekologik audit;
- ekologik monitoring;
- alohida tabiiy obyektlar va atrof-muhit holatini, shuningdek zararli ta’sirlar hisobini yuritish (kadastro);
- ekologik nazorat;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish huquqi yuzasidan kelib chiqadigan nizolarni ma’muriy tartibda hal qilish;
- ekologik ta’lim va tarbiya.

Davlat boshqaruvi. Ekologiya sohasida davlat boshqaruvini shakllantirish orgali davlat o‘zining ekologik vakolatini va ekologik siyosatini amalga oshiradi. Ushbu boshqarishni tashkil etish asosida insonning atrof-muhitni yaxshilash, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash maqsadlari turadi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi orgali davlat tabiiy resurslarning mulkdori sifatida tabiiy resurslardan foydalanishni tashkil etish maqsadida ularni tasarruf etish huquqini amalga oshiradi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi deb vakolatli davlat organlarining tabiiy resurslardan foydalanish va atrof tabiiy muhitni muhofaza etish bo'yicha ijro etish va farmoyish berish faoliyati tashuniładi.

Davlat boshqaruv organlarining ijroiya faoliyati – ushbu organlarning ijroiya hokimiyatiga taalluqliligidan kelib chiqib, qonun normalari va vakillik organlarining qarorlarini amalga oshirishga qaratilgan.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi organlarining farmoyish berishi – ularning ijtimoiy munesabatlarini tartibga solishda vakolat doitasidagi yuridik va jismoniy shaxslarga majburiy ko'rsatmalar berish huquqidan kelib chiqadi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi organlarining ijroiya etish va farmoyish berish faoliyati tabiiy resurslar to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini ta'minlashga qaratilgan.

Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi tamoyillari:

- boshqarishning qonuniylikka asoslanishi;
- tarmoq va hududiy boshqarishni muvofiqqashtirish, ya'ni davlat organlarining ekologik boshqaovi faoliyati tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza etishni ta'minlashda hududning rivojlanishiga ham qaratiladi. Shuningdek, ekologiya sohasida davlat boshqaruvi organlari ham hududiy ham tarmoq bo'ysunishda shakllantiriladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tizimini Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari tashkil etadi.

Masalan, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi o'mondan foydalanishni tashkil qiluvchi davlet organidir va uning korxona, tashkilot, o'rmon xo'jalikleri o'mondan asosiy foydalaniuvchilar hisoblanadi. Shuning uchun ushbu organ o'monden foydalanish ustidan davlat nazoratini olib borish vakolatiga ega emas ("O'rmon to'g'risida"gi Qonunning 12-moddesi).

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi ma'lum bir shakllarda amalgalashiriladi. Ushbu boshqaruvning shakllari huquq ijod qilish, huquqni ijro etish va huquqni muhofaza qilish faoliyati hisoblanadi.

Masalan, aqac,ferng' (flosiaceti) uch' moddalari taslosh bo'yicha yo'l qo'yiladigan donadaǵı normativlar tabiatni muhofaza qilish organlari tomonidan tasdiqlangandan so'ng mazkur zarath moddalari atmosferaga chiqarib tashlash mumkin ("Atmosfera havosini muhofaza qilish te'g'isida"gi Qonuning 8-moddasi).

Ekologiya sohasida boshqaruvali **taqiqlash** uslubi atrof-muhitni muhofaza qilishni tashkil etishda keng qo'llaniladi va tabiiy resursdan foydalanish yoki tabiiy badadlarda ma'lum bir faoliyatni amalga oshirishni taqiqlash orqali man etishda ifodalanadi.

Masalan, suvden umumiy foydalanishning tar' bo'lgan che'midish aholini xavfsiziigini ta'minlash maqsadida ma'lum suv obvektlunda man etilishi ezmukin.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi organlarining vakolat doirasida qabul qilgan qarorlari ekologik munosabatlardan subyektlariga nisbatan **majbuliy** hisoblanadi. Ammo majbuliy ko'rsatmalar berish uslubi ushu davlat organlarining faoliyatida asosan ekologik nazoratni amalga oshirish jarayonida qo'llaniladi.

Masalan, ekologik nazoratni amalga oshiruvchi organlar ekologik huquqbazarlik sodir etgar shaxslarga ushu huquqbazarlik eqibatlarini, ulani sodir etish sabablarini va shart-shatorollarni bartaraf etish bo'yicha reajburiy ko'rsatmalar berishga haqlidirlar.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishda davlat boshqaruvi organlari turлari. Umumiy vakolatli organlar.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvinini amalga oshiradigan organlarning doirasi kengdir. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjalariiga muvofiq ekologiya sohasida davlat boshqaruvinini amalga oshiradigan organlar umumiy va maxsus vakolatga ega bo'lgan davlat organlariga bo'linadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi organlari	
Umumiy vakolatli davlat organlari	Maxsus vakolatli davlat organlari
<ul style="list-style-type: none">O'zbekiston Respublikasi Vazirlar MahkamasiQoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar KengashiMahalliy davlat hokimiyati organlari	<ul style="list-style-type: none">O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiO'zbekiston Respublikasi Sog'liqi saqlash vazirligi

	<ul style="list-style-type: none"> • O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yer qarini geologik o'rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bextar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi • O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi • O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi • O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi • O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi
--	--

Urnumiy vakolatga ega bo'lgan organlar iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda davlat boshqaruvinu amalga oshirish bilan bir vaqtida ekologiyaga oid ba'zi bir masalalarni hal qiladi. Shuning uchun ham ular umumiy vakolatga ega bo'lgan organlar deb nomlanadi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvida **Vazirlar Mahkamasining vakolatlari** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida (98-modda), O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustdagagi yangi tahriridagi "Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunining 1-, 5-, 11-, 12-, 20-moddalarida, O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunini 9-moddasida hamda tabiiy resurslar to'g'risidagi qonunlarning tegishli moddalarida belgilangan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasida Vazirlar Mahkamasi:

- tabiatni muhofaza qilishga doir yagona siyosat yuritish;
- tabiat resurslaridan foydalanishni tartibga solish;

- tabiiy resurslarga nisbatan tabiat kadastro yuritilishi tartibini belgilash va bunday kadastr yuritilishini ta'minlash, respublika ahamiyatiga molik tabiiy resurslarning zaxiralarini tasdiqlash;
- ekologiya jihatidan tang vaziyatlar, tabiiy ofatlar va falokatlarning oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- tabiiy ofatlar va yirik avariyalarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- tabiiy resurslardan foydalanganlik, atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik, chiqindilar, zararli ta'sir etuvchi boshqa narsalar joylashtirib tashlaganlik uchun haq to'lash tartibini, shuningdek tabiiy resurslardan foydalanish, chiqindilar joylashtirish limitlarini belgilash;
- ekologiya maorifi va tarbiyasi tizimini yaratish hamda uning amal qilishini ta'minlash;
- tabiatdan alohida tartibda foydalaniadigan hududlarning chegaralarini, tabiatni muhofaza qilish va xo'jalik faoliyati rejimlarini tasdiqlash;
- tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasida davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish vakolatlariga ega.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvida **mahalliy davlat hokimiyat organlarining** vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasida, O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Mahalliy davlat hokimiyat organlari to'g'risida"gi Qonunning 10-, 24-, 25-moddalarida, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasida va tabiiy resurslar to'g'risidagi qonunlarning tegishli moddalarida belgilangan.

Masalan, mahalliy davlat hokimiyat organlari yer munosabatlarini tartibga solishda muhim o'rin egallaydi va bu masalaga Yer kodeksining 5-7-moddalarini bag'ishlangan

- Mahalliy davlat hokimiyyati organlari o'z hududlarida ekologiya sohasida davlat boshqaruvinu amalga oshirishda quyidagi vakolatlarga ega:
- o'z hududida tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilash, mintaqaning (hududning) ekologiya dasturini tasdiqlash;
 - tabiiy resurslarni hisobga olish va ularning ahvoliga baho berish, ekologiya jihatidan zararli bo'lgan obyektlarni ro'yxatga olish;
 - tabiatni muhofaza qilishga doir tadbirlarni moddiy-texnika jihatidan ta'minlash;
 - tabiiy resurslardan foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnomalarni belgilangan tartibda berish;

- tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar undirish;
- tabiatning muhofaza qilinishi ustidan nazorat o'rnatish, atrof-muhitga zarar yetkazayotgan mahalliy ahamiyatga molik obyektlar faoliyatini vaqtincha yoki butunlay to'xtatish va qayta ixtisoslashtirish to'g'risida qarorlar qabul qilish.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda aholining hayoti va salomatligi uchun boshqa real xavf yuzaga kelishining oldini olish bilan bog'liq holda korxonalar, tashkilotlar, inshootlar va boshqa obyektlar faoliyatini o'n ish kunidan ko'p bo'limgan muddatga to'xtatib qo'yish vakolatiga ega (Mahalliy davlat hokimiyat organlari to'g'risidagi qonunning 10-, 48-moddalari). Atrof-muhitga zarar yetkazayotgan tadbirkorlik subyektlari hisoblangan mahalliy ahamiyatga molik obyektlarning faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish va qayta ixtisoslashtirish sud tartibida amalga oshiriladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasida maxsus vakolatli davlat organlari

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanishni ta'minlashga oid vazifalarni hal etishda maxsus boshqaruv organlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ularga ekologik rejalashtirish, me'yorlash, ekspertiza, litsenziyalash, sertifikatsiyalash, nazorat va shu kabi boshqa bir qator ekologik boshqaruv sohasidagi muhim funksiyalarni amalga oshirish vazifasi yuklatilgan. Maxsus vakolatli davlat organlariga ekologiya sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari kiradi. Ularning faoliyati asosan ekologik munosabatlarni tartibga solish bilan bog'liq bo'lganligi sababli maxsus vakolatli organlar hisoblanadi.

Maxsus vakolatli davlat organlari tarmoqlararo, ya'ni bir necha tarmoqlarni va bir necha tabiiy resurslarni idora etuvchi organlarga hamda tarmoqqa oid, ya'ni ma'lum bir tabiiy resursni idora etuvchi organlarga bo'linadi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tarmoqlararo maxsus vakolatli davlat organi hisoblansa, O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi tarmoqqa oid maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni qayta tiklash sohasida davlat nazoratini hamda

tarmoqlararo boshqaruvni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organ hisoblanadi. Qo'mita o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-aprel "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5024-son Farmoniga muvofiq olib boradi. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi o'z faoliyati haqida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi faoliyatining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash sohasida davlat boshqaruvi;
- atrof-muhitning qulay ekologik holatini, ekologik tizimlar, tabiiy komplekslar va alohida obyektlar muhofaza qilinishini, ekologik sharoitning sog'lomlashtirilishini ta'minlash;
- chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat ekologik nazoratini amalga oshirish, mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan mustahkam hamkorlikda maishiy chiqindilarni yig'ish, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish borasida ta'sirchan tizimni tashkil etish;
- yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmonlar, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish, atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat ekologik nazoratni o'matish;
- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish ishlarni muvofiqlashtirish, tabiatni muhofaza qilish va resurslarni tejash borasida yagona siyosatni amalga oshirishga oid amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda idoralararo hamkorlikni ta'minlash;
- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat kadastrini yuritish, shuningdek yovvoyi hayvonlarni, yovvoyi o'simliklarni ko'paytirish va saqlash pitomniklarini, zoologiya va botanikaga oid kolleksiyalarni davlat tomonidan ro'yxatga olish;
- ekologik tarbiya, targ'ibot va ta'limni, shuningdek ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-aprel "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5024-son Farmonining 2-bandti).

O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo'mitasi ham ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi hisoblanadi. "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi. "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi tizimiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastro boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) yer resurslari va davlat kadastro bo'limlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlar (shaharlar) yer tuzish va ko'chmas mulk kadastro davlat korxonalar, Davlat geodeziya nazorati inspeksiyasi, Markaziy va Samarqand aerogeodeziya korxonalar, Geodeziya va kartografiya milliy markazi, "Kartografiya" davlat ilmiy-loyihalash korxonasi, O'zbek davlat yer tuzish ilmiy-loyihalash instituti — "O'zdavyerloyiha", "Geoinformkadastr" davlat unitar korxonasi hamda Kompyutyer va geoaxborot texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish markazi kiradi. Hududiy bo'linmalar "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasiga bo'ysunadi va tegishli mahalliy davlat hokimiyati organiga hisobot beradi.

O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo'mitasi o'z faoliyatini Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 19-oktabrdagi 483-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo'mitasi to'g'risida"gi Nizom asosida yuritadi.

Quyidagilar "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer munosabatlarini tartibga solish, yer tuzishni va yerlar monitoringini tashkil qilish, tuproq unumdarligini saqlash, oshirish va qayta tiklash bo'yicha yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash;
- tuproq unumdarligini oshirish, yerdan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- yerdan oqilona foydalanishi va ular muhofaza qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish:
 - geodeziya va kartografiya faoliyatini boshqarish;
 - davlat geodeziya nazoratini tashkil etish;
 - davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

- davlat yet'i kadastrini, davlat kartografiya-geodeziya kadastrini, binolar va inshootlar davlat kadastrini, shuningdek Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish.

O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi va o'z faoliyati haqida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi. "O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi to'g'risida"gi Nizom Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-iyundagi 165-son qarori bilan tasdiqlangan. Nizomga muvofiq quyidagilar Davlat geologiya qo'mitasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- yet'i osti boyliklarini geologik o'rghanish, ulardan foydalananish va ularni muhofaza qilish, mineral xomashyo bazasini takroriy ishlab chiqarish sehasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish, kon munosabatlari sohasida davlat boshqaruvinni amalga oshirish;
- hududiarni mintaqaviy geologik o'rghanish yuzasidan kompleks tadqiqotlar sifatli amalga oshirilishini ta'minlash hamda foydali qazilmalar zaxiralarini proqnozlashtirishning zamонавиу texnologiyalarini va ilg'or usullarini keng qo'llagan holda davlat geologik suratga olishlarini tizimli asosda olib borish asesida geologik axborotlarning xolisligi va ishonchliligini oshirish;
- Davlat geologiya qo'mitasi ko'xonalarini tomonidan bajariladigan gidromineral resurslar, qattiq foydali qazilmalar, qora va kamyob metallar, kamyob yer elementlari, foydali qazilmalarning yangi (noan'anaviy) turlari konlarini qidirib topish, baholash va razvedka qilish samaradorligini oshirishni ta'minlovchi geologiya-qidiruv ishlarini sifatli proqnoz qilish;
- proqnoz qilishning ilg'or metodlaridan foydalangan holda yer osti boyliklari to'g'risidagi geologik va boshqa axborotlarni chuqur ilmiy tahlil qilish, foydali qazilmaiai konlarini (uglevodorodlardan tashqari) qidirish va baholash natijalari asosida geologiya-qidiruv ishlarining uzoq muddatli (3 yildan ortiq davrga), o'rta muddatli (3 yilgacha bo'lган davrga) hamda har yilgi dasturlarini respublikaning kon-metallurgiya kombinatlari bilan birgalikda shakliantirish, shuningdek ularning amalga oshirilishini ta'minlash;
- geologiya-qidiruv ishlari samado'lighini baholash va tarmoqning yakuniy natijalaiiga — yer osti boyliklari hamda gidromineral resurslar, qattiq noruda foydali qazilmalar, qora va kamyob metallar, kamyob yer elementlarining sanemat zaxiralarini ko'paytirish to'g'risidagi boshqa axborotlarning to'liqligi va sifati bilan bog'liq holda rag'batlantirish asosida geologiya-qidiruv ishlarini moliyalashtirishning zamонавиу metodlarini joriy etish.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi o'z faoliyatini Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 28-iyundagi 290-soqli qarori bilan tasdiqiangan Nizomi asosida tashkil etadi. Vazirlik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi, qishloq, suv va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ishlarni muvofiqlashtiradi, o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bevosita, shuningdek o'z tasactufidagi respublika organlari va hududiy organlar orqali hal etadi.

Ekologik boshqaruva sohasida quyidagilar Vazirlikning vazifalari hisoblanadi:

- irrigatsiya tizimlarini havzalar bo'yicha boshqarish prinsiplari asosida yer usti suv resurslarining davlat boshqaruvini amalga oshirish va batcha darajalarda suvdan foydalanishning va suv iste'molining bozor prinsiplarini joriy etish;
- davlat suv xo'jaligi tizimidan foydalanilishini va uning zamonaviylashtirilishini ta'minlash;
- ilgaridan sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va yangi yeriarni o'zlashtirish chora-tadbirlarini amalga osbirish;
- qishloq, suv va o'rmon xo'jaligida investitsiya siyosatini ishlab chiqishda qatnashish;
- yer va suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlariga qat'iy rivoja etilishini ta'minlash;
- o'rmon xo'jaligidan foydalanish, uni qo'riqlash, hunoya qilish va rivojlantirish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish (O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tarkibidagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi).

O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi Respublikamiz o'rmon resurslarining boy salohiyatidan to'la-to'kis va oqilona foydalanishni ta'minlash, o'rmon fondi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, sohaga ilig'or ilmiy-texnika yutaqlarini joriy etish, o'rmon xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, shuningdek xorijiy investitsiyalarni yanada faol jalb etish va ekologik turizmni rivojlantirish sohasida boshqaruvni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organ hisoblanadi. Qo'mita o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-maydag'i "O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5041-sonli Farmoni va "O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2966-son qaroriga muvofiq olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qishloq va suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda iste'mol tovarlari masalajari kompleksi tarkibiga kirdi.

O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nallishlari etib quyidagi belgilandi:

➤ o'rmon xo'jaligi sohasida o'rmon boyliklarini har tomonlama kengaytirish va ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan yagona davlat siyosatini yuritish;

➤ o'rmon to'g'risidagi qonun bujjatlarini takomillashtirish be'yicha takliflar ishlab chiqish va ularga noga etilishi amaliy nazorat qilish;

➤ o'rmon fondi va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni samarali boshqarishni tashkil etish, o'rmon barpo etish, ularni qayta tiklash, qo'riqlash, muhofaza qilish, o'rmonlardan oqilona va tejamli foydalanish;

➤ respublikamizda o'rmealarni tiklash va ihota o'rmonlarini ko'paytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, tog' yoncag'iri, jarliklar va tashlandiq yerlarda eroziyaga qarshi daraxtzorlar barpo etish ishlari bajarilishini tashkil qilish;

➤ o'rmon fondini, fauna va florasini o'rganish hamda ularning qat'iy hisobini yuritish, o'rmon xo'jaligini yuritish amaliyotiga fan yutuqlari va ilg'or tajribani joriy etish;

➤ o'rmonlarni yong'inlardan, zararkunanda va kasallikkardan, noqonuniy daraxt kesishdan va boshqa o'rmon qonunchiligi buzilishlaridan muhofaza qilish;

➤ manzarali o'simliklar ko'chatlari va erug'larini sertifikatlash va standartlashtirishning yagona tizimin ishlab chiqish hamda joriy qilishni tashkil etish;

➤ o'rmon xo'jaliklarida bir-biriga bog'liq bo'lgan xo'jalik faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish, ko'chat yetishtirish, dorivor o'simliklar toplash, asalarichilik, baliqchilik, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hamda ularni chuquq qayta ishlash, xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishni tashkil etish;

➤ tarmoqqa xalqaro moliya institutlari grantlarini jaib etish va ekologik turizmni keng ko'landa rivojlantirish;

➤ o'rmon xo'jaligi sohasida o'rta maxsus va oliy ma'lumotli mutaxassislat tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hozuridagi Yer qa'rini geologik o'rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar obib horilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi sanoat va radiatsiya xavfsizligi, kon mimosabatlari sohasidagi, respublika hedudidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarning sanoat va radiatsiya xavfsizligi, yer qa'ridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir qonun hujjatlari va normativ-texnik hujjatlar talablariga rioya qilishlari yuzasidan davlat nazoratini, shuningdek davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha boshqa chora-tadbirlarni amalga osbiruvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. "Sanoatgeokontexnazorat" davlat inspeksiyasi o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi. "Sanoatgeokontexnazorat" davlat inspeksiyasi, uning tarmoq va mintaqaviy inspeksiyalar O'zbekiston Respublikasining sanoat xavfsizligi sohasidagi davlat boshqaruvi organlarining yagona tizimini tashkil etadi. Mintaqaviy inspeksiyalar mahalliy davlat hokimiyyati organlaridan mustaqil hisoblanadi va bevosita "Sanoatgeokontexnazorat" davlat inspeksiyasiga bo'ysunadi. Inspeksiya Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 11-maydag'i 131-son qarori bilan tasdiqlangan №zom asosida faoliyat yuritadi.

Ekologik boshqaruv sohasida bir nechta davlat organlariga daxldor umumiyl vakolatlari kuzatiladi.

Masalan, tabiy resurslarni muhofaza qilish va ularden og'lona foydalananis bo'yicha me'yoriy hujjatlarni qabul qilish yo'li bilan davlat organlari qenua va hukumat qatoriardagi qoidalarni yanada rivojlantiruvchi va aniqlashtirilgan idoraviy normativ hujjatlar qabul qiladilar. Idoraviy me'yoriy hujjatlar asosan me'yoriy hujatlarda texn'ik va tabiiy fablar talablarini kiritish lozim bo'lganda qabul qilinadi.

Qonunchilik asosida xo'jalik faoliyatining atrof tabiyi mahitga zararli ta'siri atrof tabiyi muhit sisatini, abolining ekologiya jihatidan xavfsizligini, tabiyi resurslarni tiklash va muhofaza qilishni **kafolatlevchi normativlari va standartlari** bilan cheklab qo'yiladi. Hududiy-ishlab chiqarish majmualarini tarkib toptirishda, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilishni rivojlantirishda hamda shaharlar, boshqa aholi punktlarini qayta qurish va ta'mirlashda **atrof tabiyi muhitga bo'ladigan ta'sirning yo'li qo'yish** mumkin bo'lgan me'yortari belgilanadi. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar atrof-muhitga ta'sirning yo'li qo'yilishi mumkin bo'lgan eng yuqori darajalarini tartibga soluvchi ekologik va boshqa yo'sindagi mezonlarni ishlab chiqishlari shart.

Ekologik normativlarni o'zlariga berilgan vakolatlarga munvosiq O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish

davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yer qa'tini geologik o'r ganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tasdiqlaydi. Bulerga: suvda ifloslantiruvchi moddalarining yo'l qo'yiladigan darajada to'planishi; atmosfera havosida ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarning yo'l qo'yiladigan darajada to'planishi, fizikaviy omiilar atmosfera havosiga akustik, elektromagnit, ionlashtiruvchi va boshqa zararli ta'sir ko'rsatishning yo'l qo'yiladigan darajalari kirdi. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 21-yanvardagi 14-son qatori bilan tasdiqlangan "Ekologik normativlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishish tartibi to'g'risida"gi Nizom bu boradagi menosabatlarni tartibga solishda o'ziga xos ahamiyat kasb etdi.

Ekologik standartlash orqali asosan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ekologik talablarga javob berishi belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining "Standartlash to'g'risida"gi Qonunining (1993-yil 28-dekabr 1002-XII son) 2-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi o'z vakolatlari doirasida "tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish hamda atrot-muhitni ifloslanishdan va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilish sohasida standartlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va nashr etadi.

Tabiiy obyektlar to'g'risida ma'lumot yig'ish maqsadida davlat organlari ularning davlat hisobi (davlat kadastro) ni yuritadi. Ushbu vakolat orqali tabiiy obyektlarning son va sifat ko'rsatkichlari, ya'ni ularning miqdori, tarqalganligi, joylashgan joyi va boshqa tavsiflari aniqlanadi. Tabiiy obyektlarni davlat hisobi tabiiy obyektlarning monitoringi (ularni kuzatish), inventarizatsiya yoki foydalanishni ro'yxatga olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Tabiiy resurslar davlat kadastrolarini yuritishdan maqsad tabiiy obyektlar haqida to'g'ri va to'liq ma'lumotlar olish, ularning holatini aniqlashdan iborat. Tabiiy obyektlarning miqdori va sifati, ularning huquqiy, tabiiy, xo'jalik holati, foydalanish darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar tizimi tabiiy obyektlar kadastroları deb nomlanadi. Tabiiy obyektlar kadastroları har bir tabiiy obyekt yuzasidan aiohida yuritiladi va ularni yuritish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi. Tabiiy obyektning kadastro shu tabiiy resarsni idora etuvchi maxsus davlat organlari tomonida yuritiladi va Davlat budjeti mablag'laridan moliyalashtiriladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishning davlat boshqaruvi tarmog'ida vakolatli boshqa organlari ham mavjud

bo'lib, ulai maxsus ekologik faoliyat olib bormasa-da, bu sohadagi boshqaruvda ishtiroki kuzatiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqi saqlash vazirligi O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuning 9-moddasiga muvofiq suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi. "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunda esa inson uchun atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi standartlar (sanitariya normalari) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqi saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanishi ko'rsatilgan hamda atmosfera havosini muhofaza qilish ustidan nazoratni olib boruvchi maxsus vakolat berilgan davlat organi sifatida belgilangan. Shuningdek, ushbu Qonunga asosan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi atmosfera havosini muhofaza qilish ustidan nazorat qilish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organi hisoblanadi. Ya'ni Ichki ishlar vazirligi tarkibidagi Davlat avtomobil nazorati avtotransportlar tomonidan atmosfera havosining ifloslanishi ustidan davlat nazeratini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzoridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 14-aprelda 183-sonli qarori bilan tasdiqlaugan Nizomiga muvofiq davlat suv hisobini va davlat suv kadastrini yuritishda ishtirok etadi suv va atmosfera monitoringini (kuzatuvini) amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi 1997-yil 29-avgust 472-I son Qonuning 6-moddasida Davlat bojxona qo'mitasining "atrof-mubitni muhofaza qilish chora-tadbirlari amalga oshirilishiga ko'maklashish" majburiyati o'rnatilgan. Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 30-iyuldagagi 374-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi to'g'risida"gi Nizomning 8-bandida qo'mitaning "hayvonlar va o'sinliklarning muhofaza qilinishi, atrof-muhit muhofazasi bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishiga" ko'maklashish vazifasi ko'rsatilgan.

Vazirlar Mañkamasining 1996-yil 11-apreldagi 143-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to'g'risida"gi Nizom asosida faoliyat yurituvchi Favqulodda vaziyatlar vazirligi fuqaro muhofazasi, avariylar, halokatlar va tabiiy ofatlar tufayli vujudga kelgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi ishlarga rahbarlikni hamda ularni muvofiqlashtirib borish ishlarini amalga oshiruvchi markaziy davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Ushbu davlat boshqaruvi organlari vakolatiari doirasida ekologik vazifalarini bajarishga qaratilgan funksiyani amalga oshirishlari va uning buqniy asoslari mavjudligi, ushbu davlat organlarini atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishni davlat boshqaruviga tarmog'idaqgi vakolatli boshqa organlari sifatida e'tirof etish imkoanini beradi.

Nazerat uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosati ekologik muammolarni hal qilishda suqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari ishtirokini ko'zda tutadi.

Qaysi qonuni va qonunosti aktlarda suqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarini atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish sohasidagi funksiya va vakolatlari ochib berilgan?

2. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunda tabiatni muhofaza qilishning maqsadlari bayon etilgan.

Ushbu Qonunda tabiatni muhofaza qilishning qanday maqsadlari ko'rsatilgan va tabiatni muhofaza qilish maqsadlarining ekologik xavfsizlikni ta'minlashdan farqi nimada?

3. Toshkent shahar hokimi qarori bilan Toshkent shahri Olmazor tumanidan Janubiy Koreya va O'zbekiston Respublikasi hamkorligidagi yangi to'qimachilik zavodini qurish uchun yer ajratildi. Tuman aholisi hokim qaroridan norozi bo'lib, Toshkent shahridagi ilmiy-tadqiqot institutlari bilan guruh tuzib ilmiy-ekologik eksperimenta o'tkazdi. Ekspertiza natijasida ushbu hududda zavod qurish aholi salomatligi va atrof tabiiy mehit holaga salbiy ta'sir qilishi aniqlandi. Biroq ushbu holat inobatga olinmay, obyekt qurilishi bosilandi.

"EkoSuv" jamoasi tashkiloti mahalliy aholi manfaatlarini ko'zlab Xo'jalik sudiga Toshkent shahar hokiminining zavod qurish to'g'risidagi qarorini bekor qilish to'g'risida da'vo arizasi bilan murojaat qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

4. Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkomasining qarorini ikki yil mobaynida ijro etishni to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qildi. Hokim o'z qarorini ushbu hujjatning amal qilishi Toshkent shahri shaharsozlik qonunchligiga muvofiq amalga oshirilishi mo'ljalangan qurilish ishlarining to'xtashiga sabab bo'lishi bilan asosladidi.

Holatga huquqiy baho bering.

6-BOB. EKOLOGIK ME'YORLASH, STANDARTLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Ekologik me'yorlash tushunchasi va tizimi. Atrof tabiiy muhit sifatini me'yorlash. Ekologik standartlashtirish. Ekologik sertifikatlashtirish.

Ekologik me'yorlash tushunchasi va tizimi

Insoniyat o'z turnushi va taraqqiyotini tabiiy resurslardan foydalannmasdan, atrof tabiiy muhitga qandaydir turli ta'sirlar ko'rsatmasdan ta'minlay olmaydi. Tabiatni saqlab qolish uni kelajak avlodlarga yetkazib berish maqsadiga erishishda, tabiatning sifat, soni xususiyatlari va uning xossalarni saqlab qolishda jamiyatning ijtimoiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda o'rnatiladigan tabiatga ta'sir ko'rsatishning ilmiy asoslangan chegarasi (oxirgi nuqtasi) yoxud **me'yorini o'rnatish** (joriy qilish) yoxud barpo etish eng muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsadga esa, albatta, ekologik me'yorlash orqali erishiladi.

Qonunchilik asosi

O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunining 14-moddasiga asosan xo'jalik faoliyatining atrof tabiiy muhitga zararli ta'siri atrof tabiiy muhit sifati, aholining ekologik jihatdan xavfsizligi, tabiiy resursslarni tiklash va muhofaza qilishni kafolatlovchi normativlari va standartlari bilan yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyati cheklab qo'yiladi.

Atrof tabiiy muhit normativlari quyidagi ko'rsatkichlarni belgilashga qaratilgan:

- tabiiy resurslardan foydalanish hajmlarini belgilash;
- tabiiy obyektlarning umumiyligini ko'rsatkichlari;
- tabiiy obyektlarga zararli ta'sir ko'rsatishning miqdorlari.

Ekologik me'yorlardan ayrimlari atrof tabiiy muhit sifatini baholashda qo'llanilsa, ba'zilari esa atrof tabiiy muhitga va uning obyektlariga zararli ta'sirni chegaralaydi, boshqalari esa uning obyektlaridan foydalanishni rejalashtiradi.

Ekologik me'yoriash ikkita ya'nalishda analga oshuviladi:

birinchidan, huquqiy norma ahamiyatiga ega bo'lgan ko'rsatkichlar (standartlar) da belgilanadi, chunonchi, ushbu belgilangan. Ekologik me'yorlar barcha subyektlarga taalluqli hisoblanadi. Masalan, avtomobil

dvigatellaridan chiqadigan tutun sifatini belgilash bo'yicha standartlar ishlab chiqarilayotgan hamda foydalanishda bo'lgan transport vositalariga taalluqli hisoblanadi;

ikkinchidan, huquqni qo'llovchi hujjatlarda belgilanib, ma'lum bir obyekti uchun qo'llaniladi. Ushbu ekologik me'yorlar alohida bir tabiiy resurslardan foydalanuvchi yoki atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatuvchi shaxslarga taalluqli hisoblanadi.

Ekologik me'yorlash – bu davlat organlarining atrof tabiiy muhit sifatini, tabiiy resurslardan foydalanish hajmini va boshqa ko'rsatkichlarini belgilash bo'yicha faoliyati. Ushbu faoliyat vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshirilib, sertifikatlashtirish, standartlashtirish va boshqa me'yorlarni belgilashda (o'rnatishda) namoyon bo'ladi.

Ekologik me'yorlashning **obyekti** esa atrof tabiiy muhit, uning sifat va son ko'rsatkichlari, tabiiy resurslar va ularning sifat hamda son ko'rsatkichlari hisoblanadi. Ekologik me'yorlar orqali atrof tabiiy muhit sifati hamda uning obyektlaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilinishi ta'minlanadi.

Ekologik me'yorlashning **subyektlari** davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Ekologik me'yorlash bilan faqat vakolatli davlat organlari shug'ullanadi, yuridik va jismoniy shaxslar esa faqat ekologik me'yorlarni belgilashda manfaatdor shaxs sifatida qatnashadi. Misol uchun, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning atmosfera havosiga stasionar manbalardan chiqarilganda yo'l qo'yiladigan darajadagi normativlari har bir ifloslantiruvchi modda yoki biologik organizmlar bo'yicha korxona, muassasa va tashkilotlarda ishlab chiqilib, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ekologik me'yorlashda me'yor sifatida atrof tabiiy muhitga va uning obyektlariga zararli ta'sir ko'rsatish darajasi tushuniladi. Ekologik me'yorlashda yo'l qo'yiladigan darajadagi me'yor ishlatalib, shu orqali atrof tabiiy muhitga va uning obyektlariga ta'sir ko'rsatishning eng yuqori darajasi belgilanadi.

Ekologik me'yorlar quyidagi asosiy **talablarga** javob berishi shart:

- aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash;
- insonlarning, o'simlik va hayvonot dunyosining genetik fondini saqlab qolish;

- barqaror iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash;
- tabiiy obyektlarning qayta tiklanishini ta'minlash.

Atrof tabiiy muhitning sifat normativlarida to'rtta ko'rsatkich mavjud bo'ladi:

Tibbiyot ko'rsatkichi – atrof tabiiy muhitga antropogen ta'sir ko'rsatishda insonning genetik fondiga va uning salomatligiga zararsiz darajadagi miqdorni hisobga olishdan iborat.

Ekologik ko'rsatkich – bu ekologik me'yollar orqali o'simlik va hayvonot dunyosining saqlanib qolinishini ta'minlash hisoblanadi.

Texnologik ko'rsatkich – bunda mavjud bo'lgan texnika va texnologiya bilan belgilangan me'yolarni ta'minlash imkoniyati hisobga olinadi.

Texnikaviy-tashkiliy ko'rsatkich – bu jamiyatdagi mavjud bo'lgan institutlar (davlat nazorati, monitoring va boshqalar) bilan zamonaviy o'lchash va baholash uskunalarini qo'llagan holda atrof tabiiy muhitga zararli ta'sirni aniqlash imkoniyatidir.

Ekologik me'yorlash har bir tabiiy resurs bo'yicha alohida tuzilgan bo'lib, yagona bir ekologik me'yor mavjud emas. Ammo ma'lum bir tabiiy resursga nisbatan belgilangan ekologik me'yor, ushbu tabiiy resursning muhofaza qilinishiga qaratilgan bo'lsa, boshqa tabiiy resursslarning muhofazasini ta'minlovchi me'yollar hamdir. Misol tariqasida, oqova suvlardagi ifloslantiruvchi moddalarning yo'l qo'yiladigan miqdorlari suvning sifatini ta'minlab, suv obyektlarida mavjud bo'lgan o'simlik va hayvonot dunyosining muhofazasini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ushbu me'yor insonlarning toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojini qondirishiga asos hisoblanadi.

Ba'zi bir ekologik me'yollar atrof tabiiy muhit obyektlarining sifati va sonini belgilaydigan reja sifatida ko'zga tashlanadi. Masalan, atmosfera havosida ifloslantiruvchi moddalar hamda biologik organizmlarning inson va atrof tabiiy muhit obyektlari uchun yo'l qo'yiladigan darajadagi to'planishi yoki hayvonot dunyosidan ov qilish usulida foydalanish sonini belgilaydigan kvotalarni ko'rsatish mumkin.

Atrof tabiiy muhitning sifat me'yolari deb atrof tabiiy muhit sifatini tavsiylovchi ko'rsatkichlarga aytildi. Ularga: atmosfera havosida va suvlarda zararli moddalar to'planishining yo'l qo'yiladigan darajadagi miqdorlari; atmosfera havosiga va suv havzalariga zararli moddalarni chiqarish (tashlash) ning yo'l qo'yiladigan darajadagi miqdorlari; radiatsiyaviy ta'sir, shovqin, tebranish, magnit maydonlarining yo'l

qo'yiladigan darajalari; qishloq va o'rmon xo'jaligida qo'llaniladigan kimyoviy moddalarning yo'l qo'yiladigan darajalari, oziq-ovqat mahsulotlarida kimyoviy moddalar qoldig'ining eng yuqori darajalari; atrof tabiiy muhitga antropogen ta'sir faoliyatining yo'l qo'yiladigan darajalari.

Tabiiy resurslardan foydalanish limitlari – tabiiy resurslardan foydalanishning yoki iste'mol qilishning yo'l qo'yiladigan me'yorlari hisoblanadi.

Tabiiy resurslardan foydalanish limitlarini belgilashda ikki maqsad ko'zda tutiladi, ya'ni birinchidan, tabiat va uning boyliklarini asrash bo'lsa, ikkinchidan, tabiiy resurslarni me'yorida ishlatish yoki me'yordan ortiqcha foydalanganlik uchun to'lovlarini undirishdan iborat. Tabiiy resurslarni iste'mol qilganlik uchun olingan to'lovlar ularni qayta tiklash va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash uchun sarflanadi.

Zararli moddalarning yo'l qo'yiladigan darajada tashlash (chiqarish) va joylashtirish miqdorlari ham tabiiy muhitdan foydalanishning bir turi hisoblanadi. Bunday limitlashtirish tabiatni muhofaza qilish vazifasini bajaradi, ya'ni ifloslantiruvchi manbadan chiqindilarning zararli moddalarini kamaytirish, ikkinchidan esa, ularni tashlaganlik uchun undiriladigan to'lovlardan shakllanadigan tabiatni muhofaza qilish fondlaridan ekologik maqsadlar uchun foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

E'tibor bering! **Ekologik me'yorlar** tabiiy resurslardan foydalanish, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatishni tartibga soluvchi huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan texnik ko'rsatkich bo'lib, har xil shakllarda o'z aksini topadi. Ekologik me'yorlash esa ushbu ko'rsatkichlarni belgilash, tasdiqlash va joriy qilish bilan bog'liq bo'lgan davlat organlarining faoliyatidir.

Shunday qilib, ekologik me'yorlar tabiiy resurslarning sifat hamda son ko'rsatkichlarini belgilab, ulardan foydalanish va muhofaza qilishni tashkil etishda asosiy talablarni o'z ichiga oladi. Shu jumladan, ekologik me'yorlar foydalanishni rejalashtirish uchun ruxsatnomalar berish, to'lov undirish, nazorat qilish, javobgarlikka tortishda asos hisoblanadi.

Ekologik me'yorlarning shakli deganda ular qaysi shakllarda belgilanishi tushuniladi. Masalan, standart, yo'l qo'yiladigan darajadagi ifloslantiruvchi moddalarni tashlash miqdorlari, chiqindilarni joylashtirish limitlari, hayvonot dunyosidan foydalanish kvotalari va boshqalar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 21-yanvardagi 14-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ekologik normativlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq ekologik normativlar loyihalarini ishlab chiqish ikki bosqichdan: 1) tashlamalar, oqovalarning manbalarini, chiqindilarning paydo bo'lishi va joylashtirilishini xatlovdan o'tkazish; 2) tashlamalar, oqovalar, chiqindilarning paydo bo'lishi va joylashtirilishini normalashdan iborat bo'ladi.

Bundan tashqari, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan ekologik me'yorlash tizimi quyidagi me'yorlarni o'z ichiga oladi:

- ekologik standartlar – muddatsiz, ma'lum bir mahsulotning ekologik xavfsizlik talabini belgilevchi ekologik me'yor;
- ifloslantiruvchi moddalarning atmosfera havosida va suv obyektlarida to'planishining yo'l qo'yiladigan darajalari – muddatsiz, ushbu obyektlarning sifat ko'rsatkichini belgilovchi me'yor;
- o'simlik va hayvonot dunyosidan foydalanish kvotalari – muddatli, asosan bir yilga mo'ljallangan, o'simlik va hayvonot dunyosidan foydalanish sonini belgilovchi reja;
- qishloq va o'rmon xo'jaligida qo'llanilishi mumkin bo'lgan kimyoviy moddalar va ularni qo'llash miqdorlari – muddatsiz, lekin vaqt-vaqt bilan o'zgarib turuvchi me'yor;
- ifloslantiruvchi modda yoki biologik organizmlarni chiqarishning yo'l qo'yiladigan normativlari – har bir statsionar ifloslantiruvchi manba uchun belgilanadigan me'yor;
- chiqindilarni joylashtirish limitlari – chiqindilarni yo'l qo'yiladigan miqdorlarda joylashtirish chegaralari.

Ekologik me'yorlash **subyektlari bo'yicha** quyidagilarga bo'linadi:

- hamma subyektlarga taalluqli me'yorlar – ekologik standartlar, atmosfera havosida ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarning inson va tabiiy muhit obyektlari uchun YQD to'planishi, suvlarda ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarning inson hamda tabiiy muhit obyektlari uchun YQD to'planishi;
- ma'lum bir subyektga taalluqli me'yorlar atmosfera havosiga doimiy manbalardan ifloslantiruvchi moddalar, biologik organizmlarning yo'l qo'yiladigan darajadagi normativlari hisoblanadi. Bu turdag'i ekologik me'yorlar ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi bilan boshqa ekologik me'yorlardan farqlanadi, ya'ni manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqilib, tabiatni muhofaza qilish, sanitariya nazorati va boshqa tegishli organlar tomonidan tasdiqlanadi.

Amal qilish muddati bo'yicha ekologik me'yorlash **muddatsiz** yoki ma'lum bir muddatga me'jallangan me'yorlarga bo'linadi. Ekologik standartlar, atmosfera havosida yoki suvlarda ifoslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarning inson hamda tabiiy muhit obyektlari uchun YQD to'planishi muddatsiz belgilanadi. Suvdan foydalanish limitlari, hayvonot dunyosi bo'yicha kvotalar muddatli hisoblanadi, chunki ular odatda bir yilga mo'ljallab tasdiqlanadi.

Umuman olganda, ekologik me'yorlar fan va texnika rivojlangan sari o'zgarib turadi. Samarali tozalash usullari, qurilmalar, asbob-uskunaiarning yaratilishi hamda joriy qilinishi natijasida ifoslantiruvchi moddalar, biologik organizmlari va chiqindilarni chiqatish, tashlash, qayta ishlash ko'rsatkichlari o'zgarib, ularni atrof muhitga chiqarish miqdorlari koskin o'zgaradi. Buning natijasida ekologik me'yorlarni qayta ko'rib chiqish imkoniyati yaratilib, ishlab chiqarish va o'zga faoliyatga nisbatan yanada qattiqroq ekoilogik talab belgilanishi mumkin.

Atrof tabiiy muhit sifatini me'yorlash

Atrof tabiiy muhit sifati me'yorlari (normativlari) tabiiy ekologik tizimlatni, o simliklar, hayvonlar va boshqa organizmlarning genofondini saqlashi maqsadida tabiiy muhit holatini baholash uchun o'rnatiladi.

Atmosfera havosida ifoslantiruvchi moddalar hamda biologik organizmlarning yo'l qo'yiladigan darajada to'planishi inson va atrof-muhitga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan atmosfera havosida zararli moddalar miqdorini tavsiflovchi me'yordir.

Bevosita ta'sir ke'rsatish deganda, zararli moddalarining me'yorlardan ortiq to'planishi natijasida inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatilishi tushuniladi (yo'valish, yoqmas hidlarni sezish, bosh og'tig'i va boshqalar yoki organizmda ushbu moddalar ta'sirida patogen kasallik o'zgarishlar).

Bilvosita ta'sirga inson salomatligiga ta'sir ko'rsatmaydigan, amino uning yashash shaxciti yemonlashuviga sabab bo'luvchi omillar kiradi. Masalan, o'simliklarga zarar yetkazilishi va ularning kamayishi, tuman tushadigan kuniarning ko'payishi va boshqalar.

Yer usti va yer osti suvlarini ekologik talablarga mosligini ta'minlashda suv obyektlariga ta'sir ko'rsatish normativlarining belgilanishi va ularga rioya qilinishi bilan ta'milanadi.

E'tibor bering! Suv obyektlariga ta'sir ko'rsatish me'yirlari quyidagilarga bo'linadi suvlarda zararli moddalarning yo'l qo'yiladigan doiradagi to'planish miqdorlari, oqova suvlardagi zararli meddalarning yo'l qo'yiladigan dorradagi miqdorlari; suvdan foydalanish limitlari; sanoat, kommunal va boshqa obyektlarda suvdan foydalanish me'yirlari; qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish me'yirlari.

Suvlarni sifati suvlardagi zararli moddalar va biologik organizmlarning inson va atrof tabiiy muhit obyektlari uchun yo'l qo'yiladigan darajada to'planish va oqova suvlardagi ifloslanuvchi moddalar, biologik organizmlarini suvlarga tashlashning yo'l qo'yiladigan doiradagi me'yirlari bilan ta'minlanadi.

Limitlarga rioya etish, suv hajmini hisobga olish to'yxatga olingan suv olish nuqtaiarida (xo'jalik taqsimlash bosh inshoot, kanal, skvajina, nasos stansiyasi va boshqa suv olish inshootlarida) limitlangan suvdan foydalanish shartnomasiga asosan amalga oshiriladi.

E'tibor bering! Limitlardan ortiq hajmda yoki limiti belgilanmasdan suvdan foydalanish iqtisodiy jarimalar qo'llanilishiga asos bo'ladi. Bu jarima har bir ortiqcha olingan suvning kubometriga ma'lum bir miqdor pul mablag'ini undirishdan iborat bo'ladi.

O'simlik va hayvonot dunyosini obyektlaridan foydalanishi me'yorlash bevosita va bilvosita analga oshiriladi. Bevosita me'yorlash orqali o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish me'yirlari belgilanadi. Bilvosita me'yorlash orqali o'simlik obyektlarining o'sish muhiti va

hayvonlarning yashash muhiti ma'lum bir sifat darajasi ta'minlanadi. Bunday me'yorlash orqali atmosfera havosini, suvlarni va boshqa tabiiy obyektlarning o'simlik va hayvonot dunyosi uchun bezarar sifat va son ko'rsatkichlari belgilanadi. Masalan, o'simlik va hayvonot dunyosini me'yorlash ham tegishlicha hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlariga ta'sir qiladi. O'simlik obyektlarini kamayib ketishi hayvondar ozuqasining kamayishiga va buning natijasida esa birinchi navbatda o'simlik bilan oziqlanadigan hayvonlarning soniga, qolaversa, yirtqich hayvonlarning kamayishiga sabab bo'ladi. Atmosfera havosining va suv obyektlarning sifatining yomonlashushi ham o'simlik va hayvonot obyektlarning soniga salbiy ta'sir etishi mumkin. Masalan, suvlarning ifloslanish baliq va boshqa suv organizmlarining kamayishiga olib keladi.

Yer va tuproqni muhofaza qilish sohasida me'yorləş ularni neft mahsulotları, moylar, og'is metallar, sanoat va maishiy chiqindilar, qishloq va o'immon xo'jaligini kimyolash vositalari bilan ifloslanishini kamzyutrishiga hamda tuproq eroziyasi, sho'rланishi va boshqa salbiy jaryonlar rivojlanishining oldini olishga qaratilgan.

Tuproqlarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish bo'yicha choralarning maqsadini belgilovchi standartlashtirish obyektlaridən biri bo'lib, tuproqlarni ifloslantiruvchi moddalar tuproqlarni yo'qotishga, ifloslanishiga, sho'rланishiga, erzeziyalanishiga sabab bo'layotgan xo'jalik va tabiiy faktorlarning klassifikatsiyasidir.

Yeriarni muhofaza qilish sohasida me'yorla ikkita asosiy yo'nalishga ega.

Birinchidan, sanoat, fuqarolik uy-joy qurilishi, foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash uchun haında boshqa maqsadiarda yerlarni ajratib berishni taitibga solish yo'li bilan yer fondidan oqilona foydalanaishni ta'minlash.

Ikkinchidan, insонning ishlab chiqarish faoliyati natijasida rekultivatsiya orqali buzilgan yerlarning holatini yaxshilash. Yeriardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasida asosiy qoidalar, kompleks standartlarning mazmuni va tarkibiga nisbatan talablar hududlarni ekologik va iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yer fondidan tizimli ravishda foydalananishni ta'minlash maqsadida belgilanadi.

Ekologik standartlashtirish

"Standart" – inglizcha so'zdan olingan bo'lib "namuna", "andoza", "me'yor" degan ma'nolarni anglatib, u ko'pchilik manfaatdor tomonlar kelishivi asosida ishlab chiqilgan va ma'lumi sohalarda eng maqbul darajali taitibga soladigan, faoliyatning har xil turlariga tegishli bo'lgan umumiy va takror qo'llaniladigan qoidalar, talablar va usullar belgilangan hamda vakolatli idora tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujatdir.

Davlat organlarining normativ hujatlariga qoida, me'yorlar va belgilangan ko'rsatkichlarning kiritilishi standartlashtirish jarayoni deb nomianadi. Standartlari nafaqat moddalar, yarim mahsulotlar va tayyor mahsulotlarga, balki ularni ishlab chiqarish texnologik jarayonlariga hamda umumtexnik tusdag'i qoida va talabiarga ham ishlab chiqiladi.

Standartlarda vaqt-i-vaqt bilan fan va texnikaning oxirgi yutuqlarini, mahalliy va xorijiy tajribani hisobga olgan holda eskirgan ko'rsatkichlar yangilab turiladi. Ular faqat mahsulotning xususiyati va undan foydalanish sifat ko'rsatkichini aniqlash uchun zarur bo'lgan talablarni belgilaydi.

Qonunchilik asosi O'zbekiston Respublikasining Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonunning 2-inoddasiga asosan, standartlashtirish davlat organi hisoblanadi va tabiiy resurslardan foydalanish, atrof tabiiy muhitning iflosianishi yoki boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilish sohasidagi standartlarni, texnik shartlatimi ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va chop etadi.

O'zbekistonda ekologik standartlar o'tgan asmining 70-yillardan boshlab joriy qilib kelingan. "Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash sohasida standartlar tizimi" GOST. 17.00.01-76 standart joriy qilingan. Ushbu standart ekologiya sohasida bosh standart hisoblanib, boshqalari esa undan kelib chiqib belgilanishi lozim.

Ekologik

standartlashtirishning tizimi uchta asosiy yo'nalishdor iborat:

birinchi yo'nalishdagi standartlar atrof tabiiy muhitga zararli ta'sit ko'rsatishning yo'l qo'yiladigan ekologik me'yoriarini belgilash tartibi va shartlarini o'z ichiga oladi;

ikkinchi yo'nalishdagi ekologik standartlar atrof tabiiy muhitning muhofaza qilinishini tashkillashtirishga taalluqli talablarni belgilaydi. Masalan, aholi punktlarida havoning sifatini nazorat qilish qoidalari belgilangan;

uchinchi yo'nalishdagi standartlar atrof tabiiy muhit muhofazasiga taalluqli tushunchalarining yagona talablarini belgilaydi. Masalan, yer osti suvlarining foydalanish tulalariga qarab klassifikatsiyasi belgilangan.

Ekologik standartlar ustuvor ravishda texnik qoidalarni belgilaydi va huqnqiy akt xususiyatlarga ham ega. Ular qonun va qonunosti hujjatlaridan quydagilar bilan farqlanadi:

- davlat ekologik standartlari qonun hujjatiariga nisbatan yordamchi vazifani bajaradi;

- ekologik standartlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga solinaydi, ular atrof tabiiy muhitning, uning obyektlari yoki mahsulotlarining ma'lum bir sifat ko'rsatkichlariga mos kelishi lozimligini belgileydi;

- standartlashtirish bir xil xususiyatlarga ega bo'lishi lozim bo'lgan tipik obyektlar bo'yicha belgilanadi;

- butunlay atrof tabiiy muhit yoki uning obyekti ekologik standartlashtirilmaydi, balki ularning ma'lum bir xususiyat funksiyalari standartlashtiriladi.

Hozirda tabiatni muhofaza qilish sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat standartlashtirish tizimini yaratish maqsadida, O'z DSi 1. 12:1999

“Tabiatni muhofaza qilish sohasida standartlashtirish tizimi. Asosiy qoidalar” va O‘z DSt 1. 13:1999 “Tabiatni muhofaza qilish sohasida standartlashtirish tizimi. Me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish taribi” ishlab chiqilib, ularda tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish talablari belgilandi va vatanimiz standartlerini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni 32-moddasida “Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi idoraviy, ishlab chiqarish va jamoat nazorati” ijrosim: ta’minalash maqsadida, 2006-yildan boshlab O‘z DSt 16. 9:2006 “O‘zbekiston Respublikasi ekoanalitik laboratoriyalarni attestatsiyadan o‘tkazish. Laboratoriyalarning texnik loyiqligini baholash tartibi” davlat standarti analga kiritildi.

Ekologik standartlashtirishda xalqaro standartlashtirish tashkiloti ISO (ISO – International Organization for Standardization) 1947-yil 23-fevralda 25 ta sanoati rivojlangan davlatlarning Londonda imzolagan ixtiyoriy, hukumatiga qarashli bo‘lmagan xalqaro miqyosdagi sanoat standartlarini muvofiqlashiuvchi yagona tashkilot tuzish haqidagi kelishivi asosida ta’sis etilgan) muhim o‘rinni egallaydi. 1993-yili ushbu tashkilot tizimida “Ekologik boshqarma” (yoki “Atrof-muhitning sifati boshqarmasi”) texnik qo‘mutsi (ISO TQ 207) tashkil etilgan.

Qo‘mita o‘z faoliyatini ekologik tizimni yaratish, ekologik audit, ekologik belgilarni berish, ekologik nuqtayi nazardan bezararligi tavsiflarini baholashga qaratgan. Ushbu qo‘mita faoliyati natijasida ISO 14000 turkumdag‘i xalqaro standartlar ishlab chiqilgan. ISO 14000 turkumdag‘i standartlar asos soluvchi va rae‘yorlashtiruvchi standartlarni e‘z ichiga oladi. ISO 14001 “Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida boshqaruvi tizimi. Qo‘llash uchun rahbarlik” asos soluvchi standarti va ISO 14004 “Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida boshqarish tizimi. Tamoyillar, tizimlar va texnologiyalar bo‘yicha umumiy rahbarlik” standarti korxona hujjatlarida baholanishidan tortib ro‘yxatga olish va sertifikatlashtirishgacha atrof-muhitni muhofazasini tashkil qilish bo‘yicha tavsiyalarini o‘z ichiga oladi.

Ekologik sertifikatlashtirish

“Sertifikat” so‘zi lotin tilidan tarjima qilinganda “to‘g‘ri qilindi” degan ma’noni anglatadi. Sertifikatlashtirishdan oldin mahsulotlar qaysi

talablarga javob berishini aniqlash lozim. Mahsulotlar bo'yicha tajablar standartlar va boshqa me'yorlarda belgilanadi. Shuning uchun ham, ular muvofiqlik sertifikati (Assurance of conformity) deb nomlanadi.

E'tibor bering!	Sertifikatlashtirish – guvohlik betish, qayd yoki shahodat etish, ishonch bildirish ma'noiarida ishlataladi va ishonchliik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini uchinchi, xolis va tan olingan tomon tarafidan tasdiqlaydigan faoliyatni bildiradi.
----------------------------	---

Sertifikatlashtirishda mahsulotning sifati haqida iste'molchini ishontiradigan tegishli hujjat – **sertifikat** beriladi.

Sertifikatlashtirish jarayoni boshqa me'yorlashdan farqli ravishda quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Birinchidan, sertifikatlashtirish uchinchi tomondan – davlat tan olgan (akkreditatsiyadan o'tgan) organ yoki tashkilot tomonidan o'tkaziladi. Ushbu organ yoki tashkilot mahsulot ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar orasida turib mahsulotning sifat va boshqa ko'rsatkichlari to'g'risida kafolat beradi. Ikkinchidan, aniq bir ishiab chiqilgan mahsulot sertifikatlashtiriladi va uni qalbakilashtirishning oldi olinadi. Uchinchidan, sertifikatlashtirish mahsulotning standart va boshqa me'yorlardagi belgilangan tajablariga mosligini bildiradi.

Ekologik sertifikatlashtirish mahsulot, ishlarning atrof tabiiy muhit holatiga zararli ta'sir ko'rsatmashk darajasini aniqlash uslubi hisoblanib, ishlab chiqarilgan mahsulot yoki bajarilayotgan ishlarning belgilangan standartlar va boshqa me'yorlarga mos kelishini aniqlaydigan jarayen.

Masalaga e'tibor bering!	Ma'lumki, qadimdan xarid paytida savdo mukammal bo'lishi uchun, uchta tomon ishtirok etishi kerak. 1) oluvchi (xarider) taraf, 2) sotuvchi (tavyorlovchi) taraf va 3) xolis taraf sotilayotgan buyum yoki mahsulotning sifat ko'rsatkichlari kafolat beradigan shaxs. Savdoing bu tur asosan katta miqdordagi yoki qimmatbaho xarid paytida qo'llanilgan bo'lib, buni hozir ham qoramol, qo'y va ot savdosida uchiatishimiz muoakin. Xorijiy olimlar muvofiqlik sertifikati eramizdan oldin IV asrda joriy qilinganligini ta'kidiagan.
---------------------------------	--

Ekologik sertifikatlashtirishning maqsadi esa ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va bajarilayotgan ishlarning ekologik xavfsizligini

aniqlashdan iboratdir. Demak, ekologik sertifikatlashtirish fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini amalga oshirishning alohida huquqiy kafolatidir.

"Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 46-moddasiga asosan, ekologik sertifikatsiz xomashyo va materiallarni ishlatish, texnologik jarayonlarni joriy etish va mahsulotlar ishlab chiqarish man etiladi.

Ekoilogik sertifikatlashtirish, asosan, ekologik xavfli mahsulot, jarayonlar uchun qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonunida xavfli chiqindilar to'g'risidagi Bazel konvensiyaga muvofiq xavfli chiqindilarni O'zbekiston hududiga olib kirish, O'zbekiston hududida tashish ekologik sertifikatsiz man etilishi mustahkamlab qo'yilgan. Ekologik sertifikatlashtirishning tartibi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 19-apreldagi 151-sonli qarori bilan belgilangan.

Ekologik sertifikatlashtirishning obyekti ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, bajarilayotgan xizmatlar (ishlar), ishlab chiqarish jarayonlari, chiqindilar, subyektlari esa ekologik sertifikatlashtirish davlat organlari, ekoanalitik laboratoriylar, ekologik sertifikatlashtirish obyektlariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar hisobtanadi.

Ekologik sertifikatlashtirish quyidagi turlarga bo'linadi:

- obyekti bo'yicha: mahsulotlar, bajarilayotgan xizmatlar (ishlar), ishlab chiqarish jarayonlari, chiqindilarni ekologik sertifikatlashtirishga;
- majburiyligi bo'yicha: majburiy va ixtiyoriy ekologik sertifikatlashtirish.

Ekologik sertifikatlashtirish obyektlarining har bir jarayoni o'zgacha xususiyatlarga ega. Misol uchun, chiqindilar sertifikatlashtirilganda ularning ma'lum bir standartlarga mosligi tekshirilmay, balki ularning toksik va boshqa zararli xususiyatlari har bir holatda aniqlanadi va tabiatga zararli ta'sir ko'rsatish darajasi belgilanadi. Mahsulotlarni sertifikatlashtirishda oldindan belgilangan ekologik standartlarga mosligi aniqlanadi. Ishlab chiqarish jarayoni ekologik sertifikatlashtirilganda uning ekologik ekspertriza asosida ma'qallangan loyiha hujjalariiga mosligi tekshiriladi.

Majburiy sertifikatlashtirish holatlari O'zbekiston Respublikasining "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi Qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Shunday toifadagi obyektlarga xavfli chiqindilar kiradi. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish yuridik va jismoniy shaxslarning tashabbusi bilan o'tkaziladi. Shuning natijasida mahsulotlar va xizmatlarga "ekologik toza" belgisi beriladi.

Ekologik sertifikatlashtirishni ham O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi (O'zdavstandart) boshqaradi. Ushbu organ sertifikatlashtirish tarmog'ida davlat siyosatini amalga oshiradi, sertifikatlashtirishni o'tkazish bo'yicha umumiy qoidalarni belgilaydi; sertifikatlarni o'zaro tan olish bo'yicha xalqaro tashkilotlar hamda xorijiy davlatlar bilan ishlarni amalga oshiradi; sertifikatlashtirish bo'yicha organ, sinov laboratoriyalari (markazlari)ni akkreditatsiyadan, ekspert auditorlarni esa attestatsiyadan o'tkazadi va akkreditatsiyani bekor qiladi; sertifikatlashtirish org'anlari va laboratoriyalari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Ekologik sertifikatlashtirish Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining Ekologik sertifikatlashtirish, me'yorlashtirish Bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Ekologik sertifikatlashtirish jarayonini to'g'ri tashkil qilish maqsadida tegishli ekoanalitik laboratoriyalar O'zdavstandart organlarida akkreditatsiyadan o'tkazilib va guvohnoma berilib, jalb qilinadi.

Ekologik sertifikatlashtirish tizimi ekologik sertifikatsiyalashtirish bo'yicha normativ hujjalarni, ekologik sertifikatlashtiruvchi organlarni, sertifikatlashtirilgan obyektlarni, berilgan ekologik sertifikatlarni hisobga olish uchun reyestr va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ekologik sertifikatlashtirish umumiy sertifikatning tarkibiy qismi sifatida yoki alohida mustaqil ravishda o'tkaziladi. Ekologik sertifikatlarni xuddi shunday mahsulot ishlab chiqaruvchi, xizmatlarni (ishlarni) bajaruvchi boshqa shaxslarga berish man qilinadi.

E'tibor bering!	Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulot, xizmatlar (ishlar) ning to'yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Bunday ro'yxatga faqarolarning hayoti va sog'ligiga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan mahsulotlar, xizmatlar (ishlar) kiritiladi. Sertifikatlashtirish ishlari uchun murojaat qilgan yuridik va jismoniy shaxslardan to'lov undiriladi.
------------------------	--

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga otib kirish faqat ekologik sertifikati mavjud bo'lgandagina amalga oshirilishi mumkin. Ushbu ialab to'g'risida import kontraktlariga tegishli qoida kiritilishi lozim. Ekologik sertifikatlar tegishli mollar respublika hududiga olib kelinganda, deklaratsiya bilan birgalikda bojxona organlariga taqdim etiladi.

Ekologik sertifikatlashtirish jarayonida import qilinayotgan mahsulot va chiqindilarning ular ishlab chiqilgan yoki hosil bo'lgan davlatdagi belgilangan talablarga mos kelishi tekshiriladi. Ekologik sertifikat har bir turdag'i chiqindi uchun alohida beriladi. Ekologik sertifikatlashtirish bo'yicha bir necha organ mavjud bo'lsa, yuridik va jismoniy shaxslar xohlaganiga murojaat qilishlari mumkin. Sertifikatlashtirish to'g'risidagi arizada mahsulot va chiqindining turi, uning xususiyatlari, ekologik xavflilik darajasi, hajmi va og'irligi ko'rsatiladi. Zarur bo'lgan hollarda namunalar va mahsulot, chiqindilarning texnik hujjatlari taqdim etiladi. Mahsulot va chiqindilarning sinovlari sinov laboratoriyalari (markazlari) da amalga oshiriladi. Sinov natijalari bo'yicha bayonnomma tuziladi va u sertifikatlashtiruvchi organga taqdim etilagach sertifikat rasmiylashtiriladi.

Ekologik sertifikatlashtirishning to'rtta guruhini ajratish lozim: atrof tabiiy muhitning obyektlari; atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalar; tabiatni muhofaza qilishga mo'ljallangan mahsulotlar; ekologik axborot resurslari; mahsulot va texnologiyalar.

Chiqindilarni sertifikatlashtirish sohasi o'z dolzarbliji bilan ajralib turadi. Shu sohada sertifikatlashtirish atrof-muhitga zararli ta'sirning oldini olish va ikkilamchi xomashyo sifatida ulardan foydalanimiga qaratilgan. Chiqindilar bo'yicha standartlarni takomillashtirish zarur, chunki u sertifikatlashtirish bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

Ma'lumot uchun! Yevropada sertifikatlashtirish ikkita yo'nalishda amalga oshiriladi: unda mahsulot yetkazib beruvchining muvofiqlik to'g'risida bayonoti, ya'ni mahsulotning belgilangan talablarga javob berish to'g'risidagi yozma kafolati. Bayonot kataloglarda chop etilishi mumkin yoki u yuk xati, foydalanim bo'yicha qo'llanma va boshqa shakkarda (etiketka) e'lon qilinishi mumkin. Ikkinechidan, bevosita sertifikatlashtirish yo'li bilan, ya'ni mahsulot, jarayon, xizmatlar belgilangan talablarga javob berishi to'g'risida uchinchi taraf tomonidan yozma katolat, ya'ni sertifikat berish orqali amalga oshiriladi.

Yevropa Ittifoqida ekologik sertifikatlashtirish tanoyillari oldini olish (preventiv) choralariga asoslangan bo'lib, birinchi navbatda ifloslantirish manbalaini yo'qotish yo'li bilan atrof tabiiy muhitga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararning oldini olishni anglatadi. Ekologik muvozanai buzilishiga aybli shaxslarning moliyaviy javobgailigi ikkinchi

navbatdagi omillarni tashkil etadi. Ekologik sertifikatlashtirishning mezonlari standartlashtirish talablaridan kelib chiqishi va ularga monand bo'lishi shart. Buday mezonlarni aniqlash mahsulotning har bir guruhi bo'yicha atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish darajasini marketing va boshqa izlanishlar orqali aniqlashni taqozo etadi. Mahsulotni ishlab chiqishi, foydalanishi chog'ida zamon bo'lgan tabiiy resurslardan foydalanish va ularning ifloslanishi hamda ularga o'zgacha zararli ta'sir ko'rsatilishini o'rghanish zarur.

Ma'lumot uchun! Finlandiya o'rmonlarini sertifikatlashtirish tizi ni FFCS (Finnish Forest Certification System) maxsus tarzda Finlandiya o'rmonlarini taqsimlanishini, ya'ni u yerdagi juda ko'pchilikni tashkil qiluvchi mayda mulkdorlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Ushbu tizimning qoida hamda talabi 8 ta standartni o'z ichiga olgan. O'rmonlardan foydalananishning barqarorligi mustaqil ekolog-auditorlar tomonidan o'matilgan 37 ta mezonni bajarilishi bilan belgilanadi yoki aniqlanadi. Shunday qilib, FFCS tizi ni ikkita sertifikatni, ya'ni o'rmon uchastkasiga va texnologik zanjirga sertifikatni berishni mo'ljalaydi. Shuningdek, ushbu tizim sertifikatlashtirilgan yog'och-taxtani (nomdor yog'och turini) qayta ishlovchi korxonalarga ekologik sertifikat olish hamda tegishli belgi bilan o'z mahsulotini markirovkalash huquqini olish uchun sharoit yaratadi.

Nazorat uchun savollar

1. Eko'logik me'yoralash har bir tabiiy resurs bo'yicha alohida tuzilgan bo'lib, yagona bu ekologik me'yor mavjud emas. Aytingchi, nima uchun ushbu tizim joriy etilgan, hamda ushbu masala yuzasidan qanday taklif va mulohazalaringiz mavjud?
2. Ekologik standartlashtirish hamda sertifikatlashtirish jarayonini xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda ushbu sohadagi xalqaro tashkilotning faoliyati orqali qiyosiy tahlil qiling, uning asosiy mohiyati nimelardan iborat?
3. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi inspektorlari tomonidan "RE-tekstil" AJ fabrikasida suv obyektlariga oqova suvlarni chiqarib tashlashda ekologik normativlarga riosa etilishi yuzasidan tekshirish (nazorat) o'tkazildi. Tekshirish jarayonida fabrika tomonidan suv obyektlariga YQD dan birmancha ortiq darajada chiqindilarni tasblaganlik aniqlandi hamda ushbu masala dalolatnomasi hamda ma'muriy

haquqbuzarlik bayonnomasida aks ettirildi. Ushbu ma'muriy haquqbuzarlik to'g'iisidagi ishni ko'rib chiqishi natijasida aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan qonunchilikka muvofiq eng kam oylik ish haqqining 20 baravar miqdorda jariyna solish haqida qaror qabul qilindi. Ammo ushbu qaroiga nisbatan notozi bo'lgan AJ xo'jalik sudiga murojaat qildi.

AJ o'zining vajida qonunchilikka muvofiq, ekologik me'yordarga rioya etgan helda YQD miqyosida suv obyektlariga chiqindilarni tashlayotganligini ko'rsatib o'tdi Shuningdek, ushbu suv obyektiga yana boshqa subyektlar ham chiqindilarni chiqarib tashlayotganliklarini ta'kidlab o'tdi.

Ushbu vaziyatga huquqiy baho bering.

4. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan Toshkent traktor zavodi AJ faoliyati tekshirilganda ushbu jamiyat sistematik ravishda suv obyektiga oqova suvlarni chiqarib tashlayotganligi aniqlandi. Tekshirish shuni ko'rsatdiki, mazkur oqova suvlardagi ifloslantiruvchi moddalar tarkibi YQD dagi me'yordan ortiq ekanligini ko'rsatdi. Ushbu holat yuzasidan jamiyat direktoriga nisbatan jarima belgilandi hamda keltirilgan zararni qoplash bo'yicha xo'jalik sudiga da'vo arizasi kiritildi. Ammo AJ direktori jarimani to'lashdan bosh tortdi, sababi ushbu tashlanayotgan har bir zararli moddalar uchun tegishli ravishdagi to'lov tariflari asosida hamda muntazam to'lovlarini amalgalashirib kelayotganligini vaq qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

7-BOB. EKOLOGIK EKSPERTIZA VA NAZORATNING HUQUQIY HOLATI

Ekologik ekspertiza tushunchasi, maqsadi, tamoyillari va usullari. Ekologik ekspertiza turlari. Ekologiya nazoratining tushunchasi, maqsadi, vazifasi va usullari. Ekologiya nazoratining tizimi.

Ekologik ekspertiza tushunchasi, maqsadi, tamoyillari va usullari

Ekspertiza (lot. "expertus" – tajribali) deganda mutaxassis (ekspert) tomonidan hal etish uchun fan, texnika, san'at sohasida maxsus bilim ta'lab etiladigan masalaning hal etilishi tushuniladi.

Ekologik ekspertiza ekologik huquqiy mexanizmning tarkibiy qismi sifatida atrof tabiiy muhitning barqarorligini saqlash, tabiiy boyliklardan unumli va samarali foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-mayda qabul qilingan "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonuni 26-moddadan iborat bo'lib, ushbu qonunda ekologik ekspertiza tushunchasi, amalga oshirish asoslari, shartlari va tartibi belgilab berilgan.

Esda tuting! **Ekologik ekspertiza** – rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash hamda ekoilogik ekspertiza obyektini ro'yobga chiqarish mumkinligini aniqlasbdir ("Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasi).

Qonunda ekologik ekspertiza asosan ikki holatda berilgan:

- 1) rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash;
- 2) ekologik ekspertiza obyektini ro'yobga chiqarish mumkinligini aniqlash bilan bog'langan.

Ekologik ekspertizaning huquqiy holati O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi, "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining ekologik ekspertizani o'tkazish tartibi to'g'risidagi me'yoriy hujjatlarida belgilangan.

Ekologik ekspertizaning eng asosiy vazifasi atrof tabiiy muhit va aholiniing hayoti va sog'lig'iga xavfli va zararli ishlab chiqarish va xo'jalik obyektlari ta'sirlarining oldini elish, bartaraf etish bilan bog'liq preventiv chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir.

E'tibor qiling! Ekologik ekspertiza mahrim va murakkab faoliyat turi sifatida quyidagi shartimiz va o'ziga xos **tarmoq illar** asosida amalga oshiriladi:

- qonuniylik;
- ekologik ekspertizaning mustaqiligi;
- oshkoraliq;
- ilmiy-tehnikaviy asoslilik;
- ekologik xarfsizlik talablarini hisobga olishning mejburiyligi;
- har oanday rejalashtirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatning ehtiymol tutilgan ekologik xevflik prezumpsiysi;
- xo'jalik va boshqa xil faoliyatning atrof tabiiy muhitga va aholiniing sog'lig'iga ta'sirini baholashning keng ko'lamli va keng qarmovliligi;
- ekologik ekspertizani o'tkazishda jamoatchitikning qatnashiishi va boshqalar.

Ekologik ekspertiza jarayonida turli **shakldagi** quyidagi usullardan foydalangan holda ko'zda tutilgan maqsadga erishiladi:

- **ma'lumotlar to'plash** – ekspertizadan o'tayotgan muayyan obyektga tegishli bo'lgan barcha axborot, ma'lumotlarni yig'ish va to'plash;
- **umumlashtirish** – obyekt haqidagi to'plangan iqtisodiy, texnologik, ekologik, gidrologik kimyeviy va boshqa ma'lumotlarni o'z yo'naliishlari bo'yicha ma'lum tizimga keltirish;
- **tahlil qilish** – umumlashgan ma'lumotlar bankini o'z yo'naliishi va xususiyatlari bo'yicha alohida o'rghanish, tasniflash;
- **baholash** – ekspertiza o'tkazilayotgan obyekt yo'naliishlari, bo'limlari, tashkil etuvchi qismlari bo'yicha xavfli va zararlilik darajasini aniqlash;

E'tibor qarating! O'zbekiston Respublikasi "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunning

3-moddasiga asosan ekologik ekspertiza quyidagi **maqsadlarda** o'tkaziladi:

- mo'hallanayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilinishidan oldingi bosqichlarda bunday faoliyatning ekologik talabiarga muvofiqligini aniqlash;
- rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyat atrof tabiiy muhit holatiga va fuqarolar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, bunday faoliyatning ekologik xavflik darajasini aniqlash;
- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalananish bo'yicha nazarda tutilayotgan tadbirlarning yetarligi va asosligini aniqlash

- **xulosa berish** - ekspertiza o'tkazilayotgan obyektning ekologik jihatdan zararli yoki zararsiz, xavfli yoki xavfsiz, ekologik qoidalablariga mos kelish yoki ushbü qoidalablariga zid ekanligi haqida yakuniy, adolatli, obyektiv xulosaga kelish.

Ekologik ekspertiza turlari

Amaldagi qonunchilik hujjalardan ekologik ekspertizaning ixcham tizimi e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasi "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonuning 4-moddasida ekologik ekspertizaning quyidagi tizimi belgilangan: "Ekologik ekspertiza davlat va jamoat ekologik ekspertizasi, shuningdek ekologik audit tarzida amalga oshiriladi".

Davlat ekologik ekspertizasi. Davlat ekologik ekspertizasi yuqoridagi Qonundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yii 31-dekabrdagi 491-sonli qarori bilan tasdiqlangan "**O'zbekiston Respublikasida davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida**"gi Nizom asosida ham amalga oshiriladi.

E'tibor qiling! Davlat ekologik ekspertizasini O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-mubitosi muhofaza qilish davlat qu'mitasini olib boradi va quyidagi asosiy vakolatlarga ega hisoblanadi: davlat ekologik ekspertizasini tayindaydi va e'tkazadi; ekologiya ekspertizasiga tegishli bo'lgan me'yoriy-texnik, buquqiy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi; ekologik ekspertiza komissiyasi uning a'zelari va ekspertlar guruhini tuzadi; devlat ekologiya ekspertizasi xulosalarini talablarining bajarilishini nazorat qiladi va hokazo.

Ekologiya qonunchilik hujjalarda ekspertiza o'tkazalishi shart bo'lgan **obyektlar** belgilangan. Ular jumlasiga:

– davlat dasturlarining, konsepsiyalarining ishlab chiqarish kuchiarini, iqtisodiy va ijtimoiy soha tarmoqlarini joylashtirish hamda rivojlantirish sxemalarining loyihalari;

– barcha turdag'i qurilishlar uchun yet uchastkalarini ajratish materiallari;

– loyiha oldi va loyiha hujjatlari;

– tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq xo'jalik va boshqa xil faoliyatni tartibga soluvchi me'yoriy-texnik va yo'riqnomalashubiy hujjatlarning loyihalari;

– texnika, texnologiya materiallar, mahsulotlarning yangi turlarini yaratishga doir hujjatlari;

- atrof tabiiy muhit holatiga va fuqarolar hayoti va sog'lig'iga zararli va xavfli ta'sir ko'rsatuvchi isblab chiqarish jarayonini amalgalashirayotgan barcha turdag'i korxonalar;
- shaharsozlik hujjatlarining barcha turi;
- maxsus huquqiy rejimli obyektlar va boshqa obyektlar.

Ushbu obyektlarga nisbatan davlat ekologiya ekspertizasini o'tkazish majburiy hisoblanadi va imulkchilik shakli hamda ma'muriy bo'y sunishidan qat'i nazar, hech bir obyektga bu borada istmiyoq berilmaydi.

E'tibor qiling! Qonurchilikda I, II, III va IV toifaga tegishli bo'lgan faoliyat turlari to'g'risida so'z boradi. Bu faoliyat turlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamusining 2001-yil 31-dekabrdagi 491-sorni qaron bilan tasdiqlangan. Unga ko'ra, atrof-mahitga ta'sir ko'rsatishning I toifasiga kiradigen faoliyat o'ta xavfli, II toifasiga kiradigan faoliyat o'rache darajada xavfli, III toifaga mansub faoliyat past darajada xavfli hamda IV toifasiga mansub faoliyat mahalliy ta'sir ko'rsatadigan darajada xavfli hisoblanadi.

Davlat ekologiya ekspertizasi jarayoni har bir obyektning hajmi va o'ziga xos xususiyatlariiga ko'ra bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi, ya'ni:

- 1) tayinlashi – obyektiга nisbatan ekologik ekspertiza tayinlash va maxsus komissiya, ekspertlar guruhini tuzish;
- 2) obyekt haqida ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va baho berish bosqichi;
- 3) obyektning ekologik qoida-talabiarga mos yoki zid ekanligi haqida xulosa tayyorlash va uni tasdiqlash;
- 4) obyekt haqidagi xulosani bank muassasalariga yuborish;
- 5) davlat ekologik ekspertizasi xulosasi yuzasidan nizolarni hal qilish.

Shuni ta'kidlash kerakki, davlat ekologik ekspertizasining xulosasi mahimi ahamiyatga ega bo'lib, obyekt haqida salbiy xulosa berilgan taqdirda bank muassasalarini ushbu obyekti molivyalashtirmaydi va faoliyatini bekor bo'lishi mumkin.

Ma'lumot uchun! Yurtimizda o'tgan yillarda mobaynida ekologik ekspertiza natijalari bo'yicha atrof tabiiy muhitga salbiy tasir ko'rsatuvchi ha'zi obyektlarning ro'yebga chiqarilishi red etildi: Chimyon-Chorvoq rekreatsion hududida farmatsiyika zavodi qurilishi; Chirchiq daryosi suvini muhofaza qilish hududida 1800 tonni amoniak selitrasи omchorining qurilishi; Toshkent shahri va Toshkent viloyati chegarasida qum-shag'al aralashmasini qazib otish.

O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit mahallatasini ta'sib yozuvlardan foydalananishning holoti to'g'risida Milliy nus'ruxa, 2006-yil.

Jamoat ekologik ekspertizasi. Ekologik ekspertizaning rizimida jamoatchilik ekspertizasi slohida ahamiyat kasb etadi. Jamoat ekologik ekspertizasi fuqarolarning davlat boshqaruv organlarida ularning ekolegik muifaatlariiga taalluqli masalalarni hal etishda faol aralashish va nazorat qilish huquqini beradi.

Jamoat ekologik ekspertizasi nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolar tomonidan amalga oshirilib, rejalashtirilayotgan, amal qilayotgan turli obyektlar yuzasidan o'tkazilishi mumkin.

Jamoat ekologik ekspertizasining ahamiyati va zaruriyati shu bilan belgilanadiki, ushbu institut jamoatchilik tomonidan ekologiya nazoratini aynalga oshirishning asosiy usuli bo'lib, jamoat birlashmalariga muayyan vaziyat, faoliyat yoki hujjat yuzasidan mustaqil tekshiruvlar o'tkazish, ularga xolisona va asosli baho berish hamda uning natijasidan kelib chiqib, tegishli tavsiyalar berish, vakolatli organlarga murojaat etish huquqini beradi. Jamoat ekologik ekspertizasi natijalarining omnaviy e'lon qilinishi ushbu masalaga jamoatchilik e'tiborini tortish va tegishli faoliyat yoki hujjatni qo'llab-quvvatlash yoxud aksincha bekor qilishga keng aholi e'tiborini tortish va shu orqali ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

2008-yil 2-avgustda ekologiya sohasida 80 dan ortiq nodavlat-notijorat tashkilotlar vakillari, ekologik olim va mutaxassislar tashabbusi bilan Toshkentda O'zbekiston ekologik harakati ta'sis konferensiysi bo'lib o'tdi harnda konferensiya ishtirokchilari tomonidan **O'zbekiston ekologik harakatini tuzish taklifi** ma'qullandi. Hozirgi kunda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda aboli salomatligini muhofaza qilishga yo'naltirilgan omnaviy jamoat birlashmasi sifatida O'zbekiston ekologik harakatidan 15 nafar deputat saylanadi.

Mamlakatimizda jamoat ekologik ekspertizasiga oid huquqiy asoslar shakllantirilgan bo'lib, uzuksiz rivojlanib bonnoqda Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida ekologik ekspertiza o'tkazishning majburiyligi belgilangan hamda Qonunda "Ekologiya ekspertizasi" deb nomlanuvchi VI bob ham o'z aksini topgan. Xususan, mazkur bobning jamoatchilik ekologik ekspertizasiga bag'ishlangan moddasida esa jamoatchilik asosidagi ekologiya ekspertizasi jamoat birlashmalarining tashabbusiga ko'ra ularning mablag'lari hisobidan yoki jamoatchilik asosida mutaxassislarning mustaqil guruhlari tomonidan amalga oshirilishi, jamoatchilik asosidagi ekologiya ekspertizasining xulosalari tavsiya tamoyiliga ega bo'lishi mustahkamlangan.

Bundan tashqari, jamoat ekologik ekspertizasi o'tkazish bilan bog'liq masalalarni nisbatan kengroq o'zida qamrab olgan O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasida jamoat ekologik ekspertizasini moliyalashtirish nodavlat notijorat tashkilotlarining yoki fuqarolarning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi, 23-moddasida esa jamoat ekologik ekspertizasi ekologik asoslanishi taqozo etitadigan har qanday faoliyat sohasida nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkinligi, jamoat ekologik ekspertizasini amalga oshirishga to'sqiniik qilish taqiqiarishini, jamoat ekologik ekspertizasi davlat ekologik ekspertizasi o'tkazilishidan qat'i nazar, amalga oshirilishi mumkinligini va jamoat ekologik ekspertizasining xulosasi tavsiya xususiyatiga ega bo'lishi ta'kidlanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida davlat ekologik ekspertizasi o'tkazish haqida"gi Nizomning birgina 13-bandida davlat ekologik ekspertizasini o'tkazishda jamoat ekologik ekspertizasi materiallaridan foydalanish mumkinligi haqidagi qoida mustahkamlangan.

Jamoat ekologik ekspertizasi davlat ekologik ekspertizasi o'tkazilganligidan qat'i nazar, amalga oshiriladi. Jamoat ekologik ekspertizasining xulosasi tavsiya ahamiyatiga ega bo'ladi, davlat hokimiyati va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etilishi mumkin.

Davlat va jamoat ekologik ekspertizasi bir-biridan quyidagi muhim jihatlari bilan farqlanadi:

birinchidan, jamoat ekologik ekspertizasi tegishli subyektlarning tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladi, davlat ekologik ekspertizasi esa majburiy ravishda o'tkaziladi;

ikkinchidan, davlat va jamoat ekologik ekspertiza xulosasining yuridik kuchida, ya'ni davlat ekologik ekspertizasi o'tkazilganda, uning xulosasini ijro etish majburiy bo'lsa ("Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasi birinchi qismi), jamoat ekologik ekspertizasining xulosasi tavsiyaviy ahaniyatga ega bo'ladi (23-moddaning uchinchi qismi);

uchinchidan, jamoat ekologik ekspertizasining amalga oshirilishini moliyalashtirilishida namoyon bo'ladi. Qonunga muvofiq davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachining mablag'lari hisobidar amalga oshirilsa (10-moddaning birinchi qismi), jamoat ekologik ekspertizasini moliyalashtirish nodavlat notijorat tashkilotlarining yoki fuqarolarning o'z mablag'lari

hisobidan amalga oshiriladi (10-moddaning ikkinchi qismi). Deinak, ko'rib turganimizdek, jamoat ekologik ekspertizasining maqomi ham davlat ekologik ekspertizasidan farq qiladi;

to'rinchidan, davlat va jamoat ekologik ekspertizasi o'zining maqsadi va mohiyati bo'yicha ham bir-biridan farq qiladi. Davlat ekologik ekspertizasi shunday vakolatli davlat organlari tomonidan o'tkazilib, bunda vakolatli davlat organlari, eng avvalo, ekspertiza o'tkazilayotgan obyektning iqtisodiy yoki boshqa ko'rsatkichlariga e'tibor qaratadi. Jamoat ekologik ekspertizasi o'tkazishda esa jamoat birlashrnalarining maqsadi ekspertizadan o'tkazilayotgan obyekt joylashgan hudud tegishli mintaqaga va unda istiqomat qiluvchi aholining umumiy manfaatlariini himoya qilishga qaratilgan hamda bunda davlat ekologik ekspertizasini o'tkazuvchi subyektlarga ma'lum bo'lgan jihatlar ham jamoat ekologik ekspertizasini o'tkazish jarayonida aniqlash mumkin.

Ekologik audit. Ekologik audit (ingl. "audit" – "u eshitadi") ekologik auditorlar yoki ekologik auditorlik tashkilotlarning atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi xo'jalik faoliyatini mustaqili tekshirish va atrof-muhit va aholi salomatligiga salbiy ta'siri kamaytirish bo'yicha tavsiyalarini ishlab chiqishdan iborat bo'lgan tadbiikorlik faoliyatidir. Ekologik audit ekologik-huquqiy normalarning amalga oshirilishida muhim vosita hisoblanadi.

E'tibor qiling! Ekoigik audit davlat ekologik ekspertizasidan farqli ravishda xo'jalik va ishlab chiqarish obyekti mulkdorining qaroriga binoan o'tkaziladi

Auditorlik xizmati xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan auditorlik firmalari o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Bunday firmalar auditorlik xizmatini amalga oshirish uchun tegishli korxona, tashkilot, muassasa va kompaniyalar faoliyatini nazorat qiladigan davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi) dan olingan maxsus ruxsatnomasi asosida amalga oshiriladi.

Ekologik audit ekologik auditorlar tomonidan qonun hujjalardida belgilangan tartibda va shartlarda o'tkaziladigan, atrof tabiiy muhit holatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, ishlab turgan korxonalar va boshqa obyektlarni mustaqil ekologik ekspertiza qilishni ko'zda tutadi.

Ishlab chiqarish obyektlarining ekologik auditi

atrof-muhitni muhofaza qilishga doir talab va yo'riqno'nalarga ko'rxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga to'g'ri kelishi, tabiatni muhofaza qilish tadbirlari bo'yicha tavsiyanonalarni tayyorlash haunda tabiiy resurslardan foydalanshagini sarxarajatlari tekshirishdir. Bunday tekshiruv aksar hollarda "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasida qayd qilingan ishlarni moliyalashdan avval va nazoratlovchi organlar bilan bo'ladigan nizoli holatlarda amalga oshiriladi.

Hududiy ekologik audit

aniq bir yer uchastkalari yoki hududlarni tabiiy resurs imkoniyatlarini salby'y tabiiy hodisalar hamda atrof tabiiy muhitga texnogen jarayonlarning ta'sirini va ularning turiarini aniqlashni baholashda qo'llanadi. Ushbu ekologik audit turi ko'chmas malk va yer uchastkalari yuzasidru bajariladigan operatsiyalar bilan qo'shib baholanadi. Ish natijelari ushbu faoliyatni asoslash borasidagi ekspert xulosasi bilan yakunlanadi.

Ekologik konsalting

har qanday ko'lamdagi korxona, muassasa va tashkilotlarning faoliyatni ekologik ta'minlash bo'yicha ishlar majmui bo'lib, uning zamirida tabiiy resurslarni tejash hamda tashkilotlar tomonidan atrof tabiiy muhitni iflosantirish darajasini kamaytirish bo'yicha loyihalar ishlab chiqish yotadi.

Ekologik auditning huquqiy holati O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunida mustahkamlangan bo'lib, unda ekoiegik audit ekologik ekspertiza bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, shuningdek o'z xususiyatlariiga ega bo'lgan muhim huquqiy vosita sifatida tartibga solingan.

Ekologik audit shartnomaviy asoslarda yuzaga kelishi bois o'zida shunday munosabatlarning bir qator xususiyatlarni aks ettirishi bilan tavsiflanadi. Bunda taraflar nafaqat matanosib huquqlarga ega bo'ladilar, balki tabiat obyektlarini qo'riqlashga oid faoliyatning o'ziga xosligidan kelib chiquvchi huquq va majburiyatlarni ham belgilaydi va amalga oshiradi.

Ekologiya nazoratining tushunchasi, maqsadi, vazifasi va usullari

Ekologik nazorat tabiat zaxiralaridan oqilona foydalanishni boshqarish va tabiatni muhofaza qilish sohasida qonuniylikka aniq va og'ishmay nioya qilish ustidan muntazam kuzatuv olib borish faoliyatidir.

"Mamlakatimizda demokratik islohotlami yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini tivojlantirish konsepsiysi" asosida 2013-yil 27-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 21-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 27-dekabrdagi O'RQ-363-soni "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari rejası" tasciqlangan.

E'tibor qiling! Ekologiya nazorati bilan bog'lik terrakkab faoliyatini olib borishda ekologiya nazorati subyektlari tomonidan quvidaşı asosiy təsikiliy-huquqiy usuller co'yanadi:

1. **Kuzatish** – atrof tabiiy muhit bo'ladigan o'zgerishlarni o'rGANISH va ma'lumotlarni to'plash;
2. **Umumlashtirish** – atrof tabiiy muhit holatiga zararli va xavfli bo'lgan ta'sirlarni aniqlash, tahlil qilish asosida ma'lumotlarni tafsiflesh;
3. **Baholash** – antropogen faoliyat ishlarning zararli xavfli va noqonuniyligini aniqlash;
4. **Ruxsatnomma berish** – yuridik va jismoniy shaxslarga yer, suv, o'siralik va hayvonet dunyosi, yer osti boyliklari va atmosfers havosidan foydalanish uchun iitsenziya berish;
5. **Ogohlantirish, cheldash va to'xtatish** – ekologik xavfli va zararli xo'jalik va boshqa;
6. **Javobgarlikka tortish** – ekologik qoida-talablarни buzgan, yuridik va jismoniy shaxslarga nishbatan ma'muriy-huququqiy javobgarlik ch'iralarini qo'llash.

Qonunda fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning, shuningdek ekologik nazoratning janooatchi inspektorining ekologik nazorat sohasidagi vakolatlari, huquq va majburiyatlar ko'rsatib o'tildi hamda ular tomonidan ekologik nazoratni amalga oshirish tartibi, shakllari va usullari, ekologik nazorat natijalarini rasmiylashtirish va ekologik nazorat natijalarini ro'yobga chiqarish shakllari qonun normalari asosida belgilab berildi.

Ekologik nazorat obyektlari quyidagilardan iborat:

- yer, yer osti boyliklari, suvlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfers havosi;
- atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy va texnogen manbalar;
- atrof-muhit ifloslanishiga va tabiiy resurslardan neqilona foydalantilishiga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iiga tahdid solishi mumkin bo'lgan faoliyat, harakat voki harakatsizlik.

davlat va xo'jalik
boshqaruvi organlari

xo'jalik yurituvchi
subyektlari

Fuqarolar

Fuqarolarning o'zini o'zi
boshqarish organlari

nodavlat notijorat
tashkilotlari

Qonunda ekologik nazorat sohasidagi **davlat siyosatining asosiy te'rtta yo'nalishi** belgilab berilgan:

- 1) ekologik nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish;
- 2) fuqarolarning hayoti va sog'lig'i uchun qulay atrof-muhitni yaratish;
- 3) ekologik nazorat sohasidagi maxsus vakolati davlat organlari (undan buyon matnda maxsus vakolati davlat organlari deb yuritiladi), mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar bilan atrof-muhitning muhofaza qilinishi va tabiiy resurslardan oqilona foydalaniishini ta'minlash borasida hamkorlik qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish;
- 4) ekologik nazorat sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Ekoliya nazoratining tizimi

Ekoliya nazorati murakkab jarayonlardan iberat bo'sib, ta'sirlarning holatini kuzatish, tabiiy resurslarning holatiga baho berish va ularning istiqbolini belgilash, ekologik qoida-talablarning barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini tekshirish, salbiy ekologik oqibat va zararli ta'sirlarning oldini olish va cheklash, tabiatni muhofaza qilishning keng qamrovli ijtimeiy-iqtisodiy chora-tadbirlarini amalga oshirish, ekologik bilimlarni targ'ibot qilish va aholining ekologik madaniyatini oshirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlarning amalga oshirilishini muvofiqlashtirishga qaratilgan davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektlar va jamoat tashkilotlarining fachiyatlarini qamrab oladi.

Ekoliya nazoratini amalga oshirishda nafaqat davlat hokimiyati va boshqarev organlari, balki xo'jalik faoliyatni amalga oshiruvchi korxona, tashkilot va muassasa hamda jamoat tashkilotlarining faoliyati alohida o'rinni egallaydi.

"Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasiga muvofiq ekologik nazoratning 4 ta turi belgilangan: davlat ekologik nazorati; idoraviy ekologik nazorat, ishlab chiqarish ekologik nazorati, jamoatchilik ekologik nazorati.

Davlat ekologik nazorati. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 5-avgustdag'i 216-soni qarori bilan tasdiqlangan "Davlat ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra davlat ekologik nazorati maxsus vakolatli davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mabbamasi huzuridagi Yer qa'rini geologik o'rGANISH, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ("Sanoatgeokontexnazorat" DI), O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (IIV), O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo'mitasi ("Yergeodezkadastri" davlat qo'mitasi) maxsus vakelatli davlat organlari hisoblanadi.

Ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi boshqa maxsus vakolatli davlat organlarining davlat ekologik nazorati sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib beradi.

Esda tuting: Maxsus vakolatli devlat organlari qayidagi sohalarda davlat ekologik nazoratini amaga oshiradi.

1. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi – atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida;

2. Sog'liqni saqlash vazirligi – atrof-muhitning radioaktiv, kimyoviy, biologik meddalar bilan iflosanishi, ichimlik suv ta'minoti, atmosfera havosiga fizik omillarning zatarli ta'sir ko'rsatishi yuzasidan;

3. "Sanoatgeokonteksnazorat" DI – sanoat xavfsizligiga va radiatsiyaviy xavfsizlikka rivoja etilishi, yer qa'rini geologik o'rganish foydali qazilmalarni kovlab olish, mineral xomashyonini qayta ishiashda yer qa'ridan foydalanish va uni muhofaza qilish, shuningdek konchilik ishlariini geologik-marksheyderlik jihatidan ta'milash yuzasidan;

4. JIV – avtomotortransport vositalarining ishlatalishida atmosfera havosining iflosanishi yuzasidan;

5. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi – suv iy suv obyektlarining suvidan foydalanishi va iste mol qilinishi, o'sinlik va hayvonot danyosini huноya qilish bo'yicha davlat karantin qoidalarining bajarilishi yuzasidan;

6. "Yergeodezkadestr" davlat qe'mitasi – yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan, yerlarning ishlab chiqarish chiqindilari hamda boshqa chiqindilar, radioaktiv, kimyoviy, biologik meddalar va ozova suvlar bilan iflosanishi bundan mustasno.

Boshqa maxsus vakolatli davlat organlarining davlat ekologik nazorati sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi huzurida ularning vakillaridan iborat **muvofiqlashtiruvchi kengash** tashkil qilinadi. **Mahalliy davlat hokimiyyati organlari** tegishli hudduda davlat ekologik nazoratini amalga oshiradi.

Davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlarining o'z vakolatiari doirasida qabul qilgan qarorlari vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi shart. Davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi organlar ekologik nazoratning boshqa subyektlari va omnnaviy axborot vositalari bilan davlat ekologik nazorati masalalari bo'yicha hamkorlik qiladi.

Davlat ekologik nazoratining **shakllari** – atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan rivoja etilishini, davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarning amalga oshirilishini tekshirish; atrof-muhit monitoringi; davlat ekologik ekspertizasi.

Davlat, idoraviy va ishlab chiqarish ekologik nazorati atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hisobga olish, atrof-muhit ha'mda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish holatini tahlil etish, baholash va prognoz qilish yo'lli bilan amalga oshiriladi

Davlat, idoraviy va ishlab chiqarish ekologik nazorati natija'arini ro'yobga chiqarish shakllari quyidagilardan iborat:

E'tibor qiling! Davlat, idoraviy va ishlab chiqarish ekologik nazorati natija'arini rasmiylashtirish:

1) atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan noya etilishini, davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturler analga osbirilishini tekshurish natijalari bo'yicha dalolatnomasi yoki na'lumotnomasi;

2) atrof-muhit monitoringi natija'ari bo'yicha axborot vodi hisobet;

3) davlat ekologik ekspertizasi va ekologik audit natija'ari bo'yicha xulosa tuzish orqali analga oshirilishi mumkin.

1) atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablarining buzilishini bartaraf etish to'g'risida yuridik yoki jismoniy shaxsga yozma ko'rsatma berish;

2) korxonalar, tashkilotlar, inshootlar va boshqa obyektlar faoliyatini favqulodda vaziyetlar, epidemiyalar hamda fuqatolarning hayoti va sog'lig'iga boshqa real tahdid yuzaga kelishimining oldini olish munosabati bilan o'n ish kundan ortiq bo'lmagan muddatga cheklash, to'xtatib turish to'g'risida maxsus vakolatli davlat organi, mahalliy davlat hokimiyati organining qarorini qabul qilish;

3) maxsus vakolatli davlat organining, mahalliy davlat hokimiyati organining atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatayotgan korxonalar, tashkilotlar, inshootlar va boshqa obyektlar faoliyatini cheklash, to'xtatib turish, tugatish va (yoki) qayta ixtisoslashtirish to'g'risida, shuningdek atrof-muhitga, fiqarolarning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'mini qoplash haqida sudga ariza bilan murojaat qilish;

4) atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablarini buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risidagi materialni maxsus vakolatli davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborish;

5) idoraviy ekologik nazoratni amalga oshiruvchi davlat yoki xo'jalik boshqaruvi organining mansabdori shaxsi tomonidan davlat boshqaruvi organi tasarrufidagi tashkilot yoki xo'jalik boshqaruvi organi tarkibiga kiruvchi tashkilot rahbariga atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sehasidagi qonun hujjatlari talablarini buzilishi yuzasidan aniqlangan fakt bo'yicha chora-tadbirlar ko'zish uchun taklif kiritish;

6) ishlab chiqarish ekologik nazoratini amalga oshiruvchi vakolatl shaxs tomonidan xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariga atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablarining buzilishi yuzasidan aniqlangan fakt bo'yicha chora-tadbirlar ko'tish uchun taklif kiritish.

Ma'lumot uchun! 2013-yilde tabiatni muhofaza qilishga oid qonun hujjatlari buzh holatlari bo'yicha 5543 yuridik shaxs va 2084 fuqaroga jami 229,6 mln. so'mlik ma'muriy jarimalar solindi, shularning 226,7 min. so'mi yoki 98,7%i andorildi. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ustidan davlat nazorati doirasida asbob-uskunaiar bilan atrof-muhitni iflosantiruvchi 269,4 mingga yaqin manba tekshirildi (2012-yilda – 293,2 ming). Atrof tabiiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jami 119 ta obyekt ishi vaqtinchalik to'xtatildi, shundan 70 tasining to'xtatilishi hisobiga atmosferaga iflosantiruvchi moddelarni tashlash 131,6 tonnaga qisqardi.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining 2013-yil lag'i faoliyatini to'g'risida hisobot

Idoraviy ekologik nazorat. Idoraviy ekologik nazorat davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan davlat boshqaruvi organlari tasartufidagi tashkilotlarda, shuningdek xo'jalik boshqaruvi organlarining tarkibiga kiruvchi tashkilotlarda amaiga oshiriladi.

Idoraviy ekologik nazoratining **shakllari** – atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan rivoja etilishini, davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarning amalga oshirilishini tekshirish; atrof muhit monitoringi.

Ishlab chiqarish ekologik nazorati. Ishlab chiqarish ekologik nazorati xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan o'z xo'jalik faoliyatida va boshqa faoliyatda amalga oshiriladi. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek xo'jalik yurituvchi subyektlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan "Ekologik xizmat to'g'risida"gi namunaviy nizomga muvofiq ekologik xizmatni tashkil etishi mumkin.

Ishlab chiqarish ekologik nazoratining **shakllari** – atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan rivoja etilishini, davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarning amalga oshirilishini tekshirish; atrof-muhit monitoringi; ekologik audit.

Jamoatchilik ekologik nazorati. Jamoatchilik ekologik nazoratining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar tomonidan amalga oshiriladi.

Jamoatchilik ekologik nazorati natijalari belgilangan tartibda ma'lumotnomasi yoki axborot tuzishi orqali rasmiylashtirilishi mumkin.

Jamoatchilik ekologik nazorati natijalarini ro'yobga chiqarish shakllari quyidagilardan iborat:

1) maxsus vakolatli davlat organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini va fuqarolarni jamoatchilik ekologik nazoratining natijalari haqida xabardor qilish;

2) tegishli davlat organlariga atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablarining buzilishi yuzasidan aniqlangan fakt bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish uchun takliflar kiritish.

E'tibor qiling! Jamoatchilik ekologik nazoratining shakllari:

1) atrof-muhit holatini va uning xo'jalik faoliyat hamda boshqa faoliyat ta'siri ostidagi o'zgarishlarini, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujja'lari talablariga yuridik va jismoniy shaxsler tomonidan rioya etilishini, davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarning amalga oshirilishini kuzatib borish;

2) davlat, idoraviy va ishlab chiqarish ekologik nazoratini amalga oshirishda kuzatuvchi sifatida ishtiroy etish;

3) tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarining atrof-muhitni muhofaza qilish, hudedning sanitariya holiati, obodonlashtirilishi hamda ko'kalanzo:lashtirilishi masalalariga doir axboroti hamda hisobotlarini eshitish;

4) jamoatchilik ekologik ekspertizasini o'tkazish;

5) atrof-muhit va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning holstini tahlil qilish va baholash;

6) jamoatchilik fikrini o'rnatish

Nazorat savollari:

1. Fuqaro A. avtotransport vositalarini yuvish xizmatini ko'rsatuvchi MCHJ ochish maqsadida vakolatli davlat organiga murojaat etdi. Uning murojaati ushbu faoliyat turini amalga oshirish uchun ekologik ekspertizaning ijobiyligi xulosasi zarurligi asoslantirilish qaytarildi. Ushbu faoliyat turi bo'yicha ekologik ekspertiza qanday tashkil etiladi? Davlat ekologik ekspertizasi obyektlarining qanday turlarini bilasiz? Ular bo'yicha davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish bir-biridan qaysi jihatlariga ko'ra farqlanadi?

2. Fuqaro D. uyi yaqinida qarilayotgan elektrostansiya shu mahalla fuqarolari sog'lig'iga salbiy ta'sir o'tkazishi munkinligi bois fuqarolar

o'zini o'zi boshqarish organlariga jamoat ekologik nazoratini o'tkazish te'g'risida taklif bilan murojaat etdi. Biroq fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi jamoat ekologik nazoratini anialga oshirish tartib-taomillari aniq belgilanmaganligi bois bunday tadbimi o'tkaza olmasligini ma'lum qildi. Jamoat ekologik nazoratini o'tkazish tartibi qanday? Qonunchilikda qanday qoidalari belgilangan? Bu borsada qanday bo'shlisqlari mavjud?

8-BOB. ATROF TABIIY MUHITNI MUHOFAZA QILISHNING IQTISODIY MEXANIZMINI HUQUQIV TA'MINLASH

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmini huquqiy ta'minlash tushunchasi va xususiyatlari. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy mexanizmining asosiy maqsadi va yo'nalishlari. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy mexanizmining tizimi.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmini huquqiy ta'minlash tushunchasi va xususiyatlari

Ekologik munosabatlarni tartibga solishda iqtisodiy mexanizmini huquqiy ta'minlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, birinchidan, atrof tabiiy muhit barqarorligini ta'minlash va tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga, ikkinchidan, ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish jarayonini kafolatlashga, uchinchidan, jismoniy va yuridik shaxslarning ushbu sohadagi faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy usullar ma'muriy usullardan farqli ravishda tabiatdan foydalanuvchining hamda xo'jalik faoliyat yarituvchi boshqa shaxslarning mulkiy, iqtisodiy manfaatlariga ta'sir etadiki, ushbu holat bozor iqtisodiyoti sharoitida o'ta dolzarbedir. Agar ma'muriy-huquqiy ta'sir usuli hokimiyat va buysumuv munosabatlaridan kelib chiqsa, iqtisodiy mexanizm shaxsning real maqsadlariga erishishdag'i moddiy manfaatdorligiga tayanadi. Iqtisodiy usullar ma'muriy usullar kabi atrof tabiiy muhit sohasidagi munosabatlarni subyektlarining ekoilogik ongini shakllantirishda juda sanierali usullardan hisobianadi. Biroq ularning samaradorlik darajasi ma'lum ma'noda mamlakatning iqtisodiy rivojlanish holatiga bog'liq. Tabiatdan foydalanish va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni ta'minlashda iqtisodiy choralar haqida gapirganda ta'kidlash joizki, tabiatdan foydalanish faoliyatini boshqarishda iqtisediy va ma'muriy usullar o'zaro muqobil usullar hisoblanmaydi. Aksincha, ular bir-birini to'ldiradi¹¹.

Iqtisodiy usullarni qo'llash oqilona bo'lishi lozim, binobarin, tabiatdan foydalanishda to'lovlar doirasini haddan ziyod oshirish ekologik vazifalarni hal etishda tadbirkorlar tashabbeskorligini soddalashtirish o'miga iqtisodiyotni be'g'ib qo'yishi, tabdirkorlar tomonidan

¹¹ Бринчук М.М. Экологическое право // Учебник. – 2-е изд. перераб. и доп. – М.: Юрист, 2004. – С.412.

qarshiliklarni keltirib chiqarishi¹² mumkin. Iqtisodiy vositalar o'z mehiyatiga ko'ra mo'tadil, o'z funksiyalarini me'yorida bajara oladigan bozor iqtisodiyoti sharoitidagina samarali harakat qilishi mumkin.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmini huquqiy ta'minlash – bu atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydaianish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlarini rejalashtirish, moliyalashtirish, tabiiy resurslardan maxsus foydalanganlik, atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik, chiqindilarni joylashtirganlik va atrof tabiiy muhitga boshqacha tarzda zararli ta'sir ko'rsatganlik uchun to'lovlar undirish, iqtisodiy rag'batlantirish, iqtisodiy jazo choralarini qo'llash bilan bog'liq qoida-talablarning qonun hujjatlarida mustahkamlanishidi.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishda iqtisodiy mexanizmning ikki asosiy jihatiga e'tibor qaratish lozim. Iqtisodiy mexanizmning shakllanishi birinchidan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirish va pul mablag'larning jamg'arilish manbai bo'lib xizmat qilsa, ikkinchidan, tabiatdan foydalanuvchilar handa boshqa xo'jalik subyektlari – yuridik va jismoniy shaxslarga real ta'sir ko'rsatadi, ularni qonunchilikda mavjud ekologik talablarni bajarishga undaydi.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy mexanizmining bir qator o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy mexanizmining tabiatdan foydalanuvchilar uchun iqtisodiy rag'batlantirish vositasi sifatida baholanishi;
- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy mexanizmning ayrim turlarida davlat majburlov choralaridan foydalanilishi (masalan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanganlik hamda qonunlarda belgilangan talablarni buzganlik uchun iqtisodiy jazo choralarini qo'llashda, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliq va to'lovlar undirishda);
- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy mexanizmida ma'muriy-huquqiy vositalarning iqtisodiy rag'batlantirish usullari bilan o'zaro uyg'unlashganligi;
- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy mexanizmini huquqiy ta'minlashda ekologik tamoyillarning ustuvor mavqe kasb etishi;

¹² Келбесов О. С. Соотношение административных и экономических методов охраны окружающей среды // Экологическое право и рынок. -М. 1994. -С.50.

- tabiiy resurslardan foydalanish va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishda iqtisodiy manfaatdorlik ekologik talablarga asoslangan holda ta'minlanishi;
- atrof tabiiy muhit muhofaza qilish iqtisodiy mexanizmining tabiiy resurslardan oqilona, tejrali hamda samarali foydalanishni ta'minlovchi vosita sifatida namoyon bo'lishi;
- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy-huquqiy mexanizmining huquqiy institut sifatida bir qator vosita va usullar majmuyidan (tabiiy resurslardan maxsus foydalanganlik uchan to'lov, iqtisodiy rag'batlantirish, iqtisodiy jazo choralatini qo'llash, ekologik sug'urta, ekologik jamg'arnalar) tashkil topishi.

Demak, tabiatdan foydalanish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida iqtisodiy-huquqiy chora-tadbirlar tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi, o'z navbatida ekologik-huquqiy mexanizmning tarkibiy qismlari hisoblangan boshqaruv, nazorat, yuridik javobgarlik hamda ekologik-huquqiy madaniyat kabi institatlarning zaitlashuviga, bu esa ekologik-huquqiy normalarning amalda ishlamasligiga olib keladi. Shu jihatdan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy mexanizmini huquqiy ta'minlash masalasi iqtisodiy-huquqiy kafslat tizimining tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyatga ega.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy mexanizmining asosiy maqsadi va yo'nalishlari

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy mexanizmining maqsad va vazifalari ushbu institutning mazmun-mohiyatini oolib beruvchi muhim mezonlardan hisoblanadi

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy mexanizmining maqsadi – tabiiy resurslarning qiymatini mos ravishda baholash, ularidan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash, ekologik talablarga rivoj etilishini rag'batlantirish, ekologik toza, tabiiy resurslarni tejaydigan va kamchiqitli ishlab chiqarishni imtiyozli soliq va kredit berish yordamida rivojlantirish, atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararni qoplash, ekologik xavfsizlikni va barqaror rivojlanishni ta'minlashdan iboratdir.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy mexanizmi maqsadlaridan kelib chiqib, biz ushbu institutning yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga oid chora-tadbirlarni rejalashtirish va moliyalashtirish;
- tabiiy resurslardan foydalanish, atrof tabiiy muhitga chiqindi va ifoslantiruvchi moddalarni tashlash hamda chiqarish limitlarini belgilash;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof tabiiy muhitga chiqindi va ifoslantiruvchi moddalarni tashlaganlik hamda chiqarganlik, shuningdek atrof tabiiy muhitga boshqacha zararli ta'sir etganlik uchun to'lovlar hajmi va normativlarini belgilash,
- kam chiqindi chiqaruvchi hamda tabiiy resurslarni tejovchi texnologiyalarni va noan'anaviy energiya turlarini joriy etgan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha boshqa samarali choralarни amalgalash; oshirgan korxona, muassasa va tashkilotlar, shuningdek fuqarolarga kredit va boshqa imtiyozlar berish;
- atrof tabiiy muhitga va insonlari sog'lig'iga yetkazilgan zararni belgilangan tartibda qoplash.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy-huquqiy mexanizmi quyidagi usullardan (mexanizm) foydaianishni nazarda tutadi: tabiiy resurslarni ijtimoiy-iqtisodiy baholash; va hisobga olishni huquqiy tartibga solish; atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha ekologik dastur va tadbirlarni moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlash, rejalashtirish; tabiiy resurslardan kompleks foydalanish bo'yicha shartnomal tuzish va litsenziya berish; tabiiy resurslardan foydalanish limitlarini belgilash; tabiiy resurslardan haq evaziga foydalanish, bu esa tabiiy resurslar uchun to'lovni, atrof tabiiy muhitni ifoslantirganlik hamda ta'sir etishning boshqa ko'rinishlari uchun haq to'lashni o'z ichiga oladi; davlat va jamoat ekologik jamg'armalarini tuzish; ekologik sug'urtalash va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni iqtisodiy rag'batlantirish.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonaniga muvofiq tabiatni muhofaza qilishni ta'minlashning iqtisodiy tartiboti quyidagilardan iborat:

- tabiiy resurslardan maxsus foydalanganlik uchun, atrof tabiiy muhitni ifoslantirganlik (shu jumladan, chiqindilarni joylashtirganlik) va atrof tabiiy muhitga boshqacha tarzda zararli ta'sir ko'rsatganlik uchun to'lov undirish;
- kamchiqimli va resurslarni tejaydigan texnologiyalar joriy etilganida, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni qayta tiklashda samara beruvchi faoliyat amalgalash; oshirilganida korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga, shuningdek ayrim shaxslarga soliq, kredit imtiyozlari va o'zga imtiyozlar berish;

- ekologiya nuqtayi nazaridan xavfli texnologiyalarni qo'llaganlik va o'zga faoliyatni amalga oshirganlik uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga nisbatan maxsus soliqlar joriy etish;
- atrof tabiiy muhitga ifoslantiruvchi moddalarni chiqarish, oqizish yoxud ekologiya nuqtayi nazaridan zararlari faoliyatni amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar (ruxsatnomalar) olish;
- tabiiy muhitning qulay holatini buzgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar zimmasiiga uni tiklash vazifasini yuklash;
- tabiat obyektlarini buzish yoki yo'q qilib yuborish oqibatida yetkazilgan zarar uchun belgilangan tartibda tovon puli undirish;
- tabiatni muhofaza qilish borasidagi rejalari va chora-tadbirlar bajarilmagan, tabiatni muhofaza qiliishga doir qonunlarning normativ-texnik va boshqa talablari buzilgan hollarda mansatdor shaxslari yoki boshqa xodimlarni asosiy ishlab chiqarish faoliyatida erishilgan natijalar bo'yicha beriladigan pul mukofotlari yoki boshqa mukofotlardan to'liq yoki qisman mahrum etish;
- ekologik sof mahsulot chiqarganlik uchun rag'batlantiruvchi narxlar va ustama haqlar belgilash;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalansmaslik, me'yorda belgilanganidan ortiqcha foydalanganlik uchun tabiatdan foydalanuvchilarga nisbatan iqtisodiy jazo choralarini hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanganlik uchun iqtisodiy rag'batlantirishni qo'llash;
- tabiiy muhitni saqlash sohasida va ekologik sof mahsulot ishlab chiqarishda hammadan yuqori ko'rsatkichlarga erishgan davlat, kooperativ, jamoat korxonalari, muassasalar va tashkilotlari, boshqa korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlarning jamoalarini va ayrim xodimlarini, shuningdek ayrim shaxslarni moddiy rag'batlantirish.

Mamlakatimizda atrof tabiiy muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishda iqtisodiy usullarni bosqichma-bosqich tafbiq etish tamoyilidan kelib chiqib, tabiatdan foydalanishning ilmiy asoslangan iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini tafbiq etishni uch bosqichda amalga oshirish va 2010-yilda yakunlash ko'zda tutilgan edi. Birinchi bosqichda, O'zbekistonda birinchi bor O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 29-iyundagi "Ifoslantiruvchi moddalarni tabuy muhitga normativdan ortiqcha chiqarganlik (tashiaganlik) va chiqindilarni joylashtirganlik uchun to'lovlarni joriy qilish to'g'risida"gi 303-soni qarori (mazkur qaror Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 11-novabrdagi 140-sun qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan) bilan 1992-yil 1-iyuldan

boshlab tabiiy muhitga ifloslantiruvchi moddalarni normativdan ortiqcha chiqarganlik (tashlaganlik) va chiqindilarni joylashtirganlik uchun to'lovlar joriy qilish belgilandi. Mazkur qarorga muvofiq to'lovlarini undirib olish tartibi o'rnatildi va tabiatni muhofaza qilishning budjetdan tashqari mahalliy va respublika jamg'armalari tashkil etildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 24-maydag'i 246-sonli qarori bilan "Tabiatni muhofaza qilish jamg'armalari to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi, ularni shakllantirish manbalari va foydalanish tartibi belgilandi.

Ikkinchi bosqichda atrof tabiiy muhitni to'la ifloslantirilganlik uchun to'lovlar kiritish ko'zda tutilgan edi. Tabiatdan foydalanishda iqtisodiy mexanizmni bosqichma-bosqich joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 1-inaydag'i "O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun to'lovlar tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 199-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun 2003-yil 1-maydan boshlab kompensatsiya to'lovlarini joriy etildi.

Uchinchi bosqichda tabiiy resurslardan oqilona va kompleks foydalanimaganlik uchun to'lovlar tizimini joriy etish va tabiatdan maxsus foydalanganlik uchun to'lovlar olish mexanizmini yanada takomillashtirish ko'zda tutilgan¹³. Ushbu bosqichlar Tabiatni muhofaza qilish, Davlat statistika qo'mitalari tomonidan birqalikda ishiab chiqilgan va Vazirlar Mahkamasi tomonidan ma'qillangan "O'zbekiston Respublikasida tabiatdan foydalanishning ilmiy asoslangan iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini joriy qilish" konsepsiysi orqali amalga oshirish belgilangan edi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ma'qillangan tabiatdan foydalanishga bosqichma-bosqich o'tish Dasturi va "O'zbekiston Respublikasida tabiatdan foydalanishning ilmiy asoslangan iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini joriy qilish" konsepsiyasiga binoan atrof tabiiy muhit to'la ifloslanganligi, ya'ni umumiy chiqindilar, ifloslantiruvchi moddalarni tabiat muhitiga chiqarilgani va chiqindilarni joylashtirilgani uchun to'lovlarini bosqichma-bosqich kiritish amalga oshirildi. Shuningdek, ushbu bosqichda O'zbekiston Respublikasida tabiatdan foydalanishda iqtisodiy mexanizmni bosqichma-bosqich joriy etishni ta'minlash, tabiatdan foydalanishni boshqarishning iqtisodiy usullarini yanada takomillashtirish, shuningdek

¹³ O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanimishning holati to'g'risida Milliy ma'refa (2002-2004-yillarda). – T.: Chinor ENK, 2006. - B.103.

ekologiya xavfsizligi masalalari bo'yicha kompleks yondashuvni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2006-yil 6-fevralda №15-sonli "Tabiatdan maxsus foydalanganlik uchun to'lovlar tizimini takomillashtirish to'g'risida" qaror qabul qilindi.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy mexanizmi maqsad va yo'naliishlari tutli-tuman bo'lib, ular muayyan vaziyatda va aniq sharoitda (masalan, rivojlanayoqgan davlatning ma'lum muddatdan so'ng rivojlangan davlatlar safiga kirishi va h. k.) o'zgarishi hamda boyishi mumkin.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy mexanizmining tizini

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy mexanizmi tizindan **rejalashtirish va moliyalashtirish** o'ziga xos muhim o'rinn egallaydi Xususan rejalahtirish, mazkur mexanizmning tarkibiy qismalaridan biri bo'lib, u atrof tabiiy muhitning maqbul holatini ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror rivojlanishning ekologik asoslarini joriy etish maqsadini ko'zlaydi. Rejalashtirish atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni kompleks qanrab oluvchi chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi faoliyatdir.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy-huquqiy mexanizmida **rejalashtirish** – bu atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlarining mamlakatning ijumoiy-iqtisodiy rivojlanish davlat dasturlari, konsepsiyalari, reja va loyihalari orqali amalga oshiriladigan faoliyat turi hisoblanib, iqtisodiy-huquqiy mexanizmning tarkibiy bo'g'inini tashkil etadi.

Rejalashtirishning bir necha turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) uzoq muddatli (10 yillik muddatda har 5 yilda bir marotaba);
- 2) o'rtacha muddatli (uch yildan besh yilgacha muddatda har yili bir marotaba);
- 3) qisqa muddatli (har yilda bir marotaba)¹⁴.

Rejalashtirish qayidagicha hujjalarning iyerarxiyaviyligi tamciyli asosida amalga oshirilishi lozim: konsepsiya – prognoz – dasturlar. Konsepsiylar dasturlarga nisbatan kengroq maznunga ega bo'lib, ularning amal qilish muddati aniq vaqt mezonlari bilan chegaralanmagani bo'ladi¹⁵.

¹⁴ Экологическое право. // Учебник для вузов : Н.Д. Эспашкин, Ю.В. Груцеский, Р.В. Гучков и др. / Под ред. В.В. Гучкова. – М. : ЮНИТИ-ДЛНА, Закон и право, 2000. – С 150.

¹⁵ Новикова Е.В. Об экологических платежах по зонграту на проведение операций по недропользованию и стабильности положения инвестора // Экологическое право. №1, 2002. – С 39.

Bugungi kunga qadar mamlakatimizda quyidagi dasturlar amalga eshirilgan:

1. 1999-yil 20-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 469-son qarori bilan tasdiqlangan "1999–2005-yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish ishlari Dasturi".

2. 2003-yil 1-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16-son qarori bilan tasdiqlangan "2003–2005-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit monitoringi" Dasturi.

3. 2006-yil 16-martdagı 48-son qarori bilan tasdiqlangan "2006–2010-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit monitoringi" Dasturi.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 19-sentabrdagi "2008–2012-yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi to'g'risida"gi 212-son qarori bilan tasdiqlangan "2008–2012-yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari" Dasturi.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 31-oktyabrdagi "2011–2015-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit davlat monitoringi dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 292-son qarori bilan tasdiqlangan "2011–2015-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit davlat monitoringi" Dasturi.

Bugungi kunda esa, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, shu jumladan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasida bir qator konsepsiya va davlat dasturlari amal qilmoqda. Ular sirasiga quyidagilar kiradi:

1. 1996-yil 26-iyundagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №11/27-23-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida tabiatdan foydalanishning ilmiy asoslangan iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish" Konsepsiysi.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-maydagı 2013–2017-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha harakatlar dasturi to'g'risida 142-son qarori bilan tasdiqlangan "2013–2017-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha harakatlar dasturi".

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 23-avgustdagı "2016–2020-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit monitoringi dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 273-son qarori bilan tasdiqlangan "2016–2020-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit monitoringi dasturi".

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning rejalashtirish ishlarini samarali amalga oshirish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni moliyalashtirish ishlari bilan chambarchas bog'liq, shu sababli **atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni moliyalashtirish**, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy-huquqiy mexanizmi tizimining keyingi muhim tarkibiy qismalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Zotan, oqilona tashkil etilgan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni moliyalashtirish siyosati, ekologik muammolarni hal etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, moliyalashtirishni talab etadigan faoliyat bo'lib hisoblanadi.

Umuman xalqaro miqyosda oladigan bo'lsak, atrof tabiiy muhit muhofazasi muammolari bo'yicha bo'lib o'tgan Stokholm va Rio-de-Janeyro konferensiyalari orasidagi 20 yil ichida atrof tabiiy muhit holatini yaxshilash uchun 1,3 tril. AQSH dollarari sarflangan¹⁶.

Ma'lumot uchun!

Jumladan, birgina 1993-yil BMT va Markaziy Osiyoning besh davlati tomonidan tashkil etilgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi (OQXJ) o'tgan davr mobaynida (2011-yilga qadar) Orol dengizi havzasi mamlakatlariga ko'mak berishga doir ikkita dasturni amalga oshirib, ekologik holatni barqarorlashtirish, tabiiy muhitni tiklash, transchegaraviy suvlerni boshqarishni yaxshilash, iqtisodiy-ijtimoiy muammolar yechimiga yordam berishga yo'naltirilgan loyihalarni tajarib, buning uchun 2 milliard dollardan ortiq mablag' yo'naltirilgan. O'zbekiston oxirgi o'n yil ichida Orolbo'yidagi loyihalarga 1 nulliard 200 million AQSH dollaridan ziyod mablag' ajratgan¹⁷.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni moliyalashtirish bir qator manbalar hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Ular sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: 1) Davlat budgeti (Respublika, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, shahar va tuman budgetlari); 2) vazirliklar va idoralar mablag'lari; 3) korxona, tashkilot va muassasalar mahlag'lari; 4) ekologik jamg'armalar mablag'lari; 5) bank krediti; 6) jismoniy va yuridik shaxslarning, shuningdek chet el yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari.

¹⁶ Лосев К. Нам исшакют неэффективная экономика и рост населения. // Евразия. - № 4 (35). 1996. - С.2

¹⁷ Xalq so'zi. - 2014. - 30-oktabr. - № 210 (6140). - В. 1-2.

Atrof tabiiy muhitni davlat budjetidan moliyalash asosan quyidagi ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: 1) mazkur sohadagi davlat dasturlarini moliyalashtirish; 2) maxsus vakolatli davlat organlarining faoliyati (masalan, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi).

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni moliyalashtirish – bu tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirtari hamda dasturlarini respublika va boshqa ma'muriy hududiy birliklar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, shahar va tuman) budjeti, korxona, tashkilot va muassasalar mablag'lari, davlat va nodavlat ekologik jamg'arnilar, ekologik sug'urta jamg'armalari, bank kreditlari, yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek chet elliq yuridik va jismoniy shaxslar ixtiyoriy badallari, mablag'lari hisobidan pul yoki moddiy texnika resurslari bilan ta'minlanishidir.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rejalashtirish va moliyalashtirish atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy-huquqiy mexanizmining boshlang'ich bosqichi bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yilganligi hamda maqsadli yo'naltirilganligi bevosita atrof tabiiy muhitni muhofaza qiliш iqtisodiy-huquqiy mexanizmining boshqa bosqichiari faoliyatining oqilona tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi, shuningdek ulardan ko'zlangan natijalariga erishishga xizmat qiladi.

Ekologik to'lovlar. Haq to'lash tabiatdan foydalanishning muhim tamoyillaridan bo'lib, u bir qator maqsadlarga erishishni ta'minlaydi: birinchidan, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun haq to'lash davlat va mahalliy budjetni to'ldirish manbasi bo'lib xizmat qiladi; ikkinchidan, to'lovlarning muhim maqsadi – tabiatdan foydalanuvchilarni o'zları foydalanganliklari uchun haq to'laydigan resurslardan oqilona foydaianishlarini rag'batlantirish hamda ularning tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunining 34-moddasiga ko'ra tabiiy resurslardan maxsus foydalanganlik va atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik uchun to'lovlar tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlari hamda boshqa majburiy to'lovlardan, shuningdek atrof-muhitni ifloslantirganlik (ifloslantiruvchi moidalarni chiqarganlik, oqizganlik va chiqindilarni joylashtirganlik) uchun kompensatsiya to'lovlaridan, tabiiy resurslarni muhofaza qilganlik va qayta tiklaganlik uchun to'lovlardan iborat bo'ladi.

Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliq stavkalari va boshqa majburiy to'lovarning miqdorlari, shu jumladan ijara to'lovining miqdori tabiiy resurslarning qay darajada keng tarqalganligi, sifati, ularni qayta

tiklash imkoniyatlari, ulardan foydalanishning qay darajada qulayligi, kompleksliliqi, samaradorligi, ularning joylashgan yeri, chiqindilarni qayta ishslash va ulardan foydalanish imkoniyatlari hamda boshqa jihatlarni inobatga olgan holda aniqlanadi va tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit iflosantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun to'lovlar tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qatoriga muvofiq atrof-muhitni iflosantirganlik uchun kompensatsiya to'lovlarining miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan tasdiqlanadi.

Tabiiy resurslarni muhofaza qilganlik va qayta tiklaganlik uchun to'lovlarining miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilanadi. Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar tabiatdan foydalanuvchi korxonalar mahsulotlarining (bajergan ishtariaing, ko'rsatgan xizmatlarining) tannarxiga qo'shiladi.

Atrof-muhitga iflosantiravchi moddalar chiqarganlik va oqizgarlik hamda chiqindilar joylashtirganlik uchun kompensatsiya to'lovlarining summalarini tabiatni muhofaza qilish jamg'armalariga rushadi.

Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlarini va atrof-muhitni iflosantirganlik uchun kompensatsiya to'lovlarini to'lagaulik yuridik va jismoni shaxslarni ekologiya tadbirlarini bajarishdan va yetkazilgan zaratning o'mini qoplash majburiyatidan ozod etmaydi.

Tabiatdan foydalanganlik va unga zararli ta'sir etganlik uchun haq to'lashni quyidagi bir qator mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin:

I. Haq to'lash shakliga ko'ra:

1. Soliqlar, ular e'z navbatida quyidagi jarga bo'linadi:

- 1) yer solig'i; 2) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq hamda qo'shimcha foyda solig'i; 3) ekologiya solig'i (ekologik xavfsizlik uchun); 4) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

2. To'lovlar esa quyidagilardan inorat:

- 1) tabiiy resurslardan foydalanish huquqi uchun to'lovlar; 2) tabiiy resurslardan maxsus foydalanganlik uchun to'lovlar; 3) tabiiy resurslarni muhofaza qilish va qayta tiklash uchun to'lovlar; 4) hayvonot va o'simlik dunyosidan maxsus foydalanganlik uchun to'lovlar (tabiiy resurslarning alohida turlarini qayta tiklash va muhofaza qilishi choralarini analga oshirgan idora va qo'mitalar sarflagan xarajatlar kompensatsiyasi¹⁸); 5) davlat mablag'lari hisobidan qo'lga kiritilgan yer qa'ri to'g'risidagi ma'lumotlar uchun to'lovlar.

¹⁸ Makar C.B. Osnovnye zakonomernosti pravovedeniya v zemle. - M.: ИМПЭ, 1998. - С. 15.

3. Kompensatsiya to'lovlar – atrof-muhitni ifoslantirganlik, xo'jalik faoliyati ratiyasida salbiy ta'sir ko'rsatganlik (ifoslantiruvchi moddalarni chiqarganlik, oqizganlik va chiqindilarni joylashtirganlik) uchun to'lanadi.

4. Yig'imlar –asosan, hayvonot yoki o'simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish uchun ruxsatnomalar berish uchun undiriladi. Yig'im – bu yuridik yoki jismoniy shaxslardan undiriladigan majburiy to'lovlar bo'lib, uning to'lanishi yig'im to'lovchiga nisbatan davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, boshqa vakolatli organ va mansabdor shaxslarning yuridik ahamiyatga ega bo'lgan muayyan harakatlarni amalga oshirishlarining majburiy shartidir¹⁹.

5. Bonuslar – yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lov bo'lib, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksida (45-bob) uning ikki turi ko'rsatib o'tilgan: a) imzeli bonus; b) tijoratbop topilma bonusi.

II. Haq to'lash maqsadiga ko'ra:

a) tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun;

b) atrof tabiiy mehitni ifoslantirganlik uchun;

d) atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni qayta tiklash uchun.

Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar o'zida tabiatdan foydalanuvchi tashkilot mahsuloti (xizmat, ishlaring qiymatini qamrab oladi. Atrof tabiiy muhitni ifoslantirganlik uchun kompensatsion to'lovlar, shuningdek belgilangan ine'yordan ortiq va nooqilona maxsus foydalanganlik uchun to'lovlar yuridik va jismoniy shaxs daromadi(foyda)dan undiriladi. Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlari ularni qayta tiklash va muhofaza qilish uchun Davlat budgetiga tushadi²⁰.

III. Muhofaza etibadigan obyektiga ko'ra:

a) atmosfera havosini ifoslantirganlik uchun to'lov; b) yer usti va yer osti suv obyektlarini ifoslantirganlik uchun to'lov; d) chiqindilarni joylashtirganlik uchun to'lov; e) yer uchun haq to'lash (yer solig'i, ijara haqi va yerning normativ bahosi); f) yer qa'ridan foydalanganlik uchun haq to'lash hamda qo'shimcha foyda solig'i; g) hayvonot va o'simlik dunyosidan maxsus foydalanganlik uchun to'lovlar; h) o'rmonlardan foydalanganlik uchun to'lovlar; i) ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun haq to'lash.

¹⁹ Лисица В.Н. Належ или налог за пользование природными ресурсами? // Юрист. – №10. – 2004. – С 45.

²⁰ Файзиев Ш.К. Экологическая политика государства: проблемы правового обеспечения. Монография. Под ред. М.Х. Рустамбасова, Х.Р. Рахмонкулова. – Т.: ТТЮИ, 2004. – С.157.

Tabiatni muhofaza qilish jamg'armalari. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini pul bilan ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning joylardagi idoralari huzurida tabiatni muhofaza qilish Respublika jamg'armasi hamda mahalliy jamg'armalari tashkil etiladi.

Tabiatni muhofaza qilish Respublika jamg'armasi umumirespublika va davlatlararo ahamiyatga ega bo'lgan tabiat muhofazasi chora-tadbirlari (dasturlari)ni, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiat muhofazasini mahalliy jamg'armalar hamda korkona va tashkilotlar (tabiatdan foydalanuvchilar)ning o'z mablag'lari hisobidan tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini o'tkazish bilan bartaraf qilinmagan xo'jalik faoliyatining tabiiy muhitga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini yo'qotish ishlarini mablag' bilan ta'minlash maqsadida shakllantiriladi.

Tabiatni muhofaza qilishning mahalliy jamg'armalari zararli moddalarning atmosfera havosiga chiqarib tashlanishini, ifloslaigan oqova suvlarning suv obyektiiga oqizilishini, tuproqning iflosianishini kamaytirish, chiqindilarni qisqartirish va ulardan qayta foydalanish, hayvonot va o'simlik dunyosini saqlab qolishga qaratilgan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha hududiy va tarmoqlararo chora-tadbirlarni mablag' bilan ta'minlash uchun tuziladi.

Shuningdek, ayrim tabiat obyektlarini muhofaza qilishni moliyaviy ta'minlash maqsadida maxsus jamg'armalar ham tashkil etilishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 10-iyundagi "O'immon xo'jaligini rivojlantirishni moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 198-son qarori bilan tashkil etilgan O'rmon xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi.

Ekologik jamg'arma – atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasidagi faoliyatni moliyalashtirish maqsadida pul mablag'larini toplash, taqsimlash va foydalanishga mo'ljallangan iqtisodiy-huquqiy mexanizmning tarkibiy bo'g'ini hamda budjetdan tashqari tabiatni muhofaza qilish jamg'armalarining yagona tizimidir.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy-huquqiy mexanizmining yana bir muhim tarkibiy qismlaridan biri **ekologik sug'urta** institutidir. Sug'urta – bozor infrastrukturasing muhim utesuni, iqtisodiy va ijtimoiy sohaning ajralmas qismi U bevosita tadbirkorlik faoliyati subyektilari va fuqarolarning manfaatlariga taalluqli bo'lib, turli noqulay omillar natijasida yetkazilgan zararni qoplash yo'li bilan elarning muikiy huquqlari himoyasini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq sug'urta deganida, yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shuningdek sug'urtalovchining boshqa mablag'laridan shakilantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqeя (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tevonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi. Sug'urta faoliyati esa sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuning 36-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning iflosianishi va tabiiy resurslar sifatining yomonlashuvi oqibatida zarar yetishi hollarini nazarda tutib korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mol-mulki hamda daromadlari, fuqarolarning hayoti, ixtiyoriy hamda majburiy sug'urta qilinadi.

Tabiatdan
oqilona
foyda-
lanish, atrof
tabiiy
muhitni
muhofaza
qilishni
rag'bat
lantirish
shakllari

korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirganlari taqdorida ularga soliq solishda imtiyozlar berish

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiat muhofazasini ta'mirlash borasidagi chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish uchun imtiyozli shartlarda qisqa muddatli va ozog' muddatli kreditlar (ssudalar) berish

asosiy ishlab chiqarish fondlari uchun yuqori amortizatsiya normalari belgilash

tabiatni muhofaza qilish jamg'armalari mablag'larining bir qismini ifloslanuvchi moddaiar chiqarish va oqizishni kamaytirish chora-tadbirlarini ro'yobga chiqarish maqsadida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va ayrim shaxslarga foizli qazalar zifatida shartnomasi asosida berish

Ekologik sug'urtaning bosh maqsadi – atrof tabiiy muhitni ifoslantirish natijasida yetkaziladigan zararni kompensatsiyalasi, hamda barcha taraflar manfaatlari inobatga olgan holda ekologik xavfsizlikni qo'shimcha kafolatlash. Ekologik sug'urtaning asosiy muhim sharti shundaki, ham sug'urtalovchi, ham sug'urtalanuvchi atref tabiiy muhitga ifoslantirish natijasida yetkaziladigan zaraming oldini olishdan manfaatdor bo'lishi lozim. Ularning har ikkalasida ham sug'urta manfaatlari mavjud bo'ladi: sug'urtalovchida – bevosita yoki bilvosita yetkazilgan zararni qoplash; sug'urtalanuvchida – daromadining bir qismini yo'qotish (ya'ni ekologik xavf ehtimoli oshgan sari, sug'urta to'lovlarining miqdori ham oshib boradi).

Ekologik sug'urtaning obyekti – fuqaroviylar javoegarlik tavakkalchiligi bo'lib, yuridik va jismoniy shaxslarning fuqaroqlik qonunchiligidagi muvosiq aniq sug'urta shartnomasi hududida sodir bo'lgan atrof tabiiy muhit (yer, suv va havo) ifoslanishi natijasida yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha sug'urtalovchiga mulkiy da'veo qo'zg'atishda ifodalanadi²¹.

**Ma'lumot
uchun!**

Germaniya Federativ Respublikasida hozirda ekologik masalalar (shu jumladan, ekologik sug'urta) ni tartibga soluvchi 800 qonun, 2770 nizom va ko'tsatma hamda 4690 ta yo'riqnomalar amal qilmoqda. GFR qonunchiligidagi ekologik sug'urta atamasi qo'llanilmaydi, balki uning o'tniga "tashkilotlar tomonidan yetkaziladigan zararni sug'urtalash" va "atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni sug'urtalash" tushunchalaridan foydalaniildi. GFRda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni sug'urtalash masalasini ikki yo'naliishda o'rGANISH maqsadga muvoziq: 1) atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni sug'urtalashning huquqiy asoslari; 2) GFR qonunchiligidagi binoan atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni sug'urtalash turlari²².

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish iqtisodiy-huquqiy mexanizmi tizimida **rag'batlantirish** alohida o'rinn tutib, ekologik muammolarni hal qilish vositalaridan biri hisoblanadi.

²¹ Экологическое право. // Учебник для вузов / Н.Д. Эрнандыши, Ю.В. Трунцевский, В.В. Гучков и др. Под ред. В.В. Гучкова. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, Закон и право. 2003. - С. 162.

²² Бажайкин А.Л. Страхование ответственности за причинение вреда окружающей среде в Федеративной Республике Германия (Umwelthaftpflichtversicherung) // Экологическое право. - 2004. - №5. - С. 48.

Atrof tabiiy mukhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantirish quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- kamchiquitli texnologiya va ishlab chiqarishni joriy etgan, hosila resurslardan foydalanadigan yoki tabiatni muhofaza qilish samaraderligini ta'minlovchi faoliyat bilan shug'ullanuvchi davlat yoki boshqa korxona, muassasa, tashkilotga nisbatan soliq va boshqa imtiyozlarni belgilash;
- ekologik jamg'armalarни soliqqa tortishdan ozod etish;
- ekologik jamg'armalar mablag'lari bir qismini jismoniy yoki yuridik shaxslarga ifloslantiruvchi modda chiqindilarni chiqarish va joylashtirishi darajasini kamaytirishni ta'minlovchi choralarни amalga oshirish uchun shartnomma asosida ajratish;
- ekologik toza mahsulotlarga nisbatan ustama haq o'tnatish;
- asosiy ishlab chiqarish jamg'arma'lari uchun yuqori amortizatsiya normalari belgilash;
- ekologik zararli mahsulotlarga shuningdek ekologik xavfli texnologiyalar yordamida ishlab chiqariladigan mahsulotlarga nisbatan maxsus soliqqa tortish tizimini joriy etish;
- mulk shaklidan qat' I nazar, atrof tabiiy mukhitni muhofaza qilish faoliyatini samarali amalga oshirayotgan korxona, muassasa, tashkilotlarga nisbatan imtiyozi kredit berish tizimini qo'llash²³.

Nazorat uchun savollar

1. Atrof tabiiy mukhitni muhofaza qilganlik uchun rag'batlantiruvchi chora-tadbirior ekologik qonunlardan tashqari boshqa soha qonunchiligidagi ham belgilanganmi? Fikringizni soha qonunchiliginini qiyosiy taqoslash orqali ifoda euing.

2. Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun haq to'lashning o'ziga xos jihatlari nimalaridan iborat?

3. Fuqarolar N. va K. lar havaskorlik maqsadida Zarafshon daryosida baliq ovlashdi. Fuqaro N. 4 kg sazan, K. esa 7 kg laqqa baliq ovladi. Ushbu holat yuzasidan tabiatni muhofaza qilish xodimlari ularga baliq tutishgani uchun haq to'lashleri lozimligini ta'kidladi.

²³ Веденеев Н.Н. Экологическое право: Вопросы и ответы – 2-е изд. с исп. и доп. – М : Юриспруденция 1999. – С. 41-42.

*Tabiatni muhofaza qiliish xodimlarining ushbu talabi to'g'rimi?
Havaskorlik maqsadida baliq ovlash uchun haq undiriladi mi?
Ushbu vaziyatga tushuntirish bering?*

4. Andijon viloyatiidagi "Shohjahon" fermer xo'jaligi rahbariga tuman soliq inspeksiyasi xodimi R. uning yer uchastkasi uchun ijara haqini to'lamay kelayotganligini bildiradi. Bireq fermer xo'jaligi rahbari bu borada yagona yer solig'i to'layotganligi bois ijara haqi to'lashi kerak emasligini e'tirof etadi.

*Ushbu vaziyatga huquqiy baho bering.
Yagona yer solig'i to'lovchi ijara haqi to'lashi lozimmi?
Fermer xo'jaligi yer uchastkasi dan foydalanganlik uchun qanday
to'lov to'laydi?*

9- BOB. EKOLOGIK QONUNCHILIKNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

Ekologik javobgarlik tushunchasi va uning turlari. Ekologik huquqbazarlik va uning o'ziga xos xususiyatlari. Ekologik huquqbazarliklarning turlari, tarkibi, belgilari va ekologik huquqiy javobgarlik turlari. Ekologik huquqbazarlik va ekologik qonun talablarini buzganlik uchun huquqiy javobgarlik turlari.

Ekologik javobgarlik tushunchasi va uning turlari

Ekologik javobgarlik - bu tabiatga, atrof tabiiy muhitga va mavjud tablyy resurslarga keltiriladigan har qanday zararning oldini olish hamda ularni qoplash yuzasidan kelib chiqadigan huquqiy me'yorlar va ularga monand keluvchi huquqiy munosabatlarning iqtisodiy-huquqiy kompleksidan iboratdir.

Ekologik xilef xatti-harakatlar - bu har qanday jamiyatda kishilarning iqtisodiy, moddiy, ma'naviy va boshqa ehtiyojlarini qondirish natijasida kelib chiqadigan, atrof tabiiy muhitga, tabiat va uning boyliklariidan foydalanish hamda muhofaza qilishga zid, qarshi bo'lgan xatti-harakatlar oqibatidir.



1. Ekologik-iqtisodiy javobgarlik turi.

Ekologik-iqtisodiy javobgarlik – bu ijtimoiy javobgarlikning bir turi bo'lib, u tabiat va atrof tabiiy muhitga yetkazilgan, qonun bilan belgilangan me'yordan oshmagan zarari bilan belgilanadi va keltirilgan zararlar pul miqdori so'zsiz qoplanishi bilan namoyon bo'ladi.

Mazkur javobgarlik turi o'zida quyidagi elementlarni mujassamlashtiradi:

- belgilangan me'yorda atrof tabiiy muhitdan foydalanish va uni ifoslantirish;
 - moddiy qoplash;
 - foydalanganlik uchun to'levlar;
 - ifoslantirganlik uchun to'lovlar;
- 2) Ekologik-huquqiy javobgarlik turi.**

Ekologik-huquqiy javobgarlik – bu belgilab qo'yilgan tabiatni muhofaza qilish va ekologik qonun talablari hamda me'yorlarini buzganligi, ortiqcha tabiiy resurslardan foydalanish, muhofaza qilish qoida-talablarini buzish, atrof tabiiy muhitni, tabiatni ifoslantirish, tabiiy resurslardan noqonuniy va xo'jasizlarcha foydalanish oqibatida vujudga kelib, u subyektlarni yuridik javobgarlikka tortilishida namoyon bo'ladi.

Masalan: Zardushtiarning "Avesto" kitobiga binoan bolalar yoshligidanoq tabiatga mehribon bo'lib, uning boyliklarini saqlab, daraxt ko'chashini o'tkazishi izin.

Mazkur manbaga ko'ia inson butun umri davomida suv, tuproq, olov, umuman dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga majbur bo'lgan.

Shu ma'noda Gyote ta'biri bilan aytganda "Tabiat hazilni tan olmaydi, u hamisha haq, hamisha qat'iy. Xatoliklar ham, adashishlar ham faqat odamlardan kelib chiqadi".

Demak, ekologik qonun talablari buzilganda amaldagi qonunlarimizga muvofiq ekologik-huquqiy javobgarlikning qayidagi intizomiylari, ma'muriy, fuqarolik va jinoiy-huquqiy javobgarlik turlici vujudga keladi.

Ta'kidlash joizki, jinoyatchilikka qarshi kurashning ildizlari juda qadim zamonalarga berib taqaladi. Jurnaladan, buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur o'z "Tuzuklari"da: "Amr etdimki, o'g'ri va qaroqchilarni "Yoso" asosida jazolasinlar, fasodchi, buzuqi, nafsi yomon kishilarni mamlakatdan haydasinlar"²⁴, – deb ta'kidlaydi.

Demak, Amir Temur o'z davlatiga, uning tabiat boyliklariga, madaniy hamda tarixiy merosiga, hayvonot olamiga yomon ko'z bilan qaragan, unga zarar yetkazgan insonlarga xuddi shunday jazo belgilagan.

Demak, bugungi kunda ekologik qonunbazarlik va ekologik jinoyatlarning oldini olish, unga qarshi kurashish asosiy vazifalardan biridir.

²⁴ Temur tuzuklari.–Toshket, 1991. -5.94.

Ekologik huquqbuzarlik va uning o'ziga xos xususiyatlari

Ekologik huquqbuzarlik ucbun javobgarlik huquqiy javobgarlik institutiining bir qismi bo'lib, uning mohiyati, mazmuni va xususiyatlarini bilib olish katta ahamiyatga ega.

Ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklar yuridik javobgarlikka tortish uchun asos hisoblanadi. Ekologiya sohasidagi huquqbuzarlikka nisbatan qo'llaniladigan yuridik javobgarlikka bir qator xususiyatlar xos. Xususan, uning asosiy maqsadi va mohiyati ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar, ekologik va agrar qonunlarning buzilishiga qarshi kurash hamda ekologik qonunchilik va huquqiy tartibotni ta'minlashdan iborat.

Tabiat boyliklaridan noto'g'ri foydalanish ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar ma'lum bir tomonlarni yuridik javobgarlikka tortish uchun asos bo'lib, O'zbekiston Respublikasining ekologik tizimi, siyosati hamda barcha tabiiy boyliklarga zarar yetkazish bilan bog'liq ekologik qonunlarga xilof xatti-harakat yoki harakatsizlik jinoyatlarini sodir etish oqibatida yuzaga keladi.

Ushbu huquqbuzarlikning o'ziga xos belgilari bo'lib, tabiatni muhofaza qilish, ekologiya va agrar qonun talablariga xiloflik, ijtimoiy xavflik va aybning mavjudligi, jazoga sazovorlik hamda tabiat, jamiyat, inson va davlatning ekoologik tizimiga nisbatan qilingan ijtimoiy xatti-harakat yoki harakatsizlik bilan ta'riflanib, yetkazilgan ekologik zarar orqali belgilanadi. Tabiat boyliklaridan foydalanish tarkibi qonun va talablarini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklar tarkibiga: *subyekt, subyektiv tomon, obyekt, obyektiv tomonlar* kirib, ekologik huquqbuzarlik oqibatida tabiiy resurslarga hamda ekologik, agrar tizimga yetkazilgan zarar va ular bilan bog'liq holatlar asosida xarakterlanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qobuning 47-moddasiga asosan:

– "Tabiatni muhofaza qilishning standartlari, normalari, qoidalari va boshqa normativ-texnik talablarini buzishda, shu jumladan korxonalar, inshootlar, transport vositalari va boshqa obyektlarni rejalashtirish, qurish, rekonstruksiyalash, ulardan foydalanish yoki ularni tugatish paytida, ekologiya nuqtayi nazaridan xavfli mahsulotlarni chet ellarga chiqarish va chet ellardan olib kelishda hududning belgilab qo'yilgan ekologiya sig'imini, ekologiya normalari, qoidalarni buzishda;

– tabiiy boyliklardan o'zboshimchalik bilan foydalanishda, davlat ekologiya ekspertizasi talablarini bajarmaganlikda;

– tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun, atrof-tabiiy muhitga zararli moddalar chiqarganlik va oqizganlik, qattiq chiqindilar joylashtirganlik, bu muhitni ifloslantirganlik va unga zararli ta'sir ko'rsatishning boshqa turlari uchun belgilangan haqni to'lashdan bosh tortganlikda;

– tabiatni muhofaza qilish obyektlarini qurish rejalarini, tabiatni muhofaza qilishga doir boshqa tadbirlatni bajarmashlikda;

– atrof-tabiiy muhitni tiklash, unga bo'ladigan zararli ta'sir oqibatlarini bartaraf etish va tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish choralarini ko'rganlikda;

– tabiatni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirayotgan idoralarning ko'rsatmalarini bajarmaganlikda;

– alohida muhofaza qilinadigan hududlar va obyektlarning huquqiy tartibotini buzganlikda;

– atrof-tabiiy muhitga zararli ta'simi hisobga olish qoidalarini buzganlikda;

– ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilarini, kimyo lashtirish vositalarini, shuningdek radiaktiv va zararli kimyoviy moddalarni saqlash, tashish, ulardan foydalanish, ularni zararsizlantirish va ko'mib yuborish vaqtida tabiatni muhofaza qilish tatablarini buzganlikda;

– atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratini amalga oshiruvchi mansabdoi shaxslarning obyektlarga borishiiga, ayrim shaxslar va tabiatni muhofaza qilish jamoat tashkilotlariga esa o'z huquq va vazifalarini ro'yobga chiqarishlariga to'sqinlik qilganlikda;

– atrof-tabiiy muhitning holati va uning resurslardan foydalanish to'g'risida o'z vaqtida va to'g'ri axborot berishdan bosh tortganlikda aybdor bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunlariga binan intizomiy, ma'muriy, jinoiy va boshqa yo'sindagi javobgarlikka tortiladilar”²⁵.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi asosida qabul qilingan 2017-yil 21-apreldagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvni tizimini takomillashtirish to'g'risida”²⁶gi Farmoniga asosan:

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasini atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida sodir etilgan huquqbazarliklar uchun, shu jumladan chiqindilar bilan bog'liq ishlar

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. –1993. –№1. –38-moddha.

²⁶ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatini t'izimi. –2017. –№17. –287-moddus.

sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun aybdor shaxslarni o'matilgan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortish huquqiga ega ekaniigi ham alohida qayd etildi


Xullas, ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbazarliklar subyektning huquqiy normalarga qarshi qilgan hatti-harakati bilan qasddan yoki ehtiyyetsizlikdan, tabiat obyektlariga – yer, suv, yer osti boyliklari, atmosfera, o'rmon, hayvonot va o'simliklar dunyosiga hamda inson salomatligi va yashash muhiti uchun xavfli bo'lgan harakat yoki harakatsizlik oqibatida narnoyon bo'lib, ular sodir etilishiga qarab alchida o'z xususiyatiga ega bo'ladi.

Ekologik huquqbazarliklarning turlari, tarkibi, belgilari va ekologik-huquqiy javobgarlik turlari

Umuman olganda, qonunlarimizda “javobgarlikka tortish”, “javobgarlikni kuchaytirish”, “javobgarlikdan ozod etish”, “javobgarlikni bekor qilish”, “javobgarlik turlari”, “javobgarlikni yengillashtirish” kabi atamalarni ko'proq uchratish mumkin. Mazkur terminalarni qonunchilikda qo'llanilishi ko'proq yuridik javobgarlik turlariga nisbatan ishlataladi.

Ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbazarliklarning turlari va belgilari ana shu huquqbazarliklarni tavsiflaydigan xususiyatdir.

Ekologiya sohasidagi huquqbazarliklarning o'ziga xos belgilari quyidagilardir:



1. Ekoliya sohasidagi huquqbazarliklarni tavsiflovchi belgilardan biri *ayblilik* hisoblanadi. Bunda yuridik javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan shaxs ekologik huquq normasini buzadi va bu harakatni qasddan yoki ehtiyyotsizlik oqibatida sodir etadi.

Ekoliya sohasidagi huquqbazarlik uchun aniqlangan *ayb* shaxsning shu sohada sodir etgan huquqqa xilof harakatiga va uning zararli oqibatlariga ruhiy munosabatidir. Tasodif yoki baxtsiz hodisa natijasida biror kimsaga yoki korxona, muassasa, tashkilotga aybsiz zarar yetkazish hodisasi ekologik huquqbazarlik jumiasiga kirmaydi.

2. Ekologik huquqbazarliklarni sedir etishda *ijtimoiy xavflilik* darajasi shundan iboratki, ekologik huquqbazarlik jamiyatning, davlatning ekologik tizimiga, ekoliya sohasidagi boshqaruvga va ekologik siyosatiga tajovuz qiladi yoki ayrim ekologik huquq va manfaatlar poymol etiladi.

Ekoilogik huquqbazarlikning zararli yoki xavfliligi shundaki, u jamiyat, davlatning ekologik manfaatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Ekoliya sohasida *huquq normalariga ziddlikda*, ma'lum qilmish oqibatida ekologik qonunlatning yoki muayyan ekologik-huquqiy normalarning buzilishi mavjud bo'лади. Yoki ekologik huquqbazarlik tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi yoxud boshqa ekologik huqueq normalarida belgilab qo'yilgan taqiqni buzadi. Agarda belgilangan ekologik taqiqlar buzilmasa, unda ekologik huquqbazarlik mavjud deb topilmaydi.

4. Ekoliya sohasida sodir etilgan huquqbazarlik yuzaga kelishi uchun *jazoga sazovorlik* bo'lishi shart. U ma'lum ekologik huquqbazarlik sodir etgan shaxs (subyekt) ning vakolatli davlat organi tomonidan ma'lum javobgarlikka tortilishini ifodalaydi.

Ayrim hollarda shaxs qonunga binoan javobgarlikdan ozod etilishi mumkin, lekin buni ham tegishli vakolatli davlat organlari amalga oshiradi.

Ekoliya sohasida sodir etilgan huquqbazarlik *tarkibiga*: subyekt, obyekt, subyektiv tomon va obyektiv tomon, ekologik huquqbazarlik oqibatida ekologik tizim, manfaat va schaga ye'skazilgan zarar hamda u bilan bog'liq holatlar kiradi.

Ekoliya sohasida sodir etilgan huquqbazarliklarning quyidagi *turlari* mavjud:

1) intizomiy-huquqiy (mehnat intizomiga amal qilmaslik, ishga kech qolish va kelmaslik oqibatida);

2) ma'muriy-huquqiy (tabiiy muhitai muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquq normalarini buzish);

3) fuqaroviylar-huquqiy (majburiyat, shartnoma va bitimlarni o'z vaqtida bajarmashlik oqibatida inulkiy, moddiy va ma'naviy zarar yetkazish);

4) jinoiy-huquqiy (ekologiya sohasidagi jinoyatlarni sodir etish).

Ta'kidlash joizki, sodir etilgan ekologik huquqbazarliklarning turiga, ijimoiy xavfllilik darajasiga qarab davlat majbulov choralari ham o'zgarishi mumkin.

Ekologiya sohasida sodir etilgan hequqbazarliklarga nisbatan qo'llanadigan choralarning xususiyati shundaki, ularning eng og'irlari jinoyatiar to'g'risidagi qonun hujjatlariga asosan qo'llaniladi.

Yuqorida ko'rsatilgan javobgarlik turlari yer, suv, yer osti boyliklari, o'rmon, atmosfera havosi, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bilan bog'liq qonun hamda talablarni buzganlik uchun qo'llaniladi.

Ekologik huquqbazarlik va qonun talabiarini buzganlik uchun ekologik huquqiy javobgarlik turlari

Ekologik qonun talabiarini buzganlik uchun intizomiy javobgarlikka tortishdan asosiy maqsad – sodir etilgan ekologik huquqbazarlik (nojo'ya xatti-harakat) uchun moddiy va ma'naviy javobgarlikni belgilash, amaldagi ekologik va agrar qonunlarga rivoja etish hamda mehnat intizomi va tabiatni muhofaza qilish tizimiga qat'iy rivoja qilishni ta'minlashdan iboratdir.

Ta'kidlash o'rinniki, yer, yer osti boyliklari, suv, atmosfera, o'rmon, o'simlik va hayvonot dunyosidan oqilona foydalanmaslik va ular to'g'risidagi qonun talablarini xodimlar tomenidan tuzilgan huquqiy shartnomalar bo'yicha ma'lum ekologik tadbir va talablarni o'z vaqtida amalga oshirmaslik, mehnat intizomini buzish, korxona, muassasa, tashkilotlar, ya'ni yuridik shaxslar hamda ularning faoliyatiga zarar yetkazish intizomiy huquqiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida (181-modda)²⁷ intizomiy jazoning aniq turlari ko'rsatilgan bo'lib, mehnat intizomini buzgan xodimga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralarini qo'llanadi:

²⁷ O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. - Toshkent: Adolat, 2014.

- 1) hayfsan;
- 2) o'rtacha oylik ish haqining 30 foizidan ortiq bo'limgan miqdorda jarima;

Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimiga o'rtacha oylik ish haqining 50% dan ortiq bo'limgan miqdorda jarima solish holtari ham nazarda tutilishi mumkin. Xodimning ish haqidagi jarima ushlab qolish Mehnat kodeksining 164-moddasi talablanga rioya qilingan holda ish betuvchi tomonidan amalga oshiriladi;

3) mehnat shartnomasini bekor qilish (Mehnat kodeksining 100-moddasi ikkinchi qismining 3-4-bandlari). Ushbu moddada nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarining qo'llanishi taqiqlanadi.

Xususan, xodimga nisbatan intizomiy jazo qo'llashda rahbar yoki boshliq sodir etilgan ekologik huquqbazarlik motivi, u qay vaziyatda sodir etilganligi, xodimning oldingi ish joyi va ekologik huquqbazarlik sodir etish vaqtidagi ruhiy va jismoniy holatini hisobga olishi zarur.

Tabiiy boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish talablarini buzish holatida qo'llaniladigan intizomiy javobgarlik jarayonida **birinchidan**, xodim o'zini salbiy mehnat faoliyati bilan tabiatga iqtisodiy, moddiy va ekologik zarar yetkazilishi; **ikkinchidan**, huquq sohasining (masalan, mehnat, agrar, tadbirkorlik, fuqarolik va boshqa huquq sohalarining) tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog'liq belgilangan huquqiy-ekologik tartibi hamda me'yordari buzilishining mavjudligi bilan ta'riflanadi.

Tabiiy resurslardan foydalanish talab va qoidalarini buzganlik uchun **ma'muriy javobgarilikning qo'llanilishi** o'ziga xos xususiyatlari va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Tabiiy resurslardan foydalanish talab va qoidalarini buzish uchun kifoya.

Amaldagi qonunchilikda tabiiy resurslardan foydalanish talab va qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortish asosi va uning tushunchasi O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 10-moddasida ko'rsatilgan²⁸.

Kodeksda nazarda tutilgan huquqbazarlik uchun ma'muriy javobgarlik, jumladan, tabiiy resurslardan foydalanishning talab va qoidalarini buzganlik uchun ham, basharti bu huquqbazarliklar o'z xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka sabab bo'limgan taqdirda amalga oshiriladi.

²⁸ O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. -Toshkent: Adolat, 2014.

Tabiiy resurslardan foydalanish talab va qoidalarini buzganlik uchun sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik o'ziga **subyekt**, **subyektiv tomon**, **obyekt** va **obyektiv tomonlarni** qamrab oladi.

Tabiiy resurslardan foydalanish talab va qoidalarini buzganlik uchun sodir etilgan huquqbuzarlik **subyekti** tadbirkorlar, yuridik va jismoniy shaxslar, mansabdor shaxslar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududidagi mavjud subyektlarga qonun asosida foydalanishga berib qo'yilgan yer, yer osti boyliklari, o'rmon, o'simlik, hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy zaxiralar ushbu huquqbuzarlikning **obyekti** hisoblanadi.

Subyektiv tomoni esa tabiiy obyektlardan foydalanish talab va qoidalarini qasddan yoki ehtiyoitsizlikdan bazish oqibatlati;

Obyektiv tomoni esa yetkazilgan zarar, uni qoplash va tiklash holatlari bilan bevosita bog'liqdir.

Shunisi e'tiborlici, yuridik va jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida ko'rsatilgan quyidagi huquqbuzarlik turlarini sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Zero, ana shunday huquqbuzarlik turlari ushbu Kodeksning VII–VIII boblarida ko'rsatilgan.

Tabiiy resurslarga egalik huquqini buzish (60-modda); G'ayriqonuniy ov mahsulotlarini qabul qilish (63-modda); Tarixiy yoki madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish qoidalarini buzish (64-modda); Yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz holga tushirish (65-modda); Yer berish tartibini buzish (66-modda); Vaqtincha egallab turilgan yerlarni o'z vaqtida qaytarib bermaslik yoki ularni o'z o'mida foydalanish uchun yaroqli holga keltirmaslik (67-modda); Xo'jalik ichidagi yer tuzish loyihalidan o'zboshimchalik bilan chetga chiqish, davlat yer kadastri yuritish qoidalarini buzish (68-modda); Chegara va cheklov belgilarni yo'q qilish yoki shikastlantirish (69-modda); Yer osti boyliklarini muhofaza qilishi va ulardan foydalanish talablarini buzish (70-modda); Yer osti boyliklarini geologik jihatdan o'rganish ishiarini olib borish qoidalari va ta lablatini buzish (71-modda); Suv zaxiralarini muhofaza qilish qoidalarni buzish (72-modda); Zararli moddalar va qorishmalarga oid operatsiyalarni keima hujjalarda qayd etish majburiyatini bajarmaslik (73-modda); Suvdan foydalanish qoidalarni buzish (74-modda); Suvlarning davlat hisobini yuritish qoidalarni buzish (75-modda); Suv xo'jalik inshootlari va qurilmalarini shikastlantirish, ulardan foydalanish qoidalarni buzish (76-modda); O'rmon fondi yerlaridan foydalanish qoidalarni buzish (77-modda);

Kesiladigan o'tmon fondidan feydalanish tartibini buzish (78-modda); Daraxtlar, butalari, boshqa o'tmon o'simliklari va nihollarni g'ayriqonuniy ravishda kesish, shikastlanbrisht yoki yo'q qilish (79-modda); O'rmonlarni tiklash qoidalarini buzish (80-modda); Qizil kitobga kiritilgan o'simliklani yig'ish (81-modda); Qizil kitobga kiritilgan hayvondar va o'simliklar turlarini saqlashga zarar keltiradi deb topilgan hayvonlar yoki o'simliklarni qonunga xilot ravishda olib kelish (93-modda); Noyob yoki yo'q bo lib ketish xavfida turgan hayvonlarni yo'q qilib yuborish, o'lja qilish yoxud shunday hayvonlarning qirilib ketishiga, soni kamayib ketishiga yoki yashash muhiti buzilishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa harakatlar sodir etish (94-modda); Tabiiy muhitni tiklash, tabiiy harakatlarni qayta hosil qilish va tabiiy muhitga zararlari ta'sir ko'rsatish oqibatlarini bartaraf etish choralarini ko'rmaganlik (95-modda); Loyihalarni davlat ekologik (sanitariya-ekologik) ekspertizasining ijobiy xulosasisiz ro'yobga chiqarish (96-modda) va boshqa xatti-harakatlar shular jumlasidandir.

Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning X bobi qishloq xo'jaligidagi huquqbuzartlik, veterinariya-sanitariya qoidalarini buzganlik uchun, ya'ni 104-112-moddalari talablarini buzganlik uchun ham ma'muriy javobgarlik qo'llanilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 23-moddasiga asosan ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun quyidagi ma'muriy jazo turlari qo'llaniladi.

- 1) jarima;
- 2) ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etish qaroli hisoblangan yoki bevosita shunday bo'lgan ashyoni musodara qilish;
- 3) ma'muriy qamoqqa olish.

Umuman olganda, tabiiy resurslardan foydalanish talab va qoidalarini buzish hamda mazkur huquqbuzarliklarni sodir etish eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, maqsabdei shaxslarga esa uch baravardan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ta'kidlash o'rinniki, tabiiy resurslardan foydalanish talab va qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy jazo choralarini qo'llash tuman, shahar hokimliklari huzuridagi ma'muriy komissiyalar, o'zini o'zi boshqarish organlari, tuman, shahar sudiari, ichki ishlari organlari, tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-veterinariya davlat inspeksiya organlari hamda ma'muriy jazo qo'llash huquqiga ega bo'lgan boshqa organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Masalan, 2016-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) manziliga fuqarolarning ekologik huquqlariga tegishli bo'lgan 44 ta shikoyat kelib tushgan. Bular: o'rmon, ichimlik suvi, suv ifloslamishi, maishiy chiqindilar, yovvoyi dorivor o'simliklarning muhofazasi va yer berish masalasiga oiddir.²⁹

E'tibori tomoni shundaki, yer resurslaridan oqilona foydalanish va uni ekologik muhofaza qilish masadasini ijobiy hal etish, tadbirkorlarning huquqlari buzilgan ushbu holatlari yuzasidan prokaratura ta'siri choralari ko'rilib 2016-yilda 956 nafar shaxs intizomiy va ma'muriy javobgarlikka tortilgan, 11.4 mld. so'mlik undiruv to'g'risida sudlarga 242 ta ariza kiritilgan, 341 ta jinoiy ish qo'zg'atilgan. Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 13.570 nafar tadbirkorlarning buzilgan huquqlari tiklangan.³⁰

Xullas, tabiat boyliklaridan foydalanish talablarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikning qo'llanilishi, bu sohadagi ekologik huquqbuzarliklarning oldini olishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida: "O'zbekiston Respublikasi aholisi o'z salematligi va kelajak avlodning salomatligi uchun qulay tabiiy muhitda yashash, o'z salematligini atrof-muhitning zararli ta'siridan muhofaza qilish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi aholisi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi, tabiat boyliklariga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lishi, ekologiya talablariga rioya etishi shart", deb ta'kidlangan (12-modda).

Ko'rinib turibdiki, bozor iqtisodiyoti sharoitiда ekologik qonun va talablarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarligining qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarlik natijasida yetkazilgan iqtisodiy, mulkiy, ekologik zarar uchun qo'llaniladi. Ushbu javobgarlik turiga tortishdan maqsad ekologik qonun talablarini buzganlik oqibatida yetkazilgan zararni o'z vaqtida qoplashdan iboratdir.

Qonun talabi va amaliyot shuni ko'rsaimoqdaki, fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning kelib chiqishi uchun quyidagi shartlar bo'lishi lozim.

- yetkazilgan iqtisodiy, ekologik va mulkiy zararning mavjudligi;
- ekologik va agrar qonun hamda huquqiy normalarni buzganlik uchun aybning mavjudligi;

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) ning 2017-yil 29-martdag'i hisobebi.

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Best pekkurorining 2016-yildagi faoliyati to'g'risidagi 2017-yil 29-martdag'i hisobebi.

- sodir etilgan ijtimoiy harakat va harkatsizlikning qonunga xilofligi;

- ekologik va iqtisodiy zatar oxirgi zarurat va zaruriy mudofaa tufayli yetkazilgan bo'lsa, sudning ushbu holat yuzasidan jazo chorasini belgilashidir.

Tabiat boyliklaridan note'g'ri foydalanganlik uchun sodir etilgan ekologik huquqbazarlikning subyekti barcha yuridik va jismoniy shaxslar, tadbirkorlar, jamoat tashkilotlari, xususiy korxonalar va boshqalar hisoblanadi.

Ushbu sohada sodir etilgan huquqbazarlikning subyektiv tomoni esa qasddan yoki ehtiyojsizlikdan sodir etilgan ayb oqibatida yetkazilgan mulkiy zarar, ya'ni aybning mavjudligidir.

Ekologik qonun talablarini buzganlik oqibatida sodir etilgan ekologik huquqbazarlikning **obyekti** subyekt tomonidan ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ma'lum faoliyatning buzilishi, ya'ni subyektlarga yetkazilgan ekologik, iqtisodiy (genetik) va mu'nikiy zarar hamda tuzilgan shartnomaviy munosabat shartlarini bajarmaslik bilan bog'liq bo'jadi.

Obyektiv tomoni esa huquqqa qarshi xatti-harakat yoki harakatsizlik oqibatida subyekt tomonidan huquqiy munosabatning buzilishi va belgilangan Fuqarolik kodeksining³¹ talablari va ekologik qonunlarga hamda boshqa huquqiy normalarga amal qilmaslik tushuniladi.

Fuqaroviylar-huquqiy javobgarilik sodir etilgan (mulkiy) quyidagi huquqbazarliklar uchun belgilanishi mumkin:

a) tabiatdan foydalanuvchilar (subyektlar) tomonidan tabiiy boyliklardan foydalanish huquq va majburiyatlarining belgilangan tartibda o'z vaqtida bajarilmasligi;

b) tabiat boyliklaridan foydalanish tartibini buzish oqibatida iqtisodiy, mu'nikiy va ekologik zarar yetkazish;

d) o'rmon va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda isrofgarchilikka yo'l qo'yish, ekologik talablarni buzish hamda mehnat intizomi va tegishli normativ-huquqiy hujjatlar talablariga shartnoma shartlariga rioya etmaslik oqibatida atrof tabiiy muhitga zarar yetkazish;

e) eski texnologiyadan foydalanish natijasida qonunda ko'rsatilgan normativ standartlarga xilof ravishda atrof tabiiy muhitga ortiqcha chiqindi chiqarish va ekologik zarar yetkazish;

f) subyektlar tomonidan tegishli qonuniy bitim, shartnoma va majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmaslik va hokazo.

³¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. -Toshkent: Adolat, 2014

Tabiat boyliklaridan foydalanish talablarini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning eng asosiy xarakterli tomoni shundaki, subyektning ekologik sohada ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishi, uning yetkazilgan zararni o'z vaqtida to'lashi yoki qoplashi majburiyatidan ozod etmaydi.

O'zbekiston Respublikasida yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararni aniqlab, uni qoplash va to'latish sud va iqtisodiy su'dlarining qonuniy vakolatiga kiradi.

Ko'pgina holatlar shuni ko'rsatmoqdaki, tabiat boyliklaridan foydalanish sohasida fuqarolik-huquqiy javobgarlik quyidagi formalarda namoyon bo'ladi;

Birinchidan, yer, suv, yer osti boyliklari, o'rmon, o'simlik va hayvonot dunyolari umumimilliy boylik bo'lib, ushba obyektlar oldi-sotdi, hadya qilish, garovga qo'yish, ayirboslashga ruxsat etilmaydi, saqat qonunda ko'rsatilgan holatlardan tashqari.

Qonun asosida qilinayotgan boshqa harakatlar O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelishi kerak emas va har qanday tuzilgan bitimlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 113–128-moddalari talablariga mos kelishi lozim.

Ikkinchidan, barcha yuridik va jismoniy shaxslar tabiat boyliklaridan foydalanishlarida, o'z huquqlarini himoyalash bilan birga, o'zlati va boshqa subyektlar tomonidan yetkazilgan ekologik, moddiy, ma'naviy zararlarni qoplashlari va to'lashlari ham shart bo'ladi. Mazkur holat Fuqarolik kodeksining 324–339-moddalar: talabidan kelib chiqadi.

Masalan, dehqon, fermier xo'jaliklari, qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkatlari) va boshqa korxona, muassasa, tashkilotlar tadbirkorlar ishlab chiqarish jarayonida chiqargan zararli chiqitlari bilan qishloq xo'jaligi ekindarini hosildorligini, tureqni va suvni ifloslantirib ularning sifatini pasaytirishi yoki ishlab chiqaritgan mahsulotni sifatini buzishlari mumkin.

Uchinchidan, tabiat boyliklaridan foydalanish va tabiatni muhofaza qilish qonun talablarini buzganlik oqibatida yetkazilgan zararni tiklash, to'lash, qoplash va hokazo.

Mazkur holatlar O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksining 86–88-moddalarida, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 117–118-moddalarida, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 25-moddasida. "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi Qonunning 47–50-moddalarida va boshqa ekologik qouvnarda aniq ko'rsatilgan.

Demak, ekologik qonun va talablarini buzganlik uchun fuqaroviy-huqueqiy javobgarlik turi ancha keng sohani o'zida qamrab, asosan yetkazilgan zararni **Fuqarolik kodeksining 14-moddasi** talablariga ko'ra qoplash, to'lash, qaytarishdan iborat bo'ladi.

Masalan: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining ma'lumotiga ko'ra tabiiy obyektlarga va atrof-muhitga yetkazilgan zararning oldini olish maqsadida respublika bo'yicha 8.072 gektardan ortiq (2015-yil 12-oyda 11.884 gektar) ortiq ekin maydonlaridan noqonuniy va maqsadsiz foydalanib kelinganligi aniqlanib, ko'rtilgan chora oatijsida bu yerlar 2.954 gektar (5.209 gektar) zaxira yet fondiga qaytarilishi ta'minlangan³².

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida tabiiy obyektlarga va atrof tabiiy muhitga zarar yetkazish bilan bog'liq ijtimoiy xavfli va g'ayriqonuniy xatti-harakatlarni sodir etganlik uchun **jinoiy javobgartlik** nazarda tutilgan bo'lib, qasddan yoki ehtiyoitsizlik oqibatida tabiat obyektlariga jiddiy ziyon yetkazish, ularni qaytarib bo'lmas tarzda nobud bo'lishiga yo'l qo'yish, o'simlik kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurash hamda zootexnika talablarini belgilangan tartibda bajarmaslik, suv va suv havzalaridan foydalanish tartibini buzish, yer, yer osti boyliklaridan oqilona foydalanmaslik bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etish oqibatida yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi³³ning IV bo'limi "Ekoliya sohasidagi jinoyatlar" deb nomlanib, XIV bobi "Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar"ning inlari deb ko'rsatilib, 193–204-moddalarini o'z ichiga oladi. Mazkur Kodeksning yuqorida ko'rsatilgan moddalarida ekologik jinoyatlarning barcha xususiyatlari inobatga olinib, tegishli jazo choralar qo'llangan.

Masalan: 193-modda "Ekoliya xavfsizligiga oid normalar va ta'labiarini buzish", 194-modda "Atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish", 195-modda "Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko'rmaslik", 196-modda "Atrof tabiiy muhitni ifloslatish", 197-modda "Yet, yeti osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish telabiarini buzish", 198-modda "Ekinzor, o'rmon yoki boshqa dev-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish", 199-modda "O'simlik kasalliklari yoki zararkunandalarini bilan kurash telablarini buzish", 200-modda "Veterinariya yoki zootexnika qoidalarini buzish", 201-modda "Zararl kemyoviy moddalar bilan muomaiada bo'lish qoidalarini buzish", 202-modda "Heyvonot yoki o'simlik daryosidan foydalanish tartibini buzish", 203-modda "Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlerini buzish", 204-modda "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tartibini buzish" kabi jinoiy huquqbazarlik turlariiga bag'ishlangan.

Ekologik huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgartlik mavjud bo'lib, ushbu sohada sodir etilgan (jinoyat) huquqbazarlik hisoblanadi.

³² O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yilgi faoliyatini to'g'risidagi 12-yanvardagi ma'lumotnomasi.

³³ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. –Toshkent: Adolat, 2014.

Mazkur sohadagi jinoiy huquqbazarlik yuridik va jismoniy shaxslarning qasodan yoki ehtiyoitsizlikdan jinoyat qonunlarida belgilangan qoidalarini buzishga qaratilgan harakat yoki harakatsizliklari tashuniladi.

Yuqoridaqilardan ko'rinib turibdiki, tabiiy resurslardan foydalanish tartib va qoidalarni buzganlik uchun jinoiy-huquqiy javobgarlik tabiatni muhofaza qilish, tabiiy obyektlari bo'lgan yer, suv, yer osti boyliklari, o'rmon, havo, o'simlik va hayvonot dunyosidan foydalanishdan kelib chiqadigan huquqiy tartib qoidalarni buzganlik uchun qo'llaniladigan jinoiy jazo choralari bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Ta'kidlash o'tinligi, tabiiy resurslardan foydalanish talab va qoidalarni, ular to'g'risidagi qonualarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortishda bir qator jinoyat tarkibi sodir etilgan bo'lishi lozim.

Bular huquqbazarlik (jinoyat), aybning mavjudligi, ijtimoiy xavflik darajasining borligi, huquqqa xilofligi hamda jazoga sazovorlik kabilardir.

Sodir etilgan mazkur jinoyatni (huquqbazarlikni) **subyekti** bo'lib, fuqarolar, chet el fuqarolari, inansabdor shaxslar va boshqa jismoniy shaxslar tan olinadi.

Obyekti bo'lib esa O'zbekiston Respublikasining ekologik tizimi, yer, suv, yer osti boyliklari, havo, o'rmon, o'simlik va hayvonot dunyosi, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslar hamda davlatning qonuniy ekologik manfaatlari tan olinadi.

Subyektiv tononi ehtiyoitsizlikdan, ya'ni jinoyatdan kelib chiqqan oqibatga nisbatan bo'lgan rehiy manosabatdir, ya'ni jinoiy xatti-harakatlarning motiv va maqsadi bilan ham bog'liq.

Ushbu sohada sodir etilgan, jinoiy xatti-harakatlar oqibatida tabiiy resurslarga, ekologik tizimga moddiy va ma'naviy hamda iqtisodiy va ekologik zararlarni yetkazilishi mazkur jinoyatning obyekтив tononi deb tan olmadi.

Amaldagi Jinoyat kodeksiga asosan yuqorida sanab o'tilgan huquqbazarlik jinoyat turlari uchun jinoiy javobgarlikning jazo choralari sifatida eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorida jaritma yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolash nazaida tutilgan. Agar o'sha qilmishlar odam o'lshiga sabab bo'lsa, uch oydan olti oygacha qamoq yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, uch yilgacha ozedlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yuqoridagi ekologik jinoyatni subyekti bo'lib fuqarolar va mansabdor shaxstar hisoblanadi. Jinoyatni suhyektiv tomoni esa qasddan sodir etilishi bilan xarakterlanadi. Zero, ushbu jinoyatlar oldingi sodir etilgan huquqbuzarlikka nisbatan ancha og'ir va jamiyat uchun xavfiliги bilan ham farqlanadi.

Masalan, Quyi Chirchiq tuman hokimining 2015-yilda 18-oktabrdagi 985-sonli qaroriga asosan "Akramxon fayz" fermer xo'jaligi talibari fuqaro M. yer maydonidan noqomuniy ravishda foydalaniib, tuzilgan shartnomaga asosan 30 hektar yer maydoniga chigit ekishi lozim bo'lsada, 14.5 hektariga boshqa ekinlarni o'zboshimchalik bilan ekilganligi aniqlanib, JKuning 229-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilangan³⁴.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi davrida tabiiy boyliklardan foydalanish bilan bog'liq muammolar talaygina bo'lib, ular to'g'risidagi qonun talablarini to'la amalga oshirish va unga amal qilish ba'icha tabiat boyliklariga, jamiyat va davlatning ekologik manfaatiga zarar yetkazilishining oldini olishga yordam beradi.

Nazorat uchun savollar

1. *Ekologik huquqbuzarlik tushunchasi tarkibi va belgilari nimalardan iborat va uning qanday turlari mavjud bo'lib, uning xususiyatlarini nimalarda ko'rish mumkin. Javobingizni mamuriy, fuqarolik va ekologik qonunlarni qiyosiy taqqoslagan holda tahlil qiling.*
2. *Ainaldagi qonunchilikda ekologik huquqbuzarliklar uchun huquqiy javobgarlik va jazoni qanday qo'llanilishi qiyosiy ko'rsatilgan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarda ekologik huquqbuzarliklar uchun qanday javobgarlik turlari qo'llanadi va ularning xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz? Ushbu farq va uni xususiyatlarini xorijiy davlatlari misclida tahlil qiling.*
3. *Toshkent shahri Yunusobod tumanida joylashgan, "Hayvonot bog'i" ma'muriyatining qo'riqlash xizmati xodimi F. Asomovga ishga kech kelganligi sababli tushantirish xati olinib, unga hayfsan e'lon qildi. Mazkur holatdan keyin ham qo'riqlash xizmati xodimi F. Asomov yana ishga doimiy mast holatda kechikib kelayotganligi kuzatildi. "Hayvonot bog'i" ma'muriyatining qo'riqlash xizmati xodimi F. Asomovga ushbu*

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Bosh prezyerining 2017-yil 12-yanvardagi ma'lumotnomasi.

holatni ikkinchi marta sodir etayotganligi munosabati bilan uni ogohlantirmasdan ishdan bo'shatilganligi to'g'risidagi buyruqni e'lon qildi Ma'muriyat o'z buyrug'iда O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 181-moddasini 2-bandiga asosan o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizi miqdorida jarima solinganligini ham bildirdi Qo'riqlash xizmati xodimi F. Asomov ma'muriyatning ushbu buyrug'idan norizo bo'lib, sudga murojaat qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering

4. Jizzax viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi xodimlari temonidan Baxmal tumanda rejali yer nazorati tadbirlari amalga oshirilayetgan vaqtida, tumandagi "Vorisxon", "Farhod-Nur" va "Toshloq-Toy" ferner xo'jaliklarining ayrim yer maydonlari kimyoviy moddalar bilan ifiosianganligi hamda xo'jalik yerlaridan xo'jasizlarcha foydalanish, obyektlar qurish paytida unumdar qatlamni olmaslik yer maydonlaridan boshqa maqsadlarda foydalanish holatlari sodir etilganligi aniqlandi. Viloyat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi Yer nazorati organlari tuman hokimligiga ushbu yer maydonlarida ekologiya va sanitariya-gigiyena qoidalariga oid belgilangan talablarga javob beradigan mahsulot olish mumkin emasligi munosabati bilan qishloq xo'jaligi oborotidan chiqarilishi va konservatsiya qilish lozimligi, aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish xususida asoslantirilgan taqdimnomalar kiritdi.

Tuman hokimligi yer nazorati organlarining ushbu taqdimnomasini e'tiborsiz qoldirdi. Yuqorida ko'rsatilgan xo'jaliklarning yer maydonlarida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish davom etdi. Natijada sifatsiz mahsulotlar olinib, bu holat ayrim e'tirozlarga sabab bo'ldi.

Vaziyatga huquqiy baho bering

10-BOB. YERLARNI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY TARTIBI

Yerlarni muhofaza qilish va ulardan foydalananish huquqiy tartibining tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari. Yagona davlat yer fondi va oning tarkibi. Yerdan foydalananish huquqining vujudga kelishi va bekot bo'lish asoslari va tartibi. Yet egasi, yerdan foydalauvchi, ijrarachi va yet uchastkasi mulkdorining huquq va majburiyatlarini.

Yerlarni muhofaza qilish va ulardan foydalananish huquqiy tartibining tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari

Yet barcha tabiiy resurslar ichida o'ziga xos alohida huquqiy maqomga ega. U qishloq xo'jaligida ishiab chiqarish vositasi, aholining muqim yashash joyi, yuridik shaxsiat uchun operatsion bazis, davlat ma'muriy chegaralari deirasidagi hudud bo'lganligi bois mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lishning asosiy va eng muhim shartlaridan biridir. Shu bois ham, mamlakatimizda bozor munosabatlariga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurish jarayonida ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan aholining turmush darajasini oshirish singari ustuvor vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishda yet boyliklaridan oqilona foydalananish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Yer respublikanining barcha aholisi farovon turmush kechirishi uchun moddiy negiz yaratadi. Ayni vaqtda yer ulkan boylik bo'libgina qoimay, mamlakatning kelajagini belgilab beradigan omil hamdir".³⁵

Ta'kidlash joizki, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beslita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishi sifatida qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish nazarda tutilgan bo'lib, unda tarkibiy o'zgartirishlarni chiqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-cvqat xavfsizligini mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilish, suv va resurslarni tejayydigan zamонави agrotexnologiyalarni joriy etish kabi muhim vazifalar belgilangan".³⁶

³⁵ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk keljek surʼi. – Toshken: O'zbekiston, 1999. – B.509.

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagʼ №PQ-4947-soni "O'zbekiston Respublikasini vanada

Yer resurslaridan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish har xil vosita va usullar yordamida amalga oshiriladi. Shunday usullardan eng muhimmatidan biri – yer boyliklarini huquqiy muhofaza qilishdir, ya'ni yerni qonunlar yordamida buzilib tashlanishdan, ifloslanishdan, zaharlanishdan, ishdan chiqishdan himoya etishdir. Demak, yer resurslarini muhofaza qilishda huquqning roli beqiyos hinda alohida ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O'zbekistonda aholining zichligi, ayniqsa, yuqoridit

O'zbekiston Respublikasining ma'muniy chegarasidagi yer maydoni 44890,9 ming gektarni tasrib qilib, mamlakatimiz bo'yicha korxona, torassasa, tashkilotlar va fuqarolar foydalanishidagi jam yerlar 43410,3 ming gektarni tashkil etadi. Respublika bo'yicha sug'oriladigan yerlar 4314,0 ming gektarni yoki unumiy maydonning 9,7 foizini tashkil qiladi. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi korxonalarini va tashkiletlarining soni fermer xo'jaliklari bilan birgatikda olganda 80134 ta bo'sh, ularga birikinlib berilgan yerlarning unumiy maydoni 20469,1 ming gektarni, shu jumladan qishloq xo'jalik yer turlari maydoni esa 15611,5 ming gektarni, shundan 3715,3 ming gektari sug'oriladigan yerlarni tashkil qildi³⁷.

Yerni muhofaza qilishga qaratilgan huquqiy qoidalar asosan quyidagilarni tartibga soladi: sug'oriladigan yerlarni qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan maqsadlarga berishdan himoya qilish; tuproqni unumdar qattalnini saqlash; tuproqni eroziyadan saqlash; yerni agroximikatlar ta'siridan himoya qilish; yerni ishdan chiqarib qo'yishdan, botqoqlanishdan muhofaza qilish, yerni xo'jasizlarcha foydalanishdan muhofaza qilish va b. k.

Eng avvalo, qonun sug'oriladigan yerlarni qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar toifasiga berilishidan muhofaza etadi. Aslida bu qimmatbaho yerlar boshqa maqsadiar uchun faqat qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi idoralari, shuningdek tabiatni muhofaza qilish idoralari bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi, juda zarur hollardagina berilishi mumkin.

Qonunning yerni muhofaza qilishga qaratilgan normalari tuproqning unumdorligini saqlashni tartibga solishga bag'ishlangan. Yerdan xo'jasizlarcha foydalanish, almashlab ekishga rivoja qilmaslik, yerdan ilmiy asosda foydalarmaslik, tuproqning agroteknika qoidalariga rivoja qilmaslik, zaharli ximikatlarni ko'p miqdorda ishlatish tuproq unumdorligini pasayishiga olib keladi.

37 ovozantrish bo'yiche Harakatlar strategiyasi to'g'rida'gi Farg'oni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari te'plami, 2017-y, 6-sod, 70-moddde.

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodezika, kartografiya, va davlat kadastri davlat qurmitasi. "O'zbekiston Respublikasi yer resurslarining bolati to'g'risida" Milliy Hisobot. - T., 2015. -B 5-9.

Mutaxassislarning ma'lumotiga ko'ra tuproqning qimmatbabo sifatini osonlikcha yakson qilib tashlash mumkin. Uni tiklash jarayoni esa juda og'ir va uzoq muddatni talab etadi. Masalan, 10 santimetr qalinlikdagi tuproqning unumdonlik qatlamanini tiklashi uchun 100 yilcha vaqt kerak. Shundan kelib chiqib, qonunlarimiz tuproqning unumdonlik qatlamanini muhofaza qilishga qaratilgan qat'iy talab va choralarini belgijaydi.

Yerdan foydalanish munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar yerga nisbatan xo'jasizlarcha munosabatda bo'lishdan muhofaza etadi. Yerdan xo'jasizlarcha foydalanishi deganda, yuridik va jismoniy shaxsiarning yerni yaxshilash, tuproqni shamon, suv ta'sirida yemirilishdan va tuproq holatini yomonlashtiruvchi boshqa jarayonlardan himoya qilish majburiyatlarini bajarmaslik, hamda yer uchastkalari qanday maqsadlar uchun berilgan bo'lsa o'sha maqsadlarda foylanmaslik tushuniladi. Qonunda belgilanishicha, yerdan foydalanuvchilar tuproq unumdonligini oshirish yuzasidan samarali choralarini ko'rishlari, tuproqni shamol va suv ta'sirida yemirilishdan saqlash yuzasidan tashkiliy-xo'jalik, agrotexnika, o'rmon-melioratsiya va gidrotexnika tadbitlarini amalga oshirishlari, yerlarning sho'rланish, zax bosish, ifloslanish holatiga yo'l qo'ymasliklari, begona o'tlar bosishining oldini olishlari lozim. Yer qonunchiligini ushbu talablarini bajarmaslik yerdan xo'jasizlarcha foydalanish hisoblanib, uni muhofaza rejimini buzish deb qaraladi.

Yerni huquqiy muhofaza qilish o'z oldiga uni ishdan chiqarmaslik maqsadini qo'yadi. Yerni buzishda, uni ishdan chiqarishda eroziyaning ta'siri kuchlidir. Eroziya deganda, unumdon tuproq qatlamining suv yoki shamol ta'sirida buzilishi tushuniladi. Tegishli davlat idoralari, yerdan foydalanuvchilar yerlarni melioratsiyalash va muhofaza qilishga, ihota daraxtlari o'tkazishga, tuproq eroziyasiga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishlari kerak. Ushbu chora-tadbirlarni bajarmaslik yer muhofazasi ta'lablarini buzish hisoblanadi.

Aytilganjardan tashqari, yerdan foydalanuvchilar yerlarni sanoat chiqindilari, oqova suvlari bilan ifoslantirish, yerlarni talon-toroj qilinishidan himoya qilishlari lozimligi yer qonunchiligidagi ko'rsatilgan.

Yer resurslarini huquqiy muhofaza qilish deganda, yerdan oqilona foydalanish, uni qishloq xo'jaligi oborotidan asossiz ravishda tortib olinishining oldini olish, zararli antropogen ta'sirdan himoya qilish, shuningdek tuproq unumdonligini tiklash va oshirish, o'rmon fondi yerlarning samaradorligini yuksaltirishga qaratilgan huquqiy normalar yig'indisi tushuniladi.

Yagona davlat yer fondi va uning tarkibi

Mamlakatimiz butun yer fondi uning eng kichik bo'laklari – yer uchastkalaridan tashkil topgan bo'lib, yer uchastkalari ulardan foydalanish maqsadlariga ko'ra toifalarga birlashadi. Muayyan bududni yer uchastkasi deya e'tirof etish uchun ushu hudud Yer kodeksi 10-moddasida belgilangan talablarga javob berishi lozim bo'ladi.

Yer uchastkalari ulardan foydalanish maqsadlari, aholining talab va ehtiyojlarini qondirishni e'tiborga olib, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini jonlashtirish va rivojlantirishni ko'zlab, ishlab chiqarishni tashkil etishni hisobga olib toifaiarga bo'linadi. Yerlarni toifalarga bo'lismda birinchi navbatda ulardan qaysi maqsad uchun foydalanish mumkin yoki numkin emasligi e'tiborga olnadi. Shuningdek, yerlarni toifalarga bo'lismda ularning tabiiy xususiyatlariiga ham alohida e'tibor beriladi. Masalan, tabiiy xususiyatiga ko'ra qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish imkonini bo'lgan yerlar, eng avvalo, qishloq xo'jahk maqsadlari uchun ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga ko'ra (8-modda) mamlakatimizda yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga binoan quyidagi toifalarga bo'linadi:

- qishloq xo'jaligiga mo'ljaliangan yerlar;
- aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aboli punktlarining) yerlari;
- sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljaliangan yerlar;
- tabiatni muhofaza qilish, sog'lonlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar va tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar;
- tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar;
- o'rmon fondi yerlari;
- suv fondi yerlari;
- zaxira yerlari.

Sanab ko'rsatilgan yer toifalari yagona davlat yer fondini tashkil etib, ular bir toifadan ikkinchisiga o'tib turishi mumkin, ya'ni ular belgilangan toifada qotib qolmaydi.

Masalan, shaharlar hududi ular atrofidagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar hisobidan kengaytirilishi yoki zaxira yerlardan fermer xe'jalikdariga yer uchastkalari ajratilishi, aksincha, konchilik bilan bog'liq ishlar yakuniga yetkazilgach sanoat yerlari zaxira yerlari toifasiga o'tkazilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 9-moddasiga ko'ra yerlarni yer fondi toifalariga bo'lishb va bir toifadan boshqasiga o'tkazish yerni egalik qilishga va foydalanishga berish huquqiga ega bo'lgan organlar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday organlar sirasiga O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi va mahalliy davlat hokimiyati organlari kiritiladi.

Har bir toifadagi yer fondlari foydalanish maqsadi va tartibiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'лади. Mamlakatimiz yer fondi tarkibida **qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar** mustaqil toifani tashkil etib muhim o'rinni egallaydi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ular alohida ahamiyatga ega bo'lib, qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar butun yer fondining 46,12%ini tashkil etib, bunday yerlar 20481,1 ming ga. ni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 43–58-moddalari qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar huquqiy holatini belgilaydi. Unga ko'ra ushbu toifadagi yerlar qishloq xo'jaligi yuritish uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo'jalik yo'llari, kommunikatsiyalar, o'rmonlar, yopiq suv havzalari, binolar, imoratiar va inshootlar egallagan yerlarga ajraladi. Haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlari, tashlandiq yerlar, ko'p yillik dov-daraxtlar (bog'lar, tokzorlar, tutzorlar, mevali daraxt ko'chatzorlari, mevazorlar) egallagan yerlar qishloq xo'jaligi yerlari jumlasiga kiradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanuvchi subyektlari bo'lib, fermer va dehqon xo'jaliklari, qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkat xo'jaliklari), jamoa xo'jaliklari, agrofirmalar, ijara janmoalari, aksionerlik jamiyatlari hisoblanadi.

Ayniqsa, mustaqillik yillarda amalga oshirilgan yer islohotlari natijasida fermer xo'jaliklari hozirda qishloq xo'jalik subyektiari ichida yetakchi o'rinni egalladi. Shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishi sifatida agrar sohani industrlashtirish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishni e'tirof etish mumkin.

Yer fonda tarkibidagi ikkinchi toifa yerlarni **aholi punktlarining yerlari** tashkil etadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda aholi punktlarining yerlari 221 ming hektarni yoki umumiy yer fondining taxminan 0,49 foizini tashkil etadi. Aholi punkti yerlarining huquqiy holati Yer kodeksining 59-68-moddalarida o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra aholi punktlarining yerlari – shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining yerlariga bo'linadi.

Mamlakatimizda hammasi bo'lib 119 ta shahar, 1467 ta qishloq aholi punktlari mavjud. O'zbekiston poytaxti – Toshkent shahri obedligi va yashash uchun qulayligi jihatidan dunyo reytingida 140 shahar orasida 58-o'rinni egalladi va jahon tasnifida yashash uchun eng qulay bo'lgan yirik shaharlar qatoriga kirildi.

Shahar yerlarining bosh vazifasi – shaharning barqaror rivojlanishini, aholining maqbul tarzda joylashuvini, shuningdek, ishlab chiqarish va transport obyektlarining muvofiqlashgan holda joylashuvini ta'minlashdan iborat.

Shahar yerlari tarkibida yer fondining boshqa barcha toifalarini uchratish mumkin. Ushbu yerlar bir paytning o'zida ham aholi punkti yerlariga, ham ye'i fondining boshqa toifasiga kiradi. Shunga qaramay shahar yerlarining asosiy qismini **qurilish yerlari tashkil etadi**. Bu yerlarga uy-joy, kommunal-maishiy, madaniy-ma'rifiy, sanoat, savdo, ma'muriy va boshqa binolar hamda inshootlar qurilgan va ularni qurish maqsadida berilgan hamma yerlar kiradi. Shahar qurilishi yerlariga yer fondining boshqa toifalaridan farqli ravishda xususiy lashtirishni qo'llasa bo'ladi. Shuningdek, shaharlarning **umumiy foydalananishdagi** yerlari shahar hayotida alohida o'ringa ega. Bu turdag'i yerlarga maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sohilbo'yлari, aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarni qondirish va dam olish uchun foydalantiladigan yerlar, kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar, jumladan, qabristonlar, chiqindilarni zararsizlantirish yerlari kiradi. Umumiy foydalananishdagi yerlari yuridik va jismoniy shaxslarga biriktirib qo'yilmaydi, bu yerlar bevosita shahar, hujum davlat hokimiyyati organlarining ixtiyorida bo'ladi.

Qishloq aholi punktlari yerlariga yer tuzish tartibida belgilab qo'yilgan chegaralar doirasidagi hamma yerlar kiradi. Bunday yerlar jumlasiga, birinchidan, qishloq aholi punktlarining qishloqlari va ovullar hududidagi yerlari; ikkinchidan, qishloq xo'jaligi hamda o'rmon xo'jaligi korxonalari hududidagi yerlar kiradi.

Yer fondi tarkibidagi navbatdagi toifani sanoat, transport, aloqa, mudofaa maqsadlariga mo'ljallangan yerlar tashkil qiladi.

Sanoat, transport, aloqa, mudofaa maqsadlariga mo'ljallangan yerning huquqiy holati Yer kodeksining 69-, 70-moddalarida belgilab qo'yilgan. Ushbu toifa yerlar hozirda mamlakatimiz yer fondining 2,06%ini yoki 914,5 ming hektarni tashkil etadi.

Sanoat maqsadlariga mo'ljallangan yerlar deganda, sanoat korxonalariga, shu jumladan kon sanoati, energetika korxonalariga ishtab chiqarish va yordamchi binolar hamda inshootlar qurish uchun doimiy foydalanishga berilgan yerlar tushuniladi.

Transport maqsadlariga mo'ljallangan yerlar deb temiryo'l, ichki suv transporti, avtomobil, havo va truboprovod transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga transport inshootlari, qurilmalari va boshqa obyektlaridan foydalanish saqlash, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, takomillashtirish va rivojlantirish sohasida ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun doimiy foydalanishga berilgan yerkarga aytildi.

Aloqa maqsadlariga mo'ljallangan yerlar jumlasiga aloqa liniyalarini hamda ularga tegishli inshootlarni joylashtirish uchun aloqa, radioeshittirish, televideniya va axborot korxonalari, muassasalarini va tashkilotlariga doimiy foydalanishga berilgan yerlar kiradi.

Qurolli kuchlar, chegara, ichki ishlari va temit yo'l qo'shishlarining harbiy qismlari, harbiy o'quv yurtlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning joylashuvni hamda doimiy faoliyatni uchun berilgan yerlar mudofaa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan yerlar deb e'tirof etiladi.

Tabiatni muhofaza qilish, sog'iomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar va tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar respublikamiz yer fondi tarkibida alohida mustaqil toifani tashkil qiladi

Bu toifa yerning turlari, ulardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 71-75-moddalar bilan tartibga solinadi. Ushbu toifa yerlar hozirda 75,9 ming ga bo'lib, butun yer fondining 0,17% ni tashkil etadi.

Yer kodeksining 71-moddasida ko'rsatilishicha, tabiatni muhofaza qilish, sog'iomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar va tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar muhofaza eriladigan tabiiy hududlar egallagan yerdan iborat bo'ladi.

Tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga mo'ljallangan yerlar deganda, davlat qo'riqxonalari, milliy va dendrologiya bog'lari, botanika bog'lari, zakazniklari, tabiat yodgorliklarining belgilangan tartibda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga maxsus maqsadlar uchun berilgan yerlar tushuniladi. Bu toifa yerlarda belgilangan maqsadga zid va zararli ta'sir etadigan faoliyat taqiqlab qo'yiladi.

Sog'iomlashtirish maqsadlariga mo'ljallangan yerlar deb tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan, kasalliklarning oldini olish va davolashni tashkil etish uchun qulay, belgilangan tartibda tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan yer uchastkalariga aytuladi. Sog'iomlashtirish maqsadlariga mo'ljallangan yerlar aholining davolanishi va dan olishibi ta'minlash uchun foydalaniladi.

Rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar deganda aholining ommaviy dan olishi va turizmni tashkil etish uchun tegishli muassasalar va tashkilotlarga berilgan yerlar tushuniladi. Rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar daryo, ko'l, dengizlar bo'yida aholining ommaviy dan olishi uchun mo'ljallangan, shuningdek obidalar joylashgan hududlarda turizm uchun mo'ljallangan obodonlashtirish va turizm tashkilotlariga berib qo'yilgan yerlar hisoblanadi. Bu yerlardan odamlarni dan olishi, madaniy ehtiyojilarini qondirish maqsadlarida foydalaniladi.

Tarixiy-madaniy abamiyatga molik yerlar deganda, tarixiy-madaniy qo'riqsona, memorial bog, qabriston, shu bilan birga arxeologiya, tarix va madaniyat yodgorliklarining tegishli muassasa va tashkilotlarga doimiy foydaianishga berilgan yerlari tushuniladi.

Mamlakatimiz yer fondi tarkibidagi mahim toifalardan biri **o'rmon fondi** yerlaridir. Ushbu toifa yerlar O'zbekiston yer fondi tarkibida mustaqil fondni tashkil qiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan o'rmonlashtirish bilan bog'liq chora-tadbirlarning natijasi sifatida hozirda bunday yerlar 9636,9 ming ga ni yoki umumiy yer fondining 21,70%ini tashkil etadi. Mamlakatimiz o'rmonlari, eng avvalo, foydalanish emas, balki muhofaza qiliш obyektiidir.

O'rmon fondi yerlari bilan bog'liq huquqiy munosabatlар yer qonunchiligi bilan bir qatorda o'rmon qonunchiligi bilan ham tartibga solinadi.

O'rmon fondi yerlari ikki qismiga:

- o'rmon bilan qoplangan;
- o'rmon bilan qoplanmagan bo'lsa ham o'rmon xo'jaligi ehtiyoji uchun berib qo'yilgan yerkarta bo'linadi.

Yer kodeksining 76-moddasida belgilanishicha, boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar o'rmonzorlar barpo etish, jarliklarning kengayishini to'xtatish, shaharlar va sanoat markazlari atrofida ihota o'rmonzorlar va ko'kalamzor zonalar yaratish uchun belgilangan tartibda o'rmon fondi yerlari tarkibiga o'tkazitishi mumkin. Tuman hokimi o'rmon xo'jaligi davlat organlari bilan kelishib, o'rmon fondi yerlarini qishloq xo'jaligi yuritish uchun qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalarini va tashkilotlara vaqtincha foydalanishga ijara shartlari asosida berishi mumkin.

Suv fondi yerlari ham yeri fondi tarkibidagi mustaqil toifa yerlardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 77-moddasiga ko'ra suv havzaları (daryo, ko'l, suv ombor va shu kabilar), gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallab turgan, shuningdek suv havzalarining va boshqa suv obyektlarining qirg'oqlari bo'ylab ajratilgan mintaqadagi suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun korxona, muassasa va tashkilotlarga belgilangan tartibda berilgan yerlar suv fondi yerlari jumlasiga kiradi.

Mamlakatimizda suv fondi yerlari 831,4 ming ga yoki umumiy yer fondining 1,87%ini tashkil etadi.

Suv fondi yerlari bilan bog'liq munosabatlari yer qonunchiligi bilan bir qatorda suvga oid qonunchilik bilan ham tartibga solinadi.

Suv fondi yerlarining asosiy qismini suv bilan qoplangan yerlar tashkil etadi. Suv bilan qoplangan yerlar deganda, yil davomida doime yoki yilning ko'p qismida suv tagida bo'lgan yerlar tushuniladi. Qisqa vaqt davomida, ya'ni sug'orishda, yomg'ir vaqtida, daryo toshgan paytda suv bilan qoplangan yerlarni biz bu toifaga kiritmaymiz. Suv bilan qoplanmagan yerkarta yana vaqtinchalik sug'orish kanallari, sho'ri yuviladigan maydonlar, basseynlarni ham kiritish mumkin.

Asosiy suv fondi yerlarining boshqa qismi bo'lib, suv havzalarining qirg'oqlari bo'ylab ajratib qo'yilgan mintaqadagi yeri hisoblanadi. Bunga quyidagilar kiradi: 20 metr kenglikdagi qirg'oq mintaqalari, kemalar uchun ajratilgan mintaqalar hamda muhofaza qilish uchun ajratilgan zonalar. Suv fondi yerlariga yuqoridaqilardan tashqari suv obyektlariga tutashgan yerdagi gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi qurilmalari tegishlidir.

Ko'pchilik daryolar, magistral kanallar va kollektorlar, suv omborlari va boshqa suv havzalarining, shuningdek ichimlik va ro'zg'or suv ta'minoti, aholining davolash hamda madaniy sog'lomlashtirish ehtiyojlariiga xizmat qiladigan manbalar maxsus himoya qilinadi. Shu maqsadda qonun shunday suv havzalari atrofida himoya, ya'ni sanitariya zonalari tashkil qilishni belgilaydi. Sanitariya zonalari 3ta mintaqaga bo'linib, ularning har biriga yerdan foydalanishning alohida holatlari (jejimi) o'rnatiladi. Masalan, birinchi mintaqada yashash, qandaydir qurilish inshootlari qurish man etiladi.

Zaxira yerlar – O'zbekiston yer fondi tarkibidagi so'nggi mustaqil toifani tashkil etib, doimiy egallash va foydalanishga berilmagan yer maydonlaridir.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 78-moddasida ko'rsatilishicha, Yer kodeksi 8-moddasining 1-7-bandlarida ko'rsatilgan yer fondi toifalariga kiritilagan hamda yuridik va jismoniy shaxslarga egalik qilish, foydalanish uchun, ijara va mulk qilib berilmagan (realizatsiya qilinmagan) barcha yerlar zaxira yerlari. Bugungi kuada zaxira yerlar 12250,2 ming ga yoki umumiy yer fondining 27,59%ini tashkil etadi.

Bu toifadagi yerlarning manbalaridan biri bo'lib, oboretda bo'lgan yerlar hisoblanadi. Ular qonunda ko'rsatilgan asoslarga ko'ra zaxira yerlar fondiga o'tedilar, keyinchalik esa boshqa yerdan foydalanuvchilarga berib yuboriladi. Ba qatorga rekultivatsiya qilingandan so'ng qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda ma'lum vaqt ishlatib bo'lmaydigan yerlarni ham kiritish mumkin.

Zaxira yerlar asosiy foydalanish maqsadiga ko'ra har qanday boshqa yer fondi toifasiga o'tib ketishi mumkin. Bunday holatlarda ularga o'sha yer fondining huquqiy holati qo'llaniladi.

Davlat zaxira yerlari qisqa muddatli – 3 yilgacha va uzoq muddatli – 3 yildan 10 yilgacha muddatga berilishi mumkin.

Hech kimga foydalanish uchun berilmagan zaxira yerlar biron-biri tomonidan o'zboshimchalik bilan egallab olinishi mumkin emas. Ular tuman hokimliklari ixtiyorida bo'ladi.

Zaxira yerlardan foydalamish ustidan nazoratni tuman (shahar) hokimliklari olib boradilar. Tuman (shahar) hokimliklarining qaroriga ko'ra uzoq muddatga yoki doimiy foydalanishga berilgan zaxira yerlar shu yer fondidan chiqarilib, foydalanish uchun berilgan yer fondi tarkibiga kiritiladi.

Yerdan foydalanish huquqining vujudga kelish va bekor bo'lish asosiari va tartibi

Yerdan foydalanish bo'yicha huquqiy munosabatlari, ya'ni yer resursiaridan foydalanish huquqi qonuniarda belgilangan tartib va asoslarda vujudga keladi. Yerdan foydalanish huquqi O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga binoan quyidagi aseslarda vujudga keladi:

- doimiy foydalanish huquqi asosida;
- meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi asosida;
- ijaraga olish huquqi asosida;
- xususiy mulk huquqi asosida.

Yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqi deganda korxona, muassasa, tashkilotlarga va fuqarolarga oldindan belgilanmagan muddat asosida yer maydonlarini berib qo'yish tushuniladi. **Meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi** deganda, dehqon xo'jaligi yuritish, yakka tartibda uy-joy qurish, jamoa bog'dorchiligi va uzumchiligi yuritish uchun beriladigan yer uchastkalardan foydalanish tushuniladi. Bu yer uchastkalari qonuniy meros huquqi asosida vorislarga o'tadi. **Yerdan ijara asosida foydalanish** deganda, ijarachi tomonidan ma'lum muddatga, ma'lum haq evaziga yer egasidaa yer uchastkasini foydalanish uchun olish tushuniladi. Yer uchastkasi ijarasining shartlari va muddatlar taraflarning kelishuviga binoan belgilanadi va shartnomada mustahkamlab qo'yiladi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar ijaraga ellik yilgacha bo'lgan muddatga beriladi. Yerdan ijara asosida hozirda asosan fuqarelar fermer xo'jaligi yuritish uchun foydalanadilar. **Yerdan xususiy mulk asosida foydalanish** ko'chmas mulk joylashgan yer uchastkaiarini sotib olish asosida vujudga keladigan tasarruf qilish, egalik qilish va foydalanishdir. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 18-moddasiga binoan yuridik va jismoniy shaxslar uchun uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlari ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga xususiylashtirilganda vujudga keladi. Bundan tashqari, diplomatiya vakelatxonalari xodimlari chet el yuridik va jismoniy shaxslari uy-joy sotib olganlatida shu uy-joy joylashgan yer uchastkalariga nisbatan mulk huquqi vujudga keladi.

Yer uchastkalarini egalik qilish va foydalanish uchun berish yer ajratish tariqasida amalga oshiriladi. Yer uchastkalarini ajratib berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlari Mahkamasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar, shaharlar hokimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yerdan foydalanishning kelib chiqishida yer berish jarayoni muhim ahamiyatga ega. Yer berish foydalanishni keltirib chiqaruvchi asosiy vosita bo'lib, bu jarayon ma'lum bosqichlardan iborat. Dastiabki bosqich yer berilishini so'rab berishdir; ikkinchi bosqich ushbu arizani tegishli davlat organida ko'rib chiqish; uchinchisi yer berish to'g'risida qaror chiqarish; to'rtinchisi natura tartibida yer uchastkasi joyida yer tuzilishiga asosan ajratib berishdan iborat. Demak, yerdan foydalanish o'z-o'zidan kelib chiqmasdan, balki belgilangan tartibda, yer berish jarayoni orqali amalga oshiriladi. Yer uchastkasidan natura holida ajratib berilgandan so'nggina foydalanish mumkin. Aks holda yerdan g'ayri qonuniy foydalanish kelib chiqadi.

Biror-bir foydalanuvchi egaligida bo'lgan yer uchastkalarini boshqa bir foydaianuvchi egaligiga berish to'g'risida qaror chiqarilishi yoki olib berilishi mumkin emas. Yer uchastkalari foydalanib kelayotgan subyektdan qonunda belgilangan tartibda to'liq olib qo'yilgandan so'nggina, boshqa foydaianuvchiga berilishi mumkin. Yer berish ilmiy asosda, belgilangan maqsad yo'lida, yerning shart-sharoitlari, tuproq unumdarligiga qarab amalga oshiriladi.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarga "Yer uchastkasiga doimiy egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati", "Yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqini beruvchi davlat hujjati", "Yer uchastkasiga meros qilib qoldisiladigan umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati", "Yer uchastkasiga bo'lgan mulk huquqini beruvchi davlat hujjati", "Yer uchastkasi ijerasi shartnomasi" kiradi. Sanab ko'rsatilgan hujjatlarga ega bo'lish yerdan foydalanish huquqini keltirib chiqarishga asos bo'ladi.

Yerga egalik qilish huquqini va undan foydalanish huquqini bekor qilish deganda, foydalanish uchun berib qo'yilgan yer uchastkalarini tegishli davlat organlari tomonidan qaytarib olish va shu yet uchastkasini bundan keyin o'sha foydalanuvchi ishlata olish huquqiga ega emasligi tushuniladi. Foydalanish uchun berib qo'yilgan yer uchastkalarini qaytarib yoki tortib olish yoxud boshqacha qilib aytganda, yerga egalik qilish huquqini va undan foydalanish huquqini bekor qilishga faqat tegishli hokimliklarning haqlari bor.

Yerga egalik qilish va undan foydalanish huquqini bekor bo'lish asoslari O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasida ko'rsatilgan. Butan yer uchastkasiga yoki uning bir qismiga egalik qilish

huquqi yoxud undan doimiy yoki muddatli foydalanish huquqi, shuningdek yer uchastkasini ijara olish huquqi quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- yer uchastkasidan ixtiyoriy vez kechilganda;
- yer uchastkasiga berilgan muddat tugaganda;
- yuridik shaxs tugatilganda;
- xizmatda foydalanish uchun chek yer berib qo'yishga asos bo'lgan mehnatga oid munosabatlar bekor bo'lganda, agar qonun hujjatlarida boshqacha hol nazarda tutilgan bo'lmasa;
- yer uchastkasidan belgilanganidan boshqa maqsadlarda foydalanilganida;
- yer uchastkasidan oqilona foydalanimaganda, bu qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun hosildorlik darajasi uch yil mobaynida normativdan (kadastr bahosiga ko'ra) past bo'lishida ifodalanganda;
- yer uchastkasidan tuproq unuindorligi pasayishiga, uning kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishiga, ekologik vaziyatning yomonlashuviga olib keladigan usullar bilan foydalaniylgan taqdirda;
- qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yet solig'i, shuningdek ijara olish shartnomasida belgilangan muddatlarda ijara haqi mintazam to'lanmay kelinganda;
- qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yer uchastkasidan bir yil mobaynida va qishloq xo'jaligi sohasiga taalluqli bo'Imagan ehtiyojlar uchun berib qo'yilgan yer uchastkasidan ikki yil mobaynida foydalanimaganida;
- meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huqaqini beruvchi order kimoshdi savdosi asosida sotib olinganidan keyin yer uchastkasidan ikki yil mobaynida foydalanimaganida, yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi garovda bo'lgan taqdirda esa garov shartnomasi muddati mobaynida foydalanimaganida. Foydalanimayotgan yer uchastkalari avvalgi egalaridan uiar te'lagan haq qiymati qoplangan holda olib qo'yiladi;
- yer uchastkasi ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda olib qo'yilganida.

Yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi belgilangan tartibda quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlari, shuningdek uy-joy binolari va boshqa binolar yoki binolaraning bir qismi shu binolar joylashgan yer uchastkalari bilan birga sotilganda;
- davlat va jamoat ehtiyojlari uchun savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlari, shuningdek uy-joy binolari va boshqa binolar yoki binolarning bir qismi ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda qayta sotib olinganda;
- qonunda belgilangan hollarda savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlari, shuningdek uy-joy binolari va boshqa imoratlari yoki imoratlarning bir qismi ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga musodara etilganda;
- ijro hujjatlari bo'yicha undiruv yer uchastkasiga qaratilganda.

Yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdorining huquq va majburiyatlar

Yer resurslaridan samarali, oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ko'p jihatdan yer egalari va yerdan foydalanuvchi subyektlarning yerdan foydalanish bo'yicha qonunda belgilangan huquq va majburiyatlariga qanchalik og'ishmay rioya qilishlari, ularni bajarishlariga bog'liq bo'ladi. Yoxud yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning yer munosabatlarni tartibga soluvchi qonun normalariga og'ishmay itoat etishlari, ularni to'la ijro qilishlari yerdan maqsadga muvofiq foydalanish hamda muhofazasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Usibu qonular normalaridagi asosiy talablar yerdan ilm-fan tavsiyalari asosida foydalanish, yerdan kelajak avlod manfaatlarini ham inobatga olib foydalanish, yerdan aniq belgilangan maqsad asosida foydalanish, yerni ishdan chiqarmaslik, ifioslantirmaslik, yerdan xalq farovonligi yo'lida, mamlakat iqtisodiyoti barqa orligini ta'minlash yo'lida foydalanishdan iboratdir.

Yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdori quyidagi huqeqlarga ega:

- yer uchastkasida undan foydalanish maqsadiga muvofiq mustaqil xo'jalik yuritish;
- qishloq xo'jalik ekinzorlari va ko'chatzorlari hamda dovdaraxtlarga, yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsuloti va uni realizatsiya qilishdan olingan daremadga bo'lgan mulk huquqi;

- yer uchastkasidagi mavjuid keng tarqalgan foydali qazilmalar, o'rmonzorlar, suv obyektlaridan xo'jalik ehtiyojlari uchun belgilangan tartibda foydalanish, shuningdek yerning boshqa foydali xossalari ni ishga solish;
- yerlarni sug'orish va ularning zaxini qochirish, agrotexnika va boshqa melioratsiya ishlari o'tkazish;
- qishloq xo'jalik ekielarini, dov-daraxtlarini sug'orish hamda boshqa maqsadlar uchun sug'orish manbalaridan limitlarga muvofiq suv olish;
- belgilangan tartibda uy-joy binolari, ishlab chiqarish, madaniy-maishiy hamda boshqa imoratiar va inshootlarni barpo etish, yer uchastkalaridan foydalanish maqsadi va loyiha hujjalariiga muvofiq ularni qayta qurish va buzib tashlash. Yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar bu ishlarni yer egalari bilan kelishib amalga oshirishga haqli;
- yer uchastkasi olib qo'yilgan taqdirda unga yetkazilgan zararning (shu jumladan, boy berilgan foydarining) qoplanishini yoki yer uchastkasidan intiyoriy ravishda voz kechilganida sarflangan xarajatlarning to'lanishini talab qilish;
- yer uchastkasini yoki uning bir qismini qonun hujjalarda belgilangan tartibda vaqtincha foydalanishga va ichki xo'jalik ijarasiga berish.

Yer egasi bo'lgan fuqaro yer uchastkasiga metos qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini, shu jumladan kimeshdi savdosi asosida olingan shunday huquqni dehqon xo'jaligi yuritish, yakka tartibda uy-jey qurish maqsadida kreditlar olish uchun garovga qo'yishi mumkin.

Yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdori qonun hujjalariiga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachi va yer uchastkasi muldorlari yerdan foydalanishda huquqlar bilan bit qatorda ma'lum majburiyatlarni ham bajarishlari kerak. Bu majburiyatlar yer kodeksining 40-moddasida belgilangan bo'lib, ular qiyidagilardan iborat:

- yerdan belgilangan maqsadga muvofiq oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishning tabiatni muhofaza qiluvchi texnologiyalarini qo'llash, o'z xo'jalik faoliyati natijasida hududda ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik;
- ishlab turgan irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari, muhandislik kommunikatsiyalarini soz holatda saqlab turish;
- yerlarni muhofaza qilishga oid ushbu Kodeksning 79-moddasida nazarda tutilgan turkum tadbirlarni amalga oshirish;

- yer solig'ini yoki yer uchun ijara haqini o'z vaqtida to'lash;
- boshqa yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarchilari va mulkdorlarining huquqlarini buzmashlik;
- foydali qazilma konlarini ishlatish, qurilish va boshqa ishlarni amalga oshirish uchun berilgan qishloq xo'jalik yertari va o'rmonzorlarni ularga ehtiyoj qolmaganidan keyin o'z hisobidan qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi yoki baliq xo'jaligida foydalanish uchun yaroqli holatga, mazkur ishlar boshqa yerdarda amalga oshirilgan hollarda esa belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish;
- foydali qazilma konlarini ishlatish chog'ida, shuningdek boshqa ishlarni amalga oshirish paytida o'zlariga egalik qilishga va foydalanishga hamda mulk etib berilgan (realizatsiya qilingan) yer uchastkalari hududidan tashqaridagi qishloq xo'jalik ekinzorlari, o'rmonzorlar va boshqa yerga salbiy ta'sir ko'rsatishning oldini olish yoki uni mumkin qadar cheklash chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- mahalliy davlat hokimiyati organlariga yerdan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatiarida belgilangan ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish;
- boshqa yer egalariiga, yerdan foydalanuvchilarga, yer uchastkalaring ijarchilariga va mulkdorlariga yetkaziigan zararni belgilangan tartibda qoplash.

Qonun hujjatlariga muvofiq yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalaring ijarchilari va mulkdorlari boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Yer egalari, yerdan foydalanuvchi, ijarchi va yer uchastkasi mulkdorining huquqlarining ta'minlanishi qonun bilan kafolatlanadi. Yer kodeksining 41-moddasida ko'rsatilishicha, yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning faoliyatiga davlat, xo'jalik organlari, mansabdor shaxslarning aralashuvi taqiqolanadi. Yer egalari va foydalanuvchilarning buzilgan huquqlari tiklanishi kerak va yetkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda to'la hajunda qoplanishi lozim.

Nazorat uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi yer qonunchiligiga asosan yer fondi 8 toifaga bo'linadi.

Yer fondi toifalarining huquqiy holatida qanday o'xshashlik va farqli jihatlar mavjud?

2. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksida yerlarni muhofaza qilish chora-tadbirlari belgilangan.

Qishloq xo'jaligiga mo'tjalangan va noqishloq xo'jalik yerlarini muhofaza qilish chora-tadbirlari xususida fikr-mulohazalariningizni bildiring.

3. "Semurg'" dehqon xo'jaиги "Progress" zavodiga qarshi ariza bilan xo'jalik sudiga mutojaat etib, unga javobgar tomonidan o'zboshimchalik bilan egallab olingan 5 hektar yer uchastkasini qaytarishni hamda javobgar tomonidan o'zboshimchalik bilan egallab olingan maydonda so'nggi uch yil davomida olingan kartoshka hosilining nuqdoricha zarani qoplashni so'ragan. Javobgar qarshi da'vo bilan chiqib, ushbu hudedding hosildorligi va unumdarligini sezilarli darajada oshishiga asos bo'lgan melioratsiya ishlari o'tkazilganligi bilan bog'liq xarajatlarni qoplashni talab qilgan.

"Yer uchastkasini o'zboshimchalik bilan egallab olish" iushunchasi mazmunini ochib bering. Buning uchun qanday javobgarlik chorasi bor? Nizoni hal qiling.

4. "Karnaлak" bog'dorchilik-uzumchilik shirkati umumiy yig'ilishida shirkat a'zosi K. ga nisbatan javobgarlik cherasini qo'llash masalasini ko'rib chiqdi. K. o'ziga qarashli bo'lgan yer uchastkasiga ishlov bermaganligi natijasida begona o'tlar ko'payib atrofdagi yer uchastkalariga ham zararli ta'sir ko'rsatayotganligi aniqlangan. K. yet uchastkasidan o'z xohishiga qarab foydalanishini ma'lum qilgan.

Ushbu vaziyatda shirkat qanday qaror qabul qilishi mumkin? Nizoni hal qiling.

11-BOB. SUV RESRUSLARINI MUHOFAZA QILISH VA UNDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY TARTIBI

Suvdan foydalanish va muhofaza qilishning tarixi va uning ekologik ahamiyati. Suv resurslarini ekologik-huquqiy muhofaza qilish va foydalanish inaqsadi, vazifalari, xususiyatlari, prinsiplari hamda ekologik talablar. Sav fonda dan foydalanish (iste'mol qilish) va uni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi. Suv resurslaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni rag'batlantirish va belgilanadigan huquqiy chora-tadbirlar. Suv resurslaridan foydalanish va muhofaza qilishning xalqaro ekologik ahamiyati.

Suvdan foydalanish va muhofaza qilishning tarixi va uning ekologik ahamiyati

Tabiat boyliklari orasida suv aloliда ahamiyatga ega bo'lib, u tirik mayjudotning yashash hayot manbaidir. Zero, insoniyat hayoti davom etishi uchun suvni va suv manbalarini, avvalo, chuchuk suvdan tejamkorlik asosida foydalanishlari hamda ularni muhofaza qilishlari lozim.

Ichimlik suvining odam organizmu uchun ahamiyatini sharqning ko'pgina olimlari yaxshi bilishgan. Masalan, Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" kitobining birinchi jildida "Suvning sitati" haqida ko'pgina ma'lumotlar keltirilgan, suvning inson hayoti uchun zarur elementlardan biri ekani, suvning xususiyatlarini yaxshilaydigan bir necha usullarni bayon qilgan va suvni toza saqlash, uni qaynatib ichish kerakligini odamlarga uqtirgan.

Zardushtiyarning muqaddas kitobi "Avesto"da tabiat muhofazasiga alohida o'rinn ajratilgan. Bu ta'limotga ko'ra qadimgi ajdodlarimiz ona tabiatni nihoyatda e'zozlaganlar, o'z hayotlarini tabiat bilan, yer, suv o'simlik va hayvonot dunyosi bilan chambarchas bog'liq holda tasavvur etganlar. "Avesto" ta'limoti suvni asrab-avaylab foydalanish lozunligiga da'vat etgan va odamlar shu ta'limotga asoslanib suv boyliklariga nisbatan oqilona munosabatda bo'lgan.

Insonni fiziologik ehtiyojini qondirish uchun sutkasiga 2–3 litrgacha suv sarflanadi. Bu Markaziy Osiyo sharoitlarida esa havo harorati 39–40 daraja va undan ortiq bo'lganligi munosabati bilan isib, namlik kamayib ketganda suvgaga bo'lgan ehtiyoj juda ortadi va u sutkasiga 6–8 litr va undan ko'pni tashkil etadi. Jazirama issiq sharoitida jismeniy ishning og'izligiga qarab odamning suvgaga bo'lgan fiziologik ehtiyoji sutkasiga 8–11 litrgacha yetadi.

“Avesto”ning “Vendidad” nomli bobida suvdan oqilona foydalanmaganlik, uni iflosantirganlik uchun qanday jazolar (Masalan, qamchin bilan to'sit yuz marotabagacha savalanish) qo'llanilishi haqidagi qcidalar o'z aksini topgan. Shuningdek, uning “Visparad”, “Vendidad” va boshqa bo'limlarda chuchuk va mineral suvdan davo maqsadida foydalanish mumkinligi e'tirof etilgan.

Zeto, mintaqadagi birlamchi ahamiyatga ega ekologik muainmolarni hal qilishning yagona ilmiy, huquqiy, moliyaviy va texnologik bazasi yo'qligi bugungi kunda O'zbekiston va unga qo'shni bo'lgan mamlakatlarning ekologik xavfsizligiga rahna solib turgan asosiy xavfsidir. Bunga sayyoramizning eng yirik yopiq suv havzalaridan biri bo'lgan Orol dengizining qurib borishi yaqqol misol bo'lmoqda.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Yaqin-yaqinlargacha o'zining ulkan bioxilmassili bilan mashhur bo'lgan Orolbo'yi mintaqasida o'simliklar va yovvoyi hayvonlari turi keskin kamayib botmoqda, jumladan, sut emizuvchilarning 12, quşlarning 26 va o'simliklarning 11 turi butkul yo'q bo'lish xavfi ostida turibdi. Oro'nинг qurigan qismi o'rinda hosil bo'lgan 5,5 million hektardan ortiq maydonligi yangi Orolqum sahrosi tobora butun Orolbo'yi mintaqasiga yoyilmoqda. Bu yerdan har ydi atmosferaga qariyb 100 million tonna chang va zaharli tuzlar ko'tarilib, qum bo'ronlari va kuchli shamollar bilan mazkur hududdan ancha olis bo'lgan mintaqalarga ham targalmoqda”,³⁸—degan tahlikali ta'kidlari ekologik tahdidlarning oldini olish va bartaraf etishning huquqiy muammolarini zamon talabi asosida hal qilish va suv resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish masalasiga alohida e'tiber berilishini taqozo etadi.

³⁸O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Otoi dengizini mintaqasida eko-ekologik ofal oqishlarini yurishish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish” mavzusidagi xalqaro konferentsiya ichrakchilari ga tabridi // Xalq so'zi. —2014. —30-oktabr.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda respublikamizning asosiy suv taminoti, shu jumladan ekinlatni sug'orish 55 ga yaqin suv omborlari hisobidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, O'zbekiston sav resurslari miliy boyligini 500 ta tabiiy ko'l hamda 1448 ta buloq tashkil etadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev alohida ta'kidlaganidek, "qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish bo'yicha istuvor vazifa – avvalo, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishdir"³⁹, degan fikrlari hamda O'zbekiston Respublikasi prezidentining“ 2017–2021-yillarda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks tivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida"gi qarori⁴⁰ juda muhim ahamiyatga ega bo'lib bugungi kunda mamlakatimizda suv resurslaridan oqilona foydalanish va uni ekologik muhofaza qilish masalasi yechimini asosi bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, suvni ekologik muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish ishini yanada yaxshilash bu hayotni yaxshilash va asrash hamda uzoq umr ko'rishdir, desak xato qilmaymiz.

Suv resurslarini ekologik-huquqiy muhofaza qilish va foydalanish maqsadi, vazifalari, xususiyatlari, prinsiplari hamda ekologik talablar

Suvni huquqiy muhofaza qilishdan maqsad suv resurslari va ularning manbalaridan oqilona foydalanish, suvni tabiiy xossalari saqlash, uni ifloslanishdan, zaharlanishdan tarkibi buzilishidan himoya qilish, ayniqsa, suvni sanitariya talabiariga mosligi va unda yeshaydigan tabiiy mavjudotni ekologik normal holatni ta'minlashdan iborat bo'lishi lozim.

Suvni huquqiy muhofazasi to'g'risida gapirganda "Suv muhofazasi", "Suvni huquqiy ekologik muhofaza qilish", "Suvdan foydalanish huquqini himoya etish" kabi tushunchalar ma'nosini to'g'ri tushunish va farqlash lozim.

³⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tadtirkorlar va ishbilarmonijs harakati – O'zbekiston liberal demokratik partiyasining VIII ayezdidagi ma'rezasi. Demokratik islohotlari izchit devom etdirish. Xalqimiz uchun tinch va osovoishte, manosib hayat darajasini yaratish – borganor harrapqiyot kafolatidir // Xalq so'zi. –2016. –2-novabr. –№216 (6651)

⁴⁰Xalq so'zi. –2017. –22-enejdagi –№80 (6774)

Suv muhofazasi – bu suv resurslari va manbalarini muhofaza qilish tushunchasiga nisbatan keng bo'lib, u o'zida suvni muhofaza qilish jarayonida barcha tabiat boyliklarini ham saqlash, tiklash va ulardan foydalanishda sanitariya, biologik va ekologik talablarga rioya qilish jarayonida suvni muhofaza qilishni talab etadi.

"Suvni huquqiy muhofaza qilish" jarayoni esa tabiatni muhofaza qilish, ekologik, suv va suvdan foydalanish to'g'risidagi qonuular talablariga asosan suv manbalaridan oqilonan foydalanish, uni tabiiy xossasini saqlash, ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, hamda suv resurslarini, manbalarini muhofaza qilishga qaratilgan boshqa tadbirlarni amalga oshirishda, suv, sanitariya to'g'risidagi qonun talablarni buzilishiga qarshi kurashish, suvdan foydalanish va uning muhofaza qilish sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish bilan bog'liq va boshqa holatlarni o'z ichiga oladi.

"Suvdan foydalanish huquqini himoya qilish" deganda esa suvdan foydalanuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya etish, ya'ni suvdan foydalanuvchilarning suv munosabatlari bo'yicha subyektiv huquq vakolatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilishni bartaraf etishga qaratilgan huquqiy-ekologik normalar yig'indisi tushuniladi.

Amaldagi 1993-yil 6-iyunda qabul qilingan "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning XXIV bobi "Suvni va suv obyektlarini muhofaza qilish", deb nomlanib, 97-102-moddalarini e'z ichiga olgan⁴¹.

Jumladan, Qonunning 97-moddasida. "Hamma suvlar (suv obyektlari) aholi sog'lig'iga zatar yetkazishi, shuningdek balig zaxiralarining kamayishi, suv ta'minoti sharoitining yomonlashishi hamda suvning fizikaviy, kimyoviy va biologik xossalari pasayishi, suvning tabiiy tozalanish xususiyati kamayishi, suvning gidrologik va gidrogeologik rejimining buzilishi natijasida kelib chiqadigan boshqa ko'ngilsiz hodisalarga olib kelishi hollardan muhofaza qilinishi kerak", – deb ko'rsatilgan.

Bundan tashqari, hozirgi paytda aholi yashash joylarini ichimlik suvi bilan ta'minlash va uni muhofaza qilish maqsadida hukumat tomonidan ham bir qator chora-tadbirler amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, ushbu masala yuzasidan 2003-yil 17-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №405-sonli

⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kongashi Anhorotmehasi -1993 -№ 5. -221-modd

"Qishloq aholi yashash joylarini ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda keyinchalik 2008-yil 12-iyunda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning PQ-890-sonli "Qishloq tumantari va shaharlari abolisini sifatli ichimlik suv bilan ta'minlashni yanada yaxshilash va tabiiy gazdan tejamli foydalanish chora-tadbiriari to'g'risida"gi⁴² qarorlari ham qabul qilingan.

Shunday ekan, suv resurslaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish har xil **vosita** va **usullar** yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Ana shunday **usullardan** biri suv manbalarini **huquqiy ekologik muhofaza qilishdir**, ya'ni suv resurslarini qonun va boshqa huquqiy normalari yordamida, uning tozaligini ta'minlash, ifloslanishdan saqlash, foydalanish rejimi (tartibi)ni talab darajasida ta'minlash hamda suv resurslari mavjud manbalarni saqlash yoki ularni yomen holatdan himoya qilish shular jumlasi dandir.

Suvni muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanishb to'g'risida"gi Qonunining 99-moddasiga asosan quyidagilar taqiqlanadi:

⦿ ishlab chiqarish chiqitlari, maishiy va boshqa xil chiqitlar hamda chiqindilarni suv obyektlariga tashdash;

⦿ moylarning, yog'ochlareing, kimyoviy va neft mahsulotlarining hamda boshqa mahsulotlarning to'kilib-sochilishi natijasida suvni va suv obyektlarini bulg'atish va ifloslantirish;

⦿ suv havzalarining yuzi, suv havzalarini qoplab turgan yaxlar va muzliklarning yuzasi, sanvat chiqitlari, maishiy chiqindi va boshqa tashlandiq chiqitlar, shuningdek yer osti va yer osti suviarning sifatini yomonlashtirib yuboradigan neft va kimyoviy mahsulotlar bilan bulg'atish va ifloslantirish;

⦿ suvlarni o'g'itlar, zaharli kimyoviy moddalar va boshqa zararli moddalar bilan buig'atish.

Ushbu qonunning 101-moddasida yer osti suvlarini muhofaza qilish tartibi ifodalangan.

Shuningdek, qonunning 102-moddasiga ko'ra xo'jalik faoliyati kichik daryolarning holati va rejimiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari), fermier va dehqon xo'jaliklari qishloq va suv xo'jaligi,

⁴² O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga palatalarinteg Axberotmohasi. -2008. -№6. -336-modda.

tabiatni muhofaza qilish organlari bilan birgalikda suvni uning musaffoligi va sifatini saqlash chora-tadbirlarini ko'rishlari lozim.

Umuman olganda, suv resurslarini ekologik huquqiy muhofaza qilish va ulardan foydalanishda bir qator **umumiyl prinsiplarga** ham amal qilish lozim.

1. Suv resurslaridan ogilona foydalanish va belgilangan maqsadda samarali foydalanish;

2. Suvga nisbatan faqat davlatni egalik qilish huquqini mustahkamlash;

3. Suv va boshqa tabiiy obyektlarga zarar yetkazishning oldini olish;

4. Suv resurslaridan foydalanishda umumiyl va maxsus, birgalikda va tanho, birlamchi va ikkilamchi foydalanish kabi murakkab tur va shakllari talablariga rioya qilish;

5. Suvdan foydalanisnga nisbatan haq to'lash talabiga rioya qilish;

6. Suvdan foydalanish va ekologik muhofaza qilish bolati haqida axborotlardan erkin foydalanish;

7. Davlatlararo suv resurslaridan foydalanish va ekologik muhofaza qilishda mintaqaviy, davlatlararo hamda xalqaro prinsiplarga qat'iy amal qilish va boshqalar.

Suv boyliklaridan **belgilangan maqsadda foydalanishni suvdan foydalanish huquqi** yordamida amalga osbirish mumkin. **Suvdan foydalanish huquqi deganda**, davlat yoki u vakolat bergen organlar tomonidan belgilangan, ma'qullangan va o'matilgan suv resurslarini o'zlashtirish, ularni iqtisodiy ma'noda ekspluatatsiya qilish jarayonida kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi tushuniladi.

Suvdan foydalanish huquqi yordamida suv resurslaridan foydalanish tartibi, foydalanish maqsadlari, turlari, suvni muhofaza etish shartlari, suvga nisbatan mulk huquqi, suvdan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlar, suvdan foydalanish kafolatlari, suvdan foydalanish huquqini himoya qilish, suvdan foydalanishni bekor qilish, suvdan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik masalalari tartibga solinadi.

Suvdan foydalanish huquqini turli xil ma'nolarda tushunish mumkin:

1) suvdan foydalanish huquqi suv huquqining asosiy instituti bo'lib, turli sohalardagi me'yoriy huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan huquqiy normalar yig'indisidir;

2) suvdan foydalanish haquqi suvdan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatları yig'indisidir;

3) suvdan foydalanish haquqi suvdan foydalanuvchilarning subyektiv huquq va vakolatlarini amalga oshirish mexanizmini, ularni amaliyotda qo'llash jarayonini o'zida mujassamlashtiruvchi huquqiy munosabatdir⁴⁵.

Davlat suv fondi yuridik va jismoniy shaxslarga doimiy va vaqtincha foydalanishga beriladi. Muddati avvaldan belgilanmagan holda foydalanish – doimiy foydalanish deb e'tirof etiladi. Suvdan vaqtincha foydalanish muddati: qisqa – uch yilgacha va uzoq – yigirma yilgacha bo'lishi mumkin. Suv obyektlaridan vaqtincha foydalanish inuddatlari suvdan foydalanuvchi manfaatdor tomonlar iltimosnomasiga binoan, shu suv obyektlarini tanho foydalanish uchun berish to'g'risida qaror chiqargan yoki undan maxsus foydalanish uchun raxsatnoma bergen davlat organlari temonidan uzaytirilishi mumkin (31-modda).

Shuningdek, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunga 2009-yil 25-dekabrda kiritilgan o'zgartishlar asosida suvdan foydalanish bilan bir vaqtida "suv iste'moli" degan yangi huquqiy tushuncha ham kiritib keldi.

Shunga ko'ra suvdan foydalanish va iste'mol qilish huquqi subyektlari haquqiy maqomi ham bir-biridan farq qiladi. Xususan, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasiga ko'ra suvdan foydaianuvchilar suv xo'jaligining foydalanuvchi tashkilotlari, suv iste'molchilarini uyushimalari, kommunal-maishiy soha, gidroenergetika korxonalar, boshqa korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari hamda fuqaroligi bo'limagan shaxslar bo'lishi mumkin.

Ushbu qonunning 18¹-moddasiga muvofiq esa suv iste'molchilarini sitatida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer va dehqon xo'jalikiari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'limagan shaxslar tan olinadi.

Suv obyektlarini foydalanish va iste'mol qilish tartibi va shartlari ko'p jihatdar suvdan foydalanish va iste'mol qilish turiga bog'liq bo'ladi. Umumiy tarzda savdan foydalanish huquqini bir necha mezonlarga ko'ra tasnitlashimiz mumkin:

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi ma'muriy hududlari va xo'jalik komplekslari tarmoqlari bo'yicha suvdan **foydalanish holati**:

⁴⁵Suv haqezi Darslik //v.f.d., prof.J.I.Xolmo'minovning umumiyl tabriri ostida. Mas'ul muhar. y.f.d., prof. M.B.Usimov. -Toshkent: TUYI, 2011.-B 338.

sug'orishda 90,8%, maishiy-kommunal xo'jalikda 4,7%, energetikada, 0,5%, baliqchilikda 1,2%, sanoatda 1,6%, va boshqa maqsadlar uchun 1% ishlatalmoqda¹⁴.

2. Suv obyektidan suv olish usuliga, suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etilishiga qarab suvdan foydalanish suvdan umumiy va maxsus foydalanishga bo'linadi: a) suvdan umumiy foydalanish – jismoniy shaxstar temonidan suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etuvchi maxsus inshootlar va qurilmalarni qo'llamagan holda o'z ehtiyojlarini hamda boshqa ehtiyojlarni qondirish maqsadida suvdan foydalanish; b) suvdan maxsus foydalanish – yuridik va jismoniy shaxstar temonidan suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etuvchi maxsus inshootlar va qurilmalarni qo'llagan amalgalashiriladigan suvdan foydalanish.

Suvdan umumiy va maxsus foydalanish turlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-mehitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasu huzuridagi Yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi temonidan qonun hujjaligiga muvofiq belgilanadi.

3. Suv obyektlaridan foydalanuvchi subyektlar soniga qarab, tanho yoki birgalikda foydalanish farqlanadi: a) tanho foydalaniladigan suv obyekti – qonun hujjalarda belgilangan tartibda yuridik yoki jismoniy shaxslarga butunlay yoki qisman foydalanishga berilgan suv obyekti; b) birgalikda foydalaniladigan suv obyekti – tanho foydalanishga berilmagan suv obyekti. Suv obyektlari qonun hujjalarda belgilangan tartibda qishloq va suv xo'jaligi, sanitariya nazorati, tabiatni muhofaza qilish, geologiya va mineral resurslar organlari bilan kelishilgan holda foydalanishga beriladi.

Suv iste'molining ham qonunga (21¹-modda) mavofiq maayyan turlari mavjud bo'lib, ular suvdan foydalanish turlariga o'xshash. Ya'ni maqsadli foydalanishiga ko'ra suv iste'moli a) ichimlik; b) kommunal-maishiy; d) davolash, kurort, rekreatsiya; e) baliqchilik xo'jaligi; f) sanoat va energetika; g) qishloq xo'jaligi suv iste'moliga va boshqa turlarga bo'linadi.

¹⁴O'zbekiston Respublikasida atrof-nahit leiali va tabiiy resurslardan foydalanish to'g'isisidagi Milliy ma'muza/ N.M.Umarov tahriri ostida, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi – Toshkent: Chonor ENK, 2013.–B.98.

Suv obyektidan olinadigan suvning miqdoriga qarab suv iste'moli umumiy va maxsus suv iste'moliga bo'linadi: a) jismoniy shaxslar tomonidan suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etuvchi maxsus inshootlar va qurilmalarni qo'llamagan holda o'z shaxsiy ichimlik, maishiy, rekreatsiya, davolash ehtiyojlari, hayvonlarni sug'orish va boshqa ehtiyojlarni qondirish maqsadidagi suv iste'moli umumiy suv iste'molidir; b) yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etuvchi maxsus inshootlar va qurilmalarni qo'llagan holda amalga oshiriladigan suv iste'moli maxsus suv iste'molidir. Maxsus suv iste'moliga ayrim holarda maxsus inshootlar va qurilmalarni qo'llamagan holda, anuno suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etadigan suv iste'moli ham kiritilishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, suv obyektlarini foydalanishga yoki iste'mol qilishiga berish tartibi va shartlari ko'p jihatdan foydalanish yoki iste'mol qilish turiga bog'liq bo'ladi. Shunga asosan suvdan foydalanish yoki iste'mol qilish undan tanho, umumiy yoki maxsus foydalanishga ko'ra boshqacha taruib va shartlar asosida amalga oshiriladi.

Suvdan foydalanish va iste'mol qilish huquqi mazmunini aniqlashda suv qonunchiligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, suvdan foydalanuvchilarning huquqlari "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonunning 32-32¹-moddalarida **35-moddasida esa suvdan foydalanuvchilar majburiyatları suv iste'molchilarining majburiyatları esa qonunning 35¹-moddasida batatsil ko'rsatilgan.**

Xulosa qilib aytganda, suvdan foydalanuvchi subyektlarning o'z huquq va majburiyatları mazmunini yaxshi anglab yetishlari hamda unga necha qilishlari suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza etish, suv qonunchiligi talablarini bajarishga xizmat qiladi.

Suv foydalanish (iste'mol qilish) va uni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi

Suvdan foydalanish (iste'mol qilish) va uni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi davlatning ekologik vakolati va ekologik siyosatini amalga oshirishning yo'nalishlaridan biridir. Usbbu boshqaruvni tashkil etish asosida atrof-muhitni yaxshilash, suvlarni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish (iste'mol qilish)ni ta'minlash maqsadlari turadi.

Suvdan foydalanish (iste'mol qilish) va uni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi orqali davlat suv fondining mulkdori sifatida ulardan foydalanish (iste'mol qilish)ni tashkil etish maqsadida suvni tasarruf etish huquqini amalga oshiradi.

Suvdan foydalanish (iste'mol qilish) va uni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi deganda vakolati davlat organlarining suvdan foydalanish (iste'mol qilish) va uni muhofaza etish bo'yicha ijro etish va farmoyish berish faohiyati tushuniladi.

Suvdan foydalanish (iste'mol qilish) va uni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi organlarining farmoyish berishi ularning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda vakolat doirasidagi yuridik va jismoniy shaxslarga majburiy ko'rsatmalar berish huquqidagi ketib chiqadi Suvdan foydalanish (iste'mol qilish) va uni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi organlarining ijro etish va farmoyish berish faoliyati suv to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq suvdan foydalanish (iste'mol qilish) va uni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiradigan organlar **umumiyligida** va **maxsus** vakolatga ega bo'lgan davlat organiariga bo'linadi.

Umumiyligida ega bo'lgan organlar qatoriga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va mahalliy davlat hokimiyati organlari kiritadi. Ular iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda davlat boshqaruvini amalga oshirish bilan bir vaqtida suvdan foydalanish munosabatlarni tartibga solishiga oid masalalarni ham hal qiladilar. Shuning uchun ham ular umumiyligida vakolatga ega bo'lgan organlar deb nomlanadilar.

Suvdan foydalanish (iste'mol qilish) va uni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvida Vazirlar Mankamasining vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (98-moddasi), O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-maydagagi "Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi⁴⁵ Qonunining 9-, 10-, 11-, 12-, 20-moddalarida, O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi⁴⁶ Qonunining 9-meddasida, O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunining 6-meddasida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari aniqligida belgilangan.

Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvida mahalliy davlat hokimiyat organlarining vakolatlari Konstitutsiyada (100-moddasi), O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati organlari to'g'risida"gi Qonunda (10-, 24-, 25-moddalari), "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi. Oliy Kengasha Axberotnomasi. -1993. - №5. -202-moddasi.

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axberotnomasi. -2002. -№1. -38-moddasi.

(10-modda) O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunining 7-meddasida belgilangan.

Maxsus vakolatli davlat organlariga sevdan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi **Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi**, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, **Gidrometeorologiya markazi, Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi** kiradi. Ulauning faoliyati asosan suvgaga oid munosabatlarni tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan sababli maxsus vakolatli organlar deb nomlanadi.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-maydag'i qarori bilan tasdiqlangan Nizomiga muvofiq Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni qayta tiklash, shu jumladan, suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasida davlat nazoratini hamda tarmoqlararo boshqaruvni amalga oshiruvchi, idoralardan ustun turuvchi hamda muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organdir. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga bo'y sunadi va unga hisobdon.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi va uning organlari (suv xo'jaligi bosh boshqarmasi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarnalari) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 28-iyundagi 290-sonli "O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq quyidagilarni amalga oshiradi: suv resurslari balansini ishlab chiqadi, suv manbalari, havza irrigatsiya tizimlari, iqtisodiyot tarmoqlari, hududlar bo'yicha suv olish limitlarini belgilaydi; suvdan limit bo'yicha foydalanish tartibining amalga oshirilishini ta'minlaydi; suvdan foydalanuvchilari uyushrnalari va boshqa birlashrnalarni tashkil etish va rivejlantirishda metodik va amaliy yordam ko'rsatadi; havza prinsipi asosida yet usti suv resurslari boshqarilishini amalga oshiradi; suv resurslaridan foydalanishda o'zaro munosabatlarning bozor prinsiplarini va iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqadi va joriy etadi; magistral, xo'jaliklararo kanallar va kollektorlar, suv omborlari, nasos stansiyalari, gidrotexnika inshootlari va boshqa suv xo'jaligi obyektlaridan foydalanishini tashkil etadi; gidromelioratsiya tizimlaridan texnik foydalanish, ularni rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarini muvofiqlashtiradi; suv resurslari hisobini olib boradi va ulardan

foydalanishni nazorat qiladi, "Suvdan foydalanish" bo'limi bo'yicha davlat suv kadastrini yuritishda qatnashadi; sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati, sug'orish va kollektor drenaj suvlari sifati ustidan monitoringni amalga oshiradi; suv resurslaridan kompleks foydalanishning istiqbolli sxemalarini ishlab chiqadi; transchegaraviy suv resurslari va obyektlarini boshqarish va ulardan foydalanish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi.

Xullas, suv resurslaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat boshqaruvi hamda nazoratini olib borish katta ahamiyatga ega bo'lib, suv resurslaridan oqilona foydalanishga, uning musaffoligini saqlashga hamda har qanday ekologik huquqbuzarliklarning oldini olishga yordam beradi.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni rag'batlantirishda belgilanadigan huquqiy chora-tadbirlar

Hozirgi kunda suv resurslaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishda rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Suv resurslarini muhofaza qilishni rag'batlantirish boshqa tabiat obyektlaridan oqilona foydalanish va ularning ekologik-huquqiy muhofaza qilinishini ham ta'minlaydi.

Aynalagi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuning 37-moddasida ko'rsatilganidek, tabiatdan oqilona foydalanish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni rag'batlantirish:

- korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirgan taqdirda ularga soliq solishda imtiyozlar berish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiat muhofazasini ta'minlash borasidagi chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish uchun intiyozli shartlarda qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlar (ssudalar) berish;
- asosiy ishlab chiqarish fondlari uchun yuqori amortizatsiya normalarini belgilash;
- atrof tabiiy muhitga ifoslantiruvchi moddalar chiqarish va oqizish hamda chiqindilarni joylashtirish barqaror sur'atda pasaytirib borilgan taqdirda bunday moddalarini chiqarganlik va oqizganlik hamda chiqindilarni joylashtirganlik uchun to'lovlarni kamaytirish;
- tabiatni muhofaza qilish jamg'armalari mablag'larining bir qismini ifoslantiruvchi moddalar chiqarish va oqizishni kamaytirish

chora-tadbirlarini ro'yobga chiqarish maqsadida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va ayrim shaxslarga foizli qarzlar sifatida shartnomalar asosida berish orqali amalga oshirdi.

"Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 106-moddasida suvdan oqilona foydalananish, suvni oqilona iste'mol qilish va suvlarni muhofaza qilishni ta'minlashning iqtisodiy chora-tadbirlari sifatida qiyidagilar ko'zda tutilgan:

- suv resurslaridan foydalanganlik, suvni yetkazib berish bo'yicha xizmatlar va ko'rsatilgan boshqa suv xo'jaligi xizmatlari, suv obyektlarini ifloslantriganlik va ularga zararli ta'sir etishning boshqa turlari uchun haq olish;

- suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishda, suvni muhofaza qilish va tejashda samarali bo'lgan faoliyatni ainalga oshirishda yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan soliqqa, kreditga oid va boshqa imtiyozlar;

- huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, ekologik rag'batlantirishning va boshqacha rag'batlantirishning samarali chora-tadbirlari.

Xususan, yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 261-moddasi aynan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq sohasidagi imtiyozlarni belgilab beradi⁴⁷.

Kullas, suv resurslarini ekologik-huquqiy muhofaza qilish va undan oqilona foydalinishni rag'batlantirish, nasaqat suv va suv obyektlarini, balki, boshqa tabiat boyliklarini ham ekologik-huquqiy muhofaza etishni taqozo etadi. Yuqorida ko'rsatilgan barcha holatlar hozirgi va kelajak aviodlar uchun eng zarur bo'lgan hayot manbai bo'igana suv resurslaridan oqilona foydalinishga va uni ekologik-huquqiy muhofaza qilishga undaydi.

Shuningdek, suv to'g'risidagi qonun talablarini buzganlik uchun tegishli javobgarlik masalasi O'zbekiston Respublikasi "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning XXVII bobi 114-118-moddalarida o'z aksini topgan⁴⁸.

Suv resurslaridan noqonuniy foydalanganlik va u to'g'risidagi qonun talablarini buzganlik uchun asosan **intizomiy, fuqarolik, ma'muriy va jinoiy huquqiy javobgarliklari mavjud**.

Intizemiy-huquqiy javobgarlik – mehnat intizomini buzish oqibatida suv resurslaridan oqilona foydalananmagan taqdirda yoki suv to'g'risidagi qonun talablari buzilganda paydo bo'lishi mumkin. Suv va

⁴⁷O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi Rasmiy nasr -Toshkent: Adolat, 2014.

⁴⁸O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi -1993 -№ 5 -221-modda.

suvdan foydalanish, umi muhofaza qilish talablarini buzganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi⁴⁹ning 181-moddasiga asosan xodimga mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi qayidagi intizomiy jazo choralarini qo'llashga haqlar:

1) hayfsan;

2) o'nacha oylik ish haqining 30 foizidan ortiq bo'limgan miqdorda jarima;

Ichki mehnat tartibi qoidalariда xodimga o'nacha oylik ish haqining 50%idan ortiq bo'limgan miqdorda jarima solish holari ham nazarda tutilishi mumkin. Xodimning ish haqidani jarima ushlab qolish Mehnat kodeksining 164-moddasi talablariga rioya qilingan holda ish beruvchi tomonidan amalga oshriladi;

3) mehnat shartnomasini bekor qilish (Mehnat kodeksining 100-moddasi ikkinchi qismining 3-4-bandari). Ushbu moddada nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarining qo'llanishi taqiqlanadi.

Suv qonunchiligiai buzganlik uchun beigilangan **fuqarolik-huquqiy javobgarlik** huquqbazar zimmasiga jabrlangan tomon ko'rigan zararni natura shaklida (real qoplash) yoki pul shaklida qoplash majburiyati yuklatilishidan iboratdir. Bunday zarar suvni muhofaza qilish bo'yicha huquqiy tashabblarning buzilishi natijasida yetkaziladi.

1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuning 49-moddasiga binoan atrof-muhitga, odamlar salomatligiga va davlatga atrof-muhit muhofazasini buzish oqibatida zarar yetkazgan yuridik va jismoniy shaxslar zararni qoplashlari shart.

Fuqaroviylar huquqiy javobgarlik ko'proq suv to'g'risidagi qonunlarni buzish yoki undan oqilona foydalanimaslik oqibatida keltirilgan yoki yetkazilgan zarar natijasida kelib chiqadi. Jumladan, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuning 114-moddasiga asosan, suvdan foydalanish huquqini boshqaga berish hamda davlatning suvgaga egalik huquqini oshkora yoki yashurin shaklida buzadigan boshqa xil bitimlar haqiqiy hisoblanmaydi. Mazkur Qonuning 116-moddasiga binoan o'zboshimchalik bilan egallab olingan suv obyektlaridan neqonuniy foydalanish vaqtida qilingan xarajatlar qoplanmagan holda o'z egasiga qaytarib beriladi.

Shuningdek, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuning 117-118-moddalari "Suv to'g'risidagi qonunlarni buzish natijasida yetkazilgan zararlarni undirish" masalalariga bag'ishlangan. Ushbu

⁴⁹O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. Rasmiy nashr. -- Toshkent: Adolat, 2014.

Qonunning 117-moddasiga asosan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, dehqon xo'jaliklari va fuqaroler suv to'g'risidagi qonunlarni buzish natijasida yetkazilgan zararlarni qonunlarda belgilangan miqdorda va tartibda qoplashiari shart.

Bundan tashqari, mazkur Qonunning 118-moddasida zarar yetkazgan mansabdar shaxslar va boshqa xodimlarning moddiy javobgarligiga ham alohida e'tibor berilgan. Jumladan, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar zarar xarajatlarini to'lashda aybdor bo'lgan mansabdar shaxslar va boshqa xodimlar belgilangan tartibda moddiy javobgar bo'ladi.

Mazkur javobgarlikning xususiyati shundaki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 14-moddasi, 324-339-moddalari talablaridan kelib chiqib⁵⁰, suv to'g'risidagi qonun talablarini buzganlik oqibatida yetkazilgan zarar to'lanadi, qoplanadi va qaytariladi.

Suv resurslarini mahofaza qilishning huquqiy chora-tadbirlari sifatida **ma'muriy-huquqiy javobgarlik qo'llanilib**, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida aniq ko'rsatilgan⁵¹.

Suvdan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun **ma'muriy jazo choralarini qo'llash** tuman, shahar hokimliklari buzuridagi ma'muriy komissiya, fuqarolarning o'zini o'zi beshqarish organlari, tuman, shahar sudlari, ichki ishlar organlari, davlat inspeksiysi organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 72-, 74-, 75-, 76-moddalarida fuqarolarga eng kam ish haqining uchdan bir qisminidan bir baravarigacha jarima solinishi ushbu inshoot va qurilmalardan foydalanish qoidalarini buzgan mansabdar shaxslarga oisbatan bir baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solinishi belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining **Jinoyat kodeksida**⁵² atrof tabiiy muhitni iflosiantirish (196-moddasi), suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish (203-moddasi) uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Suv havzalari ifloslanishining ijtimoiy xavfi yuqeriligi sabab O'zbekiston Respublikasi JKning 196-moddasida ushbu qilmish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. JKning 196-moddasi 1-qismida Suvni iflosiantirish odamlarning omumaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar,

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr - Toshkent: Adolat, 2014.

⁵¹ O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi - Toshkent: Adolat, 2014.

⁵² O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Rasmiy nashr - Toshkent: Adolat, 2014.

partandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoxud boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, eng kam ish haqining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorida jarima yoki besh yilgacha mueyyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi, deb belgilangan.

Suv resurslaridan foydalanish va muhofaza qilishning xalqaro ekologik ahamiyati

Alohida ta'kidlash joizki, BMT Bosh Assambleyasining qaroti bilan 2005–2015-yillar “Suv – hayot achnun” Xalqaro harakati o'n yilligi deb e'lon qilingan. Orol dengizi muammolarini hal etish bo'yicha “Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro sa'y-harakatlari to'g'risida”gi birinchi bitimi imzolanganining o'n besh yillik davrida, balki 22-mart-Butunjahon suv resurslari kuniga yaqin qolganda, BMT e'lon qilgan Xalqaro Yer sayyorasi yilda mavjud suv resurslaridan ogilona foydalanish va uni ekologik muhofaza qilish dolzarb muammino bo'lib, dunyoviy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning BMTning 48-, 50-sessiyalarida, Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari Almati deklaratsiyasida (1997) qayd etib e'tilganidek. Orol dengizi havzasidagi ekologik muammolar global xarakterga ega. “Orol inqirozi insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik va gumanitar halokatlardan biri bo'lib, dengiz havzasida yashovchi 35 mln. kishi uning ta'siri ostida qolmoqda”⁵³.

Mintaqa aholisi xavfsizligiga ko'plab to'g'onlarning texnik holati, shuningdek hozirga kelib 16,6 km³ hajmda suv to'planib qolgan Sarez ko'li tabiiy to'g'onining holati ham tahdid soladi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2014-yil oktabrda bo'lib o'tgan “Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yurushatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida takidlaganidek, Amudaryo va Sirdaryoning Orolga umumiy quyilish hajmi keyingi ellik yil ichida qariyb 5 barobar, Orol dengizining suvi 14 barobardan ko'proq kamaydi, uning sho'rланish darajasi esa deyarli 25 marta ortdi. Bu Orol dengizida ilgari bo'lgan baliq va boshqa dengiz mavjudotlarining deyarli butkul yo'q bo'lishiga olib keldi.

⁵³ Karimov I.A. O'zbekiston XIX ast bo'lag asida. xavfsizlikka tahdid, bargaurlik shartleri va taraqqiyet kalolatlari. –Toshkent: O'zbekiston, 1997. –B 118.

Yaqin-yaqinlargacha o'zining uškan bioxilmassili bilan mashhur bo'lgan Orolbo'yı mintaqasida o'simliklar va yovvoyi hayvonlar turi keskin kamayib bormoqda, jumladan, sut emizuvchilarning 12, qushlarning 26 va o'simliklarning 11 turi butkul yo'q bo'lish xavfi ostida turibdi. Orolning qurigan qismi o'tnida hosil bo'lgan 5,5 million gektardan ortiq maydondagi yangi Orolqum sahrosi tobora Orolbo'yı mintaqasiga yoyilmoqda. Bu yerdan har yili atmosferaga qariyb 100 million tonna chang va zaharli tuzlar ko'tarilib, qum bo'ronlari va kuchli shamollar bilan mazkur hududdan ancha olis bo'igan mintaqalarga ham tarqalmoqda.

Ammo Orolbo'yida ro'y berayotgan fojia ko'lmini, bu yerda yashayotgan millionlab odamlarning dardi va orzu-armonlarini quruq raqamlar bilan ifoda etib bo'lmaydi. O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmanistonning Orol fojiasining kuchli ta'siri ostida qolgan mintaqalari aholisi har kuni suv resurslari yetishmasligi, ichimlik suvi sifatining pasayishi va tuproq tarkibining buzilishi, iqlim o'zgarishi, aholi, birinchi navbatda, bolalarning turli kasallikkлага chalinishi ko'payib borayotgani bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolarni boshdan kechirmoqda.⁵⁴

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vaziriat Mahkamasining 2015-yil 29-avgustdagi 255-sonli "2015–2018-yillarda Orolbo'yı mintaqasini tiklash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, Orol halokatining oqibatlarini yengillashtirish borasidagi chera-tadbirlar kompleks dasturi to'g'risida"gi⁵⁵ qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–2021-yillarda yerosti suvlari zaxiralaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olish tartibga solish choja-tadbirlar to'g'risida"gi⁵⁶ qarorining qabul qilinganligi ham olamshumul ahamiyatga ega bo'lib, bu masalada tarixiy hujjat bo'ldi.

Demak, Orol inqitozining atrof-muhit va u yerda yashayotgan millionlab aholi hayotiga halokatlı ta'sirini, xususan, puxta o'ylangan, aniq manzilli va tegishli moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlangan loyihalarni amalga oshirish orqali kamaytirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Shuningdek, transchegara daryolaridan foydalanishning asosiy tamcyillarini belgilaydigan xalqaro huquqning eng muhim hujjalariiga, shu jumladan "Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish va foydalanish" (1992) hamda "Xalqaro suv oqimlaridan kema

⁵⁴ Xa'q so'zi – 2014 – 30-oktabr.

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami – 2015. – №35. – 469-modda.

⁵⁶ Xa'q so'zi – 2017. – 6-may – №90 (6784).

qatnovidan boshqacha turda foydalanish huquqi to‘g‘risida”gi (1997) konvensiyalarga muvofiq hamda 2016-yilning 19-iyulida Tojikiston Tashqi ishlar vazirligiga O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining yo‘llangan ochiq xatida ham suv oqimlaridagi barcha davlatiar “o‘zining tegishli hududlari chegarasida xalqaro suv oqinilaridan adolatii va oqilona tarzda foydalanishlari” nazarda tutiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Inson va tirk mavjudot hayotida suvdan foydalanish hamda muhofaza qilishning ekologik ahomiyati juda katta.

Javobingizni xalqaro va ekologiya huquqi va tegishli qonunlari asosida tahlil qiling.

2. Hozirgi payida suv resurslaridan foydalanish va uni transchegaraviy ifloslanish holatini qanday baholaysiz hamda bu boroda qanday muammolar mavjud? Xorijiy rivojlangan mamlakotlar tajribasida suvdan foydalanish hamda muhofaza qilishning ekologik ahomiyati haqida nimalarni bilasiz? Ushbu muammolarni tahlit qilib unga huquqiy baho bering.

3. Toshkent viloyati hokimligiga dor ishlab chiqarishga asoslangan “Dolgit-Jahon” O‘zbekiston–Rossiya qo‘shma korxonasi, Toshkenti viloyati hududida joylashgan. Toshkent dengizi sathi suv ombori qirg‘og‘i hududida chiqindi tashlash maqsadida 0,25 ga yer maydonini ajratish uchun Toshkent viloyati hokimligiga murojaat etdi. Quyi Chirchiq hokimligi ushbu ko‘rsatmani ijro etish maqsadida suv embori qirg‘og‘i hududi yeridan 0,25 ga yer uchastkasi ajratishni lozim deb topdi. Toshkenti viloyati hokimligi Quyi Chirchiq tumani hokimligining ushbu qaroridan norozi bo‘lib, bu holatda Toshkent dengizi suv manbasiga salbiy tasiri borligi hamda suvni ifloslantirishi mumkinligini ko‘rsatib, ushbu qaror noto‘g‘ri ekanligini bildirdi. “Dolgit-Jahon” O‘zbekiston–Rossiya qo‘shma korxonasi esa mazkur masalaning bu holatda hal qiliňishidan norozi bo‘lib, Vazirlar Mahkamasiga murojaat qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

4. Jizzax viloyati, Zomin tuman hokimligiga fuqaro Sharipov M. baliqchilikni tashkil etish va sholi ekish uchun Zomin tuman o'rimon xo'jaligiga qarashli sag'orma yerlaridan 0,25 ga. yer maydonini ajratishni so'rab murojaat etdi. Tuman hokimligi ushbu ko'rsatmani ijro etish maqsadida Zomin davlat qo'riqxonasi yeridan 0,25 ga. yer uchastkasi ajratdi va ushbu yer uchastkasini davlat qo'riqxonasi balansidan chiqarib tashladi. Viloyat, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi Zomin tuman hokimligining ushbu qatoridan norozi bo'lub. mazkur masalan: qonuniy hal qilishni talab qilib viloyat hokimligi yuristiga murojaat etdi.

12-BOB. YER OSTI BOYLIKLERIDAN FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY TARTIBI

Yer osti boyliklari tushunchasi va ularni huquqiy muhofaza qilish zarurati. Yer osti boyliklaridan foydalanishi va ularni muhofazalashning ekologik-huquqiy talabları. Davlat tomonidan konchilik munosabatlarining tartibga solinishi. Yer qa'ridan foydalanish huquqi.

Yer osti boyliklari tushunchasi va ularni huquqiy muhofaza qilish zarurati

Respublikamiz hududidagi yer osti boyliklari jamiyatimizning iqtisodiy negizlaridan birini tashkil etib, yer, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar kabi unumnulliy boylik hisoblanishi barobarida "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuning 2002-yil 13-dekabrda qabul qilingan yangi tahririning 4-moddasiga ko'ra "yer osti boyliklari O'zbekiston Respublikasining mulki bo'lib, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir".

O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuning 18-moddasida "yer osti boyliklari" tushunchasi berilgan bo'lib, unga muvofiq "yer osti boyliklari deganda yer qobig'ining yuqori qismini qamrab olavchi, tadqiqotlar o'tkazish va foydali qazilmalar kovlab olish raumkin bo'lgan sathi" tushuniladi.

Foydali qazilmalar – yer qa'ridagi kelib chiqishi noorganik va organik bo'lgan qattiq, suyuq yoki gaz holdagi tabiiy mineral hosilalar, shu jumladan sanoat ahamiyatiga motlik yer osti suvlari, shoni ko'llarning tuz eritmalari va rapaları hisoblanadi ("Yer osti boyliklari to'g'risida"gi Qonunning 2-moddasi).

Yer qa'ri – yer qobig'ining tuproq qatlidan quyida joylashgan, tuproq qatlami bo'limgaganida esa yer yuzasidan yoki suv obyektlari tubidan quyida joylashgan geologik jihatdan o'rGANISH va o'zlashtirish mumkin bo'lgan chuqurlikkacha yastangan qismi tushuniladi.

Yer osti boyliklarini huquqiy tartibga solishga qaratilgan qonunlarda to'g'ridan te'g'ri "yer osti boyliklari" tushunchasiga ta'rif berib o'tilmagan bo'lsa-da, yuridik adabiyotlarda yer osti boyliklariga ta'tif berilgan, ya'ni

Yer osti boyliklari o'z ichiga organik va noorganik tabiiy birikmalarni oladigan, geologik o'r ganish va o'zlashtirish mumkin bo'lgan tuproq qatlamidan pastdag'i, suv havzalari tubidagi hamda yerning ustki qatlamidagi tabiiy boyliklardir.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, ba'zi adabiyotlarda "yer osti boyliklari" va "foydali qazilmalar" degan tushuncha bir ma'noda qo'llanadi. "Yer osti boyliklari" tushunchasi "foydali qazilmalar" tushunchasiga nisbatan keng bo'lib, foydali qazilmalar yer osti boyliklarining bir qismini tashkil etadi va sanoat uchun xomashyo vazifasini o'tash foydali qazilmalarning muhim belgisi hisoblanadi. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuuning 18-moddasida "yer osti boyliklari" va "foydali qazilmalar" tushunchalariga berilgan ta'riflardan ham bu ikki tushuncha turli ma'nolarni kasb etishi ko'rinib turibdi.

Yer osti boyliklari insonnинг iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy va boshqa bayotiy zarur ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlatalayotgan yoki shu maqsadlarga mo'ljallangan tabiat obyekti sifatida tabiiy resurslar deb ham ataladi. Tabiiy resurslar tiklanishiga ko'ra tiklanadigan (tugamaydigan) yoki tiklanmaydigan (tugaydigan) turlarga ajratiladi. Yaqin yillarda yoki uzoq muddat davrida tamom bo'ladigan resurslar tugaydigan resurslar deb ataladi. Yer osti boyliklari tugaydigan va qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslar toifasiga kiradi. Bularning barchasi yer osti boyliklaridan oqilona foydalananishni taqozo etadi.

Ma'lumot uchun! Bugungi kunda O'zbekistonda 1800 dan ortiq kon hamda taxminan 1000 taga yaqin istiqbolli qazilma boyliklari, 118 turdag'i mineral xomashyo mavjud bo'lib, shundan 65 turi o'zlashtirilmoqda³⁷. 1500 dan ortiq kon razvedka qiliadi, shu jumladan: 188 ta neft, gaz va kondensat; 48 ta nodir metall, 43 ta rangli, noyob va radioaktiv metall; 5 ta qora metall, 3 ta ko'mu; 37 ta tog'-kon rudasi, 22 ta tog'-kon kimyo va 30 ta rangdor tosh xomashyosi, 525 ta turli xildagi qurilish materiallari hunda 357 ta chuchuk va mineral yer osti suv lar manbalari mavjud. Razvedka qilingan konlarning 40 foizidan ortiq o'zlashtirishga yulb qilingan. Respublikada 400 dan ortiq rudnik, shaxta, karyer va neftgazsenoati va boshqa korxonalar, 450 ta suv chiqarish korxonasi, shifoxona va kasaixona, shifobavsh va shifobaxsh iste'mol suvlarining qu'sh sevi va zavodi faoliyat yuittidi.

Nedir, rangli metallar, uran va noyob elementlar rudalarini qazib elish bo'yicha respublikadagi yetakchi korxonalar – Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlari sanaladi. Nodir, rangli va boshqa metallar rudalarida qo'shimcha komponentlar sifatida konlar qimmatini ancha

³⁷ Ushbu ma'lumetlar "O'zbekiston Respublikasida atmosfer-nauhit bolati va tabiiy resurslardan foydalansh to'g'risida"gi milliy ma'ruba (-Toshkent: Chiner ENK, 2012. -R. 98.) jarbi olindi.

oshiradigan noyob va kam uchraydigan elementlarning katta zaxiralari jamlangan. Oltinning tasdiqlangan zaxiralari bo'yicha Respublikamiz dunyoda birinchi beshlikka kiradi, qazib olish darajasi bo'yicha esa to'qqizinchı o'rinni egallaydi. Uchta tog'-kon iqtisodiy tuman: Qizilqum (Muruntog', Mutenboy, Tsada, Basapantog', Amaytaytug', Kokpatas, Dougiztug' va boshqalar), Norota (Zarmiton, Gujumsoy, Samish, Biran, Marjonbuloq va boshqalar) va Toshkeniboy (Kochbuloq, Qarag'och, Qizilolmasoy, Kauldi, Pirmirab, Guzaksoy va boshqalar) da joylashgan tub konlar asosiy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz hukumati tomonidan yer osti boyliklarining huquqiy holatini beigilash va mustahkamlash masalasiga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Hozirda yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilishga qaratilgan o'nlab qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan. Bularga, **O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"**gi, **"Yer osti boyliklari to'g'risida"**gi, **"Konsessiyalar to'g'risida"**gi, **"Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar te'g'risida"**gi **qonunlari**, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1997-yil 29-yanvarda 304-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Geologiya qidiruv ishlari xavfsizlik Qoidalar, Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 26-maydag'i 258-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi konlari, foydali qazilmalari nishonalari va texnogen losilalarining davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizom, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 12-noyabr 531-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi konlari, foydali qazilmalari va texnogen tuzilmalarining kelib chiqishi bo'yicha davlat kadastrini yuritish to'g'risida"gi Vaqtinchalik yo'riqnomma, Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 5-aprelda 692-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Yer osti boyliklari geologik o'rGANISH bo'yicha ishlarni davlat ro'yxatiga olish va davlat hisobiga olish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomma, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islomi Karimovning 2007-yil 7-iyundagi PQ-649-son qarori bilan tasdiqlangan "Yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini berish tartibi va shartlari to'g'risida"gi Nizom, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 28-iyuldag'i 220-son qarori bilan tasdiqlangan "Yer qa'ri geologik jihatdan o'rGANISH, undan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati to'g'risida"gi Nizom, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligining 2011-yil 5-sentabrdagi 59-, 10-son qarori bilan tasdiqlangan "Geologiya-qidiruv ishlarining yillik dasturlarini Davlat budjetidan moliyalashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizom misol bo'la oladi.

Yer osti boyliklaridan foydalish va ularni muhofazalashning ekologik-huquqiy talablari

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi jamiyat hayotining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy jahbalarida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy tamoyil va qoidatalablarni belgilab berdi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofazalashning konstitutsiyaviy talablari o'z aksini topgan. Unga ko'ra fuqarolar, avvalo, atrof tabiiy muhitga ehtiyojkorona manusabatda bo'lishga majburdirlar (50-modda). 54-modda talabiga ko'ra esa mulkdor imulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'tiqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart. Konstitutsiyaning 55-moddasida aks etgan konstitutsiyaviy qoidada yer osti boyliklari va boshqa tabiiy zaxiralar emummilliy boylik ekanligi, ulardan oqilona foydalanish zarurligi, mamlakat hududida joylashgan tabiiy boyliklarning barchasi bevosita davlat muhofazasiga olinganligi belgilab qo'yilgan.

Yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofazalashning ekologik-huquqiy talablari O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida ham berilgan bo'lib (18-modda), unga muvofiq **Yer osti boyliklari va foydali qazilmalardan quyidagi shartlar bilan foydalaniladi:**

- qazib olishda ana shu boylik va qazilmalar hamda ularga qo'shilib chiqadigan boshqa tabiiy resurslardan kompleks va oqilona foydalanish ta'minlansa, shuningdek atrof tabiiy muhit va yer osti boyliklari ifloslanishining oldi clinsa;
- foydali qazilmalarni kovlab olish chog'ida holati o'zgargan yerlar rekultivatsiya qilinsa;
- qayta tiklanadigan foydali qazilmalardan tabiiy qayta tiklanishiga erishiladigan darajadagina foydalanilsa.

"Yer osti boyliklari to'g'risida"gi Qonunning IV bobi bevosita yer qa'ridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishning ekologik-huquqiy talablariga bag'ishlangan bo'lib, 35-moddada yer qa'ridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishning asosiy talablari o'z aksini topgan va ular quyidagilardan iborat:

- yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish to'la-to'kis bo'lishini va undan kompleks foydalanishini ta'minlash;

- foydali qazilmalarning o'zboshimehalik bilan kovlab olinishiga va ular joylashgan maydonlarda imorat qurilishiga yo'l qo'ymaslik;
- foydali qazilmalar zaxiralarining davlat hisobi yuritilishini amalga oshirish;
- foydali qazilmalar zaxiralarini tasdiqlash va geologik materiallarning davlat ekspertizasini o'tkazish;
- yer qa'ridan asosiy feydali qazilma va u bilan birga joylashgan foydali qazilmalar hamda qo'shib chiqadigan foydali komponentlarning iqtisodiy jihatdan rentabetli zaxiralari mumkin qadar to'liq chiqarib olinishini ta'minlash;
- foydali qazilma konlarini suv bosishdan, suv chiqib ketib to'lib qolishdan, yong'indan hamda foydali qazilmalar sifatini va koularning sanoat ko'lamidagi ahamiyatini pasaytiruvchi yoki ularni ishga solishni murakkablashtiruvchi boshqa omillardan muhofaza qilish;
- yer qa'rida konservatsiya qilib qo'yiladigan foydali qazilmalar zaxiralarining, yer qa'ridan foydalananish bilan bog'liq ishlarni olib borishda kon qazilmalari, quduqlar va yer osti inshootlarining saqlanishini ta'minlash;
- nglevodorodlar va ularni qayta ishlash asosida hosil qilingan mahsulotlarni, boshqa moddalar va materiallarni yer ostida saqlashda chiqindilarni saqlash va ko'mishda, oqova savlarni chiqarib tashlashda yer qa'ri ifloslanishining oldini olish;
- foydali qazilmalarni kovlab oluvchi korxonalarini va foydali qazilmalarni kovlab olish bilan beg'liq bo'tmagan yer osti inshootlarini tugatish va konservatsiya qilishni belgilangan tartibda o'tkazish.

Shuningdek, yer osti boyliklaridan foydalananish va ularni muhofaza qilishdagi ekologik-huquqiy talabiar "Foydali qazilmalar joylashgan maydonlarda imorat qurishga ruxsat berish tartibi to'g'risida"gi Nizom va "Foydali qazilmalarni qazish chog'ida yer osti boyliklarini muhofaza qilishning yagona qoidalati"ga bag'ishlangan qarorfarda ham aks ettirilgan.

Yuridik adabiyotlarda amaldagi me'yoriy hujjalarda aks ettirilgan yer osti boyliklaridan foydalauish va muhofaza qilishdagi ekologik-huquqiy talablarning mohiyati va vazifalariga ko'ra 4 guruhga ajratish ko'rsatilgan⁵⁸:

- yer osti boyliklarini to'liq va kompleks holda o'rganish orqali ularni ishiatish yoki konservatsiya qilish orqali muhofazalash;

⁵⁸ Nigmatov A. O'zbekiston Respublikasining Ekologik huquqi – Toshkent: "ARNAPRINT" MCHU, 2004 –B: 164.

- mineral xomashyolarni qidirish qazib olish va tekultivatsiya qilishni faqatgina ixtisoslashtirilgan davlat organlari nazoratida olib borish va ularni amalga oshirish davomida atrof tabiiy muhitning boshqa obyektlariga zarar yetkazmaslik;
- ishlatalig'an konlarni yoki ularni ekspluatatsiya qilish davomida yer uchastkalarini o'z vaqtida rekultivatsiya qilib borish;
- neyob turdag'i mineral boyliklarni va ularning komplekslarini alohida muhofaza qilish tartibini o'rnatish.

Qonun hujjailarida belgilangan yet osti boyliklaridan foydalanish va muhofazalashning ekologik-huquqiy talabiarining yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini nazorat qilish "Yer qa'rini geologik jihatdan o'rGANISH, undan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati to'g'risida"gi Nizomga asosan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan konchilik munosabatlариниң тартибга солиниши

O'zbekiston Respublikasi xalqi davlat molkining subyektidir. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 214-moddasiga muvofiq mulkiy huquqni xalq nomidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va ular vakolat bergen davlat boshqaruvi organlari amalga oshiradi.

"Yer osti boyliklari to'g'risida"gi Qonunning II bobi konchilik munosabatlариниң davlat tomonidan tarbiya solinishiga bag'ishlangan. Qonunning 7-moddasida konchilik munosabatlari sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, inahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yer qa'rini geologik o'rGANISH, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasining **konchilik munosabatlari** sohasidagi **maxsus vakolatli davlat organlari hisoblanishi belgilangan**.

Yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning tashkiliy-huquqiy jihatdan ta'minlash bu sohadagi davlat boshqaruvinining asosiy vazifasi hisoblanadi. Ushbu vazifani bajarishda davlat boshqaruvi quyidagi instrumentlarni qo'llaydi:

- yer qa'ridan foydalanishni litsenziyalash;
- zaruriyat tug'ilganda yer qa'ridan foydalanishni cheklash;
- foydalanishga berilgan yer qa'ri uchastkalarining davlat hisobini yuritish;
- yet qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish;
- yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish ishiarining davlat hisobini yuritish;
- foydali qazilma konlarining va foydali qazilma konlarining aniqlanish ehtimoli bo'lgan istiqbolli yer qa'ri uchastkalarining davlat reyestini olib borish;
- foydali qazilma koniari, foydali qazilma belgilari va texnogen mineral hosilalarning davlat kadastrini yuritish;
- foydali qazilmalar zaxiralarining davlat balansini yuritish;
- foydali qazilmalar zaxiralarini tasdiqlash va geologik materiallarning davlat ekspertizasini o'tkazish;
- foydali qazilmalar zaxiralarini hisobdan chiqarish;
- yer qa'ri monitoringini yuritish.

Ushbu sohada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- yer osti boyliklari davlat fondini tasarruf etish;
- mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va takror hosil qilish, yer qa'rini muhofaza etish davlat dasturlarini tasdiqlash hamda ularning amalga oshirilishini nazorat qilish;
- yet qa'ri uchastkalarini foydalanishiga berish va yet qa'ri monitoringining amalga oshirish tartibini belgilash;
- foydalanishga berilgan yet qa'ri uchastkalarining davlat hisobi yuritilishini va yet qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqlari davlat ro'yxatidan o'tkazilishini tashkil qilish;
- foydali qazilmalar zaxiralarini tasdiqlash hamda foydali qazilmalar zaxiralarini davlat balansi, foydali qazilma konlari, foydali qazilma belgilari va texnogen mineral hosilalarning davlat kadasti yuritilish tartibini belgilash;
- keng tarqalgan foydali qazilmalar ro'yxatini tasdiqlash;
- yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish, undan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini tasakil qilish;
- qonun hujjalariaga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining konchilik munosabatlari sohasidagi vakolatlari quyidagilardan tashkil topadi.

- tegishli hadudda mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va takror hosil qiliш, yer qa'riни muhofaza qilish davlat dasturlarining ishlab chiqilishi va amalgga oshirilishida ishtirok etish hamda ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalgga oshirish;
- keng tarqalgan foydali qazilmalar kevlab olinayotganda yer qa'ridan foydalanish shartlarini kelishib olish;
- yer qa'ridan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalgga oshirish;
- qonun hujjalariiga muvofiq bosqqa vakolatlarni amalgga oshirish.

Konchilik munosabatlarning davlat tomonidan tartibga solinishida yet qa'ridan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati alchida o'rinn tutadi. "Yer qa'riни geologik jihatdan o'rganish, undan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati to'g'risida"gi Nizomiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yer qa'riни geologik o'rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib horilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari yer qa'riни geologik jihatdan o'rganish, undan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalgga oshiruvchi organlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi – yer qa'rining muhofaza qilinishi, undan foydalanish va chiqindi bilan bog'liq ishlarning araiiga oshirilishi ustidan ekologik nazorat qilish;

"Sanoatgeokonteksnazorat" davlat inspeksiyasi – yer qa'ri ni geologik o'rganishda, undan foydalanish va uni muhofaza qilish, foydali qazilmalarni kovlab olish, mineral xomashyonini qayta ishlash, shuningdek konchilik ishlarini geologik-marksheyderlik jihatidan ta'minlash sohasida qonun hujjalari va normativ texnik hujjalar talablariga rioya qilish ustidan nazorat qilish yuzasidan;

O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya qo'mitasi – yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan yer qa'ri achastkalaridan foydalanish huquqini beradigan litsenziyalar shartlariga, yer qa'riни geologik jihatdan o'rganish, geologik va mineralogik obyektlarni muhofaza qilish bo'yicha ishlarni loyihalashtirish va yuritish sohasidagi me'yorlar va qoidalarga rioya qilish ustidan nazorat qilish yuzasidan;

maballiy davlat hokimiyyati organlari – yer qa'ridan foydalanish uchun yer uchastkalari berishda yer qa'ridan foydalanish va muhofaza qilish ustidan nazorat qilish, yer qa'ridan o'zboshimchalik bilan foydalanishga, foydali qazilmalar joylashgan maydonlarda asossiz ravishda va o'zboshimchalik bilan imorat qurishga yo'l qo'ymaslik yuzasidan nazoratni amalga oshiradi.

Yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish, undan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar birgalikda:

- litsenziyalarda belgilangan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish shartlariga rivoja etilishi, yer qa'ri uchastkalari mahsulot taqsiroti to'g'risidagi bitim shartlarida berilgan taqdirda esa — mahsulot taqsimoti to'g'risidagi bitimlarda belgilangan shartlarga rivoja etish;
- yer qa'ridan o'zboshimchalik bilan foydalanishga, foydali qazilmalar joylashgan maydonlarda asossiz ravishda va o'zboshimchalik bilan imorat qurishga yo'l qo'ymaslik, shuningdek sanoat ekspluatatsiyasiga jalb etilmagan foydali qazilmalar konlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ishlarning salbiy ta'siri oldini olish;
- foydali qazilmalar joylashgan maydonlarda, shuningdek foydali qazilmalarni kovlab olish bilan bog'liq bo'limgan yer osti inshootlari ustidagi maydonlarda imorat qurish shartlariga rivoja etish;
- yer qa'ri to'g'risidagi qorun hujjatlari talablariga rivoja etish uchun idoraviy nazoratni tashkil etish ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Yer qa'ridan barcha foydalanuvchilar tomonidan qonunchilikka, yer qa'ridan foydalanishning belgilangan tartibiga, yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish, undan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi me'yorlar va qoidalarga, ishlarni geologik-markshreyderlik ta'minlash bo'yicha talablar bajarilishi monitoringini olib borishga hamda davlat hisobi va hisoboti yuritilishi qoidalariга rivoja qilinishini ta'minlash yer qa'rini geologik o'rganish, undan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amaiga oshiruvchi organlarning vazifasi hisoblanadi.

Yer qa'ridan foydalanish huquqi

O'zbekiston Respublikasining "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2007-yil 7-iyundagi PQ-649-son qarori bilan tasdiqlangan "Yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini berish tartibi va shartlari

to'g'risida'gi Nizomlar yer qa'ridan foydalanish turlarini belgilaydi. Yer qa'ri uchastkalari ulardan foydalanish huquqini beradigan litsenziya asosida quyidagi maqsadlar uchun beriladi:

- geologik jihatdan o'rganist;
- foydali qazilmalarni tajriba-sanoat ko'lamida kovlab olish;
- texnogen mineral hosilalardan foydalanish;
- foydali qazilmalarni kovlab olish bilan bog'liq bo'limgan yer osti inshootlarini, shu jumladan neft, gaz, gaz kondensati (bundan buyon matnda uglevodorodlar deb yuritiladi), boshqa moddalar va materiallarni yer ostida saqlash inshootlarini qurish hamda uia'dan foydalanish, chiqindilarni saqlash va ko'mib tashlash;
- alohida muhofaza etiladigan geologik obyektlarni barpo qilish;
- nodir tosh xomashyosi namunalarini, paleontologik qoldiqlarni va boshqa geologik kolleksiyabop materiallarni toplash.

Qonunga ko'ra tadbirkorlik tavakkalchiligi shartlari asosida geologik jihatdan o'rganish uchun foydali qazilmalarni kovlab olish, texnogen mineral hosilalardan foydalanish va foydali qazilmalarni kovlab olish bilan bog'liq bo'limgan boshqa maqsadlar uchun yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi yuzaga kelishining asosi litsenziya hisoblanadi. Litsenziya tegishli davlat organining, ya'ni Vazirlar Mahkamasi yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining yer qa'ridan foydalanish bilan bog'liq ishlarni olib borish uchun yer uchastkasi berilishining kafolatlovchi qarori mavjud bo'lganda beriladi.

Litsenziya o'z egasining muayyan chegaradagi yer qa'ri uchastkasidan belgilangan muddat mobaynida foydalanish huquqini tasdiqlaydi hamda yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish shartlarini belgilaydi. Qonunchilik yer qa'ridan foydalanishning biryo'la bir necha turiga litsenziyalar berilishiga yo'l qo'yadi. Shuningdek, qonunga muvofiq yer egalar va yerdan foydalanuvchilar o'zlariga berilgan yer uchastkalari doirasida o'z xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun portlatish ishlarini qo'llamagan holda qonus hujjatlarida belgilangan tartibda zaxiralari foydali qazilmalar zaxiralari davlat balansi hisobiga olinmagan keng tarqalgan foydali qazilmalarni kovlab olishni hamda yer osti inshootlarini qurishni litsenziya olmasdan amalga oshirish huquqiga ega.

Litsenziyalarni berish echiq kimoshdi savdolari yoki yuridik va jismoniy shaxslarning litsenziya berishga vakolatlari organlar bilan to'g'ridan to'g'ri muzokalarari asosida o'ttiz kun ichida amalga oshiriladi.

Geologik jihatdan o'rganish, foydali qazilmalarni kovlab olish, texnogen mineral hosilalardan foydalanish, foydali qazilmalarni kovlab

olish bilan bog'liq bo'limgan yer osti inshootlarini qurish va ulardan foydalanish, alohida muhofaza etiladigan geologik obyektlarni barpo etish hamda nodir tosh xomashyosi namunalarini, paleontologik qoldiqlarni va boshqa geologik kolleksiyabop materiallarni toplash uchun litsenziyalar O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi tomonidan beriladi.

Chiqindilarni saqlash va ko'mib tashlash maqsadida yer osti inshootlarini qurish va ulardan foydalanish uchun litsenziyalar O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan to'g'ridan to'g'ri muzokaralar natijalari asesida beriladi.

Geologik jihatdan o'r ganish, tajriba-sanoat yo'sinida kovlab olish, noruda foydali qazilmalarni kovlab olish, texnogen mineral hosilalardan foydalanish uchun noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini beruvchi litsenziyalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun litsenziyalar berish bo'yicha komissiyasi tomonidan beriladi.

Litsenziyaga muvofiq yer qa'ri foydali qazilmalarini kovlab olish, texnogen mineral hosilalardan foydalanish, foydali qazilmalarni kovlab olish bilan bog'liq bo'limgan yer osti inshootlari qurish va ulardan foydalanish, alohida muhofaza etiladigan geologik obyektlar barpo etish uchun maydon va chuqurligi cheklangan uchastkalar ko'rinishida, ya'ni kon ajratmasi foydalanishga beriladi. Ken ajratmasi chegaralarida xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyat yer qa'ri kimga berilgan bo'lsa, faqat o'sha foydalanuvchining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin. Kon ajratmalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yer qa'rini geologik o'r ganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladi. Kon ajratmalarini berish tartibi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 13-yanvardagi 19-son qarori bilan tasdiqlangan "Foydali qazilmalar qazib olish bilan bog'liq bo'limgan maqsadlar uchun kon ajratmalari berish tartibi to'g'risida"gi Nizomda aks etgan.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2007-yil 7-iyundagi "Yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun litsenziyalar berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-649-son qarorida O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi, "Sanoatgeokontexnazorat" Davlat inspeksiyasi, Ekologiya va atrof-

muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari korxonalar va tashkilotlar tomonidan yer qa'ri uchastkalardan foydalanish huquqini beradigan litsenziyalarni olmasdan turib foydali qazilmalarni qazib olishga yo'l qo'ymaslik ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish vazifasi yuklandi.

Yuridik va jismoniy shaxslar yer qa'ridan foydalanuvchitar bo'lib, ular yer qa'ridan haq to'lash asosida foydalanadilar. Ya'ni yer qa'ridan foydalanish pullik, soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollar bundan mustasno hisoblanadi.

Yer qa'ri muddatli (muvaqqat) va muddatsiz foydalanishga berilishi mumkin. Yer qa'ri uchastkalari muddatli foydalanishga:

- geologik jihatdan o'rganish uchun - besh yilgacha muddatga;
- foydali qazilmalarni kovlab olish va texnogen mineral hosilalardan foydalanish uchun - foydali qazilma konini yoki texnogen mineral hosilalarni ishga solishning texnik-iqtisodiy asoslarda belgilangan muddatiga;
- uodir tosh xomashyosi namunalarini, paleontolegik qoldiqlarni va boshqa geologik kolleksiyabop materiallarni to'plash uchun --- ikki yilgacha muddatga beriladi.

Yer qa'ri uchastkalari muddatsiz foydalanishga foydali qazilmalarni kovlab olish bilan bog'liq bo'Imagan yer osti inshootlarini qurish va ulardan foydalanish uchun, shuningdek alohida muhofaza etiladigan geologik obyektlarni barpo qilish uchun berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi Qonunining 32- va 33-moddalari yer qa'ridan foydalanuvchilarining huquq va majburiyatlarini o'rnatadi.

Yer qa'ri uchastkalardan foydalanish huquqi quyidagi hollarda cheklanishi, to'xtatib turilishi yoki muddatidan ilgari tugatilishi mumkin:

- yer qa'ri uchastkalardan foydalanish bilan bog'liq ishlar ta'siri doirasidagi aholi hayotiga yoki sog'lig'iga, atrof-muhitga tahdid yuzaga kelganda;
- agar yer qa'ridan foydalanuvchi bir yil mobaynida yer qa'ri uchastkasidan foydalanishga kirishmagan bo'lsa;
- yer qa'ridan foydalanganlik uchun to'lovlar muntazam ravishda to'lanmagan taqdirda;
- yer qa'ridan foydalanuvchi litsenziyaning asosiy shartlarini buzgan taqdirda;
- yer qa'rini geologik jihatdan o'rganishga doir asosiy talablar, foydali qazilma konlarini ishlatishga va mineral xomashyonini qayta

ishlashga doʻi asosiy tafablar, foydali qazilmalarni kovlab olish bilan bogʻliq boʻlmagan yer osti iushootlarni qarish va ularidan foydalanimish uchun yer qaʼridan foydalanishdagi asosiy tafablar, yer qaʼridan foydalanish bilan bogʻhq ishiar bexatar olib borilishini taʼminlashtirning asosiy tafablari bajarilmagan taqdirda.

Yer qaʼri uchastkalaridan foydaianish huquqi quyidagi hollarda tugatiladi:

- yer qaʼri uchastkasidan foydalanishning belgilangan muddati tugaganda,
- yer qaʼridan foydalanuvchi yer qaʼri uchastkasidan foydalanish huquqidan voz kechganda;
- foydalanishiga yet qaʼri uchastkasi berilgan yuridik shaxs tugatilgan yoki yakka tadbirkorning faoliyatini tugatilgan taqdirda.

Yer qaʼri uchastkalaridan foydalanish huqaqini cheklash, toʼxtetib turish va tugatish tartibi Oʼzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Nazorat savollari:

1. Oʼzbekiston qonunchiligidagi tabiatni muhofaza qilish qoidalari mustahkamlangan boʼlib, aiar “ekologik tafablar” nomi bilan nashini.

Oʼzbekiston Respublikasining “Yer osti boyliklari toʼgʼrisida”gi Qonunida va boshqa qonun hujjalardida yer ostidan foydalanishda qanday ekologik tafablar belgilangan?

2. Qonunchilik tabiatdan foydalanishga malum shart va tafablarga asosan ruxsat beradi. Bu yuridik va jismoniy shaxslarda tabatdan foydalanish huquqini vajidga kelish tartibi hisoblanadi.

Yer osti boyliklaridan foydalanishni qanday turlari bor va ulardan foydalanishga kim ruxsat beradi va qanday tartibda?

3. “NeoPLANT” kompaniyasi Qashqadaryo viloyatining Tolakoʼl va Quduq istiqbolli maydonlarida kvats va kvarsitlar konlarini geologik jihatdan oʼrganish ishlarni oʼz mablagʼlari hisobiga olib bordi. Va olingan barcha maʼlumotlarni Oʼzbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qoʼmitasiga taqdim etdi. Kompaniya boshqaruvi maʼlum vaqt oʼtgach Davlat geologiya qoʼmitasi tomonidan Oʼzbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Qashqadaryo viloyatining Tolako'l va Quduq istiqbelli maydonlarida kvats va kvarsitlar konlatini qazib olish huquqiga fitesenziyani ochiq savdolar natijalariga ko'ra berish yuzasidan tavsija tayyorlanganligidan xabar topadi. "Neoplant" kompaniyasi boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasiga murojaat qilib, ushbu konlarni qazib olishga fitesenziyani ochiq savdoda qatnashmagan holda olishga haqli ekanligini bildirib, moliyalashtirish manbayini ko'rsatgan holda konni razvedka qilish ishlarini moliyalashtirish faktini tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering

4. "Zarafshonneftgaz" qo'shma korxonasi Vazirlar Mahkamasiga foydali qazilmalarni kovlab olish bilan bog'liq bo'limgan yer osti inshootlarini qurish va ulardan foydalanish uchun ruxsatnomani berish to'g'risida murojaat qilgan. Vazirlar Mahkamasi "Zarafshonneftgaz" qo'shma korxonasi murojaatini qanoatlantirib, unga 5 yilga ruxsat berdi.

Oradan 1 yil o'tgach "Zarafshonneftgaz" qo'shma korxonasi Vazirlar Mahkamasini sudga berib, ularga berilgan ruxsatnomani qonunga zid ravishda berilganligini vaj qildi.

Holatga huquqiy baho bering.

13- BOB. ATMOSFERA HAVOSINI EKOLOGIK HUQUQIY MUHOFAZA QILISH

Atmosfera havosining tirk mavjudot hayotidagi ekologik ahamiyati, uni muhofaza qilishda fanning o'mi hamda ekologik-huquqiy tadbirlar. Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlar va davlat hisobini yuritish, davlat boshqaruv i hamda nazorat qilish tartibi. Atmosfera havosining transchegaraviy ifloslanishi. Atmosfera havosini muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi hamda ozon qatlami buzilishi va uning oldim olishning xalqaro huquqiy asoslari. "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun va talablarni buzganlik uchun javobgarlik.

Atmosfera havosining tirk mavjudot hayotidagi ekologik ahamiyati, uni muhofaza qilishda fanning o'rni hamda ekologik-huquqiy tadbirlar

Suv, zamin, quyosh va havo tirk mavjudot hayot manbayidir. Barcha tirk mavjudot, jumladan, insoniyat uchun eng muhim omil bo'lgan atmosfera havosini muhofaza qilish, uning musaffoligini ta'minlash butun dunyodagi global ekologik miammolardan biridir.

Odam bir kecha-kunduzda tashqi muhitdan 20 kab metr havo oladi. Uning o'pkasi minutiga 16 – 20 martagacha havo yutib, havo chiqaradi.

Ma'lumki, odamning o'pkasi orqali bir minutda o'rta hisobda 12 litr havo o'tib turadi. Bir kecha-kunduzda esa 17 ming 290 litr havo o'tadi. Bu esa 23 kilogrammni tashkil etadi. Demak, odam havoni ovqatga nisbatan 4–5 baravar ko'p iste'mol qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Havo bo'shlig'ining ifloslanishi ham respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan tahdiddir"⁵⁹, –deb bejizga aytiragan.

Mutaxassislarning ma'lumotlariga qaraganda, har yili respublikaning atmosfera havosiga 4 mln. tonnaga yaqin zararli moddalar qo'shilmoqda. Shulaming yarmi uglerod oksidiga to'g'ri keladi, 15 %ni uglevodorod chiqindilar, 14 %ni oltingugurt qo'sh oksidi, 9 %ni azot oksidi, 8 %ni qattiq moddalar tashkil etadi va 4 %ga yaqini o'ziga xes o'tkir zaharli moddalarga to'g'ri keladi.

⁵⁹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI oy bu'sag'adida xavfsizlikka tahdid, berqorlik shertlari va tanusqiyot kafelatlari. - T. O'zbekiston, 1997. - B. 129.

Atmosferada uglerod yig' indisining ko'payib borishi natijasida o'ziga xos keng ko'lamdag'i issiqxona effekti vujudga keladi. Oqibatda yer havosining o'rtacha harorati ortib ketadi.

Atmosfera havesi haqida to'xtalganda, *atmosfera* – bu yer sharining bir qancha gazzlardan iborat havo qatlami, biosferadagi hayot mavjudligini ta'minlovchi asosiy manbalardan biri bo'lib, a barcha jonzodlarni zararli kosmik nurlardan himoya qilib turadi, sayyora yuzasidagi mo'tadil haroratni saqlaydi; *biosfera* – tirik organizmlarning yashash makoni bo'lgan quyi atmosfera, yuqori atmosfera va gidrosfera qatlami, global ekologik tizim; *ozon* – rangsiz, o'ziga xos o'tkir hidli gaz. Atmosferaning ozon qatlami quyoshning insoniyat uchun, umuman yer yuzidagi barcha hayvon va o'simlik uchun o'ta zararli bo'lgan ultrabinafsha nurlarini "tutib" qoluvchi asosiy to'siq hisoblanadi. U yer yuzidan 15–20 km yuqorida joylashgan bo'lib, sayyeramizdagi hayotni muhofaza qilib turadi.

Demak, yuqorida tushunchalar ichida "atmosfera" tushunchasi kengroq bo'ltib, u barcha tirik mavjudot hamda tabiatning boshqa boyliklarini o'zaro mutanosiblikda saqlaydigan betakror tabiiy manbadir.

Umuman olganda, *atmosfera havosi* – yer sharini o'rab olgan bir necha xil gazzlardan iborat bo'lgan havo qatlami, tirik mavjudot hamda boshqa tabiat boyliklarining mutanosibligini ta'minlovchi manba.

Atmosfera havosinei huquqiy muhofaza qilish, tabiat va inson o'rta sidagi ajralmas bog'liqlik, ya'ti bog'liq va mutanosiblikni ta'minlaydigan, atmosfera havosining sifati buzilishiga, atmosfera muhitning ifloslanishiga yo'l qo'ymaydigan, hozirgi va kelajak avlodga ekologik jihatdaus musatfo holdagi yashash imkoniyatini berishga qaratilgan ekologik ongli va madaniyatlari huqueqiy munosabatlari hamda huquqiy normalar tizimi hisoblanadi.

Shuning uchun ham atmosfera havosini huqueqiy muhofaza qilish va talab darajasida saqlash uchun aniq vazifalarni bajarish lozim. Ana shu vazifalar O'zbekiston Respublikasi "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida quyidagicha belgilangan:

- atmosfera havosining tabiiy tarkibini saqlash;
- atmosfera havesiga zararli kimyoviy, fizikaviy, biologik va boshqa xil ta'sir ko'rsatilishining oldini olish hamda buni kamaytirish;
- davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish va boshqalar⁶⁰.

⁶⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Atrofotnomasi -1997. - № 2. - 52-anoda

Yuqoridagi holatlarning oldini olish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda abolining ekologik huquqiy bilimi, ma'naviyati va madaniyati hani talab darajasida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Xullas, mutaxassislarning ma'lum qilishicha, "beshinchchi okean" deb ataluvchi sayyoramiz atmosferasining zaharli moddalar bilan ifloslanishi, keyingi yillarda keskin tus olgan.

Shu manoda, tirik nayjudotning yashash hayat manbayi bo'lgan havoni (atmosfera) muhofaza qilish, uni sof holda saqlash hamma fanlarning asosiy vazifasi bo'lib, bunda huquqshunoslik fanining ham ahamiyati beqiyosdir.

Mustaqillik davrida mamlakatimizda barcha ekologik xususiyatlari inobatga olinib atmosfera havosini muhofaza qilishning huquqiy asosi⁶¹ va alohida o'quv qo'llanma⁶²ni chop etilganligi o'ta qivonchli holdir.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, atrof-muhit ifloslanishida "havoga tashlanayotgan" chiqindilar salmoqli o'rinn tutadi.

Agar 1 hektar maydonda boshoqli don poyasi yoqilsa, 500 gramm azot oksidi, 379 gramm uglevodorod, 3 kilogramm kal, 20 kilogramm is gazi va uglerod oksidi (SO) atmosferaga ko'tariladi.

Ammo bundan havo qanchalik bulg'anishini ko'pincha tasavvur qilmaymiz: 1 tonna xazon yoqilganda havoga 30 kilogramm uglerod oksidi ko'tariladi. Bitum yoqilganda hosil bo'lgan qurum inson organizmida sil va saraton kasalliklarini keltitib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida olib borayotgan chora-tadbirlarini alohida ta'kidlash o'rindidir. Respublikamizda tabiat, atrof-muhit, atmosfera ifloslanishining oldini olishda, ayniqsa, yoqilg'i-energetika majmuasida istiqbolii, qayta tikianuvchi energiya manbalaridan foydalanish-kelajak talabi. Qayta tikianuvchi energiya manbalari qo'llanishi, ekoologik tozaligi nuqtayi nazaridan judayam istiqbollidir. Yurtimizda bu sohada yetarli tajriba to'plangan. Markaziy Osiyo birlashgan energiya tizimi quvvatining 50 foizi mamlakatimizga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda energiya resurslari manbalari, neft va gaz

⁶¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axboretnomesi -1997 -№2. -52-modda.

⁶² Xolmo'medov J. F. Mullaev N. R. Ekologiya va atmosfera havosini huquqiy muhofaza qilish. O'quv qo'llanma. Toshkent: TDYI, 2012. -B.200.

zaxiralariga ega bo'lish cheksiz daromad olish va xalqaro maydonda o'zining mavjisi va ta'sirini oshirishda alohida ahamiyat kasbi etadigan eng muhim omillardan bii ekani hech kini ga si emas".

Keyingi paytda uglevodored xomashyosini qazib olish borasida yuz berган, "slanets inqilobi" deb ataiayotgan yangi bosqich ertaga ba'zi qit'alar, mamlakat va hujudlarning energetika bozoridagi hamda jahon maydenidagi kuchlarning geosiyosiy joylashuvidan o'mni va rolini o'zgartiradigan jiddiy omilga zylanishi mumkinligiga shubha qilmasa ham bo'ladi, deb o'ylayman.

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, sanematning yuqori darajada jadal rivojlanib borayotganini hisobga olgan holda, mamlakatimizning elektr energiyasiga bo'lgan talabi 2030-yilda joriy yilga nisbatan 2 baravar oshadi va 165 milliarddan ziyod kilovatt-saatni tashkil etadi⁶³.

E'tiborli tomoni shundaki, O'zbekistondaing quyosh energetikasi borasidagi salohiyati va mamlakatimizda usbu sohan: rivojlantirish istiqbelleri haqida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov gapirib. "O'zbekistonda havo bir yilda 320 kundan ziyod ochiq bo'lib, mamlakatimiz yil davomida qayoshli kunlarning ko'pligi bo'yicha dunyoning aksariyat nintaqalariga nisbatan ustunlikka ega.

Ta'kidlash lozimki, bu sohada juda katta ishlar qilinib, 1993-yil 7-mayda O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi qabul qilindi. Ushbu Qonun IV bo'lim, XV bob. 135 ta moddadidan iborat.

Osiyo taraqqiyot banki va Juhon banki xulosalariga ko'ra O'zbekistonda quyosh energiyasining yalpi salohiyati **51 milliard tonna neft** ekvivalentidan ortiqdir.

Ana shu resurslər hisobidan, ekspertlarning hisob-kitoblariga qaraganda mamlakatimizda joriy yilda iste'mol qilinadigan elektr energiyasidan 40 baravar ko'p hajmidagi elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkin⁶⁴ ekanligini ushu sohani rivojlantirish va takomillashtirishga oid zamонавиј. xalqaro andozalarga mos qonan qabul qilish lozimligi ham ta'kidlandi⁶⁵.

⁶³Karimov I.A. Osiyo quyosh energiyasi forumining oltinchi yig'ishidagi nutqi: Quyosh energiyasi- kelajak energiyasi // Xalq so'zi. -2013. -25-neyabr.

⁶⁴Karimov I.A Osiyo quyosh energiyasi forumining oltinchi yig'ishidagi nutqi: Oavoshi energiyasi- kelajak energiyasi // Xalq so'zi. -2013-yil. -25-neyabr.

⁶⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Muqobil energiya mənbələrinin yanada rivojlantirish, chora-tibbirli to'g'risida"gi Fərmosi. 2013-yil 1-mart // O'zbekiston Respublikasi qonun luqatlari to'plami. -2013. -№10. -124-modda.

Atmosfera havosini muhofaza qilish maqsadida ekologik-huquqiy tadbirlarni belgilash va kuchaytirish ham davlatimizning ekologik siyosatining bir qismidir.

Mazkur Qonunning 3-moddasiga asosan, "O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi davlat manfaatlarini himoya qilish, havo kemalari parvozi xavfsizligini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligi va fuqarolarining ehtiyojlarini qoadirish maqsadlarida aviasiya faoliyatini hamda samoviy hududdan foydalanish bilan bog'iqliq boshqa faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilaydi" Bundan tashqari, atmosfera havosini huquqiy muhofaza qilish Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari va "O'zbekiston havo yo'llari" Milliy aviakompaniyasining, Davlat boshqaruvi va nazorati bosh inspeksiyasining tegishli buyruqlari hamda boshqa qonunlar bilan huquqiy ekologik muhofaza qilinadi. Shuning uchun ham "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasida atmosfera havosidan foydalanish shartlari va talablari aniq ko'rsatib berilgan⁶⁶.

Atmosfera havosini muhofaza qilishning asosiy manbai bo'lib "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"⁶⁷gi Qonun hisoblanadi. Unga asosan atmosfera havosi tabiiy resurslarning tarkibiy qismi bo'lib, u umummilliy boylik hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Mazkur qonunning 3-moddasiga maivofiq, atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalar quydagilardan iborat:

- atmosfera havosining tabiiy tarkibini saqlash;
- atmosfera havosiga zararli kimyoviy, fizikaviy, biologik va boshqa xil ta'sir ko'rsatilishining oldini olish hamda kamaytirish;
- davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamiyat birlashmlari va fuqarolarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni huquqiy jihatdan tartibga solish nazarda tutiladi.

Yuqorida nomi zikr etilgan Qonunning 4-moddasiga ko'tra fuqarolari hayot va sog'lik uchun qilay atmosfera havosiga ega bo'lish, atmosfera havosining holati hamda uni muhofaza qilish yuzasidan ko'rilib yotgan chora-tadbirlar to'g'risida o'z vaqtida va ishonchli axborot olish,

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. -1993. -№1. -38-moddal.

⁶⁷ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. -1997. -№2. -52-moddal.

atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlar chiqatilishi hamda fizikaviy omillaraning atmosferaga zararli ta'sir ko'rsatishi orqali o'zlarining salomatligi hamda mulkiga ziyon yetkazilgan holiarda zararni andirib olish huquqiga egadirtar.

Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlar va davlat hisobini yuritish, davlat boshqaruvi hamda nazorat qilish tartibi

Atmosfera havosidan foydalanuvchi barcha yuridik va jismoniy shaxsiyotlar o'z vaqtida atmosfera havosini muhofaza qilishi va davlat standarti talabi asosida foydalanishlari shart va zarur.

Shuning uchun ham "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasiga asosan barcha korxona, muassasa va tashkilotlarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlar quyidagilardan iboratdir. Unga ko'ra:

- faoliyati atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar, biologik organizmlar, issiqxonalar gazlari va ozonni buzuvchi moddalar chiqarish;
- atmosferaga chiqarilgan chiqindilarni tozalash va zararii fizikaviy ta'sirni kamaytirish uchun inshootlar, asbob-uskunalar va apparaturalardan, shuningdek ular ustidan nazorat qilish vositalaridan foydalanish qoidalariga riya qilish;
- xo'jalik obyektlari tevaragida sanitariya-muhofaza zonalari barpo etish;
- chiqiadilar chiqarishni hamda zararli fizikaviy ta'sirni kamaytirish chora-tadbirlarini ko'rish;
- chiqariladigan chiqindilar hamda fizikaviy omillar zararli ta'sirining yo'l qo'yiladigan doiradagi normativlariga riya qilish ustidan nazorat o'matish, ularning hisobini yuritish va belgilangan tartibda statistika hisobotini taqdim etish;
- energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, yoqilg'i-energetika resurslarini tejash, ekologik jihatdan toza energiya manbalaridan foydalanish chora-tadbirlarini ko'rish;
- meteorologiya sharoitlari uoqilay kelishi kutilayotganligi munosabati bilan atmosfera havosiga ifloslantirevchi moddalar va biologik organizmlar chiqarishni kamaytirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Ekojogiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan kelishilgan holda chora-tadbirlari ko'rish;

- korxonalar va transport kommunikatsiyalarining ta'sir doirasida atrof-muhitga hamda aholi salomatligiga zararli ta'sir ko'rsatilishini baholash;
- kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar hamda bug'lanuvchi birikmalarni saqlash, foydalanish va ulardan bo'shagan idishlarni zararsizlantirish shartlariga rioya qilish;
- atmosferaga birvarakayiga yoki avariya tufayli chiqindilar chiqishi, yashirin xavfli vaziyatiar yuzaga kelishining oldini olish, shuningdek atmosfera havosining chegaralararo ifloslanishini kamaytirish chora-tadbirlarini ko'rish;
- chiqindilarni yo'q qilishni ta'minlash hamda ular to'planib qolganida va qayta ishlanayotganida atmosfera havosini ifloslanishining oldini olish chora-tadbirlarini ko'rish.

Atmosfera havosini muhofaza qilish chora-tadbirlarini bajarish tuproq, suv va atrof tabiiy muhitning boshqa obyektlari ifloslanishiga olib kelmasligi lozim.

Mazkur Qonunning 25-moddasiga asosan atmosfera havosiga zararli ta'sir ko'rsatganlik uchun to'loviar korxona, muassasa va tashkilotlardan qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartib va miqdorda undirib olinadi.

Atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalarni va biologik organizmlarni chiqarganlik, unga fizikaviy omillarning zararli ta'sir ko'rsatganligi hamda atmosfera havosidan foydalanganlik uchun to'lovlar to'lash korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni havoni muhofaza qilish chora-tadbirlarini bajarishdan va yetkazilgan zararni qoplash majburiyatidan ozod etmaydi.

Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida davlat hisobini yuritish tartibini aniq belgilash ham katta ahamiyatga ega bo'lib, qonunda o'z aksini topgan.

Quyidagilar davlat tomonidan hisobga olinishi zarur:

- atmosfera havosining bolatiga zararli ta'sir ko'rsatayotgan yoki zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan obyektlar;
- foydalilanayotgan atmosfera havosining hajmlari;
- atmosfera havosiga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar, biologik organizmlar, issiqxona gazlari va ozomui buzuvchi moddalarning turlari va miqdori;
- atmosfera havosiga fizikaviy omillar ko'rsatadigan zararli ta'sirning turiari va hajmlari.

Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida davlat hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda yagona tizim bo'yicha amalga oshiriladi.

Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi va nazorat etish tartibi mamlakatimizdagi atmosfera havosiga oqilona munosabatda bo'lish hamda uni huquqiy munofaza qilishga qaratilgandir.

Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi va nazorat etish tartibi, O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"⁶⁸ Qonunining 5-moddasida o'z aksini topgan. Unga ko'ra, atmosfera havosini muhofaza qilish sehasida davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Havo kodeksining 4-moddasiga va "Samoviy hududdan foydalinish to'g'tisida"⁶⁹gi Nizomga muvofiq samoviy hududdan foydalinish sohasidagi davlat boshqaruvi va nazoratini olib borish O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi zimmasiga yuklatiladi. Fuqaro va eksperimental aviatsiya faoliyati sohasidagi boshqaruv va nazoratni O'zbekiston Respublikasi Aviatsiya na'muriyati amalga oshiradi.

Davlat aviatsiyasi faoliyati sohasidagi boshqaruv va nazoratni o'z vakolatlari doirasida Mudofaa Vazirligi, Miliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qatoriga muvofiq davlat boshqaruvining boshqa organlari amalga oshiradilar"⁷⁰

Shuningdek, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"⁷¹gi Qonunga binoan atmosfera havosini muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini olib borish masalasiga ham alohida e'tibor berilgan. Mazkur qonunaning 28-moddasiga asosan atmosfera havosini muhofaza qilish ustidan davlat nazorati mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan, shuningdek maxsus vakolat berilgan davlat organlari tomenidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi atmosfera havosini muhofaza qilish ustidan nazorat qilish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlaridir.

⁶⁸ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotno-nazi. -1997. -№2. -52-moddasi.

⁶⁹ O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi. -Toshkent: Adolat, 2014.

Atmosfera havosini muhofaza qilish ustidan idoraviy, ishlab chiqarish va jamoat nazorati qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Atmosfera havosining helatini kuzatish, axborot toplash, umumlashtirish, tablil etish va istiqbolini belgilash atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi yagona tizimi bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ana shunday qonun va buquqiy normalar mavjud bo'la turib ham atmosfera havosini muhofaza qilishda ayrim muammolar ham yo'q emas.

Masalan, Buton mamlakatimiz va Surxondaryo aholisini bezovta qilayotgan Tojikiston Alyuminiy zavodining haveni zaharlash bilan bog'liq ekologik ta'sirini ko'raylik. U ye'dagi florli birikmalar ta'siriga bir e'tibor bering. Umundavlat kuzatuv mahkamasining ma'lumotlariga ko'ra, Tursunzoda rayonida ana shu birikmalarning o'rtacha yig'ilib qolishi iyul oyida no'madagidaan 2,4 baravar ortiq bo'lgan. Bu birikmalar asosan O'zbekistonning Sariosivo rayoniga yoyilmoqda. Bu rayonda havoning bulg'anishi normadagiga nisbatan 4,8 baravar ko'p. Aholi tahlikaga tushib qoldi. Zavodda elektroliz vannalarning bir qanchasi to'xtatib qo'yildi, aybdorlarga jarima solindi. Sariosivo rayonida bolalarning kasalga chalinishi 2,8 baravar ko'paydi. Kattalar orasida kasalga chalinish esa 2,2 baravar ko'proq bo'ldi. Odam organizmining kasalliklarga bardosh berishi susaydi, go'daklarning set tishi chirishi kasalligi ikki marta va yengil flyuoreza kasaliga chalinish 8,8 baravar ko'paydi.

Tursunzoda rayonida bolalarning kasalga chalinishi 12 foiz, nafas yo'llarining kasallanishi 1,4 baravar ko'paydi, tug'ma majruhlik 9 baravar ortdi. Bu juda xavfli ko'rsatkichdir.

Yuqorida salbiy holatlarning oldini olish va mazkur masalani hal etish maqsadida Toshkentda 20–21-avgust kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomenidan O'zbekiston ekologik harakati bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Tojikiston "Talko" davlat unitar korxonasining ishlab chiqarish faoliyati natijasida ekologiyaga va odamlar sog'lig'iga ko'rsatayotgan halokatli ta'sirini bartaraf etish choratadbirlari" mavzusida xalqaro seinimar bo'lib o'tdi.

Seminarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatorlari, Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston ekologik harakati Markaziy Kengashi Ijroiya Qo'mitasi a'zolari, Yevropa, Amerika va Osiyo davlatlaridan parlament a'zolari, jumladan, Tojikiston parlamenti

deputatlari, iadqiqotchilar, ekspertlar, BMT Taraqqiyot dasturi va EXHT kabi xalqaro tashkilotlar, mamlakatimizdagi tegishli vazirliklar va idoralar, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan "Tojikiston "Talko" DUK korxonasining ishlab chiqarish faoliyati natijasida ekologiyaga va odamlar sog'lig'iga ko'rsatayotgan halokatli ta'sirini bartaraf etish choralari to'g'risida" alohida qaror qabul qildi".

Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi standartlar haqidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida olish atmosfera havosini muhofaza qilishni ta'mintaydi.

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga ko'ra atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi standartlar atmosfera havosini muhofaza qilish tartibini, uning holati ustidan nazorat usullarini aniqlab beradi, atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha o'zga talablarni belgilaydi.

Iuson uchun atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi standartlar (sanitariya normalari) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Atrof tabuyi muhit obyektlari uchun atmosfera havosini muhofaza qilish, iqlimi va ozon qatlarni saqlash sohasidagi standartlar O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Atmosfera havosining transchegaraviy ifloslanishi. Atmosfera havosini muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi hamda ozon qatlami buzilishi va oldini olishning xalqaro huquqiy asoslari

Bugungi kunda atmosfera havosining transchegaraviy ifloslanishi eng muhim masalalardan biridir 1979-yilda qabul qilingan BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining (YTK) atmosfera havosining uzoq masofalarda transchegaraviy ifloslanishi to'g'risidagi konvensiyasi atmosfera havosini ifloslantirish bilan kurashishda hamkorlikdagi harakatlar uchun asos yaratdi.

Mazkur hujjat majburiy yuridik kuchga ega bo'lgan protokollarni ishlab chiqish yo'lli bilan aniq ifloslantiruvchi moddalarni chiqarishni cheklash bo'yicha asos yaratdi. 1984-yildan boshlab, hozirgi davrga qadar

bu borada sakkizta protokol qabul qilindi. Ular oltingugurt (oltingugurt dioksidi), azot oksidlari, uchuvchan organik bitikmaclar (UOB) og'ir metallar va barqaror organik ifloslantiruvchilar (BOI) chiqindilari va transchegara oqimlarini qisqartirishga qaratilgan.

1. Hozirgi paytda "Oltingugurt chiqindisi yoki ularning transchegaraviy oqimlarini kamida 30% ga kamaytirish to'g'risida"gi Protokol (Xelsinki, 1985) va oltingugurning chiqindilarini yanada kamaytirish to'g'risidagi Protokol (Oslo, 1994) e'tiborli ahamiyatga egadir. "Oltingugurt chiqindilarini yoki ularning transchegaraviy oqimlarini kamida 30 %ga kamaytirish to'g'risida"gi Protokol ikki talabdan iborat:

- oltingugurt chiqindisini (yoki ularning transchegaraviy oqimlarini) 1993-yilga kelib 1980-yilda qayd etilgan darajaga qaraganda 30 % ga kamaytirish va mana shu kamaytirishlar hajmini saqlab qolish;
- oltingugurt chiqindilari haqidagi hisobotni ijroiya organiga taqdim etish zarurligi.

"Oltingugurt chiqindilarini yanada kamaytirish to'g'risida"gi Protokol 1985-yildagi oltingugurt bo'yicha Protokolga qaraganda ancha talablar qo'yadi, lekin uning o'rnni bosmaydi.

2. Shuningdek, azot oksidlari chiqindilarini yoki ularning transchegaraviy oqimlarini cheklash to'g'risidagi Protokol (Sofiya, 1988) 1994-yil oxiriga kelib va keyingi yillarda azot oksidlari (NO_x) chiqindilari 1987-yil darajasidan oshmasligini ta'minlashni talab etadi. 1993-yilga kelib iqtisodiy maqsadga muvofiq eng yaxshi uslublardan foydalananib, bir vaqtning o'zida mavjud statsionar manbalardan chiqadigan chiqindilarni chegaralash bo'yicha choralarни ishlab chiqish bilan katta manbalar va yangi statsionar va harakatdagi manbalar barcha toifalariga chiqindi chiqarish bo'yicha milliy me'yorlar qo'llanilishini ta'minlash zanir.

3. O'zbekiston Respublikasida transport vositalarini etilsiz benzin bijan ta'minlash borasi dagi talabga 2008-yilda erishish ko'zda tutilmogda. Uchuvchan organik birikmalar (UOB) to'g'risidagi Protokol (Geneva, 1991) antropogen kelib chiquvchi UOB chiqindilarini 1999-yilda 1984-1990-yillar davri bilan solishtirilganda 30% ga kamaytirilishini talab etadi.

4. Barqaror organik ifloslantiruvchilar (BOI) bo'yicha Protokol (Orxus, 1998) atrof-mahitga BOI chiqindilarni tashlash, keltirish va ajratib chiqarishni cheklash, qisqartirish yoki to'xtatish talab etadi.

Biroq, inson so'nggi yillar davomida tabiatni, yer qobig'i bo'lmish biosferani, atmosfera havosini shunchalar o'zgartirib yubordiki, natijada

uning million yillar davomida tarkib topgan go'zalligi va musaffoligiga raxsha solinmoqda, nabotot va hayvonot olamining noyob namunalari kamayib ketmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan 2008-yil 13-martda o'tkazilgan "Orol muammolari, ularning aholi genofondi, o'simlik va hayvonot olamiga ta'siti hamda oqibatlarini yengillashtirish uchun xalqaro chora-tadbirlari"⁷¹, 2014-yil may oyidagi "Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish"⁷² mavzusidagi xalqaro konferensiyalarining o'tkazilishi ham alohida ahamiyatga egadir.

Bundan tashqari, mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-maydagi 142-sor qarori asosida 2013-2017-yiliarda O'zbekiston Respublikasida atrof-truhit muhofazasi bo'yicha harakatlар Dasturlari⁷³ning tasdiqlanishi ham muhim ahamiyat kasb etib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni ekologik muhofaza qilishga e'tibor qaratildi.

Ta'kidlash joizki, atmosfera havosining transchegaraviy ifloslanishi ozon qatlami buzilishiga ham olib keladi. Ushbu muammoga xalqaro doirada e'tibor beriladi. 1980-yilda mavjud bo'lgan ozon darajasi taxminan 2050-yilga kelib yana tiklanishi mumkinligi Montreal protokolining ko'zga ko'ringan muvaffaqiyatlaridan biri hisoblanadi. 1993-yil 18-mayda O'zbekiston Respublikasi Vena Konvensiyasi va Montreal Protokoliда o'zining ishtiroti bo'yicha huquq va majburiyatlarini tasdiqladi va mazkur hujjalarga qo'shilishdan kelib chiquvchi majburiyatlarni o'z bo'yniga oldi.

Ozonni buzuvchi moddalar bo'yicha Montreal protokoli va tegishli nizatishlarga (London, Kopengagen, Montreal, Pekin) binoan ozonni buzuvchi moddalarни ishlab chiqarish, iste'mol qilish va chiqarishni qisqartirish bo'yicha asosiy natijalarga erishildi va erishib kelinmoqda. Ozonni buzuvchi moddalar (OBM) iste'mol qilishni kamaytirishga qaratilgan strategiya muvaffaqiyatiiga bir necha omillar yerdam berdi: muqobil meddalar va uning jarayonlari ishlab chiqildi, zarur bo'lgan hollarda Montreal Protokoliga o'zgartirishlar kiritish uchun ilmiy baholashdan foydalanildi, "umumiylashtirilgan (taqsimlangan) javobgarlik prinsipi" tan olindi.

⁷¹ Xalq so'zi. -2008. -13-mart.

⁷² Xalq so'zi. -2014. -16-may.

⁷³ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami. -2013. -№22. -282-modda

1998-yil 1-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majiisi Montreal protokoliga London va Kopengagen o'zgartirishlarini ratifikatsiya qildi. BMTning xati bo'yicha mazkur o'zgartirishlar 1998-yil 8-sentabrdan kuchga kirdi. London o'zgartirishlarini ratifikatsiya qilish ozonni buzadigan moddalarni musodara etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda mamlakatning kelishilgan harakatlarini Global ekologik Fonddan (GEF) to'lash uchun grantlar va kompensatsiya fondi ko'rinishida moliyaviy yordam olishga huquq beruvchi mahim sharti hisoblanadi.

Alovida ta'kidlash joizki, bugungi kunda iqlimning o'zgarishi ko'plab ekologik mutammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu munosabat bilan "iqlim o'zgarishi"ning xalqaro miqyosdagi ahamiyatli tomoni muhimdir. She munosabat bilan bu sohada O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosati alovida ahamiyatga ega.

1993-yilda O'zbekiston Iqlim o'zgarishi haqidagi BMT ning Doiraviy konvensiyasiga (RKIK) qo'shildi. 1998-yilda Kioto Protokolini imzoladi. Bu protokol 1999-yil 20-avgustda ratifikatsiya qilindi. 1997-yildan boshlab, O'zbekistonda iqlim tizimiga antropogen ta'sirlarni tekshirish va inventarizatsiya qilish, iqlimning o'zgarishini tablit qilish, BG manbalari va oqimlarini sisternalashtirish dasturi amalga oshirila boshlandi. Tabiiy resurslarga salbiy ta'sirni baholashga yondashishlar ishlab chiqildi. Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirish bo'yicha muhim tadbirlar ishlab chiqildi.

Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi BMT ning Doiraviy konvensiyasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi birinchi milliy axboroti bo'yicha (2 davri, 2001-yil) 1999-yilda BG umumiy miqdori 160.5 million tonna SO₂-ekvivalentiga yetdi va BG global komissiyasining 0,7% ni tashkil etdi.

Shunday ekan, ushbu masalani xalqaro hamjihatlikda hal etish o'ta muhim ahamiyatga ega.

Ya'ni, birinchi marotaba BMTning atmosfera va rivojlanish bo'yicha tuzilmasi – YUNISED 1992-yilda Rio de-Janeyroda iqlim o'zgarishi masalalariga bag'ishlangan xalqaro konferensiya tashkili etdi. Ushbu katta arjuman yakunida Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Iqlim o'zgarishi to'g'risida"gi Konvensiyasi qabul qilindi. Uning asosiy maqsadi atmosferaga chiqarilayotgan pamik gazlarining miqdorini kamaytirish, agar ahvol shu darajada qoladigan bo'lsa, yaqin kelajakda ekologiyaga jiddiy xavf solishdan insoniyatni ogohlantirish edi. Ushbu maqsadga erishish uchun barcha mamlakatlarning keng ko'lami hamkorligi va

parnik gazlarini qisqartirish yo'lda xalqaro miyosda o'tkazilayotgan chora-tadbirlarda faol ishtirok qilish talab etiladi. Faqat 1997-yil dekabriga kelib mazkur Konvensiya talablarini amalda ijro etishga kirishildi.

2002-yil avgust-sentabr oylarida kelib YUNISED Yoxannesburgda Butundunyo sammitiui tashkillashtirdi. Unda asosiy e'tibor BMT Konvensiyasi va Kioto Protokolidagi shartlar hamda majburiyatlarining bajarilishiga qaratildi. Aytish joyzki, 2005-yilning 16-fevralida Kioto protokoli xalqaro-huquqiy hujjat sifatida kuchga kirdi. Uni 150 ta mamlakat iasman imzoladi.

O'zbekiston 1993-yil BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha konvensiyasini, 1998-yil noyabr oyida Kioto protokolini imzoladi, 1999-yil 20-avgustda esa ratifikatsiya qildi. Shundan buyon mamlakatimiz mazkur hujjatlarda belgilab berilgan majburiyatlarini eg'ishmay bajarib kelayotir. 2006-yil 5-dekabrdia O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kioto protokolining musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida investitsiya loyihamonini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2007-yil 10-yanvarda Vazirlar Mahkamasining "Kioto protokoli Toza taraqqiyot mexanizmi doirasida investitsiya loyihamonini tayyorlash va amalga oshirish tartibi haqidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi.

O'zbekiston BMTning iqlim o'zgarishi konvensiyasi talablarini tuyaffaqqiyatli bajarib, iqlim o'zgarishi eqibatlarini yengillashtirish va unga moslashish choralarini jumladan, Kioto bayontiomasi doirasida Toza rivojlanish loyihamonini amalga oshirmoqda. O'zbekiston hozirgi vaqtgacha Toza rivojlanish mexanizmi bo'yicha 15 loyihamoni amalga oshirdi. Mamlakatimiz Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va Sharqiy Yevropa davlatlari orasida so'yxatga olingan Toza rivojlanish mexanizmi loyihalari bo'yicha birinchi o'rinni, chiqarmalar hajmini qisqartirish bo'yicha jahon reytingida hozirgi vaqida 15 o'rinni egallamoqda.

Mamlakatimizda chiqariladigan bug'xona gazlarini kamaytirish bo'yicha katta ish olib borilmoqda 2007-2012-yillarda Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga muvoziq 188 ming avtotransport vositasi gaz yonilg'isiga o'tkazildi. Yurtimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, xususan, quyosh energiyasini rivojlantirishga alohida c'tibor qaratilmoqda.

E'tiborli tononi ham shundaki, O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasi 2015-yil 30-neyabrd da Parijda bo'lib o'tgan BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha konvensiyasi a'zolarining XXI konferensiyasida ham muvoffaqiyath ishtirok etganligi ham jahon andozalariga mos ijobiy holat hisoblanadi.

Xususan, 2015-yil 29-noyabrda Parij shahrida BMTning Iqlim bo'yicha doiraviy konvensiyasining 21-sammiti bo'lib o'tgan. Sammitning barcha 195 ishtirokchi davlat vakillari ikki hafta davom etgan qizg'in muzokaralardan so'ng 12-dekabr kuni 2020-yildan keyin issiqxona gaziari miqdorini kamaytirish hamda global isishni bartaraf etish, uglered manbar e'rniga qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng niqyosda foydalanishga tezkorlik bilan o'tish yuzasidan qat'iy chora-tadbirlar o'tkazishni nazarda tutuvchi BMTning yangi doiraviy kelishuvini ma'qulladi. Mazkur hujjat 2016-yilning 22-aprelida Nyu-York shahrida joylashgan BMT shtab-kvartirasida imzolangan. Ishtirokchi davlatlar 2100-yilga qadar haroratning global isishini Selsiy shkalasi bo'yicha 2 darajadan past bolatda ushlab turish majburiyatini olgan.

Konferensiyada qariyb 25 nung kishi ishtirok etgan va BMTning iqlim o'zgarishlariga bag ishlangan navbatdag'i konferensiyasi 2018-yil Polshaning Katovitse shahrida o'tkazilishi rejalshtirilayotgani alohida ta'kidlangan.

Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun va talablarni buzganlik uchun javobgarlik

O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni va Havo kodeksiga asosan atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarni va ekologik talablatni buzganlik uchun intizomiyl, fuqarolik, ma'muriy, jinciy javobgarliklar belgilangan.

Jumladan, "**Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida**"gi **1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan Qonunning 29-moddasiga** asosan atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish oqibatida yetkazilgan zarar o'rmini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplashlari shart. Zarar o'rmini qoplash aybdorlarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortishdan ozod etmaydi.

Intizomiy-huquqiy javobgarlik – asosan, atmosfera havosini muhofaza qilish haqidagi huquqiy normalarni buzganlik uchun korxona, muassasa va tashkilot rahbari tomonidan qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi⁷⁴ning 181- moddasida **intizomiy jazoning** aniq turlari ko'rsatilgan bo'lib, atmosfera havosini muhofaza qilish talablarini va mehnat intizomini buzgan xodimga nisbatan aniq intizomiy jazo choraları qo'llanilishi ko'rsatilgan:

Xususan, xodimga nisbatan intizomiy jazo qo'llashda huquqbuzarlik motivi, u qay vaziyatda sodir etilganligi ekologik huquqbuzarlik sodir etish vaqtidagi ruhiy holatini hisobga olish zarurdır.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik – atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun talablarini buzganlik uchun O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi⁷⁵ga asosan belgilanadi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik mehnat intizomi va uni vijdonan bajarish majburiyatini buzilishi, tegishli shartnomalarni o'z vaqtida bajarmaslik, bitimlarni amalga oshirilish holatlariiga e'tibor bermaganlik oqibatida yetkazilgan zarar, shuningdek ekologik talablarga rivoja etmaslik va ekologik qonunlarni buzish oqibatida vajudga keladi.

O'zbekiston xududida sanitariya qoidalarini qo'pel ravishda buzib, bavoni, suvni va boshqa tabiat boyliklarini iflosantirsa hamda zarar yetkazsa, 2015-yil 15-iyulda qabel qilingan va Senat tomonidan 2015-yil 6-avgustda ma'qullangan, O'zbekiston Respublikasining "Ahollining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi xalqaro talablarga mos qabil qilingan Qonun, hamda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi talablari asosida javobgarlik belgilanib, amaldagi qonunlar bilan tartibga solinadi.

Ma'muriy-huquqiy javobgarlik – O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida⁷⁶ ko'rsatilgan. Ushbu qonunda atmosfera havosini muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lган 85–88-moddalarda aniq ma'muriy javobgarlik hollari ko'rsatilgan.

Mazkur ekologik huquqbuzarlikning obyekti, atrof-nuhit, iflosantirilayotgan obyektlar yoki asosan atmosfera havosi hisoblanadi, subyekti esa korxona, muassasa, tashkilotlar yoki yuridik va jismoniy shaxsler bo'lishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 85-moddasiga binoan iflosantiruvchi moddalar va biologik organizmlarni atmosfera havosiga chiqarit tashlash, unga zararli fizikaviy ta'sir ko'rsatish yoki atmosfera havosidan belgilangan talablarni buzgan holda foydalanish, 86-moddasida; atmosferaga chiqariladigan zararli meddalarni tozalash inshcottidan foydalanish qoidalarini buzish,

⁷⁴ O'zbekiston Respublikasining Kodekslar to'plami. -Toshkent: Adolat, 2014.

⁷⁵ O'zbekiston Respublikasining Kodekslar to'plami. -Toshkent: Adolat, 2014.

⁷⁶ O'zbekiston Respublikasining Kodekslar to'plami. -Toshkent: Adolat, 2014.

Shuningdek, undan foydalanmaslik; 87-moddasida; chiqindilarda ifloslantiruvchi moddalar normativdan ortiq bo'lgan transport va boshqa harakatlanuvchi vositalar va qurilmalarni tayyorlash hamda foydalanshga chiqarish, 88-moddasida atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya qilmashlik uchun ham javobgarliklar ko'rsatilgan.

Yuqorida ko'rsatilgan talablarni buzganlik uchun fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishiga sabab bo'ladi.

Jinoiy huquqiy javobgarlik. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi⁷⁷ning 194–196-moddalarida atmosfera havosini muhofaza qilish bilan bog liq sodir etilgan jinoiy huquqbuzarlik uchun jazo tizimi ko'rsatilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Atmosfera havosini insoniyat va tirik mavjudot hayotidagi ahamiyati haqida nimalarni bilasiz? Shu ma noda atmosfera havosini muhofaza qilishning huquqiy asoslari nimalardan iborat va atmosfera havosini muhofaza qilishning ekologik huquqiy tadbirlari qanday ko'rsatilgan? Javobingizni ekologik qosunlar asosida tahlil qiling.

2. Hozirgi paytda atmosfera havosini transchegaraviy ifloslanishi holatini qanday baholaysiz va bu borada muammolar mavjudmi? Atmosfera havosini muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi hamda ozon qatlami buzilishi va uni oldini olishning xalqaro huquqiy asoslari haqida nimalarni bilasiz? Ushbu masalalarni xorijiy davlatlar tajribasi misolida tahlil qiling.

3. Surxondaryo viloyati, Sariosiyo, Oltinsoy, Uzun va Denov rayonlaridagi barcha fermer xo'jaliklari Surxondaryo viloyati hokimi nomiga Regar alyumin zavodi (TALKO) tomonidan atmosfera havosini ifloslantirishi oqibatida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish shartnomalarini to'la bajarmayotganlilarini xususida ariza bilan murojaat qilib, yetkazilgan moddiy va manaviy zararni Regar alyumin zavodi (TALKO) tomonidan qoplashlarini talab qildilar. Surxondaryo viloyati hokimi viloyat Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasiga va ushbu masala yuzasidan tuzilgan maxsus komissiyaga talabnomani o'iganib chiqish va ushbu masala yuzasidan tegishli xulosa berishni topshirdi. Mazkur masala bo'yicha komissiya arizani o'rganib chiqib, Sariosiyo, Oltinsoy, Uzun va Denov rayonlaridagi barcha fermer xo'jaliklarini arizasini rad etish yuzasidan asoslantirilgan xulosa

⁷⁷ O'zbekiston Respublikasining kodekslar to'plamasi. –Toshkent: Adolat, 2014.

tayyorladi. Surxondaryo viloyati hokimi esa xulosa asosida fermer xo'jaliklarining arizasini rad etdi. Bundan norozi bo'lgan Sarosiyo, Oitinsoy, Uzan va Denov rayonlaridagi barcha fermer xo'jaliklari Surxondaryo viloyati prokutoriga murojaat etib, talablarini ijobiy hal etishlarini so'radi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

4. Navoiy viloyati Karmana tumani "Otayor-Boshliq" fermer xo'jaligi hududi Yangi hayot mahallasi Xushnud ko'chasiida istiqomat qilayotgan fuqaro T.Aliyev foydalanayotgan 0,12ga tomarsqasida ekilgan daraxtlarni hosilini yig'ishtirib olgandan so'ng noyabr oyida daraxtlarni ortiqcha shoxiarini butalab, daraxt barglarini to'plab uni yondirib o't qo'ygan. Daraxtlarning shoxiari va barglari ho'l bo'lganligi sababli yonmay undan chiqqan tutun ikki-uch kun mobaynida tarqalib mahalla va qo'shnilar katta ozor berib, ularni normal hayot tarmush tarziga ekologik zarar yetkazgan. Bunday qilingan holat yuzasidan norozo bo'lgan qo'shnilar Karmana tumani hokimligiga murojaat qilib, fuqaro T.Aliyevni har doim qilayotgan bunday ishi uchun uni mahalladan ko'chirib yuborishini va qonunga asosan jazolashni talab qilganlar.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

14-BOB. O'SIMLIK DUNYOSI VA O'RMONLARNI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

O'simlik dunyosi va o'rmonlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish tushunchasi va huquqiy asoslari. O'simlik dunyosi va o'rmonlardan foydalaish tartibi. O'simlik dunyosi va o'rmonlarni muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi va nazorati. O'simlik dunyosini va o'rmonlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishda xorijiy tajriba.

O'simlik dunyosi va o'rmonlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish tushunchasi va huquqiy asoslari

O'simlik dunyosi va o'rmonlar insoniyat uchun muhim ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni bajarishi bilan tavsiflanadi. Xususan, o'simlik dunyosi va o'rmon boyliklari insonlarni hayotiv zaruriyat bo'lgan kisiorod bilan ta'minlovchi asosiy manba ekanligi, shuningdek iqtisodiyot va xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llanilishi ularni

*o'rman - daraxt, buto. a't
o'simliklar va turli xil organizmlar
muyumasidan iborat o'zaro bir-
biriga va lushqi muhitga tasir
etuvchi geografik ionishafstning bir
qismi.*

*o'simlik dunyosi - O'zbekiston
Respublikasi hududida tabiiy mutidida
o'sadigan yoki sur'iy yera tilgan
sharoitlarda yetishtiriladigan barcha
turdegi yovvoyi o'simliklar majmu.*

ekologik tizimning o'ziga xos ekologik xususiyatlarga ega bo'lgan tarkibiy qismi sifatida alohida huquqiy muhofaza qilishni taqozo etadi. Hozirda dunyoda uchraydigan 600000 turdan ortiq yovvoyi o'simlik turlaridan O'zbekistonda 4500 turi uchraydi, ularning 9 %'i endemik, ya'nii faqat muayyan geografik hududga xos bo'lgan turlari hisoblanadi. Bir nechta normativ-huquqiy hujjatlar o'simlik dunyosi va o'rmonlarni muhofaza qilish va undan foydalanishning huquqiy asoslari bo'lib xizmat qiladi. O'simlik dunyosi va o'rmonlarni muhofaza qilish va undan foydalanish konstitutsiyaviy normalar bilan bir qatorida "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida", "O'rmon to'g'risida"gi qonunlar. O'zbekiston Respublikasining Jimoyat kodeksi, Ma'muriy javobgariik to'g'risidagi kodeksi, Fugorolik kodeksi, Vazirlar

Mahkamasining

2014-yil

20-oktabrdagi 290-sonli qareri bilan tasdiqlangan "Biologik resurslardan

Foydalanishni tartibga solish va tabiatdan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risida"gi Nizom va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

O'simlik dunyosini bir nechta turlari bo'lib, o'z xususiyati va huquqiy tomondan muhofaza qilinishiga ko'ra obyektlarga bo'linadi. O'simlik dunyosi obyektlarga yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar, Eslatma! Qishloq xo'jaligiga ino'ljallangan yerlerdag'i daraxtorlar va butazorlar; temiryo'l, avtomobiyl yo'llari, kanal va boshqa suv obyektlarining muhofaza hududleridagi ihota daraxtorlari; shahar va boshqa aboli punktlaridagi daraxt va butazorlar, shuningdek ko'kalarazorlashuvishi uchun ekilgan o'simliklar; temerqa va dale bavillardagi daraxtlar o'rmon tondiga kirmaydi.

O'simlik dunyosini huquqiy muhofaza qilish - normativ-huquqiy hujjatlar asosida davlatning vakolati organi tomonidan tartibga soladicidan o'simlik dunyosining yashash faoliyati uchun quley sharoitlarini ta'minlasunga uning yo'q qiliё yuborishining yoki unga boshqacha zarashli ta'sir ko'rsatilishining oldimi olishiga qaratilgan faoliyat.

O'simlik dunyosini huquqiy muhofaza qilish - normativ-huquqiy hujjatlar asosida davlatning vakolati organi tomonidan tartibga soladicidan o'simlik dunyosining yashash faoliyati uchun quley sharoitlarini ta'minlasnga uning yo'q qiliё yuborishining yoki unga boshqacha zarashli ta'sir ko'rsatilishining oldimi olishiga qaratilgan faoliyat.

O'rmonlarni huquqiy muhofaza qilish - normativ-huquqiy hujjatlar asosida davlatning vakolati organi tomonidan tartibga solinadigan o'rmonning yashash faoliyati uchun qulay sharoitlarini ta'minlashga, uni ve'q qiliё yuborishni yoki unga boshqacha zarashli ta'sir ko'rsatilishuning oldimi olishga qaratilgan faoliyat.

O'rmon uzish o'rmonlarni muhofaza qilish, qo'riqlashga, o'rmon xo'jaligi va o'rmonidan foydalanish oqilona yuritilishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar tizimi bo'lib, quydagilarni qamrab oladi:

- davlat o'rmon fondi uchastkalarining chegaralarini belgilash va davlat o'rmon fondining o'rmonidan doimiy foydalanuvchilar foydalanishidagi hududining ichki xo'jaligini tashkil etish;
- topografiya-geodeziya ishlarini bajarish va o'rmonlarni maxsus xaritaga kiritish;
- davlat o'rmon fondini hisobga olish;
- o'rmonlarning yetilish yoshini belgilash, o'rmon xo'jaligini yuritish bilan bog'liq o'rmon daraxtlarini kesish rejasini, daraxtlarini kesish hajmini hamda o'rmonidan foydalanishning boshqa turlari miqdorlarini aniqlash;
- o'rmonlarni muhofaza qilish, qo'riqlash, qayta tiklash va barpo etish borasidagi ishlar hajmini, shuningdek boshqacha o'rmon xo'jaligi ishlari hajmini aniqlash;

- o'rmon tuzish loyihamini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish.

O'simlik dunyosi va o'rmonlardan foydalanish tartibi

O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish	
umumiy	maxsus
<ul style="list-style-type: none"> • jismoniy shaxslari tomonidan; • hayotiy zarur ehtiyojlari qanoatlantirish uchun; • cheklangan hajmda; • qonun hujjatlarida belgilangan tartib va miqdorda; • bepul foydalaniladi <p>O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish turlari quyidagilardan iborat:</p> <ul style="list-style-type: none"> • yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar texnik xomashyosini yig'ish va tayyorlash; • yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar dorivor xomashyosini yig'ish va tayyorlash; • yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni oziq-ovqat maqsadlar uchun yig'ish va tayyorlash; <p>o'simlik dunyosi obyektlaridan madaniy-ma'rifiy, o'quv-tarbiyaviy, sog'lomlashdirish, rekrestsiya va estetik maqsadlarda foydalanish.</p>	<ul style="list-style-type: none"> • jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan; • ishlab chiqarish va o'zga xil faoliyatni amalga oshirish uchun; • ruxsatnoima asosida; • tasdiqlangan kvotalar asosida; • haq evaziga foydalaniladi <p>O'simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish turlari quyidagilardan iborat:</p> <ul style="list-style-type: none"> • yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni chorvachilik ehtiyojlari uchun tayyorlash; • chorva mollami o'tlatish; • o'simlik dunyosi obyektlaridan ovchilik va (yoki) baliq ovlash xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish; • daraxtlar va butalarni kesish; • o'simlik dunyosi obyektlaridan ilmiy va nazorat ishlarini o'tkazish uchun foydalanish; • o'simlik dunyosi obyektlaridan tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida foydalanish; • yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar ayrim turlarining tarqalishini va sonini tartibga solish; • yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni boshqa joylarga ko'chirish va duragaylash; • botanika kolleksiyalarini yaratish va to'ldirib borish

Yovvoyi holda o'suvchi o'simlikdarni chorvachilik ehtiyojlari uchun tayyorlash va chorva mollarini o'tlatish. O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanuvchilar tomonidan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarini chorvachilik ehtiyojlari uchun tayyorlash va chorva mollarini o'tlatish tabiiy pichanzor va yaylov joylarda amalga oshiriladi.

O'simlik dunyosi obyektlaridan ovchilik va (yoki) baliq ovlash xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'simlik dunyosi obyektlaridan ovchilik va (yoki) baliq ovlash xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalinish ularga biriktirilgan ov qilish va (yoki) baliq ovlash joylarida o'simlik dunyosi obyektlarini ular o'sadigan muhitdan ajratib olmagan, o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishga oid talablarga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning texnik va dorivor xomashyesini, oziq-ovqat maqsadlari uchun yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning texnik va dorivor xomashyosini, oziq-ovqat maqsadlari uchun yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy iste'mol uchun yig'ish va tayyorlashga umumiy foydalanish tartibida yo'l qo'yiladi. Yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning texnik va dorivor xomashyosini, oziq-ovqat maqsadlari uchun yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanuvchilar tomonidan yig'ish va tayyorlashga o'simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar asosida yo'l qo'yiladi.

Daraxtlar va butalarni kesish. Davlat o'rmon fondi yerlari dagi daraxtlar va butalarni kesish o'rnorni parvarish qilish uchun kesish qoidalariga muvofiq, o'rmonlarning qo'riqlanish teifalari hisobga olingan holda berilgan o'rmon biletlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Esda tuting! Davlat o'rmon fondiga kirmaytigan daraxtlar va butalarni kesishiga faylet sanitariya maqsadlarida kesish hamda binotarni, inshootarni va kommunikatsiyalarini qurish hamda rekonstruksiyo qilish bilan bog'liq holda kesish tartibida mahalliy davlat hokimiyyati organlarining tabiatni muhofaza qilish organlari bilan kelishiqliq qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi. Tabiat omillor yoki o'simliklar zarorxemendaiari, kazallikiari ta'sirida zarurlangan qurivoigan yoki qurib qolgan, shuningdek inozering hayoti va soy'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki xavfsizligiga tahdid soiayorgan daraxtlar va butalarni kesish mahalliy davlat hokimiyyati organlarining tabiatni muhofaza qilish organlari bilan kelishiqliq qaroriga ko'ra haq ja'lmasdan amalga oshiriladi.

O'simlik dunyosi obyektlaridan ilmiy va nazorat ishlarini o'tkazish uchun foydalanish. Ilmiy va nazorat ishlarini o'tkazish uchun o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanuvchiga qonun hujjattarida belgilangan tartibda maxsus yet uchastkalari ajratilishi mumkin, bu yet uchastkalarida o'simlik dunyosi obyektlaridan boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning foydalanishi, agar bu ilmiy va nazorat ishlarini o'tkazish maqsadlariga muvofiq bo'lnasa, cheklanadi yoki taqiqlanadi.

O'simlik dunyosi obyektlaridan madaniy-ma'rifiy, o'quv-tarbiyaviy, sog'lomlashtirish, rekreatsiya va estetik maqsadlarda foydalanish. Ekologik, ilmiy, madaniy va estetik jihatdan ahamiyaili, shuningdek shifobaxsh va sog'lomlashtirish xususiyatiga ega bo'lgan o'simlik dunyosi obyektlaridan madaniy-ma'rifiy, o'quv-tarbiyaviy, sog'lomlashtirish, rekreatsiya va estetik maqsadlarda foydalauishga yo'l qo'yiladi.

O'simlik dunyosi obyektlaridan tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida foydalanish.

O'simlik dunyosi saqlab qolish, tabisy komplekslarda boshqa tabiiy resurslar bilan uzviy aloqadorlikni ularni muhofaza qilish nuqtayi nazaridan foydalanish tushunitadi.

Yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar ayrim turlarining tarqalishini va sonini tartibga solish. Yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar ayrim turlarining (shudgorlar, pichanzorlar va yaylovlarni tabiiy ravishda bosib ketadigan zaharli, giyohvand moddali, karantindagi o'simliklar, begona o'tlar hamda boshqa o'simliklarning) tarqalishini va sonini tartibga solish yovvoyi holda o'suvchi boshqa o'simliklarga, ularning o'sadigan muhitiga va o'zga tabiatni muhofaze qilish obyektlariga zarar yetkazilishini istisno etadigan usullar bilan analga oshiriladi. Tarqalishi va soni tartibga solinishi lozim bo'lgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning ayrim turlari, shuningdek ushbu tartibga selish qoidalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xulosalari inobatga olingan holda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasasi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonida belgilanadi.

Yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni beshqa joylarga ko'chirish va duragaylash. Yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni boshqa joylarga ko'chirishga, shuningdek ularni duragaylashga belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining xulosalari inobatga olingan holda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining qatoriga ko'ra ilmiy va xo'jalik maqsadlarida yo'l qo'yiladi.

Botanika kolleksiyalarini yaratish va te'ldirib borish. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan botanika kolleksiyalarini yaratish hamda to'ldirib borishga O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan beriladigan ruxsatnomalar bo'yicha yo't qo'yildi. Ilimiy, madaniy-ma'rifiy, o'quv-tarbiyaviy yoki estetik ahamiyatga molik botanika kolleksiyalarini davlat hisobiga olinishi lozim. Botanika kolleksiyalarining davlat hisobiga qo'yilganligi to'g'risidagi guvohnoma O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan beriladi.

O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish muhim ahamiyatga egadir. Shundan kelib chiqqan holda, quyidagilar davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazilishi lozim:

- barcha turdag'i qurilishlar uchun yer uchastkalarini tanlash materiallari, amalga oshirilishi o'simlik dunyosining holatiga yoki uning o'sadigan mabitiga zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan rejadan oldingi, loyihadan oldingi va loyiha hujiatlari;
- yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni boshqa jcyga ko'chirish va duragaylashi ishlariiga doir loyihalar;
- o'simliklarni himoya qilish vositalari, ularning o'sish stimulyatorlari, mineral o'g'ililar va boshqa preparatlar.

Esda tuting!	<i>Botanika bog'lari</i>	<i>Dendrologiya bog'lari</i>
<p><i>O'simlik dunyosini va uning genetik fondini saqlab qolish, kamyoq va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning turlarini sun'iy yaratilgen sharoitlarda o'rGANISH, iqlimga moslash va takror ko'paytirish, ilmiy, o'quv hajunda ta'lim ishlari ni olib barish, o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo'yicha bilimlarni targ'ib qilish maysadida botanika bog'lari tashkili etilishi mumkin. Botanika bog'lari tegishinchcha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori yoki mahalliy davlat holimiyoti organlarining qarori bilan tashkil etiladigan umumiy davlat ahamiyatiga molik dendrologiya bog'lari va mahalliy ahamiyatga molik dendrologiya bog'lariiga bo'linaadi. Sun'iy yaratilgen sharoitlarda o'simliklarning xilma-xii turlarini saqlab qolish hamda ularni o'rGANISH, ulardan madaniy-ma'rifiy, o'quv-tarbiyaviy, rekreatsiya va estetik maysadilardu foydalarishi bo'yicha ilmiy faoliyat yuritish uchun dendrologiya bog'lari tashkil etilishi mumkin.</i></p>	<p><i>O'simlik dunyosini va uning genetik fondini saqlab qolish, kamyoq va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning turlarini sun'iy yaratilgen sharoitlarda o'rGANISH, iqlimga moslash va takror ko'paytirish, ilmiy, o'quv hajunda ta'lim ishlari ni olib barish, o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo'yicha bilimlarni targ'ib qilish maysadida botanika bog'lari tashkili etilishi mumkin. Botanika bog'lari tegishinchcha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori yoki mahalliy davlat holimiyoti organlarining qarori bilan tashkil etiladigan umumiy davlat ahamiyatiga molik dendrologiya bog'lari va mahalliy ahamiyatga molik dendrologiya bog'lariiga bo'linaadi. Sun'iy yaratilgen sharoitlarda o'simliklarning xilma-xii turlarini saqlab qolish hamda ularni o'rGANISH, ulardan madaniy-ma'rifiy, o'quv-tarbiyaviy, rekreatsiya va estetik maysadilardu foydalarishi bo'yicha ilmiy faoliyat yuritish uchun dendrologiya bog'lari tashkil etilishi mumkin.</i></p>	<p><i>O'simlik dunyosini va uning genetik fondini saqlab qolish, kamyoq va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning turlarini sun'iy yaratilgen sharoitlarda o'rGANISH, iqlimga moslash va takror ko'paytirish, ilmiy, o'quv hajunda ta'lim ishlari ni olib barish, o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo'yicha bilimlarni targ'ib qilish maysadida botanika bog'lari tashkili etilishi mumkin. Botanika bog'lari tegishinchcha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori yoki mahalliy davlat holimiyoti organlarining qarori bilan tashkil etiladigan umumiy davlat ahamiyatiga molik dendrologiya bog'lari va mahalliy ahamiyatga molik dendrologiya bog'lariiga bo'linaadi. Sun'iy yaratilgen sharoitlarda o'simliklarning xilma-xii turlarini saqlab qolish hamda ularni o'rGANISH, ulardan madaniy-ma'rifiy, o'quv-tarbiyaviy, rekreatsiya va estetik maysadilardu foydalarishi bo'yicha ilmiy faoliyat yuritish uchun dendrologiya bog'lari tashkil etilishi mumkin.</i></p>

O'simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish uchun ruxsatnomasi:

➤ davlat o'rmon fondiga kirmaydigan yerlardagi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilmagan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning barcha turlari bo'yicha, shuningdek O'zbekiston Respublikasining butan hududidagi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlari bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan;

➤ davlat o'rmon fondi yerlаридаги О'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilmagan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning barcha turlari bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan;

➤ davlat o'rmon fondiga kirmaydigan yerlardagi dataxtlar va butalarni kesish, yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni chorvachilik ehtiyojlari uchun tayyorlash va chorva mollarni o'tlatish uchun tabiatni muhofaza qilish organlari bilan kelishilgan holda – mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan beriladi.

Feydalarnuvchi tomonidan tabiatni muhofaza qilishga oid qonun hujjatlari buzilgan taqdirda o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish uchun berilgan ruxsatnomani olib qo'yishga faqat tabiatni muhofaza qilish bo'yicha davlat inspektorslari yoki o'rmon idoraviy qo'riqchiligi (davlat o'rmon fondi hududida) vakolatlidir.

O'rmondan foydalanish. Davlat o'rmon foidi uchastkalarini yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanishga berilishi mumkin. O'rmondan foydalanish uchun haq to'lanadi, bitoq fuqarolar o'simlik dunyosi obyektlaridan umumiy (bepul) foydalanishni ko'zlab o'rmenlarda bo'lish yovvoyi dorivor hamda oziq-ovqatbop o'simliklar, mevalar va qo'ziqorinlarni o'z ehtiyojlari uchun yig'ish huquqiga ega.

O'rmondan foydalanishga maxsus ruxsatnomasi – daraxt kesish yoki o'rmon chiptasi asosida yo'l qo'yiladi.

O'rmondan foydalanish turlariga quyidagilar kiradi:

- daraxtzorlar va batazorlarni kesish;

- o'tmonidan qo'shimcha foydalanish (pichan o'rish, mol boqish, asalari uyalari va qutilarini joylashtirish, yovvoyi o'simliklar dotiver xomashyosini tayyorlash (yig'ish) va oziq-ovqat maqsadlari uchun yovvoyi o'simliklarni tayyorlash (yig'ish);
- davlat o'rmon fondi uchastkalaridan ovchilik xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish;
- davlat o'rmon fondi uchastkalatidan ilmiy-tadqiqot maqsadlarida foydalanish;
- davlat o'rmon fondi uchastkalaridan madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy, sog'lomlashtirish, rekreatsion va estetik maqsadiarda foydalanish.

Esda tuting!

O'simlik dunyosi obyektlaridan va o'rmondan foydalanish doimiy va raqtinchalik muddatlarda amalga oshuriladi. O'rmon fondi vertari doimiy egalik qilishga berib qo'yilgan o'rmon xo'jaligi korxonalar, muassasalar va tashkilotlari o'rmoncasi doimiy foydalamiy chilaridir. O'rmonidan voqtinchalik foydalcnish qisqa muddotli – uch yilgacha va uzoq muddotli – o'n yilgacha bo'lishi mumkin.

O'simlik dunyosi va o'rmonlarni muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi va nazorati

O'zbekiston Respublikasida o'simlik dunyosi va o'rmonlarni muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi hamda nazoratining maqsadi o'simlik dunyosini va o'rmonlarni muhofaza qilish va uiardan oqilona foydalanishni ta'minlashdir.

O'simlik dunyosi va o'rmonlarni muhofaza qilish va undan

Esda tuting!

O'simlik dunyosi va o'rmon obyektlarini muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi – vakolatli davlat boshqaruv organlarining normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan o'simlik dunyosi va o'rmon obyektlarini saqlab qolish va uiardan oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan faoliyati.

foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvini umumiy va maxsus vakolatli davlat organlari amalga oshiradi.

Umumiy vakolatli organlarga quyidagilar kiradi:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi – o'simlik dunyosi va o'rmonlarni muhofaza qilish sohasida mohim vakolatlarga ega.

Vazirlar Mahkamasining ekoiogiyaga sohasidagi vakolatlari o'simlik dunyosi va o'rmonlarga nisbatan quyidagilardan iborat:

- yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;
 - davlat dasturlarini tasdiqlaydi hamda ainalga oshiradi;
 - davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining o'simlik dunyosi hamda o'rmonlarni muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi faoliyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi;
 - umum davlat ahamiyatiga molik muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi.
- davlat o'rmon fondini tasarruf etish:
- o'rmonlarning qo'triqlanish toifalarini aniqlash tartibini belgilash; o'rmondan foydalanganlik uchun haq undirish tartibi va miqdorlarini belgilash;
 - o'rmonlarni muhofaza qilish, qo'triqlash, ulardan foydalanish va ularni takroriy ko'paytirish ustidan davlat nazoratini tashkil etish va amalga oshirish;
 - o'rmonlarning davlat hisobini va davlat o'rmon kadastrini yuritish tartibini belgilash;
 - O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'simlik dunyosi va o'rmonlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish bilan bog'liq boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

Istisno!

O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga knutilgan o'simlik turlaridan foydalanish, ular bilan (ularning qismi yoki faoliyat mahsullari bilan) savdo qilish, ularni chet elga olib chiqishga alehida hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi beradigan ruxsatnomalar asesida yo'l qo'yiladi. Bunda Vazirlar Mahkamasi ruxsatnomani O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining taqdimnomasi va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xulosasi bo'yicha beradi.

2. Mahalliy davlat hokimiyyat organlari – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasiga binoan atrof-muhitni muhofaza qiladi. Mahalliy davlat hokimiyyat organlarining vakolatlari o'simlik dunyosi va o'rmondan foydalanish jarayonida ko'rinishdi. Mahalliy davlat hokimiyyat organlarining o'simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish va undan foydalanishiga oid vakolatlari quyidagilardan iborat:

- o'simlik dunyosi obyektlaridan umumiy foydalanish me'yorlari va tartibini Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan kelishgan holda belgilash;
- tegishli qishloq hamda suv, shuningdek o'rmon xo'jaligi davlat organlarining taqdimnomasiga ko'ra pichan o'rish haonda tabiiy pichanzorlar va yayloylarda chorva mollarini o'tlatish me'yorlari va muddatlarini tasdiqlash;
- o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni kesish; binolar, inshootlar va kommunikatsiyalarning qurilishi bilan bog'liq sanitariya kesish to'g'risida bududiy Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari bilan kelishgan holda qaror chiqarish;
- qarib qolgan, tabiiy zararkunandalar va kasalliklari ta'sirida kuchli zararlanib quriyotgan daraxt va butalarni maxsus ruxsatnomasiz kesish to'g'risida huoudiy Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari bilan kelishgan holda qaror chiqarish;
- o'simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish, ulardan foydalanish va ularni ko'paytirish yuzasidan davlat nazoratini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olib borish.

Maxsus vakolatlari organlarga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi o'simlik dunyosi va o'rmonlari muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid munosabatlarni tartitga soladi. Ushbu sohadagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

- o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat dasturlarini hamda boshqa dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;
- o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;
- o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi qoidalarni, o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish normadari hamda normativlarini ishlab chiqishni tashkil etadi va tasdiqlaydi;
- o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida davlat nazoratini amalga oshiradi;
- o'simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini va ulardan foydalanish hajmlarining hisobini belgilangan tartibda yuritadi;

- yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar yetishtiriladigan pitomniklar va plantatsiyalarning davlat hisobini yuritadi;
- o'simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastrini yuritadi;
- O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobini yuritadi va uning nashr etilishini ta'minlaydi;
- o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida davlat ekologik ekspertizasini o'tkazadi;
- yuridik va jismoniy shaxslarga o'simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish uchun ushbu Qonunga muvofiq ruxsatnoyna beradi;
- biriktirilgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan eqilona foydalanish bo'yicha biotexnik tadbirlarini amalga oshiradi.
- O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi murekin.

O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi:

- o'rmon xo'jaligi sohasida o'rmon boyliklarini har temonlama kengaytirish va ulardan eqilona foydalanishga qaratilgan yagona davlat siyosatini yuritish;
- o'rmon to'g'risidagi sonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va ularga rioya etilishini amaliy nazorat qilish;
- o'rmon fondi va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni samarali boshqarishni tashkil etish, o'rmon barpo etish, ularni qayta tiklash, qo'riqlash, muhofaza qilish, o'rmonlardan eqilona va tejamli foydalanish;
- respublikamizda o'rmonlarni tiklash va ixota o'rmonlarini ko'paytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, tog' yonbag'irlari, jarliklar va tashlandiq yerdarda eroziyaga qarshi daraxtzorlar barpo etish ishlari bajariishini tashkii qilish;
- o'rmon fondini, fauna va florasini o'tganish hamda ularning qat'iy hisobini yuritish, o'rmon xo'jaligini yuritish amaliyotiga fan yutuqlari va ilg'or tajribani joriy etish;
- o'rmonlarni yong'inlardan, zararkunanda va kasalliklardan, noqonuniy daraxt kesishdan va boshqa o'rmon qonunchiligi buzilishlaridan muhofaza qilish;
- manzarali o'simliklar ko'chatlari va urug'larini sertifikatlash va standartlashtirishning yagona tizimini ishlab chiqish hamda joriy qilishni tashkil etish;

- o'rmon xo'jaliklarida bir-bitiga bog'liq bo'lgan xo'jalik faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish, ko'chat yetishtirish, dorivor o'simliklar to'plash, asalarichilik, baliqchilik, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hamda ularni chuqur qayta ishlash, xalq iste'moli tovariari ishlab chiqarishni tashkil etish;
- tarmoqqa xalqaro moliya institutlari grantlarini jalg etish va ekologik turiznni keng ko'landa rivojlantirish;
- o'rmon xo'jaligi sohasida o'rta maxsus va oliv ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi:

- o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat dasterlarini hamda boshqa dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok eradi;
- o'simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini va ulardan foydalanish hajmlarining hisobini belgilangan tartibda yuritadi;
- o'simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastri va O'zbekiston Respublikasi Qizi! kitobining yuritilishini ilmiy jihatdan ta'minlashni amalga oshiradi;
- tegishli tartibda o'siralik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida xulosalar beradi;
- o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi ilmiy yo'nalishlarni belgilaydi, ilmiy tadqiqotlar dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

O'simlik dunyosining muhofaza qilinishini va undan ogilona foydalaniishini ta'minlash uchun o'simlik dunyosi obyektlarini davlat hisobiga olish hamda ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolar ham o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalananish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etishi, o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishlari mumkin

O'simlik dunyosi va o'rmon obyektlari muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi nazorat davlat, idoraviy, ishlab chiqarish hamda jamoatchilik nazorati tarzida amalga oshiriladi. O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi

davlat nazorati O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi. O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi idoraviy nazorat davlat o'mon fondi yerlarida O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan, davlat boshqarevi organlariga qarashli tashkilotlarda, shuningdek xo'jalik boshqaruvi organlari tarkibiga kiruvchi tashkilotlarda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi. O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi ishlab chiqarish nazorati xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ularga biriktirilgan hududlarda amalga oshiriladi. O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi jamoatchilik nazorati fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar tomonidan amalga oshiriladi.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi inspektorlari davlat nazoratini amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

- o'simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish va alardan foydalanish normalari va talablari buzilishini aniqlash maqsadida ular ko'paytiriladigan hedudni borib ko'rish;
- o'simlik dunyosidan foydalanish huquqini beradigan hujjatlari tekshirish, kamyon va yo'qolib borayotgan o'simlik dunyosining tayyorlangan obyektlari bilan bog'liq shaxslardan ulardan foydalanish uchun berilgan hujjatlarni ko'rsatishni, ular temonidan mazkur o'simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi sababli yozma tushuntirishlar berilishini talab etish;
- o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish qoidalari, normalari, muddatlari va boshqa talablari buzilishini bartaraf etish to'g'risida o'simlik dunyosi obyektlaridan barcha foydaluvchilar bajarishi majburiy bo'lган ko'rsaimalar berish;
- o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish bo'yicha qonun hujjatlarda belgilangan boshqa talablari buzilgan holda amalga oshirilayotgan o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish huquqini beruvchi hujjatlarni olib qo'yish;
- noqonuniy tayyorlangan mahsulotlarni belgilangan tartibda olib qo'yish hamda tayyorlov va saydo tashkilotlariga berish;
- o'tkazilgan tekshirish to'g'risida dalolatnomalar va ma'muriy qonunbuzarliklar to'g'risida protokollar tuzish;

- o'simlik dunyosini muhofaza qilish va ularni ko'paytirish bo'yicha foydalanuvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni nazorat qilish;
- tegishli qonun hujjatlari talablari buziigan holda amalga oshirilayotgan ishlarni to'xtatib qo'yish;
- o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish va qonun buzilishi to'g'risidagi materiallarni tegishli organlarga yuborish.

E'tibor bering!

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi inspektorlari o'rmonchi va yegerlar qorovulxonasini, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning qorovulxonalarini, omberlar va boshqa imoratlarni tekshirish, shuningdek transport vositalarining barcha turlarini ko'zdan kechirish va usulab turish huquqiga ega.

O'simlik dunyosini va o'rmonlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishda xorijiy tajriba

O'simlik dunyosi va o'rmonlarni muhofaza qilish va undan foydalanishda xorijiy davlatlar tajribasi nuhiro qiziqish uyg'otadi. Xususan, o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanishda **Belarus Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan yovvoyi o'simiikkani yoki ularning qismlarini o'zboshimchalik bilan terish yoki yo'q qilish yexud ularning nebud bo'lishiga, sonining kamayishiga yoki o'sish muhitining buzilishiga sabab bo'ladigan boshqa harakatlarni amalga oshirish taqiqlanadi**. Qizil kitobga kiritilgan kamyon va yo'qolib borayotgan yovvoyi o'simlik dunyosi obyektlaridan ilmiy maqsadlarda va boshqa hollarda faqatgina Belarus Respublikasi Tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish vazitligi ruxsatnomasi asosida foydalanishga yo'l qo'yiladi. Belarus Respublikasi o'simlik qonunchiligining o'ziga xos jihat shundaki, unda mazkur qoidalat nafaqat yovvoyi, balki kamyon va yo'q bo'lib borayotgan madaniylashgan o'simiikkarga nisbatan ham tafbiq etilishi belgilab qo'yilgan^{7b}

^{7b} Шакрый А.С. Ставование законодательства Республики Беларусь о растительном мире // Экологическое право (РФ). – 2005. – № 5. – С. 29–35.

Ukrainada ham o'simlik dunyosi obyektlarini qonun darajasida tartibga solinganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Xususan, Ukrainianing 1999-yil 9-apreldagi №591-XIV sonli "O'simlik dunyosi to'g'risida"gi Qonuning 25-moddasasi o'simlik dunyosi obyektlarini ularning turi, populyatsiyasi, tarqalish arealini, xilma-xilligini saqlash, ularning ko'payish shart-sharoitlarini himoya qilish, ularni yo'q bo'lishdan, nobud qilishdan, kasalliklar va zararkunandalardan, nooqilona foydalanishdan himoya qilish bo'yicha davlat tomonidan kompleks chora-tadbirlar majmuyi amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish mahalliy ijroiya hokimiyat organlariga, mahalliy o'zii o'zi boshqarish organlariga, yer achastrasi mulkderlari va foydalanuvchilari, shuningdek tabiiy o'simlik resurslaridan foydalanuvchilar zinmasiga yukianadi⁷⁹.

Turkmanistonning 1993-yil 28-dekabrdagi "O'simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, o'simlik dunyosi tabiiy holatda davlatning mulki hisoblanadi, mahalliy ijro hokimiyyati o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish masalalari bo'yicha vakolatlarni amalga oshiradi. Qonuning 16-moddasiga muvofiq o'simlik dunyosi obyektlarining mulkdori va foydalanuvchilari zinnasiga quyidagi majburiyatlar belgilangan: ularga taqdim etilgan o'simlik dunyosi obyektlaridan o'zboshimchalik bilan foydalanish va boshqa qonun buzilishlaridan muhofaza qilish; tabiiy o'simlik jamoalarida yong'lnarning vujudga kelishi va tarqalishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek zarur hollarda yong'inni o'chirish uchun tegishli davlat organlari belgilangan tartibda jalg qilish; muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga nisbatan belgilangan cheklash va ta'qiqlarga riya etish; Qizil kitobga va Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi Qizil kitobiga kiritilgan o'simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish tartibiga amal qilish v.b.

Yaponiya davlatida qabul qilingan "Atrof-muhit muhofazasi to'g'risida"gi Qonunda o'simlik dunyosi obyektlaridan feydalanish jarayoniga alovida e'tibor qaratilgan. Xususan, o'simliklardan foydalanish iqtisodiy-huquqiy mexanizmga bog'liq bo'lib, davichi tomonidan belgilangan kvotalarga va to'tanishi lozim bo'lgan meddiy qiymatga asoslanadi.

⁷⁹ Шевердина И. Правовая охрана растительного мира в населенных пунктах Украины // Legal in Vista -- 2014 (апрель). -- С. 154-155.

O'sindik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish bo'yicha **AQSH** tajribasi ham qiziqishi uyg'otadi. AQSHda "Yovvoyi tabiat to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan bo'lib, u AQSH hududining 2% ini shu maqom ostida muhofaza qilinishini ta'miniaydi. AQSHda o'simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilishda yuqorida Qonunning ahamiyati katta. Ushbu Qonun bilan belgilangan hudud doirasida avtotransport vositasidan foydalanish, ularning yaqinida yo'l yoki boshqa qurilish ishlarni olib borish, hijorat ishlari bilan shug'ullanish ta'qiqlanadi. Bu bilan tabiatdan iqtisadiy manfaatlarni ko'zlab foydalanish ta'qiqlandi, undan faqatgina ictkreatsiya maqsadlarida foydalanish mumkinligi ko'zda tutildi, xolos. Bunday hudud maqomini berish AQSH Kongressi tomonidan amalga oshiriladi. AQSHning tabiatni muhofaza qilish bilan shug'ullanuvchi organlaridan biri (O'rmon xizmati, Milliy parklar xizmati v.b.) jamoatchilik bilan kelishgan holda qaysi hududni yovvoyi tabiat hududi sifatida e'tirof etishni taklif etsa, Kongress bu haqda maxsus qonun qabul qiladi va u faqatgina keyinchalik yangi qonun qabul qilinishi bilan bekor qilinishi mumkin.

AQSH qonunchiligiga o'xshash qonunlar 1973-yilda Kanadada, 1991-yilda Finlandiyada, 1987-yilda va 1992-yilda Avstraliyaning ikki shtatida ham qabul qilindi.

Birot hudedni yovvoyi tabiat hududi deb e'lon qilish uchun bunday hudud: insonning emas, tabiatning ta'siri ostida bo'lishi kerak; inson uchun tabiy sog'lomlashdirish imkoniyatiga ega bo'lishi, aholi yashash joylaridan uzoqda jeylashishi; ishlamaqan, o'zgartirilmagan 5000 akr. (22 hektar) hudedni tashkil qilishi: ekologik, geologik yoki boshqa ilmiy, tarbiyaviy yoki tarixiy qimmatga ham ega bo'lishi kerak. Tabiatni muhofaza qilishi xalqaro ittifoqi – jamoatchilik tashkiloti bo'lib, uning qarorlari majburiy xarakterga ega emas⁶¹. Shu sababli ushbu tashkilot "**Yo'qolish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi flora va fauna turlari bilan xalqaro savdo qilish to'g'risida**"gi Konvensiyani imzolash tashabbusi bilan chiqdi. Konvensiya 1973-yil Washingtonda imzolandi, hozirda unga 100 dan ziyod mamlakatlar qo'shilgan. Ushbu hukumatlararo kelishuv kamayob turlar bilan xalqaro miqyosda savdo qilishni qattiq nazorat ostiga

⁶¹ Бордико В.Е. История охраны дикой природы в США. – Киев: Киевский эколого-культурный центр, 2008. – С. 35–36.

obsh imkonini berdi. 1963-yildagi "Faktlar Qizil kitobi" o'zining muhimligi va o'ziga xos himoyachi sifatida ekanligi bilan nufuzi ortib, turli ko'rinish va abamiyatiga ko'ra takomillasha bordi.

O'rmonlardan foydalanishda Germaniya tajribasiga nazаре solsak, avvalo, o'rmon xo'jaligi va yog'ochni qayta ishlash Germaniya iqtisodiyotining mulum sohalaridan biri sanaladi. Unda PEFC va FCS tizimlari buyicha 70% dan ortiq o'rmonlar sertifikatishtirilgan. Qayta ishlanadigan xomashyo resarsi 185 mingta yog'ochni qayta ishlash va o'rmon sanoati korxonalarini barqaror ish yuritishiga yo'i qo'yadi, ularda 1,3 mln dan ko'proq kishi ish bilan band hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar Germaniya o'rmon iqtisodiyotini avtomobil, kimyo va mashinasozlik sohalari bilan bir darajaga qo'yadi.

Germaniyada o'rmon xo'jaligining federativ boshqaruvi (Bundesforstverwaltung) Germaniya moliya vazirligining tuzilmasiga kiritilgan. Ammo Federatsiya subyektlarida o'rmon boshqaruvi har xil organlar bo'ysinadi. Bular Atrof-muhit vazirligidagi o'rmon direksiyasi, yoki Qishloq xo'jaligi va hukumat yerlarining o'rmonlari vazirligidagi o'rmon xo'jaligi boshqaruvidir. O'rmonchilikka ixjisoslashgan ilmiytadqiqot institutlar bo'lsa, iste'molchi, cziq-ovqat va qishloq xo'jaligi vazirligiga kiritilgan. Markaziy o'rmon boshqaruvi bo'yicha davlat organing bo'ysinuvida o'ziga xes xususiyat, ya'ni davlatning hamma federativ ko'chmas mulki Moliya vazirligining nazorati ostidadir. Shu sababdan milliy qonunchilik tomonidan ko'chmas mulk toifasiga kiradigan o'rmon va o'rmonlardan bo'shagan federativ yerlar, Moliya vazirligining Federal o'rmon xo'jaligi boshqaruvi tomonidan boshqariladi.

Germaniya o'rmon fondi yerlariidan foydalanishning yana bir o'ziga xos xususiyati bu o'rmondan foydalanuvchilar hisoblanadi. O'rmon foydalanuvchilari sifatida o'rmon sanoati vakillari, o'rmon xo'jaliklari va dam oluvchilar bilan birgalikda Germaniya Quirolli kuchlari (Bundesver), hamda shu yerdagi boshqa davlatlarning harbiylari hani foydalanuvchilar sifatida e'tirof etiladi.

Polsha o'rmon fondi 8 452 ming gektarni tashkil qiladi. Polsha o'rmon fondi ikkita garuhga bo'lingan Birinchi garuhga alohida xalq xo'jaligiga xizmat qiladigan o'rmenlar kiradi. Bularga tuproqni saqlavchi, suvni muhofaza qiluvchi, dam olish – kurort, yashil hudoqlar, qo'riqxonalari kiradi. Ushbu o'rmonlar taxminan 20% maydonni egallaydi. Ikkinci garuh o'rmonlari 80%ni tashkil etadi va bir payning o'zida suvni muhofaza qilish vazifasini bajaradi. Polshada o'rmon xo'jaligi boshqaruvini O'rmon xo'jaligi va yog'ochni qayta ishlash sanoati vazirligi

olib boradi. Uning tarkibiga O'rmon xo'jaligi bosh boshqarnasi va yog'ochini qayta ishlashi sanoati bosh boshqarmasi kiradi. O'rmon xo'jaligi bosh boshqarnasining tasarrufiga ko'p hajindagi isblar, jumladan, o'menlami o'stirish (yetishtirish), yog'och tayyorlashi, o'rmon yo'llarini qurish, botqoqlangan o'rmonlarni quritilishi kabilarni amalga oshiradi. Viloyatlarda o'rmon xo'jaligi o'rmon xo'jaligining viloyat boshqarmalari tomonidan boshqariladi. Ularga har biri 7-10 hektarlik niungga yaqin o'rmon xo'jaliklari bo'yusunadi. Ular har birining o'rtacha maydoni ming ga lik 7 mingta o'rmon xo'jaiklarini boshqaradi. Oxirgi yillarda Polshada onmaviy hordiq uchun rekratsion o'rmonlarga keng yerlar ajratildi. Hozirda ularning maydoni 1,2 min. hektardan oshgan (18% atrofida). Bular 11 milliy bog'lari, tabiat yodgorliklari, 450 ta shu maqsaddagi qo'riqxenalar shular jumlasidandii.

Nazorat uchun savollar

1. O'simlik dunyosi obyektlari tegishli ekologik qonunlar orqali muhofaza qilinadi.

Muhofaza qilishda o'simlik dunyosining qaysi xususiyatlari inobatga olinishi lozim. Javobingizni fuqarolik va ekologik qonunlarni qiyosiy taqqosiga qolda tahlil qiling.

2. O'rmonlarga nisbatan mulk huquqi o'rmonlardan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shundan ketib chiqib, o'rmonlarga nisbatan mulk huquqining o'ziga xor xususiyatlarini tahlil qiling.

3. "ESONATURE-TUR" turistik firmasi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasidan o'simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish uchun ruxsatnoma olib, ushbu ruxsatnoma orqali firma turistlarini o'simlik dunyosi obyektlari bilan tanishtirib, ularidan foydalanayotganda tabiatni muhofaza qilish organi xodimlari tomonidan Toshkent viloyati Parkent tumanining tog'li hududida to'xtatilib, bo'lib o'tgan holat yuzasidan bayonnoma tuzib, tegishli organjarga chora ko'rish uchun yuborildi

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organi, "ESONATURE-TUR" turistik firmasini qonun talabini buzib, ya'ni o'ziga berilgan huquqni boshqasiga berib o'simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanayotganlikda ayblamoqda.

"ESONATURE-TUR" turistik firmasi esa ushbu aybni bo yniga olmay, sudga murojaat qilgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

3. Jizzax viloyati hududida joylashgan o'rmonda fuqaro R. Rustamov o'z oilasi bilan dam olish uchun borib, oziq-ovqatbop o'simliklar va mevalardan o'z shaxsiy ehtiyojlari uchun yig'ishadi. O'rmon qo'tiqchisi fuqaro R. dan o'rmon o'simliklaridan foydalanish uchun ruxsatnomalar qiladi va u o'z oilasi bilan faqat dam olish uchun kelganligini hamda o'rmon o'simlik va mevalardan foydalanish uchun haq to'lasbi lozimligini ta'kidlaydi.
4. *Holatga huquqiy baho bering.*

15-BOB. HAYVONOT DUNYOSINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanishning huquqiy holati tushunchasi va xususiyatlari. Hayvonot dunyosidan foydalananish huquqi va turlari hamda foydalananish huquqining paydo bo'lish asoslari. Ov qilish va baliq ovlashni huquqiy tartibga solish. Hayvonot dunyosidan foydalananish huquqining bekor bo'lish asoslari.

Hayvonot danyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanishning huquqiy holati tushunchasi va xususiyatlari

Hayvonot danyosi tabiat boyliklarining bir qismi bo'lib, jamiyatda, inson hayotida katta ekologik ahamiyatga ega.

Hayvonot danyosi – faunada mavjud bo'lib tabiiy cirkinsharoitda yashayotgan hayvon galalarini, shuningdek suv va cho'lda yashovchi barcha yovvoyi hayvonlarning majmuasini tushunamiz.

Hayvonot danyosi iqtisodiy ahamiyati nuqtayi nazaridan muhim tabiiy resurs, oziq-ovqat mahsulotlari, saneatbop, texnikaviy va dorivor xemashyo va boshqa moddiy boyliklar olish manbayi ekanligi ma'lum. Shunday ekan, uni huquqiy ekologik muhofaza qilish juda zarur. Bu ishda mamlakatimiz qonunlari O'zbekiston fuqarolarini hayvonot dunyosiga insoniy munosabatda bo'lish suhida tarbiyalashga, bu bebafo dunyonni muhofaza qilish hamda undan samarali va oqilona foydalanishga qaratilishi lozim. Chunki hayvonlarning O'zbekiston faunasiga xos bo'lgan talaygina turlari yo'qolib ketish arafasida turibdi, ayrimlari (qulon, Turon yo'lbarsi, ola-bula sirtlon va boshqalari) esa butunlay yo'qolib ketdi. Shu boisdan ham noyob va yo'qolib borayotgan hayvonlarni huquqiy ekologik asosda muhofaza qilish katta ahamiyatga ega.

Quruqlikda yashovchi hayvonlar butun hayvonlar turining 93 foizini, suv hayvonlari esa 7 foizini tashkil etadi. Umuman olganda, yer yuzida yashovchi hayvonlar turi o'simlik turiga qaraganda 4 baravar ko'p bo'lib, taxminan 2 milliondan ortiqroqdir.

Keyingi 100–150 yil mobaynida hayvonlarning ko'plab tur yo'qotib yuborildi. Masalan, 1800-yilgacha sut emizuvchilarning 33 turi, qushlarning 30 turi yo'q qilingan bo'lsa, undan keyingi 100 yilda 73 tur sut emizuvchi, 120 tur qushlar batamom yo'qolgan. Keyingi 50 yilda esa hayvonot dunyosining undan ham ko'prog'i yo'q qilib yuborilgan.

Markaziy Osiyo hududi o‘z hayvonot va o‘simlik olamining xilmassisligi, boyligi bilan ajralib turadi. Masalan, O‘zbekistonda 650 dan ortiq umurtqali hayvonlar, shu jumladan sat emizuvchilar 99 turi, qashlarning 410 tur, sudralib yuruvchilarning 57 turi, qushlarning 410 turi, suvda va quruqlikda yashovchilarning 3 turi uchraydi.

Yangi nashri etilgan O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga jami 184 turdag'i hayvonlar kiritilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka eishganidan so‘ng iqtisodiy, ekologik, geografik va milliy xususiyatlarni hisobga olinib, bir qator yangi qonunlar qabul qilindi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, hayvonot dunyosini muhofaza qilish, tabiatning barcha obyektlari, boyliklari faoliyatining ma’lum mutanosiblikda saqlanishi bilan bog’liq.

Oliy Majlisning e’tiborli faoliyatida qabul qilingan, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy bududlar to‘g‘risida”gi, “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Yer kodeksi”, “O‘mon to‘g‘risida”gi bir qator O‘zbekiston Respublikasining qonunlari mamiakatimizda ekologik holatni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Jumladan, respublikamizdag‘i mavjud hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 20-sentabrda e’lon qilingan “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi (yangi tahrirdagi) Qonuni katta ahamiyatga ega. Qonuning maqsadi hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan seydanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonun quruqlikda, suvda, atmosferada va tiproqda tabiiy erkin holatda yashaydigan, O‘zbekiston Respublikasi hududida deimiy yoki vaqtincha turadigan yovvoyi hayvonlarai, shuningdek ilmiy yoki tabiatni muhofaza qilish maqsadilarida yarim erkin sharoitda yoki sun’iy yaratilgan yashash muhitida boqilayotgan hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ularidan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi munosabatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlaridan boshqacha qoidalar belgilangan bo'sha, **xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi**.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifasi hayvonot dunyosining yashash sharoitlarini ta'minlash, elarning xilma-xil turlarini hamda tabiiy galalari butligini va yashash muhitini saqlash maqsadida hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish, uni tiklash va takror etishtirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Normativ-huquqiy hujjatlarda qo'llanadigan quyidagi asosiy tushunchalarni bilish muhim ahamiyatga ega.

Yovvoyi hayvonlar – quruqlikda, suvda, atmosferada va tuproqda yashaydigan, xenakilashtirilmagan umurtqasizlari, balqlar, ham quruqlikda, ham suvda yashovchi hayvonlar, sudralib yuruvchilar, qushlar, sut emizuvchilar.

Yovvoyi hayvonlarning yashash faoliyati mahsulotlari – yovvoyi hayvonlarning yashash faoliyati natijasida hosil bo'lgan asal, yog', go'sht, sut, tuxum, mum, uvaldiriq, zahar, safro, mo'yua, shoxlar, patlar, terilar va boshqa mahsulotlar.

Zoologiya kolleksiyasi – yovvoyi hayvonlarning ilmiy, madaniy-ma'liliy, o'quv-tarbiyaviy va estetik ahamiyatga molik jonsiz eksponatlerining tizimlashtirilgan to'plami (yovvoyi hayvonlar tiumlatining va yashash faoliyati mahsulotlarining namunalari), shuningdek yarim erkin sharoitda, sun'iy yaratilgan yashash muhitida yoki tutquniykda (tabiiy pitomniklarda, hayvonot bog'larida, sirklarda, terrariumlarda, akvariumlarda va boshqa joylarda) saqlanayotgan yovvoyi hayvonlarning tirik kolleksiyalari;

Hayvonot dunyosiga nisbatan mulkdorlik masalasi alohida ahamiyatga ega. Jumiadar, hayvonot dunyosi umumimilliy boylik bo'lib, undan oqilona foydalanish lozim va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Tabiiy erkinlik holatida yashayotgan, shuningdek tabiiy yashash muhitiga chiqarib yuborilgan yovvoyi hayvonlar davlat mukidir.

Yarim erkin sharoitda, sun'iy yaratilgan yashash muhitida yoki tutquniykda saqlanayotgan va (yoki) yetishtirilgan yovvoyi hayvonlar yuridik yoki jismoniy shaxsning muiki bo'lishi mumkin.

Shunday ekan, hayvonot dunyosi obyektlariga nisnalar kirishini bilib olish zarar.

Hayvonot dunyosi obyektlari quyidagilardan iborat:

- Yovvoyi hayvonlar;
- Yovvoyi hayvonlarning yashash faoliyatini mahsulotlari;
- Zoologiya kolleksiyaiari.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilishga doir chora-tadbirlar, hayvonot dunyosini muhofaza qilish:

- Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi qoidalar, normalar va normativlarni belgilash;
- Hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanishda chekiovlar va taqiplar belgilash;
- Hayvonot dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish huquqini to'xtatib turish, tagatish, bekor qilish;
- Hayvonot dunyosi obyektlaridan o'zboshimchalik bilan foydalanishning va ulardan foydalanish borasida belgilangan tartibni boshqacha buzishlarning oldini olish;
- Yovvoyi hayvonlarning yashash muhiti, urchish joylari va ko'chib o'tish yo'llari muhofaza qilinishini tashkil etish;
- Kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvonlar turlarini O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritish;
- Xo'jalik faoliyatini va boshqa faoliyatni analga oshirish, transport vositalaridan foydalanish chog'ida yovvoyi hayvonlar nobud bo'lishining oldini olish;
- Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish va rivojlantirish;
- Kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvonlar turlarini tutqunlikda ko'paytirish;
- Yovvoyi hayvonlar kasallikkcha chalinganda ularning tabiiy ofsatlar va boshqa sabablar oqibatida nobud bo'lishi xavfi tug'ilganda ularga yordam berish;
- Hayvonot dunyosi obyektlarini davlat hisobiga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish;
- Hayvonot dunyosi obyektlarning davlat kadastrini yuritish va hayvonot dunyosi monitoringini amalga oshirish;
- Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida nazoratni amalga oshirish;
- Hayvonot dunyosi obyektlarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va O'zbekiston Respublikasidan olib chiqishni tartibga solish;

- Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish hamda o'tkazish;
- Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish;
- Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo'yicha biotexnik va boshqa tadbirlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchi subektlar yuridik va jismoniy shaxslar, fuqarolar hamda jamoat birlashmalari hayvonot dunyosini handa uning yashash mühitini muhofaza qilish sohasida ham e'tiborli huquq va majburiyatlarni amalga oshirishlari zarur.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolar:

hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtiok etadi;

hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

Shu bilan birga, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida davlat boshqaruvining olib borilishi ham katta ahamiyatga ega.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

Zero, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish ustidan davlat nazoratini olib borish ham ushbu muammo bilan bog'liq ko'pgina masalalarini hal etishga yordam beradi.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish ustidan davlat nazorati mahalliy davlat hokimiyati organlari. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish ustidan idoraviy, ishlab chiqarish va janoeatchilik nazorati qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Hayvonot dunyosidan foydalanish huquqi va turlari hamda foydalanish huquqining paydo bo'lish asoslari

Hayvonot dunyosidan foydalanish huquqi hayvonot dunyosidan foydalanuvchilarning qonuniy huquq va majburiyatlarini amalga oshirishlari, unga amal qilishlari, hayvonot dunyosidan davlat mulki sifatida oqilona foydalanishlari va davlat tomonidan muhofaza qilish ishlarda bo'ladigan munosabati tushunitadi.

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilar yuridik va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Foydalanuvchilar hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanish borasida o'zlariga tegishli huquqni qonun hujjatlarda belgilangan shartlar va tartibda amalga oshirishlari lozim.

Hayvonot dunyosi obektlaridan foydalanish	
Umumiy foydalanish	Maxsus foydalanish
• jismoniy shaxslar tomonidan;	• jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan;
• hayvonlarni yashash muhitidan ajratib olmasdan;	• ishlab chiqarish va o'zga xil faoliyatni anaiga oshirish uchun;
• hayvonlarga zarar yetkazmasdan;	• ruxsatnomma asosida;
• ruxsatnomasiz;	• qonun hujjatlarda belgilangan tartib va miqdorda;
• qonun hujjatlarda belgilangan tartib va miqderda;	• haq evaziga foydalaniladi.
• bepul foydalaniladi.	• foydalanish: ko'zda tutilgan tabiiy obyekt belgilab beriladi.
Masalan: Fuqaro A. tabiiy suv havzalarida Qizil kitobga kiritilgan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi 5 kilogrammgacha miqdorda baliqlarni sport va havaskorlik tarzida ovlash yoki bo'imasam, fuqaro B. hayvonot dunyosi obyektlaridan zarur ehtiyoji uchun cheklangan miqdorda foydalanib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi inspektori kelib, ushbu xatti-harakat huquqbazarlik ekanligini bildirdi (Qaratang: V.Mining 2014-yil 20-oktabrdagi 290-son qareri bilan ekanligini bildirdi. Fuqaro A., tasdiqlangan "Hayvonot dunyosi	Masalan: Fuqaro A. tabiiy suv havzalarida Qizil kitobga kiritilgan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi 5 kilogrammgacha miqdorda baliqlarni sport va havaskorlik tarzida ovlagan. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi inspektori kelib, ushbu xatti-harakat huquqbazarlik ekanligini bildirdi (Qaratang: V.Mining 2014-yil 20-oktabrdagi 290-son qareri bilan ekanligini bildirdi.

umumiy tarzda foydalangan holda, fuqaro B. esa høyotiy zarur etuyoji uchun bu huquqni amalga oshirayotganligini aytди. (Qarang: "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 4-, 29-noddalari, VMning 2014-yil 20-ektabrdagi 299-son qaroti bilan tasdiqlangan "Hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanish va hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 18-band "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonunning 19-modda 1-qism, 2006-yil 2-mayda 1569-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududida Ov va baliq ovlash Qoidalari")

obyektlaridan foydalanish va hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 18-band "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonunning 19-modda 1-qism, 2006-yil 2-mayda 1569-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududida Ov va baliq ovlash Qoidalari")

Hayvonot dunyosi obyektlaridan umumiy foydalanish jismoniy shaxslar tomonidan qonun hujjatlarda belgilangan tartibda bepul amalga osbiriladi.

Hayvonot dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilagan tartibda beriladigan ruxsatnomalar asosida haq evaziga amalga osbiriladi.

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilar qorunda ko'rsatilgan **huquq va majburiyatlarini** talab darajasida amalga esbirishlari shart.

Hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanuvchilar:

hayvonot dunyosi obyektlaridan hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq foydalanish huquqiga;

tutib olingan yovvoyi hayvonlarga va ularning yashash faoliyati mahsulotlariga nisbatan mulk huquqiga egadir.

Ovchilik va (yoki) baliq ovlash xo'jaligini yurituvchi hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanuvchilar:

- o'zlatiga biriktirilgan hududlarda hayvonot dunyosi obyektlaridan tabiatni muhofaza qilish organlari tomonidan beriladigan ruxsatnomalar dorasida foydalanish uchun jismoniy shaxslarga ruxsatnomalar (yo'llanmalar, hayvonlarni tutish varaqalari) berishga;

– yuridik va jismoniy shaxslar hayvonot danyosi obyektlaridan sanoat maqsadida belgilangan kvotalar doirasida foydalanishi uchun ulai bilan shartnomalar tuzishga;

– ovchibk va baliq ovi mahsulotini qayta ishlash hamda ulardan buyumlar ishlab chiqarishga;

– ovchilik va baliq ovi mahsulotidan, ulardan ishlab chiqarilgan buyumlardan foydalanish hamda alarni realizatsiya qilishga;

– sun'iy ravishda yetishtirilib, tabiiy yashash muhitiga chiqarib yuborilgan hayvoolar turlaridan foydalanishga ham haqlidir.

Hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanuvchilar:

– hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida belgilangan qcidalar, normalar va normativlarga rioya etishi;

– hayvonot dunyosining muhofaza qilinishi va undan oqilona foydalanilishini ta'minlashi, shuningdek biriktirilgan hududlarda hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida idoraviy va (yoki) ishlab chiqarish nazoratini amalga oshirishi;

– hayvonot dunyosi obyektlaridan yovvoyi hayvonlar tabiiy galalarining bir butunligi buzilishiga yo'l qo'ymaydigan va foydalanishga beiib qo'yilmagan yovvoyi hayvonlarning saqlab qolinishini ta'minlaydigan usullar bilan foydalanishi;

– yovvoyi hayvonlarning yashash muhiti, urchish joylari va ko'chib o'tish yo'llari buzilishiga yo'l qo'ymasligi;

– yovvoyi hayvonlar sonini hisobga olishni va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olishni amalga oshirishi;

– hayvonot dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanganlik uchun haqni o'z vaqtida kiritishi;

hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo'yicha biotexnik tadbirlarni amalga oshirishi;

– boshqa hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanuvchilarning huquqlarini buzinlasligi;

– hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlari tatablarini buzgan holda yetkazilgan zararning o'mini to'liq hajmda qoplashi shart.

Hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanuvchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va ularning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Hayvonot dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish uchun ruxsatnema yovvoyi hayvonlarni tutishga doir tasdiqlangan kvotalar doirasida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza

qilish davlat qo'mitasiyotomidan beriladi. Yovvoyi hayvonlarni tutishga doir **kvotalar** hayvonot dunyosi obyektilarini davlat tomonidan hisobga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xulosasi asosida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Hayvonlarning ayrim turlarini muhofaza qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xulosalari asosida ana shu turdag'i hayvonlardan foydalanishga yoki feydalanishning ayrim turlariga cheklashlar yoxud taqiqlashlar belgilashi mumkin.

Aholi sog'lig'ini saqlash, qishloq xo'jalik mollari va boshqa uy hayvonlari kasalliliklarga chalinishining oldini olish, yuridik va jismoniy shaxslarga zarar yetkazilishining oldini olish, hayvonot dunyosining turlari bo'yicha xilma-xilligini saqlab turish maqsadida yovvoyi hayvonlar ayrim turlarining miqdorini tartibga solish tadbirlari o'tkaziladi.

Ayrim turdag'i hayvonlar miqdorini tartibga solish tadbirlari hayvonlarning boshqa turlariga zarar yetkazilishini istisno etadigan va ularning yashash muhiti saqlanib qolishini ta'minlaydigan usullar bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining xulosalarini hisobga olib hamda yer, suv va o'rmon zaxiralarini muhofaza qilishni amalga oshiradigan tegishli davlat organlari bilan kelishgan holda amalga oshirilishi lozim.

Miqdori tartibga solinishi mumkin bo'lgan hayvon turlari va ularning miqdorini tartibga solish tadbirlarini o'tkazish qonun hujjatlarida belgilanadi.

Xullas, hayvonot dunyosidan foydalanish huquqi mustaqil tartiblar majmui hisoblanib, u ekologik huquqning bir qismidir. Demak, hayvonot dunyosini huquqiy ekologik muhofaza qilish va undan foydalanish deganda qonunda belgilangan va uning ekologik ahamiyatini saqlashga, jamiyatning iqtisodiy, ilmiy, madaniy, estetik, tabiiy, tarbiyaviy va boshqa ehtiyejlarni qondirishga yo'naltirilgan davlat va ijtimoiy huquqiy ekologik tadbirlarning uyg'unligi tushuniladi.

Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, hayvonot dunyosini huquqiy-ekologik muhofaza qilish va foydalanishda, noyob hayvonlarni kelajak avlodga saqlab qolish va ko'paytirish uchun xorijiy mamlakatlar, ayniqsa, AQSH, Kanada, Angliya, Yaponiya, Fransiya, Shveysariya va boshqa mamlakatlar tajribasidan foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

**Yovvoyi hayvonlarni tutish uchun to'lov
MIQDORLARI**

Jinsi va yoshidan qat'i nazar,
1 ta yovvoyi hayvoni tutish narxi

eng kam oylik ish haqiga aisbatan koeffitsient	xerijiy fuqarolar va yuridik shaxslar uchun (AQSH dollarida)	
tijorat maqsadida	sport va boshqa maqsadlarda	iltiyor, tibbiyot maqsadlari da

SUTEMIZUVCHILAR

**Noyob va yo'q bo'lib ketish xavfi ostidagi turlar,
O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kirishilganlar**

Qoplon, targ'il sislton, ilvirs (tog' qoploni)	220	200	150	20000
Burama shoxli echki (moxxo't), Seversov quyi, Tyanshan quyi, Ustyurt quyi, Buxoro quyi, Buxoro bug'usi (xongul)	120	100	80	7000
Tyanshan qo'ng'ir ayig'i, O'rta Osiyo qunduzi, Turkiston silovsini, qoraqulog, asalxo'r	80	75	60	2500
Menzbir sug'uri jayron, sayg'oq	25	20	15	1500
Sutemizuvchilarning boshqa turlari	5	4	3	500

Ov qilish va baliq ovlashni huquqiy tartibga solish

Hayvonot dunyosidan feydalanish turlaridan ov qilish va baliq ovlashni huquqiy tartibga solish katta ahamiyatga ega.

Tabiiy erkinlik holatida yashayotgan yevvoyi hayvonlarni tutish maqsadida izlash, iziga tushish va ta'qib qilish, tutishga intilish yoki tutish (otish, tutib olish) ov qilishdir.

Ov qilish joylarida g'ilofi yechib qo'yilgan (yig'ilgan holdagi, qo'llashga shay) ovchilik quroli hamda boshqa ov qilish vositalari yoki ov mahsuloti, tasmasidan bo'shatib yuborilgan ovchi itlar, ovga o'rgatilgan qushlar bilan bo'lish ham ov qilishga tenglashtiriladi.

Ov qilisliga hayvonot dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish uchun berilgan ruxsatnomaiarda ko'rsatilgan muddatlarda va joylarda yo'l qo'yiladi.

Jismoniy shaxslarga sport va havaskorlik maqsadida ov qilish uchun ruxsatnomaga ovchilik bileyti, o'qotar ovchilik qurolini (agar undan foydalanish mo'ljallansa) saqlash va olib yurish uchun ruxsatnomaga bo'lgan taqdirda beriladi.

Yuridik shaxslarning sanoat maqsadida ov qilishiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi.

Ov qilishni amalga oshirish chog'ida hayvonot danyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi qoidalarda taqiqlangan qurollarni hamda ov qilish usullarini qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

Falokatga uchragan va o'zi uchun notabiiy sharoitda turgan hayvonlarni ov qilish taqiqlanadi.

Shaxslarning sport, havaskorlik va sanoat maqsadida ov qilish taqiqlangan joylarda, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ovchilik quroli hamda boshqa ov qilish vositalari, ov mahsuloti, tasmasidan bo'shatib yuborilgan ovchi itlar, ovga o'rgatilgan qushlar bilan bo'lishi, shuningdek, umumiy foydalanishdagi yo'llarda g'ilofi yechib qo'yilgan (yig'ilgan holdagi, qo'llashga shay) ovchilik qureli yoki ov mahsuloti bilan o'tjaning qonuniyligini tasdiqlovchi hujajtarsiz bo'lishi man etiladi.

Shuningdek, qonunda baliq ovlash masalasiga ham katta e'tibor qaratilgan.

Baliq ovlash va umurtqasiz suv hayvonlarini tutish baliq ovlash hisoblanadi. Baliq ovlash joylarida baliq tutish vositalari hamda boshqa baliq ovlash anjomiları yoki baliq ovi mahsuloti bilan bo'lish ham baliq ovlashga tenglashtiriladi.

Baliq ovlash sport, havaskorlik va sanoat maqsadida bo'lishi mumkin

Baliq ovlashni amalga oshirish shartlari. Suv obyektlarida sport va havaskorlik maqsadida baliq ovlashiga begul yoki ovchilik-baliq ovlash jamiyatlariga biriktirilgan joylarda ushbu jamiyatlarning ruxsatnomalarini (yo'llanmalari, hayvonlarni tutish varaqalari) asosida haq evaziga ruxsat etiladi, bundan davlat qo'riqxonalari, tabiat bog'larining va davlat biosfera rezervatlarining qo'riqxonaga aylantirilgan zonalari hodudidagi suv obyektlari mustasno. Bu borada AV tomonidan 2006-yil 2-mayda 1569-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi (mazkur qo'mita O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apreldagi PF-5024-sonli Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qilib qayta tashkil etildi) buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududida Ov va baliq ovlash qoidalari".

Baliqchilik xo'jaligi tashkilotlariga biriktirilgan tabiiy suv havzalarida, baliqchilik pitomniklarida hamda hovuz xo'jaliklarida sport va havaskorlik maqsadida baliq ovlashga ushbu tashkilotlarning ruxsatnomalarini (yo'llanmalari, hayvonlarni tutish varaqalari) bo'yicha yo'l qo'yiladi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning tabiiy suv havzalarida (baliqchilik pitomniklari, hovuz xo'jaliklari, magistral kanallar, kollektorlar va kichik soylar bundan mustasno) sanoat maqsadida baliq ovlashiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining qatoriga ko'ra baliqlarning urchish davrida baliq ovlashni amalga oshirishni taqiqlash muddatlari belgilanadi.

Baliq ovlashni amalga oshirish chog'ida hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi qoidalarda taqiqlangan qurollarni hamda ovlash usullarini qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

Ov qilish va (yoki) baliq ovlash joylari. Sport, havaskorlik va sanoat maqsadida ov qilishga va (yoki) baliq ovlashga ruxsat etilgan yovvoyi hayvonlarning yashash joyi, ko'chib o'tish yo'llari bo'lgan barcha yerlar, suvlar hamda o'rmonlari ov qiliш va (yoki) baliq ovlash joylaridir.

Quyidagilar ov qilish va (yoki) baliq ovlash joylari hisoblanmaydi:

– aholi punktlarining (shaharlarining, shaharchalarining va qishloq aholi punktlarining) yerlari, bundan sport va havaskorlik maqsadida baliq ovlash mustasno;

– tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadiga va tarixiy-madaniy maqsadga mo'ljalangan yerlar, agar ularning rejimida ov qilish va (yoki) baliq ovlash nazardə tutilmagan bo'lsa;

– sanoat, transport, aloqa, imudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljalangan yerlar, chegara zonalari;

– qishloq xo'jaligiga mo'ljalangan yerlar hosil yig'ishtirib olinguniga qadar bundan yerga egalik qiluvchilar va yerdan foydalanuvchilar bilan keiishuvga binoan amalga oshiriladigan sport hamda havaskorlik maqsadida ov qilish va (yoki) baliq ovlash hollari mustasno;

– shaharlarning, boshqa aholi punktlarining va sanoat markazlarining ko'kalanzorlashtirilgan mintaqalar;

– korxonalar atrofidagi sanitariya-himoya zonalari;

– suv ta'minoti manbalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish zonalari;

– o'rmonlarning sanoat maqsadida ovlanadigan qimmatli baliqlar uvidiriq sochadigan joylarni muhofaza qiluvchi taqiqlangan mintaqalar;

– aerodromlar va aerodrom tegrasidagi zonalar;

– to'g'onlardagi, suv ayirgichlardagi, ko'prikiardagi, baliqchilik pitomniklari, hovuz va boshqa madaniy baliqchilik xo'jaliklari chegaralaridagi yoki ushbu obyektlarning muayyan qo'tiqlash rejimida belgilangan yiroqlikdagi uchasikalari (mintaqalar).

Ovchilik va (yoki) baliq ovlash xo'jaligini yuritish. Jismoniy yoki yuridik shaxsga biriktirilgan, muhofaza qilish va takror ko'paytirish tadbirleri, ov qilish va (yoki) baliq ovlash amalga oshiriladigan hudud ovchilik va (yoki) baliq ovlash xo'jaligidir.

Ovchilik va (yoki) baliq ovlash xo'jaligini yuritish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga yer uchastkalari yoki suv obyektlari doimiy egalik qilish, doimiy yoki muddatli (vaqtinchalik) foydaianish yoxud ijara huquqi asosida berilishi mumkin.

Ovchilik va (yoki) baliq ovlash xo'jaligini yuritish:

ov qilish va (yoki) baliq ovlash joylarini tashkil etish toyihalarining davlat ekologik ekspertizasi xulosasi;

hayvonot dunyosi obyektlarini davlat hisobiga olish va ulardan foydaianish bajmlarini hisobga olish, ov qilish va (yoki) baliq ovlash joylarining holati materiallari;

kvotalar va hayvonot dunyosi obyektlaridan foydaianish huquqini betuvchi ruxsatnomalar asosida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Ovchilik va (yoki) baliq ovlash xo'jaligini yuritish tartibi, shuningdek ov qilish va baliq ovlash qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazilishi lozim:

barcha turdag'i qurilishlar uchun er uchastkalarini tanlash materiallari, amalga oshirilishi hayvonot dunyosining holatiga yoki yovvoyi hayvonlarning yashash muhitiga, urchish joylariga va ko'chib o'tish yo'llariga zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan rejadan oldingi, loyihadan oldingi va loyiha hujjatlari;

ov qilinadigan va (yoki) baliq ovlanadigan joylarni tashkil etish loyihalari;

yovvoyi hayvonlarni boshqa joyga ko'chitish, iqlimga moslashtirish va chatishdirish ishlarinining loyihalari;

yovvoyi hayvonlar va ularning yashash muhiti uchun xavfli bo'lgan o'simliklarni himoya qilish vositalari.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat ekologik ekspertizasi ekologik ekspertiza to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Hayvonot dunyosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat ekologik ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Demak, yuqoridagi barcha holatlar ov qilish va baliq ovlashni to'g'ri yo'lga qo'yishga qonuniy yordam beradi.

Hayvonot dunyosidan foydalanish huquqining bekor bo'lishi asoslari

Hayvonot dunyosidan foydalanish huquqini bekor qilishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Hayvonot dunyosidan foydalanish masalasi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Albatta, hayvonot dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish hollari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda beriladigan ruxsatnomalar asosida haq to'lash evaziga amalga oshirilishi ham mumkin.

Hayvonot dunyosini va uning yashash muhitini muhofaza qilish hamda undan foydalanishga oid asosiy talablarni buzish yoki uni bajarmaslik, unga e'tibor bermaslik hayvonot dunyosidan foydalanish huquqini bekor qilishga asos bo'лади.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishga oid asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- yovvoyi hayvonlarning tar bo'yicha xilma-xilligini va ular tabiiy galalatining hamda zotga oid turlarining bir butunligini tabiiy erkinlik holatida saqlab qolish;
- yovvoyi hayvonlarning yashash muhiti, urchish joylari va ko'chib o'tish yo'llarini saqlab qolish;
- yovvoyi hayvonlardan ogilona foydalanish, ularni tiklash va takror ko'paytirish;
- yovvoyi hayvonlarning sonini tartibga solish.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ma'lumotiga ko'ra, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi talablarni bajarish bo'yicha davlat nazoratini o'tkazish davomida atrof muhiti muhofaza qilish va tabiiyresurslardan ogilona foydalanish sohasidagi mavjud qonunchilikni buzganligi uchun jami 4800 nafar mansabdor va jismoniy shaxslarga tabiiy muhitga yetkazilgan zarari uchun 597,2 mln. so'm miqdorida ma'muriy jarima va da'volar kiritilgan.

Birokerlardan 144 ta quroq va 258 ta to'rt materiallari olib qo'yilgan Tergov organlariga 24 ta shaxs bo'yicha 24 ta material topshirilgan. Tabiatni muhofaza qilish qonunchiligidagi buzganlik uchun 68 nafar yuridik va 338 nafar jismoniy shaxslarga nisbatan 32,4 mln. so'm ma'muriy jarimalar solingan va 26,1 mln. so'mi yoki 80,5 foizi undirib olingan.

Demak, barcha hayvonot dunyosidan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar yuqoridaagi talablarga rivoja qilishi shart. Bundan tashqari hayvonot dunyosidan foydalanuvchi subyektilar mazkur Qonunda ko'rsatilgan bir qator talablarni bajarmasa, ya'ni hayvonot dunyosining holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan faoliyat ko'rsatsa, xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyatni amalga oshirish paytida yovvoyi hayvonlar kasallikka chalinishining va nobud bo'tishining oldini olish qoidalarini buzsa va talablarni amalga oshirinasa, hududni xo'jalik maqsadlarida o'zlashtirish paytida hayvonlarning yashash muhitini va ularning urchish sharoitlarini saqlashi tadbirlarini bajarmasa, yovveyi hayvonlarning ko'chib o'tish

yo'llarini, yashash va urchish joylarini saqlab qolish talab va qoidalarini bajarmasa, kamyon va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvon turlarini muhofaza qilish qoidalariga amal qilmasa yoki bezsa ham hayvonot danyosidan foydalanish huquqlari bekor qilinishi mumkin.

Hayvonot dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish huquqi quyidagilar asosida bekor qilinishi mumkin:

- hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanuvchining ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni bekor qilish to'g'risidagi arizasiga ko'ra;
- ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat qalbaki hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlanganda.
- hayvonot dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish huquqi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatib turiladi, tugatiladi yoki bekor qilinadi.

Qonun hujjatlarida hayvonot danyosidan foydalanish huquqini bekor qilish uchun boshqa asoslar ham nazarda tutilishi mumkin.

Hayvonot dunyosidan foydalanish hequqi ruxsatnomalaini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilish yo'li bilan tugatiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Hayvonot dunyosi bilan beg'liq bo'lgan munosabatlar serqinra bo'lib, bu boradagi munosabatlar faqat ekologik huquqning rasmiy manbalari bilan tartibga solinadimi yoki bo'lmasa, boshqa huquq sehalari bilan ham tartibga solinadimi, agarda tartibga solish obyektiga kiradigan bo'lsa, bu boradagi normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qiling.

2. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish chora tadbirlarini belgilaydigan "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonundan tashqari boshqa qaysi normativ-huquqiy hujjatlarda hayvonot dunyosini muhofaza qilishning huquqiy chora-tadbirlari belgilangan.

3. Fuqaro D.Aydarpo'latov yovvoyi o'raklarni ov qilish uchun belgilangan tartibda ruxsatnomasi olib, ov qilib qaytayetganda tabiatni muhofaza qilish organlar xodimlari tomonidan to'xtatilib, ov mabsuloti olib qo'yilib, unga u ov qilgan yovvoyi o'rak O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilganligini bildirib, bayonnoma tuzib belgilangan

miqdorda jarima solishgan. Lekin fuqaro D.Aydarpo'latov O'zbekiston Respublikasi hududida ov va batiq ovlash qoidalariiga ko'ra u ovlagan o'rak ovlash uchun ruxsat etilganligini bildirgan.

Ushbu vaziyatga huquqiy baho bering.

4. Fuqaro D.Omanquliyev ovga chiqib, bir kiyikni belgilangan tartibda ov qilib olib o'ldirganidan so'ng mazkur kiyik tarqaluvchanlik xususiyatga ega kasallik ekanligi aniqlandi. Kasallik boshqa hayvonlarga tarqalib ketmashigi uchun fuqaro D.Omanquliyev ov qilgan hayvoni yopib yubordi. Hayvon yonayotganda, yong'in sekin-astalik bilan yon atrofda bo'lgan daraxtni egallab, daraxtdagi olmaxoniar nobud bo'lgan.

Mazkur holat yuzasidan tabiatni muhofaza qilish organlar tomonidan surishtiruv ishlari olib borilib, fuqaro D.Omanquliyevga nisbatan qonuniy chora ko'rish kerakligi to'g'risida xulosaga keltingan.

Ushbu vaziyatga huquqiy baho bering.

16-BOB. MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNING HUQUQIY MAQOMI

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatining tushunchasi va xususiyatlari. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning asosiy turlari. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi qonunchilikni bazgarlik uchun javobgarlik.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatining tushunchasi va xususiyatlari

Bugungi kunda jamiyat va tabiatning o'zaro ta'sir muammolarini tobora katta ahamiyatga ega bo'lmoqda va hozirgi, shuningdek kelgusi avlodlarning farovonligi, umuman jahon sivilizatsiyasining taqdir ekologik muammolarning ijobiliy hal etilishiga ko'proq bog'liq bo'lib qolmoqda.

Ilmiy-texnika rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida keskin o'zgarib berayetgan atrof-muhit ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa hozir yer yuzida yashab turganlarnigina emas, balki kelgusi avlodlar salomatligiga, ayniqsa, yer, suv, atmosfera havosi, yer osti boyliklari, hayvonot va o'simliklar dunyosi, tabiat va tarixiy yodgorliklarning tabiiy holatiga ham salbiy ta'sir qilmoqda.

Yodda tuting! Mazkur masalaga O'zbekiston Respublikasi dastlab mustaqillikka erishgan paytidan boshlab e'tibor berdi va birinchilar qatorida 1993-yil 7-mayda O'zbekiston Respublikasining "Alohiда rauhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonunini qabul qildi. Shuningdek, 2004-yil 3-dekabrda esa yangi tahrirda "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Mazkur Qonun hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini ko'zlab noyob hamda ekologik, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, sanitariya-sog'lomlashish, estetik nuqtayı nazardan milliy boylik va umumxalq mulki bo'lmissi qimmatli tabiiy majmualarni muhofaza etishning umumiyligi, huquqiy, ekologik, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasida o'simiiklar va hayvonot dunyosini hamda davlat milliy tabiat bog'lari, davlat tabiat va tarixiy yodgorliklarini saqlab qolish ularning sonini ko'paytirish inson hayotini ekologik normal saqlashga, tabiat bilan jamiyat va inson o'rjasidagi ma'lum mutanesiblikni saqlashga katta yordam beradi.

**Hozirgi paytda respublikamizda
qe'riqlanadigan yerlarning umumiy
maydoni 2 million gektardan ortiq bo'lib,
alohida qo'riqlanadigan 11 tabiiy hududiy
obyekti, jumladan, 8ta qo'riqxona, 1ta
biosfera rezervati, 400dan ortiq tabiat
yodgorliklari mavjud.**

Demak, ana shuncha o'xshash alohida muhofaza etiladigan va boshqa tabiiy hududlar huquqiy muhofaza qilinmog'i lozim.

Shuni ta'kidlash joizki, respublikamizdag'i barcha muhofaza etiladigan tabiiy hududlar qonun bilan muhofaza qilinmog'i va huquqiy tartibga solinishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sehasidagi munosabatlar ushbu Qonundan, shuningdek yer, suv, o'rmon to'g'risidagi qonunlar, yer osti boyliklaridan foydalanish to'g'risidagi, atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi hamda atmosfera etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlari va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sehasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari bilan ham tartibga solib turiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining vazifalari tipik, noyob, qimmatli tabiiy

obyektlar va majmualarni, o'simliklar va hayvonlarning irlsiy fondini saqlab qolishdan, inson faoliyatining tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatishining oldini olishdan, tabiiy jarayonlarni o'r ganishdan, atrof tabiiy muhit monitoringini olib borishdan, ekologik ma'rifat va tarbiyani takomillashtirishdan iborat.

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar"ning ta'rifni va ularning huquqiy maqomi yuqorida nomi tilga olingan Qonunning 4-moddasida quyidagicha ko'rsatilgan.

Yerining va (yoki) suv kengliklarining (akvatoriyalarning) ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik bo'lgan, xo'jalik maqsadidagi doimiy yoki vaqtincha foydalanishdan to'liq yoki qisman chiqarilgan uchastkalari muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hisoblanadi.

Tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash maqsadida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda muhofaza qilish va foydalanish rejimi o'matiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar biologik, landshaft rang-barangligini ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlab turish uchun mo'ljallangan yaxlit ekologik tizimni tashkil etadi.

Tabiat rang-barangligini saqlab qolish, ekologik muvozanatni va biosfera monitoringini saqlab turishga, shuningdek shikast yetgan tabiiy majmualarni tiklashga mo'ljallangan yagona tizimni tashkil etuvchi O'zbekiston Respublikasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni xo'jalik maqsadida foydalanishdan to'liq yoki qismar, bir umrga yoki vaqtincha tortib olinishi mumkin.

Tabiiy zaxiralardan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir rejalar va dasturlar, yer tuzilishi va joylarni tekislash kesmalari hamda boshqa rejalarini ishlab chiqishda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hisobga olinadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning asosiy turlari

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar belgilangan maqsadi va rejimiga qarab quyidagi toifalarga bo'linadi: davlat qo'riqxonalari; majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari; tabiat bog'lari; davlat tabiat yodgorliklari; ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar; muhofaza etiladigan landshaftlar; ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat mulkidir va uning muhofazasidadir. Yer uchastkalari va boshqa tabiiy obyektlar xususiy

buyurtma qo'riqxonalar hamda tabiiy pitomniklarni tashkil etish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanishga berilishi mumkin.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarning qarorlari bilan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning boshqa toifalari ham nazarda tutilishi mumkin. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvini **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**, davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralari amalga oshiradi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududiardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratini O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-nuuhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi amalga oshiradi.

Vodda tuting!

O'zbekiston Respublikasi "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonuning 7-meddasiga asosan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yer uchastkalari tabiatni muhofaza qilish, sog'iomlashshtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar jami'asiga kiradi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yer uchastkalari va akvatoriya uchastkalarida mazkur hududlardan foydalanishning belgilangan maqsadiga zid har qanday faoliyat taqiqlanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan yoki ko'rsatishli mungkin bo'lgan faoliyatni cheklash yoki taqiqlash uchun yer uchastkalarini saqlash vazifasi belgilanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etishda yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini cheklash yoki tugatish tufayli ularga yetkazilgan zararning o'mi qonun hujjalariiga muvofiq qoplanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan va o'rmon fondidagi yerlar ajratib berilganda qishloq xo'jaligi hamda o'rmon xo'jaligi ishlab chiqarishi ko'radigan zarar va talafotlarning o'mi qoplanmaydi.

Ahamiyat bering!

Davlat qo'riqxonalarining, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bog'larining, davlat tabiat yodgorliklarning, buyurtma qo'riqxonalarining (ovchilik xo'jaliklarda tashkil etilgan buyurtma qo'riqxonalar banda, mustasno), tabiiy pitomniklarning yer uchastkalariga soliq solinmaydi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda xo'jalik faoliyat yuritilayotgan bo'lsa, yet solig'i nudiriladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yishga alohida hollarda yo'l qo'yiladi.

Yuridik va jismoniy shaxslar davlat tabiat yodgorliklarini, buyurtma qo'riqxonalarini, tabiiy pitomniklarni muhofaza qilish bo'yicha zimmalariga yaklatilgan inajberiyatlar bajarilishini ta'minlamagan taqdirda ular egallab turgan yer uchastkasi olib qo'yilishi mumkin.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yer uchastkalari hamda akvatoriya uchastkalarini muhofaza qilish, ulardan foydalanish va ularni olib qo'yish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va joylashtirishning bosh kesmasini yoki davlat hokimiyati mahalliy idoralari tabiatni muhofaza qilishning idoralari tabiatni muhofaza qilishning hududiy majmui kesmasini tasdiqlashi bilan ayni bir vaqtda muhofaza etishga tavsiya etilayotgan yer maydonini zaxiralash to'g'risida qaror qabul qilinadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hudud tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilinganiga qader mazkur hududda yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning xo'jalik faoliyati cheklanadi yoki to'xtatiladi. Bunday hollarda yer egalari va yerdan foydalanuvchilar xo'jalik faoliyatining cheklanishi yoki to'xtatilishi tufayli qishloq xo'jaligi va o'immon xo'jaligi ishlab chiqarishida ko'rtilgan yo'qotish va talafotlar uchun tovon olish huquqiga egadirlar hamda ye'solig'i bo'yicha imtiyozlardan foydalanadilar.

Ta'kidlash joizki, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning davlat kadastri ham katta ahamiyatga ega. Ushbu masala mazkur Qonunda yetarlicha o'z aksini topgan.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning davlat kadastri bu hududlarning huqnqiy maqomi, ularning jug'rofiy mavqeyi, miqdor va sifat ko'rsatkichlari, ekologik, ilmiy, ma'rifiy va boshqa xil ahamiyatini qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlari davlat kadastri mazkur hududlar tarmog'ini rejalashtirish, ularni muhofaza etishni ta'minlash va ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, tegishli qoidaga rioya etilishi ustidan davlat nazorati darajasini oshirish, shuningdek ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishni rejalashtirish chog'ida bu hududlar o'rni va ahamiyatini hisobga olish maqsadida yuritiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning davlat kadastri Respublika budjeti hisobidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan yagona tizim asosida yuritiladi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning davlat kadastrini yuritishni O'zbekiston Respublikasi

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining idoralari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan birqalikda amalga oshiradi.

**"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar
huquqiy holatining" quyidagi
xususiyatlari mavjud:**

Uning yangi ijtimoiy tuzam, bozor munosabatlarini mustahkamlash va ekologik siyosatni barqarorlashtirish uchun yangi huquqiy ekologik zamin bo'lib, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ularni huquqiy tartibga solishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi bilan;

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy holatini o'rghanish va u fo'g'tisidagi qonun davlat qo'riqxonalari, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari, tabiat bog'lari, davlat tabiat yodgorliklari, ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljalangan hududiar, muhofaza etiladigan landshaftlar, ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljalangan hududlar va boshqa masalalarni hamda u bilan bog'liq barcha munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishi bilan;

U O'zbekiston Respublikasi Keastitutsiyasining qo'ygan talabiga mosligi, konstitutsiyaviy ustuvorlikka ega ekanligi hamda davlat temonidan muhofaza etilishi;

Mazkur sohani buquqiy tartibga solish, bozor iqtisodiyotida qabul qilingan ekologik qonunlarni qo'llash va ular bilan birlgilikda ekologik muhitni yaxshilashga, tabiat obyektlaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga, avniqsa, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni saqlashga;

Ushbu soha fuqarolarimizdan shu kungi hayot talabi asosida ekologik huquqiy ma'naviyat va inadaaniyatli bo'lishni hamda ushbu yo'nalishda doim yuksalish bo'lishini taqozo qilishi va boshqqa xususiyatlari bilan alchida ay'alib turadi.

A) davlat qo'riqxonalari va ularning huquqiy tartibi

O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish ularning nodir va tugab borayotgan turlarini saqlab qolish, sonini ko'paytirishda davlat qo'riqxonalari, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari, tabiat bog'lari, ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlarining ahamiyati kattadir.

Yodda tuting!

Hozirda Respublikamizda "Jayron" ekologik markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Qo'riqlanadigan yerlarning umumiy maydoni 2 million gektardan ortiq. Respublikamizda alohida qo'riqlanadigan 11 tabiiy-hududiy obyekt, shu jumladan 8 qo'riqxonalar bo'lib, uchtasi tog'da, uchtasi daryo qayridagi to'qayda va ikkitasi cho'l landshaftlarida joylashgan. Bular: Chotqol tog'-o'tmon, Zomin, Qizilqum, Nurota, Zarafshon, Hisor, Vardaazi, Ko'hitangtog'. Kitob qo'riqxonalariidir. Bu qo'riqxonalarda bioekologik tadqiqo'llar olib boriladi.

Ta'kidlash joizki, davlat qo'riqxonalarining ta'rifi va vazifalari O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonanida aniq ko'rsatib berildi.

Mazkur Qonunning 18-moddasiga asosan:

Tabiiy obyektlar va majmualarni muhofaza qilishning qattiq rejimiga ega bo'lgan, tipik ekologik tizimlar, o'sirnliklari va hayvenlarning irtisy fondini saqlab qolish hamda o'tganish uchun mo'ljalangan, tabiiy jarayonlar va hodisalar o'zgarishi ustidan monitoring o'tkazish maqsadini qo'ygan tabiatni muhofaza etivchi ilmiy-tadqiqot muassasalari umum davlat ahamiyatiga molik muhofaza etiladigan tabiiy hududlari davlat qo'riqxonalari hisoblanadi.

Davlat qo'riqxonalari maxsus vakolati davlat organining taqdimnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan davlat tabiatni muhofaza qilish ilmiy-tadqiqot muassasasi shaklida tashkil etiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan nizom asosida faoliyat ko'rsatadi.

Davlat qo'riqxonalarining hududida har qanday faoliyat taqiqlanadi, ilmiy-tadqiqot faoliyati va atrof tabiiy muhit monitoringini yuritish bundan mustasno. Davlat qo'riqxonalarida yong'inga qarshi tadbirlar o'tkazilishiga yo'l qo'yiladi.

Davlat qo'riqxonalari hududida hamda ularning qo'riqlama zonalarida tirik organizmlarning yangi va kenja turlarini iqlimlashtirish maqsadida joylaskitirish taqiqlanadi.

Davlat qo'riqxonalarining yoki ular qaysi davlat organlarining tasarrufida bo'lsa, shu davlat organlarining xodimi hisoblanmaydigan fuqarolarning davlat qo'riqxonalari hududida bo'lishiga ularda ana shu organlar yeki davlat qo'rixonasi ma'muriyati bergan ruxsatnomasi bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Davlat qo'riqxonalarida ilmiy tadqiqotlar bunday qo'riqxonalar shtatidagi ilmiy xodimlar tomonidan o'tkaziladi. Shartnema asosida boshqa ilmiy tashkilotlar va mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

Davlat qo'riqxonalarida olimlar kengashlari (ilmiy kengashlari) tuziladi.

Davlat qo'riqxonalarida atrof tabiiy muhit monitoringi yuritilishi shart.

Davlat qo'riqxonalaridagi ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalari, agar ular O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining va tabiatni muhofaza qilish

fondlarining mablag'larini hisobiga olingan bo'lса, davlat mulki hisoblanadi. Yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini hisobiga olingan ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo'lgan mulk huquqi davlat qo'riqxonalari bilan mazkur shaxslar o'rtaida tuzilgan shartnoma bilan belgilanadi. Davlat qo'riqxonaiari ilmiy-tadqiqot faoliyatiga natijalaridan tekin foydalanadi. Davlat qo'riqxonalarining tabiiy obyektlari va majmualari holat: to'g'risidagi ilmiy axborot e'lon qilinishi kerak. Davlat qo'riqxonalarini o'z matbuot nashrlariga ega bo'lishi mumkin.

Davlat qo'riqxonalarining ilmiy fondlari muddatsiz saqlanishi kerak. Davlat qo'riqxonalarining ilmiy tadqiqotlarini muvofiqlashtirib borishni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi amalga oshiradi.

Alovida ekologik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualarni asl holatida saqlash uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarini hisoblanadi.

Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonaiari maxsus vakolatli davlat organining taqdininomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan davlat tabiatni muhofaza qilish muassasasi shaklida tashkil etiladi.

Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarini bunday qo'riqxonalar to'g'risidagi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomenidan tasdiqlanadigan nizom asosida faoliyat ko'rsatadi.

Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarini hududida har qanday faoliyat taqiqlanadi, ilmiy-tadqiqot, rekreatsiya faoliyati, atrof tabiiy muhit monitoringini yuritish, shuningdek pichan o'tish va eberva mellor o'tlatish, yovvoyi o'simliklarni oziq-ovqat maqsadlari uchun, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarini xodimlarining va mazkur qo'riqxonalarining qo'riqlanma zonalarida yashovchi fuqarolaraning o'z ehtiyojlari uchun yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarning dorivor va texnik xemashyosini tayyorlash (yig'ish) bundan mustasno.

Har bir qo'riqxona qaysi idoraning tasarrufida bo'lса, shu idora O'zbekiston Respublikasi Eko logiya va atrof-muhimi muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan kelishib turib tasdiqlaydigan Nizom asosida faoliyat ko'rsatadi.

Amaliyotda davlat qo'riqxonalarining maqomi va mablag'lari masalasi katta ahamiyatga egadir. Yuqorida nomi zikr etilgan Qonun ashbu masalaga quyidagicha e'tibor beradi.

Davlat qo'riqxonalarini, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarini hamda tabiat bog'lari quyidagilar hisobidan moliyalashtiriladi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;

- tabiatni muhofaza qilish fondlari mablag'lari;

- iirmiy-tadqiqot, tabiatni muhofaza qilish, reklama-noshirlik va ma'rifiy faoliyatidan keladigan daromadlar;

-- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga yetkazilgan zararning o'mini qoplashga qaratilgan tushumlar,

-- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini buzganlik uchun undirilgen jarima pullari,

-- musodara etilgan ovchilik qurollari va baliqchilik asboblarini realizatsiya qilishdan, qonunga xilof ravishda qo'lga kiritilgan o'lja mahsulotini sotishdan tushgan pullar;

- yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya yordamlari;

- qonin hujjalarda taqiqlanmagan boshqa tushumlar.

Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarini va tabiat bog'lari ixtiyoriga yuqorida ko'rsatilgan mablag'lardan tashqari fuqarolarning muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga kirib chiqishi va tabiiy resurslardan foydalanish uchun ruxsatnomalar berishdan, rekreatsiya, turistik-ekskursiya yo'nalishidagi va qonan hujjalarda yo'i qo'yiladigan boshqa faoliyatdan kelgan daromadlar ham beriladi

Davlat buyurtma qo'riqxonalarini, davlat tabiat yodgorliklarini tashkil etish, muhofaza qilish va ulardan foydalanish uchun mablag'lar mazkur muhofaza etiladigan tabiiy hududlar qaysi mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat organlari tasarrufida bo'lsa, shu mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat organlari tomonidan ajratiladi

Xusesiy buyurtma qo'riqxonalar va tabiiy pitomniklar qaysi yuridik va jismoniy shaxslarning tasarrufida bo'lsa, shu yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga yetkazilgan zararning o'mini qoplashga qaratilgan tushumlardan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini buzganlik uchun undirilgen jarima pullaridan, fuqarolarning muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga kirib chiqishi va tabiiy resurslardan foydalanish uchun ruxsatnomalar berishdan tushgan mablag'lardan, rekreatsiya, turistik-ekskursiya yo'nalishidagi va boshqa faoliyatdan kelgan daromadlardan, yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya yordalaridan tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun foydalaniлади

Ilmiy tadqiqotlarni yo'liga qo'yish va o'tkazish uchun davlat qo'riqxonalari o'z ilmiy xodimiar shati bilan ta'minlanadi.

Ilmiy tadqiqotlar, shuningdek chet ilmiy tashkilotlarni va ayrim mutaxassislarini jalb etish yo'li bilan ham o'tkazilishi mumkin. Davlat qo'riqxonalarida olimlar kengashi (ilmiy kengash) tuziladi.

"Tabiat solnomasi"ni yuritish barcha davlat qo'riqxonalari uchun majburiydir. Davlat qo'riqxonalating ilmiy jamg'armalarini saqish muddati chegaralanmaydi. Davlat qo'riqxonalariga ilmiy asarlarni nashri etish huquqi beriladi.

Davlat qo'riqxonalarining ilmiy tadqiqotlarini O'zbekiston Respublikasining Fanlar Akademiyasi muvosiflashtirib boradi.

B) tabiat bog'lari va ularning huquqiy tartibi

Ekologik, madaniy va estetik qimmatga ega bo'lgan alohida tabiy obyektlar va majmualarni tabiatni muhofaza qilish yo'nalishidagi, rekreatsiya, ilmiy va madaniy maqsadlarda saqlab qolish hamda ulardan foydalanish uchun mo'ljalangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tabiat bog'lari hisoblanadi.

Yodda tuting!

Tabiat bog'lari maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasiga binoan tegishinchcha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari bilan davlat tabiatni muhofaza qilish muassasasi shaklida tashkil etiladigan **milliy tabiat bog'lari** va **mahalliy ahamiyatga molik tabiat bog'lari** bo'linadi.

Tabiat bog'lari bunday bog'lar to'g'risidagi, ular qaysi davlat organlarining tasarrufida bo'lsa, shu davlat organlari tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar asosida faoliyat ko'rsatadi.

Tabiat bog'larining hududi tabiat bog'lariiga foydalanishga berib qo'yiladigan yer uchastkalarida, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning tabiat bog'lari chegaralari doirasidagi yer uchastkalarida joylashadi.

Tabiat bog'lari tashkil etilayotganda ularning hududi zonalarga bo'linadi.

Tabiat bog'larining hududida qo'riqxonaga aylantirilgan zonalat, rekreatsiya, xo'jalik maqsadida va boshqa tarzda foydalanish zonalari ajratib qo'yiladi.

Aholini sog'iomlashtirish uchun sharoit bo'lgan taqdirda tabiat bog'larida kurort tabiiy hududlar uchun nazarda tutilgan rejimli kurort zonalar ajratib qo'yiladi.

Tabiat bog'lar zonalarining o'lchamlari va chegaralarini o'zgartirish, ular qaysi davlat organiarining tasarrufida bo'lsa, shu organlar tomonidan davlat ekologiya ekspertizasi xulosasini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Tabiat bog'lar iuondida zonalarga bo'linishiga muvosiq tabaqalashtirilgan rejim o'matiladi.

Tabiat bog'larining qo'riqxonaga aylantirilgan zonalarida davlat qo'riqxonalar uchun nazarda tutilgan rejim o'matiladi.

Tabiat bog'larining rekreaschiya zonalari tabiiy obyektlar va majmualarning holatiga qarab turli rejimli uchastkalarga bo'linishi mumkin.

Tabiat bog'larining xo'jalik maqsadida va boshqa tarzda foydalanish zonalarda aholining istiqomat qilishiga, yuridik va jismoniy shaxslarning tabiiy obyektlar va majmualarga zarar yetkazmaydigan faoliyatiga yo'l qo'yiladi.

Har bir zonaning rejimi tabiat bog'lar to'g'risidagi nizomlarda belgilanadi.

Vodda tuting!

Tabiat bog'larining hududida quyidagilar taqiqlanadi:

- Daraxt va butalarni kesish (parvarishlash yo'snidagi va sanitariya maqsadidagi kesish bundan mustasno);
- gidrologik va hidrogeologik rejimni o'zgartiradigan harakatlar;
- tuproq eroziyasini, o'simlik va hayvonot dunyosining tanazzulini keltirib chiqeruvchi harakatlar;
- tabiat bog'larining faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan yo'l va muhandislik-kommunikatsiya ishlarini amalga oshirish;
- chiqindilarni saqlash va ko'mish, oqova suvlarni oqizish;
- tirik organizmlarning yangi va kenja turlarini iqlimlashtirish maqsadida joylashtirish.

Tabiat bog'larida tabiiy obyektlar va majmualarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan faoliyatning beshqa turlari ham cheklanishi yoki taqiqianishi mumkin.

Tabiat bog'larining faoliyat ko'rsatishi uchun yo'llar, boshqa kommunikatsiyalar va inshootlar qurilishi zatur bo'lgan hollarda baxilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, barcha tabiatni muhofaza qilish yo'nalishidagi tadbirlarni amalgaga oshirish, albatta, nazarda tutildi.

D) davlat tabiat yodgorliklari

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan respublika hududida bit nechta tabiat yodgorligi hisobga olingan. Jonsiz tabiat yodgorliklari orasida xilma-xil karst relyefi shakllari, shu jumladan arxeologik ahamiyatga ega bo'lgan g'orlar va ungurlar, shuningdek nodit buoqlar, sharsharalar, ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan qoyalar va geologik ochilmalarini muhofaza qilish muhim vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, yer osti landshaftlari, ularning betakror, sehtli va mafsurkor manzaralari jiddiy muhofazaga muhtojdir.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrdagi qabul qilingan "Muhofaza etiladigan tabiiy hududiar to'g'risida"gi Qonunida VI bo'lim 26-modda aynan ana shu masalaga, ya'ni tabiat yodgorliklarining huquqiy-ekologik ahamiyati va ulami muhofaza qilish masalasiga bag'ishlangan.

Zero, respublikamiz hududidagi tabiat, tarixiy va arxeologik yodgorliklar hozirgi paytda aynan muhofaza qilinishinga, tikianish (restavratsiya)ga juda muhtoj.

Noyob, o'rnni to'ldirib bo'lmaydigan, ekologik, ilmiy, madaniy va estetik jihatdan qimmatli tabiiy obyektlari bor, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar **davlat tabiat yedgorliklari** hisoblanadi.

Davlat tabiat yodgorliklari quyidagi turlarga bo'linadi:

tabiiy suv obyektlarini saqlab qolish uchun mo'ljallangan hidrologik (botqoq, ko'l, daryo va boshqa) yodgorliklar

ayrim o'simliklarni saqlab qolish uchun mo'ljallangan botanik yodgorliklar

tabiat yaratgan relyef shakllarini saqlab qolish uchun mo'ljallangan geomorfologik yodgorliklar

gazilma obyektlarni saqlab qolish uchun mo'ljallangan paleontologik yodgorliklar

geologik va mineralogik hosilalarni saqlab qolish uchun mo'ljallangan geologik va mineralogik yodgorliklar.

Tabiiy obyektlar maxsus vakolatlari davlat organining taqdimnomasi, shuningdek yuridik yoki jismoniy shaxslarning iltimosnomasi bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan davlat tabiat yodgorliklari deb e'lon qilinadi.

Tabiiy obyektlarni ular joylashgan yer uchastkalarini olib qo'ymanan holda davlat tabiat yodgorliklari deb e'lon qilishga yo'l qo'yiladi.

Davlat tabiat yodgorliklari hududida ularning astrarishiga xavf seladigan har qanday faoliyat taqiqlanadi.

Davlat tabiat yodgorliklari qaysi yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalarida joylashgan bo'lsa, shu yuridik va jismoniy shaxslar zimmasiga bunday yodgorliklarning rejimini ta'minlash majburiyatları yekati tiladi.

Diniy maqsadiatda foydalaniadigan davlat tabiat yodgorliklari diniy tashkilotlarga yoki jismoniy shaxslarga bunday yodgorliklarni obodonlashtirish va asrash ishlarini amalga oshirish sharti bilan foydalanshga yoki ijara berilishi mumkin.

E) ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar

O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonunida mazkur masalaga alohida e'tibor berilib, Qonunning VII bo'lim 29-34-moddulari ayni shu masalalarni o'z ichiga olgan.

Ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar buyurtma qo'riqxonalar, tabiiy pitomniklar va baliq xo'jaligi zonalari tariqasida tashkil etiladi.

Ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar *buyurtma qo'riqxonalar* hisoblanadi.

Buyurtma qo'riqxonalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- | | |
|----------------------|--|
| Yodda tuting! | <p>– O'simliklar va hayvonlarning qimmatli, noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan terlarini, titik organizmlarning ko'chib o'tish yo'llarini saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan biologik (botanik, zoologik) buyurtma qo'riqxonalar;</p> <p>– ayrim qazilma obyektlar va ularning majmualarini saqlab qolish uchun mo'ljallangan paleontologik buyurtma qo'riqxonalar;</p> <p>– qinumatlari suv obyektlarini saqlab qolish uchun mo'ljallangan hidrologik (botqoq, ko'l, daryo) buyurtma qo'riqxonalar;</p> <p>– nodir geologik va mineralogik hosilalarni saqlab qolish uchun mo'ljallangan geologik va mineralogik buyurtma qo'riqxonalar.</p> |
|----------------------|--|

Buyurtma qo'riqxonalar umum davlat yoki mahalliy ahamiyatga molik bo'lishi mumkin.

Umum davlat ahamiyatiga molik buyurtma qo'riqxonalar maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasi, shuningdek yuridik yoki jismoniy shaxsiarning iltimosnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etiladi.

Mahalliy ahamiyatga molik buyurtma qo'riqxonalar maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasi, shuningdek yuridik yoki jismoniy shaxsiarning iltimosnomasiga binoan mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan tashkil etiladi.

Buyurtma qo'riqxonalar faoliyat muddatları ko'rsatilmagan holda (muddatsiz) yoki kamida o'n yil muddatga tashkil etiladi.

Buyurtma qo'riqxonalar davlatga qarashli yoki xususiy bo'lishi yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki yuridik shaxs tashkil etmagan holda bo'lishi mumkin.

Xususiy buyurtma qo'riqxonalarini va yuridik shaxs tashkil etgan holdagi davlat buyurtma qo'riqxonalarini tashkil etish uchun yer uchastkalari va ayrim tabiiy obyektlar belgilangan tarjibda beriladi.

Buyurtma qo'riqxonalarining hududida, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarini istisno etganda, ayrim tabiiy obyektlar va majmualarga zarar yetkazishi mumkin bo'lган har qanday faoliyat doimiy ravishda yoki vaquincha cheklanadi yoki tegatiladi.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi davlat buyurtma qo'riqxonalarini joylashgan hududlar yer egalarining, yerdan foydalanuvchilarining, shuningdek yer uchastkalari ijarchilari va mulkdorlarining xo'jalik maqsadidagi foydalanishidan olib qo'yilmaydi. Mazkur buyurtma qo'riqxonalar qaysi yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalarida va (yoki) akvatoriya uchastkalarida tashkil etilgan bolsa, shu yuridik va jismoniy shaxslar buyurtma qo'riqxonalarining belgilangan rejimiga noya etishlari shart.

Har bir buyurtma qo'riqxonasi rejimining xususiyatlari, mazkui buyurtma qo'riqxonasi qaysi davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tasarrufida bolsa, shu davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tasdiqlanadigan nizomda belgilanadi.

Tabiiy pitomniklar yuridik yoki jismoniy shaxslarning iltimosnomasiga binoan mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan tashkil etiladi.

O'simliklar va hayvonlarning ayrim turlariga zarur sharot yaratish yo'li bilan ularni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljalangan, muhofaza etiladigan tabiiy hududler **tabiiy pitomniklar** hisoblanadi.

Tabiiy pitomniklar davlatga qatashli yoki xususiy yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki yuridik shaxs tashkil etmagan holda bo'lishi mumkin.

Xususiy tabiiy pitomniklarni va yuridik shaxs tashkil etgan holdagi davlat tabiiy pitomniklarini tashkil qilish uchun yer uchastkalari va ayrim tabiiy obyektlar belgilangan tartibda beriladi.

Tabiiy pitomnik qaysi o'simliklar va hayvonlar uchun mo'ljallangan bo'lsa, shu pitomnikning hududide shu o'simliklar va hayvonlarning saqlab qolinishi, takror ko'paytirilishi va tiklanishiga xavf soladigan har qanday faoliyat taqiqланади.

Suv obyektlarini yoki ularning qismlarini o'z ichiga oladigan, novob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan baliqiar va boshqa suv organizmlari turlarini saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun, shuningdek baliq xo'jaligi ehtiyojlari uchen foydalaniladigan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar *baliq xo'jaligi zonalari* hisobланади.

Baliq xo'jaligi zonalari tabiatni muhofaza qilish, qishloq va suv xo'jaligi organlarining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etiladi.

Baliq xo'jaligi zonalarida baliqiar va boshqa suv organizmlarining saqlab qolinishi, takror ko'paytirilishi va tiklanishiga xavf soladigan har qanday faoliyat taqiqланади.

F) Muhofaza etiladigan landshaftlar

O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonunida mazkur masalaga alohida e'tibor berilib, VIII bo'lim 35-41-moddalari aynaa shu masalalarni o'z ichiga olgan.

Kurort tabiiy hududlar, rekreatsiya zonalari, suvni muhofaza qilish zonalari, sohil bo'yli mintaqalari, suv obyektlarining sanitariya muhofazasi zonalari, yer osti va yer osti suvlarinining hosil bo'lish zonalari muhofaza etiladigan landshaftlar jumlasiga kiradi.

Yoddla tuting!

Davolash va sog'limlashtirish xossalariiga, mineral manbalarga, shifobaxsh balchiq qatlamlariga, qulay iqlim va boshqa sharoitlarga ega, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar *kurort tabiiy hududlar* hisoblanadi.

Kurort tabiiy hududlar umum davlat va mahalliy ahamiyatga molik bo'lishi mumkin.

Umum davlat ahamiyatiga molik kurort tabiiy hududlar O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Seg'hqni saqlash vazirligining birgalikdagi taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etiladi.

Mahalliy ahamiyatga molik kurort tabiiy hududlar O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining birgalikdagi taqdimnomasiga binoan mahalliy davlat hokimiyyati erganlarining qarorlari bilan tashkil etiladi.

Kurort tabiiy hududlar uchta zonaga bo'linadi:

Birinchi zonaga davolash xossalariiga ega manbalar, shifobaxsh balchiq qatlamlari boi hududlar kiradi. Bunday zonada har qanday faoliyat taqiqlanadi, davolash xossalariiga ega manbalar va balchiq bilan davolash shifoxonalarini obodonlashtirish uchun zarur inshootlar qurish bundan mustasno.

Ikkinci zonaga sanatoriylar, pansionatlar va dam olish uylarining hududlari kiradi. Bu zonada davolash va dam olishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan faoliyatni istisno etganda har qanday faoliyat, shuningdek bu bududda vaqtincha istiqomat qiladigan tibbiyet xodimlari va xizmat ko'satuvchi xodimlardan tashqari boshqa aholining yashashi taqiqlanadi.

Uchinchi zonaga sanatoriylar, pansionatlar va dam olish uylariga tutash hududlar kiradi. Bu zonada davolash manbalariga, shifobaxsh balchiq qatlamlariga zarar yetkazmaydigan va dam olish hamda davolanish sharoitiarini yomonlashtirmaydigan cheklangan xo'jalik faoliyati yuritishga ruxsat etiladi.

foydali qazilinalarni qazib olish, mineral suvlari va shifobaxsh balchiq qazib olish bundan mustasno;

kimyo, selyulloza-qog'oz va metallurgiya sanoati korxonalarining faoliyati;

daraxt va butalarni kesish (parvarishlash yo'sinidagi va sanitariya maqsadidagi kesish bundan mustasno),

zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash;

harom o'igan chorva mollar ko'miladigan joylarni tashkil etish;

zaharli kimyoviy moddalar va mineral o'g'itlar omborlarini qurish;

chiqindilarni saqlash va ko'mish;

joyning gidrologik rejimini o'zgartirish.

Kurort tabiiy hududlar deirasida quyidagilar taqiqlanadi:

Turizm va aholining ommaviy dam olishini tashkil etish uchun qulay jug'rosiy va iqlim sharoitlariga ega, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar *rekreatsiya zonalari* hisoblanadi.

Rekreatsiya zonalari O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining birqalikdag'i taqdimmo'masiga binoan mahalliy davlat kokimiyati organlarining qarorlari bilan tashkil etiladi.

Rekreatsiya zonalari tabiiy obyektlar va majmualarning holatiga qarab turli rejimga ega uchastkalarga bo'linishi mumkin.

Rekreatsiya zonalarida quyidagilar taqiqlanadi:

kimyo, selyulloza-qog'oz va metallurgiya sanoati korxonalarining faoliyati;

daraxt va butalarni kesish (parvarishlash yo'sinidagi va sanitariya maqsadidagi kesish bundan mustasno),

zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash;

harom o'igan chorva mollar ko'miladigan joylarni tashkil etish;

chiqindilarni saqlash va ko'mish.

joyning gidtologik rejimini o'zgartirish.

zig'ir, kanop va teri yuvish.

Sohil bo'yı mintaqalarida ushbu muddaning birinchi qismida nazarda tutilgan cheklashlar va taqiqlardan tashqari quyidagilar taqiqlanadi:

mineral va organik o'g'itlarni qo'llanish;

chorva moilarni o'tlatish;

har qanday turdag'i qurilish, suv xo'jaligi obyektlarini qarish bundan mustasno;

belgilaomagan joylarda qayiqlar bog'lab qo'yiladigan joylar tashki etish.

Suv obyektlarining sanitariya muhofazasi zonalari turli rejimli muhofaza mintaqalariga bo'linadi.

Daryo o'zanlarini o'zgartirish, foydali qazilmalar qazib olish va suv obyektlari holatiga ta'sir qiladigan boshqa ishlarni bajarishga faqat tabiatni muhofaza qilish, qishloq va suv xo'jaligi organlarining, shuningdek geologiya tashkilotlarining ruxsatnomasi bilan yo'l qo'yiladi.

Aholi punktlari hududida xo'jaliklararo yer tuzish va rejalashtirish o'tkazilayotganda suvni muhofaza qilish zonalarining, sohil bo'yı mintaqalarining va suv obyektlari sanitariya muhofazasi zonalarining chegaralarini o'zgartirish tabiatni muhofaza qilish, qishloq va suv xo'jaligi organlari hamda sanitariya nazorati organlari bilan kelishib olinishi lozim.

Suvni muhofaza qilish zonalari va sohil bo'yı mintaqalari rejimi yet ust'i va yer osti suvlarining hosil bo'lish zonalariga ham tatbiq etiladi.

Suvni muhofaza qilish zonalari, sohil bo'yı mintaqalari, suv obyektlarining sanitariya muhofazasi zonalari hamda yet ust'i va yer osti suvlarining hosil bo'lish zonalarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish tartibi hamda shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar

O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonunida mazkur masalaga alohida e'tibor berilib, Qonunning IX bo'lim 42–43-moddalari aynan shu masalalarni o'z ichiga olgan.

O'rmon fondining eroziyaga qarshi barpo etilgan o'rmonlar, shahar o'rmonlari, shaharlarning, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining yashil mintaqalari atrofidagi o'rmonlar, alohida qimmatli o'rmonlar, yong'oqzorlar, mevali daraxtzorlar, ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga motik o'rmonlar egallagan yerdari, shuningdek ovchilik xo'jaliklarining o'simlik

va hayvonot dunyosidan oqilona foydalanish uchun mo'ljallangan yer uchastkalari ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududiar jumlasiga kiradi.

Ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlarda tirik organizmlarning yangi va kenja turiarini iqlimlashtirish maqsadida joylashtirish hamda o'simlik va hayvonot dunyosiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa faoliyat taqiqlanadi

Ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlarda o'simlik va hayvonot dunyosidan qonun hujjatlarida belgilangan tattibda foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Shuningdek, hududlarni barqator iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish maqsadida *davlat biosfera rezervatlari* - biologik rang-baranglikni saqlash, tabiiy obyektlar va majmualardan oqilona foydalanish uchun mo'ljallangan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etilishi mumkin. Davlat biosfera rezervatlari xalqaro biosfera rezervatlari tarinog'iga qo'shilishi va atrof tabiiy muhitning global monitoringida ishtirok etishi mumkin.

Davlat biosfera rezervatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qareri bilan tashkil etiladi.

Davlat biosfera rezervatlarining hadudlari davlat biosfera rezervatlariga foydalanishga beriladigan yer uchastkalarida, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning davlat biosfera rezervatlari chegaralari doirasidagi yer uchastkalarida joylashadi.

Davlat biosfera rezervatlari hududida qoyidagilar ajratib qo'yiladi:

tabiiy obyektlar va majmualarni asl holatida saqlab qolish uchun mo'ljallangan, davlat qo'riqxonalari uchun nazarda tutilgan rejimli qo'riqxonaga aylantirilgan zona;

tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan, qo'riqxonaga aylantirilgan zonaga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyat taqiqlanadigan oraliq zona;

davlat biosfera rezervatlarining tabiiy obyektlari va majmulariga zarar yetkazmaydigan xo'jalik maqsadidagi va boshqa tarzdagi faoliyatni amalga oshirish uchun mo'ljallangan zona.

Davlat biosfera rezervatlarining rejimi bunday rezervatlar to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, ikki va undan ortiq davlat hududida joylashgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar *davlatlararo muhofaza etiladigan tabiiy hududlar* hisoblanadi.

Davlatlararo muhofaza etiladigan tabiiy hududlar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida tashkil etilishi mumkin. Davlatlararo muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq belgilanadi.

Davlat qo'riqxonalari, buyurtma qo'riqxonalari va davlat tabiat yodgorliklari bilan chegaradosh hududlar *qo'riqlanma zonalar* hisoblanadi. Qo'riqlanma zonalarda ana shu muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga salbiy ta'sirning oldini olish uchun xo'jalik maqsadidagi va boshqa tarzdagagi faoliyat cheklanadi yoki taqiqlanadi.

Qo'riqlanma zonalarning o'lchamitari va rejimi, shuningdek yer uchastkalarini saqlash vazifasi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish bilan bir vaqtida belgilanadi.

Davlat qo'riqxonasi qo'riqlanma zonasining bit qismi ekologik turizmni tashkil etish, mazkur hudud uchun xos bo'lgan noyob hamda yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simliklar va hayvonlaraing turlarini ko'paytirish maqsadida tabiiy pitomniklar barpo etish uchun hanida qo'riqxonaning boshqa ehtiyojlari uchun shu qo'riqxonaning o'ziga topshirilishi mumkin.

Alovida ekologik, ilmiy madaniy va estetik ahamiyatga ega bo'lgan, o'simliklarning noyob va qimmatli, shu jumlada manzarali turlarini saqlab qolish, takror ko'paytirish va tabiatni muhofaza qilish, rekreatsiya, ilmiy va madaniy maqsadiarda oqilona foydalanishga mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar milliy bog'lardir. Milliy bog'lar yer uchastkalarida o'simlik dunyosini qayta tikiash va takror ko'paytirish, shu jumladan kompleks agrotexnik tadbitlar o'tkazish yo'lli bilan tuzilishi mumkin. Milliy bog' hududida yashaydigan hayvonot dunyosi mazkur hudud ekologik tizimining tarkibiy qismidir.

Milliy bog'lar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etiladi.

Milliy bog'ru boshqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkaması tomonidan tashkil etiladigan direksiya tomonidan amalga oshiriladi.

Milliy bog'lar bunday bog'lar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkaması tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar asosida faoliyat ko'rsatadi.

Yer uchastkalari qonun hujjatlerida belgilanadigan tartibda barcha tabiiy resurslari bilan birga xo'jalik foydalanuvidan olib qo'yiladi va milliy bog'larga doimiy foydalanish uchun beriladi.

Milliy bog'ning o'simlik va hayvonot dunyosi saqlab qolinishini ta'minlash uchun unga tutash hududlarda milliy bog' to'g'risidagi nizomga muvofiq qo'riqlanma zonalar tashkil etilishi mumkin.

Milliy bog' to'g'risidagi nizomga muvofiq milliy bog' hududida undan maqsadli foydalanishga zid bo'ladigan va o'simlik obyektlarining saqlanishi, ko'paytirilishi va tiklanishiga tahdid soladigan har qanday faoliyat taqiqilanadi.

Milliy bog'lar hududlari funksional zonalarga ajratilishi mumkin.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

O'zbekiston Respublikasi qonunlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun ham javobgarlik belgilanishi mumkin.

Ko'xonalar, muassasalar, tashkilotlar, o'zga yuridik va jismoniy shaxstar alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ish tartibini buzish orqali yetkazgan zararlarning o'tmini qonunlarda belgilangan najmda va tartibda qoplashga majburdirlar.

Umuman olganda, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonun va talablarni buzganlik uchun intizomiy, mulkiy (fuqarolik), inamuriy va jinoiy javobgarliklar qo'llaniladi.

Intizomiy javobgarlik - ko'pincha mehnat intizemini buzish oqibatida "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonun va talablarni buzilgan paytda qo'llanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 181-moddasiga dinoan:

1) hayfsan;

2) o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ortiq bo'limagan miqdorda jarima.

Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodunga o'rtacha oylik ish haqining eillik foizidan ortiq bo'limagan miqdorda jarima solish hollari ham nazarda tatalishi mumkin. Xodimning ish haqidani jarima ushlab qolish ushbu Kodeksning 164-moddasi talablariiga rioya qilingan holda ish beruvchi tononiidan amalga oshiriladi;

3) mehnat shartnomasini bekor qilish (100-modda ikkinchi qismining 3- va 4- bandlari) kabi intizomiy jazo choralarini qo'llash taqiqilanadi.

Mulkiy (fuqarolik) javobgarlik esa "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonun va talablarni buzganlik uchun qo'llaniladi.

Uning asosiy xususiyati ham zararni qoplash, tiklash va qaytarish bilan ko'proq bog'liqdır.

Ya'ni yuqorida nomi zikr etilgan Qonunning 38-moddasiga asosan:

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning holatiga zararli ta'sir o'tkazayotgan korxonalar, tashkilotlar, sexlar, qurilmalarning faoliyati zararli ta'sir ko'rsatayotgan manbalar, shu jumladan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar haında ularning muhofaza qo'riqlanma tegralari tashqarisidagi manbalar bartaraf etilgunga qadar to'xtatib turiladi yoki cheklab qo'yiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga yetkazilayotgan zararni bartaraf etishning imkonini bo'lmasa, korxona, tashkilot, sex va qurilmalarning faoliyati to'xtatiladi hamda ularning faoliyat yo'nalishi o'zgartirilganidan va alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga zararli ta'siri, albatta, bartaraf qilingandan keyingina faoliyatları amaldagi qonunlarga muvofiq qayta tiklanishi mumkin.

Ma'muriy javobgarlik. Ushbu javobgarlik turi O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 82-moddasiga ko'ra alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tartibini buzganlik uchun qo'llaniladi.

Davlat milliy tabiat bog'lari, buyurtma qo'riqxonalari, tabiat yodgorliklari, suvni muhofaza qilish tegralari, kurort tabiiy hududlari, botanika bog'lari, dendrologiya va hayvonot bog'lari, qo'riqlamma (oraliq) tegralar, o'rmonlarning taqiqlangan mintaqalari, baliq xo'jaligi tegralari va alohida muhofaza etiladigan o'zga hududlar tartibini buzish – fuqarolarga eng kam ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takrot sodir etilgan bo'lsa,

fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Jinoiy javobgarlik. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonun va talablarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Ushbu javobgarlik turining qo'llanilish xususiyati shundan iboratki, u boshqa javobgarlik turlaridan ko'ra xavfli va og'irroq holatda sodir etilishi dir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 204-moddasiga asosan:

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tartibini buzish ko'p miqdorda zarar yetkazilishi yoki boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa,

eng kam oylik ish haqining ellik batavarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huqnidan mahrum qilish yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hudud yoki obyektlarni qasddan nobud qilish yoki ularga shikast yetkazish ko'p miqdorda zarar yetkazilishi yoxud boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa,

eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki oti oygacha qamoq yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Shoni alohida ta'kidlash o'tinligi, muhofaza etiladigan tabiiy bududlarning ish tartibini ta'min etish masalalariga doir korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolar, davlat ideralari o'rtaсидagi nizolar sud yoki xo'jalik sudi tomonidan qarab chiqiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagi tabiiy zaxiralardan foydalanish va ulami muhofaza qilish masalalariga doir nizolar yer, suv, "O'rmon to'g'risida"gi qonunlarda, yet osti boyliklari to'g'risidagi, atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilishi to'g'risidagi qonuniarda belgilangan tartibda hal etiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga doir munosabatlar bilan bog'iil mulkiy nizolar qonunlarda belgilangan tartibda sud yoki xo'jalik sudi tomonidan hal etiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra bir necha toifaga bo'lindi.

Davlat qo'riqxonalarining huquqiv holati qanday belgilangan?

2. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar eng muhofaza obyekti sifatida ko'rildi.

Bunday hududlardan xo'jalik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yiladimi?

3. Buyuk Britaniya fuqarosi J.Braun, O'zbekistonga kelib, Zomin milliy bog'ida bo'lib, bog'ning yodgorliklaridan (daraxt novdalari, tulki terisi va h.k.) o'z yurtiga olib ketayotganda Toshkent xalqaro aeroportida bojxona xodimlari tomonidan to'xtatilib, o'zi bilan olib ketayotgan narsalar muhofaza etiladigan hudoddan olinganligi uchun ularni davlat chegarsidan chetga olib ketish uchun maxsus ruxsatnomasi bo'lish kerakligini tushuntirishadi. Bundan norozi bo'lgan J.Braun Zomin milliy bog'ida bo'lishi uchun o'tmatilgan tartibda ruxsatnomasi olganligini bildirib o'tadi va Zomin milliy bog'i yodgorliklarini olganligini milliy bog' xodimlari ko'rishganligini va hech narsa deyishmaganini ham aytib o'tadi vaholanki agar bojxona xodimlari o'z vakolatlarini saiste'mol qilib uni qonuniy huquq va manfaatlariga putur yetkazadigan bo'isa, bu haqida O'zbekistondagi Buyuk Britaniya elchisi xabar topishini va bu yaxshilik bilan tuganmasligini bildiradi.

Bojxona organi xodimlari qonuniy qaror qabul qilganmi?

Mazkur nizoli vaziyatlar qanday hal etiladi?

4. Fuqaro Sh.Axmadiiyev yovvoyi o'rdaklarga ov qilish uchun Ugam Chotqol milliy bog'i yonida joylashgan Ohangaron ov xo'jaligiga keladi. Ov qilish jarayonida fuqaro Sh.Axmadiiyev qurolidan yarador bo'lgan ikkita o'rdak uchib borib. Chotqol davlat qo'riqxonasi budofiga tushadi.

Fuqaro Sh.Axmadiiyev Chotqol davlat qo'riqxonasi rahbariyatiga murojaat qilib, ovlagan ikkita o'rdagini qo'riqxona hududidan olib chiqib ketishga ruxsat so'raydi. Qo'riqxona rahbariyati qo'riqxona hududiga kirish mumkin emasligini bildirib, shuning uchun ushbu o'rdaktarni olishga ruxsat bera olmasligini aytib o'tadi.

Fuqaro Sh.Axmadiiyev Chotqol davlat qo'riqxonasi rahbariyati qaroridan norozi bo'lib, uning qonuniy huquq va manfaatlariga zarar yetkazilgan deb hisoblab, sudga murojaat qiladi.

Aytinchi, qo'riqxona rahbariyati qonuniy qaror qabul qilganmi?

Fuqaro Sh.Axmadiiyev sudda yutib chiqish uchun qanday vaz keltirishi mumkin?

Sud qanday qaror qabul qiladi?

17-BOB. AHOLO PUNKTLARI VA XO'JALIK FAOLIYATIDA ATROF-MUHITNI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH

Aholi punktlarida atref-muhitni huquqiy muhofaza qilish. Xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda atref-muhitni huquqiy muhofaza qilish. Sanoatda va transportda atref tabiiy mahiti huquqiy muhofaza qilish. Qishloq xo'jaligi va energetikada atref tabiiy mahiti huquqiy muhofaza qilish.

Aholi punktlarida atref-muhitni huquqiy muhofaza qilish

Aholi punktlarida atref-muhitni huquqiy muhofaza qilish o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Aholi punktlari aholi joylashgan yerlar bo'lib, ushbu yerlarda asosan aholi yashash joylarini qurish va rivojlantirish, shuningdek transport tizimini va umuman infratuzilmani joylashtirish, sanoatni rivojlantirish maqsadlari ham ko'zda tutiladi.

Esda tuting! Aholi punktlarining quyidagi turlari mavjud:

- 1) shahar** (aholisi asosan sanoat va savdo, shuningdek xizmat ko'rsatish, boshqaruv, fan, madaniyat sohalarida band bo'lgan eng katta aholi punktlari);
- 2) posyolka** (shahar chizig'idan tashqarida joylashgan shahar tipidagi aholi punkti);
- 3) shaharcha** (sanoat korxonaları, qurilishlar, temir yo'l stansiyalari va boshqa muhim obyektlar yaqinida joylashgan aholi punktlari);
- 4) qishloq** (shahar hududiga kirmaydigan, ma'lum aholi soniga ega bo'lgan, qishloq markazlari va ma'lum sanoat obyektlari atrofida istiqomat qiluvchi aholining yashash joylari);
- 5) ovul** (nisbatan kichikroq hajmdagi yashash va turar joylardan iborat aholi punktlari).

Aholi punktlari, eng avvalo, aholi muqim yashash joyi bo'lib, ularda mutakkab iqtisodiy-geografik, arxitektura va qurilishi, shuningdek madaniy majmualar mavjud bo'ladi. Ushbu hududlarda atref-muhitni muhofaza qilish shaharsczlik faoliyatiga nisbatan ekologik talablarni belgilash; aholining sanitariya-epidemiologiya xotirjamligini ta'minlash; aholi punktlarida tabiiy obyektlar muhofazasini ta'minlash kabi yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari sifatida aholi punktlarida arzon uy-joylar barpo etish, ushbu hududlarda yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya ijtimoiy infratazilmani barpo etish, zarur hollarda ularni modernizatsiya qilish, shuningdek ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlashiga ixtisoslashgan majmualar qurish yo'l bilan mamlakatimiz shahar va qishloqlarini har tomonlama jada rivojlantirish vazifasi qo'yilgan⁸¹.

Bir qator olimlar hisob-kitoblariga ko'ra, hozirgi vaqtida dunyo aholisining yarmidan ko'pi (Yevropada esa 70%) shaharlarda yashaydi. Shu munosabat bilan aholi punktlarida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish, avvalambor, aholi salomatligini ta'minlash, aholi uchun qulay atrof-muhitni ta'minlash maqsadiga qaratilgan bo'ladi. Biroq bugungi kunga kelib deyarli barcha yirik shaharlarda atmosfera havosi iflosalanishi natijasida aholi salomatligiga jiddiy ziyon yetkazilishi holatlari uchramoqda⁸².

Yuqoridaq yo'nalishlardan kelib chiqqan holda, aholi punktlarida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza to'g'risida", "Ekologik nazorat to'g'risida"gi va boshqa qonunkar, Yer, Shaharsozlik kodekslari, shuningdek, "Ekologik normativlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishish tartibi to'g'risida", "Davlat ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasida davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida" va "O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi to'g'risida"gi nizomlar bilan tartibga solinadi.

E'tibor qiling! 2002-yil 4-apreldagi Shaharsozlik kodeksida shaharsozlik vositalari orqali shahar va qishloq aholi punktlari aholisining qulay yashash sharoitlarini ta minlash, xo'jalik va boshqa faoliyatning atrof-muhitga yetkazadigan zararli ta'siriiga yo'l qo'ymaslik, ekologik holatni yaxshilash (**4-modda**), shaharsozlik faoliyatining asesiyl talablaridan biri sifatida atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlik talablariga, shuningdek sanitariya normalari va qoidalalariga rioya qilish (**6-modda**), yuridik va jismoniy shaxslarning shaharsozlik faoliyatini

⁸¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PQ-4947- sonii "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yiche Harakatlar strategiyasi te'g'risida"gi Yarmoni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini to'plamu -2017-, №3, -70-modda.

⁸² Masalan, Xitovning 11ta shahrida atopferadagi mayda ko'mir zarschalari nuv yili 50 mingdan ortiq harvaqt o'tinga hamda 400 mingdan ortiq shaxslarda o'pke kasalliklariga sabab bo'ixiyotgenligi amjandil.

amalga oshirish chog'ida atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlik talablariga, shuningdek sanitariya normalari hamda qoidalariga rivoja etish, shuningdek atrof-muhitga, madaniy meros obyektlariga, shahar qishloq landshaftlariga zararli ta'sir etadigan xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatları (8-modda) va boshqa ekologizatsiyalashgan talablar ko'zda tutilgan.

Shuningdek, aholi punktlarida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish ekologiya sohasidagi maxsus vakolatlari davlat organlari bilan bir qatorda mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan ham amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Xususan, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasida davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi 6 ta aniq vakolati belgilangan.

Aholi punktlarida atrof-muhitni muhofaza qilish bir necha yo'nalishlarda olib boriladi. Ushbu yo'nalishlarning ustuvorligi va mazmuni har bu shaharda atrof-muhit holati, iqtisodiy vaziyat, tegishli mansabdoi shaxslarning ekologik-huquqiy ongiga bog'liq holda belgilanganadi.

Birinchi yo'nalish – aholi punktlari ekologik tizimlarini (shu jumladan, tabiiy, o'zgaagan, modifikatsiyalashgan ekologik tizimlarni) kompleks himoya qilish. Ushbu yo'nalishning alohida ajratilishi – aholi punktida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning atrof-muhitga chiqindi va ifloslantiruvclu moddalarni chiqarishi, shahar hududi chekkalarida chiqindilarning to'planishi, aholi punkti tabiiy resurslarining ifloslanishi kabi omillar majmui birgalikda atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan belgilanganadi.

Shu bois aholi punktining ayrim alohida hadudlarini himoya qilish yoki xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga muayyan ekologik talablarni belgilash yetarli emas, balki aholi punktida uning ekologik tizimiga antropogen ta'sir majmuini hisobga olgan holda atrof-muhitni kompleks himoya qilish choralarini amalga oshirish zarur. Aholi punktida ushbu yo'nalishda ekologik muammolarning oldiai olishning samarali usuli bo'lib, aholi punkti qurilishiarini rejalashtirish, ishlab chiqarish chiqindilarini joyleshtirishning ekologik xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasiga muvofiq, hududiy-ishlab chiqarish majmularini tarkib toptirishda, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilishni rivojlantirishda hamda shaharlar, boshqa punktlarini qayta qurish va ta'mirlashda atrof tabiiy muhitga bo'ladijan ta'sirning yoll qo'yish mumkin bo'lgan me'yorlari belgilanadi.

Aholi punktlarida atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishidagi chora-tadbirlarning ikkinchi yo'nalishi sifatida insonlarning kundalik faoliyatida – chiqindilarni joylashtirish, qurilishlar qilish, terar-joy va sanoat binolarini qayta ta'mirlash, sanoat obyektlarini ishlatalish va boshqalarini amalga oshirishda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha talablarga rivoja etilishini ta'minlashni ko'rsatish mungkin. Ushbu talablarning aksariyati sanitariya normalarida va texnik reglamentlarda belgilab berilgan. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 41-moddasida ham korxonalar, inshootlar va boshqa obyektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish, rekonstruksiyalash, ulardan foydalanish va ularni tugatishga doir ekologiya talablarini belgilangan. Shuningdek, Qonunning 45-moddasida chiqindilarni aholi punktlari yerarida saqlash va ko'mib tashlash taqiqlanishi belgilangan.

Aholi punktlarida atrof-muhitni muhofaza qilishning **uchinchisi** yo'nalishi – shahar tabiiy resurslari (yer, tuproq, suv, yer qa'sri, atmosfera havosi, hayvonot va o'simlik danyosi v.b.)ni muhofaza qilishdir. Aholi punkti doirasida tabiiy resurslar bii-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bii tabiiy resursning holatidagi salbiy o'zgarish, o'z navbatida, boshqa tabiiy resurslarga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bois qonunchilikda atrof-muhitning qulay holatini ta'minlashdek umumiy vazifani hal qilish doirasida alohida tabiiy obyektlar turlarini muhofaza qilish bo'yicha maxsus choralar ko'zda tutiladi.

To'rtinchi yo'nalish – chegaralarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar joylashgan ahoji punktlarida atrof-muhitni muhofaza qilish. Aholi punktlari doirasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar antropogen ta'sirdan alohida muhofaza etilishni talab qildi.

Xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish

Esha tuting! Xo'jalik faoliyati – bu insonning foydali mahsulot (oziq-ovqat, kiyim-kechak, foydali qazilmalar, tabiiy mehsulotlar, avtomobil v.b.) olishga yo'naltirilgan maxsus faoliyatidir. Ushbu faoliyatning aksariyat qismi turli sanoat tashkilotlarida – korxona, zavod, fabrika, elektrostantsiya kon va hokazclarda, shuningdek qishloq xo'jaligida amalga oshiriladi.

Xo'jalik va boshqa faoliyatni amalga oshirish, ushbu faoliyat xususiyatiga qarab, atrof-muhit holatiga turliha ta'sir ko'rsatadi. Xususan, sanoat tegralari toifasiga kiruvchi elektrostansiyalari (issiqlik, suv v.b.)

atrofidagi surʼ, tuproq va atmosfera havosida radioaktiv elementlar miqdori shaharlarga nisbatan bir necha oʼn barobar koʼp boʼladi, lekin is gazining miqdori elektrostansiya atrofida agrar tegralarga tenglashgan, shaharlarga nisbatan esa bir necha oʼnlab baravar kam boʼladi.

Xalq xoʼjalik tarmoqlari faoliyatining atrof tabiiy muhitga va aholiga salbiy taʼsirini kamaytirish hamda tabiiy resurslarni tiklab borishni kafolatlovchi normativlar va standartlar bilan belgilab qoʼyish juda muhim huquqiy chora hisoblanadi

Xoʼjalik va boshqa faoliyatni amalga oshirish jarayonida tabiiy resurslardan foydalanish limitlari va meʼyorlari atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni korxonalar tomonidan qoplashning huquqiy normalari 1992-yil 9-dekabrdagi qabul qilingan “Tabiatni muhofaza qilish toʼgʼrisida”gi Qonunning IV, V, XI boblarida keltirilgan bir qator moddalar bilan tartibga solinadi. Xususan, ushibu normativ-huquqiy hujjatda sanoat tegralarida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning umumiy tartibi, ekologik normativ va meʼyorlar, ekologik ekspertizadan oʼtkazilishi lozim boʼlgan holatlar, bu boradagi davlat boshqaruvi, ekologik nazorat kabi muhim masalalar oʼz aksini topgan.

Xoʼjalik va boshqa faoliyatni amalga oshirish jarayonida atrof-muhitni muhofaza qilishning tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy choralarini tizimiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Birinchidan, atrof tabiiy muhit sifatining normativlari va standartlari, ekologik normativlar. “Tabiatni muhofaza qilish toʼgʼrisida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan xoʼjalik faoliyatining atrof tabiiy muhitga zararli taʼsiri atrof tabiiy muhit sifatining aholining ekologiya jihatidan xavfsizhgini, tabiiy resurslarni tiklash va muhofaza qilishni kafolatlovchi normativlari va standartlari bilan cheklab qoʼyiladi. Hududiy-ishlab chiqarish majmuilarini tarkib toptirishda, sanoat, qishloq xoʼjaligi, qurilishni rivojlantirishda hamda shahrlar, boshqa aholi punktlarini qayta qurish va taʼmirlashda atrof tabiiy muhitga boʼladigan taʼsirning yoʼl qoʼyish muunkin boʼlgan meʼyorlari belgilanadi. Shuningdek, Qonunning 15-noddasiga muvofiq korxonalar, tashkilotlar va muassasalar atrof-muhitga taʼsirning yoʼl qoʼyilishi mumkin boʼlgan eng yuqori darajalarini tartibga soluvchi ekologik va boshqa yoʼsindagi mezonlarni ishlab chiqishlari shart. Ekologik normativlarni oʼzlariga berilgan vakolatlarga muvofiq Oʼzbekiston Respublikasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qoʼmitasi, Oʼzbekiston Respublikasi Sogʼliqni saqlash vazirligi, Oʼzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yet qaʼrini geologik oʼrganish, sanoatda, konchilikda va

komunal-maishiy sektorda ishlarning bexatas olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tasdiqlaydilar. Kimyoviy dor-darmontlarni qishloq xo'jaligida ishlatishga O'zbekiston Respublikasi qonunlatiga muvofiq ruxsat etiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 21-yanvardagi 14-sonli qarori bilan tasdiqiangan "Ekologik normativlar loyibalarini ishlab chiqish va kelishish tartibi to'g'risida"gi Nizom ham xo'jalik va boshqa faoliyatni amalga oshirish jarayonida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishga oid talablarni belgilaydi.

Ikkinchidan, ekologik nazorat tizimi. Xo'jalik va boshqa faoliyatni amalga oshirish jarayonida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish faoliyatiga oid ayrim masalalari 27-moddadan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 27-dekabrdagi "Ekologik nazorat to'g'risida"gi O'RQ-363-sonli Qonunida ham o'z ifodasini topdi. Xususan, Qonun bilan xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasiga bir qator majburiyatlar yuklangan (14-modda). Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish; atrof-muhitga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan eng yuqori ta'sirni tartibga soluvchi ekologik normativlarni ishlab chiqish va ularga rioya etish va boshqalar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 5-avgustdagagi 216-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomda ham davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatlari davlat organlariga yuklangan vazifalarga muvofiq ular o'z vakolatlari doirasida belgilangan tartibda: yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish (O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo'mitasi), yer qa'sini geologik o'rGANISH, undan foydalanish va uni muhofaza qilish (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yer qa'sini geologik o'rGANISH, sanoatda, konchilikda va communal-maishiy sektorda ishlarning bexatas olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi), suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish (O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi), o'simlik va hayvonot dunyosi obyektiarida foydalanish va ularni muhofaza qilish (Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi), atmosfera havosini himoya qilish (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi), chiqindilar bilan munosabatda bo'lish (Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi), inson atrof-muhiti (O'zbekiston

Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hamda tabiatdan foydalanish iqtisodiy mexanizmlarining bajarilishi borasida amalga oshirishi lozim bo'lgan harakatlari belgilab berilgan.

Uchinchidan, ekologik ekspertiza va monitoring tizimi. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuning 24-moddasiga asosan davlat ekoiogiya ekspertizasi xo'jalik qarori qabal qilinishidan oldin o'tkazilishi shart bo'lgan atrof tabiiy muhofaza qilish tadbiridir. Davlat ekologiya ekspertizasi O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-maydag'i "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunida hamda Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 31-dekabrdagi 491-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi Nizomida tasdiqlangan tartibda o'tkaziladi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 3-apreldagi 111-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi to'g'risida"gi Nizomga asosan, mam'lakatimizda atrof tabiiy muhitning ifloslanish darajasini aniqlash, uning holatini baholash, salbiy jarayoniarni prognoz qilish va ularning eqibatlarini bartaraf etish maqsadida boshqa antropogen faoliyat ta'siri va tabiiy resurslardan foydalanish uifayli atrof tabiiy muhitning ifloslanishi va boshqa zararli ta'sirlarga (jarayonlarga) uchrashini reutazan kuzatish va tasdiqlangan dastur bo'yicha bajarishga qaratilgan atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimi yuritiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 31-oktabrdagi 292-sonli qarori bilan tasdiqlangan "**2011–2015-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit davlat monitoringi dasturi**"da ham ifloslantiruvchi manbalari monitoringi, shu jumladan yirik sanoat shaharlari atrofini sanoat toksikantlari bilan ifloslanganligi, ayrim qishloq xo'jaligi yerlarning toksikantlar bilan ifloslanganligi kabi tadbirlari amalga oshirish ko'zda tu'ilgan.

To'rtinchidan, xo'jalik faoliyatida atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish tizimi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-maydag'i 142-sonli qarori bilan tasdiqlangan "**2013–2017-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha harakatlari dasturi**"da ham uni amalga oshinishing besh asosiy yo'nalishi mustahkamlangan bo'lib, ulardan ikkitasi bevosita xo'jalik faoliyatida atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan. Xususan, dasturning iqtisodiyot tarmoqlarini ekologizatsiyalashtirish, texnologik jarayonlar va tabiatni muhofaza qilish

faoliyatini takomillashtirish hamda atrof-muhitni ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati chiqindilari bilan ifloslanishining oldini olish kabi ikkinchi va uchinchi yo'nalishlar bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Esda tuting! Xo'jalik va boshqa faoliyatni amalga eshirish jarayonida atrof muhitni huquqiy muhofaza qilish deganda, insonlarning moddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xo'jalik va boshqa faoliyatni atrof muhitning tabiiy-ekologik helatini saqlash yaxshilash va qayta tiklashga, ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ekologik qonun-qoidalari va normativ talablar asosida hamda qonunchilikda belgilangan doirada (me'yorda, limitda) amalga oshirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

Sanoatda va transportda atrof tabiiy muhitni huquqiy muhofaza qilish

Sanoat – xalq xo'jaligining mahimi tarmog'i bo'lib, ikki yirik guruhga bo'linadi: 1) qazib oluvchi sanoat (metallurgiya maqsadlarida tog'-kimyo, qora va rangli metall va noruda xomashyoni, nometall rada, neft, gaz, ko'mir, terf, tuz, noruda qurilish materiallarini qazib olish, gidroelektrostansiyalar, suv quvur tashkilotlari, yog'och yetishtiruvchi, baliq va dengiz mahsulotlarini ovlovchi tashkilotlar); 2) qayta ishlovchi sanoat (mashinasozlik, qora va rangli metall, kimyoviy va neft mahsulotlari, yog'och mahsulotlarini qayta ishlash, seilyuzo-qog'oz sanoati, qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish, yengil va oziq-ovqat sanoati, issiqqlik elektrostansiyalar, kino sanoati).

Sanoatda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni huquqiy tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-maydagi "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi, 1996-yil 27-dekabrdagi "Atmosfera havosini muhofaza qilishi to'g'risida"gi, 2016-yil 19-sentabrdagi "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi hamda 2016-yil 21-sentabrdagi "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonunlarga rioya etish talab etiladi.

Esda tuting! Sanoat – mehnat qorolini (sanoatning o'zi uchun ham, boshqa xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun ham) ishlab chiqarish, xomashyo, material, yoqilg'i qazib olish, energiya ishlab chiqarish hamda sanotda

ishlab chiqilgan yoki qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni keyinchalik qayta ishlash – iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish bilan band bo'lgan korxona, tashkilotlar majmui.

Ushbu qonunchilik hujjatlari sanoat tegralarida tabuy resurslarning har biridan foydalanish darajasi va ularni ifoslantirish me'yorlarini belgilaydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunida suvning holatiga ta'sir etuvchi korxonalar, inshootlar va boshqa obyektlar quriladigan joylarni belgilash (13-modda), ushbu obyektlarni qurish loyihalarini kelishib olish (14-modda), ularni ishga tushishni taqiqlash (15-modda) tartibi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida esa sanoat korxonalarining atmosfera havosiga ifoslantiruvchi moddalar chiqarishini huquqiy tartibga solish choralari, atmosfera sisati normativlari, unga zararli ta'sir ko'rsatish normativlari kabilar ko'zda tutilgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning xo'jalik faoliyati jarayonida ekologik xavfsizlikni ta'minlashiga oid ekologik talablar xo'jalik jarayoni bosqichlariga qarab farqlanadi ekspluatatsiyagacha ekspluatatsiya vaqtida va ekspluatatsiyadan keyin.

Transportda atrof tabiiy muhitni huquqiy muhofaza qilish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Transport (lot. trans – "orqali" va portare – "tashish") – insonlar va yuklarni bir joydan boshqasiga tashish, ko'chirish uchun mo'ljalangan vositalar majmui. Ba'zida "transport" atamasi orqali transport tizimini tashkil qiluvchi barcha infratuzilma majmuni, boshqaruv, transport vositalari va transport tashkilotlarini qamrab olgan iqtisodiyot sohasi tushuniladi. Transportning suv, avtomobil, temiryo'l, havo, quvur va lift transporti hamda metropoliten kabi turlari mavjud.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonunida (11-modda) hamda "Daylat ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi – avtomototransport vositalarining ishlatilishida atmosfera havosining ifoslantishi yuzasidan davlat ekologik nazoratini amalga oshirishi belgilangan (18-band).

Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 31-dekabrdagi 491-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi Nizomda esa davlat ekologik ekspertizasi amalga oshiradigan faoliyat turlarining to'rt toifadagi ro'yxati belgilangan bo'lib, ularning tizimida transport bilan bog'liq faoliyat turlari quyidagicha mustahkamlangan:

1) atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning I toifasiga kiradigan (o'ta xavfli) faoliyat turlari – avtomagistrallar, metro, temiryo'llar, tez yuriladigan katta yo'llar, respublika ahamiyatiga ega bo'lgan yuk terminallari; aeroportlar; mashinasozlik (aviasozlik, avtomobil, traktor, motor ishlab chiqarish va shu kabilalar) sanoati;

2) atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning II toifasiga kiradigan (o'rtacha darajada xavfli) faoliyat turlari – viloyat ahamiyatiga ega bo'lgan avtomobil yo'llari; aerodromlar; temiryo'l depolari; idoraviy ahamiyatga ega bo'lgan temiryo'llar;

3) atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi III toifaga mansub (past darajada xavfli) faoliyat turlari – mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan avtomobil yo'llari; avtoparklar; avtomobilga yonilg'i quyish va gaz qo'yish stansiyalari; dvigatel va mashinalarni ta'mirlash, shuningdek ularni bo'yash; tramvay-trolleybus deposi;

4) atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning IV toifasiga mansub (mahalliy ta'sir ko'rsatish) faoliyat turi – avtoservis punktilari; korxonalar va tashkilotlarga qarashli hajunda umumiy ravishda foydalaniladigan garajlar va avtomobil to'xtash joylari; avtomobilarni yuvish

Ushbu faoliyat turlarini amalga oshirish uchun transport sohasidagi xo'jalik faoliyati belgilangan tartibda davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasini olishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-maydag'i 142-son qarori bilan tasdiqlangan "**2013–2017-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha harakatlar dasturi**"da ham dasturda nazarda tutilgan asosiy vazifalarni bajarish uchun avtomobil va temiryo'l transporti vositalaridan atmosfera havosiga ifloslantiruvchi meddalar tashlamalarini kamaytirishni amalga oshirish talab etilishi ko'zda tutilgan. Xususan, uning 1, 13-bandida atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi meddalar niqdorini yiliga 5–8 ming tonnagacha qisqartirish va bug'li gaz tashlamalarini kamaytirish maqsadida 2013–2017-yillar mobaynida 74 mingta avtomobil transportini gaz yonilg'isiga (siqlgan tabiiy gaz va suyutirilgan neft gaziga) o'tkazishni tashkillashtirish va amalga oshirish vazifasi belgilangan.

Umuman olganda, transport faoliyati subyektlari quydagilarni amalga oshirishi lozim: transport faoliyati xavfsizligini ta'muntash maqsadida uni amalga oshirish uchun maxsus muxsatnomasi (litsenziya) olish; transport faoliyatini amalga oshirishda ekologik va sanitariya-

gigiyena normalariga rieya etish; xavfli (portlovchi, yong'inga xavfli, kimyoviy, zaharli, radioaktiv va h.k.) yuqlarni tashishning alohida shartlarini ta'minlash.

Qishloq xo'jaligi va energetikada atrof tabiiy muhitni huquqiy muhofaza qilish

O'zbekiston Respublikasi agrar-industriai mamlakat bo'lib, aholining 60 % ga yaqini qishloq joylarda istiqomat qiladi, qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish salohiyati va tasnqi savdodagi ulushi ham katta. Agrar zonalar qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bilan band bo'lgan hududlar hisoblanadi. Agrar zonalarda yuzaga kelgan salbiy ekologik holat kishilarning hayot darajasiga keskin ta'sir qildi. Agrar tegralarda tabiatni muhofaza qilishning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'nifiy, siyosiy va huquqiy choralarini mavjud. Ulardagi ekologik xavfsizlikni ta'minlashning huquqiy choralarini ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchisi, xo'jalik yuritishning ekologik me'yorlarini ishlab chiqish va amaiiy tatbiqini ta'nunlash; ikkinchisi, antropogen buzilgan tegraiarni sog'lomlashtiruvchi me'yorlarni ishlab chiqish va ularni hayotga keng tatbiq qilish.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida qishloq xo'jaligida atrof tabiiy muhitga bo'ladigan ta'sirning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan me'yorlarining belgilanishi (14-modda) hamda qishloq xo'jaligida kimyoviy dori-darmonlarni ishlatishga O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq ruxsat etilishi (15-modda) belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonunida (11-modda) hamda "Davlat ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomida O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi sun'iy suv obyektlarining suidan foydalaniishi va iste'mol qilinishi, o'simlik va hayvonot dunyosini himoya qilish bo'yicha davlat karantin qoidalarining bajarilishi yuzasidan hamda O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi – yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan davlat ekologik nazoratini amalga oshirishi belgilangan (18-band).

Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 31-dekabrdagi 491-soali qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi Nizomida esa davlat ekoilogik ekspertizasi

amalga oshiriladigan faoliyat turlarining to'rt toifadagi ro'yxati belgilangan bo'lib, ular tizimida qishloq xo'jaligi bilan bog'iqliq faoliyat turlari quyidagicha mustahkamlangan:

1) atref-muhitga ta'sir ko'rsatishning II toifasiga kiradigan (o'rtacha darajada xavfli) faoliyat turlari – viloyat ahamiyatiga ega bo'lgan yet osti suvlarini olish inshootlari; Respublika va viloyatlararo ahamiyatiga ega bo'lgan suv o'tkazgichilar; bioteknologiyalardan foydalanuvchi, shu jumladan pillani qayta ishlovchi korxonalar; parrandachilik fabrikalari; eskidan sug'orib kelingan 1000 gektardan ko'proq yerlarni rekonstruksiya qilish va meliorativ holatini yaxshilash; viloyat ahamiyatiga ega bo'lgan zaharli kimyoviy moddalar, shu jumladan o'g'illar omborxonalar; paxtan qayta ishlash sanoati;

2) atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi III toifaga mansub (past darajada xavfli) faoliyat turlari – viloyat ahamiyatiga ega bo'lgan yet osti suvlarini chiqarish inshootlari; viloyat va tuman ahamiyatiga ega bo'lgan suv o'tkazgichlar; chorvachilik komplekslari; chorvachilik xo'jaliklari; paxta tolasini qayta ishlash korxonalar; sutni qayta ishlash korxonalar; omuxta yem ishlab chiqarish, parrandachilik fermalari; 100 gektardan 1000 gektargacha maydonda sug'oriladigan yerlarni rekonstruksiya qilish va meliorativ jihatdan yaxshilash; maydoni 30 gektardan ortiq bo'lgan baliq urchitish havzalari va baliqni qayta ishlash; cho'chqachilik fermalari; paxta tayyorlash punktlari;

3) atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning IV toifasiga mansub (mahalliy ta'sir ko'rsatish) faoliyat turlari – ichki xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan suv o'tkazgichlar va suv xo'jaligi tarmoqlari; maydoni 30 gektargacha bo'lgan baliq urchitish havzalari, kichik tegirmenlar, xo'jalik ichidagi yerlarni o'zlashtirish; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va konservalash; pillani qabul qilib olish va saqlash punktlari; eskidan sug'orib kelingan 100 gektardan kam yerni rekonstruksiya qilish va meliorativ jihatdan yaxshilash; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash omborlari; xo'jaliklar ichida suv xo'jaligi tizimlarini qurish; issiqlik va parniklar; qoramol, yilqi va qo'y fermalari.

Ushbu faoliyat turlarini amalga oshirish uchun qishloq xo'jaligi sohasidagi xo'jalik faoliyatini belgilangan tartibda davlat ekologik ekspertizasining ijobjiy xulosasini olishi lozim.

Energetika – insoning xo'jalik-iqtisodiy faoliyatni sohasi, barcha turdag'i energetika resurslarini shakllanishi, taqsimlanishi va seydanlanishi uchun xizmat qiluvchi yirik tabiiy va sun'iy tizimlar majmisi. Uning

maqsadi dastlabki, tabiiy energiyani qayta ishlash yo'li bilan ikkilamchi energiyani, jumladan, elektrik yoki issiqlik energiyasini ishlab chiqishni ta'minlash hisoblanadi

Bugungi kunda jahonda energetikaning quyidagi turlari mavjud:

1) elektroenergetika – energetika tizimiga kirib, elektroenergiya elektrostansiyalarda ishlab chiqariladi va elektr uzatish liniyalari bo'yicha iste'molchilarga yetkazib beriladi. U ikkiga bo'linadi: a) an'anaviy elektroenergetika – uzoq vaqtidan beri qo'llanilib, yaxshi o'zlashtirilgan. Dunyoda elektroenergiyaning asosiy hissasi unga to'g'ri keladi, uning elektrik quvvati 1000 Mvdan oshadi; b) noan'anaviy elektroenergetika (muqobil energiya) – uning aksariyat yo'nalishlari an'anaviy prinsiplarga asoslangan, biroq ularda dastlabki energiya mahalliy ahaniyatdagi manbalar, jumladan, shamol, geotermal manbalar yoxud o'zlashtirish bosqichida bo'lgan manbalar, masalan, istiqbolda qo'llanishi mumkin bo'lgan yoqilg'i elementlari yoki manhalari, xususan, termayadroviy energetikadir. Noan'anaviy elektroenergetikaning quyidagi yo'nalishlari farqlanadi: kichik gidroelektrostansiyalar; shamol energetikasi, geotermal energetika; quyosh energetikasi; bioenergetika; vodorod energetikasi; temoyadroviy energetika;

2) issiqlik energetikasi – issiqlik elektrostansiyalarida ishlab chiqariladigan energiya bo'lib, dunyo miqyosida elektroenergiyaning 39 % neft, 27 %i ko'mir, 24 %i gaz asosida ishlab chiqariladi. Ya'ni butun dunyoda elektrostansiyalarning 90 %i issiqlik energetikasini ishlab chiqishga qaratilgan. Dunyoda Polsha va JAR mamlakatlari energetika ko'mirdan foydalanishga Niderlandiyada gazdan foydalanishga asoslangan. Issiqlik elektroenergiyasining ulushi Xitoy, Avstraliya, Meksikada ham katta;

3) gidroenergetika sif to'lqinlaridan foydalanib, gidroelektrostansiyalarda hosil qilinadigan energiya. GES Norvegiya va Braziliya kabi mamlakatlarda muhim ahamiyatga ega;

4) yadroviy energetika – elektroenergiyanı atomi elektrostansiyalarida (AES) ishlab chiqerishga ixtisoslashgan bo'lib, bu maqsadda yadroviy zanjir reaksiysi energiyasidan, ko'p hollarda urandan foydalaniadi. AES soni bo'yicha, elektroenergiya ishlab chiqish bo'yicha Fransiya yetakchilik qiladi, Fransiyada 80 % elektroenergiya aynan AESlarda ishlab chiqariladi⁸³. Yadroviy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida quyidagi xalqaro-huquqiy hujjatlar qabul qilingan: "Yadro falokatlarining oldini olish to'g'risida"gi deklaratsiya (1981). "Yadroviy avariya to'g'risida

⁸³ «Энергетика в России и в мире: проблемы и перспективы». – М.: MAIK «Nauka Interperiodika», 2001.

zudlik bilan xabar berish to‘g‘risida”gi konvensiya (Vena, 1986), “Yadroviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi Konvensiya (Vena, 1994), “Yadroviy materiallarui jismoniy himoya qilish to‘g‘risida”gi konvensiya (Vena, 1979), “Yadroviy zarar uchun fuqaroviylar haquqiy javobgarlik to‘g‘risida”gi Vena konvensiyasi v.b.

Shuningdek, energetikaning bosil bo‘lish manbayiga ko‘ra ham quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

1) energiyaning an‘anaviy manbalari (an‘anaviy energetika) – barcha turdag‘i yirik GESlar, ichki yoqiladigan dvigatellar, issiqlik elektrostansiyalar (ko‘mir, neft, gaz, torf), issiqlik qurilmalari, AES va barcha turdag‘i yadroviy stansiyalar, sintetik yoqilg‘i olish;

2) muqobil energiya manbalari – gelioenergetika (geliookondensatorlar; quyosh batareyalari), shamol energetikasi, bioenergetika (biomassa ishlab chiqarish, vodorod biosintezi, suyuq bioyoqilg‘i (etanol, o’simlik yog‘i va h.k.), biogaz, chiqindini yoquvchi uskunalar, “yog‘och derilar” (yog‘och qoldiqlарidan yoqilg‘i), fazoviy energetika; termoyadroviy energiya, muqobil hidroenergetika (kichik GESlar, to‘lqin elektrostansiyalar, sohil elektrostansiyalari, dengiz to‘lqinlari energiyasidan foydalanuvchi stansiyalar); ikkilamchi energiya (chiqarilgan issiqlikdan foydalanadi); haroratdan foydalanuvchi energetika (dengiz va quruqlik tipidagi geotermal energiyaning qurilmalari, chuqurlik va dengiz yuzasi haroratidan foydalanuvchi quyi haroratli energetika, issiqlik nasoslari v.b.); aralash energiya manbalari (an‘anaviy-muqobil (atom-vodorod v.b.), muqobil-muqobil (quyosh-vodorod v.b.)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 1-martdag‘i “Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4512-sonli Farmoni asosida ham Toshkent shahrida Xaiqaro quyosh energiyasi instituti tashkil qilindi; shuningdek “Muqobil energiya manbalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini ishlab chiqish vazifasi belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-maydag‘i 142-sonli qarori bilan tasdiqlangan “**2013–2017-yillarda O‘zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha harakatlar dasturi**”da ham qayta tiklanuvchan energiya manbalarini tatbiq qilish orqali atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish va tabiiy resurslardan oqilona va kompleks foydalanish samaradorligini oshirish iqtisodivot tarmoqlarini ekologizatsiyalashtirish, texnologik jarayonlar va tabiatni muhofaza qilish faoliyatini takomillashtirishning asosiy vazifalaridan biri sifatida mustahkamlangan.

Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 31-dekabrdagi 491-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi Nizomida esa davlat ekologik ekspertizasi amalga oshiradigan faoliyat turlarining to'rt toifadagi ro'yxati belgilangan bo'lib, ularning tizumida energetika bilan bog'liq faoliyat turlari quyidagicha mustahkamlangan:

1) atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning I toifasiga kiradigan (o'ta xavfli) faoliyat turlariga - 30 MVtdan ortiq quvvatga ega bo'lgan gidroelektrostansiyalar; respublika va davlatlararo ahamiyatga ega bo'lgan elektr uzatish liniyalari; 300 MVt yeki undan ortiq issiqlik quvvatiga ega bo'lgan issiqlik elektr stansiyalari va boshqa yondirish qurilmalari, shuningdek yadro reaktorlariga ega bo'lgan inshootlar;

2) atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning II toifasiga kiradigan (o'rtacha darajada xavfli) faoliyat turlari - quvvati 30 MVt va undan kam bo'lgan gidroelektrostansiyalar; viloyat ahamiyatiga ega bo'lgan elektr uzatish liniyalari; radiotexnika va elektron sanoati; issiqlik quvvati 100 MVtdan 300 MVtgacha bo'lgan issiqlik elektr stansiyalari va boshqa yondirish qurilmalari;

3) atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi III toifaga mansub (past darajada xavfli) faoliyat turlari - 100 megavattdan kam quvvatga ega bo'lgan issiqlik elektr stansiyalari va boshqa yondirish qurilmalari.

"Daviat ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomda ham davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatlari davlat organlari atmosfera havosini himoya qilish borasida o'z vakolatlari douasida belgilangan tartibda energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy qilishni, yoqilg'i-energetika resurslarini tejashni, energiyaning ekologik toza manbalaridan foydalanimishini ta'minlashi ko'zda tutilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Atrof-muhitni huquqiy muhofaza qiliish ekologiya huquqi va davlat ekologik siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u turli sohalarda o'ziga xos tartibda va usulda amalga oshiriladi.

Aholi punktlari va xo'jalik faoliyatida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qiliish qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?

2. Ma'lumki, xo'jalik faoliyati keng va rang-barang faoliyat sohalarini qamrab oladi. Ularning har biri atrof-muhit holatiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Masalan, sanoat tabiiy resurslar sonini qisqartirsa, transport atmosfera havosiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va h.k.

Ushbu sohalarda atrof-muhitga ta'sirni mo'iadillashirish maqsadida qanday ekologik-huquqiy vositalar qo'llanadi?

3. Fuqaro M. turar joyi atrofida barpo etilayotgan aloqa stansiyasining fuqarolarning sog'lig'iga va atrof-muhitga salbiy ta'sir etish darajasini aniqlash maqsadida ushbu xo'jaiik faoliyati ustidan mazkur hududda istiqomat qiluvchi jamoatchilik vakillaridan iborat tarkibda jamoat ekologik nazoratini o'tkazish maqsadida uchun mahalla fuqarolar yig'ini raisiga murojaat qildi. Fuqarolar yig'ini raisi qonunchilikda jamoat ekologik nazoratini o'tkazish tartibi aniq belgilanmaganligi bois ushbu faoliyatni amalga osbitish uchun tuman hokimiyatiga murojaat etishni maslahat berdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering. Xo'jalik faoliyati ustidan jamoatchilik ekologik nazorati qaysi qonun hujjati asosida amalga oshiriladi? Xo'jalik faoliyati ustidan jamoat ekologik nazoratini kimlar amalga oshirishi mumkin? Bu boradagi qonunchilik hotatiga huquqiy baho bering.

4. Fuqaro D. ko'p qavatlari turar-joy binosining o'ziga qarashli bo'lgan xonasida ta'mirlash ishlarini olib borishi natijasida turar-joy binosi atrofida ancha miqdorda maishiy chiqindi hosil bo'ldi. Shunda mahalla yig'ini maslahatchisi D dan ushbu maishiy chiqindini zindlik bilan bartaraf etishni talab qildi. Ushbu masalada amaliy yordam ko'rsatish uchun fuqaro D. "O'zkommunxizmat" agentligining tegishli filialiga murojaat etganida mazkur chiqindini hosil qilib, belgilangan normativdan chetga chiqqanligi uchun undan jarima va kompensatsiya to'lovi undirilishi ma'lum qilindi.

Vaziyatga huquqiy baho bering. Chiqindi sohasidagi davlat nazoratini kim amalga oshiradi? Mahalla oqsogolinining talabi to'g'rimi? Chiqindini saqlash tartibi qanday? "O'zkommunxizmat" agentligining talabi qonuniymi? Kompensatsiya to'lovi deganda nimani tushunasiz?

18-BOB. CHIQINDILAR VA XAVFLI ASHYOLAR BILAN MUOMALA QILISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Chiqindilar va xavfli ashyolar bilan muomala qilishni huquqiy tartibga solish tushunchasi va o'ziga xos jihatlari. Chiqindilar va xavfli ashyolar bilan muomala qilishni huquqiy tartibga solishning huquqiy asoslari. Chiqindilar va xavfli ashyolar bilan muomala qilishni davlat tomonidan huquqiy tartibga solish va nazorat etish.

Chiqindilar va xavfli ashyolar bilan muomala qilishni huquqiy tartibga solish tushunchasi va o'ziga xos jihatlari

Ayniqsa, inson xo'jalik faoliyati odatijasida vujudga keladigan, aslida atrof tabiiy mahit uchun yot bo'lgan, chiqindilar deb ataladigan ashyolarning hozirda ekologik muammolarning keskin shakliarini keltirib chiqarishdagi roli tobora ortib bormoqda.

Chiqindilarning salbiy ta'siri asosan ulardan zararli moddalar ajralib chiqib atmosfera havosini, chiqindilar joylashgan joydagi yet uchastkasini hamda shu yer uchastkasiga yaqin bo'lgan yer osti va usti suvlarini ifloslashida namoyon bo'ladi. Uslibu zararli moddalar inson organizmiga nafas yo'lli, teri va oziq-evqat orqali yuqishi va zaharlashi ham mumkin.

Chiqindilarni toplash, saqlash va ko'mish joylari bo'yicha davlat kadastrining ma'lumotlariga ko'ra 2011-yiliga kelib, maydoni 10329,7 ga bo'lgan asosiy chiqindi saqlash joylarida 2,4 mlrd dan ortiq sanoat va 71,9 mln. m³, kommunal-maishiy chiqindilar toplashgan. 2011-yildagi ma'lumotlarga qaraganda qattiq maishiy chiqindilar 71916,7 ming m. ifloslashgan tuproqlar 70400 tonna, tog'-kon sanoati chiqindilari 2,9 mln tonna, qurilishdagi chiqindilar 1,71 mila tonna, kul-shlaklar (IEM) 11,6 mln. tonna, fosfogips 76,1 min tonna, neft shlamlari 0,037 mln tonna, pulpa 16,6 mila tenna, chiqindi poligonlaridagi chiqindilar 1943,3 mln tonna, shlam chiqindilari 0,6417 mila tenna, ishlab chiqarish tashlanmalari 291,8 ming m³ ni tashkil etgan.

O'zbek tilining izohli lug'atida esa "radiatsiya (lot. "radiation"-nurlanish, "radiare" – sur chiqarmoq, tarqatmoq) – yadroviy o'zgarishlar eqibatida vujudga keladigan elektromagnit va korpuskulyar (mayda zarrachali) nurlanishtar" sifatida ta'riflangan. Radiatsiya unumiashgan tushuncha bo'lib, o'z ichiga tabiatda uchraydigan yoki sun'iy yo'l bilan olinadigan nurlanishning xilma-xil turlarini qamrab oladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi asosida qabul qilingan 21-aprel 2017-yil "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"⁸⁴gi Farmon, hamda 2017-yil 20-aprel kundagi "2017–2021-yillarda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida"⁸⁵gi, 2017-yil 21-aprelidagi "2017–2021-yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amaiga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁸⁶gi PQ-2916-sonli⁸⁷ qarorlari bugungi kunda chiqindilarning hosil bo'lishi, to'planishi, saqlanishi, tashilishi, utilizatsiya qilinishi, qayta ishlanishi, ko'milishi va realizatsiyasini nazorat qilish sohasidagi ishlarning yangi zamonaviy andozalarga mos talabini qo'ydi.

Mazkur Farmonga ko'ra:

– O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi markaziy apparati tarkibida Chiqindilarning hosil bo'lishi, to'planishi, saqlanishi, tashilishi, utilizatsiya qilinishi, qayta ishlanishi, ko'milishi va realizatsiyasini nazorat qilish inspeksiyasi, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalarining apparatlarida Inspeksiyaning hududiy bo'linmalari;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi, viloyatlar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari huzurida "Toza budud" davlat unitar korxonalarini va shaharlarda hamda tumanlarda tumani hokimliklari huzuridagi obodonlashtirish boshqarmalarining maishiy chiqindilarni tashib kerish bo'yicha xizmatlau ko'rsatish uchastkalari negizida ularning filiallari tashkil etilishi aniq ko'rsatib berildi.

2006–2010-yillarda o'tkazilgan tekshirishlar mobaynida aholi istiqomat joylarida 228 marta radiaktiv meyorlardan chetga chiqish og'ish hollari aniqlangan⁸⁸.

Mamlakatimizda radiatsiyaviy ta'sirga uchvagan alohida hududlar mavjud bo'lib, ushbu hududlarda atrof-muhitni rödiatsiya ta'siridan muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish zaruratini keltirib chiqaradi.

⁸⁴ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjadan ta'plami. – 2017. – № 17. – 287-meedda.

⁸⁵ Xalq so'zi. – 2017. – 22-aprel.

⁸⁶ Xalq so'zi. – 2017. – 22-aprel.

⁸⁷ O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit holatlari va tabuy resurslardan foydalananish to'g'risidagi Milliy ma'mura N.M.Umarov fahrim ostida. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi. – Toshkent: Chinoz, 2013. – B.157, 172.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda chiqindilar va radiatsion xavfsizlikni ta’minlash masalalariga alohida etibor berilmoqda.

“Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonunda “radiatsiyaviy xavfsizlik holatini baholash” va “radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minlash” tushunchalarining mazmun-mohiyati o‘chib berilgan⁸⁸.

Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minlashni tartibga solish ikkita usul bilan, ya’ni imperativ (buyruq) va dispozitiv usullar bilan amalga oshiriladi. Imperativ usul huquq normalari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlар ishtirokchisiga buyruq bilan ta’sir ko‘rsatish usulidir. Dispozitiv usul huquqiy munosabatlarning teng huquqli tomonlar bo‘lgan ishtirokchilari o‘itasidagi munosabatiarni tartibga solish usulidir.

Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minlashni tartibga solish, chiqindilar va xavfli ashyolar bilan muomala qilish faoliyatining dispozitiv usuli o‘zida tartibga solishning uchta usulini mujassam etadi: a) huquqiy xarakterga ega bo‘lgan harakatlarni sodir etishga ijozat berish; b) radioaktiv ashyolar bilan munosabatda bo‘lish bo‘yicha huquq normalari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlар ishtirokchilariga ma’lum huquqlar berish; d) radioaktiv ashyolar bilan munosabatda bo‘lish bo‘yicha o‘zaro munosabatlар ishtirokchilari bo‘lgan shaxsiarga o‘z axloqini tanlash imkoniyatini berish.

Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minlash, chiqindilar va xavfli ashyolar bilan muomala qilish faoliyati alohida ekologik xavfliligi va strategik ahamiyatga ega ekanligi bois ushbu sohada asosan huquqiy tartibga solishning imperativ usullari qo’llanadi. Bu usullar davlatning rahbariy ko‘rsatmalar, talablari, taqiqlari va ruxsatlari asosiga quriladi. Shunday qilib, ushbu institut o‘ziga xosliklarga ega va shu jihat bilan ekologiya huquqining boshqa institutlardan farq qiladi. Odamlar sog‘lig‘i va atrof tabiiy muhitni radioaktiv ashyolatning zararli ta’siridan muhofaza qilish sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish predmetidir.

Chiqindilar va xavfli ashyolar bilan muomala qilishni huquqiy tartibga solishning huquqiy asoslari

Chiqindilar va xavfli ashyolar bilan muomala qilishni huquqiy tartibga solish, radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minlash, radioaktiv chiqindilar bilan xavfsiz munosabatda bo‘lish, shuningdek ularni saqlash, qayta ishlash va ko‘mib tashlashga nisbatan bo‘lgan takablar.

⁸⁸ Ozrokkiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotmonasi. –2000. –№7,8. –212-modda

Yodda tuting!	1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" ⁸⁹ gi, 2000-yil 31-avgustda qabul qilingan "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida" ⁹⁰ gi, 2015-yil 15-iyunda qabul qilingan va Senat tomonidan 2015-yil 6-avgustda ma'qullangan "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida" ⁹¹ gi, 2000-yil 25-mayda qabul qilingan "Ekologik ekspertiza to'g'risida" ⁹² gi, "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonuni ⁹³ larida normalangan.
----------------------	---

Chiqindilar va xavfli ashyolar bilan muomala qilishni huquqiy tartibga solish va radiatsiya xavfidan muhofaza qilishda O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni muhim o'rinn egallaydi. Ushbu Qonunning maqsadi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'un inavezuanida rivojlanishini, ekologiya tizimlari, tabiat komplekslari va ayrim obyektlar muhofaza qilinishini ta'minlashdan, fuqarojarning qulay atrof-muhitga ega bo'lishi huquqini kafolatlashdan iborat.

Ayniqsa, radiatsiyaviy xavfsizlik paydo bo'lishining manbalaridan biri sifatida portlovchi va zaharli moddalar ham ma'lum bir tarib-qoidalari asosida, xususan, **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 5-martdagи "Portlovchi va zaharli moddalarни yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash, realizatsiya qilish sohasida xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 109-sonli qarori bilan tartibga solinadi⁹⁴.

Chiqindilar va xavfli ashyolar bilan muomala qilishni huquqiy tartibga solish, atrof tabiiy muhit va inson salomatligini radiatsiya ta'siridan muhofaza qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining **"Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni** mehim ahamiyat kasb etadi. Ushbu Qonunning maqsadi radiatsiyaviy xavfsiziikni, fuqarolar hayoti, sog'lig'i va mol-mulki shuningdek atrof-muhitni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat (1-modda).

⁸⁹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. -1993. -Nel. -38-modda.

⁹⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. -2000. -№7, 8. -212-modda

⁹¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. -1992. -№9. -355-modda

⁹² O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. -2000 yil. -№5, 6. -144-modda

⁹³ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. - 2002. -№4, 5. - 72-modda.

⁹⁴ O'zbekiston Respublikasi Hukumat qarorlari to'plamu. -2004. -№3. -22-anoda.

Yodda tuting!

Chiqindilar va xavfli ashyolar bilan muomala qilishni huquqiy tartibga solish va radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasining "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi Qonuni ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu Qonun sanitariya-epidemiologiya masalalarida aholining xotirjamligini va radiatsiya xavfsizligini ta'minlash sohasidagi ijtimoiy manosabatlarni tartibga soladi, odamning qulay atrof-muhitga ega bo'lish fuqquqini hamda u bilan bog'liq boshqa huquqlarini va ularni amalga oshirish kafolatlarini mustahkamiyadil.

Mamlakatimizda chiqindilar va xavfli ashyolar bilan muomala qilishni huquqiy tartibga solish va radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonuni ham muhim rol o'yndaydi. "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasida belgilanishicha, yuridik shaxslarning chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi faoliyati fuqarolari hayoti va sog'lig'ining hamda atrof-muhitning xavfsizligini ta'minlamog'i kerak.

Chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablari buzilganligi natijasida fuqarolar hayoti va sog'lig'iga yoki atrof-muhitga zarar yetkazilganda, shuningdek fuqarolar hayoti va sog'lig'i, atrof-muhit uchun xavfsizlikni ta'minlashning texnikaviy yoki boshqa imkoniyati bo'lmay turib, xavfli chiqindilar hosil bo'lgan hollarda yuridik shaxslarning faoliyati belgilangan tartibda cheklanishi, to'xtatib qo'yilishi yoki tugatilishi mumkin⁹⁵.

Yodda tuting!

"Chiqindilar to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasida belgilanishicha, O'zbekiston Respublikasi hududiga chiqindilarni, shu jumladan chet elga mansub radioaktiv chiqindilarning har qanday turlarini saqlash va ko'mib tashlash maqsadida olib kirish taqiqlanadi. Fuqarolarning hayoti va sog'lig'i, atrof tabiiy muhitning xavfsizligi ta'min etilishi sharti bilan chiqindilar faqat qayta ishlash va utilizatsiyalashtirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olib kirilishiga yo'l qo'yiladi Chiqindilarni saqlash sanitariya normalari va qoidalariga, ekologik xavfsizlik talablariga muvofiq hamda chiqindilardan oqilona foydalanishini yoki ularning boshqa shaxslarga berilishini ta'minlovchi usullarda amalga oshiriladi.

⁹⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. -2002. - № 5. -72-modda

Chiqindilar va xavfli ashyolar bilan muomala qilishni huquqiy tartibga solish va radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlashda "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"⁹⁶gi Qonun ham muhim rol o'yndaydi. Qonunda radiatsiyaviy falokat paytida radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlashga va aholini muhofaza qilishga, favqulodda vaziyatlardan aholi va hududni muhofaza qilish sohasida davlat ekspertizasini, nazoratini o'tkazishga bo'lgan talablar belgilab berilgan hamda favqulodda vaziyatlar yuz berganda davlat organlari va fuqarolarning huquq va burchlari mustahkamlangan.

"Aholini va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish to'g'risida"⁹⁶gi Qonunni hayotga tatbiq etish uchun O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan aholi va hududni tabiiy va texnogen xarakterdagi favqulodda vaziyatlardan himoya qilish va axborot almashuv tartibi tasdiqlangan⁹⁷.

Shuniugdek, Yer kodeksida ham atrof-muhitni radiatsiya ta'siridan muhofaza qilish masalalari o'z ifodasini topgan. Xususan, Yer kodeksining 81-moddasiga binoan radioaktiv iflosiangan yerlardan foydalish cheklab qo'yildi, ular qishloq xo'jalik yo'naliishi foydalanilayotgan yerlar toifasidan chiqariladi, konservatsiya qilish uchun zaxira yerlar toifasiga o'tkaziladi. Bunday yerlarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish va realizatsiya qilish taqiqlanadi⁹⁷.

Radioaktiv va kimyoviy iflosiangan yerlardan foydalish tartibi, muhofaza zonalarining belgilanishi, bunday yerlarda qurilgan nylar, ishlab chiqarish obyektlari, aholiga ijtimoiy va madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini saqlab qolish, bunday yerlarda meliorativ, ya'ni sug'orish va madaniy-tehnikaviy ishlarni amalga oshirish masalalari O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan hal etiladi. O'z faoliyati tufayli yerlarning radioaktiv sifati buzilib, asosiy maqsadli yo'naliishi ulardan foydalishning iloji qolmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 86-87-moddalariga ko'ra qishloq xo'jalik va o'rmon xo'jligi ishlab chiqarishi bo'yicha yetkazilgan zararni to'liq ravishda qoplaydilar, yerlarni radioaktivsizlantirish bo'yicha xarajatlarni ko'taradilar.

⁹⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomosi. -1999. -№9. -22¹-modda.

⁹⁷ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. -1998 yil. -№5.6. -82-modda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 81-moddasiga ko'ra kimyoviy yoki radioaktiv moddalar bilan ifloslanish natijasida ekologiya va sanitariya-gigiyenaga oid belgilangan talablarga javob beradigan mahsulot olish ta'minlanmayotgan yer uchastkalari qishloq xo'jaligi oborotidan chiqarilishi lozim va konservatsiya qilish uchun alarni zaxira yerlar jumlasiga o'tkazish mumkin. Bunday yerlarda qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish va realizatsiya qilish taqiqlanadi⁹⁸.

Ayniqsa, 2000-yil 31-avgustdag'i "Qishloq xo'jalik o'simliklарини зарекунандалар, касаликлар ва begona о'тлардан himoya qilish to'g'risida"gi Qонунинг 24-moddasiga binoan yuridik va jismoniy shaxslar kimyoviy moddalar, biologik vositalar va materialiarni saqlash, qo'llash, zararsizlantirish, utilizatsiya qilish, tashish va ko'mib tashlash chog'ida fuqarolarning sanitariya-epidemiologiya jihatidan bexatarligini ta'minlovchi sanitariya-gigiyena normalari, qoidalari va normativlariga, hayvonot dunyosi va hayvonlarning yashash muhitini muhofaza qilish talablariga, o'simlik dunyosi obyektlari va ularning o'sib ko'payish muhitini muhofaza qilish talabiariga rioya etishlari shart. O'simliklarni himoya qilish vositalarini faqat ulami saqlashga mo'ljallangan maxsus omborxonalarda saqlashga ruxsat etiladi. O'simliklarni himoya qilish vositalarini idishsiz saqlash taqiqlanadi. O'simliklarni himoya qilish vositalarini faqat maxsus moslangan transport vositalarida tashishga yo'l qo'yiladi⁹⁹. Zero, o'simliklarni himoya qilish vositalari ham muayyan darajada o'zidan zaharli moddalarni ajratib chiqarishi va u atrof-muhit va fuqarolar hayoti hamda sog'lig'iga sezilarli xavf tug'dirishi mumkin. O'simliklarni himoya qilish vositalarini saqlash va tashish chog'ida odamlar sog'lig'iga va atrof-muhitga zarar yetkazilishini istisno etadigan talablarga rioya qilinishi zarur.

O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-mayda qabul qilingan "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonuni ham chiqindilar va xavfli ashyolar bilan muomala qilishni huquqiy tartibga solish va atrof-muhitni radiatsiya ta'siridan muhofaza qilishga oid qoidalarni tartibga soladi. Ekologik ekspertiza rejatashirilayotgan har qanday xo'jalik va boshqa faoliyatning ehtiinolda tutilgan ekoilogik xavflilik prezumpsiyasi tanooyiliga asoslanishi bois davlat ekologik ekspertizasi obyektlari bo'lmish loyihalar, materiallar va boshqa hujatlarda yerlarni va boshqa resurslarni radioaktiv chiqindilarring zararli ta'siridan muhofaza qilish masalalari ko'rilgan bo'lsa, ularning holatini va ularni himoya qilish

⁹⁸ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi -1998 - №5.6. -82-modda

⁹⁹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujatlari to'plamini -2005 - №1. -5-modda.

bo'yicha nazarda tutilgan tadbi'lalar samaradorligini baholash bunday ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Yuqorida ulga olingen qoidalar atrof tabiiy muhitni, kishilarning hayoti va sog'lig'ini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi, "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida"gi, "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunlarida ekologik ekspertiza o'tkazilishining shartligi nazarda tutilgan. Bularning barchasi ekologik ekspertiza instituti, tibbiy epidemiologik ekspertiza, sanoat xavfsizligi ekspertizasi institutlari tushunchalarining mazmun-mohiyatini ochib berish zaruratin keltirib chiqaradi.

Bu masalada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi tomonidan 2006-yil 29-iyunda qabul qilingan va Senat tomonidan 2006-yil 25-avgustda ma'qullangan "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunda ham radiatsiyaviy xavfsizlik masalalari u yoki bu darajada tartibga solingan. Xususan, Qonunning 4-moddasida xavfli ishlab chiqarish obyektlari sanab o'tilgan bo'lib, unga ko'ra xavfli ishlab chiqarish obyektlari jumlasiga tasdiqlangan standartlarga muvofiq tirik organizunga ta'sir qilish darajasiga ko'ra I, II va III xavflilik darajalariga (o'ta xavfli, yuqeri darajada xavfli va o'rtacha darajada xavfli) mansub zararli moddalar; muayyan turdag'i tashqi ta'sir chog'ida issiqlik ajratgan va gazlar hosil qilgan holda o'z-o'zidan juda tez tarqaladigan kimyoiy o'zgaruvchan portlovochi meddalar; inson sog'lig'i va atrof-mohit uchun xavfli konsentratsiyali moddalar mavjud bo'lgan ishlab chiqarish chiqindilari foydalilanildigan, ishlab chiqariladigan, qayta ishlanadigan, hosil qilinadigan, saqlanadigan, tashhiadigan, yo'q qilinadigan moddalar ham kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ienlashtiruvchi nurlanish manbalari aylanishini davlat tomonidan hisobga olish va nazo'at qilish tizimini tashkil etish qoidalarini tasdiqlashi haqida" 2009-yil 3-apreldagi 98-soni qarteri¹⁰⁰, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 20-dekabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Radiatsiyaviy avariyalarni prognozlashtirish, barvaqt aniqlash va harakat qilish yagona davlat tizimi to'g'risida"gi Nizomda¹⁰¹ ham radiatsiyaviy xavfsizlik bilan bog'liq muhim masalalar o'z ifodasini topgan.

¹⁰⁰ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami -2009. -J-15. -183-modda.

¹⁰¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. -2012. -№51 -579-modda

Chiqindilar va xavfli ashyolar bilan muomala qilishning huquqiy tartibga solinishi va nazorat qilinishi

Chiqindilar va xavfli ashyolar bilan muomala qilishni huquqiy tartibga solish va nazorat etish faoliyatining davlat tomonidan tartibga solish ekologik qemun hujjatlari, shu jumladan chiqindilarga oid qonunchilikui shakllantirish va uni tatbiq etish orgali amalga oshiriladi.

Chiqindilar va xavfli ashyolar bilan muomala qilishni huquqiy tartibga solish va nazorat qilish bu vakolatli davlat organlaring chiqindilarga oid ishlarni bajarish, ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish hamda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha ijro etish va farmoyish berish faoliyatidir.

Davlat tomonidan tartibga solish usulublari deganda ijtimeiy munosabatlardan subyektlariga davlat tomonidan ta'sir ko'rsatilish usullari tushuniladi. Ulai tarkibiga ruxsat berish, man qilish, rozilik berish, majbuliy ko'rsatmalar berish kiradi.

"Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasida belgilanishicha, radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasini tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mabbamasi hamda u vakolat berigan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi¹⁰².

Vedda tuting!

Masalan, "O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi to'g'risida"gi Nizomda belgilanishicha, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslari qo'mitasi qo'shi davlatlarning geologiya xizmatlari bilan birgalikda transchegara hududlar doirasida radioaktiv va toksik elementlar bilan ifioslanish o'choqlarini aniqlash va o'r ganish ishlarni amalga oshiradi, qo'shi hududiarning ekoilogik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan alohida xavfli zonalar va uchastkalarni aks ettirgan holda geologiya xaratlari va atlasiotini tuzadi hamda ularni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mabbamasiga, manfaatdor vazirliklar va idoralarga taqdirm etadi; vazirliklar va idoralar bilan birgalikda suv resurslariidan (yer osti suvlaridan) foydalanish hamda hududlarni texnogen va xavfli geologik jarayonlar ta'siridan himoya qilish sxemalarini ishlab chiqadi; yer osti boyliklari uchastkalardan foydali qazilmalarni qazish bilan bog'liq bo'lmagan, shu jumladan chiqindilarni saqlash va ko'mish uchun yer osti inshootlari qurish va ulardan foydalenish uchun foydalanish imkoniyati o'r ganib chiqilishini ta'minlaydi va xulosalar beradi

¹⁰² O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotxonasi -26/03.- №7.8. -214-modda.

E'tirof etish o'riniiki, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlashda geologiya va mineral resurslar nuqtayi nazaridan radiatsiyaviy xavf kelib chiqishining oldini olishda asosiy bo'g' in hisoblanadi.

"Chiqindilar to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasi 7-bandiga ko'ra chiqindilarni joylashtirish obyektlari va joylashtirish l'mitlari Ekologiya va atrof-muhitni¹⁰³ muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlanganidan so'ng mazkur chiqindilarni joylashtirish mumkin yoki mazkur Qonunning 8-moddasi 5-bandiga ko'ra chiqindilardan tayyorlanayotgan tovarlarga Sog'hqni saqlash vazirligi tomonidan gigiyena sertifikati berilgandan so'nggina ularni muomalaga kiritish mumkin.

Radiatsiyaviy xavfsizlikni tartibga solishning ekologik, texnologik va atom nazorati bo'yicha xizmatni amalga oshiradi. Ijro hokimiyatining ushbu organlari o'z funksiyalarining takrorlanishini istisno qilish va radioaktiv chiqindilar bilan munosabatda yadroviy, radiatsiyaviy, texnikaviy xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga solishning samaradorligini oshirish maqsadida hamkorlikda faoliyat yuritishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 25-mayda qabul qilingan "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonuning 12-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi davlat ekologik ekspertizasini tashkil etadi va o'tkazadi

"O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi to'g'risida"gi Nizomning 11-bandiga muvofiq ushbu qo'mitaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi: atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ishlab chiqarish ustidan davlat nazoratining amalga oshirilishi; tabiatni muhofaza qilish sohalararo kompleks boshqaruvini amalga oshirish; yagona tabiatni muhofaza qilish va boyliklarni asrash siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish; qulay atrof-muhitning ekologik sharoitini ta'minlash, ekologik holatni sog'lomlashtirish va hokazo.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi o'z vakolatlari doirasida qabul qildigan qarorlarni respublikaning barcha vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar ijro etishlari shart. O'zbekiston Respublikasi

¹⁰³Eslatma:O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apreldagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvni tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Faraontiga ko'ra uning vakolatlari kengaytirildi:// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami. -2017. -№17. -87-mudda.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining qatorlari zarar boylarda O'zbekiston Respublikasining boshqa vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari bilan birgaiikda yoki ular bilan kelishilgan holda qabul qilinadi.

Qo'mitaning chiqindilar va xavfli ashyolar bilan muomala qilishni huquqiy tartibga solish va nazorat qilish hamda, radiatsiyaviy xavfsizlikka oid vakolatlaridan biri uning radiatsiyaviy chiqindilarga oid ishlarni amalga oshirish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratining olib borilishi aniq belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yer qa'rini geologik o'rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ("Sanoatgeokonteksnazorat" davlat inspeksiyasi) barcha yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan respublika hududida sanoat va radiatsiya xavfsizligiga, yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir qonun hujjatlari va normativ-texnik hujjatlarga, sheningdek tartibga solishning boshqa chora-tadbirlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini belgilangan tartibda amalga oshiruvchi sanoat xavfsizligi sohasidagi maxsus vakolati davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yer qa'rini geologik o'rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

"Chiqindilar to'g'risida"gi Qonunaing 11-moddasiga ko'ra, mahalliy davlat hokimiyyati organlari ham chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish to'g'risidagi qonun hujjatlariaga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Idoraviy nazorat respublikamizdagagi faoliyati tabiiy resurslardan foydalanish va tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq barcha vazirlik, davlat qo'mitalari, idoralari tizimi doirasida olib boriladi.

"Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 32-moddasiga ko'ra tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ishlab chiqarish nazoratini korxona, birlashma, tashkilotlarning ekologiya xizmati amalga oshiradi va tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni tiklash, atrof tabiiy muhitni sog'lomiashtirish, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlarning talablari bajarilishi yuzasidan dasturlar hamda ayrim tadbirlar ijrosini tekshirish maqsadini ko'zlaydi.

Eklogiya sohasidagi jamoat nazorati jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari, siyosiy partiyalari, turli uyushma va jamiyatlar, fuqarolar tomonidan amalga oshiriladi.

Jamoat nazoratining funksiyalaridan biri rejalashtirilayotgan faoliyatning atrof-muhit ta'siriga oid natijalarni jamoat muhokamasiga qo'yish hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlashning davlat tomonidan tartibga solish usullari tizimida radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash va ionlashtiruvchi nurlanish manbalari (INM) faoliyining batche bosqichlarida insonlar hayotiga va atrof tabiiy muhitga ko'rsatadigan radiatsiyaviy ta'siri baholashda davlat ekspertizasi institutini takomillashtirish va undan feydalanish zarur.

Nazorat uchun savollar

1. Radiatsiya va radiatsiyaviy xavf deganda nimani tushunasiz? Radiatsiyaviy xavfsizlik va ekologik xavfsizlik tushunchalari o'riasiidagi o'zaro farqni nimalarda ko'rishi mumkin? Javobingizni ekologik qonunlar asosida tahlil qiling va ularni farqini ko'rsating.

2. Tojikiston Respublikasi Regar alyuminiy zavodi (TALKO DUK) zavodi tomonidan qo'shi mamlakatlarga transchegaraviy atmosfera havosini ifloslanishi natijasida radiatsiyaviy ta'sirning salbiy oqibatlas mavjud.

Siz uni xalqaro va ekologiya huquqi asosida tahlil qiling.

3. 3-kurs talabalariga Ekologiya huquqi fanidan master klass seminar darsini olib borishda qatnashayotgan mutaxasis R.Kozimov fuqarolarning radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlashdagi huquq va majburiyatlar bilan insonning yashash uchun qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqi va bu muhitni saqlab qolish borasidagi burchi bir xil ma'noni anglatib hech qanday farqi yo'qligini tashuntirib, bu talablar O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni mahofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida o'z aksini topganligi haqidagi fikri bildirdi.

Shuningdek, u talabalar tomonidan berilgan savolga radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sehasidagi davlat nazoratini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yer qa'rini geologik o'rGANISH, sanoatda, konchilikda va komunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiysi. O'zbekiston

Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot berishi alohida ta'kidlab o'tildi.

Amino ayrim talabalar va mutaxassislari ushbu berilgan javobga qo'shimcha qilib, boshqa ekologik qonunlarda yana yangi holatlar mavjudligini bildirdi.

Bildirilgan fikr va vaziyatga huquqiy baho bering.

4. O'zbekiston Respublikasi hukumati Tojikiston Respublikasi Regar alyumuniy zavodi (TALKO) tomonidan atmosfera havosini ifoslantirishi oqibatida O'zbekiston Respublikasining janubiy viloyatlari, jumladan, Surxondaryo viloyati Sariosiyo, Oltinsoy, Uzun va Denov rayonlaridagi yashayotgan fuqarolarning sog'lig iga va qishloq xo'jalik mahsulotlariga miqdoridan yuqori darajada radiatsiyaviy nurlanish oqibatida yetkazilgan moddiy va ma'nnaviy zararni Regar alyumin zavodi (TALKO) tomonidan qoplanishini talab qilib Tojikiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaat qildi. Tojikiston Respublikasi Oliy Majlisi Tojikiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga va ushbu masala yuzasidan tuzilgan maxsus komissiyaga ushbu murojaatnomani o'rganib chiqish va ushbu masala yuzasidan tegishli xulosa berishni topshirdi. Ushbu masala bo'yicha komissiya va tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi arizani o'rganib chiqib, Surxondaryo viloyati Sariosiye, Oltinsoy, Uzun va Denov rayonlari hududida radiatsiyaviy nurlanish normal holatda ekanligi yuzasidan asoslantirilgan xulosa tayyorladi. Tojikiston Respublikasi Oliy Majlisi esa ushbu xulosaga ko'ra O'zbekiston Respublikasining murojaati yetarli buquqiy asosga ega emasligini ta'kidlab murojaatni bajarilishini rad etdi. Bundan norozi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi hukumati Tojikiston Respublikasi Prezidentiga murojaat etib, talablarni ijobiy hal etishilarini so'radi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

19-BOB. AHOLINI VA HUDUDLARNI TABIIY HAMDA TEXNOGEN XUSUSIYATLI FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK OFAT HUDUDLARINING HUQUQIY TARTIBI

Favqulodda ekologik vaziyatlar va hududlar huquqiy rejimi tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari va huquqiy asoslari Favqulodda vaziyatlar va ekologik ofatlarning oldini olish va buaday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi, fuqarelarning huquq va majburiyatları. Favqulodda vaziyatlar hududlari va ekologik ofat hududlarini transchegaraviy tasiri va ularning oldini olishning o'ziga xos xususiyatlari. Favqulodda vaziyatlar hududiari va ekologik ofat hududlarining huquqiy rejimini o'ziga xosligi.

Favqulodda ekologik vaziyatlar va hududlar huquqiy rejimi tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari va huquqiy asoslari

Hozirgi kunda "inson-jamiyat-atrof-muhit" munosabatlariga oid faoliyatlarini tavsiflashda "favqulodda vaziyatlar hududi", "ekologik ofat hududi", "ekologik xavfsizlikni ta'minlash" terminidan ko'proq foydalaniilmoxda. Jumladan, ayrim O'zbekiston Respublikasining ekologik qonunlarida "favqulodda vaziyatlar hududi", "ekologik ofat hududi" tushunchalari u yoki bu darajada berilgan.

Favqulodda ekologik vaziyatlar va hududlar huquqiy rejimi ifodasi 1992-yilda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunda o'z aksini topgan.

Favqulodda vaziyatlar va ekologik ofat hududlarini huquqiy rejimini ta'minalash ko'preq ekologik xavfsizlik bilan bog'liq bo'lib, olar to'g'risidagi barcha ta'riflarni ikki guruhga bo'lish mumkin: yuridik va noyuridik ta'riflar.

Zotan, kundalik hayotda favqulodda vaziyatlar va ekologik ofat hududlari, ekologik xavfsizlik tushunchasining qanday ma'neda qo'llanilishiga e'tibor bermay turib, uning yuridik ma'nodagi mazmunini anglash mushkun bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"¹⁰⁴gi Qonuning 3-moddasida ekologiya xavfsizligini ta'minlash, 38-moddasida falokatiarni va ularning ekologiyaga zararli

¹⁰⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Axborotmehosi. -1993. -№1 -38-modda

oqibatlarini bartaraf etish 39-moddasida, favqulodda ekologiya vaziyati va ekologiya ofati mintaqalari, 40-moddasida, ekologiya nuqtayi nazaridan xavf tag'diradigan vaziyatlar aniq ko'rsatilgan.

Atrof-muhit muhofazasida unga yetkazilgan shikast(zarar)ni "ekologik omil" deyish mumkin, lekin "ekologik xavf" deb bo'lmaydi, chunki uning ta'siri natijasida inson, jamiyat va davlat manfaatlariiga dashol "ko'zga tashlanadigan" jiddiy va og'ir putur yetkazilmaydi.

Atrof tabiiy mahitni muhofaza qilish bilan bog'liq masalalarni tahlil etish barobarida "favqulodda vaziyatlar va ekologik ofat hududlari huquqiy rejimi" tushunchasining yuridik tabiatini aniqlash mumkin.

Favqulodda vaziyatlar va ekologik ofat hududlari huquqiy rejimi va ekologik xavfsizlikni ta'minlash quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

Bunda favqulodda vaziyatlar va ekologik ofat hududlari huquqiy rejimi o'zining obyekti va subyekti, kelib chiqadigan oqibatlar, ekologik xavfsizlikka tajevuz soladigan holatlarga texnogen zvariyalari, portlashlar, tabiiy hodisalar va ofatlar, jonivorlarning ommaviy qirg'in qilinishi, yer, suv, yer osti va atmosfera havosining halokatli zaharlanishi va boshqalar misol bo'la oladi. Ekologik xavfsizlikka tajevuz sodir etilganda uning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan favqulodda ekologik vaziyatlar, ekologik halokatlar mintaqasi, deb ataluvchi maxsus rejimga ega bo'lgan holatlari e'lon qilinadi va tegishli davlat hokimiyati organlarining maxsus ish tartibi va aholini xavfsizligini ta'minlash va unga yordam berishning alohida tartibi belgilanadi.

Xullas, favqulodda vaziyatlar va ekologik ofat hududlari huquqiy rejimi deganda inson, jamiyat va davlatning manfaatlari atrof tabiiy muhit obyektlarining sifati buzilishi natijasida yetkazilgan yoki yetkazilishi mumkin bo'lgan ekologik zararning oldini olish va bartaraf qilish (texnogen) holat tushaniladi.

Umuman olganda, yuridik ma'noda favqulodda vaziyatlar va ekologik ofat hududlari huquqiy rejimi deb favqulodda yuz beradigan tabiiy yoki texnogen ekologik halokat natijasida atrof tabiiy muhit obyektlari orqali insonlar sog'lig'i, hayoti va mulkiga, shuningdek jamiyat va davlat manfaatlariiga talafot yetkazilshining oldini olishga va kelib chiqqan oqibatlarni bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish deb ta'riflash manlikin.

Favqulodda vaziyatlar hududlari va ekologik ofat hududlari rejimini huquqiy ta'minlashda, mustahkamlanishiida hamda ushbu sohada

fuqarolarning huquq va majburiyatlarini belgilab berishda, davlatning bu boradagi ekologik siyosatini shakillantirish va yo'naltirishda ekologik qonanchilikni, ayniqsa, konstitutsiyaviy normalarning o'rni juda katta.

Asosiy Qonunimiz bo'lgan Konstitutsiyada tabiatni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikei ta'minlash, favqulodda vaziyatlar hududlari va ekologik ofat hududlari rejimini huquqiy ta'minlash bilan bog'liq bir qator talablar o'z ifodasini topgan.

Shu manoda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi¹⁰⁵ talablar asosida qabul qilingan ekologik qonunlar batcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan so'zsiz bajarilishi va ularga qat'iy amal qilishlari lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsyaning 50-moddasida,

"Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyojkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar". –deb ko'rsatilgan.

Bu esa o'z vaqtida fuqarolar tomonidan yer, suv, o'rmon, yer osti boyliklari, hayvonot va o'simliklar dunyosini va boshqa tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanishni, ularni tiklash va muhofaza qilishni hamda ushbu majburiyatni o'z vaqtida bajarilishini ham taiab etadi.

2. Asosiy Qonusimizning 54-moddasida "Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning haquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmashigi shart", deb ko'rsatilishi ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, ekologik qonun talablarini va majburiyatlarini, favqulodda vaziyatlar hududlari va ekologik ofat hududlari rejimini huquqiy ta'minlashda to'liq rioya etishlari lozim va atrof tabiiy muhitga ziyon yoki zarar yetkazmasligi, ekologik ofatlarning oldini olish lozim bo'ladi.

3. Konstitutsyaning 55-moddasida, "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir", –deb ko'rsatilgani ham alohida ahamiyatga egadir. Bundan ko'rinib turibdiki, tabiatni muhofaza qilish, ekologik talablarga har doim rioya etish, ekologik ofat va ekologik halokatlarni oldini olish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash lezim bo'ladi.

¹⁰⁵ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent. O'zbekiston, 2017.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"¹⁰⁶gi Qonunining 38-moddasida falokatlarni va ularning ekologiyaga zararli oqibatlarini bartaraf etish masalalari ko'tsatilgan.

Unga asosan falokat sodir bo'lgan taqdirda korxona, muassasa yoki tashkilotlar favqulodda ekologiya vaziyatlariga mo'ljallangan o'z harakat rejalariga muvofiq falokatni bartaraf etishga darhol kirishishlari shart.

Mazkur qonunning 39-moddasida **Favqulodda ekologiya vaziyati va ekologiya ofati mintaqalari tushunchalariga aniq baho berilgan**. Unga ko'ra xo'jalik faoliyati va boshqa yo'sindagi faoliyat, tabiat stixiyali kuchlarining vayron etuvchi ta'siri yoxud ro'y bergan falokat yoki halokat natijasida muayyan hududlarning, shu jumladan suv va havo bo'shlig'ining atrof tabiiy muhitda inson salomatligiga, tabiiy ekologiya tizimlarining, o'simlik va hayvonlar genetik fondlarining holatiga tahdid soluvchi barqaror salbiy o'zgarishlar sodir bo'layotgan qismi favqulodda ekologiya vaziyati mintaqalari deb e'lon qilinadi.

Qonunning 40-moddasiga ko'ra "**Ekelegik nuqtayi nazaridan xavf tug'diradigan vaziyatlar deganda, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qe'mitasini tomonidan birinchi darajali xavfli moddalar jumlasiga kiritilgan o'ta zaharli, kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar, radioaktiv va boshqa moddalarni saqlash, tashish va ulardan foydalanish chog'ida atrof tabiiy muhitning ortiqcha darajada ifloslanishi, tabiat tizimlarining shikast topishi, inson salomatligi va hayotiga ziyon etishi tahdidi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar tushuniladi!**"

Ekologiya nuqtayi nazaridan xavf tug'diradigan vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qe'mitasining idoralari tegishli ishlab chiqarish obyektlari atrofida, transport magistral yo'llari bo'ylab alohida huquqiy tartib o'nataadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonanchilik palatasi tomonidan 2015-yil 15-iyulda qabul qilingan va Senat tomonidan 2015-yil 6-avgustda ma'qillangan, O'zbekiston Respublikasining "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"¹⁰⁷gi Qonuni ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu Qonunning maqsadi aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, sanitariya-gigiyena tadbirlarini va epideniyyaga qarshi tadbirlarni ishlab

¹⁰⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy Keogash Axborotresursi. - 1993. - №1. - 38-modd.

¹⁰⁷ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatani io'plami. -2015. - №34. - 451-modd.

chiqish hamda amalga oshirish, davlat tomonidan sanitariya-epidemiologiya normalarining joriy etilishi, aholining sanitariya madaniyati darajasini oshirish; davlat sanitariya nazoratini amalga oshirish hamda xalqaro hamkorlikni amalga oshirishga qaretilgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida"¹⁰⁸gi Qonuni ham favqulodda vaziyatlar hundlari va ekologik ofat hududlari rejimini huquqiy ta'minlashda muhiro ahamiyatga kasb etadi.

Ushbu Qonunning maqsadi radiatsiyaviy xavfsizlikni, fuqarolar hayoti, sog'lig'i va mol-mulki shuningdek atrof-muhitni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"¹⁰⁹gi Qonuning 1-moddasiga ko'ta ushbu qonun aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqoledda vaziyatlardan (bundan buyon matnda favqulodda vaziyatlar deb yuritiladi) muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni karnaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni maqsad qilib qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2008-yil 23-sentabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2008-yil 4-dekabrda ma'qullangan "**Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida**"¹¹⁰gi Qonuni ham o'ta ahamiyatlidir. Ushbu Qonunning maqsadi qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining tashkii etilishi, faoliyati va tugatilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2009-yil 24-iyunda qabul qilingan Senat tomonidan 2009-yil 28-avgustda ma'qullangan "**Yong'in xavfsizligi to'g'risida**"¹¹¹gi Qonuni hem muhim ahamiyat kasb etib, qonunning maqsadi yong'in xavfsizligi sohasidagi munosabatiarni tartibga solishdan iborat bo'jadi.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentining 2007-yil 19-fevraldag'i "Toshqinlar, sel ogimlari, qor ko'chishi va yer

¹⁰⁸ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi -2000. -№7.8. -212-modda.

¹⁰⁹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. -1999. №9. -221-modda.

¹¹⁰ O'zbekiston Respublikasi qonuni hujjalari to'plami. -2008. -№52. -511-modda.

¹¹¹ O'zbekiston Respublikasi qonuni hujjalari to'plami. -2009. -№40. -432-modda.

ko'chki hodisaiari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarni tegatish borasidagi chora-tadbirlar te'g'risida"¹¹²gi Qarori; 2010-yil 19-martdag'i 1305-sonli "2010-yilda O'zbekiston Respublikasi hududida sel-toshqiri va ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda holatlardan aholini himoya qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"¹¹³gi Qarori, ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaraderligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹¹⁴gi 2017-yil 1-iyundagi PF-5066-sonli Farmoni¹¹⁵ ham juda katta ahamiyatga ega bo'lib, favqulodda vaziyatlar hududlari va ekologik ofat hududlarining huquqiy rejimini mustahkamlashga qaratilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshoqin, sel oqimlarini oqiziib yuborish va ko'chki hodisalari bilan bog'liq bo'lgan halokatli oqibatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risi"¹¹⁶dagi 1994-yil 12-apreldagi 201-sonli qarori, hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlar Vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"¹¹⁷gi 1996-yil 11-apreldagi 143-sonli qarorlari, "Texnogen, rabiyy va ekologik tusdag'i favquledda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida"¹¹⁸gi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-oktabrdagi 455-sonli, qarori, "O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"¹¹⁹gi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 24-avgustdag'i 242-sonli¹²⁰ qarorlari ham favqulodda vaziyatlar hududlari va ekologik ofat hududlarining huquqiy rejimini mustahkamlashda muhim huquqiy manba hisoblanadi.

Favqulodda vaziyatlar va ekologik ofatlarni oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi, fuqarelarning huquq va majburiyatları

Favqulodda vaziyatlar hududlari va ekologik ofat hududlarining huquqiy rejimini keng o'rganish va u bilan bog'liq muammolarni ko'rib chiqishda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi muhim ahamitga ega.

¹¹²O'zbekiston Respublikasi qonun hejjatlari to'plamasi. -2007. -№7.8. -o1-modda

¹¹³X-ETK e'f'i. -2017. -№169 (6803).

¹¹⁴O'zbekiston Respublikasi qonun hejjatlari to'plamasi. -2011. -№34. 35-son. 350-modda. -2013. -№14. -458-modda; -2014. -№17. -196-modda. -2015. -№26. -338-modda. -2016. -№17. -176-modda

Mazkur masala O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"¹¹⁵gi Qonunida batafsil ko'rsatilganligini ko'rishimiz mumkin.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi tarkibi va faoliyat ko'rsatishi tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ushbu Qonuning 7-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari ko'rsatilishi ham muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va barakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2011-yil 24-avgustdagи 242-sonli¹¹⁶ qarori asosida tasdiqlangan "**O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida**"gi Nizomining 4-bandiga asosan quyidagilar FVDTning asosiy vazifalari hisoblanadi:

tinchlik va harbiy davrda aholi va hududiarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

respublika hududidagi mungkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni prognozlashtirish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash;

favqulodda vaziyatlarning oldini olishga, odamlar xavfsizligini ta'minlashga, xavslu texnologiyalar va ishlab chiqarishlarning tavakkalchiligin pasaytirishga, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining barqarorligini oshirishga qaratilgan maqsadli va kompleks ilmiy-texnik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

boshqaruv organlari va favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchan mo'ljalangan kuch va vositalarning doimiy tayyorligini ta'minlash;

aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborotlarni yig'ish, ishlab chiqish, ayriboshlash va berish;

aholini, boshqaruv organlarining mansabdar shaxslarini, FVDT kuchlari va vositalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash;

¹¹⁵O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi -1999. -№9 -221-modda.

¹¹⁶O'zbekiston Respublikasi qonari: hujjatlari to'plami -2011. -№34,35 -350-modda; -2013. -№34 -458 modda; -2014. -№17. -196-modda; -2015. -№26. -338-modda. -2016. -№17. -176-modda.

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxitalarini yaratish;

aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat ekspertizasi, nazorati va tekshiruvini amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish;

favqulodda vaziyatlardan zarar ko'rgan aholini ijtimeiy himoya qilishga deir tadbirlarni amalga oshirish;

aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida fuqarolarning, shu jundadan ularni tugatishda bevosita qatnashgan shaxslarning haquq va majburiyatlarini amalga oshirish;

aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlik qilish;

vujudga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlardan sug'urta qilishning maqbul tizimini ta'minlash.¹¹⁷

Shuningdek, 9-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining aniq vakolatlarini ko'rsatilishi ham o'ta muhimdir.

Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 24-avgustdagi 242-sonli¹¹⁸ qatori asosida tasdiqlangan "Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlarning aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha funksiyalari"ga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi:

FVDT faoliyatini boshqarish va davlat nazoratini amalga oshirish.

Favqulodda vaziyatlarning oldinti olish va ularni tugatish tadbirlarini amalga oshirish uchun moddiy resurslarning idoraviy zaxirasini jamlash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar tayyorlash.

Aholini birinchi navbatda zarur tovarlar bilan ta'minlash va favqulodda vaziyatlarni tugatish uchun jalb etiladigan maxsus tuzilmalarni jihozlash uchun moddiy boyliklarning idoraviy zaxirasini yaratish va jamlash kabi funksiyalarni amalga oshiradi.

Qonunda favqulodda vaziyatlar hududlari va ekologik ofat hududlarining rejimini huquqiy mustahkamlashda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlarini aniq ko'rsatilishi ham muhim ahamiyatga egadir.

¹¹⁷ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari fo'plami. -2011 -№34, 35 -330-modda; -2013. -№34 -458-modda; -2014. -№17 -150-modda; -2015. -№26. -338-modda; -2016. -№17. -176-modda

¹¹⁸ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari fo'plami. -2011 -№34, 35 -330-modda; -2013. -№34. -458-modda; -2014. -№17. 196-modda; -2015. -№26. -338-modda; -2016. -№17. -176-modda.

Ayniqsa, qonunda fuqarolar o'zini o'zi boshqaish organlarning favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishdagi ishtiroki, ya'ni aholi punktlari, suv ta'minoti manbalari, ijtimoiy va madaniy obyektlarning sanitariya va ekologik holati ustidan nazorat amalgalashirishiga yordam beradilar; fuqarolarni favqulodda vaziyatlar oqibatiarini bartaraf etishga jallb qiladitar; qonen hujjatlariga muvoqiq boshqa choralarni amaliga oshiradilar, —deb ko'rsatilishi ham e'tiborlidir.

Favqulodda vaziyatlar hududlari va ekologik ofat hududlarining rejimiga huquqiy baho berishda, fuqarolarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi **huquq va majburiyatlar** alokida ahamiyatga ega.

Bu masala, O'zbekiston Respublikasining "Abolini va hududlarni tabiiy hamma texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"¹¹⁹gi Qonunning 15-moddasida bu sohadagi fuqarolarning huquqlari batafsil ko'rsatilganligi ham katta ahamiyatga egadir.

Amaldagi mazkur qonunda fuqatolarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlar ham batafsil ko'rsatilgan.

Zero, favqulodda vaziyatlar hududlari va ekologik ofat hududlaridan muhofaza qilish sohasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi huquq va majburiyatlar ham e'tiborlidir.

Mazkur qonunning 17-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi hududida chet el davlatlarining fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega bo'ladilar va majburiyatlarni bajaradi.

Umuman olganda, abolini va mutaxassislarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi temoniidan belgilanadi.

Shuningdek, amaldagi qonun tatalblariiga asosan favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ekologik huquqiy bilimlarni targ'ib etish ham hozirgi baiqaror rivojlanish sharoitida zamonaviy va ekologik ahamiyatga ega bo'lib, favqulodda vaziyatlar hududlari va ekologik ofat hududlaridan muhofaza qilish sohasida o'ta ahamiyatlidir.

**Ta'kidlash joizki, Fuqaro muhofazasi tuzilmalari bilan
Toshkent shahar hokimi Fuqaro muhofazasi boshlig'ining 2013-yil**

¹¹⁹O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi –1999. –№9. –221-moddasi

30-dekabrdagi "Aboli va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish he'yicha 2013-yilda bajarilgan tadbirlar yakuni va 2014-yildagi vazifalar to'g'risida"gi 3-soni buyrug'iga asosan 15 soatlik dastur asosida o'qitish ishlarini tashkil etishda amaliy mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor qaratish hamda kelgusida bo'lib o'tadigan taktik-maxsus o'quv mashqiariga montazam tayyorgarlik ko'rib borish tavsiya etildi.

Xullas, hozirgi sharoitda ekologiya, favqulodda vaziyatlar hududlari va ekologik ofat hududlarini muhofaza qilish, bu sohasidagi qonunlarni takomillashtirib borish, ularning mohiyatini aholi o'rjasida keng targ'ib qilish va ekologik madaniyatni yanada oshirib borish mamlakatimizni yanada obodonlashtirib favqulodda vaziyatlar hududlari va ekologik ofat hududlari bilan bog'liq muammolarning oldini olishga yordam beradi.

Favqulodda vaziyatlar hududlari va ekologik ofat hududlarini transchegaraviy ta'siri va ularni oldini olishning o'ziga xos xususiyatlari

Markaziy Osiyoda joylashgan O'zbekiston o'ziga xos tabiiy iqlimga ega. Respublikamiz g'arbdan – qor-yoing'irli bo'ron va dovullar, janubi-sharqdan – issiq va quiq garmsei, shimaldan esa sovuq, izg'irin shamollar oqimidan ibora siklon ta'siri ostidadir.

O'zbekiston hududining geologik va geodinamik xususiyatlari yurtimiz hududining zilzila, toshqin, sel, ko'chki, qor ko'chishi kabi tabiiy hodisalarga meylligini oldindan aniqlash, belgilash imkonini beradi.

2010-yilda respublikada XGJ hosil bo'lishi natijasida 262 marotaba turli xildagi tog' jinslarining siljishi kuzatildi. Davlat kadastr ro'yxatiga XGJ bo'yicha 72 ta ko'chki va bajmi 1000 m^3 ortiq o'pirilishlar kiritildi. Shundan 36 ta ko'chki Toshkent viloyatida (Angrenda 12 ta va Bo'stonliqda 24 ta), 14 tasi Surxondaryoda, 2 tasi Samarcandda va 2 tasi Farg'ona vodiysida yuz bergan.¹²⁰

Noqulay iqlim ta'sirida, har yili turli miqyosdagi yuzlab ko'chkilar faollashadi va yangidan shakllanadi. Ushbu xavfli geologik jarayonlarning xavfi tufayli xatarli zonalardan bexatar joylarga yuzlab xo'jaliklarda yashovchi odamlarni doimiy ko'chirish, yo'llarda harakatni vaqtinchalik

¹²⁰O'zbekiston Respublikasida aero-molot holati va tabiiy resurslidan boydalanish lo g'isidagi Milliy ra'za // N.M.Umerov tahsil ostida; O'zbekiston Respublikasi Istatistik indekslari qilish qo'mitası - Toshkent. Chonet ENK, 2013. - B.194

cheplash, zarar ko'rgan kommunikatsiya iiniyalarini tiklash va shu kabilas, zarurati vujudga keladi. Xavfli geologik jarayonlar bilan bog'liq xatarlarni monitoring qilish, bashoratlash va ogohlantirish tizimini tashkil qilish quyidagilarni taqozo etadi: xavfli geologik jarayonlarni kuzatishning kartografik ma'lumotlari bankini yaratish; nazorat va xabardor qilishning yerdagi tizimlarni takomillashtirish va aerokosmik tizimlarini yaratish; mintaqaviy va lokal darajalarda oldindan ogohlantirishni tashkil qilish; ko'chki xatarlaridan himoyalashning muhandislik texnik usullarini rivojlantirish va hokazo.

Ta'kidlash o'rinniki, Toshkent, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari Respublikada eng xavfli yer ko'chish hududlariga kiradi. Tog'lar qurshovida Farg'ona vodiysida yer ko'chishlari asosan adir hududlarini o'zlashtirish bilan bog'liq. Samarqand viloyati ba'zi hududlarida ham yer ko'chishi kuzatilgan. O'zbekiston Respublikasining deyarli barcha tog'oldi hududlari sel xavfi bor hudud hisoblanadi. Farg'ona vodiysi, Toshkent va Surxondaryo viloyatlari eng katta sel xavfi bor hududlar hisoblanadi. Qorlar tez eriydigan va uzoq yomg'ir yog'adigan aprel-iyul oylarida eng ko'p sei holatlari kuzatiladi. Bunday joyiarda hozirgi paytda respublika bo'yicha 4 ta seldan himoyalovchi qurilma bor, xoles. Respublikada 54 ta suv ombori, jumladan, 25 ta juda muhim va toifalashtirilgan suv omboridan foydalaniлади. Bunda 11 ta juda muhim suv omboridan 30 yildan ortiq vaqtadan buyon foydalaniilib kelinmoqda. Ularda muhandislik va gidrotexnik uskunalar jismonan va ma'naviy eskirgan va almashtirilishi zarur.

Respublika hududida suv omboriari tarmog'ining tarqqiyoti ularda katta bajmdagi erigan, daryo va atmosfera yog'inlarini to'plash imkonini berdi. Shundan kelib chiqib, so'nggi yillarda aholining katta qismida daryolar sayozlashgani va suv omborlaridan quyi qismida bexatar qurilish ishlari olib borish imkoniyati borligiga asossiz ishonch paydo bo'ldi. Biroq suv to'liq bo'lgan yillarda anomal yuqori darajadagi suv dambadan o'tib ketishi, to'g'onlar buzilishi, shuningdek yirik suv omborlaridan suvni falokatli chiqarish yuborish ehtimoli mavjud. Bu holatlarda oqibatini tasavvur etib bo'lmaydigan favqulodda vaziyatlar ro'y berishi mumkin.

Markaziy Osiyo respublikalari hududida ro'y beradigan sel toshqinlari umumiyl sonidan 75 foizi O'zbekiston ulushiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston hududiga xavf soladigan 271 ta ko'l aniqlangan. Shundan, 238 ta (jami ko'llarning 88 foizi) ko'l Qirg'iziston Respublikasi hududida, 11 ta (jami ko'llarning 4 foizi) ko'l Tojikiston hududida va 22 ta (jami ko'llarning 8 foizi) ko'l O'zbekiston hududida joylashgan.

2008-2010-yillar mobaynida FVV hamda boshqa vazirlik va idoralar hamkorligida 33 ta suv ombori va sel suvlari tashlanadigan 48 ta suv havzasi tekshirilib, tartibga keltirilgan¹²¹.

Tabiiy va texnogen tusdagi xavfli vaziyatlar to'y berishida texnologik va himoyaviy cho'a-tadbirlarni amalga oshirish orqali favqulodda vaziyatlar xatarini pasaytirish va oldini olish mumkin.

Amaliyat shuni ko'tsatmoqdaki, texnogen falokatlar va ofatlarning sabablari quyidagilardir: xavfli muddalarni ishlab chiqaruvchi, ishlatuvchi, qayta ishlovchi, saqlovchi, tashkil qilavchi yoki ko'chirib o'tuvchi obyektlardagi halokatlar; yonilg'i-energetika, kimyoviy va kommunikatsiya komplekslari obyektlaridagi halokatlar; temiryo'l va aviatсиya transportidagi falokatlar, avtomobil yo'llari va magistral trubaprovodlardagi halokatlar; gidrotexnik qurilmalardan foydalanish tartibi qoidalarini buzish; diversiya-terroristik aksiyalar oqibatlarining ikkila'mchi omillari; qurilmalarning to'satdan buzilishi va texnologik jarayonda vujudga ketishi mun'kin bo'lgan boshqa xatarlar.

Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarni ogohlantirish va ehtimoliy xatarlarini pasaytirish sohasidagi asosiy yo'nalishlar quyidagilarni taqozo etadi: respublika ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish va ishlatish; xavf va tahdid emillari ta'siri sharoitida ishlab chiqarish va respublika infratuzilmasining barqaror faoliyatini ta'minlash; ishlab chiqarish obyektlarini yetakchi va ekologik toza texnologiyalar asosida bosqichma-bosqich zamonalivylashtirish; xavfli obyektlar va hayotni ta'minlash tizimlari ishining ishonchlilikini oshirish; ehtimoliy favqulodda vaziyatiarni monitoring qiliш, proqnozlash va ogohlantirish; yuqori texnogen xavfga ega zonalar davlat kadastrini yaratish va yuritish. O'zbekiston Respublikasi hududida turli xil favqulodda holatlar ko'plab turlarining asosiy manbasi sisatida texnogen va tabiiy xavflarning yuqori darajasi saqlanib kelmoqda.

Respublikada texnogen halokatlarning asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi: ishlab chiqarish sohasida davlat xavfsizlik boshqaruvi mexanizmlarining zaiflashishi, barcha ishlab chiqarish bosqichlarida mehnat va texnologik intizomning, falokatlarga qarshi barqarorligining

¹²¹O'zbekiston Respublikasida atrof-nijsat holati va tabiiy reurasidagi boyordanish to'g'risidagi Milliy ma'refa / N.M.Umarov tsuhuri ostida. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhotaca qiliш qo'mitası.-Toshken: Chonor ENK, 2013 -B.194-195.

pasayishi; asosiy ishlab chiqarish fondlarining yangilanish sur'atlarning pasayishi bilan bir vaqtida mana shu fondlarning tez sur'atlarda eskirib borishi; xavfli (zararli) moddalarini, material va mahsulotlarni ishlab chiqarish, yetkazib berish, saqlash va foydalanishning texnologik murakkabligi va xavfning ortishi hamda aholi va atrof-muhitga xavf soluvchi ishlab chiqarib chiqindilarining to'planib botishi. Kimyoviy xavfli moddalarining chiqarilishi, portlashlar va yong'inlar, gidrodinamik avariyalari, elektroenergetik tizimlarda, tozalash inshootlari va quvurlardagi avariyalari texnogen sohada eng katta xavfga ega.

Bugungi kunda mamlakatimizda transchegaraviy ekologik muammolarni xavf solishi ham o'ta tashvishlidir. Shu asnoda, suv va atmosfera havosi bilan bog'liq bo'lgan transchegaraviy muammo mavjud bo'lib, bular Tojikiston Rog'un GESi qurilishi va Tojikiston Regar alyuminiy zavodi (TALKO DUK) misolida ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, Tojikiston Respublikasi rahbariyati tomonidan, Rog'un GES ining o'tgan asrning 80-yillarida boshlangan qurilishini, oradan 25 yildan ko'proq muddat o'tgach, yana davom ettirish to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Agar shu obyektning bundan 40 yil oldin tayyorlangan loyiha hujjalari, o'sha yillar andozalari, loyihaviy va konstrukturlik yechimlariiga asoslanganligi, ular allaqachon eskirgan bo'lib, qaytadan ko'rib chiqish va jiddiy tuzatishlar kiritishi talab etishi inobatga olinadigan bo'lsa, bunday qaror chinakamiga jiddiy tashvish tug'dirmasligi mumkin emas.

Ana shu maqsadda 2016-yilning 19-iyulida Tojikiston Tashqi ishlari vazirligiga O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining yo'llangan ochiq xatida ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017–2021-yillatda yer osti suvlari zaxiralaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olish, tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi¹²² qarori ham bu masalani ijobiy hal etishning ahamiyatiga e'tibor berilgan.

Shu manoda, O'zbekistonning janubiy hududlariga transchegaraviy ta'sir ko'rsatayotgan Tojikiston alyuminiy zavodi (TALKO DUK) faoliyati bilan bog'liq keskin ekologik holat saqlanib qolmoqda.

Hozirgi vaqtida "Talko" DUK faoliyati natijasida Surxondaryo viloyatining shimoliy tumanlari hududida atmosfera havosidagi fitorli vodorodning miqdori yo'l qo'yiladigan eng yuqori konsentratsiyadan (YQYUK) o'rta hisobda 18-2 baravar, yoz oylarida esa 2-3 baravar oshib ketmoqda.

¹²²Xalq so'zi – 2017. – 6 may. – №60 (6784).

Ushbu zararli moddalarning talay qismi havo oqimi bilan tevarak atrofga, shu jumladan O'zbekistonning Denov, Sariosiyo, Uzun va boshqa tumanlari hedudiga o'tib, mintaqaning ming yillar davomida shakllangan

Yuqoridagi salbiy holatlarning oldini elish va mazkur masalani hal etish maqsadida Toshkenda 20-, 21-avgust kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan O'zbekiston ekologik barakati bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Tojikiston "Ta'ko" davlat unitar korxonasining ishiab chiqarish faoliyati ekologiyaga va odamlar sog'lig'iga ko'rsatayotgan halokatlari ta'sirini bartaraf etish chora-tadbirlari" mavzusida xalqaro seminar bo'lib o'tdi va alohida qaror qabul qilindi.

Ekologik tizimini buzmoqda. Shuningdek, bu yerdagi zinch yashayotgan 1 millionga yaqin aholining sog'lig'iga o'nglab bo'lmaydigan darajada zarar yetkazmoqda.

Shu bilan birga, transchegaraviy hududlarida suv havzalaridan foydalantish bo'yicha qo'shma mamlakatlar bilan hamkorlikda tegishli choralar ko'rilmasa, bu hol daryolarning qiyi oqimida joylashgan mamlakatlar uchun bir qator salbiy ekologik ofatli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Jumladan, yetarlicha suv bilan ta'minlanmaslik, ayniqsa, sug'oriladigan dehqonchilikka jiddiy ta'sir ko'rsati, yer sho'rланishining keskin ortishi, hayvonot va o'simlik dunyosiga ziyon yetishi, tabiiy o'zanlarning yo'q bo'lib ketishi, yer osti chuchuk suv zaxitalarining kamayishi kabi bir qator ekologik muammolar yuzaga keladi.

Shu bois so'nggi paytlarda atrof-muhit muhofazasi, transchegaraviy suv resurslarini boshqarish mavzusidagi nufuzli xalqaro anjumanlarda xalqaro hamjamiyat, Yevropa davlatlari va Yevropa komissiyasi vakillari keng jamoatchilikning asrlar davomida qaror topgan hamda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va millionlab kishilar uchun kunchekirish manbasi bo'lgan daryolarda suv hajmi va tartibi o'zgarmasligini kafolatlovchi xolis ekologik ekspertizasiz gidrotexnik inshootiarni qurishga qarshi ekanliklarini, shuningdek mintaqaga ekologiyasi uchun, ayniqsa, Orol dengizi havzasi uchun yangi tahdidlarga yo'l qo'yib bo'lmasligini ta'kidlamoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2014-yil oktabrda bo'lib o'tgan "Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat

oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariiga yo'llagan tabrigida ta'kidlaganidek, "Amudaryo va Sirdaryoning Orolga umumiy quyilish hajmi keyingi ellik yil ichida qariyb 5 baravar, Orol dengizining suvi 14 baravardan ko'proq kamaydi, uning shotlaniш darajasi esa deyarli 25 marta ortdi. Bu Orol dengizida ilgari bo'lган baliq va boshqa dengiz mavjudotlарining deyarli butkul yo'qolishiga olib keldi.

Ainmo Orolbo'yida ro'y berayotgan fojia ko'lamini, bu yerda yashayotgan millionlab odamlarning dardi va orzu-armonlarini quraq raqamlar bilan ifoda etib bo'lmaydi. O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmanistonning Orol fojasining kuchli ta'siri ostida qolgan mintaqaiari aholisi har kuni suv resurslarining yetishmasligi, ichimlik suvi sifatining pasayishi va tuproq tarkibining buzilishi, iqlim o'zgarishi, aholining birinchi navbatda, bolalarning turli kasallikkarga chalinishi ko'payib borayotgani bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolarni boshidan kechirmoqda"¹²³.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 29-avgustdagagi №255-senli "2015-2018-yillarda Orolbo'yı mintaqasini tiklash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, Orol halokatining oqiba'larini yengillashtirish" borasidagi chora-tadbirlar kompleks dasturi to'g'risida"¹²⁴gi, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-martdagagi 159-sun qarori bilan qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi "Orolbo'yı mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalaniш tartibi to'g'risida"gi nizomi va qarorlarining qabul qilinganligi ham olamshumul ahamiyatga egadir.

Bundan ko'rinish turibdiki, Oroi inqirozining atrof-muhit va bu yerda yashayotgan millionlab aholi hayotiga halokatli ta'sirining oldini olish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Shuningdek, mintaqaga aholisi xavfsizligiga ko'plab to'g'onlarning texnik holati, shuningdek hozirga kelib 16,6 km² hajmda suv to'planib qolgan Sarez ko'li tabiiy to'g'onining holati ham tahdid solib teribdi.

Ayanchli tomoni shundaki, Tojikistondagi Rog'un GESi ishga tushiriladigan bo'lsa, to'g'on ostida qoladigan yuz metr qalnlikdagi tuz qatlami ushbu ulkan texnogen halokat xavfini yanada kuchaytiradi. Ushbu tuz qatlamining suv ta'sirida doimiy yuvilib turishi haitoki sezilar-sezilmas seysmik siljishlar ham 350 metrlik uyma to'g'onning o'pirilishiga

¹²³ Xalq so'zi. -2014. -30-oktabr.

¹²⁴ O'zbekiston Respublikasi qenan bujjetleri to'plami. -2015. -№25. -469-modda.

olib kelishi muqarrar. Bunday holat ro'y beradigan bo'lsa, yer sathidan 100 metr baland bo'lgan to'lqin pastga sekundiga 130 metr yoki soatiga 468 kilometri tezlikda yopiriladi. Oqibatda quyida joylashgan Nurek GESi to'g'oni butunlay o'pirib, bu to'lqin yanada balandlashadi va Vaxsh kaskadidagi boshqa barcha GES va gidrouzellarni vayron qiladi. Tojikiston, O'zbekiston va Turkmanistonning o'nlab shahar va aholi punktiari suv ostida qoladi. Markaziy Osiyo mintaqasida esa misli ko'rilmagan texnogen va ekologik halokat yuzaga keladi.

Rog'un GESining qurilishi loyihasi yuzaga keltiradigan xavflarni qayd etarkanmiz, uning Tojikiston va qo'shni davlatlar ekologiyasi, bioxilma-xilligi hamda millionlab odamlar istiqomat qilayotgan joylarga yetkazadigan muqarrar fojiali ta'sirini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Loyiha bo'yicha 14 kub kilometr sig'imga ega Rog'un GESi suv omborini to'ldirish uchun sakkiz yil kerak bo'ladi. Bu davrda Amudaryo oqimi keskin o'zgarib, uning quyi qismidagi hududlarda uzoq yillar qurg'oqchilik yuzaga keladi.

Rog'un suv ombori to'la quvvat bilan ishga tushgach, GESning energetik ish rejimiga o'tkazilishi yoz-kuz mavsumida omborda suv to'planishi sababli qurg'oqchilik va suv tanqisligini yuzaga keltirishi, qish mavsumida esa elektr energiyasining ishlab chiqarish maqsadida suv omboridan katta miqdorda suv chiqarilishi oqibatida toshqinlar bo'lishi, botqoqlanish va suv bosish yuz minglab hektar sehrosil yerlarni yaroqsiz holga keltirishi mumkin. Bunday vaziyat O'zbekiston va Turkmanistonning millionlab aholisini muhim hayotiy manbalardan mahrum etadi.

Shunisi e'tiborliki, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yaqinda Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuxamedov bilan uchrashuv chog'ida ham transchegaraviy daryolardan oqilona foydalanish, cho'ilanishga qarshi kurashish, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga alohida e'tibor bergenligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.¹²⁵

Ayniqsa, 2017-yil 10-fevralda BMTning "Orolbo'yı mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'p sheriklik fondini tashkil qilish orqali Orol dengizi fojiasidan zarar ko'rgan aholining turmush sharoitini yaxshilash va mustahkamlash" dasturi amalga oshira boshlanganligi ham muhim qadamlardan biridir.

Xullas, yuqoridaqilardan ko'rinish turibdiki, demak, har qanday vaziyatda mamlakatlar transchegaraviy hududlaridagi ekologik

¹²⁵O'zbekiston, Turkmaniston – strategik sherik davlatlar / Xalq so'zi. – 2017. – 7-mai.

muammolarni bir-birlariga zarar yetkazmasdan ijobiy hal etish va barcha xalqlar manfaatini ko'zlab odilona xalqaro talablarga mos ish yuritish ular o'rtasidagi tarixiy munosabatlarni va do'stlikni yanada mustahkamlashga va har qanday favqulodda vaziyatlar hamda ekologik ofatlarning oldini olishga yordam beradi.

Favqulodda vaziyatlar hududlari va ekologik ofat hududlarining huquqiy rejimining o'ziga xosligi

Ekologik xavf hodisasining sodir etilishi va uning oqibatlarini bartaraf etish mazkur halokat sodir etilgan joy (obyekt) va halokat ta'sir doirasi qamrab olingan hududga alohida huquqiy rejim berilishini talab etadi va bu hududda maxsus huquq qo'llanishi amalga oshiriladi. Maxsus huquq qo'llanishi favqulodda vaziyatlarda amalga oshinligani va subyektlar uchun favqulodda huquq va majburiyatlar keltirib chiqargani uchun ham ushbu sohadagi tartibga soluvchi huquqlar tizimini favqulodda huquqlar deb tushunish lozim.

Oqibatlarining og'irligi va tarqalish miyisosiga qarab favqulodda ekologiya vaziyati quyidagi turlarga bo'linishi mumkin:

1. **Mahalliy**—bitta viloyatdag'i bir yoki bir nechta aholi yashash hududlari (qishloqlar, posyolkalar, turnanlar yoki shahar) miyisosida yuz beradi.
2. **Hududiy**—markazi bir viloyat hududida bo'lgan va boshqa viloyatlar hududiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan hodisa
3. **Milliy**—bir nechta viloyatlarni qamrab olgan, lekin oqibatlari bitta davlat hududidan cheiga chiqmaydigan favqulodda vaziyat
4. **Global**—bir davlat hududidan chiqib boshqa davlatlar hududiga ta'sir qiladigan favqulodda hodisalar.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov BMT sanunitining ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqida ushbu muanimoga oid quyidagi fikrni bayon etgan edi:

"Bunday sharoitda 30-40 yil avval, sobiq sovet davrida ishlab chiqilgan, mazkur daryolar yuqori qismida ulkan gidroinshootlarni qurish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga har qanday urinishlat, shuningdek ushbu inshootlar barpo etiladigan zonalarning seysmik xavfi 8-9 ballni tashkil etishini hisobga oisak, bularning barchasi ekologiyaga o'ng'lاب bo'lmaydigan zarar yetkazishi va xavfli texnogen halokatlarga club kelishi mumkinligi ayon bo'ladi"¹²⁶.

¹²⁶Karimov I.A. BMT sanunitining ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi noq'i. 2010-yil 20-sentabr. www.press-service.uz.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasida ekologik xavf hodisasi sodir etilgan hududda maxsus rejim ta'sis etilishi ko'zda tutilib, uni favqulodda vaziyat (favqulodda ofat) mintaqalari deb e'lon qilish belgilangan¹²⁷.

Maxsus rejimni ta'sis etishdan asosiy maqsad ekologik xavf sodir etilgan hududda uning oqibatlardan aholini va jamiyatni himoya qilish, talafot ko'rganlarga yordam berish, zarar ko'lamini kamaytirish, tabiat obyektlarini nobud bo'lishdan saqlab qolish, ularni qayta tiklash va atrof-muhitni sog'lomlashtirishdan iborat bo'ladi. Maxsus rejimli hudud maqsadlariga alohida tarzda huquq qo'llash va tashkiliy-huquqiy ishlarni amalga osbirish orqali erishiladi.

"Favqulodda huquq" qo'llanishi uchun ekologik xavf hodisasi (halekat) sodir bo'lishi natijasida favqulodda vaziyat vujudga kelganligi va uning oqibatiда tegishli hududni "favqulodda ekologiya vaziyati" yuzaga kelgan yoki "favqulodda ekologiya ofati" mintaqasi deb e'lon qilinishi asos hiseblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida favqulodda vaziyat tushunchasiga ta'tif berilgan. Unga ko'ra "favqulodda vaziyat – odamlar qurban bo'lishi, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishi, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat; aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralar, usullari, vositalari tizirni, sa'y-harakatlari majmuyidir"¹²⁸.

Ekologik xavf hodisalarida xavf favqulodda (to'satdan) yuz beradi, lekin uning oqibatlari og'ir va davomli bo'ladi. Favqulodda ekologik halokat yuz berganda eng muhim yuz bergan hodisani idrok etish, kelib chiqqan oqibatlarni tezda bartaraf etib jaflangan aholini normal hayotga qaytishidir.

Ma'lumki, ekologik xavf hodisalari ikki xil shaklda sodir etiladi: tabiiy va texnogen. Tabiiy hodisalar inson erkiga bog'liq bo'lmagan holda sodir etiladi, texnogenlari esa insonnинг xo'jalik faoliyati va uning natijasi bilan bog'liq bo'ladi.

¹²⁷ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Axborotnomasi – 1993-y – №1 – 38-moddasi.

¹²⁸ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi – 1999. – № 9. – 221-moddasi.

Biroq havo, suv va yer uchastkalarini qasddan zaharlash, yer va o'mmon uchastkalaridan oqibati halokatga olib keladigan darajada foydalanish, ekologik terrorizm va boshqalarni ham ekologik xavfsizlik hodisalariga kiritish lozim.

Texnogen xarakterdag'i ekologik xavfsizlik hodisalar - avariyalari asosan sanoat, transport, energetika, qurilish, suv xo'jaligi va boshqa korxona va obyektlarda sodir etiladi. Shuningdek, terroristik harakat va zavarkunandalik oqibatida avariyalar sodir etish, atrof tabiiy muhiini zaharlash ham xuddi shunday obyektlarda sodir etilishi mu'mkin.

Texnogen ko'rinishda sodir etiladigan halokatlarning oldini olish ekologik xavfsizlikni ta'minlash jarayonining asosiy negizini tashkil etadi.

Shu o'rinda Rossiya tajribasidan foydalanish, balki maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu davlatda "Ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan

O'zbekiston Respublikasining 'Aholini va hududlami tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida korxonalar, tashkilotlar va muassasalar "xavf manbai yuqori bo'lgan obyektlar xavfsizligi to'g'risida belgilangan tartibda deklaratsiya taqdim etishlari" shartligi belgilangan¹²⁹.

Favqulodda ekologik xavli falokat yoki halokat natijasida vujudga kelgan vaziyat ma'lum bir hududni qamrab oladi. Bunday hududning ko'lami (o'lchami) kelib chiqqan oqibatlarning tarqalishiga qarab belgilanadi. Demak, maxsus huquqiy munosabatlar o'lcharlari aniq bo'lgan tegishli hudud doitasida vujudga keladi va tartibga solinadi.

Xullas, favqulodda ekologik vaziyatlar va ekologik xavf sodir etilgan hududda uning oqibatlaridan aholini va jamiatni himoya qilish, talafot ko'r ganlarga yordam berish, zaror ko'larni kamaytirish, tabiat obyektlarini nobud bo'lishlari saqlab qolish, ularni qayta tiklash va atrof-muhitni sog'lomlashtirish borasida AQSH, Fransiya, Xitoy, Angliya, Koreya, Rossiya kabi xorijiy mamlakatlar tajribalaridan foydalanish va ularni amaliyotga qo'llash ham ijobiy natija beradi.

Nazorat uchun savollar

1. Yuridik adabiyotlar hamda amaldagi qonunchilikda favqulodda vaziyatlar hududlari va ekologik ofat hududlari huquqiy tezminining tushunchasiga qanday ta'sif berilgan va uning huquqiy asoslari mavjud.

Siz ularga ekologiya huquqi talablari asosida ta'sif bering.

¹²⁹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. -1999. -No 9 .-221-modda.

2. Favqulodda vaziyatlar hududlari va ekologik ofat hududlarida favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishning o'ziga xos talablari mavjud. Shuningdek, bu sohada fuqarolarning huquq va majburiyatlarini amalga oshinishda ham e'tibor berish lozim.

Shu ma'nuda, xorijiy mamlakatlarda favqulodda vaziyatlar hududlari va ekologik ofat hududlarining o'ziga xos tajribasi haqida kengroq fikrlang.

3. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2007-yil 19-fevraldag'i "Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chisi va yer ko'chki hodisalarini bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2013-yil 28-fevraldag'i "2013-yilda sel-toshqinlar va yer ko'chki hodisalarini bilan bog'liq favqulodda vaziyatiardan O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududlarini himeya qilish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarida favqulodda vaziyatiarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor berilgan.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

4. Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalasiga oid ma'ruza bilan qatnashgan Rossiya fuqarosi S.Rogov O'zbekiston Respublikasi hududida chet el davlatlarining fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga nisbatan alohida qonunda ko'rsatilgan huquqlarga ega bo'ladilar va majburiyatlarni bajaradilar deb ta'kidladi. Mazkur fikrga qo'shilmegani ayrim tinglovchilar ushbu manbani aniq ko'rsatishlarini talab qilib, bu fikrlarga noto'g'ri ekanligini ta'kidladi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

20-BOB. ATROF TABIIY MUHITNI XALQARO EKOLOGIK-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH

Xalqaro ekologiya huquqi tushunchasi va uning xususiyatlari. Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik huquqiy muhofaza qilish tamoyillari. Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik-huquqiy muhofaza qilish obyektlari. Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik-huquqiy muhofaza qilish manbalari. Juhon ummoni daryolar, dengiz va suv boyliklarini xalqaro huquqiy ekologik muhofaza qilish. Atmosfera havosi va kosmik fazoni xalqaro ekologik-huquqiy muhofaza qilish. Tog'-kon boyliklarini xalqaro ekologik muhofaza qilish va xalqaro hamkorlik.

Xalqaro ekologiya huquqi tushunchasi va uning xususiyatlari

Hozirgi paytda atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik muhofaza qilish eng dolzarb muammodir. Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik muhofaza qilish xalqaro ekologiyə inquqi bilan tartibga solinadi.

Esda tuting!

Xalqaro ekologiya huquqi - rivojlanib borayotgan xalqaro huquqning, ancha keng institutlaridan biri bo'lib, keyinchalik huquq tizimining yagona bir tarmog'i bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham ayrim yuridik adabiyotlarda xalqaro ekologiya huquqining turli muammolar ko'rsatilgan va ushbu masalaga ko'proq ahamiyat berilgan.

Xalqaro ekologiya huquqi hozirgi davrdagi xalqaro ekologik qonunchilik rivojlanishi va uning amalga oshirilishi munosabati bilan rivojlanib bormoqda.

Xalqaro ekologiya huquqi xalqaro miqyosda ekologik qonuniyarni va barcha xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy normalarni tartibga solib, xalqaro prinsiplarga mos holatda tabiatni, atrof-muhitni muhofaza qilishga hamda barcha tabiat boyliklaridan ogilona foydalanishga, dunyo xalqlar uchun soj musaffo, boy tabiatni ta'minlab berishga qaratilgandir.

Xalqaro ekologiya huquqining predmeti bo'lib, xalqaro ekologik munosabatlari, dunyo xalqlari, ya'ni inson va atrof tabiiy muhit, o'rtaсидаги о'заро chambarchas bog'liqlik hisoblanadi.

Xalqaro ekologiya huquqining subyekti bo'lib, millat va xalqlar, o'z mustaqilligiga ega bo'lgan barcha davlatlar, xalqaro tashkilot va birlashmalar, xalqaro ekologik munosabatlarga qatnashuvchi va hal etuvchi barcha yuridik haında jismoniy shaxslar tan olinadi.

Esda tuting!

Xalqaro ekologiya huquqining obyekti dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan, butun xalq, millat va elatning yashashi uchun hayot manbai, ya'ni yer, suv, havo (atmosfera) o'simlik va hayvonot dunyosi, o'rmon, barcha yer osti va yer ustii beyliklari, butun tabiat--ona zamin hisoblanadi.

Shuningdek, xalqaro ekologiya huquqining bir qator xususiyatlari ham mavjud:

birinchidan, bu xalqaro ekologik huquqiy munosabatlarni mustahkaulaydi va tartibga soladi;

ikkinchida, mavjud xalqaro ekologik holat, ekologik xavfsizlik va muammolar xalqaro prinsiplar asosida ko'rib chiqiladi va hal etilishi ta'minlanadi;

uchinchidan, qabul qilingan barcha xalqaro ekologik huquqiy normativ hujjatiar, bitta davlat emas, balki bir nechta davlatlar va xalqlar manfaatidan kelib chiqiladi;

to'rtinchidan, xalqaro miqyosda tuzilgan barcha ekologik huquqiy normalari xalqaro prinsiplarga asosan amalga oshirilishi davlatlar tomonidan ta'minlanadi va hokazo.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik huquqiy muhofaza qilish tamoyillari

Ekologiya huquqida, atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik muhofaza qilishning tamoyillari xalqaro huquqning asosiy prinsiplaridan kelib chiqadi va xalqaro ekologiya huquqiga nisbatan qo'llaniladi.

Esda tuting!

Mazkur (prinsiplarni) tamoyillarni qo'llashdan asosiy maqsad, tabiiy muhitni va uning boylik manbalarini saqlash hamda ulardan oqilona foydalananishdir.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik huquqiy muhofaza qilish tamoyillari, asosan BMT va uning atrof-muhit bo'yicha o'tkazilgan Stokholm konferensiyasi (1972), Yevropada xavfsizlikni ta'minlashning yakuniy hujjatida (Xelsinki, 1975) va Umumjahon tabiat xartiyasida hamda Rio-de-Janeyro konferensiyasi (1992) qarorlarida aniq ko'rsatib berildi.

1. Tabiatni muhofaza qilish va uning mutanosibligini saqlash tamoyili. Bunga asosan barcha davlatlar tabiat va uning boyliklarini muhofaza qilishlari hozirgi va kelajak avlodlar fatovonligini ko'zlab ekologik tadbirlari birgalikda amalga oshirishlari lozim. Zero, tabiatni muhofaza qilish ishida barcha davlatlar bir-birlari bilan hamkorlik qilishlari zarur. Bunday ekologik hamkorliklar teng huquqli va o'zaro manfaat asosidagi shartnomalarga muvofiq amaiga oshirilishi shart.

2. O'z territoriyasida tabiat boyliklariga nisbatan suverenitetlik prinsipi. Ushbu prinsip dastlab BMT Bosh Assambleyasining 1962-yil 14-dekabrdə qabul qilgan "Tabiiy boylik manbalari ustidan ajralmas suverenitet" qarorida o'z ifodasini topgan. Bu prinsip haq bir davlat o'z tabiiy boyliklarini o'z siyosatiga muvofiq erkin tasarruf etish bo'yicha suveren huquqqa ega ekanligini ko'zda tutadi, boshqa davlatlarga esa bu huquqni hurmat qilish majburiyatini yuklaydi.

3. Inson ekologik huquqining afzalligi. Bu prinsipga asosan insonning yashashi uchun qulay ekologik sharoit bo'lishini ta'minlash, haq qanday jarayonda insonning ekologik yeshasi omili birinchi o'rinda turishi lozim.

4. Hamma sohada ekologik nazoratni tashkit etish va olib borish. Olib borilayotgan barcha nazorat tartibi xalqaro huquq qoidalariaga mos bo'lib, O'zbekiston Respublikasida "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning VII bo'lim 28-32-moddalari asosida amaiga oshirilishi lozim.

5. Xalqaro miqyosda ekologik axborotni erkin ahamkiyish tamoyili. Mazkur holat bo'yicha davlat atrof tabiiy muhit holatini kuzatib borish xizmati tabiiy muhitda sodir bo'layotgan fizik, kimyoiy, bioologik jarayonlarni, atmosfera havosi, tuproq, yer usti va yer osti suvlarning ifloslanish darajasini, ifloslanishning o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'siri oqibatlarini kuzatib borish, manfaatdor tashkilotlar va aholini atrof tabiiy muhitda sodit bo'layotgan o'zgarishlar haqida joriy va shoshilinch axborotlar hamda bu muhit holatiga doir taxminlari bilan ta'minlash maqsadida tashkil etiladi.

6. Favqulodda ekologik vaziyat holatida davlatlarning bir-birlariga o'zaro yordam ko'rsatishi. Davlatlarning o'zaro kelishuvleri asosida favqulodda ekologiya vaziyati va ekologiya ofati muntaqalarida shu vaziyatni keltirib chiqargan ishlar te'xtatilib qo'yiladi, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir etuvchi faoliyat (aholiga xizmat ko'retish bilan bog'liq faoliyat bundan mustasno) taqiqlanadi, tabiiy muhitni tiklash va sog'lomlashtirish chora-tadbirlari ko'riladi.

7. Xalqaro ekologiya huquqiy kelishmovchilik va nizolarni tinch yo'llar bilan hal etish. Xalqaro miqyosda kelib chiqadigan ekologik huquqiy nizolarni, davlatlarning o'zaro kelishuviga asosan tuzilgan bitim yoki shartnomaga asosida tinch yo'l bilan hal etiladi.

Shuningdek, hozirgi davrda yana bir qator tamoyillarni shakllanish jarayoni kechmoqda:

- boshqa davlatlarning ekologik masalalar bilan bog'liq bo'lgan ishlari aralashmaslik;
- ekologik muammolarni hal etishdagi hamkorlik;
- tinchlik va ekologik xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- ekologik muammolarni hal qilishni ko'p tomenlama kelishuv asosida rivojlantirish;
- ekologik baho berish va boshqalar.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik-huquqiy muhofaza qilish obyektlari

Xalqaro ekologiya huquqida atrof tabiiy muhitni xalqaro huquqiy muhofaza qilish obyektlarini o'rGANISH juda katta ahamiyatga ega

Atrof tabiiy muhit xalqaro ekologik huquqiy muhofazasi obyekti bo'lib, bunga yerning butun sayyora muhiti, jahon ummoni va uning tabiiy boyliklari bo'lgan atmosfera havosi, yet atrofi kosmik fazesi, o'simlik va hayvonot dunyosi, suv boyliklari, yerning genetik fondi va boshqalar kiradi.

**Ma'lumot
uchun !**

Xalqaro huquqda xalqaro ekologik-huquqiy nuqtayi nazardan barcha jahon tabiiy boyliklari asosan ikki turkumga bo'linadi:

- Ichki davlat (milliy) tabiiy boyliklari;
- Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy boyliklar.

Ichki davlat (milliy) tabiiy boyliklari mustaqil davlatlarning bevosita huquqiy sudovi ostida bo'ladi Zero, ularning huquqiy ekologik holatini belgilashda, davlatning ichki ekologik huquqiy va boshqa normalarini katta ahamiyatga ega bo'ladi. Hozirgi paytda mustaqil Respublikamizning ushbu boyliklarni muhofaza qilishga oid bir qancha bitim va shartnomalar qabul qilinmoqda.

Xalqaro abamiyatga ega bo'lgan tabiiy boyliklar milliy yuridik-sudlovning amal qilish chegaralari doirasidan tashqari holatda bo'lib, turli davlatlar hududida bo'ladi.

Ushbu obyektlar, odatda, barcha davlatlar o'ttasida foydalaniladi.

Masalan: ocbiq dengiz, kosmos, havo basseyni, Antarktida, dengiz tubi, daryolarning suv resurslari, ko'chib va uchib yuradigan hayvonot turlari hamda davlatlar o'ttasidagi chegara doirasidan tashqari holatda foydalanadigan barcha obyektlar shular jumlasidandir.

Shuningdek, xaiqaro iniqyosda dunyo Qizil kitobiga kirgan barcha hayvon va o'simiiklar dunyosining turlari ham alohida obyektlar bo'lib, ularni muhofaza qilishda bir necha davlat, ya'ni xalqaro hamkorlik kerak bo'ladi.

Masalan: Antarktida. U oltinchi qit'a sifatida hech qanday davlat va xalqaro tashkilot yurisdiksiyasiga kirmaydi. Uni muhofaza qiliш barcha davlatlarning o'zaro kelishuvi asosida amalga oshiriladi. Hozirgi paytda Antarktida qit'asidan foydalanish va muhofaza qilishning asosiy prinsiplari 1959-yilda imzolangan "Antarktida to'g'risida"gi shartnoinaga asosan tartibga solinadi.

Unga asosan, erkin ilmiy-tekshiruv faoliyati olib borish, har qanday harbiy xarakterdagи zaratlik tadbiriyati o'tkazmaslik, tirik mavjudotni qo'riqlash kabi muammolarni xalqaro birgalikda hal etishga alohida e'tibor berilgan.

Xeillas, xalqaro tabiiy boyliklarning ekologik muhofazasi va utardan foydalanish huquqiy-ekologik holati xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadi.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik huquqiy muhofaza qilish manbalari

Xalqaro huquqda atrof tabiiy muhitni ekologik huquqiy muhofaza qilish manbalari – bu xalqaro hamjamiyat davlatlarning atrof tabiiy muhitni ekologik huquqiy muhofaza qilishga va undan ogilona foydalanishga qaratilgan o'zaro hamkorligi faoliyatini erkin amalga oshirishdir.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik huquqiy muhofaza qilishning manbalarini ikki gurmiga bo'lish mumkin.

1. Birinchi kategoriya manbalarga konvensiya (kelishuv bitim va shartnomalar) kiradi.

Hezirgi kunda O'zbekiston Respublikasi jahondagi yetakchi manbiatlarning 120dan ortig'i bilan tasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatgan.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida ko'pgina nufuzli davlatlar bilan bir qator konvensiyalarga qo'shilgan, uiar bilan ekologik shartnoma va kelishuvlar tuzilgan.

E'tiber bering !

"Iqlimuming o'zgarishi bo'yicha" konvensiya (1993-yil 14-may). **"Xalqaro biologik xilma-xillik to'g'risida"gi konvensiya** (1996-yil 7-may), **"Xavfli chiqindilarning chegaradan olib e'tilishini nazorat qilish bo'yicha" Bazel konvensiyasi** (1996-yil 7-may)

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bu konvensiyalarda qabul qilingan majburiyatlarini bajarish bo'yicha qator amaliy choralarini ko'rnioqda. Jumladan, atmosfera havosining ozon qatiarnini muhofaza qilish bo'yicha Vena konvensiyasi va Montreal protokoli doirasida ozon qatiarnini yemiradigan moddalar inventarizatsiyasi o'tkazilib, Milliy harakat dasturi tayyorlanmoqda. Bu dastur asesida biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha barcha tadbirlar Markaziy Osiyo respublikalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Hezirgi vaqtida esa hukumatimiz BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi konvensiyalariga qo'shilish ustida ish olib bormoqda. Shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish sohasida Turkiya Respublikasi (1996-yil 8-may) va Xitoy Xalq Respublikasi (1997-yil 11-dekabr) bilan ikki tomonlhma hamkorlik bitimlari imzolangan. Bunday bitimlarni boshqa davlatlar bilan tuzish uchun ham tayyorgarlik mavjud.

2. Ikkinci kategoriya manbalarga BMT Bosh Assambleyasining bir qator rezolyutsiya, deklaratsiya va xartiyalari kiradi.

a) ushbu kategoriyalagi manbalari ichida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan tashkil etilgan va chaqirilgan Stokholm deklaratsiyasi (1972) katta ahamiyatga ega.

b) BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1980-yilning sentabr oyida qabul qilingan "Barcha davlatlarning hezirgi va kelajak avlod uchun yet-

(kurrasini) zaminini saqlash uchun tarixiy javobgarligi" to'g'risidagi rezolyutsiyasi ahamiyatlidir. Mazkur rezolyutsiya dunyo xalqlari va barcha davlatlarning harbiy quronanishni qisqartirishga va tabiatni muhofaza qilishga oid aniq tadbirlarini belgilaydi.

d) BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1982-yil tasdiqlangan "Butun jahon tabiatni muhofaza qilish xartiyasi".

Ushbu hujjat 1982-yil 28-oktabr kuni BMT Bosh Assambleyasi 37-sessiyasining rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan.

Xattiyada tabiatni muhofaza qilishning 24 asosiy prinsiplari ko'rsatib berilgan. Mazkur hujjada ekologik ta'lif va tarbiya masalasiga alohida e'tibor berilgan.

Jahon ummoni daryolar, dengiz va suv boyliklarini xalqaro huquqiy ekologik muhofaza qilish

Xalqaro huquqda jahon ummoni – daryo, dengiz, okean va boshqa suv resurslarini xalqaro ekologik muhofaza qilish katta ahamiyatga ega.

Chunki inson va boshqa tirik mavjudotlarning normal yashashi, ko'payishi hamda saqlanishi uchun suv boyliklari ina'lum mutanosiblikda saqlanishi zarur.

Dengiz mahitini himoya qilish bo'yicha davlatlarning birgalikdagi harakati qoida tariqasida universal (amalda barcha manfaatdor davlatlar ishtiroki bilan) yoki mintaqaviy (aniq dengizlar – Boltiq, O'rta yet va boshqa dengizlar bo'yli davlatlarning ishtiroki bilan) darajalarda amalga oshirildi. Bunday xalqaro hamkorlik rivojlanishi asosan dengizlarning kema qatnovi ogibatida, kemalar va quruqlikdagi manbalardan chiqindilarni chiqarib tashlash tufayli dengiz tubi imkoniyatlarini tadqiq qilish va foydalanish natijasida ifloslanishining oldini olish ko'zda tutiladi.

Dengiz muhitini muhofaza qilishga qaratilgan ko'plab xalqaro hujjatlar orasida, 1954-yildagi dengizlarni neft bilan ifloslanishining oldini olish to'g'risidagi London konvensiyasi (1962, 1969 va 1971-yillardagi tuzatishlar bilan), 1973-yildagi kemalardan dengizlar ifloslanishining oldini olish bo'yicha xalqaro konvensiya, 1972-yildagi "Chiqitlar va boshqa materiallar bilan dengizlar ifloslanishining oldini olish bo'yicha" Konvensiya singari ko'p tomonlama xalqaro bitimlar markaziy o'rinni egallaydi.

1954-yilgi London konvensiyasi (1958-yil kuchga kirgan) davlatlarning zimmasiga dengiz muhitini ifloslanishining oldini olish bo'yicha muayyan majburiyatlar yuklovchi dastlabki xalqaro bitimi bo'lgan

edi. Konvensiya kemalardan neft va neft-suv aralashmasini to'kishni taqiqlaydi. Dastlab to'kish uchun taqiqlanmagan maxsus zonalar belgilangandi, lekin keyinchalik (1969-yilgi tuzatishga muvofiq) juda oz daajadagi istisnoni hisobga olmaganda, jahon ummonining butun akvatoriyasida bunday to'kish taqiqlab qe'yildi. Konvensiya ishtirokchi davlatlar zimmasiga portlarda kemalar va tankyerlardan neft qoldiglari va aralashmalarini qabul qilib oluvchi qurilmalar qurish majburiyatini yuklaydi.

Jahon ummoni suvlarini ifloslanishdan saqlash bilan birga jonli dengiz boyliklarini kamayishdan saqlash va ulardan oqilona foydalanish ham g'oyat muhim vazifa hisoblanadi. London konvensiyasi dengiz baliqchiligin xalqaro huquqiy tartibga solishning asosiy g'oyasini tashkil etadi. 1958-yilgi ochiq dengizda baliq ovlash va tirik jonivorlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi (1966-yili kuchga kirgan) ochiq dengizda baliq ovlash erkinligi tamoyilini e'lon qildi. Shu bilan birga davlatlarga jonli resurslarni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlar ko'rish va bu yo'nalishdagи jameaviy tadbirlarda ishtirok etish majburiyatini yuklaydi. Xalqaro huquqning keng tan olingan qoidalari bunday masalalar bo'yicha ko'p tomonlama bitimlarda aniqlashtiriladi va rivojlantiriladi. Bular:

- davlatlarning jonli dengiz boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishda mintaqaviy hamkorlikni tashkil etish (1949-yildagi Atlantika ummonining shimaliy-g'arbiy qismida baliq ovlash to'g'risidagi konvensiya, 1959-yildagi "Atlantika ummonining shinoliy-sharqiy qismida baliq ovlash to'g'risida"gi konvensiya, 1959-yildagi Qora dengizda baliq ovlash to'g'risidagi bitim, "Boltiq dengizida baliq ovlash va jonli resurslarni muhofaza qilish to'g'risida"gi 1973-yilgi konvensiya va boshqalar);

- ovm tartibga solish va dengizdagи jonivorlarning ayrun turlarini muhofaza qilish (1962-yilgi "Boltiq dengizidagi jonivorlarni muhofaza qilish to'g'risida"gi bitim, 1946-yildagi "Kit ovlashni tartibga solish bo'yicha" xalqaro konvensiya, 1972-yildagi "Antarktida tyulenlarni saqlash bo'yicha" konvensiya) va hoshqalar.

Chiqitiar va boshqa materiallar bilan dengizlarni ifoslantirishning oldini olish ifodalagan 1972-yilgi konvensiya (1975-yili kuchga kirgan) barcha xavfli moddalar va materiallarni jahon ummoniga cho'ktirib yuborishni tartibga seladi. Konvensiyada ko'zda tutilganidek, eng xavfli moddalar bunday tartibda cho'ktirib yoki ko'mib yuboriimaydi. Bunday moddalarni ko'mib yoki cho'ktirib yuborish uchun maxsus nuxsatnomalar tuziladi.

zarur. Unchalik xavfli bo'limagan moddalarini ko'mish yoki cho'kturish uchun esa umumi y ruxsat beriladi. Bunday modda va materiallarning ro'yxati konvensiyada ilovalarda ko'rsatib berilgan. Xususan, ishlamagan yoki yoqilg'i nefti, og'ir dizel yonilg'isi va moyi, yuqori radioaktiv chiqitlar, simob va simob birlitsalari, me'tadil plastmassalar, shuningdek, biologik va urushda foydalani shun tayyorlagan kimyoviy materiallarni dengiz va ummonga tashlashi batunlay taqilanganadi.

Kemalardan dengizlar ifloslanishining oldini olishiga qaratilgan 1973-yilgi Konvensiya (hali kuchga kirmagan) dengiz muhitini kemalardan dengizga chiqarib tashlanuvchi har qanday moddalar neft, zaharli suyuq moddalar, oqova suvlari va axiat bilan ifloslanishining barcha turlariga chek qo'yish zaruratidan kelib chiqadi. Uning qoidalari amalda barcha turdag'i dengiz kemalatiga, shu jumladan havo "yostig'i" bo'lgan kemalar, suvosti kemalari, doim bir joyda turuvchi va suzib yuruvchi kichik stansiyalarga taalluqli bo'ladi. Faqat harbiy, harbiy-yordam kemalari va hukumat savdo kemalari bundan mustesnadir. Konvensiyaga muvofiq neft va suyuq zabarli moddalar tashish uchun xizmat qiluvchi barcha tanker va boshqa kemalar vaqt-vaqt bilan tekshirib turilishi va tegishli xalqaro guvohnoma olishi kerak bo'ladi.

Xalqaro tarzdagi choralar davlatlarning mintaqaviy hamkorligi bilan to'ldirilmas, u yoki bu dengiz mintaqalarining o'ziga xosligi va xususiyatlari hisobga olmas ekan, jahon ammoni muhitini muhofaza qilish yetarli darajada bo'lmaydi. Keyingi yillarda bir qator mintaqaviy xalqaro bitimlar xuddi mana shu maqsadlarni ko'zlab tuzildi. Bular: 1974-yildagi Boltiq dengizi mintaqasi muhitini muhofaza qilish bo'yicha Konvensiya, 1976-yildagi O'rta yer dengizini ifloslanishdan muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya, Shimoliy dengizini ifloslanishdan saqlashga qaratilgan bir qator bitimlar, dengiz muhitini ifloslanishdan muhofaza qilish bo'yicha hamkorlik qilish to'g'risidagi 1978-yilda qabul qilingan Quvayt mintaqaviy konvensiyasi shular jumlasidandir.

Hozirgi paytda **ko'p millatli daryolar** va boshqa suv havzalari davlatlar tomonida asosan sanoat, qishloq xo'jaligi ehtiyojiali uchun foydalanimoqda.

Shuning uchun ham, ko'p millatli daryolarning suvlariidan foydalishning barcha masalalari hamma manfaatdor (qizg'oq bo'y) davlatlarning kelishib yondashishi va hamkorligini taqozo etadi. Xalqaro shartnomasi amaliyoti xuddi mana shu yildan borayotir. Xalqaro huquqda hozircha **ko'p millatli daryolardan** kema qatnovi, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa məqsadlarda foydalishni tartibga soluvchi tameyillar

va me'yordarni kodifikatsiyalovchi universal xalqaro konvensiya yo'q. Bunday foydalanishning barcha turlari (yoki ularning ayrimlari)ni tartibga soluvchi me'yerlar qirg'eqbo'yi davlatlar tomonidan turli daryo havzalari uchun xos bo'lgan omillarni, tabiiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlar hisobga olungan holda tuziladigan maxsus xalqaro bitimlarda ifodalanadi. Bu bitimlarning asosini suvdan teng huquql odil foydalanish tamoyili tashkil etadi va boshqa davlatlarga suvni ifoslantirish yoki biron-bir boshqa yo'il bilan ziyor yetkazishdan tuyilish majburiyatini yuklaydi.

Xalqaro ekologiya huquqi muammosi sifatida Orol muammosi alohida ahamiyatga ega.

Binobarin, ekologik vaziyatlar, atrof-muhit muhofazasi chegara bilmaydi. Ayniqsa, bizning mintaqadagi davlatlar barcha ekologik muammolarni birgalikda, hamkorlikda hal etishlari zarur. Chunki ular bir daryordan suv ichadilar, bir havodan nafas oladilar, bir zaminda yashaydilar. Shuning uchun ham atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro hamkorlik respublikamiz tashqi siyosatining asosiy yo'nalishtaridan biriga aylangan. Xaiqaro hamkorlik esa asosan Orol havzasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash, o'simlik va hayvonot dunyosi genetik fondini saqlab qolish, yer, suv, atmosfera havosi ifoslantishini oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydaianish doirasida olib borilmoqda

Shuning uchun ham, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasida so'zlagan nutqida "Orol muammosi Markaziy Osiyo hududi doirasidan chiqib ketdi va jahonshumul ahamiyat kasb etmoqda. Uning salbiy oqibatlari bugungi kunda iqlim sharoiti, biologik muvozanatning o'zgarishida, aholi salomatligi va bo'lg'usi avlod genofondiga ta'sirida ko'rinishi mumkin", deb juda to'g'ri ta'kidlagan edi.

Hozirgi paytda Orol muammosi nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo oldida turgan eng dolzarb ekologik muammomdir. Shuning uchun bu masalani hal qilishda Markaziy Osiyo davlatlari, boshqa xorijiy davlatlar, keng jamoatchilik, turli tashkilotlar birgalikda faoliyat ko'rsatinoqdalar. Shu masala yuzasidan 1993-yilda Toshkent va Qizilo'rda 1994-yilda Nukus shahridagi Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yuqori darajadagi uchrashuvida Orol dengizini qutqarish xalqaro fondini hamda Orol dengizi va Orol bo'yli mintaqasi muammolari bo'yicha davlatlararo Kengash tuzish haqida qaror qabul qilindi.

Shuning uchun ham Orol va Orolbo'yli muammolarini hal qilishda Markaziy Osiyo markazakatlari hamkorlikda ish olib bormoqdalar. AQSH,

Yaponiya, GDR, Fransiya va boshqa rivojlangan davlatlar, Birlashgan Millatlar tashkiloti, Jahan banki va boshqa turli davlat va nodavlat xalqaro tashkilotlari bu ast muammosini ijobjiy hal qilishga o'z hissalarini qo'shmaqdalar.

Yuqoridaqilardan ko'tinib turibdiki, jahon ummoni daryo, dengiz va suv boyliklarini xalqaro huquqiy ekologik muhofaza qilish barcha xalq millat va elat hamda barcha davlatlarning o'zaro hamkorligini mustahkamlashni taqozo qiladi.

Atmosfera havosi va kosmik fazoni xalqaro ekologik-huquqiy muhofaza qilish

Xalqaro huquqda atmosfera havosi va kosmik fazoni xalqaro ekologik huquqiy muhofaza qilish katta ahamiyatga ega bo'lib, ujar xalqaro havo huquqi va xalqaro kosmik huquqlar bilan ko'proq tartibga solinadi.

Tabiat boyliklari ichida atmosfera havosi inson hayotini saqlash, yashash turmush tarzini rivojlantirishda ko'proq ahamiyatga ega.

Shuningdek, atmosfera havosini doim barqaror, ekologik so'f bo'lishi kosmik fazoni xavfsizligini, ekologik muvozanatda saqlanishini ta'minlaydi. Umuman olganda, atmosfera havosi chegara bilmaydigan atrof-mulitning serharakat elementi hisoblanadi Shuning uchun ham atmosfera havosi va kosmik fazoni xalqaro ekologik huquqiy muhofaza qilishda barcha davlatlarning o'zaro hamkorligi hamda faol ishtiroki kerak bo'ladi.

Binobarin, ana shunday talablarni amalga oshirish uchun 1920–1930-yillarda ko'pgina davlatlar o'z hududlarida atmosfera havosini va osmondag'i havo kengligining huquqiy tartibini belgilovchi maxsus qonun hamda huquqiy bujjatlar qabul qildilar.

1929-yilda davlatlar xalqaro havo qatnoviga taalluqliy ayrim qoidalarni bir me'yorga solish uchun konvensiya (1929-yil Varshava konvensiyasi) ishlab chiqish va tuzish maqsadga muvofiq deb hisoblandi.

Havo kemalarining fazodagi uchish qoidalari va boshqa barcha muammolar 1944-yildagi Chikago konvensiyasida aniq ko'rsatib berilgan edi.

Kosmik fazoni o'zlashtirishning tezlashuvi, oy va boshqa samoviy jismlarning tatbiq etishi oqibatida kosmik muhitni zararli oqibatlardan muhofaza qilish zarurati tug'ilди.

Kosmosning radiaktiv zaharlanishidagi to'siq, ya'ni uni yadroviy sinov maydoniga aylantirishga to'siq bo'lib xizmat qilayotgan hujjat 1963 yildagi Moskva shartnomasidir. Bu shartnoma kosmik fazoda yadroviy qirollarni sinashni taqiqladi. 1967-yildagi Kosmos to'g'risidagi shartnoma, 1979-yilgi Cy va boshqa samoviy jismlardagi davlatlarning faoliyati to'g'risidagi bitim mahim muhofaza qoidalarini ifodalaydi. Jumladan, 1967-yildagi shartnomaning IX muddasida, Oy to'g'risidagi bitiruning VI muddasida davlatiarga kosmik fazoni, oy va boshqa samoviy jismlani ifloslantirish, shuningdek yerdan tashqaridagi muddalarni yetkazib kelish oqibatida yerdagi muhitni nomaqbul tarzda o'zgartirishdan saqlanish va buning uchun tegishli choralar ko'rish majburiyatini yuklovchi qoidalar keltirildi. Kosmos to'g'risidagi shartnoma oy va boshqa samoviy jismlarga yadro qurolini joylashtirish yoki bu qurolini yer atrofi orbitasiga chiqarishni taqiqlash ham kosmik muhitni ifloslanish va zaharlanishdan saqlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Zero, 1971-yilgi Montreal konvensiyasida (Gaaga konvensiyasiga nisbatan) fuqaro havo kemasi xavfsizligiga tahdid soluvchi jinoiy aktlar aniq va keng qamrovli uchish chog'ida havo kemasi ichida bo'lgan shaxsga nisbatan zo'ravonlik; ishlab turgan havo kemasi buzish va unga zarar yetkazish mumkin bo'lgan quribnalar va muddalar, yerdagi aeronavigatsiya uskunalarini buzish, zarariantirish; havo kemasi uchish xavfsizligiga tahdid soluvchi mutlaqo yolg'on ma'lumotlar berish kabilai ko'rsatib o'tilgan.

Keyingi yillarda fan-texnika taraqqiyoti natijasida keng yo'l ochilgan tabiat va iqlimga sun'iy ta'sir ustidan nazorat o'matish g'oyat qiyin bo'lib, bu yer atmosferasi uchun katta xavf soimoqda. Xususan, hozir yog'ingarchiliklar (yomg'ir yoki do'l)ni hosil qilish yoki uning oldini olish imkoniyati mavjud. Xuddi shuningdek, bo'ron va tayfunlarning yo'nalishi hamda kuchini o'zgartirish mumkin. Tabiat va iqlimga ta'sir ko'rsatish insonga buyuk farovonlik yoki juda katta zaror ham keltirishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi 1985-yil Ozon qatlaminini himoya qilish (Vena) konvensiyasi, 1987-yili Ozon qatlaminini yemiruvchi birikmalar bo'yicha protokoli (Montreal), 1989-yili (Bazel) Xavfli chiqindilarni chegaralararo tashishni nazorat qilish konvensiyasi, 1992-yil (Nyu-York) Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi bir qator konvensiyalarga qo'shildi hamda ushbu yo'nalishda bir qator faol harakatlar amalga oshitilmoqda.

E'tibor bering !

Atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha Vena konvensiyasi va Montreal protokoli mavjud. Vena konvensiyasiga jahondagi 147 mamlakat imzo chekkan. Juhon xalqlari 1995-yildan boshlab, 16-sentabrni atmosferaning ozon qatlamini muhofaza qilish xalqaro kuni sifatida keng nishonlab kelmoqda.

Bizning mamlakatimiz ham Vena konvensiyasi va Montreal protokoliga qo'shilib, tegishli majburiyatlarni zimmasiga oldi. Ozon qatlami holatini muntazam kuzatib borish, yemiruvchi moddalardan foydalanishni bosqichma-bosqich kamaytirish shular jumlasidandir.

1996-yil 26-29-avgustda Shveytsariyaning Jeneva shahrida Montreal protokoliga qo'shilgan davlatlar isbchi guruhining kengashi bo'lib o'tdi. O'n uchinchi marta o'tkazilayotgan bu kengashda 147 mamlakatdan 400 delegat ishtirok etdi.

Mustaqil davlatlar hamde'sligidan O'zbekiston, Rossiya, Belorussiya, Ukraina va Gruziya ham qatnashgan.

Hozirgi paytda olimlarimiz temonidan O'zbekistonda ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha milliy dastur ishlab chiqishga katta e'tibor berilmoeqda.

Tog'li hududlarni muhofaza qilish va xalqaro hamkorlik**E'tibor bering !**

Tog'jar tabiat, aholisi, iqtisodiyotining o'ziga xos "tog'" shakllariga egaligi, barqaror rivojlanish yo'nalishlari bilan tekisliklardan tubdan farq qiladi. Tog' hududlari dunyo quruqlik yuzasining 40 foizini tashkil etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining (BA) 53-sessiyasida (1998-yil 10-novabr) danyoning 130 mamlakati delegatsiyalari konsensus metodi bo'yicha (ovozi bermasdan) 2002-yilni Xalqaro Tog' yili (XTY) deb e'lon qilish to'g'risida maxsus qaror qabul qildi. Bu qarorni 106 mamlakat qo'llab-quvvattiadi. Shveytsariya, Peru, Avstriya va Fransiya bu tashbebbusni eng faol qo'llab-quvvatlagan mamlakatlar bo'ldi.

Xalqaro hamjamiyatning oliy organi – BMTning ushbu qarori birinchidan, tog' regicilarini va uning aholisining sayyoramiz hayotidagi ahamiyatining, tan olinishi bo'lsa, ikkinchidan, ko'plab mamlakatlarda 2002-yilgacha qolgan davrda xilma-xil tadbirlarni amalga oshirishga asos

bo'ldi. Bu qaror BMTning atrof-muhitni himoyalash va barqaror rivojlanishga bag'ishlangan konferensiyasida (1992-yil, Rio-de-Janeyro) qabul qilingan hujjatning (XXI asr kun tartibi) 13-bobi "Mo'rt ekotizimlarni boshqarish: tog' rayonlarining barqaror rivojlanishi" bo'yicha tamoyillarini amalga oshirishga yo'naltirilgan muhim amaliy tadbiri hisoblanadi. Qarorda danyo mamlakatlari hukumatlariga XTYni o'tkazishga tayyorgarlik jarayonida tog' hududlarini barqaror rivojlantirishning muhimligini har tomonlama hisobga olgan holda, milliy rejalarni ishlab chiqib, amalga oshirish tavsiya etilgan Shu jumladan, ko'rsatib o'tilgan 13-bebning ijrochisi FAO Tog' forumi orqali barcha manfaatdor tashkilotlar va shaxslarga murojaat qilib XTYni eng samarali o'tkazish yuzasidan taklif va g'oyalar berishni, qolgan 4 yil mobaynida qanday ishiarni amalga oshirish kerakligini so'radi.

Ma'lumot uchun !

Tog'li hududlar O'zbekistonning 21,3 foiz maydonini egallaydi va bu yerda mamlakat aholisining 10 foizdan ko'proq'i yashaydi. Maydonining kattaligi (96 ming kv. km), aholisining soni (2,5 mln. kishi), tabiiy-iqtisodiy imkoniyat ko'rsatkichlari bo'yicha O'zbekiston dunyoning tog'li mamlakatlari qatoridan salmoqli o'rinn egallaydi. Vataumiz tog'lari maydeni Armanistondan 3,2 marta. Shveytsariyadan 2,3 marta, Gruziyadan 1,4 marta, Avstriyadan 1,4 marta katta bo'lsa, aholisining soni esa Mo'g'uliston va Panamaga teng, tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlari yetakchi tog'li o'lkalardan qolishmaydi.

Tog'lar unum davlat ahamiyatiga ega bo'lgan katta milliy boyligimiz bo'lib, ular g'oyat muhim tabiiy-ekologik (eng yirik ekotizim, biologik va landshaft xilmia-xilligining asosiy markazi, tuzli-tuman tabiiy boyliklar manbayi), ijtimoiy-iqtisodiy (tog' iqtisodiyoti, tog' aholisi madaniyat) hamda tabiat muhofazasi obyekti vazifalarini bajaradi.

Shu sababdan O'zbekistonning tog'li hududlarini asrasli, ekologik xavfsizligini ta'mintash, barqaror rivojlantirish doizarb muammoga aylanmoqda. Ushbu yo'nalishda xalqaro hamkorlik, birinchi navbatda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtafigi hamkorlikni (yagona tog' makoni - Tyanshan va Pomir-Oloy tog' tizimlari barqaror rivojlantirish muammolari bo'yicha) kengaytirish va chuqurlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo mamlakatlarda o'tkazilayotgan muhim tadbirlar qatoriga tog' regionlari muammolari bo'yicha tavyorlangan davlatlararo

hujjat – Maʼkaziy Osiyo togʻ regionlari konvensiyasi (xartiyasi). XXi asrda Maʼkaziy Osiyo togʻ hududlari va ularning xalqlarini barqator rivojlantirish strategiyasi” deb ataladigan joyiha hisoblanadi. Bu joyiha hozirgi paytda Maʼkaziy Osiyo davlatlar: hukumatlari tomonidaa oʼrganilayotir va uni imzolash muddatlari kelishilmoqda. Xartiya togʻ regionlarida boshqarish, resursiarni ekspluatatsiya qilish, barqaror rivojlanish, togʻ muhitini muhofaza qilishni shakllantirish va sunalga oshirishda aycim davlatlar, davlatlararo oʼzaro aloqalar va taʼsiming asosiy tamoyillarini ishlab chiqish maqsadini koʼzda tutadi.

XTYni Oʼzbekistonda oʼtkazish boʼyicha eng muhim tadbirlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- respublika jamoatchiligi eʼtiborini togʻ muhammolariga jalg etish (radio, televideniye, matbuot);
- narsunaviy dasturlar tuzish;
- milliy togʻ siyosatini ishlab chiqish;
- ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish;
- regional montologiya (togʻ shunoslik) fanini shakllantirish;
- xilma-xil tadbirlar oʼtkazish (konferensiylar, seminarlar, festivallar);
- xalqaro munosabatlarni rivojlantirish lozim

Taʼkidlash joizki, bizning mamlakatimizda togʻ-kon bilan bogʼliq masalalar 1994-yil 23-sentabrda qabui qilingan “Yer osti boyliklari toʼgʼrisida”gi Qonun bilan tartibga solinadi.

Xulosa qilib aytganda, atrof-muhit muhofazasi va ekologik vaziyatni yaxshilash barcha davlatlar, xalqaro hamjamiyatlar, notukumat uyushmalar bilan hamkorlikni keng yoʼlga qoʼyish orqaligina barqaror iqtisodiy rivojlanish, tabiat resurslaridan samarali foydalanish, ekologik tanglikni bartaraf etish va atrof-muhitni muhofaza qilish imkoniyatiga ega boʼlamiz.

Nazorat uchun savollar

1. Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik huquqiy muhofaza qilish obyektlari tegishli xalqaro ekologik shartnomalar orqali muhofaza qilinadi.

Muhofaza qilishda tabiiy resurslarning qaysi xususiyatlari inobatga olinishi lozim. Javobingizni milliy va xalqaro ekologik normular asosida qiyosiy taqqoslagan holda tahtil qiling.

2. Xalqaro huquqda atrof tabiiy muhitni ekologik huquqiy muhofaza qilish manbalari – bu xalqaro hamjamiyat davlatlarning atrof-tabiiy muhitni ekologik huquqiy muhofaza qilishga va undan oqilona foydalanishga qaratilgan o'zaro hamkorligi faoliyatini erkin amalgamashdir.

Atrof-tabiiy muhitni xalqaro ekologik huquqiy muhofaza qilish manbalarini tasniiflang va tahlil qiling.

3. G'arbiy Tyanshanda transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hudud tashkil etish maqsadida huquqiy hujjatlar tayyorlash chog'ida transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hudud tashkil etishning bosh maqsadi nimanidan iborat?

Holatga huquqiy baho bering.

4. O'zbekiston Respublikasi hududida davlat ro'yxatidan o'tgan Xalqaro mintaqaviy ekologik muammolarni o'rganish instituti (yuridik maqamoga ko'ra nodavlat netijorat tashkilot) "Saneatkontexnazorat" davlat tashkiletini atrof tabiiy muhit sohasida tegishli darajada davlat boshqaruvini amalga oshira olmaganligi natijasida tabiatga zarar yetkazishning oldini ololmaganligi uchun O'zbekiston tabiatiga, shu qatorda Xalqaro mintaqaviy ekologik muammolarni o'rganish instituti qonun bilan muhofaza etiladigan huquq va manfaatiariga yetkazilgan zararni qoplash uchun xalqaro ekologik sudiga bergan.

Xalqoro huquq normaloriga tayangan helda masalani yeching.

21-BOB. XORIJY MAMLAKATLARDA ATROF-MUHITNI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH

Xorijiy mamlakatlarda ekologiya huquqining konstitutsiyaviy asoslari. Xorijiy mamlakatlarda ekologiya huquqining manbai sifatida qonun hujjatlarining o'tini.

Xorijiy mamlakatlarda ekologiya huquqining konstitutsiyaviy asoslari

Aksariyat davlatlarning konstitutsiyalarida davlatning tabiatga g'amxo'rlik qilishi, uni muhofaza qilishi bilan bog'liq qoidalari belgilangan bo'lib, bu turlicha shakkarda ifodalangan. Jumladan, Shveysariya Konstitutsiyasiga (1962) muvofiq federal hokimiyat manzaralar, tabiiy diqqa'tga sazover joylar va yodgorliklar haqida g'amxo'rlik qiladi va ularni muhofaza qiladi, tabiat va manzaralarni muhofaza qilish bo'yicha choralarni moliyalashtiradi. Italiya Konstitutsiyasida (1974) Respublika tabiatni muhofaza qilishi e'lon qilingan, xolos. Gollandiya Konstitutsiyasining (1952) 21-moddasiga muvofiq hukumat mamlakatda hayotning sifati, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va yaxshilash haqida g'amxo'rlik qiladi.

Qator xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarining tahlili ularda ekologik-huquqiy normalar turlicha tartibga solinganligidan guvohlilik beradi.

Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalaridagi atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga oid asosiy normalar sifatida quyidagianni aytish o'tinli:

1. Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarida davlatning tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash singari mustaqil funksiyalari mavjudligi mustahkamlangan (GFR Konstitutsiyasi 15-moddasasi, Bolgariya Konstitutsiyasi 31-moddasasi v.b.);

2. Tabiiy obyektlar va resurslarga nisbatan davlatning mutlaq mulk huquqini belgilab qo'yish (Vengriya Konstitutsiyasi 8-moddasasi, Ruminiya Konstitutsiyasi 12-moddasasi va v.b.);

3. Xalq xo'jaligini va tabiatdan foydalanishni rivojlantirishda rejallilik, ya'ni xalq xo'jaligini rejashtirish, xomashyo va resurslarga bo'lgan ehtiyojni inobatga olish, ularning rejali taqsimlash va ularidan oqilona foydalanish va b.k. (Vengriya Konstitutsiyasi 7-moddasasi va sh.k.);

4. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va majburiyatlarini shakllantirish. Ayni damda

ta'kidlash o'rinniki, ko'p hollarda fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitda yashash huquqi ayni damda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish majburiyati bilan bog'lanadi (GFR Konstitutsiyasi 34-moddasi va sh. k.);

5. Tabiatni muhofaza qilishda jamoat birlashmalari va harakatlarining o'mini mustahkamlash (GFR Konstitutsiyasi 29-moddasi, Ruminiya Konstitutsiyasi 24-moddasi v.b.);

6. Davlatning mamlakat va jamiyataning tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ichki va tashqi siyosatiga oid prinsiplarining yaxlitligi (Vengriya Konstitutsiyasi 20-moddasi va b. k.).

Shuningdek, Albaniya, Bolgariya, Vengriya, Litva, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Xorvatiya, Chexiya va Estoniya kabi davlatlarda fuqarolar va davlatning ekologiya sohasidagi huquq va majburiyatları aniq-ravshan belgilab berilgan.

Xususan, **Gretsiya Konstitutsiyasi** (1975) 24-moddasida "Tabiiy va madaniy atrof-muhitni muhofaza qilish davlatning majburiyati hisoblanadi", deb belgilangan.

Avstriyada esa "Atrof-muhitni har tomonlarna muhofaza qilish to'g'risida"gi Federal Konstitutsiyaviy qonun (1920) anal qilishi ushbu mamlakatning atrof muhitni kompleks muhofaza qilishga intilayctiganligidan dalolat beradi.

1949-yilgi GFR Konstitutsiyasi 20^o-moddasida ham davlat atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishi, bugungi avlod kelajak avlod oldida mas'ul ekanligi uqtirilgan¹³⁰.

Italiyaning 1947-yilgi Konstitutsiyasining 9-moddasida mamlakat tabiatini muhofaza qilish davlatning majburiyatlaridan biri sifatida belgilab qo'yilgan. Shuningdek, ushbu norma mazmunidan kelib chiqib, Italia Konstitutsiyasining 117-moddasida ham atrof-muhitni va ekotizimni muhofaza qilish sohasidagi qonunlar qabul qilish Respublikaning, atrof-muhitni qayta tiklash sohasidagi qonunlarni ishlab chiqish esa mahalliy hokimiyat organlarining vakoliati ekanligi belgilangan.

Bolgariya Respublikasining 1991-yilgi Konstitutsiyasining 15-moddasida esa Bolgariya Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish va qayta tiklashni, tirik tabiatni va uning xilma-xilligini hamda tabiiy boyliklar va mamlakat resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlaydi, deb belgilangan. Bolgariya Konstitutsiyasining 18-moddasiga ko'tra yer osti boyliklari, sohil bo'yli qirg'ozlar, respublika yo'llari, shuningdek milliy ahamiyatga ega bo'lgan suv, o'rmon va parklar, tabiiy rezervatlar

¹³⁰ Гергюра Йиббе – Вольф Основные характеристики права окружающей среды Германии // Государство и право. – Москва. 2009. – № 11. – С. 90

faqatgina davlatning malki hisoblanadi. Davlat kontinental shelfda va iqtisodiy zonada ushbu dengiz hududidagi biologik, mineral va energetika resurslariga nisbatan suveren huquqlarga ega. Davlat ushbu mulklardan fuqarolar va jamiyat manfaatlari yo'llida foydalanadi va boshqaradi. Uning 55-moddasida esa fuqarolarning belgilangan standart va me'yoriaga muvofiq bo'lgan qulay atrof-muhitga ega bo'lish hуquqlari kafolatlangan hamda bu vaqtning o'zida fuqarolar zimmasiga atrof-muhitni asrab-avaylash majburiyati yuklangan. Shuningdek, Konstitutsiyaning 61-moddasida fuqarolarning davlat va jamiyatga tabiiy ofatlar sharoitida yordam ko'rsatish majburiyati ham belgilab qo'yilgan.

Eron Islom Respublikasining 1979-yilgi Konstitutsiyasining 50-moddasida ham tabiatni asrab avaylash hozirgi va kelajak avlodning qulay atrof muhitga ega bo'lishi va ijtimoiy mavjudligining kafolati sifatida Eron Islom Respublikasining ommaviy burchi hisoblanadi. Tabiatning ifloslanishi yoki unga qayta tiklab bo'lmaydigan zarar yetkazishi murekin bo'lgan har qanday iqtisodiy va boshqa faoliyatlar ta'qilanganadi, deb belgilab qo'yilgan.

Hindistonda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari davlatning atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va uni yaxshilashga harakat qilishga majburi ekanligini hamda bu har bir Hindiston fuqarosidan talab qilinishini belgilaydi. Hindiston Konstitutsiyasining 48^a-moddasida ham davlatning atrof-muhitni muhofaza qilish va yaxshilash bo'yicha majburiyati belgilab berilgan. Unga ko'ra, davlat atrof-muhitni muhofaza qilish va yaxshilash, o'rmonlarni va tirik tabiatni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi. Shuningdek, uning 51^a-moddasida atrof tabiiy muhitni, shu jumladan o'rmon, ko'l, daryo va tirik tabiatni muhofaza qilish va yaxshilash hamda tirik mavjudotlarga g'amxo'rlik qilish fuqarolarning majburiyati sifatida ko'rsatilgan.

Misr Arab Respublikasi Konstitutsiyasining 123-moddasida tabiiy boyliklardan foydalanish uchun ularni konsessiyaga va tashkilotlarga jamoat maqsadlarida foydalanish uchun berish tartibi va qoidalari qonun bilan belgilanishi ko'rsatilgan. Qonunda davlatga tegishli ko'chmas mulkdan tekin foydalanish, shuningdek, davlat tomonidan o'z ko'char mulkini topshirishi holatlari va ushbu tadbirlarni amalga oshirish tartibi belgilanadi.

Koreya Respublikasining 1948-yilgi Konstitutsiyasida tabiiy resurslardan foydalanishga oid masalalar ancha keng tartibga solingan. Xususan, uning 120-moddasi tabiiy boyliklarga, 121-moddasi qishloq

xo'jaligiga, 122-moddasasi yer mulkchiligiga oid qonunlarga hamda 123-moddasasi fermer xo'jaligi va baliqchilikka bag'ishlangan. Uning 120-moddasida belgilanishicha, minerallar va boshqa muhim foydali qazimalardan, dengiz resurslaridan, suv energiyasdan, shuningdek, iqtisodiy jihatdan foydalanish mumkin bo'lgan tabiat kuchlaridan foydalanishga, qayta ishlashga va iste'mol qilishga qonunchilikda belgilangan shartlar doirasida inuayyan vaqt oralig'ida ruxsat berilishi mumkin. Yer va tabiiy boyliklar davlat muhofazasida bo'lib, davlat ulardan muvofiqlashgan holda foydalanish va qayta ishlash rejalarini belgilaydi.

Koreya Konstitutsiyasining 121-moddasida qishloq xo'jaligi sohasidagi munosabatlar tartibga solingan. Unga muvofiq, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerkarta nisbatan davlat "yer – dehqon" prinsipini amalga oshirishga harakat qiladi. Qishloq xo'jaligi ijerasi taqiqlanadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish losildorligini oshirish va ulardan oqilona foydalanishni tashkil etish maqsadida qishloq xo'jaligi yerlarining ijerasiga va ularni cheklangan tarzda tasarruf etishga qonun bilan ko'zda tutilgan shartlar doirasida ruxsat beriladi.

Uning 122-moddasasi yerga oid mulkchilik to'g'risidagi qonunlarga bag'ishlangan. Unga ko'ra, davlat qonunchilikda ko'zda tutilgan shartlar doirasida barcha fuqarolarning kundalik hayotida millat yet resurslarini muhofaza qilish, ulardan muvofiqlashgan holda va samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan cheklov va majburiyatlarni belgilaydi.

Koreya Konstitutsiyasining fermer xo'jaligi va baliqchilikka bag'ishlangan 123-moddasida belgilanishicha esa davlat qishloq xo'jaligi va baliq ovlashni rag'batiantirish maqsadida fermer va baliq xo'jaliklarini kompleks rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqadi va tafsiq etadi. Fermer va baliqchilarining mansaftalarini himoya qilish maqsadida davlat qishloq xo'jaligi va baliq mahsulotlari narxini barqarorlashtirish uchun talab va ushbu mahsulotlarni yetkazib berish o'rasisidagi muvozanatni qo'llab-quvvatlash, shuningdek ularni bozorga olib chiqish tizimini yaxshilash orqali barcha choralarini ko'radi. Davlat fermerlar, baliqchilar va kichik va o'ttacha ishlab chiqarishni amalga oshirayotgan xususiy tadbirkorlarni tashkil etishga ko'maklashadi va ularning mustaqil faoliyat yuritishini kafolatlaydi.

Shuningdek, Koreya Konstitutsiyasida fuqarolarning ekologiya sohasidagi huquqlariga oid munosabatlar ham tartibga solingan. Chunonchi, uning 35-moddasiga muvofiq barcha fuqarolar hayot uchun qulay va inson sog'lig'i uchun maqbal bo'lgan atrof muhit huquqiga ega,

davlat va uning barcha fuqarolari atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish uchun barcha zarur choralarini ko'radilar. Insonning atrof muhitga nisbatan huquqlari qonun bilan belgilanadi.

Shu o'rinda AQSH Konstitutsiyasiga atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha biror bir talab belgilanmaganligiga e'tibor qaratish lozim. Amerikalik huquqshunoslar mamlakat oliv qonunini ekologiya huquqi normalari shakllanadigan huquqiy tizim uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi "bavosita manba" sisatida ta'riflaydilar. AQSHning ekologik qonunchilikni ishlab chiqishda inobatga olinishi lozim bo'lgan barcha konstitutsiyaviy normalarini uch yirik guruhga ajratishimiz mumkin: 1) atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida huquqiy tartibga solishni amalga oshirish bo'yicha Kongress vakolatlarini belgilovchi normalar; 2) ushbu vakolatni chegaralovchi normalar; 3) atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasini huquqiy tartibga solishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan fuqarolarning huquqlariga oid normalar. AQSH ekologik qonunchiligidagi asosiy o'rinni konstitutsiyaviy qoidalarni sud sharhi egallaydi hamda u ekologik munosabatlarni har qanday sohada qo'llashni nazarda tutadi¹³¹.

Buyuk Britaniya Konstitutsiyasi esa yagona hujjatda mustahkamlanmagan. Uning yozilgan va yozilmagan qismlari o'ziga xos turli manbalarga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Konstitutsiyaning yozilgan qismi o'zida konstitutsiyaviy hujjatlarni, 45 ta pretsedent va statut huquqini qamrab oladi. Konstitutsiyaviy normalar hattoki qonun kuchiga ega bo'Imagan hujjatlarda ham o'z aksini topishi mumkin. Konstitutsiyaning yozilmagan qismiga huquqiy mustahkamianmagan bo'lsa-da, qoida tariqasida davlat hayotidagi mahim masalalarni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy kelishuvlar mansubdir. Ushbu kelishuvlar yoki umumiy huquq tizimi Buyuk Britaniyada konstitutsiyaviy huquq asosi sisatida baholanadi.

Odatlar amaliyotda shakllangan qoidalarni tasvirlaydi. Ular Vazirlar kengashi va hukumat shakllanishini, shuningdek davlat hokimiyati organlarining o'zaro munosabatlarini tartibga soladi. Britaniya Konstitutsiyasida ekologik qoidalari uning turli qismalarida o'z aksini topgan. Ular asosan ekologik qonunchilik rivojlanish tarixini o'rganishda ahamiyat kasb etadi.

¹³¹ Краснова И.О. Экологическое право ССА. сравнительно-правовое исследование. Дисс ... докт. юрид. наук. – М., 1997. – С. 57.

Ma'lumot uchun! Jamiyat hayotini demokratlashtirish hamda davlat siyosati va qonunchiligin ekologizatsiyalash munosabati bilan so'nggi yillarda qabul qilingan qator konstitutsiyalarda ekologik tusdagi aormalari soni sezilishi darajada oshgan. Uzoq muddatdan buyon amal qilib kelayotgan konstitutsiyalardan (Buyuk Britaniya, Kanada, Niderlandiya, AQSH) farqli ravishda yangi avlod konstitutsiyalari ekologik munosabatlarni tartibga solishga keng o'tin ajratadi. Xususan, Italiya (17-modda), Shveytsariya (4-bo'limi), Bavariya (2-bo'limi), Braziliya (20-modda), Xitoy (9–10-moddalar), Vietnam (29 va 84-moddalar) kabi davlatlar konstitutsiyalarini tahlil qilish ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Agar 1982-yildagi **Kanada Konstitutsiyasi** 25 ta hujjatlar majmuyidan iborat bo'lsada, unda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish sohasiga taalluqli biron-bir aniq ko'rsatma mavjud emas. Angliya parlamenti tomonidan "Kanada to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi va 1982-yil 17-aprelda e'lon qilinishi bilan Kanada o'z Konstitutsiyasiga ega bo'ldi. Kanada Konstitutsiyasida tozalikni saqlash yoki qulay atrof tabiiy muhitni ta'minlashga oid kafolatlar o'z aksini topmagan, shuningdek Kanadadagi ekologik holatga qaysi davlat muassasasi mas'ul ekanligi ham aniq belgilanmagan. Shu bilan bir qatorda yuqorida qayd etilgan qonunning ahamiyati shu bilan belgilanadi, u mavjud konstitutsiyaviy tartibga ayrim o'zgartirishlar kiritdi: federal hokimuyat va federatsiya subyektlari (provinsiyalar)ning tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha vakolatlari taqsimlandi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga daxldor qoidalarga misol sisatida Kanada konstitutsiyaviy qonunchilik hujjatlaridagi "Tiklanmaydigan tabiiy resurslar va o'tmon xo'jaligi resurslaridan ma'sulet ishiab chiqarishning bittamchi ahamiyati" to'g'risidagi 6-qo'shimchani qayd etish mumkin. Unda ushbu tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha kam chiqit texnologiyalarini qo'llashtirish rag'batlantirilishi hamda tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish man etilishi kabi qoidalalar o'z aksini topgan. 1814-yilda qabul qilingan **Niderlandiya Konstitutsiyasi** bugungi kunga qadar zamoa talablariga moslashtirish bo'yicha qator o'zgartishlarga duchor bo'ldi. Chunonchi, unda davlat hokimiyyat organlari mamlakatda ekotizim achun qulay bo'lgan shart-sharoit yaratish, atrof tabiiy muhit holatini yaxshilash va muhofaza qilishga mas'ul ekanligi mustahkamlangan (21-modda).

Shuningdek, unda bekamatning mamlakatdag'i hayot sifatiga g'amxo'rlik qilishi, atrof tabiiy muhitni yaxshilash va muhofaza qilishi zarurligi ko'zda tutilgan.

Astrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda shu asnoda fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga bo'lgan huquqlarini ta'minlash masalasi Yaponiya miqyosida ham juda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yaponiya fuqarolari uchun məqbul tabiiy muhit shart-sharoitlarini yaratish borasida muhim yutuqlarga erishgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Yaponiya tabiiy muhit sifati borasida boshqaruv tizimining samarali tizimini joriy etib, nafaqat ekologik inqirozni ortga surishga, balki ko'plab ekologik ko'rsatkichlarni yaxshilashga ham erishdi. Bugungi kunda mamlakatda jamiyat va tabiat munosabatlari zamonaviy konsepsiyasini yaratishda iqtisodiyot va tabiiy muhit o'zaro chambarchas aloqader ekanligidan hamda xo'jalik faoliyati tabiatni muhofaza qilish va uni saqlab qolishga asoslangan bo'lsa, inson hayotini yaxshilashi mumkinligi umume'tirof etilgan. Shu bois, ko'pgina yaponiyalik mutaxassislar fikricha, zamonaviy iqtisodiyot tizimi tabiiy muhit bilan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lishi hamda bir-biriga ziyon yetkazmasligi zarur. Atrof tabiiy muhit bepul va serob mahsulot, undan istalgancha va chek-chegarasiz foydaonish mumkin degan nuqtani nazardan butkul voz kechish shart hamda tabiat qimmatbaho boylik bo'lib, uni kelajak avlod uchun asrab-avaylash va e'zozlash lozim, degan tushunchani shakllantirish darkor. Bugungi kunda Yaponiya fuqarolarning sofi va xavfsiz tabiiy muhitga bo'lgan buquqlarini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlash yo'lidan horineqda. Chunonchi, amaldagi Yaponiya Konstitutsiyasining 25 muddasida "Barcha sog'liq va niadaniy hayotning eng quyi darajasiga ega bo'lishga haq'i. Davlat hayotning barcha sohalarida jamiyat farovonligi, ijtimoiy ta'minoti, shuningdek xalq salomatligini tiklash va rivejlantirish yo'lida xizmat qilishi lozim".

Konstitutsiya atrof tabiiy muhitni huqaqiy tartibga solishning asoslarini shakllantiradi. Biroq atrof tabiiy muhitni huqaqiy tartibga solishning eng muhim va samarali manbayi bu qonunchilik hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda ushbü sohadagi zamenaviy qonunchilik – bu asosan so'nggi 50 yil ichida qabul qilingan katta bajindagi qonunlar majmuyi hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlarda ekologiya huquqining manbai sifatida qonun hujjatlarining o'rni

Rivojlangan Yevropa mamlakatlarining zamonaviy ekologik qonunchiligining shakllanishi kompleks qonuolarning qabul qilinishi bilan bog'liq. Ular sirasiga "Atrof imshitning ifloslanishiga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonun (Yaponiya, 1967); 1993-yilda "Atrof-muhit to'g'risida"gi Asosiy Qonun; "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun (Shvetsiya, 1969); "Atrof-muhit sohasidagi milliy siyosat to'g'risida"gi Qonun (AQSH 1970); "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun (Fransiya, 1976. 2000-yilda Ekologiya kodeksi); "Tabiatni muhofaza qilish va landshaft rejalashtirish to'g'risida"gi (GFR, 1976) va boshqalarini kiritishimiz mumkin.

Ushbu qonunlarda ko'zda tutilgan atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha choralar hajmi va xususiyati turlicha. Xususan, AQSHning "Atrof-muhit sohasidagi milliy siyosat to'g'risida"gi Qonuni atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat organlarining javobgarligini belgilab bergan, Atrof tabiiy muhit sifati bo'yicha Kengash tuzishni ko'zda tutgan, AQSH Prezidenti zimmasiga atrof tabiiy muhit sifati va undagi o'zgarishlari tendensiyasi bo'yicha har yili nia'ruza tayyorlashi va taqdim etish majburiyatini yuklagan. Unda, shuningdek rejalashtirilayotgan faoliyatning atrof-nauhitga ta'sirini baholash bo'yicha umumiy talablar hamda tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish ham belgilangan. Ushbu qonun AQSHda ekologiya huquqi va atrof tabiiy nauhitni muhofaza qilishni huquqiy tartibga solishning rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatdi.

Xavfli sanoat chiqindilarini ishlab chiqarish, shuningdek ular bilan noto'g'ni muomala qilish natijasida atrof tabiiy muhitga real xavf tug'dirish ko'lami ko'pgina davlatlarda chiqindilarni saqlash, foydaianish va yo'q qilish bo'yicha maxsus qonunlar qabul qilinishiga sabab bo'ldi. Ular sirasiga "Chiqindilarni yo'q qilish to'g'risida"gi Qonun (Yaponiya, 1971-y.), "Zaharli chiqindilarni saqlash to'g'risida"gi Qonun (Buyuk Britaniya 1972-y.), "Chiqindilardan saqlanish va yo'q qilish to'g'risida"gi Qonun (GFR, 1972-y.), "Xomashyo resulalarini saqlash va qayta ishslash to'g'risida"gi Qonun (AQSH, 1976-y.), "Okeanga chiqindilarni chiqarish to'g'risida"gi Qonun (AQSH, 1972-y.) kabilar kiradi. Shunga yaqin qonunlar boshqa davlatlarda ham qabul qilingan.

AQSHda "Favqulodda vaziyatlarda ishlarni rejalashtirish va jamoatchilikning to'liq axborot olishga bo'lgan huquqi to'g'risida"gi

Qonunning qabul qilinishiga (1986) sabab bo'lib, Bxopale kimyeviy zavodidagi avariya (Hindiston, 1984-yil, ko'pincha hiad Xirosimasi deyiladi) sabab bo'ldi. Avariya 4,5 mingdan ortiq kishini hayotdan olib ketdi, yana 50 ming kishi mayib, nogiron, ko'r, falaj, asab tizimi buzilishi bilan bog'liq kasallarga duchor bo'ldi. AQSH Mudofaa vazirligining pudrati bo'yicha kimyoviy qurolning yangi turini ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi "Yunion Karbayd" Amerika transmilliy tashkilotida sho'ba korporatsiyasi yuqori darajali zaharli moddalarni tadqiq etish bilan shug'ullangan bo'lib, texnologiyaning buzilishi bilan ushbu moddalar tarqalib ketgan Hindistondagi avariyyadan keyin AQSH hokimiyati o'z davlatida kimyoviy tashkilotlarda avariyalarga tayyorgarlik va ular bilan bog'liq xavfda aholini xabardor qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonun yo'qligiga e'tibor qaratgan.

Ta'kidlash lozimki, ayrim davlatlarda milliy darajada qonunlar XIX asrning so'ngi va XX asrning boshlariда qabul qilina boshlangan. Bunga misol sifatida Buyuk Britaniyada 1863-yilda qabul qilingan "Ishqorli va boshqa ishlab chiqarish turlari to'g'risida"gi Qonunni ko'rsatishimiz mumkin bo'lib, unda atmosfera havosini kimyoviy tashkilotlar tomenidan ifloslantirishdan muhofaza qilish masalalari tartibga solingan. Yoki bo'lmasa, Fransiyaning 1917-yildagi sanoat tashkilotlarini ularning ekologik xavfiliгини hisobga olgan holda joylashtirishni ko'zda tutuvchi Qonuni ham bunga misol bo'la oladi. Unda, xususan, ekologik xavfli tashkilotlarni aholi turar joylatidan tashqarida joylashtirish tartibi belgilangan. Nederlandiyaning birinchi atrof tabiiy mahitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik hujjati sifatida 1987-yilgi "Yomon zararlilik to'g'risida"gi Qonunini (Nuisance Act) ko'rsatish mumkin bo'lib, ushbu hujjat hozirga qadar mintaqada tabiatni muhofaza qilish siyosatining asosini tashkil qilib kelmoqda.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ekologiya huquqini shakllanishining umumiyligi qonuniyatlarini tavsiflashda shuni hisobga olish lozimki, ular tarixan shakllangan huquq tizimlari – romano-german (kontinental) va anglo-sakson (umumiy) huquqqa bog'liq holda rivojlanadi. Shunga muvofiq, romano-german huquq tizimiga mansub davlatlarda huquqning bosh manbasi qonun bo'lsa, anglo-sakson huquq tizimiga oid davlatlarda qonun bilan bir qatorda atrof tabiiy mahitni muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish sohasida manba bo'lib, pretsident, ya'ni aniq ish bo'yicha sudning qarori ham namoyon bo'ladi.

Shuningdek, ayrim xorijiy mamlakatlarda ekologik qonunchilikning kodifikatsiyalashuvini kuzatishimiz mumkin. Ekologik qonunchilikni

kodifikatsiyalashning pirovard natijasi sifatida Ekologiya kodeksini qabul qilgan davlatlar sirasiga Fransiya (2000), Shvetsiya (1999), Kot d'Ivuar (1996) va Estoniya (2011) kabi mamlakatlarni ko'rsatish mumkin. MDH mamlakatlari ichida esa Gozog'iston Respublikasi birinchilardan bo'lib, Ekologiya kodeksini qabul qildi (2007-yil 9-yanvar); Rossiya Federatsiyasida Ekologiya kodeksining konsepsiysi ommaviy e'lon qilindi (2007-yil 8-oktabr); Belarus Respublikasida Ekologiya kodeksi konsepsiysi rasman Vazirlar Kengashi qareri bilan tasdiqlandi (2005-yil 16 dekabr); Ukrainada Ekologiya kodeksi loyihasi Radada muhokama qilingan (2004-yil 14-may). Ayni damda RF subyekti bo'lgan Tatariston Respublikasida ham 2008-yil 15-dekabrdan Ekologiya kodeksi qabul qilinib, 2009-yil 15-yanvardan amalga kiritilgan.

Xorijiy mamlakatlarning qonun ijodkorligi jarayonini tahlil etadigan bo'lsak, bir qator mamlakatlarda ekologik qonunchilik kodifikatsiyalanganligi va ayrimlarida bu borada faoliyishlar amalga oshirilayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Jumladan, Fransiyaning 2000-yildagi, Shveytsiyaning 1999-yildagi kodekslari, Gollandiyaning 1997-yilgi "Atrof-mubitni muhofaza qilish (boshqarish) to'g'risida"gi qonunini bunga misol bo'la oladi. Germaniyada ham ekologiya huquqining yirik milliy qonunchilik bazasini tizimlashtirishga qaratilgan Ekologiya kodeksi loyihasi ustida ishlar olib borilmoqda¹³². Ushbu mamlakatlarda kodifikatsiya bir qator qonunlarni ulardag'i takrorlangan normalarni bartaraf etish yo'li bilan birlashtirish hamda umumiy qoidalarni bir bo'limga joylashtirish orqali amalga oshirilgan.

Bunda Ekologiya kodeksi qabul qilinishi bilan tegishli qonunlar bekor qilingan.

Yevropa davlatlaridan, avvalambor, Fransiyaning ekologik qonunchilikni kodifikatsiyalash borasidagi tajribasi katta qiziqish uyg'otadi. Fransiyada Ekologiya kodeksini ishlab chiqish borasida tub asoslar yaratilgan.

Ma'lumot uchun! 2006-yilda qabul qilingan Fransiya Ekologiya kodeksi hajman juda kattaligi bilan tavsiflanadi. Xususan, u L110-L713-moddalarni (jami 975 ta modda) qamrab oladi. Kodeks unuuniy (birinchi kitob) va maxsus (ikkinci-oltinchi kitoblar) qismlardan iborat. Umumiy qism o'z ichiga kodeks prinsiplari, amal qilishi, ekologik javobgarlik masalalarini qamrab olgan. **Maxsus qismida** har bir tabiiy resursga oid munosabatlar alohida boblarga ajratilgan holda tasniflab berilgan.

Fransiyaning Ekologiya kodeksi MDH davlatlarida ekologik qonunchilikni kodifikatsiyalash borasida qabul qilingan kodeks va konsepsiyalarga qaraganda anchayin keng doiradagi munosabatlarni tartibga soladi. Kodeksdagi normalar majmuyi salmoqli bo'lib, u eng muhim tusdagi prinsipial normalarni mustahkamlaydi hamda tugal xarakter kasb etmaydi. Ya'ni uning matnida to'g'ridan to'g'ri boshqa kodeks, qonun va dekretlarga havola qilish hollari uchraydi. Ta'kidlash o'rinniki, Kodeksning ishlab chiqilishi inkorporatsiya yo'li, ya'ni uning matniga ilgari qabul qilingan qonunlarni qo'shish orqali amalga oshirilgan.

Masalan, chiqindilarni boqsharish sohasida 1975-yil 15-iyulda qabul qilingan №75-633-sonli "Chiqindilarni yo'q qilish va materiallarni qayta tiklash to'g'risida"gi Qonun normalari hozirda Ekologiya kodeksining V kitobi "Chiqindilar" deb nomlangan IV bo'limidan, aniqrog'i, uning "Chiqindilarni yo'q qilish va materiallarni qayta tiklash"ga oid 1-bobidan o'rinn olgan.

Shvetsiyada Atrof-muhit kodeksi 1999-yil 1-yanvardan kuchga kirgan. Kodeks bir qator ordonans (qator)lar va ularga muvofiq chiqarilgan yo'riqnomalar bilan birlgilikda amal qiladi. Kodeksning cheklanganligi shunda namoyon bo'ladiki, u umumiy qoidaga ko'ra, turli harakatlarning yo'l qo'yiladigan doirasini belgilab berinaydi hamda tuili manfaatlarni bat afsil tartibga solmaydi. Ushbu hujatning huquqiy tartibga solish doirasasi ancha kengligi bilan tavsiflanadi. Unga atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan bir qatorda tafsiy resurslardan foydalanish bo'yicha normalari ham qamrab olingan. Bundan tashqari, Kodeksga aholining sanitariya-epidemiologik xotirjamligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan qidalar ham kiritilgan. Kodeks u qabul qilingunga qadar amalda bo'lgan hamda u qabul qilinishi bilan o'z kuchini yo'qotgan 15 ta markaziy qonuni o'zida mujassamlashtirdi. Shveytsiyaning Atrof-muhit kodeksi atrof tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning keng doirasini qamrab oladi. U faqatgina atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq munosabatlarni qamrab olish bilan cheklanmag'an, tabiatdan foydalaniшning ko'pgina masalalarini ham qamrab olgan.

Ekologiya sohasidagi munosabatlarni Ekologiya kodeksi vositasida tartibga soluvchi davlatlarda yana biri **Kot d'Ivuar** Respublikasi hisoblanadi. Kot d'Ivuar Respublikasida 1996-yil 3-oktabrda Atrof-muhit kodeksi qabul qilingan bo'lib, u hajman kichik ya'ni 6 bo'lim va 113 moddadan tashkil topgan. Guvohi bo'lganimizdek, Kot d'Ivuarning Atrof-muhit kodeksi o'ta oddiy bo'lib, qisiniarga ajratilmagan, balki to'g'ridan to'g'ri bir qancha bo'limlardan tashkil topgan. Xususan, kodeksdagi asosiy

tushunchalar, uning maqsad va amal qilishi doirasi (1-bo'lim), muhit (2-bo'lim), umumiy prinsiplar (3-bo'lim), davlat va mahalliy hokimiyat organlarining majburiyatlari (4-bo'lim), javobgarlik (5-bo'lim), yakuniy qoidalar (6-bo'lim).

Ushbu kodeksda atrof tabiiy muhitga zarar keltirishi mumkin bo'lgan mahsulot va faoliyatni reklama qilishning taqiqlanishi (9-modda), energiyaning xiima-xil turiaridan foydalanishni rag'batlanturish (7-modda), atrof tabiiy muhitni va aholini shovqin va zararli tovushiar ta'siridan muhofaza qilish (29–32-moddalar) kabi qoidalarni ko'zda tutuvchi normalar belgilangan.

Qozog'iston Respublikasi Ekologiya kodeksi 9 bo'lim, 47 bob va 326-moddadan tashkil topgan. U o'zida "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza to'g'risida", "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlarni jamlagan. Ta'kidlash joizki, kodifikatsiyalash uchun hujjatlarni tanlashda alohida izchillik, ketma-ketlik kuzatilmaydi. Xususan, Qozog'iston Ekologiya kodeksida kodifikatsiyalanmagan "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonun hali ham amal qilmoqda Shunga ko'ra, Ekologiya kodeksining qabul qiliishi Qozog'istonning amaldagi ekologik qonunchiligi hajmini salmoqli qisqartirmadi. Boshqacha aytganda, hozirda Qozog'iston Respublikasida Ekologiya kodeksi bilan bir qatorda Yer, Suv va O'rmon kodekslari hamda bir qator qonunlar amal qilmoqda.

Ekologiya kodeksida unda va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi boshqa qonunlar bilan qarama-qarshilik kelib chiqqan taqdirda EK qoidalari qo'llanilishi mustahkamlangan (2-modda uchinchi qismi). QR EK kodifikatsiyaning umumiy kamchiliklariga qaramay, ko'p jihatdan ekologik qonunchilikni yangiladi: ekologik qonunchilikni huquqiy tushunish uchun zamin hozirladi, ekologik qonunchilikni ushbu munosabatlarni tartibga solishning Yevropa va xalqaro andozalariga mosiashtirdi, qonunchilik texnikasini o'zgartirdi, bir qator yangi huquqiy tushunchalar va zamoraviy huquqiy institutlarni joriy etdi¹³³.

Estoniyaning Ekologiya kodeksi 2011-yil 16-fevralda qabul qilindi. Hozirgi kunda Ekologiya kodeksini qabul qilgan eng so'nggi davlat hisoblanadi. U 6 bob, 63 paragrafdan iborat. Unda ekologik prinsiplar, foydalanuvchining va davlatning ekologik majburiyatlari, ekologik javobgarlik, ekologik huquqlar, o'zganing yer yoki suv uchastkasiga kirish huquqi, ekologik tartib-qoidalalar kabi masalalar qamrab olingan.

¹³³ Игнатьева И.А. Опыт кодификации экологического законодательства в государствах – участниках СНГ // Земельное право. – Москва, 2007. – №3. – С. 35.

Demak, xorijiy mamlakatlarda ekologik munosabatiarni tarübgä solishga qaratilgan yaxlit qonunlar qabul qilish amaliyoti, shuningdek ekologiya sohasidagi qonun hujjatlarini tizimlashtirishning asosiy shakli sifatida kodifikatsiyalash tendensiyasi kuzatilmoqda. Xorijiy mamlakatlarda ekologik qonunchilik bevosita atrof-muhit holatidagi o'zgarishlar bilan chambarchas holda rivojlangan.

Nazorat uchun savollar

1. Fuqarolarning ekologik huquq va majburiyatlarining eng yuqori -- konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi muhim huquqiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, davlat va fuqarolar zimmasiga tegishli majburiyat yuklaydi.

Xorijiy mamlakatlarda fuqarolarning ekologik huquq va majburiyatlarining konstitutsiyaviy asoslari haqida so'zlab bering. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ekologik normalari bilan qiyosiy-huquqiy taqqoslang.

2. Hozirgi vaqtda milliy va xorijiy ekolog-huquqshunos olimlar o'rtaida ekologik qonunchilikni kodifikatsiyalash masalasida ko'plab bahs va manozaralar kelib chiqmoqda.

Ekologik qonunchilikni kodifikatsiyolashning ijobiy va salbiy jihatlariga baho bering. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan qiyosiy-huquqiy taqqosiang.

3. 2013-yil 11-aprelda Moskva shahrida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan Rossiya Federatsiyasi Tabiiy resurslar va ekoliya vazirligi o'rtaida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlik to'g'risida Bitim imzolandi. Bitimda tomonlar ikki davlat manfaatlari yo'lida o'z davlatlari qonunchiligi hamda mazkur Bitimga muvofiq, global va mintaqaviy atrof-muhit muammolarini bирgalikda hal qilish maqsadida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlikni aynalga oshirilishi belgilandi.

Ushbu masalada O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining vakolatlari qanday? O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish

davlat qo'mitasi mazkur bitimni ijro etish doirasida qanday xatti-harakatlarni amalga oshirishi lozim?

4. O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi o'rtasida Orol bo'yida chegara hududida o'zaro hamkorlikda Orol dengizining qurigan qismidan ko'tarilayotgan tuz bo'ronlariga qarshi kurashish bo'yicha ikki tomonlama bitim imzolandi. Ushbu bitim asosida mamlakatlar tomonidan bir qator moddiy-tashkiliy va texnik ahamiyatdagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgani bois bitimda davlatlarda ushbu masala bo'yicha maxsus vakolatli organ belgilanishi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikusida ekologiya sohasidagi ikki tomonlama bitimlarni imzolash tartibi qanday? Bu horadagi davlatlarning vakolatli organlariga qaysi organlar kiradi? O'zbekiston Respublikasining ekologiya sohasidagi hamkorligi haqida so'zlab bering.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

Rahbariy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – B112–113.
2. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – B 429.
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. –B 686.
4. Karimov I.A. Quyosh energiyasi – kelajak energiyasi. Osiyo quyosh energiyasi forumining oltinchi yig'ilishidagi nutqi // Xalq so'zi. – 2013. –25-noyabr.
5. Karimov I.A. "Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi // Xalq so'zi. –2014. 30-oktabr.
- 6.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII syezdidagi ma'ruzasi. Demokratik islohotlarni izhil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir. // Xalq so'zi. – 2016 – 2-noyabr
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. – 2017. – 13- iyul
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlat Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi // Xalq so'zi. – 2017. – 20-sentabr.

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. –1998. – №5–6. –82-

modda; – 2003. – №9–10. – 149-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami – 2004. – 25. – 287-modda, – №51. – 514-modda; – 2007. – №52. – 533-modda; – 2009. – №3. – 9-modda; – №52. – 555-modda; – 2011. – №1, 2. – 1-modda; – 2014. – №4. – 45-modda; – №36. – 452-modda; – 2015. – №33. – 439-modda; – 2017 – №37. – 978-modda.

3. O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni. //O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. – 1993. – №5. – 221-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnojasi. – 1997. – №4,5. – 126-modda; – 1998. – №9. 181-modda; – 2000. – №7,8. – 217-modda; – 2001. – №1,2. – 23-modda; – 2004. – № 1,2. – 18-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2007. – №50,51 – 512-modda; – 2009. – № 52. – 555-modda; – 2011. – № 1,2. – 1-modda; – №36. – 365-modda; – 2013. – №18. – 233-modda; – 2014. – №36 – 452-modda, – 2016. – №52. – 597-modda; – 2017. – №37. – 978-modda.

2. O'zbekiston Respublikasining "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2016. – №38. – 440-modda; – 2017. – № 37. – 978-modda.

3. O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2016. – №38. – 439-inodda; – 2017. – №37. – 978-modda

4. O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududiar to'g'risida"gi Qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2005. – №1. – 1-modda; – 2014. – №36. – 452-modda; – 2017. – № 37. – 978-modda.

5. O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi – 1997 – №2. – 52-modda; – 2003. – №9,10. – 149-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2006. – №41. – 405-modda; – 2013. – №18. – 233-modda; – 2017. – №37. – 978-modda.

6. O'zbekiston Respublikasiring "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2013 – №52. – 688-modda. – 2017. – №37. – 978-modda.

7. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 2000. – №5,6. – 144-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2011. – №1,2. – 1-modda; – 2017. – №37. – 978-modda.

8. O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonuni. //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 2002. – №4,5. – 72-modda; – 2003. – №5. – 67-modda; – №9,10. – 149-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2007. – №50,51. – 512-modda; – 2011. – №1,2. – 1-modda; – №36. – 365-modda; – 2017. – №37. – 978-modda.

9. O'zbekiston Respublikasining "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi Qonuni. (yangi tahriri). // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 2003. – №1 – 5-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2007 y., – №50-51 – 512-modda. 2011. – №1-2. – 1-modda. – №36. – 365-modda; №51. – 541-modda; – 2013. – №18. – 233-modda; – 2016 y. – №17. – 173-modda; – 2017. – №37. – 978-modda.

10. O'zbekiston Respublikasining "Radiatsiyaviy xavfiszlik to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 2000. – №7,8. – 212-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2007. – №50,51. – 512-modda; – 2011. – №15. – 148-modda; – 2013. – №18. – 233-modda; – 2017. – №37 – 978-modda.

11. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 1-son, 38-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1995. – №6. – 118-modda; – 1997. – №4,5. – 126-modda; – 1999. – №1. – 20-modda; – 2000. – №5,6. – 153-modda; – 2000. – №7,8. – 217-modda; – 2002. – №9. – 165-modda; – 2003. – №9,10. – 149-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plamu. – 2004. – №25. – 287-modda; – №51. – 514-modda; – 2006. – №41. – 405-modda; – 2011. – №1,2. – 1-modda; – №36. – 365-modda; – 2013. – №18 – 233-modda; – 2014. – №36. – 452-modda; – 2017. – №24. – 487-modda; – №37. – 978-modda.

12. O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida"gi Qonuni. //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1999. –

№25. – 122-modda; – 2000. – №5,6. – 153-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami – 2006. – №41. – 405-modda; – 2009 – №52. – 553-modda; – 2011. – №1,2. – 1-modda; – 2013. – №18. – 233-modda; – 2017. – №37. – 978-modda.

Asosiy adabiyotlar

1. Алиханов Б.Б., Скрипников Н.К., Умаров Д.М и др. Развитие и совершенствование экологического законодательства Республики Узбекистан. Монография. – Т.: ООО PRINT-X, 2013.– С.287.

2. O‘zbekiston Respublikasida arof-muhit holati va tabiiy resurslardan foydalansh to‘g‘risidagi Milliy mafzuza // O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi. – Toshkent: Chinor ENK, 2013. –B.258.

3. Xolmo’mirov J.T., Safarov J.I. Xorijiy mamlakatlarda tabiiy resurslar huquqi qiyosiy tahlil va qonunchilikni takomillashtirish: Monografiya. – Toshkent: TDYU, 2012. – B.78.

4. Xolmo’mirov J.T. Ekelogik tahdidlarning oldini olish va xavfsizlikni ta’minlashda ekologik-huquqiy ta’limi-tarbiya Monografiya. – Toshkent: TDYU, 2015.–B.326.

5. Xolmo’mirov J.T., Shodimetov Yu.Sh. Ekologik huquq// Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. – T.: “Chinor-ENK, Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2015. –B.512.

6. Xolmo’mirov J.T. Ekologik tahdidlarning oldini olish va ularni bartaraf etish huquqiy muammolarining ilmiy-nazariy tahlili. Monografiya. – Toshkent: TDYU, 2016.–B.344.

7. Xolmo’mirov J.T. O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi va boshqa ekologik muammolar, muqobil energiya manbalari bo‘yicha ma’lumotlari//Fermerlar uchun qo’llanma. - Т., 2016. – B.92.

8. Xolmo’mirov J.T., Nazruilayev O.X. Muqobil energiya manbalarini huquqiy tartibga solish /Risola. -Т.: ГДЮУ, 2016. –B.86.

9. Холмуринов Ж.Т., Ёрматова Д.Экология и охрана природы. Учебник предназначен для студентов гуманитарных, экономических и юридических специальностей высших учебных заведений. –Т., Фан за технология, 2017.- – С.220.

Xorijiy adabiyotlar:

1. Pierre-Marie Dupuy, Jorge E. Viñuales. International Environmental Law. Cambridge University Press; Reprint edition. 2015 – P.515.
2. Elizabeth Fisher, Bettina Lange, Eleise Scotford. Environmental Law Text, Cases, and Materials. OUP Oxford, 2013. – P.1160
3. Sandermann H. Forest decline and Ozone. – Germany: Springer, 1997. – 400 p.
4. Michaelis W. Air pollution. – Germany: Springer, 1997. -178 p.
Brussard L. Cerrato R. F. Soil ecology in sustainable agricultural systems. – S. I. : USA, 1997. – 168 p
5. M. Janicke, H. Weidner. National environmental policies/ United Nations University. – Germany 1997. – 320 p.
6. Jan H. J. European Environmental Law. – London: 2002.
7. Dunyer k. The Environmental Code/Swedish Environmental Protection Agency. 8 June 2004.

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

EKOLOGIYA HUQUQI

(DARSLIK)

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tononidan
"Yurisprudensiya" yo'naliishi bo'yicha ta'lim oladigan talabalarga darslik sifatida
tavsiya etilgan.

Muharrirlar: S.Tosheva, K.Abduvaliyeva, X.Yuldasheva

Musahhih: N.Niyazova, R.Yunusova

Texnik muharrir: A.Yuldashev

Kompyuterda sahifalovchi: M.Talipova

Bosishga ruxsat etildi: 17.02.2018. Bichimi 60x84 1/16

Ofset qog'ozini. Risograf usulda. Times garniturası.

Bosma h.t. 23,25. Nash. h.t. 19,2 Adadi: 100 ta Buyurtma. № 376

«IMPRESS MEDIA» МЧЖ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri, Qushbegi ko'chasi, 6 uy.